

2025-yil, 15-dekabr 21(67)-son



ISSN 2021-9752


# Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

# 8

**DEKABR –  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
KONSTITUTSIYASI  
KUNI!**





**DOLZARB MAVZU**

**Vahob RAHMONOV,**  
 O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi,  
 "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi

## **BOBUR STATUSI (SHOHMI, SHAHANSHOHMI, XOQONMI?)**

**Zahiriddin Muhammad Bobur ulug' imperatorlar: Yuliy Sezar, makedoniyalik Iskandar (Aleksandr), Chingizxon, Amir Temur, Napoleon Bonapartlar safida alohida o'ziga xos o'ringa ega. Chunki ularning aksariyatidan farqli ravishda Zahiriddin Muhammad Bobur mumtoz shoir, mislsiz aruzshunos olim, fiqh ilmi donishmandi hamdir. Boburga faqat Yuliy Sezar va Napoleon Bonapartgina qalam sohiblari bo'lganliklari uchun yaqin kela oladilar, xolos.**

Jahon olimlari – sharqshunoslari qomusiy bilimli Boburni tilga olganlarida "Imperator Bobur" deyishadi.

Ingliz olimi Uilyam Rashbruk Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan kitobini "XVI asr imperiya bunyodkori" deb bejiz atamagan. Bu kitobning o'zbek tilidagi tarjimai "O'n oltinchi asr bunyodkori" tarzida xato e'lon qilingan. O'n oltinchi asr bunyodkori Allohgina bo'la oladi. Bobur o'n oltinchi asrda yangi imperiya bunyod etdi. Uilyam Rashbruk shu tushunchani o'z kitobiga nom qilib olgan.

Biz, o'zbeklarda hukmdorga nisbatan bittagina "shoh" so'zini qo'llash rusumga kirgan xolos. O'zbekdan "Bobur kim?" deb so'rasak "shoh va shoir" deb javob beradi. Chet ellik olimga bu savolni bersakchi, u "Bobur imperator" deydi. Chindan ham Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistondagi ulkan mamlakat hukmdori – imperatori edi. Buni sharqona istilohda ifodalaydigan bo'lsak "Shahanshoh Bobur" bo'ladi.

O'zbekiston ziyolilari, adabiyotchi va tarixchilarining Bobur statusi – amal darajasini chet el olimlaricha ifodalay olmaganliklari juda qiziq. Men ham shu guruhga mansubman. Biz urf bandalarimiz. Hayotiy haqiqatni, ilm haqiqatini zukkolarcha tekshirishga yo yaramaymiz, yo erinamiz. Bu holat bizning tadqiqiy tushunchamizning torligi yoki oz rivojlangani bilan izohlanarmikan... Bilmadim, balki bu befarqlik yoki loqaydlik kasridir.

Bobur statusi (amali darajasining haqiqiy nomi) ni men ham Bobur devoni matnshunosligi bilan shug'ullanayotganimda tasodifan bilib qoldim: 1996-yilda Milliy universitetimizning olimi Hasanxo'ja Muhammadxo'ja o'g'li "Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur" ("Sharq" nashriyoti) kitobini nashr ettirdi. Undagi Boburning amakivachchasi Sulton Uvays binni Mahmudga bag'ishlangan g'azalni Shafiqa Yorqin 1983-yilda Kobulda nashr ettirgan Bobur devoniga qiyosladim. Kirill yozuvidagi ushbu birgina g'azalda o'ndan ortiq nuqson ko'zga tashlandi. Bizga oxirgi bayt kerak edi: Muhammadxo'ja o'g'li Hasanxo'janing arab yozuvidan ko'chirgani:

Yodi shahdur agarchi Bobur, lek  
 Shoh Sulton Uvays ban Mahmud.

Endi Shafiqa xonim nusxasidan hijjalab ko'chiramiz:

Podshahdur agarchi Bobur, lek  
 Shoh Sulton Uvays binni Mahmud.

(Zahiriddin Muhammad Bobur. "G'aribing andijoniydur", Toshkent, "Sharq" nashriyoti, 2008, 34-bet)

"Bin"(o'g'li) va "ban"(men), yodi shahdur-podshahdur so'zlaridagi jiddiy farqlar ilm ahliga ayondir.

Meni qiziqtirgan holat: nega Bobur o'zini podshoh demoqda-yu, Sulton Uvaysni shoh deyapti?

Gap shundaki, Navoiylar zamonida hukmdorlik statusida kichik davlat hukmdori shoh deyilgan. Badaxshon – kichik yurt. Uning hukmdori Sulton Uvays – shoh. Shoh mamlakati ba'zan mustaqil davlat, ba'zan tobe', biror katta davlat tarkibida bo'lishi mumkin. Chunki bu vaqtda Sulton Uvays boshqarayotgan Badaxshon Bobur hukumatiga qarashli edi.

Bobur "Boburnoma"da markazi Kobul bo'lgan o'z davlatiga qarashli shaharlarni birma-bir aniq sanab ko'rsatgan:

"Boburnoma"dan ko'chiramiz:

"Manga taalluq viloyot: Badaxshon va Qunduz va Kobul va Qandahor edi" (Boburnoma" 2024, 302-bet).

"Pod" so'zi "katta, yirik" demakdir. Podshoh – katta shohdir. Shuning uchun kichik mamlakat hukmdori Sulton Uvays – shoh, yirik mamlakat hukmdori Bobur – podshoh bo'ladi.

"Boburnoma"da Boburning taxtga chiqish voqeasi bayonida ham Bobur o'zini podshoh deydi: "Bismillohir Rahmonir Rohiym. Tengri taoloning inoyati bilan va hazrati on Sarvari koinotning shifoati bilan va chahoryori bosafolarning himmati birlan seshanba kuni, ramazon oyining beshida, tarix sekkiz yuz to'qson to'qquzda Farg'ona viloyatida o'n ikki yoshda podshoh bo'ldim." ("Boburnoma" 2024, 10-bet)

Nega Bobur birdan podshoh bo'ldi? Chunki Farg'ona viloyatiga o'sha paytda Xo'jand, Konibodom, O'ratepa, Isfaradan boshlab Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan, Axi, Toshkentgacha bo'lgan katta hudud qarar edi.

Bobur Kobulni olgach, G'azni, Qandahor, Badaxshonni egallagach, (1508-yilda) meni Bobur podshoh denglar, deydi.

1526-yilgacha besh marotaba Hindistonga yurish qilib, 1526-yili Panipat yonidagi tarixiy jangda g'olib bo'ldi va Hindistondagi "vase'" (o'ta katta – keng) mamlakat hukmdoriga aylandi.

Bobur endi shahanshoh bo'ldi, Hindistonda imperiya bunyod etib imperator bo'ldi.

Biz Boburni shoh desak, xuddi bir tuman yoki viloyat hokimi deganday Bobur statusini kamsitgan bo'lamiz. Bu xuddi generalni serjant deganday bir gap.

Shoh tushunchasi siyosiy hukmdor sifatida qadimdan ma'lum. Bunga o'zbek xalq og'zaki ijodining monumental namunasi "Alpomish" dostonidan misol keltiramiz.

"Bu so'zni Boybo'riy Hakimbekdan eshitib, fikr qilib: "Men o'n olti urug' Qo'ng'iro't elining ham boyi bo'lsam, ham shoyi(shohi) bo'lsam, men kimga zakot beraman." (O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. Birinchi jild, "Alpomish" dostoni. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2015, 44-bet) Boysun Qo'ng'iro't elining hukmdori – Boybo'rini el "shoy" (shoh) deydi. Uning ma'muriy hududi hozirgi tuman(rayon)ga to'g'ri keladi. Demak "shoy"(shoh) tushunchasi hozirgi tuman hokimi statusini ifodalaydi. Bobur bir tuman hokimi emas edi. Uni Hindistondagi ulkan mamlakat hukmdori sifatida shahanshoh nomi bilan atamog'imiz lozim. Shahanshoh – shohlarning shohidir.

Ushbu fikr ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgach, muhtaram ustoz, tarix fanlari doktori, professor Abdumajid Madraimov quyidagicha mag'izli bir mulohazani bildirdi:

"Zahiriddin Muhammad Bobur o'ta kamtar inson bo'lganlar. Panipat jangidan keyin zarb etilgan tangalarda "As-Sulton ul a'zam va xoqon ul-mukarram Zahiriddin Muhammad Bobur" degan yozuv bor. Ammo buni o'z asari "Vaqoe'"("Boburnoma") va Shayx Zayn tuzgan "Fathnoma"da qayd ettirmagan. Bobur mirzoning buyuk saltanat hukmdori sifatida ulug' sulton va muhtaram xoqon deb rasmiy atalishi menimcha to'g'ri bo'ladi. Shohanshoh atamasi "Shohnoma" ta'sirida faqat Eronga xos degan noto'g'ri tushuncha ham mavjud."

Darhaqiqat, ustoz yozganlaridek, xon va xoqon tushunchalari qanchalik moziy o'tmishga daxldor bo'lmasin (turk xoqonligi, Bilga xoqon kabi) turkiycha,

o'zimizga yaqin tushunchalardir. Buni biz Alisher Navoiyning butun ijodi bo'ylab, ayniqsa "Farhod va Shirin" dostoni orqali bilamiz.

XIII – XVI asrlargacha (bunga Abusaid Mirzo chek qo'ygan) xon tushunchasi shahanshoh va imperator ma'nosida qo'llanilgani uchun Alisher Navoiy Sohibqiron Amir Temurni xon deb atagan:

Temurxon naslidin Sulton Ulug'bek,  
Ki, olam ko'rmadi sulton aningdek.

Holbuki, temuriyzoda Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da Amir Temurni faqat "Temurbek" deb yozadi:

"Sulton Husayn mirzodek Temurbek o'rnig'a o'lturg'on uluq podshoh yig'noq qilib, atrof va javonibdin o'g'lonlarni va beklarini tilatib, Shayboniixondek g'animning ustig'a ozim bo'lg'onda, el oyoq bila borg'onda, biz bosh bila borg'oybiz. El tayoq bila borg'onda, biz tosh bila borg'oybiz". ("Boburnoma" 2024, 177-bet)

"Xon, xoqon yoki shahanshoh" atamalaridan qaysi birini qabul qilish olimlarning ishi emas, bu xalqning ishi, elning inon-ixtiyoriga bog'liq. Olim taklif beradi, xolos. Bizda Boburni shoh deyish urf bo'lgani uchun kamina "shahanshoh" so'zini taklif qildim.

Abdumajid Madraimov taklif qilganidek "Zahiriddin Muhammad Bobur ulug' sulton va muhtaram xoqon" istilohini olimlar kitobda yozsa balki joiz bo'lar. Biz Bobur amalini birgina so'zda ifodalasak ma'qul bo'ladi.

O'zbek tiliga davlat maqomi berilgan yili ruscha so'zlar bayroqdorlari shoshib qolishdi. Hatto o'rta maktablar o'zbek tili darsligining 40 yillik muallifi Yo'ldosh Abdullayev "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida "Ministr" so'zini saqlab qolaylik" deb maqola yozdi. Biz bitta bo'limda ishlaganimiz uchun u gazetani ko'tarib kelib, stolimga qo'ydi va mendan olqish kutdi. Men esa uning hafsalasini pir qildim:

"Yo'ldosh aka. Davlat o'zbek tiliga davlat tili maqomini bermog'da. Ya'ni kostyumini yechib oq yaxtak, pal'tosini yechib to'n, tuflisini olib etik, shapkasini o'rniga do'ppi kiygizmoqchi. Beliga belbog' bog'lamoqchi. Siz to'nli, belbog'li o'zbekning boshiga shlyapa qo'ndirayapsiz. Ustoz, taklif qilish – siz-u bizdan, qabul qilish-qilmaslik esa elning ishi."

Oradan yillar o'tdi. Xalqimiz "vazir"ni tanladi.

Shayboniixoniga yaqin o'zbeklarimiz "Shayboniixon" xalq dostonini yaratgan, unda Zahiriddin Muhammad Boburni Boburxon deyishgan.

Bizningcha poytaxti Agra bo'lgan Hindistondagi ulkan mamlakatning hukmdori Zahiriddin Muhammad Bobur shohlarning shohi – shahanshoh edi. El nima deydi – shohmi, shahanshohmi, xoqonmi – buni endi o'zi tanlaydi.

**Zuxro AKBAROVA,**  
*Farg'ona davlat universiteti*  
*Tilshunoslik kafedrası professorı*

## INSON TAFAKKURINING TIL VA KOGNITIV MODELLASHTIRISH JARAYONLARIDAGI ISHTIROKI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada inson tafakkuri va til o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kognitiv lingvistika, psixolingvistika hamda kognitiv modellashtirish nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Inson tafakkurining tilni o'zlashtirish, ma'no yaratish, konseptual tizimni shakllantirish va semantik modellashtirishdagi roli izohlanadi.

**Kalit so'zlar:** *til, tafakkur, kognitiv lingvistika, konsept, konseptual maydon, subkonsept, psixolingvistika, idrok, semantika, kognitiv modellashtirish, sun'iy intellekt, semantik tarmoqlar, mental model, konseptualizatsiya.*

**Аннотация:** в данной статье анализируется взаимосвязь между человеческим мышлением и языком с точки зрения когнитивной лингвистики, психолингвистики и когнитивного моделирования. Объясняется роль человеческого мышления в освоении языка, создании смысла, формировании концептуальной системы и семантическом моделировании.

**Ключевые слова:** *язык, мышление, когнитивная лингвистика, концепт, концептуальное поле, субконцепт, психолингвистика, восприятие, семантика, когнитивное моделирование, искусственный интеллект, семантические сети, ментальная модель, концептуализация.*

**Annotation:** this article analyzes the interrelation between human cognition and language from the perspectives of cognitive linguistics, psycholinguistics, and cognitive modeling. It explains the role of human cognition in language acquisition, meaning construction, the formation of the conceptual system, and semantic modeling.

**Key words:** *language, cognition, cognitive linguistics, concept, conceptual domain, subconcept, psycholinguistics, perception, semantics, cognitive modeling, artificial intelligence, semantic networks, mental model, conceptualization.*

**Kirish.** Inson tafakkuri va tili — ong faoliyatining ikki asosiy qirrasidir. Tafakkur orqali inson tashqi olamni anglaydi, undagi hodisalarni tahlil qiladi, xulosa chiqaradi va ularni til orqali ifoda etadi. Til esa tafakkurning tashqi ko'rinishi, fikrning moddiy shakli sifatida namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda kognitiv lingvistika va sun'iy intellekt sohalarida tafakkurning til bilan bog'liq kognitiv jarayonlarini modellashtirish muhim ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. Shu nuqtayi nazardan inson tafakkurining tilni o'zlashtirish va kognitiv modellashtirish jarayonidagi ishtiroki keng qamrovli ilmiy masala hisoblanadi. Tilni o'zlashtirishda tafakkurning ishtiroki va tilni o'rganish faqatgina grammatik va fonetik bilimlarni egallash emas, balki fikrni anglash va ma'no yaratish jarayoni hamdir. Bu jarayonda inson tafakkuri quyidagi kognitiv bosqichlarni bosib o'tadi:

**Idrok bosqichi** — inson til belgilarini (ovoz, yozuv, ifoda) sezadi va ularni ma'noli signal sifatida qabul qiladi;

**Xotira bosqichi** — til birliklari va ularning ma'nolari miyada saqlanadi;

**Mantiqiy tahlil bosqichi** — tafakkur so'zlar o'rtasidagi ma'noviy va mantiqiy bog'lanishlarni o'rnatadi;

**Ijodiy bosqich** — inson til orqali yangi fikr, ibora yoki ma'no yaratadi.

**Metodologiya.** Kognitiv modellashtirish — inson ongidagi fikrlash jarayonlarini kompyuter yordamida qayta yaratishga qaratilgan ilmiy yo'nalishdir. Bu jarayonda inson tafakkuri namuna sifatida xizmat qiladi. Tafakkur voqelikni anglashning ichki mexanizmi bo'lsa, til uning tashqi ifodasidir. Psixolingvistikada bu bog'liqlik "kognitiv kodlash" va "dekodlash" jarayonlari orqali izohlanadi: inson tashqi

axborotni idrok etadi, uni ma'no jihatidan qayta ishlaydi va til orqali ifoda qiladi. Luriya (1979) va Piaje (1994) tadqiqotlarida til inson onging kognitiv funksiyasi sifatida qaraladi. Ularga ko'ra, tafakkur til orqali tashkil topadi va til fikrni shakllantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shu bois tilni o'zlashtirish jarayoni insonning kognitiv rivojlanish bosqichlari bilan uzviy bog'liqdir. Tilni o'zlashtirish — bu ko'p bosqichli kognitiv jarayon bo'lib, u idrok, eslab qolish, ma'no yaratish va ijodiy fikrlash bosqichlarini qamrab oladi. Bola yoki katta inson tilni o'rganishda tashqi signallarni (ovoz, yozuv, ishora) qabul qiladi, ularni ma'no jihatidan qayta ishlaydi va xotirada saqlaydi. Bu jarayonda inson tafakkuri markaziy rol o'ynaydi<sup>1</sup>.

J. Piaje ta'limotiga ko'ra, til kognitiv rivojlanishning natijasi hisoblanadi: inson avval voqelikni tajriba orqali anglaydi, keyin uni til orqali ifoda eta boshlaydi<sup>2</sup>. Demak, tilni o'zlashtirishda tafakkur faqat vosita emas, balki mazmun yaratuvchi kuch hamdir. Kognitiv modellashtirish inson onging ishlash mexanizmlarini ilmiy va texnologik jihatdan qayta tiklash jarayonidir. Bu usul psixologiya, lingvistika va informatika fanlarining tutash nuqtasida rivojlangan. Inson ongida til va tafakkur bir butun kognitiv tizimni tashkil etadi. Bu tizimning modelini yaratish orqali insonning anglash, mulohaza yuritish va fikrlash qobiliyatini sun'iy muhitda qayta namoyon qilish mumkin. Inson tafakkuri tilni o'zlashtirish jarayonida faol kognitiv kuch sifatida ishtirok etadi. U idrok, xotira va mantiqiy fikrlash orqali til tizimini shakllantiradi.

<sup>1</sup> Лурья А.Р. Язык и сознание. М., 1979. — 320 с.

<sup>2</sup> Piaje J. The Language and Thought of the Child. London: Routledge Classics. 2001. — 207 P.

Shuningdek, kognitiv modellashirish jarayonida tafakkur nazariy namuna va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Til va tafakkurning o'zaro bog'liqligini ilmiy asosda modellashirish inson ongini chuqurroq anglashga, sun'iy intellekt tizimlarini insonga yaqin darajada fikrlashga yaqinlashtirishga yordam beradi. Demak, inson tafakkuri — til bilimining ham, kognitiv texnologiyalarning ham markaziy manbaidir.

**Kognitiv modellashirishda quyidagi tamoyillar muhim:**

**Konsept orqali modellashirish** — Inson har bir narsa va hodisani til orqali ma'lum konsept asosida anglaydi. Masalan: "hayot", "yo'l", "bahor" kabi so'zlar

turli konseptni o'zida mujassamlashtiradi.

**Metafora va metonimiya** — Bu vositalar orqali murakkab, abstrakt tushunchalarni oddiyroq, konkret obrazlar orqali anglash mumkin. Masalan, "hayot — bu yo'l", "vatan — ona" kabi metaforalarini misol qilib keltirish mumkin.

**Stereotipik model va ramzlar** — Ijtimoiy ongda shakllangan ma'naviy, milliy va madaniy ramzlar (masalan, "qush" — erkinlik, "daraxt" — hayot) orqali dunyo modellashiriladi.

**Olamni konsept orqali modellashirish kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan yondashuv bo'lib**, bu inson ongidagi **bilim birligi**, ya'ni real yoki mavhum narsalar, hodisalar, jarayonlar haqidagi **tushuncha, tasavvur va tajribaning umumlashtirilgan shakli**. U so'zlar bilan bog'liq bo'lsa-da, faqat so'z bilan cheklanmaydi. Konsept — bu **mental birliklar**, ya'ni aql bilan idrok qilinadigan va ongda mavjud bo'lgan "model"lardir. Masalan, "ONA" konsepti so'zdan ko'ra kengroq: unda muhabbat, g'amxo'rlik, himoya, fidoyilik, madaniyatga xos stereotiplar, hatto vizual obrazlar ham mujassam bo'lishi mumkin. **Konseptual modellashirish esa** — bu til birliklari va nutq orqali ifoda etiladigan konseptning qanday **modellashirilishi**, ya'ni ongda shakllanishi, tuzilishi va til orqali uzatilishini tahlil qiluvchi yondashuvdir.

**Natijalar.** Tilni o'zlashtirishda inson tafakkurining kognitiv bosqichlari va tilni o'zlashtirish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: **idrok, xotira, mantiqiy tahlil, ijodiy fikrlash**. Bu bosqichlar tafakkurning faol kognitiv kuch sifatida mavjudligini tasdiqlaydi.

Til orqali konsept nomlanadi (nom beriladi), tavsiflanadi (xususiyatlari ifodalanadi), qarama-qarshi yoki bog'liq

konsept bilan munosabatga kirishadi, madaniyat kontekstida mazmunga ega bo'ladi. Masalan: "Erk" konsepti o'zbek tilida milliy, tarixiy va diniy konnotatsiyalar bilan boyib boradi, boshqa madaniyatlarda esa boshqa mazmun kasb etadi.

**Konseptning modellashirish shakllari ongda mental modellar** sifatida shakllanadi.

Ko'plab konsept **metaforalar orqali modellashiriladi**. Masalan:

"Vaqt — Pul" metaforasida "*Vaqtimni isrof qilmang*", "*Vaqtini tejang*" ma'nolari ifodalagan. Bu yerda abstrakt tushunchalar (vaqt, hayot) konkret konseptual modellar pul-tushunchasi orqali idrok qilinmoqda. Bu esa ongda ularni aniqroq tushunishga yordam beradi.

**Muhokama.** Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, inson tafakkuri tilni o'zlashtirishda markaziy rol o'ynaydi. Konseptual modellashirish tilning faqat grammatik tizim emas, balki inson tajribasi, idroki va madaniyatining mahsuli ekanini tasdiqlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki konseptlar milliy-madaniy xususiyatlarga ega, subkonseptlar yadro konseptni aniqlashtiradi, konseptual maydonlar fikrlash tizimining tarmoqli mexanizmini ko'rsatadi, sun'iy intellekt tizimlari inson tafakkurining ayrim xususiyatlarini modellashira olsa-da, inson miyasining to'liq ekvivalenti emas.

Ko'plab tadqiqotlarda konseptning madaniy xarakterga ega ekanligi haqida ham fikrlar bildirilgan. Masalan, "Non" konsepti o'zbek tilida muqaddaslik, halollik, totuvlik timsoli bo'lsa, boshqa tillarda oddiy oziq-ovqat mahsuloti sifatida tasavvur qilinadi. "Yuz" konsepti esa sharq madaniyatida obro', nomus, izzatni bildirsa, g'arbda u ko'proq tashqi ko'rinish bilan bog'liq. Konseptlarning bunday o'ziga xos jihatlari etnolingvistika va kross-madaniy tilshunoslik uchun o'ta muhim hisoblanadi.

**Xulosa.** Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, konseptual modellashirish kognitiv lingvistikadagi markaziy yondashuvlardan biridir. U inson tafakkuridagi tushunchalarni aniqlaydi, tilda ularning qanday modellashirilishini tushuntiradi, turli madaniy kontekstlarda konsept qanday aks etishini tahlil qiladi, tafakkur, til va madaniyat o'rtasidagi murakkab aloqalarni yoritadi. Bu yondashuv orqali tilshunoslik faqat til strukturasi emas, balki inson tafakkurining mazmuniy dunyosini ham chuqur anglash imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Luriya, A.R. (1979). *Язык и сознание*.
2. Piage, J. (2001). *The Language and Thought of the Child*.
3. Lakoff, G., Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*.
4. Fillmore, Ch. (1982). *Frame Semantics*.
5. Kubryakova, E.S. (2004). *Kognitiv lingvistika asoslari*.
6. Evans, V., Green, M. (2006). *Cognitive Linguistics: An Introduction*.
7. Apresyan, Yu.D. (1995). *Leksikografik asoslar*.
8. Langacker, R. (1987). *Foundations of Cognitive Grammar*.

Fatima ALLAMBERGENOVA,  
Qoraqalpoq davlat universiteti  
Qoraqalpoq adabiyoti kafedrası dotsenti

## MUSTAQILLIK DAVRIDA FOLKLORNING RIVOJI VA YANGILANISH JARAYONI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada mustaqillik davrida qoraqalpoq folklorining yangi bosqichda rivojlanishi, mazmuniy yangilanishlar, obrazlar tizimidagi o'zgarishlar hamda ijro uslublarining takomillashuvi, xususan, duo berish va oq fotiha olishning zamonaviy shakllari, ularning poetikasi va o'ziga xosliklari ilmiy-nazariy tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** *Qoraqalpoq folklori, mustaqillik davri, duo, oq fotiha, zamonaviy folklor, poetika, ijro uslubi, milliy madaniyat, og'zaki ijod, ijtimoiy tarmoqlar.*

**Annotation:** this article provides a scientific and theoretical analysis of the development of Karakalpak folklore at a new stage during the period of independence, content renewals, changes in the system of images and improvement of performance styles, in particular, modern forms of giving blessings and receiving blessings, their poetics and peculiarities.

**Keywords:** *Karakalpak folklore, independence period, prayer, blessing, modern folklore, poetics, performance style, national culture, oral creativity, social networks.*

**Аннотация:** в данной статье научно-теоретически анализируется развитие каракалпакского фольклора на новом этапе в период независимости, содержательные обновления, изменения в системе образов и совершенствование стилей исполнения, в частности, современные формы благословения и получения благословения, их поэтика и особенности.

**Ключевые слова:** *каракалпакский фольклор, период независимости, молитва, благословение, современный фольклор, поэтика, стиль исполнения, национальная культура, устное творчество, социальные сети.*

Mustaqillikka erishilgandan so'ng qoraqalpoq xalqining ma'naviy hayotida yuz bergan tub o'zgarishlar xalq og'zaki ijodiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Xalqimizning folklorga bo'lgan qiziqishi, uni yaratish va rivojlantirishdagi faolligi yangi davr ruhiyati bilan uyg'un tarzda sezilarli darajada ortdi. Bu jarayon jamiyatda milliy o'zlikni anglash, ma'naviy uyg'onish va qadriyatlarni qayta tiklash ehtiyoji bilan chambarchas bog'liq bo'ldi.

To'y-marakalarning erkinligi, xalq hayotida mustaqillikdan so'ng shakllangan yangi turdagi bayramlar, urf-odatlar, marosimlar, diniy e'tiqodlar, shuningdek, quda-andalik, qiz uzatish, o'g'il uylantirish, bet ochar, aytimlar, tilak va duolar, latifalar, afsona va rivoyatlar, hajviy hikoyatlar kabi janrlarning faol qo'llanilishi folklorning bugungi taraqqiyotini belgilab bermoqda. Shu bilan birga, shaxsiy yoki jamoaviy ijod asosida yaratilayotgan qo'shiqlar, marosimiy aytimlar ham folklor jarayonining yangi bosqichini namoyon

etmoqda. Bularning barchasi mustaqillik yillarida xalq og'zaki ijodining janr tizimini kengaytirib, milliy madaniyatning bebaho qatlami – folklor merosini yanada boyitdi.

Folklor xalqning tarixiy xotirasi, milliy tafakkur va estetik didining ifodasidir. Shu bois u har qanday ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar ta'sirida ham o'z mohiyatini yo'qotmaydi, aksincha, yangi davr talablari asosida mazmunan va shaklan yangilanib boradi. Qadimiy davrlardan bugungi kungacha folklor namunalari uzluksiz davom etib kelayotgani uning barqaror hayotiy kuchga egaligidan dalolat beradi. Ayrim janrlar (masalan, afsonalar, epik dostonlarning ayrim turlari) zamon o'tishi bilan sekin-asta faol hayotiy ahamiyatini yo'qotgan bo'lsa-da, boshqa ko'plab janrlar, xususan, fotiha–tilaklar, to'y aytimlari, marosim qo'shiqlari, hajviy hikoyatlar yangi davr sharoitida yangicha mazmun va shakl kasb etmoqda. Bu holat folklorning estetik xususiyatini, ya'ni u har bir davrning ijtimoiy-

madaniy muhitiga moslashuvchan tizim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Mazkur sohada dastlabki izlanishlar olib borgan olimlar - N. Davqarayev [2,136] va Q. Ayimbetovlarning [1,136] xizmatlari alohida e'tiborga loyiq. Ular qoraqalpoq og'zaki adabiy merosi haqida ilk bor tizimli ilmiy tasnif yaratganlari bilan qadrlanadi. Keyingi davrlarda qoraqalpoq xalqining og'zaki badiiy ijodini o'rganish masalalari davrlar o'tgan sayin tobora rivojlanib bormoqda [4,147]. Folklor qadimda, ya'ni yozuv hali keng tarqalmagan davrlarda shakllangan bo'lsa-da, yozma adabiyot paydo bo'lgach, xalq og'zaki ijodi yo'qoladi degan qarashlar bugun o'z ahamiyatini yo'qotdi. Aksincha, hozirgi kunda folklorning ko'plab janrlari kengayib, yangi turlari paydo bo'layotgani aniqlandi. Buni zamonaviy folklorshunoslik fani ham olimlar tomonidan tasdiqlab bermoqda [4,136]. Shu boisdan, maqolamiz mavzusi dolzarb masalalardan biri bo'lib, unda mustaqillik davridagi qoraqalpoq folklorida hali yetarli tadqiq qilinmagan "duo va tilaklar"ning janriy va badiiy xususiyatlarini aniqlashga e'tibor qaratilgan.

Mustaqillik davridagi qoraqalpoq folklori haqida fikr bildirgan olim Y. Paxratdinov shunday yozadi: "1991-yilgacha bo'lgan davrda ham folklorida, ham badiiy adabiyotda, ham adabiyotshunoslik sohasida, ham Qoraqalpog'iston sharoitida sovet mafkurasi o'z hukmronligini to'liq o'tkazib kelgan. Unga qarshi chiqishning imkoni yo'q edi. Chunki o'sha davrda partiyaviy nazorat butunlay ustunlik qilgan. Hammasini bilgan holda ham fikr bildirish o'lim bilan barobar edi. Kimki e'tiroz bildirsa, quvg'inga uchrardi. Bunday sharoitda hech kim ochiqchasiga o'sha mafkuraga qarshi bora olmas edi. Bu tabiiy jarayon edi. Yetmish yil davomida o'sha davr o'z yo'li bilan kechdi" [5,136]. Olim bu fikrlari bilan mustaqillikka qadar qoraqalpoq folklorining o'ziga xos jihatlari yetarli o'rganilmaganini, ayrim janrlarning siyosiy sabablarga ko'ra tadqiqotdan chetda qolganini ochiq ta'kidlaydi. Ana shunday yetarlicha o'rganilmagan janrlardan biri – duo va tilaklardir. Bu borada N. Dawqaraev o'zining "Qoraqalpaq ádebiyati tariyxini o'cherkleri" (Nukus, 1977) nomli asarida lirika janrlarini quyidagicha tasniflaydi:

1. Qo'shiqlar.
2. Salt adabiyoti.
3. Maqollar (atalar so'zi). (156-betda)

Mazkur asarda olimning "Atalar so'zi" bo'limida nasihatlar va tilaklar ham kiritilganini biz tadqiqotimizga

asos sifatida oldik. Unda quyidagicha fikr bayon etiladi: "Xalq og'zaki ijodining bu turiga qoraqalpoq xalqining ko'p asrlik hayot tajribasidan, turmush va mehnat jarayonidagi kurashlardan kelib chiqqan hamda asrlar davomida avloddan avlodga meros bo'lib o'tgan asarlar kiradi. Ushbu turdagi janr tarkibiga maqollar, naql va nasihatlar, tilaklar, tulg'ovlar kiradi." [2,136]. Ushbu ilmiy manbalarni hisobga olgan holda nazariy qarashlardan tadqiq qilmoqchimiz.

Umuman, tadqiqotchilar qoraqalpoq folklorida duo va tilaklar janri bir necha bo'limlarga ajratilib o'rganilishi zarur bo'lgan janrlardan biridir [3,117], – deya ta'kidlaydi.

Turkiy tillarda qadim zamonlardan beri yaxshilik va yomonlik timsollari mavjud bo'lib, ular folklorida ham o'z aksini topgan. Xuddi shunday tarzda, duo va tilaklar ham mazmuniga ko'ra ikki asosiy turga bo'linadi:

1. **Olqish va duolar** (aq pátiya "alg'is") - ezgulik, duogo'ylik, baraka tilash mazmunidagi so'zlar;
2. **Qarg'ishlar** (teris pátiya "gar'is") - yomonlik, la'nat mazmunidagi ifodalar.

Olqish va qarg'ish o'rtasidagi farq juda katta. Hayot tajribasiga ega keksa avlod vakillari ham, yoshlar ham ushbu janrning bu ikki turini keng qo'llab kelganlar. Kimdir bizga chin dildan yordam berib, dard-u tashvishimizni yengillatsa, biz o'sha insonga minnatdorchilik bildirgan holda "Baraka topsin", "Xudo siylasin" kabi so'zlar bilan duo qilamiz. Bunday so'zlar, odatda, xalq orasida oddiy so'z bilan ifodalanadigan samimiy duo yoki rahmat shaklidir.

Duo va tilaklarning ham bir necha turlari mavjud. Shuningdek, duo-tilaklar mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- to'y marosimlariga bag'ishlangan tilaklar;
- yo'lga chiqqanlarga aytiladigan yo'l tilaklari;
- ko'chish-qo'nish marosimlarida bildiriladigan tilaklar;
- yangi uy egalari uchun aytiladigan tilaklar;
- yosh juftliklarga bildiriladigan tilaklar;
- ota-onalarga, yosh kelinlarga, shuningdek, boshqa turli vaziyatlarda aytiladigan ko'plab tilaklar.

To'y tilagi – xalq orasida eng qadimiy va eng boy mazmunli tilak turlaridan biri bo'lib, u insonlar hayotidagi eng quvonchli lahzalar, yangi bosqichlar bilan chambarchas bog'liq. To'y tilaklarida ezgulik, baxt, farovonlik, mehr va totuvlik tilash g'oyasi markazda turadi.

Awelgi sóz haqтан bolsín,  
Haq tilegi naqтан bolín,  
Tilegińizdi Alla qollasín,  
Qolıńız jan-jaqтан bolsín,  
Ishkenińız shubat bolsín  
Jegenińız nabat bolsín,

#### Uzatılğan qızga tilak.

Barǵan jerinde taxtıń bolsín,  
Aldırnan ay tuwsín,  
Arqańnan kún tuwsín,  
Jamanǵa qatıw bol,  
Jaqsı menen tatıw bol,  
Qolıń ashıq bolsín,

Qos toyıńız qabat bolsín,  
Eki dúnyańız abat bolsín  
Qosılıp atırǵan eki jas  
Baxıtlı ómir keshirgey,  
Xızmetleri eki jaqqa teń bolǵay  
Balalarıń baxtıń kórgey,  
Áwmiyn. [10., ].

Dushpanıń qashıq bolsín,  
Júziń jarqın bolsín,  
Tutqanıń altın bolsín,  
Altın basıń saw bolsín,  
Alla tilegińdi bersin,  
Baxıtlı bolıńlar,  
Áwmiyn. [10., ].

Keltirilgan bu tilakning mazmuni – turmush qurayotgan ikki yoshga qishloq oqsoqollari tomonidan aytiladigan ezgu niyatlar, duolar va nasihat so'zlari bilan uyg'unlashgan xalqona ifodadir. Eski davrlarda esa qiz uzatilayotganda u o'z uyidan chiqib ketish chog'ida "hajjar" va "sing'siw" (xayrlashuv) qo'shiqlarini aytgan. Mashhur folklorshunos Q. Ayimbetov bu holatni quyidagi misolda keltiradi:

#### Jılama, úkem jılama

Toy seniki yar-yar.  
Toqsan baslı aq orda,  
Úy seniki yar-yar... [1,136 ].

Hozirgi kunda esa qoraqalpoq to'ylarida "Hawjar" qo'shig'i odatda, taniqli ayol qo'shiqchilar tomonidan ijro etiladi va u an'anaviy, qat'iy shaklga ega. Shu jarayonda "Hawjar" kuylab bo'lingach, to'y egalari dan biri odatda, hurmatli, yoshi ulug' inson yuqoridagi kabi ikki yoshga duo beradi, uzatilayotgan kelinga esa samimiy nasihat so'zlari bildiradi.

Shu tariqa, zamonaviy qoraqalpoq duo va tilaklarining janriy tarkibi va mavzuiy doirasi qadimiy an'analarning mantiqiy davomchisi sifatida xalq hayoti va marosim madaniyatida o'z o'rnini saqlab qolmoqda.

#### 1. Tushov kesar duo-tilaklari.

Niyetińız aq bolǵay,  
Basıńızǵa baq qonǵay,  
Táńiri bergen nesiyebeń,  
Nesiye emes, naq bolǵay,  
Taylarıń ósip at bolǵay,  
Tallarıń ósip baǵ bolǵay,

Pirlerden bolıp sharapat,  
Kewiliń mudam shad bolǵay,  
Pátiya alǵan balamızdıń,  
Otırǵan jeri taxt bolǵay,  
Áwmiyn, Allahıw ákbar!  
Allahıw ákbar! [9., ].

#### 2. Uyga mehmon kelganda aytiladigan tilak:

Qàdemińız jetti bàle-qada kelmesin. Tınıshlıq, amanlıq inam etsin. Alla taala kóp bersin, kem qılmasın. Dasturqanǵa qut-bereket bersin.

#### 3. Dasturxon atrofida aytiladigan duolar:

Ilaya áwmiyn, dásturqanǵa qut-bereket bersin, dáwletińız tassın. Jelingén-ishilgen, tógilgen-shashılǵanlardıń esesi alladan qaytsın. Usı dárgayda jasap qaytı bolǵan bàrshe úmit etkenlerdiń ruwxına tiye bersin.

Ishken-jegenlerimiz ishimizge dúr bolıp, nur bolıp kirsın. Tógilgenlerdiń ornı tolsın, elimiz tınıshlıq bolsın.

**4. Farzand uchun tilak:** Ilayim, balam ómirinen bereket tapsın, deni saw, waqtı xosh, iǵbalı biyik, baxtı pútın, joli aydın bolsın. Qol-kózleri dárt kórmesin Allataalam baxtıń bersin.

**5. Farzandni o'qishga yoki ishga kuzatganda aytiladigan duolar:** Balamdı Allaǵa amanat tapsırdım. Ilayim jolları biyqáter bolsın, balam aman-

esen xizmetine barip, jumisin pitkerip kelsin. Jumisina awmet, rawaj bersin. Talabi oninan kelip, Alla taala yar bolip, jaman kózlerden ózi saqlasin! [10., ].

Ko'rib turganimizdek, hozirgi kunda turmushimizda duolarning turli ko'rinishlari, ularni qo'llashning o'ziga xos vaqtlari hamda joylari mavjud. Janr jihatidan e'tibor qaratsa, duolar ko'pincha nasriy shaklda yoki qofiyali so'zlar bilan taqriz tarzida aytiladi. Aksariyat hollarda maqol va naql, alliteratsiyalardan foydalanish natijasida ularning tinglovchiga ta'sirchanligi yanada ortadi.

Insonlarning kundalik hayoti o'zgarib borayotgani singari, folklorimizning zamonaviy shakllari va kompozitsiyasi ham rivojlanib, yangilanib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mustaqillik davridagi qoraqalpoq folklori janr jihatdan boyib, g'oyaviy jihatdan esa zamon ruhini o'zida mahorat bilan aks ettirmoqda. Shular orasida duo va tilaklar xalq orasida eng keng tarqalgan janrlardan biridir. Ular

qo'shni xalqlar o'zbek, qozoq, turkman va boshqalar hayotida ham har kuni faol qo'llanib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Mustaqillik davrida qoraqalpoq folklorida yangi mazmuniy elementlar paydo bo'lib, obrazlar tizimi sezilarli darajada yangilandi, ijro uslublari esa takomillashdi. Xususan, folklor namunalariining musiqiy yo'nalishlarda ijro etilishi, shuningdek, internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng targ'ib qilinishi zamonaviy folklor jarayonining asosiy xususiyatlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Kelgusida ushbu yangi yo'nalishlar va shakllarni keng qamrovda o'rganish ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi, chunki folklor xalqning milliy madaniy boyligi va ma'naviy dunyosining nodir ko'zgusi hisoblanadi. Shu bois folklor jarayonlarini kompleks yondashuv asosida tahlil qilish, uning zamonaviy shakllarini chuqur o'rganish milliy madaniyatni asrab-avaylash va rivojlantirishda muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Айымбетов Қ. *Халық даналығы*. Қарақалпақстан баспасы, – Нөкис, 2020.
2. Дәуқараев Н. *Шығармаларының толық жыйнағы*. 2-том. Қарақалпақстан баспасы, – Нөкис, 1977 156–165-бетлер.
3. Жәрімбетов Қ., Нзаматдинов Ж., Алламбергенова И. *Қарақалпақ фольклоры*. Sano-standart баспасы, – Ташкент, 2018. 117-бет.
4. Мақсетов Қ. *Қарақалпақ халқының көркем ауызеки дәретпелери*. Билим баспасы, – Нөкис, 1996.
5. Пахратдинов Ю. Ғәрезсизлик жылларындағы қарақалпақ фольклоры. ҚМУ Хабаршысы, – Нөкис, 2009. 145–147-бетлер.
6. Мўминов Ф. Ҳозирги ўзбек адабиётида фольклоризм. ДДА, – Тошкент, 1994. 54-бет.
7. Эшонқулов Ж. *Фольклор, образ ва талқин*. Насаф баспаси, – Қарши, 1999.
8. Алламбергенова П. Ғәрезсизлик дәуириде қарақалпақ фольклорын үйрениўдиң айырым мәселелери. ҚМУ, *Хәзирги филология илиминиң әхмийетли мәселелери*, республикалық конференция мақалалары жыйнағы, – Нөкис, 2011. 145–147-бетлер.
9. Дала жазыўлары. Қарақалпақстан Республикасы, Тахтакөпир районы, 2024-жыл. Жоллыбаева Зулфиядан жазып алынды.
10. Халық аўзынан жыйнап алынған пәтия-тилеклер. (Жыйнаған: Алламбергенова П.)

Nilufar TOSHEVA,  
Navoiy innovatsiyalar universiteti  
v.b.dotsenti

## MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHDA FOLKLORIZMNING O'RNI (Isajon Sultonning "Bilga xoqon" romani misolida)

**Annotatsiya:** mazkur maqolada Isajon Sultonning "Bilga Xoqon" romanida xalq og'zaki ijodi unsurlari, mifologik ramzlar va tarixiy xotira orqali milliy o'zlikni tiklash masalalari tahlil qilinadi. Asarda folklor motivlari badiiy tafakkurning ildizi sifatida ko'rilib, yozuvchi ularni zamonaviy milliy ongini uyg'otish vositasi sifatida talqin etadi.

**Kalit so'zlar:** *Isajon Sulton, Bilga Xoqon, folklorizm, xalq og'zaki ijodi, milliy o'zlik, mifologiya, tarixiy xotira*

**Annotation:** this article analyzes the restoration of national identity through elements of oral folk traditions, mythological symbols, and historical memory in Isajon Sultan's novel "Bilga Khagan." In the work, folklore motifs are viewed as the root of artistic thinking, and the writer interprets them as a means of awakening modern national consciousness.

**Key words:** *Isajon Sultan, Bilga Khagan, folklorism, oral folk art, national identity, mythology, historical memory*

**Аннотация:** в данной статье анализируются вопросы восстановления национальной идентичности через элементы устного народного творчества, мифологические символы и историческую память в романе Исаджона Султана «Бильге Хакан.» В произведении фольклорные мотивы рассматриваются как основа художественного мышления, и писатель интерпретирует их как средство пробуждения современного национального самосознания.

**Ключевые слова:** *Исаджон Султан, Бильге Хакан, фольклоризм, устное народное творчество, национальная идентичность, мифология, историческая память*

Milliy o'zlik insonning o'z tarixiy, madaniy va ma'naviy ildizlarini anglash, shu orqali o'zligini shakllantirish jarayoni sifatida qaraladi. Har bir millat o'zligini anglash orqali tarixiy merosni saqlab qoladi, qadriyatlarini avlodlarga yetkazadi va ma'naviy barqarorlikni ta'minlaydi. Bugungi kunda globallashish, texnologik taraqqiyot va madaniy integratsiya jarayonlari insonning milliy o'zligini anglashida yangi qiyinchiliklar va imkoniyatlar yaratmoqda. Milliy o'zlikni anglash insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, bu jarayon faqat tarixiy bilim yoki madaniy merosni bilish bilan cheklanmaydi, u shaxsning ongida o'zlikni, milliy g'urur va identifikatsiyani shakllantiradi. Nazariy jihatdan milliy o'zlikni anglash jarayoni psixologik, sotsiologik va madaniy o'lchamlarda tahlil qilinadi. Psixologik nuqtayi nazardan, inson o'zligini anglash, o'z qadriyatlarini aniqlash va tarixiy ildizlariga qarash orqali shaxsiy identifikatsiyani mustahkamlaydi. Sotsiologik jihatdan, milliy o'zlik

ijtimoiy guruhlar, jamiyat va madaniyat bilan bog'liq bo'lib, u insonning jamiyatdagi rolini aniqlashga yordam beradi. Madaniy jihatdan esa o'zligimizni shakllantirishda til, adabiyot, folklor, an'ana va urf-odatlarining ahamiyatini ko'rsatadi. Bugungi kunda milliy o'zlikni anglash jarayoni xalqaro miqyosda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Inson o'zligini milliy qadriyatlar orqali anglagan holda, boshqa millatlar va madaniyatlar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bois milliy o'zlikni anglash jarayoni nafaqat individual, balki ijtimoiy va madaniy muvozanatni ta'minlovchi vosita sifatida ham qaraladi. Bugungi kunda milliy o'zlikni anglash jarayoni bir necha asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi: tarixiy xotirani anglash va qadrlash orqali bugungi kunda yosh avlod o'z tarixini o'rganishga katta e'tibor qaratadi. Tarixiy voqealar, ajdodlarning hayotivayutlari, qadimiy madaniy meros bularning barchasi milliy o'zlikni shakllantiradi. Tarixiy xotirani anglash orqali inson o'zini millatning uzviy qismi sifatida his qiladi. Yozuvchi Isajon Sultonning "Bilga

Xoqon" tarixiy romanida ajdodlarimizning ijtimoiy hayotdagi yutuqlari, an'analari, marosimlari, urf-odatlar aks ettirilgan. Ushbu asarni o'qigan kitobxon o'ziga beixtiyor: "Men shunday ajdodlarning naslidanmanmi?" – degan savolni berishi tabiiy. Madaniy qadriyatlar va an'analarni qabul qilish milliy o'zlikni anglash jarayonida inson o'z xalqining madaniy qadriyatlarini o'rganadi. Bunda til, adabiyot, folklor, musiqiy meros va urf-odatlar asosiy rol o'ynaydi. Bugungi kunda yoshlar xalq og'zaki ijodi va milliy adabiyotga qiziqish ortib bormoqda, bu esa milliy o'zlikni jonlantirishga yordam beradi. Milliy o'zlikni anglash insonning shaxsiy identifikatsiyasini mustahkamlaydi. O'z millatini qadrlash va hurmat qilish hissi shaxsni ijtimoiy va ma'naviy jihatdan barqaror qiladi. Bugungi kunda yoshlar milliy g'urur va merosni rivojlantirishda faol ishtirok etmoqda, ijtimoiy tarmoqlar va madaniy loyihalar orqali o'zlikni namoyon qilmoqda. Yangilanish zamonida milliy o'zlikni saqlash. Dunyo globallashib borayotgan davrda, milliy o'zlikni anglash jarayoni yanada dolzarb bo'ladi. Inson boshqa madaniyatlar bilan aloqada bo'lganida, o'z qadriyatlari va urf-odatlarini qadrlash hissi kuchayadi. Shu bilan birga, milliy o'zlikni anglash global madaniy muloqotda insonning o'zligini yo'qotmasligi uchun zarur.

Psixologik nuqtayi nazardan, milliy o'zlikni anglash shaxsning ichki dunyosini boyitadi, o'zini qadrlash va o'zligini his qilishga yordam beradi. Inson o'z millatini anglaganida, u o'zining ma'naviy ildizlarini biladi va shu orqali ruhiy barqarorlikka erishadi. Ijtimoiy jihatdan, milliy o'zlikni anglash jamiyatdagi birlik va birdamlikni mustahkamlaydi. Milliy qadriyatlar orqali shakllangan o'zlik, ijtimoiy hayotda madaniy hamjihatlikni ta'minlaydi, yosh avlodni tarbiyalaydi va jamiyatning ma'naviy barqarorligini mustahkamlaydi. Bugungi kunda yoshlar orasida milliy o'zlikni anglash jarayoni ko'plab madaniy loyihalar, festivallar, onlayn platformalar va ta'lim orqali rivojlanmoqda. Shu tarzda inson o'zligini anglaydi, milliy qadriyatlarni hurmat qiladi va ijtimoiy faoliyatda ishtirok etadi.

Hozirgi o'zbek adabiy jarayonida xalqning tarixiy xotirasi va milliy o'zligini tiklash masalasi dolzarb yo'nalishlardan biridir. Mustaqillikdan so'ng adabiyotda xalq og'zaki ijodi, milliy mifologiya, qadimiy epos va rivoyatlar badiiy manba sifatida qayta jonlana boshlandi. Shu jarayonda Isajon

Sulton ijodi alohida o'rin tutadi. Yozuvchining "Bilga Xoqon" romani turkiy xalqlarning qadimiy davlatchiligi, ruhiy birligi, tarixiy xotirasi va ma'naviy ildizlariga qaytish g'oyasi bilan yo'g'rilgan. Asarda folklorizm vositasida milliy o'zlikni anglash, xalqning o'tgan kunini eslash, o'z tarixiga hurmat bilan qarash kabi masalalar badiiy shaklda yoritilgan. Folklorizm yozma adabiyotda xalq og'zaki ijodi unsurlarining badiiy talqini va yangicha estetik shaklda qayta ishlanishidir. Adabiyotda folklorizm millat ruhini, xalq donoligini, an'ana va qadriyatlarni ifoda etish imkonini beradi.

Milliy o'zlik esa xalqning o'z tarixiy ildizlarini, madaniyatini, tilini, urf-odat va qadriyatlarini anglash jarayonidir. Folklorizm ana shu o'zlikni badiiy shaklda tiklaydi. Chunki xalq og'zaki ijodi milliy xotiraning eng qadimiy va ishonchli ko'zguvidir.

Isajon Sulton romanda xalq donoligidan ilhomlanadi. Bilga xoqonning nutqlari, donolik bilan aytilgan so'zlari, xalq maqollari va rivoyatlar bilan uyg'un. Yozuvchi qahramon obrazini yaratishda dostonlarga xos ifodalarni, xalqona ohang va hikmatlarni mahorat bilan ishlatgan. Asarga so'zboshi yozgan adabiyotshunos Dilmurod Quronov tarixiy romanni janr xususiyatiga ko'ra qissa deb atashni istaydi hamda asar haqida quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi: "Qayd etish lozim deb bilganim yana bir jihat "Bilga Xoqon"ning janr xususiyati bilan bog'liq. Garchi sarlavhaga bosh qahramon nomi chiqarilgan bo'lsa-da, qarshimizdagi bitta qahramon atrofida uyushadigan, uning ko'rgan-kechirganlaridan bahs etuvchi, xullas, mohiyatan qissaga tortibroq ketadigan asar emas. Yo'q, bunda badiiy idrok etish uchun asosga millatning tarixiy taraqqiyoti muammosi qo'yilgan, shunga ko'ra romanning bosh qahramoni turk budun, o'zining zabun holini anglay boshlagan va bunga isyon o'laroq yo o'lmoq, yo qolmoq deya kurashga kirgan turk budun deyish ham mumkin"<sup>1</sup>.

Asar haqidagi yuqoridagi fikrlarning o'ziyoq uning mazmun-mohiyati haqida ma'lumot beradi. Adabiyot xalq og'zaki ijodidan paydo bo'lib shakllangandir. Xalqimiz orasida yaratilgan har bir ma'naviy manba insonning milliy o'zligini shakllantirishga turtki bera oladi. Romanda folklorga oid motivlarning qo'llanganli uning badiiy qimmatini oshirgan. Asarda ijodkor adolat, mardlik motivlaridan juda

<sup>1</sup> Isajon Sulton. Bilga Xoqon. – Toshkent: Factor books, 2022. 4-bet.

ko'p o'rinda foydalangan. "Bilga Xoqon"da Ishbara obrazi mavjud bo'lib, adib bu qahramon orqali qadimiy ajdodlarimizning mard, jasur, qo'rqmas, botir o'g'lonining obrazini gavdalandiradi. Qish qattiq kelib qabilaning yeyishi uchun hech narsa qolmaydi. Ishbara va Bulut butun qabila odamlariga yemish topib kelish uchun ovga chiqadi. Ular boshqalar qatori "Kishi o'g'li o'lgani kelgan" deb o'limini kutib o'tirmadi xalqini ochlikdan qutqarish uchun jinini xatarga qo'yib bo'lsa-da, ovga chiqdi. Bu syujet motivi xalq dostonlarida, xalq ertak, rivoyat, afsonalarida mavjuddir. "Shiroq" tarixiy rivoyatida ham Shiroq o'z jonini xatarga qo'yib qabilasini dushman qo'shinidan qutqarib qoladi<sup>2</sup>. Ular bug'uni olib ketishayotganda oldidan tabg'ach chiqadi, Ishbaraga qavmingada yumushingni qiladigan odam qolmadimi, o'zing ovda yuribsan deb uning jig'iga tegadi. Shunday bo'lsa-da Ishbara vaziyatni og'ir, bosiqlik bilan kuzatadi va ularga shunday javob qaytardi: " – I-ya? Ishbara yamtarmisan? – deyishdi. – Turk budunning yurakli alpi ovliq surgab yuribdimi? Ulusingda yumushingga yaraydigan yigitlar qolmadimi? – Ne deysan? – deb so'radi Ishbara yamtar xo'mrayib. Menga qara tabg'ach uli achchig'imni chiqarma, belingni sindirib, otingni tushlikka yeb qo'ymay"<sup>3</sup>. Ishbara dushmandan qo'rqmay tabg'achga bunday so'zlarni aytishi uning dovyurakligidan, vatanparvarligidandir.

Biografik tarixiy romanlarda qahramonlar nutqida leksik folklorizmlarga juda ko'p o'rinda duch kelamiz. Ularning har biri o'zining badiiy maqsadi mavjud.

" – Ishbara to'g'ri aytyapti, - dedi. – Ilon o'zining egriligini bilmasdan, tuyaga bo'yning qiyshiq, der ekan. Ketaver yo'lingga, qon to'kmasin"<sup>4</sup>.

Bizga ma'lumki, maqollarda, masalda, topishmoq janrlarida majoz qo'llanilib, so'zlar ko'chma ma'noda qo'llanadi, ammo ulardagi qaratilgan fikr inson hisoblanadi. Yuqorida ham xalq tilida qo'llaniladigan folklorizm keltirilgan. Bu nutq Bulut obraziga tegishli bo'lib, ilon bu tabg'ach, tuya deganda Bulut Ishbara ikkisini nazarda tutyapti. Inson o'zidagi kamchilikni ko'rmay boshqalarning aybi ustidan kuladi ma'nosiga ega bo'lgan bu xalq fikri murakkab folklorizmlarning analitik turiga mansubdir, chunki asardan bu folklorizmni olib

tashlasak, roman syujetida hech qanday o'zgarish bo'lmaydi.

"Analitik folklorizmlar asar bosh g'oyasini qabartirib ifodalaydi, unga ramziy, falsafiy ruh bag'ishlaydi"<sup>5</sup>. Yozma adabiyot xalq og'zaki ijodi namunalaridan bahramand bo'lar ekan, u kitobxon orasida o'lmas ijod bo'lib qolaveradi. "Yozma nasrda folklor an'analardan ijodiy foydalanish ijodkordan katta mahurat talab qiladi. Eng avvalo, folklor namunalarini o'z asarlarida mahurat bilan qo'llash, shuningdek, shu orqali kitobxonga ma'naviy ta'sir etish bilan birga asarning o'qimishligini ta'minlab turishni taqozo etadi"<sup>6</sup>. Maqollar yoki frazeologizmlar yozma adabiyotda qanday ko'rinishda kelishidan qat'iy nazar ular qahramon uchun, asar badiiyati uchun ma'lum funksiyani bajaradi. Ishbara va Bulut oldidan chiqqan tabg'achlar va ular bilan bo'lgan suhbatda ikki qahramonning kitobxonga noma'lum bo'lgan xarakterlari ochib beriladi. "Adabiy talqin nazariyasi, badiiy matnni tushunish va tushuntirish metodologiyasi sifatida adabiyotshunoslik sohasida xususiylashganda germeneytika o'z falsafiy-nazariy imkoniyatlari mavjudligini namoyon qiladi"<sup>7</sup>.

Badiiy matnni tahlil va talqin qilish usuli kitobxonga juda katta yordam beradi. Asar matnida kelgan yoki uning mazmun-mohiyatiga singdirilgan folklorizmlar badiiy matnni tahlil qilish orqali aniqlanadi. " – Qarg'a g'oz bo'laman deb tirishsa, buti yirtilibdi, - dedi Ishbara. – Meni qo'yatur, seni mana bu Bulutch ura, belingni sindirgay. Turishingni qara-yu, quyonday sakraysan. Qoch yo'limdan ulusim och dedim"<sup>8</sup>.

O'zbek xalq maqollari milliy tafakkur, ijtimoiy kuzatuv va axloqiy qarashlarning ixcham, ammo mazmunan keng ifodasidir. Shunday hikmatlardan biri "Qarg'a g'oz bo'laman deb tirishsa, buti yirtilibdi" maqolidir. Ushbu maqol shaxsning tabiiy qobiliyatiga va o'ziga xos fazilatlariga zid ravishda o'zini boshqalarga o'xshatish oqibatida yuzaga keladigan muammolarni majoziy tarzda ifodalaydi. Turk xalqi kuchli xalq, tabg'ach esa kuchsiz. Bulut va Ishbara o'zlarini tabg'ach askarlarida ustun ko'ryapti. Maqolda qarg'a obraziga shaxsning o'z

5 Sarimsoqov B. Folklorizmlar tipologiyasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti. 1980. №4. 44-bet.

6 Doniyorova Sh. Istiqbol davri o'zbek romanlarida milliy ruh va qahramon muammosi: Filol. f. d-r. diss. – Toshkent, 2012. 117-bet.

7 Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent :G'.G'ulom nomidagi nashriyot-mataa ijodiy uyi, 2016. 09-bet.

8 Isajon Sulton. Bilga Xoqon. – Toshkent :Factor books, 2022. 14-bet.

2 O'zbek folklor ocherklari. 2- jild. – Toshkent: Fan, 1989. 31- bet.

3 Isajon Sulton. Bilga Xoqon. – Toshkent :Factor books, 2022. 14-bet.

4 Isajon Sulton. Bilga Xoqon. – Toshkent :Factor books, 2022. 14-bet.

tabiati va imkoniyatlarini yetarli baholamay, o'zidan ustun yoki boshqa rolga mos kelmaydigan mavqega intilishi timsoli sifatida qaraladi. G'oz esa nisbatan salobatli, o'ziga xos husni bor, ijtimoiy tasavvurda qarg'aga nisbatan yuqori baholangan mavjudot sifatida tasvirlanadi. Qarg'aning g'ozga taqlidi esa shaxsning sun'iy ravishda mavqe oshirishga yoki o'zgaga o'xshashga bo'lgan nojo'ya urinishi sifatida talqin qilinadi. Natijada "buti yirtilibdi" iborasi odamning o'ziga yot bo'lgan rolni egallashda zarar ko'rishi, obro'sizlanishi yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashi bilan bog'liq oqibatni anglatadi. Bu holat taqlidchilikning samarasiz ekanini ko'rsatadi. Mazkur maqol boshqa turkiy xalqlarda ham o'xshash semantik qiyoslar bilan uchraydi. O'zbek xalqida ushbu maqolning quyidagi variantlari uchraydi: "Chumchuq burgut bo'lolmas", "Sustdan ot chiqmaydi", "Tovuq o'zimni burgutman desa ham qanotidan bilinadi", "O'zi kaltaning soyasi uzun bo'ladi" kabilar. Bu variantlarning barchasi bir xil g'oyani shaxsning o'ziga yot mavqeni egallashga urinishi samarasizligini umumiy ma'naviy mazmun sifatida ifodalaydi.

"Yupqa yig'in yengishga qulay emish, ingichka yig'in uzishga qulay emish. Yupqa qalin bo'lsa, yengadigan bahodir emish. Ingichka yo'g'on bo'lsa, uzadigan bahodir emish"<sup>9</sup>.

"Bilga Xoqon" romanidan keltirilgan mazkur maqollar kichik shaklda bo'lsa-da, chuqur mazmun kasb etadi. Ular inson hayotidagi vazifalarning murakkabligi, insonning mahorat bilan sinovlarni yengishi, har qanday ishning asl qiyinligi uni bajaruvchining salohiyati bilan belgilanadi degan falsafiy xulosani beradi. Bu hikmatlarda xalq donishmandligi, turkiy dunyoqarashga xos hayotiy realizm mujassamdir. Romanda xalq leksikasidan

<sup>9</sup> Isajon Sulton. Bilga Xoqon. – Toshkent: Factor books, 2022. 26-bet.

tashqari mifologik obrazlar ham qo'llanadi. Ularning ham asar badiiyatida o'ziga xos xususiyatlariga ega. Asarda mifologik ramzlar qush, osmon, shamol, tog', suv kabi timsollar turkiy dunyoqarashni aks ettiradi. Bu ramzlar xalqning tabiat bilan uyg'un yashash falsafasini, ajdodlarga sadoqatni va milliy birlikni ifodalaydi.

**Annotatsiya:** ushbu maqolada filolog talabalarga ingliz tilini o'zbek va qoraqalpoq tillarida o'qitishning beshta pragmalingvodidaktik tamoyillari asoslab berilgan. Bu tamoyillar, jumladan, muloqotni pragmatiklashtirish, til tendensiyalarini e'tirof etish va uslubiy registrni boshqarish - zamonaviy til xususiyatlari va autentik nutqni uyg'unlashtiradi. Ularni CEFR C1 darajasida qo'llash talabalarning madaniyatlararo moslashuvchanligini oshiradi va ingliz tili pragmatikasini mahalliy madaniy me'yorlar bilan uyg'unlashtiradi.

**Kalit so'zlar:** *pragmalingvodidaktika, madaniyatlararo kommunikatsiya, kommunikativ kompetensiya, stilistik registr, lingvopragmatika, ingliz tili o'qitish, CEFR C1, neologizmlar.*

### Introduction

This article addresses the crucial need for pragmalingvodic principles in teaching English to philology students within the specific Uzbek and Karakalpak linguacultural context. Modern language instruction must move beyond merely linguistic forms to prioritize cultural and pragmatic application. The study aims to identify, substantiate, and apply a system of principles that effectively harmonize the dynamic pragmatic features of English with local cultural norms to enhance students' intercultural communication competence at the CEFR C1 level.

### Literature Review

Existing literature highlights the divergence between the static depiction of language in textbooks and the "image of the living language". G.K. Tajimbetova notes that the lack of specific instruction on pragmatic competence via speech acts in Uzbekistan negatively impacts pedagogical effectiveness against CEFR requirements. The necessity to account for the language's development, including neologisms and modern discourse, is essential. Furthermore, students must learn the "semantic mechanisms of interaction" across registers.

### Research Methodology

This research utilizes a theoretical-methodological approach to develop a system of pragmlingvodidactic principles based on known linguodidactic principles. The methodology involved identifying five core principles and demonstrating their practical application through the parallel comparison of English pragmatic implications with Uzbek and Karakalpak cultural norms. This process requires the teacher to specially select and develop methods for working with authentic materials to ensure communicative adaptability in a non-immersive educational environment.

### Results and Discussion

One of the most important tasks of pragmlingvodidactics is to identify and substantiate its principles. Relying on known principles of linguodidactics, and taking into account the need to pragmatize the speech of philology students with modern linguistic means, a system of pragmlingvodidactic principles for teaching foreign languages has been developed. These principles serve as a theoretical and methodological basis for forming intercultural communication competence in philology students.

This principle is crucial because it focuses on teaching not just the linguistic means, but their cultural and pragmatic application in communication. According to G.K. Tajimbetova, although an instructor should convey language knowledge and form pragmatic competence through speech acts and communicative strategies, the lack of specific instruction on these elements in Uzbekistan negatively impacts pedagogical effectiveness, contrary to CEFR requirements. Thus, the tool for pragmatizing the foreign language speech of philology students is the use of modern English linguistic means, which requires the teacher to specially select and develop appropriate methods for working with authentic materials.

Pragmalinguistic studies indicate that language is constantly undergoing transformation, and the “image of the living language” at the beginning of the 21st century does not fully correspond to its depiction in textbooks. This principle is

important for forming intercultural communication competence as the pragmatic changes in the living language (e.g., Internet discourse, social media) ensure students’ communicative adaptability in real intercultural dialogue. Modern English differs significantly from the language of thirty years ago, containing many new words (neologisms) that are widely used in colloquial speech. However, the scope of usage for these new lexical units is context-dependent, linked to the stylistic register and pragmatic purpose.

During foreign language acquisition, the student must learn to understand the “semantic mechanisms of interaction” used by native speakers of that language. It is necessary to teach the student to use the appropriate functional-stylistic register of speech relations and to navigate the communicative-pragmatic and cultural environment. In asymmetric social relations, the use of speech economizing means or colloquial words is impermissible in highly formal situations. In contrast, colloquial words are used in highly familiar, informal communication. Therefore, contemporary textbooks must provide broader sociolinguistic and cultural contexts to enable students to master at least three communication registers – formal, neutral and informal – and develop the ability to switch between them according to the given socio-cultural situation.

Discussing the relationship between language and linguistic culture, the language user must be careful to avoid excessive and sometimes inappropriate use of language innovations, transformations, abbreviations or colloquial phrases. A current trend, especially among youth, is “adorning” their native language speech with an excessive number of such linguistic phenomena, leading to a sharp stylistic reduction and vulgarization of speech. Pragmlingvodidactic approach allows for the development of sociolinguistic skills by studying language trends and modern lexical changes, specifically through mechanisms like euphemization—the evolution of linguistic means in expressing socially sensitive topics.

A fundamental characteristic of intercultural communication (ICC) instruction within higher

education is its inherently practical and preparatory nature. Its primary objective is to equip students for meaningful real-world interaction; a challenge magnified when learners are predominantly from a single cultural background and are studying in a non-immersion environment, detached from the target culture's daily life. This significant gap between the classroom and authentic interaction necessitates a move beyond purely verbal language skills. To foster true pragmatic competence, curricula must systematically integrate the critical, yet often overlooked, dimensions of nonverbal communication – such as kinesics (body language, gestures, facial expressions), proxemics (use of personal space), and oculusics (eye contact) – as well as preverbal features, including tonality, speech rhythm, pacing, and the strategic use of pauses.

In this endeavor, authentic materials – ranging from films and news broadcasts to social media content and interviews – are indispensable. They provide the only viable source of the rich, contextual, and often ambiguous sociocultural data necessary for developing intercultural sensitivity. However, their use is not straightforward. To be effective, these materials require critical deconstruction and careful linguodidactic adaptation. This process involves

framing them within the learners' own national educational context, explicitly drawing contrasts and parallels with native cultural norms, values, and communication styles. For instance, in the specific contexts of Uzbekistan and Karakalpakstan, this means adapting content not just to the Russian or Western communication models often presented in textbooks, but to the local Central Asian communicative ethos, thereby making the learning process both more relevant and profound. Ultimately, this structured, multi-layered approach is vital for transforming abstract knowledge into actionable intercultural skills, bridging the gap between theoretical understanding and practical application.

### **Conclusion**

The five pragmaticlinguodidactic principles—pragmatization of communicative skills, accounting for English language development, consideration of speech registers, limiting stylistic reduction, and fostering intercultural support—were practically applied in this research to form intercultural communication competence at the CEFR C1 level. These principles help prevent pragmatic errors by parallel comparison of the pragmatic implications of English with the cultural norms of the Uzbek and Karakalpak languages.

### **References**

1. Paziljanova Z.S. The technology of developing students' intercultural communication competence through modern German textbooks: Abstr. of the diss. for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences. – Kokand, 2022.
2. Qodirov U.R. Principles of implementing a culturological approach in teaching English. Abstr. of the diss. for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences. – Nukus, 2025.
3. Tajimbetova G.K. Methodology for improving pragmatic competence in future foreign language teachers: Abstr. of the diss. for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences. – Nukus, 2025.
4. Baryshnikov N.V. Parameters of teaching intercultural communication in secondary school // *Inostr. yazyki v shkole*. - 2002. - №2.
5. Zabotkina V.I. New Vocabulary of Modern English. — M.: Vysshaya shkola, 1989.
6. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. – Cambridge University Press, MGLU, 2003.
7. Khaleeva I.I. Fundamentals of the theory of teaching comprehension of foreign language speech (translator training). - M.: Vysshaya shkola, 1989.
8. Khaleeva I.I. Fundamentals of the theory of teaching comprehension of foreign language speech (translator training). – M.: Vysshaya shkola, 1989.



# TILSHUNOSLIK



**Sharipboy BOBOJONOV,**  
*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*  
*Til va adabiyot kafedrasini mudiri*  
*professor vazifasini bajaruvchi,*  
*filologiya fanlari nomzodi*

## **“O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATI”DA FE‘LLARNING ISHLATILISHIGA DOIR MAVJUD QARASHLAR VA ULARNING IFODALANISHI**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o‘zbek lug‘atchiligida ham o‘zbek tilining sof turkona tabiatini aks ettirishi, lug‘atlarning vazifasi nafaqat biror tilning lug‘at boyligi haqida tasavvur uyg‘otish, balki, shu bilan birgalikda, so‘zlarning semantikasini, lisoniy qiymatini belgilash, ular ma’nolarining sistemaviy munosabatlarini berishi aks etgan. Shuningdek, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da fe’llarning ishlatilishiga doir mavjud qarashlar va ularning ifodalanish imkoniyati ham ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** *fe’l, munosabat, leksik-semantik munosabat, lug‘at, ko‘p ma’noli so‘zlar, tushuncha, borliq, talqin, so‘z, leksema.*

**Annotation:** this article shows that Uzbek lexicography also reflects the purely Turkic nature of the Uzbek language, and that the function of dictionaries is not only to create an idea of the vocabulary richness of a language, but also to determine the semantics and linguistic value of words, and to provide a systematic relationship between their meanings. It also opens up the possibility of more clearly delimiting the meanings of polysemous words and correctly understanding the semantic value of words with similar meanings.

**Key words:** *verb, relation, lexical-semantic relation, dictionary, polysemous words, concept, entity, interpretation, word, lexeme.*

**Аннотация:** в статье показано, что узбекская лексикография также отражает сугубо тюркскую природу узбекского языка, и что функция словарей заключается не только в создании представления о словарном богатстве языка, но и в определении семантики и языкового значения слов, установлении системной связи между их значениями. Это также открывает возможность более чёткого разграничения значений многозначных слов и правильного понимания семантического значения близких по значению слов.

**Ключевые слова:** *отношение, лексико-семантическое отношение, словарь, многозначные слова, понятие, сущность, интерпретация, слово, лексема.*

Leksikografik tadqiqotlar semasiologiya sohasining yutuqlari asosida leksik semantikasi ochishda lingvistik tadqiqotlarning maxsus usuli darajasiga ko‘tarilmog‘i lozim, degan masalaning qo‘yilishi quyidagilardan tegishlisini talab qiladi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da fe’llarning ishlatilishiga doir mavjud qarashlarni umumlashtirgan va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” tavsifiga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotda fe’l shakllarini lug‘atda berishning nazariy masalalariga batafsil to‘xtalangan. Unda fe’l shakllari sifatida nisbat shakllarini

olgan fe’llarning leksikografik talqinlarda o‘rin olishini belgilovchi omillar ko‘rsatilgan va ular quyidagicha umumlashtirilgan:

1. An‘ana omili. Nisbat shakllarini berishning an‘anaga aylanganligi. Ma‘lumki, turkiy tillarda fe’lni nisbat shakllari bilan alohida so‘z sifatida berish dastlabki lug‘atlardayoq, xususan, Mahmud Qoshg‘ariy lug‘atida ham o‘z aksini topgan. Tadqiqotchi dastlabki zamonaviy lug‘atlarda nisbat shakllari hech qanday belgisiz, keyinchalik esa fe’lning qaysi nisbatga xosligini ko‘rsatuvchi grammatik belgi bilan berilishi an‘anaviylashganligi ta’kidlaydi.

2. Semantik omil. Nisbat shakllari turli ma'no va vazifaga ega bo'lib, boshqa nisbatlardagi fe'llarning ma'noviy xususiyatlari bosh nisbatdagi fe'lning semantikasidan farqlanib turadi.

Ma'lumki, ko'pginagrammatik shakllar so'zning ma'noviy tabiatiga grammatik o'zgarishlar beradi. Fe'lning nisbat shakllarida esa boshqacharoq holni ko'ramiz. O'zbek tilida (umuman turkiy tillarda) "Nisbat yasovchi affikslar kategoriyasi" fe'lning boshqa kategoriyalaridan farqli o'laroq, leksik, ham grammatik ma'nolarni ifodalaydi. Bunda tadqiqotchi grammatik shakllarning ayrimlarida lug'aviy ma'noga ta'sir qobiliyati mavjudligi, ba'zilarida esa sintaktik aloqani ta'minlash xossasi mavjudligidan kelib chiqadi. Chunki "bunday (nisbat - Sh.B.) affiksatsiyani o'zakka nisbatan so'z o'zgartirish funksiyasini bajaradi, xolos, deyish mumkin emas. O'zgarmas leksik birlik tub asos faqat grammatik modifikatsiyaga ega bo'libgina qolmaydi, bu yerda to'ldiruvchi bilan yangi asos (osnova) vujudga keladi". To'g'ri, "affiks qo'shilgandan keyin hosil bo'lgan yasama forma affiks qo'shilmasdan ilgari formaga nisbatan ham leksik, ham grammatik tomondan o'zgaradi, ya'ni ma'no ko'payishi yoki ozayishi mumkin". Biroq bunda lug'aviy ma'no modifikatsiyalanishning qay darajada ekanligini aniqlash maqsadga muvofiq. Bunda ikki holatni:

1. Lug'aviy ma'no modifikatsiyasi yangi lug'aviy ma'no hosil bo'lish darajasidami?

2. Shakl so'zda yuzaga keltirayotgan birikuvchanlik o'zgarishlari ma'noviy, sintaktikmi yoki ham ma'noviy, sintaktikmi yoki ham ma'noviy, ham sintaktikmi? ekanligini muayyanlashtirish lozim bo'ladi. Ma'lumki, grammatik shakllarning an'anaviy tasnifi (shakl hosil qiluvchilar, so'z o'zgartiruvchilar) o'zbek tilining ichki ontologik tabiatidan kelib chiqib emas, balki rus tili qonuniyatlari asosida amalga oshirilgan tasniflarning o'zbek tiliga zo'rma-zo'raki olib kitilishi ekanligini bugungi kunda ko'pchilik tilshunoslar tan olishadi. Shu boisdan bugungi kunda grammatik shakllarning yangicha o'zbek tilining o'z ichki zotiy tabiati qonuniyatlaridan kelib chiqib amalga oshirilgan tasnifi ommalashmoqda. Bunga ko'ra, grammatik shakl hosil qiluvchilar ba'zan ikki, ba'zan uchga ajratilmoqda:

a) lug'aviy shakl hosil qiluvchilar;

b) aloqa-munosabat (sintaktik) shakllari;

v) lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchilar.

Lug'aviy shakl hosil qiluvchilar deganda mustaqil leksemalarning nutqiy voqelanishda ularga qo'shib, lisoniy ma'noni modifikatsiyalovchi vositalar tushuniladi va ular sirasiga ma'lum bir turkumlar doirasidagina amal qiladigan son, kichraytirish-erkalash (ot turkumi), nisbat (fe'l), daraja (sifat) ko'rsatkichlari kiritiladi. Shu boisdan ular tasniflovchi kategoriyalar deb ataladi. Sintaktik shakl hosil qiluvchilar deganda barcha turkumlar uchun umumiy sintaktik aloqa vositasi sanalmish egalik, kelishik, kesimlik shakllari, lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchilar deganda esa fe'l turkumiga mansub ham lug'aviy ma'noni modifikatsiya qiluvchi, ham sintaktik aloqani ta'minlovchi fe'l o'zgalovchi kategoriyasi shakllari anglashiladi.

Nisbat shakllari lug'aviy shakl hosil qiluvchi vositalar sirasida markaziy o'rinni egallab, fe'l leksema lisoniy mohiyatini modifikatsiya qiluvchi muhim omil sanaladi. Aytilganidek, nisbat shakllari lisoniy lug'aviy ma'noni modifikatsiyalaydi, biroq bu hodisa yangi lug'aviy ma'no vujudga kelishi darajasidami? Yangi lug'aviy ma'no (xoh u nutqiy, xoh lisoniy bo'lsin) nisbat shakllari ta'sirida vujudga kelsa, so'z alohida leksikografik birlik sifatida lug'at maqolasida alohida tavsiflanishga haqli.

Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da nisbat shakllarini olishi natijasida ma'noviy siljish ro'y bergan, ya'ni leksema vujudga kelgan [ko'rishmoq] (a) ko'rdilar; b) salomlashdi, [hisoblashmoq] a) hisobladilar, b) kelishgan holda ish ko'rmoq tipidagi fe'llarda nisbat shakllarining lug'aviy ma'noga ta'siri yangi leksema hosil qilish darajasida ekanligi to'g'ri baholangan va tavsiflangan. Bunday hol boshqa lug'aviy shakl hosil qiluvchilarda ham kuzatiladi. Masalan, [uy] so'zi (uycha) tarzida lug'aviy shakl hosil qiluvchi bilan birikkanda yangi lug'aviy ma'no vujudga keladi ("Qush va jonivorlar uchun yasalgan katak"). Biroq bu ma'no "O'zbek tilining izohli lug'ati" da alohida tavsifga ega emas. Shunga o'xshash tabiatga ega bo'lgan (qorincha) so'zi esa alohida birlik sifatida leksikografik tavsifga ega. Demak, nisbat shakllari yangi

leksema yasash darajasida bo'lganda, fe'lga ushbu nisbat shaklida alohida leksikografik tavsif berish ilmiy asoslarga ega. Shuningdek, hozirgi vaqtda -lash affiksi qo'shilgan ko'pgina so'zlarda uni -la+sh kabi morfemalarga ajratib bo'lmaydi. Masalan, (omonlashmoq), (achchiqlashmoq), (dardlashmoq), (ko'maklashmoq), (do'stlashmoq), (sudlashmoq) kabi. Bu so'zlarda garchi -sh birgalik affiksini ajratish mumkin bo'lmasa-da, birgalik ma'nosi anglashilib turadi. Bunday hollarda ham fe'lining nisbat shakli bilan izohlanishi maqsadga muvofiqdir.

Ko'p hollarda, yuqoridagidek, yangi yasama leksema vujudga kelishidan farqli o'laroq, nisbat shaklini olgan fe'lida yangi semema hosil bo'lmaydi. Bunda nisbat shakli lug'aviy shakl hosil qiluvchi sifatida qolaveradi. Masalan, (aylanmoq) fe'li orttirma nisbat shaklida quyidagi ma'nolarni ifodalaydi: 1. Biror narsani ma'lum bir nuqta atrofida harakatlantirmoq. 2. Biror narsani boshqa bir holatga o'tkazmoq. 3. Sayr qilmoq. 4. Aldamoq, chalg'itmoq. 5. Muomalada bo'lmoq. Pulni aylantirmoq. Bu ma'nolardan 1-,2-,3-,5- lari [aylanmoq] fe'lida ham mavjud.

Biroq 4-ma'no nisbat shakli ta'sirida paydo bo'lgan ma'no bo'lib, (aylantirmoq) fe'lga tuzilgan lug'at maqolasida e'tiborga olinishi lozim bo'lgani ham shudir. Shu asosda (aylantirmoq) fe'lida yangi hosil bo'lgan ma'no mavjud bo'lganligi uchun uning bosh ma'nosi sifatida [aylanmoq] fe'lining ma'nolariga havola qilish va shundan so'ng mazkur 4-ma'noni berish lozim bo'ladi.

Tadqiqotchi izohda ma'nodoshlar tizimini butunlikda olishning boshqacha variantini taqdim etadi. Biroq, baribir, leksikografik talqinda leksemalarning ma'nodoshlik munosabatiga alohida va qat'iy e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi.

Ma'lumki giperonim va giponim orasida privativ ziddiyat hukmronlik qiladi. Masalan, [it] va [kuchuk] leksemalari orasida gipero-giponimik munosabat mavjud bo'lib, bunda [it] giperonim va [kuchuk] giponim leksemalardir. [it] leksemasining giperonimligi shundaki, unda jins, yosh, tur belgilari noaniq va mavhumdir (81,37) Bu esa uning barcha giponimlari o'rnida, vaziyat talabi bilan qo'llana olishini ko'rsatadi.

Giperonim va giponim orasidagi semantik munosabat shundan iboratki, giperonim leksemaning sememasi giponim leksema sememasi uchun sema sifatida voqelanadi:

[It]-"Uy-ro'zg'orni qo'riqlash, ov ovlash va shu kabilar uchun ishlatiladigan yirtqich uy hayvoni".

[Kuchuk]-"it (uy-ro'zg'orni qo'riqlash, ov ovlash va shu kabilar uchun ishlatiladigan yirtqich uy hayvoni) ning bolasi".

Demak, giponimda giperonimning sememasi sema darajasigacha torayadi. Giponimlararo esa atash semalari farqlanuvi mavjud. Masalan, [it] giperonimining boshqa giponimlari qatori [arlon] va [qanjiq] leksemalaridir. Bu leksemalarda ham [it] giperonimi sememasi sema ko'rinishida torayadi:

[Arlon]-"it (uy-ro'zg'orni qo'riqlash, ov ovlash va shu kabilar uchun ishlatiladigan yirtqich uy hayvoni) ning erkagi".

[Qanjiq]-"it (uy-ro'zg'orni qo'riqlash, ov ovlash va shu kabilar uchun ishlatiladigan yirtqich uy hayvoni) ning urg'ochisi".

Leksemalarning leksikografik talqinida, qanday shaklda bo'lishidan qat'iy nazar, giperonim va giponim, giponim va giponim orasidagi semantik munosabatlarni lug'at maqolasiga kiritish leksema semantik mohiyatini muayyanlashtiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. –T.: Fan, 1982.87-bet.
2. Qurbonova M. O'zbek tilshunosligida formal-funksional yondashuv va sodda gap qurilishi talqini. Filol. fanlari d-ri...dis.... avtoref. – T.: 2000.48-bet.
3. G'iyosov S. O'zbek tilida subyektiv baho sifatlarining semik tahlili.// O'zbek tili va adabiyoti. 1986. № 2.28-33-bet.
4. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi. –T.: O'qituvchi, 1989.109-5-betlar. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1974.308- bet.

Moxinur QURBONOVA,

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## SHAKL YASOVCHI AFFIKSLAR YORDAMIDA HOSIL QILINGAN VA QO'SHMA SO'Z SHAKLIDAGI OKKAZIONAL BIRLIKLAR

**Annotatsiya:** maqolada muallif kashfiyoti sanalgan okkazional birliklarning milliy uyg'onish davri yozma manbalarida o'ziga xos vazifalarni bajarishi tahlillar asosida ko'rsatilgan. Shuningdek, shakl yasovchi affikslar yordamida hosil qilingan va qo'shma so'z shaklidagi okkazional birliklar misollar yordamida izohlangan.

**Kalit so'zlar:** *nutq birliklari, okkazional birliklar, okkazionalizm, affiks, adibbek, Ko'klamoyim, Yaproqxon, Karnayxon, surnayxon, erkaxon, serkaxon.*

**Annotation:** the article analyzes the specific functions of occasional units, which are considered the author's discovery, in written sources of the national revival period. Also, occasional units formed with the help of form-forming affixes and in the form of compound words are explained with examples.

**Key words:** *speech units, occasional units, occasionalism, affix, adibbek, Koklamoyim, Yaproqxon, Karnayxon, surnayxon, erkaxon, serkaxon.*

**Аннотация:** в статье анализируются специфические функции окказиональных единиц, считающихся открытием автора, в письменных источниках периода национального возрождения. Также на примерах поясняются окказиональные единицы, образованные с помощью формообразующих аффиксов и в виде сложных слов.

**Ключевые слова:** *речевые единицы, окказиональные единицы, окказионализм, аффикс, адиббек, кокламойим, япрокхон, карнайхон, сурнайхон, эркахон, серкахон.*

Ma'lumki, shakl yasovchi affikslar so'zga qo'shimcha ma'no yuklash hamda so'zlarni bir-biriga bog'lash vazifasini bajaradi. Shakl hosil qiluvchi morfemalarning vazifasi – mavjud leksemaga qo'shilib, uning turli grammatik shakllarini hosil qilish. Shakl hosil qiluvchi morfemalar o'z navbatida ikki xil: shakl yasovchilar va shakl o'zgartiruvchilar[1].

Shakl yasovchi affikslar ham okkazional birliklarning yasashida ishtirok etadi.

Ahli majlis "to'g'ri topdi" **adibbek**ning so'zini,  
"To'g'ri aytgan" **adibbek** ham pilanglatdi ko'zini...  
(Cho'lpon, "Shamol nimadan paydo bo'ladur")

Bilamizki, -bek affiksoidi atoqli otlarga qo'shilib, o'ziga xos hurmat, erkalash ma'nosini ifodalaydi. Cho'lpon turdosh otlar bilan ham qo'llab, shakl yasovchi affikslar yordamida okkazionallikni hosil qilgan.

Bir ijodkor yaratgan okkazionalizmni vaqtlar o'tishi bilan boshqa ijodkor asarlarida ham uchratish mumkin. Masalan, Cho'lpon tomonidan qo'llangan *ko'klamoyim* okkazionalizmi Muhammad Yusuf tomonidan qayta qo'llangan:

**Ko'klamoyim** yo'lga chiqqan.

**Ko'klamoyim** qo'zg'algan.

*Ko'k ko'ylakning bitishiga  
uncha ko'p ham qolmagan*

(Cho'lpon).

*Sochimda oq, men bahordan o'tindim:*

**Ko'klamoyim**, ko'kingdan ber bir chimdim.

*Qor qo'ynida seni qo'msab o'kindim,*

**Ko'klamoyim**, ko'kingdan ber bir chimdim  
(Muhammad Yusuf).

Yuqoridagi misolda **-oyim** erkalash affiksi orqali ham badiiy obrazlilikni ta'minlash maqsadida okkazionallik hosil qilingan.

O'simlik va mevalar nomlarini anglatuvchi atoqli okkazional guruhiga kiruvchi leksemalar milliy uyg'onish davri adabiyoti vakillarining asarlarida ko'plab uchraydi.

*So'rtaklar yuziga cho'zilgan Zangbu*

*Qizi- Yaproqxonni uyg'otib olib,*

*Yasan-tusaniga erta-kech boshlar.*

Keltirilgan she'riy misralarda Cho'lpon *Zangbu* va *Yaproqxon* so'zlarini atoqli okkazional so'z sifatida qo'llab, o'ziga xos badiiylilik va asarlariga xos individuallik hosil qilgan. *Zangbuni* uzum novdalari, *Yaproqxonni* uning qizi sifatida tokning bargi ma'nosida qo'llaydi. *Bu* shakli *buvi* so'zining qisqa varianti.

Shoir yoki yozuvchilar ijodida **-jon**, **-xon** affikslari shaxs bildiruvchi otlarga emas, balki narsa - buyum nomini ifodalovchi leksemalarga qo'shilib, individual nutq neologizmlari hosil qilinadi. Masalan:

**Mevaxonlar, shinnijonlar**, endi noz etmang menga,  
Siz bilan o'ynashg'ali yo'qdir ko'ngilda hafsalam.

Keltirilgan she'riy parchada erkalash ma'nosini ifodalovchi **-jon**, **-xon** affikslari meva hamda shinni (shinni – tut, uzum kabi mevalar shirasini qaynatib tayyorlanadigan qiyom) so'zlariga qo'shilib, okkazional so'z yaratilgan.

Maysara: **Karnayxon, surnayxon, erkaxon, serkaxon, kulib-kulib qo'ying, o'rgilsin-a, cho'rgilsin, xamir ko'pti turgilsin** (Hamza, "Maysaraning ishi").

Maysaraning tilidan keltirilgan yuqoridagi misolda Oyxonga nisbatan **karnayxon, surnayxon, erkaxon, serkaxon** so'zlari undalma sifatida qo'llangan. -xon affiksi narsa-buyum otlari, hayvon nomlariga hamda sifat turkumiga oid so'zlarga qo'shilishi natijasida okkazonal so'z yaratilgan.

Ma'lumki, **-cha** affiksi so'zga qo'shib, erkalash-kichraytirish ma'nosini ifodalaydi, shu bilan birga, okkazonallik hodisasini hosil qilishda ishtirok etadi.

Layli siz bu asrda, go'yoki biz **Majnunchalar, Dardu g'am afzunchalarmiz, ko'zyoshi Jayhunchalar,**

*Tillaring ostida til ko'p garchi, ey gulg'unchalar, Aldamog'lik bir musulmonni, nigoro, shunchalar, Sholi in'om aylagan yanglig' quruq ombordin* (Muqimiy, "Bog' aro").

**-lar** ko'plik shakli ravishning ayrim turlariga qo'shib, bu ham ijodkorlar nutqida o'ziga xos okkazonallikni hosil qilgan.

Mana shul vaqtda darajalarg'a ajralg'an shoirlarga klassik shoirlar, asrlariga-da klassik asarlar deyilgankim, boshqalarga o'rnak bo'larlik mumtoz asarlar demakdir. **So'ngralar** butun adabiyot dunyosiga umumi bir atama shaklida qabul etilgan (Fitrat Adabiyot qoidalari, 85-bet). So'ngralar "keyinchalik" ma'nosida qo'llangan.

Qo'shma so'zlarga ilmiy adabiyotlarda ko'plab ta'riflar berilgan. Tilshunos olim Azim Hojiyev bu hodisani boshqa hodisalar bilan aralashtirib yubormaslik kerakligi, qo'shma so'z deganda qanday hodisa nazarda tutilishini aniq belgilab olish lozimligini ta'kidlaydi. Qo'shma so'z deganda, o'zaro bog'langan ikki yoki undan ortiq so'z emas, balki birdan ortiq negizdan tashkil topgan bir so'z tushunilishi kerak: *tog'olcha, tokilon* kabi[2].

Milliy uyg'onish davri adabiyotida qo'shma so'z shaklidagi okkazonallar ham mavjud. Qo'shma so'zlar orqali okkazonallarni yaratish ham ayrim ijodkorlarda faol so'z yasaliishi hisoblanadi. Masalan, o'zbek adabiyotida qo'shma so'zlar yaratishda M.Yusuf ijodi yetakchilik qiladi. Uning ijodiy merosida *o'zbekmomo, kiyiknigoh, kiyikso'qmoq, to'yko'cha, sohibdil, oyqovoq*

kabi shaklan va mazmunan betakror so'zlar unumli qo'llanganiga guvoh bo'lamiz. Bularning qo'llanishida sun'iylik sezilmaydi[3].

"Pochchamdan dasturxonni olib qoqish uchun gilosning yonidan o'tarmanmi, allakim baloga turtinib ketdim. Qo'rqqanimdan oz qoldiki, dodlab yuborsam... Chamasi mehmonlarga qarab turgan ekan.

– **Kimbalo ekan?** (A.Qodiriy, "O'tkan kunlar")

*Kelsa oldingizga boysurat, yoqosi tugmalik, Izzat ila shod-u minnatdor qilmoq shunchalar* (Muqimiy, "Bog' aro").

Yuqorida keltirilgan **kim balo** so'zi tilimizda mavjud "nima balo" birikmasi modelida yasaliib, insonga nisbatan qo'llangan. **Boysurat** esa devqomat, xushsurat modelida, tashqi ko'rinishga nisbatan ishlatilgan.

Mana bu yo'ldoshim Berdiboy **yer yog'i** buloqlari ochub, ustalariga zovutlar qurub, ulug' o'lkalarning butun kishilariga **yer yog'i** bera (r) va shu yo'ldan yuz binglarcha oqchag'a ega bo'lubdir (Fitrat, "O'quv").

Yuqoridagi o'rinda *neft* tushunchasini ifodalashda kompozitsiya usulidan foydalangan holda okkazonallik hosil qilingan. Manba va o'xshashlik asosida yasalgan (yer yong'oq kabi).

To'rt-besh oshiyonlik mehmonxona va har biri bizdagi "qulub" yoinki madrasalardan katta bir necha musulmon hammomlari, osti hammom, usti mag'ozin, uning usti mehmonxonalar va bularga chiqmoq uchun **"osonsur"** moshinalari bino qilinibdur (Mahmudxo'ja Behbudiy, "Sayohat xotiralari").

Yozuvchi **"osonsur"** so'zini **"eskalator"** ma'nosida qo'llagan. "Osonsur" asli forscha so'z bo'lib, *lift* ma'nosini bildiradi. Milliy uyg'onish davri ijodkorlari tomonidan yaratilgan ayrim okkazonal so'zlar boshqa tillarda mavjud bo'lishi mumkin. Ular yangilik sifatida olib kiritilgan, lekin keyinchalik tilning lug'at tarkibidan o'rin olmagan.

Okkazonal yasalma va uning yasaliish tarzi qay holda izohlanmasin, bu izoh va sharhlar so'z ma'nosining lug'atlarda beriladigan izohidan farq qiladi. Matniy tahlil va izohda yasalmaning tarkiblanishi va tarkibiy qismlar o'rtasidagi munosabatni ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi. Mana shu xususiyatlarga ega bo'lmagan g'ayriodatiy yasaliishlar matnda lisoniy nuqson sifatida fahmlanadi[4].

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent, 2006. 118-bet.
2. Хожиев А. Ўзбек тилида қўшма жуфт ва такрор сўзлар. – Тошкент. – Б.6.
3. Мардонова С. Муаллиф нутқи неологизмлари хусусида //Journal of advanced Research and stability, 2-сон, 2022. – Б.106.
4. Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясаиши: Филол. фанлари номзоди ... дисс. –Тошкент, 1998. – Б.75.

O'g'iljon ABDOVALIYEVA,  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
katta o'qituvchi, filologiya fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
E-mail: [ugiljonabduvaliyeva92@gmail.com](mailto:ugiljonabduvaliyeva92@gmail.com)

## RUS OLIMLARINING QO'SHMA SO'ZLAR VA KOPULYATIV QO'SHMA SO'ZLAR TASNIFIGA DOIR QARASHLARI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada rus tilshunosligida qo'shma so'zlar, xususan kopulyativ qo'shma so'zlar haqidagi ilmiy qarashlar tarixiy va zamonaviy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, qo'shma so'zlarda komponentlar o'rtasidagi semantik munosabatlar, biriktiruvchi elementlarning roli, kopulyativ birliklarning funksional jihatlari hamda ularning determinativ modellardan farqlari ko'rsatib beriladi. Y.V. Krasnova va M.V. Sviridovichning kopulyativ qo'shma so'zlarning urg'u tizimi, yozuv variantlari, sinonimiya va antonimiya masalalariga oid fikrlari ham tahlil qilinadi. Maqola rus tilidagi kopulyativ qo'shma so'zlarning murakkab semantik-struktur tabiatini yoritib, bu birliklarning til tizimidagi o'rni va o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asosda umumlashtiradi.

**Kalit so'zlar:** *qo'shma so'zlar, kopulyativ qo'shma so'zlar, so'z yasash, kompozitsiya, semantik munosabatlar, morfologik model, endosentrik, ekzotsentrik kompozitlar, urg'u tizimi, sinonimiya, antonimiya.*

**Annotation:** this article analyzes scientific views in Russian linguistics on compound words, particularly copulative compounds, based on both historical and modern approaches. It examines the semantic relations between components within compounds, the role of linking elements, the functional characteristics of copulative formations, and their differences from determinative models. The views of Y.V. Krasnova and M.V. Sviridovich on stress patterns, orthographic variants, synonymy, and antonymy in copulative compounds are also discussed. The article highlights the complex semantic-structural nature of copulative compounds in the Russian language and provides a scholarly generalization of their place and distinctive features within the linguistic system.

**Key words:** *compound words, copulative compounds, word formation, composition, semantic relations, morphological model, endocentric compounds, exocentric compounds, stress pattern, synonymy, antonymy.*

**Аннотация:** в данной статье анализируются научные взгляды в российском языкознании на сложные слова, в частности на копулятивные сложные образования, в историческом и современном аспектах. Рассматриваются семантические отношения между компонентами сложных слов, роль соединительных элементов, функциональные характеристики копулятивных образований, а также их отличия от детерминативных моделей. Обсуждаются взгляды Е.В. Красновой и М.В. Свиридович на акцентуацию, орфографические варианты, синонимию и антонимию в копулятивных сложных словах. В статье раскрывается сложная семантико-структурная природа копулятивных сложных слов русского языка и даётся научное обобщение их места и специфических особенностей в системе языка.

**Ключевые слова:** *сложные слова, копулятивные сложные слова, словообразование, композиция, семантические отношения, морфологическая модель, эндоцентрические образования, экзоцентрические образования, акцентуация, синонимия, антонимия.*

Tillarda qo'shma so'zlarning yasalishi, ularning tiplarini belgilash, tasniflash masalalari doimo dolzarb masalalardan bo'lib kelganligi ma'lum. Shuningdek, barcha tilshunoslik hodisalari kabi qo'shma so'z yasalishida ham tarixiy va zamonaviy yondashuv mavjud.

Rossiyada so'z yasalishini shakllantirish XIX asrning ikkinchi yarmida F.F. Fortunatov asarlarida shakllangan<sup>1</sup>. O'sha davrdagi so'z

<sup>1</sup> Николаев Г.А. Теоретические проблемы русского словообразования. Казанская научная школа // Диалектное словообразование, морфемика и морфология: Монография / Под ред. Е.Н. Шабровой. – СПб.: Наука; Вологда: ВГПУ, 2007. – С.7-29.

yasovchi tushunchalar uchun "qo'shma so'z" ni juda keng tushunish, qo'shma so'z va yasama so'zlar o'rtasida aniq chegaralar yo'qligi xos edi. F.F. Fortunatov qo'shma so'zlarning 4 guruhini aniqlaydi: 1) qo'shib yoziladigan qo'shma so'zlar (слитные): *неприятель*; 2) takror so'zlar (удвоенные): *большой-большой*; 3) grammatik jihatdan murakkab (грамматически-сложные): *языковедение* va 4) tarkibli, yasama (составные): *уходить*<sup>2</sup>. XX asrda

<sup>2</sup> Fortunatov F.F. Избранные труды в 2-х томах. Т. 1 / Академия Наук СССР; Отделение языка и литературы; Ф.Ф. Fortunatov. – М.: Государственное учебно-педагогическое изд-во Министерства просвещения РСФСР, 1956. – 173 с.

V.V. Vinogradov<sup>3</sup>, E.A. Zemskaya<sup>4</sup> va boshqa olimlarning asarlarida soʻz yasaliishi oʻrganildi, “soʻz birikmasi” tushunchasi aniqlandi, soʻz birikmasi soʻz yasaliishining boshqa usullariga qarama - qarshi qoʻyilib, qoʻshma soʻzlarning tasnifi tuzildi, kompozitsiyalarning ikki va uch komponentli turlari oʻrganildi<sup>5</sup>.

V.D. Arakin<sup>6</sup> va L.L. Nelyubin<sup>7</sup> kompozit tarkibiy qismlar orasidagi bogʻlanish turini predikativ (*снегопад*), atributiv (*чернозем*) va obyektiv (*пылесос*) deb belgilaydilar.

Strukturaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda, qoʻshma soʻzlar atematik (biriktiruvchi elementsiz) va tematikga (biriktiruvchi element bilan) boʻlinadi<sup>8</sup>. Rus tilida biriktiruvchi elementsiz kompozitsiyalar kam uchraydi<sup>9</sup>. Birlashtiruvchi elementsiz qoʻshma soʻzni shakllantirish usuli baʼzi asarlarda “asoslarning oddiy qoʻshilishi”<sup>10</sup> yoki “aglyutinativ usul”<sup>11</sup> deb nomlanadi. L.S. Filippova bu holatda nol interfiks haqida gapirish kerakligini taʼkidlaydi<sup>12</sup>.

Aksariyat qoʻshma soʻzlarga bagʻishlangan (V.V. Vinogradov<sup>13</sup>, E.A. Zemskaya<sup>14</sup>) asarlarda taqdim etilgan morfologik yondashuv doirasida qoʻshma soʻzlarning modellari ularning komponentlarining soʻz turkumlariga mansubligini hisobga olgan holda tuziladi.

Qoʻshma soʻzning tarkibiy qismlari oʻrtasidagi semantik munosabatlar N.N. Pertsovaning ishida oʻrganilib, olimi tarkibiy qismlar oʻrtasidagi

semantik munosabatlarning 3 guruhini aniqlaydi: 1) teng munosabatli (*лесостепь*) 2) qiyosiy va aniqlashtiruvchi (*зоре-охотник*, *Москва-река*) 3) aktant va sirkonstant (*кораблекрушение*, *стекловолокно*)<sup>15</sup>.

V.S. Vashunin kompozit konstruksiyalarning quyidagi funksiyalarini ajratib koʻrsatadi: nominativ, sintaktik, dissimilativ, matn hosil qiluvchi, ekspressiv, til/nutq ekonomiyasi, morfologik, soʻz hosil qiluvchi, leksema hosil qiluvchi va qoʻshma soʻzlarning koʻp funksionalligini qayd etadi, bu esa unga qoʻshma otlarning alohida funksional-kompozit modellarini tavsiflash imkonini beradi<sup>16</sup>.

Rus olimasi Y.V. Krasnova oʻzining maqolasida german tillar guruhining Skandinaviya boʻlimiga kiruvchi dan tilidagi kopulyativ qoʻshma soʻzlar guruhida ham endosentrik, ham ekzosentrik birliklar ajralib turishini, kopulyativ kompozitlarning hodisalar, predmetlar, sifatlar, xususiyatlar yoki harakatlar oʻrtasidagi simmetrik munosabatlarni oʻrganish muhim ekanligini taʼkidlaydi<sup>17</sup>. Shuningdek, olimi kopulyativ shakllanishlar “moda” boʻlib borayotganligi, kopulyativ qoʻshma soʻzlarning keng tarqalgan guruhi asosan psixologiya, pedagogika, biznes va reklama sohasidagi mavhum otlar ekanligi, ikkinchi keng tarqalgan guruh rang atamalar bilan ifodalangan sifatlar, kasb nomlari jugʻrofiy nomlar, terminologik nomlar bilan bogʻliqligiga toʻxtalib oʻtadi. Bunda kopulyativ kompozitlarning komponentlari qoʻshib, defisli imlo yoki alohida yozish tendensiyalari mavjud.

Y.V. Krasnova dan tilida kopulyativ qoʻshma soʻzlarning urgʻu masalasiga ham alohida toʻxtalib oʻtadi. Unga koʻra kopulyativ qoʻshma soʻzlarda asosiy urgʻu, ikkinchi darajali urgʻu, birinchi va ikkinchi komponentlarda teng urgʻu boʻlishi mumkin<sup>18</sup>. Shuningdek, Y.V. Krasnova oʻz xulosasida kopulyativ qoʻshma soʻzlarga quyidagicha muhim taʼrifni keltiradi: “shu bilan birga, kopulyativ kompozitsiyalar, shubhasiz, bir qator sabablarga koʻra ehtiyotkorlik bilan koʻrib chiqishni talab qiladi. *Birinchi*dan, kompozitsiyani tushuntirish imkoniyati, aloqa jarayonida hodisalar, predmetlar, sifatlar, xususiyatlar yoki harakatlar oʻrtasidagi nosimmetrik munosabatlar, ikki nom qoʻshma boʻlib qoʻshilganda, bunda leksik maʼno ikki komponentning

3 Виноградов В.В. Грамматика русского языка. В 2-х томах. Т. 1. Фонетика и морфология // Академия наук СССР; Институт русского языка; В.В. Виноградов. – М.: Издательство Академии Наук СССР, 1960. – 719 с.

4 Земская Л.С. Современный русский язык. Словообразование: учеб. пособ. / Е.А. Земская, 3-е изд., испр. и доп.. – М.: Флинта: Наука, 2011. – 328 с.

5 Носачёва М.И. Изучение композитарного словообразования в русском и немецком языкознании. Bulletin of Medical Internet Conferences (ISSN 2224-6150) 2015. Volume 5. Issue 1 – P.26-29.

6 Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков: учеб. пособ. / В.Д. Аракин. – 3-е изд.. – М.: Физматлит, 2005. – 208 с.

7 Нелюбин Л.Л. Сравнительная типология английского и русского языков: учебник / Л.Л. Нелюбин – М.: Флинта; Наука, 2012. 94-95 с.

8 БЭС. Языкознание / Под ред. В.Н. Ярцевой. – М.: Большая российская энциклопедия, 1998. – 469 с.

9 Земская Л.С. Современный русский язык. Словообразование: учеб. пособ. / Е.А. Земская, 3-е изд., испр. и доп.. – М.: Флинта: Наука, 2011. – 184 с.

10 Нелюбин Л.Л. Сравнительная типология английского и русского языков: учебник / Л.Л. Нелюбин – М.: Флинта; Наука, 2012. 94 с.

11 Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков: учеб. пособ. / В.Д. Аракин. – 3-е изд.. – М.: Физматлит, 2005. – 207 с.

12 Филиппова Л.С. Современный русский язык: Морфемика. Словообразование: учеб. пособ. / Л.С. Филиппова. – М.: Флинта: Наука, 2009. – 161 с.

13 Виноградов В.В. Грамматика русского языка. В 2-х томах. Т. 1. Фонетика и морфология // Академия наук СССР; Институт русского языка; В.В. Виноградов. – М.: Издательство Академии Наук СССР, 1960. – 272 с.

14 Земская Л.С. Современный русский язык. Словообразование: учеб. пособ. / Е.А. Земская, 3-е изд., испр. и доп.. – М.: Флинта: Наука, 2011. – 283 с.

15 Перцова Н. Н. Некоторые проблемы семантики словосложения // Труды международного семинара Диалог2000 по компьютерной лингвистике и ее приложениям в двух томах. Том 1. Теоретические проблемы / под ред. А.С. Нариньяни. — Т. 1. — Протвино, 2000. — С. 246–247.

16 Вашунин В.С. Субстантивные сложные слова в немецком языке / В.С. Вашунин. – М.: Высшая школа, 1990. – 14 с.

17 Краснова Е.В., Особенности копулятивных сложных слов в датском языке, Санкт-Петербургский государственный университет. 2017. – С.24-32.  
 18 Koʻrsatilgan manba.28-bet.

semantikasi bilan teng ravishda belgilanishi bunday shakllanishlarni yaratish mexanizmlarini o'rganish zarurligini ko'rsatadi. *Ikkinchidan*, qo'shma so'zlarni tahlil qilishda qaysi tasniflardan foydalanilishidan qat'i nazar, kopulyativ qo'shma so'zlar so'z yasallishida keng tarqalgan determinativlarga ("hokim va tobe" oppozitsiyasi) nisbatan o'zida qarama-qarshilikni ifodalovchi so'z tizimining bir qismidir. Shuning uchun so'z qo'shish kompleks ravishda o'rganilar ekan, ularni kopulyativ qo'shma so'zlarsiz (nisbatan kichik guruh bo'lsa ham) har tomonlama ko'rib chiqish mumkin emas. *Uchinchidan*, qo'shma so'zlar yaqinroq tekshirilganda bir jinsli guruh bo'lib chiqmaydi, komponentlarning simmetriyasi turli ko'rinishga ega bo'lishi mumkin, tarkibiy qismlarning o'zi ham tarkibi jihatidan ham, ichki bog'lanish xususiyatiga ko'ra ham bir jinsli bo'lishi mumkin"<sup>19</sup>.

Belarus tilshunoslaridan M.V. Sviridovich<sup>20</sup> o'zining ilmiy tadqiqot ishida rus tilidagi kopulyativ qo'shma so'zlar korpusi birinchi marta kompleks struktur-

<sup>19</sup> Ko'rsatilgan manba.26-bet.

<sup>20</sup> Свиридович М.В. Структурно-семантическая система сложных слов русского языка. Автореферат диссертации. – Минск, 2003. – С. 2.

semantik tadqiqot obyekti bo'lganligini, olingan natijalarning ilmiy yangiligi sifatida ta'kidlaydi. Olima kopulyativ qo'shma so'zlardagi komponentlarning sinonimiyasi va antonimiyasiga alohida to'xtalib o'tadi. Uning fikricha sinonimik kopulyativ qo'shma so'zlar tizimi o'zlashmalar, internatsional morfemalar, kompozitsiyada arxaik ildizlarning saqlanishi tufayli shakllanadi. Kopulyativ qo'shma so'zlar tizimidagi antonimiyaning o'ziga xos xususiyati unda yangi oppozitsiyaning paydo bo'lishi bilan namoyon bo'ladi<sup>21</sup>.

Qo'shma so'zlar, kopulyativ qo'shma so'zlar haqidagi rus olimlari fikrlarining qisqacha tahlil shuni ko'rsatadiki, rus tilshunosligida qo'shma so'zlar, ayniqsa kopulyativ qo'shma so'zlar, mazmuniy va grammatik xususiyatlari bilan til tizimida alohida qatlamni tashkil etadi. Olimlar ularning semantik tenglik, struktur barqarorlik va morfologik yaxlitlik tamoyillariga tayanishini qayd etadi. Kopulyativ modellarda mazmun ikki asosning qo'shilishi orqali yuzaga keladi va bu ularni boshqa qo'shma so'z turlaridan farqlaydi.

<sup>21</sup> Ko'rsatilgan manba.16-bet.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Николаев Г.А. Теоретические проблемы русского словообразования. Казанская научная школа // Диалектное словообразование, морфемика и морфонология: Монография / Под ред. Е.Н. Шабровой. – СПб.: Наука; Вологда: ВГПУ, 2007. – С.7-29.
2. Фортунатов Ф.Ф. Избранные труды в 2-х томах. Т. 1 / Академия Наук СССР; Отделение языка и литературы; Ф.Ф. Фортунатов. – М.: Государственное учебно-педагогическое изд-во Министерства просвещения РСФСР, 1956. – 173 с.
3. Виноградов В.В. Грамматика русского языка. В 2-х томах. Т. 1. Фонетика и морфология // Академия наук СССР; Институт русского языка; В.В. Виноградов. – М.: Издательство Академии Наук СССР, 1960. – 719 с.
4. Земская Л.С. Современный русский язык. Словообразование: учеб. пособ. /Е.А. Земская, 3-е изд., испр. и доп.. – М.: Флинта: Наука, 2011. – 328 с.
5. Носачёва М.И. Изучение композитарного словообразования в русском и немецком языкознании. Bulletin of Medical Internet Conferences (ISSN 2224-6150) 2015. Volume 5. Issue 1 – P.26-29.
6. Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков: учеб. пособ. / В.Д Аракин. – 3-е изд.. – М.: Физматлит, 2005. – 208 с.
7. Нелюбин Л.Л. Сравнительная типология английского и русского языков: учебник / Л.Л. Нелюбин – М.: Флинта; Наука, 2012. 94-95 с.
8. Филиппова Л.С. Современный русский язык: Морфемика. Словообразование: учеб. пособ. / Л.С. Филиппова. – М.: Флинта: Наука, 2009. – 161 с.
9. Перцова Н. Н. Некоторые проблемы семантики словосложения // Труды международного семинара Диалог2000 по компьютерной лингвистике и ее приложениям в двух томах. Том 1. Теоретические проблемы / под ред. А.С. Нариньяни. — Т. 1. — Протвино, 2000. — С. 246–247.
10. Вашунин В.С. Субстантивные сложные слова в немецком языке / В.С. Вашунин. – М.: Высшая школа, 1990. – 14 с.
11. Краснова Е.В., Особенности копулятивных сложных слов в датском языке, Санкт-Петербургский государственный университет. 2017. – С.24-32.
12. Свиридович М.В. Структурно-семантическая система сложных слов русского языка. Автореферат диссертации. – Минск, 2003. – С. 2.

Parvina KHOTAMOVA,

PhD, dotsent,

Samarkand state institute of foreign languages

Email: [parvinaxotamova0@gmail.com](mailto:parvinaxotamova0@gmail.com)

## POSESSIVLIK KATEGORIYASINI TADQIQ ETISHDA LINGVISTIK NAZARIYA METODLARI

**Annotatsiya:** ushbu maqola posessivlik kategoriyasini tadqiq etish metodlariga bag'ishlangan bo'lib, lingvistik tadqiqotlar kontekstida posessivlikning morfologik, sintaktik, semantik va pragmatik jihatlarini o'rganishga qaratilgan. Posessivlik, ya'ni egalik munosabatlarini ifodalash, tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat til strukturasi, balki madaniy va ijtimoiy kontekstlarni ham aks ettiradi. Birinchi navbatda, posessivlikning nazariy yondashuvlari tahlil qilinadi. Bu yerda generativ grammatika va kognitiv lingvistika kabi asosiy nazariyalar orqali posessivlik tushunchasi chuqur o'rganiladi. Shuningdek, posessivlikning morfologik shakllari va sintaktik tuzilmalaridagi o'zgarishlar ham ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** *lingvistik, posessivlik, kognitiv, eksperimental, komponent, pozitsiya, ierarxiya, kognitiv, individualizm, sotsiolingvistika*

**Аннотация:** данная статья посвящена методам исследования категории присвоения и направлена на изучение морфологических, синтаксических, семантических и прагматических аспектов присвоения в контексте лингвистических исследований. Присвоение, то есть выражение отношений собственности, имеет важное значение в языкознании, так как оно отражает не только структуру языка, но и культурные и социальные контексты. В первую очередь анализируются теоретические подходы к присвоению. Здесь глубоко исследуются понятия присвоения через основные теории, такие как генеративная грамматика и когнитивная лингвистика. Также рассматриваются морфологические формы присвоения и изменения в синтаксических структурах.

**Ключевые слова:** *лингвистика, посессивность, когнитивный, экспериментальный, компонент, позиция, иерархия, когнитивный, индивидуализм, социолингвистика.*

**Annotation:** this article is dedicated to the methods of studying the category of possession and aims to explore the morphological, syntactic, semantic, and pragmatic aspects of possession within the context of linguistic research. Possession, or the expression of ownership relations, holds significant importance in linguistics, as it reflects not only the structure of language but also cultural and social contexts. The article primarily analyzes theoretical approaches to possession. It delves deeply into the concepts of possession through major theories such as generative grammar and cognitive linguistics. Additionally, it examines the morphological forms of possession and changes in syntactic structures.

**Key words:** *linguistic, possessiveness, cognitive, experimental, component, position, hierarchy, cognitive, individualism, sociolinguistics.*

Posessivlik kategoriyasini tadqiq etishda bir nechta lingvistik nazariya va metodlar qo'llaniladi. Sintaktik yondashuv posessiv frazalar tuzilishini o'rganadi, semantik yondashuv esa ularning ma'nosini tahlil qiladi. Kognitiv yondashuv posessivlik tushunchalarini inson tafakkuri bilan bog'laydi, sotsiolingvistik yondashuv esa ijtimoiy kontekstda farqlarni ko'rib chiqadi. Korpus tadqiqotlari til ma'lumotlarini yig'ish va statistik tahlil qilishga asoslanadi, eksperimental tadqiqotlar esa posessivlikni muloqot jarayonida qanday qabul qilinishini o'rganadi. Bu metodlar birgalikda posessivlikni chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Sintaktik yondashuv posessivlikni tahlil qilishda tilning struktural jihatlarini o'rganishga qaratilgan. Bu yondashuvda posessiv frazalar, ya'ni ega (posessor)

va obyekt (possessee) o'rtasidagi munosabatlar sintaktik birlik sifatida ko'rib chiqiladi. Masalan, "Alining kitobi" frazasida "Ali" ega bo'lib, "kitob" obyektidir. Sintaktik yondashuv bu frazaning qanday tuzilganini, uning komponentlari o'rtasidagi aloqalarni va ularning funksiyalarini aniqlashga yordam beradi.

Posessiv frazalar ko'pincha egali va obyektli jumalarda joylashadi. Ularning sintaktik pozitsiyasi, ya'ni qaysi joyda joylashishi va qanday bog'lanishi muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, turkiy tillarda posessiv affiksalar yordamida egalar va obyektlar o'rtasidagi munosabatlar aniq ifodalanadi. "Ali kitobi" yoki "Ali'nin kitabi" kabi frazalarda affiksalar egani obyektga bog'laydi va ularning o'zaro munosabatini ko'rsatadi. Bundan tashqari, sintaktik yondashuvda morfologik jihatlar ham

muhim rol o'ynaydi. Posessiv affiksalar, masalan, "ning", "i", "u" kabi qo'shimchalar, posessor va possessee o'rtasidagi munosabatni aniqlashda yordam beradi. Bu affiksalar yordamida egalar va obyektlar o'rtasidagi va bog'lanishlar aniq ko'rinadi.

Sintaktik yondashuv posessivlikni tushunishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u tilning tuzilishini va uni tashkil etuvchi elementlar o'rtasidagi munosabatlarni ochib beradi. Bu yondashuv orqali posessiv frazalar va ularning sintaktik xususiyatlari haqida chuqurroq tushuncha hosil qilish mumkin.

Semantik yondashuv posessivlikni uning ma'nosi va tushunchasi nuqtai nazaridan chuqur o'rganishga qaratilgan. Bu yondashuvda posessivlikning qanday shakllanishi va ifodalanishi, egalar va obyektlar o'rtasidagi munosabatlarning semantik jihatlari tahlil qilinadi. Masalan, "Alining kitobi" frazasida "Ali" ega bo'lib, "kitob" obyektidir. Bu yerda ega va obyekt o'rtasidagi munosabatlar, ya'ni egadagi mulkni ifodalovchi ma'no aniqlanadi. Posessivlikning semantik jihatlari kontekstga qarab o'zgarishi mumkin. Biror narsaning egasi bo'lishi, uning qiymati, ahamiyati va hissiy munosabatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Misol uchun, "Ota-onaning sevgisi" iborasi faqat mulkni emas, balki hissiy bog'lanishlarni ham ifodalaydi. Shuningdek, posessivlik ko'pincha ijtimoiy va madaniy kontekstga bog'liq bo'lib, turli tillarda va madaniyatlarda turlicha qabul qilinishi mumkin. Shu tariqa, semantik yondashuv posessivlikni faqat sintaktik jihatdan emas, balki uning ma'nosi, konteksti va ijtimoiy ahamiyati nuqtai nazaridan ham chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Bu yondashuv orqali posessivlikning murakkab tabiati va uning turli kontekstlarda qanday o'zgarishi haqida yaxshiroq tushuncha hosil qilish mumkin.

Kognitiv yondashuv esa posessivlikni inson tafakkuri va til o'rtasidagi munosabatlar orqali chuqur tahlil qiladi. Posessivlik tushunchalari kognitiv jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, bu jarayonlar orqali insonlar mulkni anglash va ifodalashni o'rganadilar. Misol uchun, "mening" kabi so'zlar egalikni belgilovchi kognitiv ramkalarni yaratadi va bu ramkalar mulkni tushunishda asosiy rol o'ynaydi.

Madaniy kontekstlar ham posessivlik tushunchalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Har bir madaniyatda egalik tushunchalari turlicha bo'lishi mumkin; ba'zi madaniyatlarda umumiy mulk va oilaviy egalik, boshqalarida esa individualizm va shaxsiy mulk ustun keladi. Bu farqlar til va ifodalash vositalarida aks etadi. Shuningdek, posessivlikning ijtimoiy jihatlari ham muhimdir. Ijtimoiy pozitsiya, rol va maqom egalik tushunchalarini shakllantirishi mumkin. Ijtimoiy tengsizlik yoki hissiy bog'lanishlar posessivlik ifodalariga ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda,

kognitiv yondashuv posessivlikni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Sotsiolingvistik posessivlikni ijtimoiy kontekstda o'rganishda bir qator muhim jihatlarga e'tibor beradi. Masalan, turli ijtimoiy guruhlar orasida posessiv ifodalar farq qiladi. O'zbek tilida, yuqori ijtimoiy maqomga ega bo'lgan shaxslar ko'pincha rasmiy va odobli ifodalarni ishlatadilar, masalan, "mening do'stim" o'rniga "mening hurmatli do'stim" deyishlari mumkin. Boshqa tomondan, norasmiy muhitda yoshlar o'zaro "menga tegishli" yoki "meniki" kabi oddiy ifodalarni ishlatishlari mumkin. Posessivlikning kommunikativ funksiyalari ham muhimdir.

Muloqotda posessiv ifodalar shaxsiy munosabatlarni ko'rsatadi va hissiy bog'lanishlarni ifodalaydi. Masalan, "bu mening oilam" deganda, shaxs o'zining oilasiga bo'lgan mehrini va bog'lanishini ta'kidlaydi. Ijtimoiy rol va madaniyatga qarab, posessivlikda o'zgarishlar kuzatiladi. Masalan, an'anaviy madaniyatda oilaviy mulk ko'proq qadrlanadi, shuning uchun "bizning uyimiz" kabi ifodalar keng tarqalgan. Zamonaviy madaniyatda esa individualizmning ortishi bilan shaxsiy mulk tushunchalari, masalan, "mening uyim" kabi ifodalar ko'proq ishlatiladi. Bu holatlar posessivlikning ijtimoiy kontekstda qanday o'zgarishini ko'rsatadi.

Korpus tadqiqotlari yordamida posessiv frazalarning ishlatilishini o'rganish, turli tillardagi til ma'lumotlarini yig'ish va tahlil qilish uchun samarali usuldir. Masalan, o'zbek, rus va ingliz tillaridagi posessiv frazalar o'zaro taqqoslanishi mumkin. O'zbek tilida "mening kitobim" ifodasi shaxsiy mulkni ifodalaydi, bu yerda "mening" so'zi mulk egasini ko'rsatadi. Rus tilida esa "моя книга" (moya kniga) ifodasi ham shaxsiy mulkni bildiradi. Ingliz tilida "my book" shaklida ifodalanadi. Korpusdan olingan ma'lumotlar asosida statistik tahlillar o'tkazilganda posessiv frazalarining qanchalik tez-tez ishlatilishi va ularning kontekstga bog'liqligi aniqlanadi. Misol uchun, zamonaviy ijtimoiy tarmoqlarda "menga tegishli" yoki "meniki" kabi oddiy ifodalar ko'proq uchraydi. Bu esa individualizm va shaxsiy mulk tushunchalarining o'zgarishini ko'rsatadi. Shuningdek, turli ijtimoiy guruhlar orasida posessiv frazalar farq qiladi: yuqori maqomdagi shaxslar ko'proq rasmiy ifodalardan foydalanishi mumkin, masalan, "mening hurmatli do'stim", norasmiy muhitda esa "bu mening do'stim" kabi oddiy ifodalar ishlatiladi. Korpus tadqiqotlari yordamida bu farqlarni aniqlash va tahlil qilish mumkin.

Posessivlik muloqotda muhim rol o'ynaydi, chunki u shaxsiy munosabatlar va mulk tushunchalarini ifodalaydi. Eksperimental metodlar yordamida posessiv ifodalar qanday qabul qilinishi va tushunilishi o'rganiladi. Bunday tadqiqotlar ishtirokchilar orasida

eksperimentlar o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Masalan, ishtirokchilarga turli posessiv frazalar berilib, ularning qabul qilinishi va izohlanishi so'raladi. Bu jarayonda, ishtirokchilar posessiv ifodalarni qanday tushunishlarini va ularga nisbatan qanday his-tuyg'ularni his qilishlarini aniqlash mumkin.

Psixolingvistik yondashuv esa posessivlikni anglash jarayonlarini tahlil qilishda qo'llaniladi. Bu yondashuv orqali, posessiv frazalar muloqot jarayonida qanday ishlatilishini va ularning ma'nosini qanday anglashimizni o'rganish mumkin. Misol uchun, "Bu mening kitobim" iborasi berilganda, ishtirokchilar kitobning kimga tegishli ekanligini tezda anglashlari mumkin. Biroq, "Bu kitob menga tegishli" ifodasi ko'proq vaqt talab qilishi mumkin, chunki bu murakkabroq tuzilma hisoblanadi. Eksperimentlar davomida ishtirokchilarga turli kontekstlarda posessiv ifodalar beriladi, masalan, do'stlar o'rtasida yoki rasmiy muhitda. Natijalar tahlil qilinganda, posessivlikning ijtimoiy kontekstdagi ta'siri va uning muloqotdagi ahamiyati aniq ko'rinadi. Shuningdek, posessiv frazalar muloqotda shaxsiy munosabatlarni qanday ifodalashi va his-tuyg'ularni qanday ko'rsatishi ham muhimdir. Natijada posessivlik muloqotda shaxsiy identifikatsiya va munosabatlarni belgilashda kuchli vosita bo'lib qoladi. Bunday tadqiqotlar tilshunoslik va psixolingvistika sohalarida yangi bilimlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Posessivlik kategoriyasini tadqiq etishda bir nechta metodologik yondashuvlar bir-birini to'ldiruvchi va boyituvchi rol o'ynaydi. Bu yondashuvlar birgalikda qo'llanilganda, posessivlik tushunchasining yanada chuqurroq va kengroq tahlilini ta'minlaydi. Tilshunoslikda posessivlik,

shaxsiy munosabatlar, ijtimoiy identifikatsiya va mulk tushunchalarini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Har bir metodologiya posessivlikni turli nuqtai nazardan o'rganishga imkon beradi, bu esa lingvistik tadqiqotlarning boyligini oshiradi.

Masalan, eksperimental metodlar yordamida posessiv frazalar ishtirokchilarga taqdim etilib, ularning qabul qilinishi va izohlanishi o'rganiladi. Bunday tadqiqotlar ishtirokchilarning posessiv ifodalarga nisbatan qanday his-tuyg'ularni his qilishlarini va ularni qanday anglashlarini aniqlash imkonini beradi. Bu jarayonda, posessivlikning ijtimoiy kontekstdagi ta'siri ham o'rganiladi, chunki turli ijtimoiy vaziyatlarda posessiv ifodalar boshqacha qabul qilinishi mumkin.

Psixolingvistik yondashuv esa posessiv frazalarni anglash jarayonlarini tahlil qilishda qo'llaniladi. Bu yondashuv orqali, posessiv ifodalar muloqot jarayonida qanday ishlatilishini va ularning ma'nosini qanday anglashimizni o'rganish mumkin. Shuningdek, psixolingvistik tadqiqotlar posessivlik tushunchasining kognitiv asoslarini o'rganish imkonini beradi, bu esa til va fikrlash o'rtasidagi bog'lanishni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Shu tarzda turli metodologiyalarni birgalikda qo'llash posessivlik kategoriyasini yanada kengroq va chuqurroq tahlil qilishga imkon beradi. Bu esa tilshunoslik va psixolingvistika sohalarida yangi bilimlarni keltirib chiqarishi mumkin. Natijada, posessivlik muloqotdagi shaxsiy identifikatsiya va munosabatlarni belgilashda kuchli vosita bo'lib qoladi. Bunday tadqiqotlar natijasida tilshunoslar posessivlikni nafaqat tilshunoslik nuqtai nazaridan, balki ijtimoiy va psixologik kontekstlarda ham chuqurroq tushunish imkoniga ega bo'lishadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdullayeva, M. (2010). O'zbek tilida posessivlik kategoriyasi. – Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti, 45-67-betlar.
2. Jumaniyazova, N. (2015). O'zbek tili grammatikasi. – Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, 112-130-betlar.
3. Xudoyberdiyev, A. (2018). O'zbek tilida so'z birikmalari va ularning grammatik xususiyatlari. – Tashkent: Sharq, 78-95-betlar.
4. Sirojiddinov, A. (2020). O'zbek tilida posessivlik va uning ifodalanish usullari. – Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti, 22-40-betlar.
5. Rasulov, R. (2016). O'zbek tili leksikologiyasi. – Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, 88-105-betlar.
6. Lyons, John (1981). Language, Meaning and Context. – London: Routledge. Pages 123-145.
7. Hudson, Richard (1984). Word Grammar. – Oxford: Clarendon Press. Pages 78-95.
8. Langacker, Ronald W. (1993). Concept, Image, and Symbol: The Cognitive Basis of Grammar. – Berlin: Mouton de Gruyter. Pages 67-89.
9. Bhat, Darbha P. (1999). Possession: A Universal Typology. In Linguistic Typology, 3(1), 1-50.

## PRAGMATONIMLARNING SHAKLLANISHIDA KONVERSIYA MEXANIZMLARI

**Annotatsiya:** maqolada onomastik ko'lam va unda pragmatonimlarning qo'llanilishi brend nomlarining shakllanishida salmoqli o'rin tutishi xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'z va iboralar:** *pragmatonim, brend nomi, onomastik ko'lam, ishlab chiqarish, antroponimlar qisqartmalaridan, Tovar belgisi.*

**Annotation:** the article discusses that the onomastics and pragmatonyms in it play an important role in the formation of brand names.

**Key words:** *pragmatonym, brand name, stylistic devices, production, abbreviations of anthroponyms, trademark.*

**Аннотация:** в статье рассматривается, что ономастика и прагматонимы играют важную роль в формировании названий брендов.

**Ключевые слова:** *прагматоним, название бренда, стилистические приёмы, производство, аббревиации антропонимов, товарный знак.*

**Kirish.** Sodda pragmatonimlar onomastik konversiyaning tashqi va ichki turlari asosida hosil qilinadi. Tashqi onomastik konversiyada onomastik sathga mansub bo'lmagan lug'aviy birliklar, ya'ni apellyativ so'zlardan toponimlar yasaladi. Bu hodisa sohaga oid lug'atlarda deapellyativatsiya, ya'ni apellyativning turdosh so'zlikdan atoqli otlik vazifasiga o'tishi, atoqli otlashuvi<sup>1</sup> deb nomlanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Atoqli otlarning lug'aviy negizini faqatgina turdosh otlar tashkil qilmaydi, balki ularda sifatlar, sonlar, fe'llar, hatto olmosh, undov va taqlidiy so'zlar ham mavjud bo'ladi. Shu sababli bunday leksemalar majmuyini apellyativ, apellyativ leksika yoki lug'aviy asos (antroponimik asos, toponimik asos, kosmonimik asos, etnonimik asos kabi) deb yuritish o'rinlidir<sup>2</sup>. Shu o'rinda apellyativ nomlar va apellyativ leksika terminlariga berilgan izohlarni ko'rib chiqsak:

Apellyativ asosli nomlar – yasalish negizi turdosh so'zdan (atoqli ot emas) iborat bo'lgan atoqli otlar.

Apellyativ leksika – til leksikasidagi atoqli otlar tizimiga mansub bo'lmagan barcha leksemalar majmuyi<sup>3</sup>.

Onomastik konversiya usuli – apellyativ leksikaning hech qanday yasovchi vositasiz atoqli ot vazifasiga o'tishini anglatadi.

E.Begmatov o'zbek tilidagi onomastik apellyativlarni ikkiga bo'lish mumkinligini ta'kidlaydi: turdosh ot apellyativlar va atoqli ot apellyativlar. Atoqli ot apellyativlar atoqli otlarning ikkinchi (uchinchi) bor atoqli ot vazifaga ko'chishidir<sup>4</sup>.

Demak, atoqli ot apellyativlar, tranonimizatsiya terminlari bir atoqli otning boshqa atoqli ot vazifasiga o'tishi, ko'chishini anglatadi.

1 Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. –Б.27.

2 Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. –Тошкент: Фан, 2013. –Б.94

3 Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. –Наманган, 2006. –Б.17.

4 Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. –Тошкент: Фан, 2013. –Б.102

Onimik bosqichli (onimik stadiyali) atamasi ostida atoqli otning apellyativ bosqichsiz birdan hosil qilinadigan holati tushuniladi. Bunda ko'proq sun'iy nomlar paydo bo'ladi. Atoqli otlar nominativ-funksional xususiyatlariga ko'ra o'zaro farqlanuvchi, shu bilan birga, bir-biri bilan bog'liq va o'z navbatida biri ikkinchisiga qarama-qarshi lisoniy mavjudlikdir.

A.Superanskaya onomastik konversiya terminini quyidagicha izohlaydi: "Onomastik tadqiqotlarda so'z yasallashining leksik-semantik usuli onomastik konversiya deb yuritilmoqda. Onomastik konversiya tildagi mavjud leksemalarning hech qanday o'zgarishsiz yoki sezilarsiz holdagi o'zgarishlar bilan atoqli ot vazifasiga ko'chishidir"<sup>5</sup>.

N.Uluqov tomonidan **ichki toponimik konversiya** asosidagi yasallashlarga nisbatan **tranonimizatsiya** terminini qo'llash maqsadga muvofiq bo'lishi ta'kidlab o'tilgan: "Tranonimizatsiya (lot. Trans – orasidan, ichidan+onimizatsiya) – biror tip atoqli otning boshqa tip atoqli otga o'tishi"<sup>6</sup>.

**Muhokama.** O'zbek tilining onomastik sathida bir onomastik birlikning boshqa onomastik birlikka o'tishi – tranonimizatsiya keng tarqalgan. Bu hodisa ichki onomastik konversiya deb ham nomlanadi. Tranonimizatsiya pragmatonimlarga ham xos bo'lib, bunda mahsulot yoki xizmat nomi antroponim, toponim, kosmonimlar va boshqa atoqli ot turlaridan hosil bo'ladi. Bu faqat atoqli otlar doirasida yuz beradi va obyektiv olam tarkibidagi mikroolamlarning o'zaro aloqadorligi hamda bog'liqligi mahsulidir. Antroponimlar ham brend nomlarining shakllanishida salmoqli o'rin tutadi. Dunyoga mashhur brend nomlarining ko'pchilik qismi antroponimlar asosida yasalgan. Bunday brend nomlarining asosiy qismini mashina nomlari, texnika va texnologiya vositalari nomlari, kiyim-kechak va

5 Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. –М.: 1973. –С.115.

6 Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. –Наманган, 2006. –Б.84.

parfumeriya mahsulotlari nomlari tashkil etadi. Ularni bir necha guruhga bo'lib tasniflash mumkin: yakka antroponimlardan olingan brend nomlari, ikki antroponimning birlashuvidan yasalgan brend nomlari, antroponim + faoliyat turi, antroponim + sifat qurilmali brend nomlari, antroponimlarni erkalab qisqartirish orqali yasalgan brend nomlari, antroponimlar qisqartmalaridan yasalgan brend nomlari.

**Natija.** Yakka antroponimlardan olingan brend nomlari eng keng guruhni tashkil etadi: ingliz, nemis tilidan kirib kelgan, antroponimlar orqali yasalgan brend nomlarining aksariyat qismi kompaniya asoschisi yoki boshqaruvchisining familiyalaridan olingan. Shuningdek, ismlardan olingan brend nomlari ham uchraydi.

Ford XX asrlar boshlarida zamonaviy mashinalar ishlab chiqaruvchi kompaniyaning nomi sifatida qo'llanila boshlagan bo'lib, bu nom kompaniya asoschisi Genri Ford nomiga qo'yilgan. Mercedes nomi esa mashina ishlab chiqaruvchi hamkorlardan birining qizining ismi bo'lib, 11 yoshli qiz – Mercedes Jellinek nomiga atab qo'yilgan.

Enzo Anselmo Ferrari italiyalik mashhur poygachi va mashina ishqibozi bo'lgan, keyinchalik mashina ishlab chiqarish kompaniyasiga asos solgan va brendni o'z familiyasi bilan *Ferrari* deb atagan.

Tesla bugungi kunda butun dunyoga mashhur elektromobillar ishlab chiqaruvchi kompaniya hisoblanadi. Tesla nomi ham aslida antroponim asosiga qurilgan bo'lib, mashinalar mashhur elektrotexnika bo'yicha ixtirochi Nikola Tesla nomi bilan ataladi. Mashinalar uchun Tesla nomining qo'yilishida ularning elektr energiyasi yordamida yurishi nazarda tutilgan bo'lib, Nikola Tesla ham aynan elektroenergetika, elektrotexnika sohasida mashhur avstriyalik olim bo'lgan.

Bentley brendi ostida ishlab chiqariluvchi mashinalar nomi ham antroponim asosida yaratilgan bo'lib, kompaniya asoschisi, muhandis Uolter Ouen Bentley nomiga qo'yilgan.

Nestle so'zi ingliz tilida "uyada qo'nmoq", "uyali bo'lmoq" degan ma'noni anglatadi. Kompaniya logotipida uyasida bolalariga ovqat berayotgan qushlar tasviri borligiga ko'ra brend nomini shu ma'no bilan bog'lashadi. Lekin, aslida, bu nom kompaniya asoschisi Henri Nestle familiyasidan olingan.

Uolt Disney o'z nomini bolalar uchun yaratiladigan multfilmlar nomiga muhrlagan, *Disney* brendi nomi kompaniya asoschisi familiyasini anglatadi.

Bugungi kunda texnika va texnologiyaning rivojlanishi bu sohada kompaniyalarning kengayishiga, yangi brend nomlarining yaratilishiga sabab bo'ldi. Dell brendi ham bugungi kunda dunyoga mashhur kompyuter va elektrotexnika vositalari ishlab chiqaruvchi kompaniya nomi bo'lib, Maykl Dell bugungi kunda kompaniyaning boshqaruvchisi sanaladi.

Onim va faoliyat turi qisqartirilgan holda yasalgan brend nomlari ham mavjud. *Artel* brendi nomi *Artixodjaye* + *telekom* so'zlarining birinchi bo'g'ini qisqartmalaridan olingan bo'lib, kompaniya texnika va texnologiya mahsulotlari ishlab chiqaradi.

**Xulosa.** Dunyoning ko'plab tillarida, xususan, ingliz tilida muloqot uchun ham ism va familiya xosdir. Yuqoridagi tahlillar asosida ham buning guvohi bo'ldik. Antroponimlardan olingan brend nomlari, asosan, familiya yoki ism va familiyadan olingan. Lekin ayrim tillarda patronimlar familiyadan kengroq qo'llaniladi. Demak, brend nomlari jarangli bo'lish, iste'molchini o'ziga jalb qilish vazifalaridan tashqari, milliy o'ziga xoslikni ifoda etish – lingvokulturologik vazifani ham bajaradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев Б. Х. Ўзбек реклама лингвистикаси: назария ва амалиёт: Филол.фан. бўйича фалсафа доктори дисс. – Андижон, 2020, –142 б.
2. Ахтямов А. Реклама матнларининг ўзбек, рус ва немис тиллари мисолидаги прагматингвистик таҳлили. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. –Фарғона, 2022.
3. Бурханова М. Креолизатив матнларнинг паралингвопозетик тадқиқи. Филол.фан. бўйича фалсафа доктори дисс. –Фарғона, 2022. –150 б.
4. Горбаневский М.В. Лексико-семантический словообразовательный анализ русского ойконимии (Междуречья Оки, Москвы Нары) АКД, 1980 –168 с.
5. Исакова А.А. Прагматонимы современного русского языка как составляющая рекламного дискурса: лингво-когнитивная, семантическая, структурно-прагматическая характеристика: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. –Челябинск, 2012. – 46 с.
6. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. –М.: Наука, 1988. –С.96.
7. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. –Тошкент: Фан, 2013. –Б.9.
8. Dilorm, Y. (2022). FUNCTIONAL NATURE OF CONCEPTUAL OCCURRENCE OF SUBJECT CATEGORY IN ENGLISH. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 *Impact factor: 8.036, 11(09), 398-401.*
9. Dilorm, Y. (2022). COGNITIVE GRAMMAR AND ITS SIMILARITIES AND DIFFERENCES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW* ISSN: 2319-2836 *Impact Factor: 8.071, 11(12), 223-229.*
10. Aliyevna, Y. D. (2023). Study Of Concepts Expressing The Relationship Between New And Old Information (Theme And Rheme) Expressed In A Sentence. *Journal of Positive School Psychology, 7(2).*

**Shaxloza KARIMOVA,**  
*Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD,*  
*e-mail: shaxlozakarimova@gmail.com*

## KVANTITATIVLIKNING IFODALANISHI HAQIDAGI FONETIK QARASHLAR

**Annotatsiya:** maqolada kvantitativlikning fonetik sathda ifodalanishi haqidagi turli qarashlar tahlili keltirilgan. Ingliz, rus va o'zbek tillarida kvantitativlik urg'usi namunalari berilgan.

**Kalit so'zlar:** *kvantitativlik, fonetik sath, kvantitativlik urg'usi, zarb urg'usi, tovush, bo'g'in.*

**Аннотация:** в статье представлен анализ различных взглядов на представление квантификации на фонетическом уровне. Примеры количественного акцента приведены на английском, русском и узбекском языках.

**Ключевые слова:** *квантитативность, фонетический уровень, количественное ударение, ритмическое ударение, звук, слог.*

**Annotation:** the article presents an analysis of different views on the representation of quantification at the phonetic level. Examples of quantitative emphasis are given in English, Russian and Uzbek languages.

**Key words:** *quantitativeness, phonetic level, quantitative stress, rhythmic stress, sound, syllable.*

**Kirish.** Til tizimining barcha sathlarida kuzatiladigan kvantitativlik hodisasi lingvistika uchun muhim kategoriyalardan biri bo'lib, u til birliklarining miqdoriy ko'rsatkichlar orqali farqlanishi, kuchayishi yoki bo'rtib namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi. Mazkur kategoriya fonetika, leksikologiya, morfologiya va sintaksis kabi turli bo'limlarda turlicha ifodalanadi. Xususan, fonetik sathda kvantitativlik tovushlarning cho'ziqligi, davomiyligi, intensivligi kabi akustik va artikulyatsion belgilar orqali yuzaga chiqadi.

O'zbek tilshunosligida fonetik kvantitativlik masalasi bilan A.G'ulomov, E.Fayzullayeva, Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, M.Mirtojiyev, A.Mahmudov kabi bir qator olimlar izchil shug'ullangan. Ularning izlanishlari unli va undoshlarni cho'zib talaffuz qilish orqali ma'no kuchaytirish, stilistik bo'yoq berish, urg'uni belgilash hamda prosodik tuzilmani shakllantirish kabi funksiyalarni aniqlashga qaratilgan. Xususan, Mirtojiyev va Mahmudov tomonidan olib borilgan tajribalar o'zbek tilida leksik urg'u dinamik emas, balki kvantitativ (cho'ziqlik) xarakterga ega ekani haqidagi ilmiy xulosalar bilan ahamiyatlidir.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Kvantitativlikni leksik, sintaktik kabi sathlarda ifodalanishini turli tadqiqotlarda kuzatishimiz mumkin. Kvantitativlikni fonetik sathdagi qarashlarni ilgari surgan tadqiqotchilardan A.G'ulomov, E.Fayzullayeva, Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, A.Mahmudov, M.Mirtojiyevlar unli va undosh tovushlarni cho'zib talaffuz qilish orqali kvantitativlikni ifodalash imkoni mavjudligini ta'kidlaydilar (G'ulomov, 1944, 43-bet).

Ushbu tadqiqot kvantitativlikning fonetik sathda namoyon bo'lishi, uning unli va undosh tovushlar cho'ziqligi orqali ifodalanishi, shuningdek, bu jarayonning o'zbek va ingliz tillaridagi ko'rinishlarini

tahlil qilishga bag'ishlangan. Asarda badiiy nutqdagi cho'ziqlik misollari, tajribalarga asoslangan fonetik kuzatishlar hamda prosodik xususiyatlarning til tizimi uchun ahamiyati yoritiladi.

### **Natijalar.**

Tilshunoslar fonetik sathda ham kvantitativlik mavjud bo'la olishini isbotlashga urinishgan. Bunda ma'lum bir unli yoki undosh tovushni cho'zib talaffuz qilinishi orqali amalga oshirishini aytishadi. Masalan:

*Aka-uka kechqurun ichishdi, so'ngra Dumbul xirqiroq tovushi bilan xirgoyi boshladi:*

*Tera-a-a-aklar...*

*Tera-a-a-aklar...*

(O'.Xoshimov, "Dumbul" tarjima asari)

*Piyonista: Nega ch-ch-chekmaysiz? (cholning oldiga o'ritib oladi.) – mana, m-m-men ellik yildan beri ch-chekaman! Siz nega ch-ch-chekmaysiz? (O'.Hoshimov, "Butun" yigiti)*

Bu borada Miraziz Mirtojiyev fikr yuritib, o'zining "O'zbek tili fonetikasi" asarida batafsilroq to'xtaladi. Uning aytishicha "O'zbek tilidagi so'zlarning leksik urg'usini dinamik (zarb) urg'u deb kelinadi. Ya'ni o'zbek tilidagi so'zlar leksik urg'usini zarb – tovush kuchi bilan amalga oshiriladi" (Mirtojiyev, 2013, 56-bet). Olim bu holat shubhasiz rus turkologlari tomonidan ilgari surilgan qarash ekanligi va rus tilidagi tovush zarbi orqali urg'uni aniqlash shundayligicha o'zbek tiliga tatbiq qilinganligini aytib o'tadi. U ma'lum izlanishlar olib borib, rus va o'zbek tillaridagi so'zlardagi leksik urg'usini solishtiradi va u bunday qarashlarga mutloqo qarshi ekanligini bildiradi. Rus tilida leksik urg'u zarb tovushi bilan belgilansa, o'zbek tili esa, so'z bo'g'inidagi unlining cho'ziqliligi ya'ni ortiqcha miqdorda cho'zib talaffuz etilishi bilan belgilanadi deb ta'kidlaydi. Bu fikrga hamohang, keyinchalik A.Mahmudov ham

o'z dissertatsiya ishida eksperimentlar natijasida "unlilarning cho'ziqliligi so'z urg'usini belgilaydi" degan xulosaga keladi (Mahmudov, 1993, 87-bet). M.Mirtojiyev A.Mahmudovni leksik urg'uni nazarda tutganligini va to'g'ri xulosaga kelganligini ta'kidlaydi. Olim "o'zbek tilidagi so'zlarning biror bo'g'iniga leksik urg'u tushar ekan, u tushgan bo'g'in unlisi boshqa bo'g'in unlilariga nisbatan ortiq miqdordagi msek. vaqt bilan qayd etiladi. Shuning uchun, o'zbek tilidagi leksik urg'uni kvantitativ urg'u deb qaraladi" deb aytadi.

#### Muhokama.

Tilshunos leksik urg'uni kvantitativ urg'u deb ta'kidlab, tajribalar asosida isbotlashga uringan. Masalan, "qizil" so'zida ikki bo'g'in mavjud bo'lib, 6mm tovush kuchi (amplitudada) baholanadi. Bu Mirtojiyev o'lchovi bilan aytganda birinchi bo'g'in 30 m.sek ikkinchi bo'g'in 80 m.sek ekanini bildiradi. Ko'rinib turibdiki, leksik so'z urg'usi ikkinchi bo'g'inga tushadi. Aksariyat tilshunoslarni shunchaki so'zning so'nggi bo'g'iniga tushadi deb aytadilar.

O'zbek tilida urg'u an'anaviy tarzda dinamik (zarb) urg'u sifatida talqin qilinib kelgan. Biroq M. Mirtojiyev (2013) o'zining akustik tadqiqotlarida o'zbek urg'usining asosiy belgisi unlining ko'proq cho'ziqlik bilan talaffuz qilinishi ekanligini eksperimental ravishda isbotlaydi.

Ya'ni urg'u ko'proq m.sek bilan belgilanadi.

#### Mirtojiyev o'lchovlariga ko'ra o'zbekcha unli cho'ziqligi:

- urg'uli bo'g'in: 70–120 msek
- urg'usiz bo'g'in: 30–60 msek

Ingliz tilida unli tovushlarni cho'zib talaffuz qilish o'zbek tilidagi kabi ma'lum stilistik rang berishini kuzatishimiz mumkin. Ingliz tilida bunday holatlar ko'plab kuzatiladi. Ingliz tilida ba'zi so'zlarning cho'ziq talaffuz qilinishi oddiy fonetik holat. Odatda bunday holatlar ikkita unli birin-ketinlikda keladigan unli tovushlar bilan sodir bo'ladi. Masalan: beer- [bi:], pier- [pi:]. Undosh tovushlarning ikkilanishi holatini ingliz tilida boshqa tillardan farqli ravishda undosh oldidagi unli tovushning kuchli talaffuzini bildiradi. Masalan: "super" so'zi o'nida "supper" bo'lganda "u" tovushi cho'zib talaffuz qilinadi (Zsiga, 2013, 64-bet).

Tillarda mavjud bo'lgan unli va undosh tovushlarni

cho'zib talaffuz qilish holati kvantitativlikning fonetik sathda ham tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu holatning tillardagi ko'rinishlari va ifodalanishi o'xshash ekanligini ta'kidlamoqchimiz. Bu holatlar ko'pincha so'zning ma'nosini kuchaytirish, urg'u olishi va ajratib ko'rsatish kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Shuningdek, **kvantitativlikning stilistik funksiyalarini ham tahlil qilganda tuvushning cho'ziqligi tilning badiiy, emotsional qatlamlarida faol xizmat qilishini ta'kidlab o'tish mumkin.** Asosan **hissiyot kuchaytirish** ("O-o-oh my God!" / "Yoo'o'o'q!"), **nutqiy imitatsiya**: (mast odam: "m-m-man..." / bolalar nutqi: "ma-a-amma") va **urg'uni semantik ajratish**: (*He looooves me!* / *It is so-o-o clear*) kabi holatlarda namoyon bo'ladi.

#### Xulosa.

Yuqoridagi tahlillar kvantitativlikning fonetik sathda alohida ahamiyatga ega bo'lgan lingvistik kategoriya ekanini tasdiqlaydi. Unli va undosh tovushlarning cho'zilib talaffuz qilinishi turli tillarda bir nechta funksiyalarni bajaradi: u stilistik ekspressivlik, emotsional bo'yoqlash, urg'uni kuchaytirish, prosodik markazni belgilash kabi vazifalarga xizmat qiladi. O'zbek tilida cho'ziqlik, ayniqsa, leksik urg'uni belgilovchi asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi. Mirtojiyev va Mahmudov tajribalari natijasida aniqlangandek, urg'u tushgan bo'g'in unlisi boshqa bo'g'inlarga nisbatan ko'proq vaqt davomida talaffuz qilinadi, bu esa o'zbek tilidagi urg'uning kvantitativ xarakterga ega ekanini ko'rsatadi.

Ingliz tilida ham unli tovushlarning cho'ziqligi fonologik farqlovchi belgi bo'lib, ba'zan stilistik ta'sir kuchaytirishda ham qo'llanadi. Undoshlarning ikkilanishi yoki cho'ziqlik bilan aytilishi oldingi unlining davomiyligiga ta'sir etishi esa bu tilning o'ziga xos fonetik xususiyatlaridan biridir.

Umuman olganda, fonetik sathda kuzatiladigan kvantitativlik hodisasi nafaqat tovushning fizik akustik xususiyati, balki semantik, stilistik va prosodik yuklama tashuvchi lingvistik mexanizm sifatida qaralishi lozim. Bu hodisaning turli tillardagi o'xshash va farqli jihatlarini o'rganish fonetika, fonologiya hamda tipologiya bo'yicha olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov A. Unlilar. – Toshkent: O'zFA «Kibernetika» ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi, 1993.
2. Mirtojiyev M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
3. Gulomov A. O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi. – Toshkent: O'zdavrnashr, 1944.
4. Zsiga E. The Sounds of Language: An Introduction to Phonetics and Phonology. – Wiley-Blackwell, 2013.

**Dildora TURG'UNOVA,**  
ADPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta  
o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD).  
E/p. [dt1219240@mail.com](mailto:dt1219240@mail.com)

## ZONIM KOMPONENTLI O'XSHATISHLARNING LINGVOKULTUROLOGIK ASOSLARI

**Annotatsiya:** maqolada o'zbek tilidagi zoonim komponentli o'xshatishlarning lingvokulturologik, etnolingvistik va kognitiv-semantik xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilinib, hayvonlarning xatti-harakatiga asoslangan obrazlarning milliy mentalitet, madaniy stereotiplar, baholovchi-emotsional vositalar va metaforik tasavvurlar shakllanishidagi o'rni, shuningdek, ularning frazeologik jihatdan ramziy xususiyatlari tahlilga tortilgan va natijalarga asoslangan xulosalar chiqarilgan

**Kalit so'zlar:** *semantik tizim, konseptual maydon, ramz, kognitiv metafora, milliy stereotip, emotiv ifoda, badiiy-estetik vazifa.*

**Аннотация:** в статье систематически проанализированы лингвокультурные, этнолингвистические и когнитивно-семантические особенности зоонимических компонентных сравнений в узбекском языке, роль образов, основанных на поведении животных, в формировании национального менталитета, культурных стереотипов, оценочно-эмоциональных средств и метафорических представлений, а также их фразеологические и символические особенности, и на основе полученных результатов сделаны соответствующие выводы.

**Ключевые слова:** *семантическая система, концептуальное поле, символ, когнитивная метафора, национальный стереотип, эмоциональное выражение и художественно-эстетическая функция.*

**Annotation:** the article provides a systematic analysis of the linguocultural, ethnolinguistic, and cognitive-semantics features of zoonymic component comparisons in the Uzbek language, the role of animal behavior-based images in shaping national mentality, cultural stereotypes, evaluative-emotional means, and metaphorical representations, as well as their phraseological and symbolic characteristics, and draws conclusions based on the obtained results.

**Key words:** *semantic system, conceptual field, symbol, cognitive metaphor, national stereotype, emotive expression, and artistic-aesthetic function.*

Hozirgi kunda tilning frazeologik tizimi xalqning madaniy xotirasi, tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini uzluksiz tarzda uzatuvchi universal kod sifatida tadqiq etilmoqda. O'zbek tilida hayvonlar harakatini ifodalovchi so'zlar ishtirok etgan ko'plab o'xshatishlar ham mavjud. Ular xalqning boy lisoniy xazinasining katta qismini tashkil etadi.

O'xshatishlarni tadqiq etgan ko'p tilshunoslarning aksariyati turg'un o'xshatishlarni idiomalarga yaqin turishini yoki idioma maqomida bo'lishini ta'kidlaydilar. Turg'un o'xshatishlar til tizimidagi alohida frazeologik iboralarning bir turini tashkil qilishini e'tirof etadilar [1:7]. O'xshatishlar ko'p asrlar mobaynida kishilar nutqida qo'llanish natijasida turg'unlashib, so'zlovchilar ongida muayyan modellar shaklida mustahkamlanib qolgan. "O'xshatishlar, – deb yozadi N.Mahmudov, – ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchani o'xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash, tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi. Bu behad muhim mantiqiy kategoriya, tabiiyki, tilda ham o'z aksini topadi" [1:4]. Shu jihatdan olib qargalanda, hayvonlarning xatti-harakati bilan bog'liq tushunchalar ham etnos kognitiv dunyosida avvaldan mavjud bo'lib, ular idrok jarayonini osonlashtiradi.

Zoonim komponentli o'xshatishlarni o'rganish turli etnomadaniyatlar bilan bevosita tanishish imkonini

beradi. Shuningdek, bu jarayon flora va fauna jihatidan hozirda mavjud bo'lmagan hayvonlar haqida ma'lumotga ega bo'lishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zoonim komponentli til birliklarini, xususan, o'xshatishlarni tadqiq etish tilshunoslikning bir qator masalalarini hal qilishda ahamiyatlidir. Ayniqsa, hayvonlarning biologik xatti-harakatiga asoslangan zoonim komponentli o'xshatishlar o'zbek xalqining etnomadaniy tafakkurida alohida o'rin egallab, milliy dunyo tasavvurining ko'p qatlamli mazmunini ifodalaydi.

Hayvon harakati asosida hosil bo'lgan o'xshatishlar nafaqat til sathida, balki madaniy-kognitiv qatlamda ham insonning dunyo manzarasini shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi va xalqning qadriyatlari, axloqiy baholari, estetik me'yorlari, psixologik tasavvurlarini mujassamlashtiradi.

O'zbek tiliga oid hayvonlar va ularning nomlari bilan bog'liq dastlabki yirik tadqiqotlardan biri tilshunos olim A.Shcherbak tomonidan olib borilgan [2]. D.Bazarovanning tadqiqotida o'zbek tilida mavjud qush nomlariga to'xtalib o'tilgan [3]. Alisher Navoiy ijodida badiiy san'atlarni hosil qilishda qanday zoonimlardan foydalanganligi haqidagi qimmatli ma'lumotlar esa B.Zaripov tomonidan nomzodlik dissertatsiyasida ko'rsatib o'tilgan [4]. B.Abdushukurov [5], A.Omonturdiyev [6], D.Yuldasheva [7] kabi olimlarning tadqiqotlarida zoonimlar va ular bilan aloqador belgilar tahlil etilgan. Yuqorida nomlari keltirilgan ilmiy izlanishlarni

o'rganish davomida hayvonlarning xatti-harakatlari asosida shakllangan til birliklari – frazemalar, maqollar, o'xshatishlar mutlaqo nazardan chetda qolganligining guvohi bo'lamiz.

Lingvistik jihatdan hayvon nomlari, ularning lug'aviy-ma'noviy guruhlari, biologik xususiyatlari, muayyan tana a'zolari tomonidan amalga oshiriladigan harakat natijasida shakllangan metaforalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

## **I. Zoonimlarga asoslangan o'xshatishlarning semantik guruhlari.**

### **1.1. Ovoz asosidagi o'xshatishlar.**

Quyidagi birliklar hayvonlarning tabiiy ovozi yoki tovush chiqarish xususiyatini metaforik asos qilib oladi:

xo'kizdek pishqirmoq – qo'pollik, baqirish, o'ta baland ovoz; ayiqdek o'kirmoq – qo'rqinchli, vahimali qichqiriq; bulbulday sayramoq – yoqimli, ravon, san'atkorona nutq; bedanadek sayramoq – ingichka, mayin, qisqa ohang.

Bu o'xshatishlar xalqning hayvon tovushlarini nozik idrok etishi, ularni nutqiy xulqqa ko'chirishi bilan bog'liq. Bulbulning go'zallik va muhabbat timsoli sifatida qadrlanishi turkiy madaniyatdagi barqaror estetik stereotipdir.

### **1.2. Harakat asosidagi zoonim tarkibli o'xshatishlar.**

Baliqday suzmoq – epchillik, yengillik; burgut kabi chang solmoq / tashlanmoq – jasorat, yovuzlikka qarshi dadillik; beshiktervatarday tebranmoq – mayin tebranish; ariday / qovoqariday guvillamoq; g'o'ng'illamoq – bezovta, shovqinli holat.

Burgut obrazi qadimdan turkiy xalqlar madaniy hayotida himoya va mardlik timsoli bo'lib kelgan. Baliq esa suv ostidagi tezkorlik timsoli bo'lib, konseptual metaforada "epchillik" sifatini yuzaga chiqaradi.

**1.3. Tashqi ko'rinishga asoslangan o'xshatishlar:** bo'rsiqday semirmoq – ortiqcha vazn, og'irlik; buqalamunday tuslanmoq – rang o'zgartirish, moslashuvchanlik, ikkiyuzlamachilik; bo'zto'rg'aydek bo'zlammoq – ingichka, ohangdor va mungli ovoz.

Buqalamun bilan bog'liq o'xshatishlar turkiy xalqlarda aldov, yuz o'zgartirish, ishonchsizlik kabi salbiy konnotatsiya kasb etadi.

## **II. Zoonim o'xshatishlarning lingvokulturologik asoslari**

### **2.1. Etnoqadriyatlar va hayvon obrazi**

Hayvonlar turkiy xalq mentalitetida muhim ramziy qatlamni tashkil etadi. Misol:

*bulbul – go'zallik, muhabbat, san'at; burgut – mardlik,*

*himoya, erk; ari – mehnatsevarlik; xo'kiz – qo'pollik, kuch; bo'rsiq – semizlik; baliq – epchillik, sukunat;*

Bu obrazlar frazeologik birliklarda milliy mentalitetni aks ettiruvchi qudratli ramzlar sifatida xizmat qiladi.

### **2.2. Kognitiv metafora asoslari**

Zoonim o'xshatishlarning asosiy modeli:

**HAYVON XARAKATI → INSON XULQI**

Lakoff va Johnson ta'kidlaganidek, metafora inson idrokining markazida turadi [8:74-75]. O'zbek tilida "bulbulday sayramoq" metaforasi nutqni qushning ovozi orqali tushuntiradi; "xo'kizdek pishqirmoq" esa ovoz balandligini kuch metaforasi orqali ifodalaydi.

### **2.3. Milliy stereotiplar**

Quyidagi stereotiplar tilda mustahkam o'rnanishgan: *bulbul – ijobiy, estetik stereotip; burgut – qahramonlik stereotipi; xo'kiz – qo'pollik; bo'rsiq – semizlik; ari – g'ashlik va og'irlik; baliq – sukunat, tezlik; buqalamun – ikkiyuzlamachilik.*

Stereotiplar faqat til fenomeni emas, balki ko'p asrlik madaniy tajribaning mahsulidir.

## **III. Zoonim o'xshatishlarning funksional-pragmatik roli**

### **3.1. Emotiv ifoda**

Bo'tadek bo'zlammoq, bulbulday xonish qilmoq kabi birliklar emotsional ohangni kuchaytiradi.

### **3.2. Baholash funksiyasi**

Ko'plab zoonim o'xshatishlar baholovchi xarakterga ega:

**ijobiy:** *bulbulday, burgut* kabi; **salbiy:** *xo'kizdek, bo'rsiqday, buqalamunday.*

### **3.3. Mental xotira**

O'zbek xalqining tabiat bilan aloqador qadimiy hayot tarzi frazeologiyada saqlangan.

### **3.4. Badiiy-estetik funksiyalar**

Badiiy matnlarda bulbul, burgut, bo'taloq obrazlari tez-tez uchraydi.

O'zbek tilida hayvonlarning biologik xatti-harakatiga asoslangan zoonim komponentli o'xshatishlar xalqning etnomadaniy tafakkuri, qadimiy e'tiqodlari va kognitiv dunyoqarashining muhim lingvistik ifodasidir. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, bu o'xshatishlar tilning metaforik kuchini oshiradi, milliy mentalitetni aks ettiradi va xalqning tabiat haqidagi tasavvurlarini avloddan avlodga uzluksiz yetkazib keladi. Bu kabi o'xshatishlarni tizimli o'rganish o'zbek frazeologiyasining lingvokulturologik tadqiqotlari uchun keng istiqbollar ochadi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Махмудов Н., Худойберганаева Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. 319-б
2. Щербак А.М. Названия домашних и диких животных в тюркских языках // Историческое развитие лексики тюркских языков. – М., Акад. наук. СССР, 1961. – С.82-150.
3. Базарова Д.Х. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка. – Т.: Фан, 1978. – С. 222.
4. Зарипов Б. Зоонимларнинг бадий санъат турларини ҳосил қилишдаги иштироки (А.Навоий асарлари асосида): Филол. фанлари номзоди... дисс. – Т., 2002. 128-б.
5. Абдушукуров Б.Б. XI-XIV аср туркий ёзма манбалар тилидаги зоонимлар. Филол. фанлари номзоди... дисс. – Т., 1998. 207-б.
6. Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутқ эвфемикаси (чорвадорлар нутқи мисолида): Филол. фанлари д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009. 252-б.
7. Юлдашева Д.М. Ўзбек болалар фольклори тилида зоонимлар. Филол. фанлари номзоди... дисс. – Т., 2007. 124-б.
8. George LAKOFF and Mark JOHNSON. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. 242-p.

**Atadjan DJUMASHEV,**  
 Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
 o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
 Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
[Djumashev.1976@mail.ru](mailto:Djumashev.1976@mail.ru)

## QURILISH SOHASIDAGI TERMINLAR VA ULARNING TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI

**Annotatsiya:** mazkur maqola qurilish sohasidagi terminlarning tilshunoslikdagi o'rni va ularning rivojlanish istiqbollari haqida so'z yuritadi. Maqola qurilish terminologiyasining tarixi, xususiyatlari, va tilshunoslikka ta'siri tahlil qilinadi. Qurilish sohasidagi atamalarning texnik, ilmiy va amaliy jihatlari, shuningdek, ular tilning semantik, leksik va stilistik tizimiga qanday ta'sir ko'rsatishi ko'rib chiqiladi. Maqola qurilish terminlarining tilshunoslikdagi ahamiyatini, tilni o'rganish jarayonida qanday o'zgarishlar yuz berishini va yangi so'zlarning kirib kelish jarayonini tahlil qiladi. Bundan tashqari, maqola qurilish sohasidagi terminlarning kelajakda qanday rivojlanishi va yangi texnologiyalar, ekologik masalalar va globalizatsiya ta'siri ostida qanday yangi atamalar paydo bo'lishi kutilayotganini muhokama qiladi. Ushbu maqola qurilish terminologiyasining ilmiy, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarni aks ettirishdagi rolini yoritib, sohaning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur beradi.

**Kalit so'zlar:** *qurilish terminologiyasi, tilshunoslik, texnik atamalar, ilmiy atamalar, leksik, semantik, stilistik, qurilish sohasining rivojlanishi, yangi so'zlar, globalizatsiya, ekologik qurilish yangi texnologiyalar, terminlarning rivojlanishi, xalqaro standartlar, barqaror qurilish, qurilish jarayonlari.*

**Annotation:** this article will talk about the role of terms in the field of construction in linguistics and the prospects for their development. The article analyzes the history, features, and influence of construction terminology on linguistics. The technical, scientific and practical aspects of terms in the field of construction are considered, as well as how they affect the semantic, lexical and stylistic system of the language. The article analyzes the importance of construction terms in linguistics, what changes occur in the process of language acquisition and the process of penetration of new words. In addition, the article discusses how terms in the construction industry are expected to develop in the future and what new terms are expected to appear under the influence of new technologies, environmental issues and globalization. This article highlights the role of construction terminology in reflecting scientific, social and cultural change, giving an idea of the future development prospects of the industry.

**Key words:** *construction terminology, linguistics, technical terms, scientific terms, lexical, semantic, stylistic, development of the construction industry, new words, globalization, ecological construction, latest technologies, development of terms, international standards, sustainable construction, construction processes.*

**Аннотация:** в данной статье рассказывается о роли терминов строительной отрасли в лингвистике и перспективах их развития. В статье анализируется история, особенности и влияние строительной терминологии на лингвистику. Будут рассмотрены технические, научные и практические аспекты терминов в области строительства, а также то, как они влияют на семантическую, лексическую и стилистическую систему языка. В статье анализируется значение строительных терминов в лингвистике, какие изменения происходят в процессе изучения языка и как происходит поступление новых слов. Кроме того, в статье обсуждается, как термины в строительном секторе будут развиваться в будущем и какие новые термины, как ожидается, появятся под влиянием новых технологий, экологических проблем и глобализации. Эта статья проливает свет на роль строительной терминологии в отражении научных, социальных и культурных изменений и дает представление о перспективах будущего развития отрасли.

**Ключевые слова:** *строительная терминология, Лингвистика, технические термины, научные термины, лексические, семантические, стилистические, развитие строительной отрасли, новые слова, глобализация, экологическое строительство, новые технологии, разработка терминов, международные стандарты, устойчивое строительство, строительные процессы.*

**Termin** – biror kasb yoki sohaga doir tushunchani anglatadigan, lug'aviy ma'nosi aniq ta'riflangan, ishlatilishi ma'lum doira bilan cheklangan so'z. "Termin so'zi grekcha *"terminus"* so'zidan olingan bo'lib, *"chek"*, *"chegara"* degan ma'noni bildiradi" [1. 104].

Qurilish sohasi – bu jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ushbu soha insonlarning turar-joylari, sanoat obyektlari, infratuzilma va boshqa zarur obyektlarni qurish, ta'mirlash va rekonstruksiya qilish bilan shug'ullanadi. Bilamizki, har qanday termin, u

o'z yoki o'zlashgan qatlamga aloqadorligidan qat'iy nazar, ma'lum bir sohadagi, jumladan, qurilishga oid muayyan tushunchalarni ifodalash uchun xoslangan bo'ladi va shu terminologik qatlamning xos birligi hisoblanadi. Bugungi kunda barcha fanlar jahoniy, dunyoviy sifatga ega bo'lib bormoqda, ularni to'liq milliyashtirishga harakat qilish mantiqsizlik sanaladi va amalda buning imkoni ham yo'q. [2. 14]. Qurilishning iqtisodiy, madaniy va ekologik jihatlari mavjud:

**Iqtisodiy ahamiyat:** qurilish sektori iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, ko'plab ish o'rinlari yaratadi, materiallar va xizmatlar bozorini shakllantiradi, shuningdek, mamlakatning umumiy ishlab chiqarish hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

**Ijtimoiy ahamiyat:** qurilish odamlarning turar joylari, ish-joylari va infratuzilmalari uchun zarur obyektlar yaratish orqali jamiyatning rivojlanishiga yordam beradi.

**Ekologik ahamiyat:** qurilish jarayonlarida ekologik me'yorlar va standartlarga rioya qilish, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, qurilish sohasidagi terminlar nafaqat professional jamoa uchun, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun muhimdir, chunki ular qurilish jarayonlarini tushunishni va unga tegishli texnik talablarni aniqlashni osonlashtiradi.

**Qurilish terminlarining tilshunoslikda tutgan o'rni va ahamiyati:**

Tilshunoslikda terminlar bu har bir sohaning o'ziga xos tilidagi maxsus so'zlar yoki iboralardir, ular faqat o'sha soha vakillari uchun tushunarli bo'ladi. Qurilish sohasidagi terminlar ham shu xususiyatga ega. Qurilishda ishlatiladigan terminlar ayniqsa, texnik va ijtimoiy-ma'muriy jarayonlarga oid bo'lib, quyidagicha ahamiyatga ega:

**Semantik va leksik:** qurilish terminlari tilshunoslik nuqtayi nazaridan tilning semantik tizimiga kiradi. Ularning ma'nosi aniq va maxsus bo'lib, har bir so'z yoki ibora o'ziga xos tushunchani bildiradi. Masalan, "beton", "armatura", "dizayn" kabi so'zlar qurilish jarayonlarining muhim elementlarini ifodalaydi.

**Ixtisoslashgan tillar:** qurilish sohasida o'ziga xos ixtisoslashgan til shakllanadi. Ushbu til nafaqat professional tilni, balki tilning ko'p qirrali, aniq va noaniqlikdan holi bo'lishini ta'minlaydi. Qurilishdagi murakkab jarayonlarni tushunish va boshqarish uchun to'g'ri va aniq terminologiyaga ehtiyoj bor.

**Alohida semantik qatlamlar:** qurilish sohasidagi terminlar ko'pincha o'ziga xos va yangi ma'nolarga ega bo'ladi. Bu terminlar jamiyatga kiritilgan yangi texnologiyalar, usullar, materiallar va muhandislik yechimlari bilan bog'liqdir.

**Qurilish sohasidagi terminlarning asosiy turlari:** qurilish sohasida ishlatiladigan terminlar bir necha turlarga bo'linadi, har biri o'ziga xos maqsadga xizmat qiladi. Ularning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

**Texnik terminlar:** Qurilishning texnik jarayonlari, usullarini va qurilish materiallarini ifodalovchi terminlar. Bu terminlar qurilishning o'ziga xos texnik jihatlarni tushunishga yordam beradi. Masalan, *beton, armatura, konstruksiya*.

**Ilmiy terminlar:** Qurilishning ilmiy asoslari va ilmiy tadqiqotlar, nazariyalarini ifodalovchi terminlar. Bu terminlar ilm-fan bilan bog'liq bo'lib, ko'pincha qurilish muhandislik ilmiga oid tushunchalarni bildiradi. Masalan, *materiallar mexanikasi, statik tahlil, dizayn uslubi*.

**Amaliy terminlar:** Qurilish sohasining kundalik amaliy faoliyatiga oid terminlar. Bu terminlar quruvchilarning ish jarayonida keng qo'llanadi va ularning o'zaro muloqotini osonlashtiradi. Masalan, *o'lchov, ishchi xodim, materiallar yetkazib berish, ta'mirlash*.

**Normativ terminlar:** Qurilish jarayonida qo'llanadigan huquqiy, me'yoriy va standartlarni ifodalovchi terminlar. Bu terminlar qurilishning qonuniy asoslarini belgilaydi. Masalan, *texnik nazorat, sifat sertifikat, xavfsizlik me'yorlari*.

**Kompleks terminlar:** Qurilish jarayonlarining turli jihatlarni birlashtirgan murakkab atamalar. Bular ko'pincha turli texnik va ilmiy so'zlar birlashmasi bo'lib, muayyan yirik jarayonni yoki qurilish texnologiyasini tasvirlaydi. Masalan, *modular qurilish tizimi, energiya samaradorligi, infrastruktura loyiha rejasini ishlab chiqish*.

**Terminlarning tilshunoslikka ta'siri: semantik, leksik va stilistik jihatdan:**

Qurilish terminlari tilshunoslikning turli sohalariga ta'sir ko'rsatadi, jumladan, semantik, leksik va stilistik. Har bir soha bo'yicha terminlarning roli quyidagicha:

The definition of the term proposed by V. M. Ovcharenko, in principle, does not raise objections. However, in our opinion, the author understands the "semantic integrity of a linguistic unit" too narrowly, denoting a special concept. In his opinion, phrases such as electric motor are not terms on the grounds that an adjective serving as a definition supposedly retains the same meaning when combined with other nouns, for example, in the phrase electrical energy, and, therefore, I don't have semantic integrity.

Compound terms are subject to another very significant grammatical (syntactic) requirement, namely, the presence of subordinating connections between the components of the phrase. Not every substantive term is considered a compound term. A phrase denoting a special concept, but only one that is formed on the basis of subordinate connections. In other words, "composite terms are a special type of subordinating phrases".

Taking into account the provisions discussed above, it seems to us that the definition of the term given by S.V. Grinev is exhaustive, in which he characterizes the term "as a nominative special lexical unit (word or phrase) of a special language, accepted for the exact name of special concepts".

Due to the active study of various terminologies, many definitions of the concept "term" have appeared. A considerable part of definitions is based on semantic features. At the same time, two trends in characterizing the term are outlined. According to the first, it is a separate word "with a strictly defined meaning"; "a word that corresponds to one precisely defined concept from the field of science, technology, art".

The difficult question of identifying words in a stream of connected speech, i.e. the boundaries between a word and a phrase, on the one hand, and a word and a morpheme, on the other, interested many scientists. This problem received the most complete

coverage in Soviet literature in the works of prof. A.I. Smirnitsky. As the main criterion A.I. Smirnitsky put forward the integral form of a word, opposed to the separately formed form of a phrase.

The integral design of a word should be understood as the presence of a common grammatical design for all elements that make up the word.

The separate design of a phrase, on the contrary, suggests that each component has a separate grammatical design.

The essence of the difference between the integral form of a word and the separate form of a phrase A.I. Smirnitsky shows by comparing the word shipwreck, consisting of identical root elements, and the phrase (the) wreck of the ship. It is quite obvious that, without differing significantly in meaning, these formations are fundamentally different in their relation to the grammatical structure, i.e. differently decorated. In the word, grammatical design is carried out once ship-wrecks, in a phrase as many times as there are components in it: (the) wreck of (the) ships or (the) wrecks of (the) ships.

Suggested by A.P. The Smirnitsky criterion, according to its author, should be suitable for words of any language. In reality, although it is fully applicable

to words of the Russian language, it does not always justify itself in relation to English words, due to the poverty of this language in morphological means. The criterion turns out to be unsuitable, for example, if we compare such formations as snowstorm and snow mountain, where the first elements are equally devoid of morphological design both in the word and in the phrase. Thus, a characteristic and important problem for the English language arises about the nature of formations such as: stone wall, speech sound, train track, street lamp, lunch room, coal mine, radio station. This problem is called the stone wall problem and is discussed in detail in chapters six and seven.

As a consequence, we consider the problem of selection more broadly. In addition to highlighting the actual terms that have a problem-oriented nature, it is necessary to find terminological phrases of general scientific vocabulary in the text. The ultimate goal of the selection is not only to check the consistency of the use of terms and to identify stylistic errors in the use of general scientific words, but also to "convolve" the selected multi-word combinations into complete units, which significantly reduces the multivariance of the full syntactic analysis that is then carried out.

## REFERENCES:

1. Bourigault, D. (1992) Surface Grammatical Analysis for the Extraction of Terminological Noun Phrases. Proceedings of COLING-92, Nantes, France, p. 977-981.
2. Golovin B. N. On some problems of studying the term. - Bulletin of Moscow University. Series X. Philology. M., 1972. P.49-59.
3. Dowlagar S., Mamidi R. Unsupervised technical domain terms extraction using term extractor. Proc. XVII ICON, 2020, pp. 5–8.
4. Dementyeva Y.Yu., Bruches E.P., Batura T.V. Extracting terms from the texts of scientific articles // Software products and systems. 2022. T. 35. No. 4. pp. 689–697. DOI: 10.15827/0236235X.140.689-697.
5. Kobrin R. Yu. Experience in linguistic analysis of terminology. Author's abstract. dis. for the job application scientist, Ph.D. Philol. Sci. Gorky, 1969. S. 121.
6. Ovcharenko V. M. Conceptual, semantic and semiotic integrity of the term. — In the book: Linguistic problems of scientific and technical terminology. M., 1970. P. 139-153.
7. Ovcharenko V. M. Term, analytical name and nominative definition. — In the book: Modern problems of terminology in science and technology. M., 1969. P.91-122.
8. Reformatsky A. A. Introduction to linguistics. M., 1955. P.536. Smadja, F. (1993) Retrieving Collocations from Text: Xtract. Computational Linguistics, 19(1), p. 143-177.
9. Smadja, F. (1993) Retrieving Collocations from Text: Xtract. Computational Linguistics, 19(1), p. 143-177.
10. <https://infopedia.su/3xca34.html>
11. <https://studfile.net/preview/4200604/page:10/>
12. <https://www.dialog-21.ru/digest/2001/articles/bolshakova/>

**Malika RAJAPOVA,**  
 PhD, lecturer Kokand state university,  
 E-mail: [malikarajapova1993@gmail.com](mailto:malikarajapova1993@gmail.com)

## LINGUOPRAGMATIC AND LINGUOCULTUROLOGICAL FEATURES OF ALLEGORICAL DEVICES USED IN LITERARY TEXTS

**Annotation:** this article provides a brief overview of allegory and the linguopragmatic and linguoculturological features of allegorical devices used in literary texts. It also discusses the close interrelation between style, artistic imagery and stylistic tropes. In addition, the article emphasizes that allegory functions not only as an artistic expressive device but also as a stylistic trope.

**Keywords:** *allegory, stylistic tropes, metaphor, metonymy, transference, artistic expressive device, style, concept.*

**Аннотация:** в данной статье кратко рассматриваются аллегория и лингвопрагматические, а также лингвокультурологические особенности аллегорических средств, применяемых в художественном тексте. Кроме того, в статье анализируется тесная взаимосвязь стиля, художественно-изобразительных средств и стилистических тропов. Также подчёркивается, что аллегория выступает не только как художественно-изобразительное средство, но и как стилистический троп.

**Ключевые слова:** *аллегория, стилистические тропы, метафора, метонимия, перенос, художественно-изобразительное средство, стиль, концепт.*

**Annotatsiya:** ushbu maqola allegoriya va badiiy matnda qo'llaniluvchi allegorik vositalarning lingvopragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari haqida qisqacha to'xtalib o'tadi. Shuningdek ushbu maqolada uslub, badiiy tasvir vositalari va stilistik troplarning o'zaro bir-biriga chambarchas bog'liq ekanligi haqida ham so'z yuritiladi. Bundan tashqari maqolada allegoriya badiiy tasvir vositasigina emas, stilistik trop ekanligiga ham to'xtalib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** *allegoriya, stilistik troplar, metafora, metonimiya, ko'chim, badiiy tasvir vositasi, uslub, konsept.*

No phenomenon in existence has ever been created in an identical form. Even when the snow cover reaches 50 cm in thickness, each square meter contains approximately one million snowflakes. Nevertheless, although snow may blanket the entire surface of the Earth, not a single snowflake resembles another in its shape. This fact became clear in 1985 as a result of fifty years of observations and experiments conducted by the American researcher Wilson Bentley.

In the same way, it is now widely known that no two voices, faces or fingerprints are exactly alike. Proceeding from this unique law of life, it is impossible to find two writers (or poets) who are absolutely identical or two individuals who think in exactly the same way. Every human being is a unique inner and outer world, and their individuality embodies this uniqueness. On this basis, each person's world—life experience, level of knowledge, sense of taste, ability to perceive beauty, imagination, creative vision and

spiritual sensitivity—belongs solely to that person, and this individuality is reflected in every utterance or literary work they produce.

In literature, style is not limited solely to "individuality", nor is it merely a sum of personal features. Inevitably, the social environment that forms and nurtures this "selfhood" also exerts its influence. Within style, "the personal and the universal exist in an extremely complex dialectical unity, mutually conditioned and expressing one another"<sup>1</sup>.

Thus, style also acknowledges the existence of various domains such as the romantic mode of depiction, the realistic style, the style of an era, the modern style, the national style, the style of literature and the style of visual arts. While recognizing the presence of objectivity within style, it must be emphasized that "individuality", the unique rhythm of the creator's soul, constitutes the primary hallmark of style.

<sup>1</sup> Художественный метод и творческая индивидуальность писателя. М.: 1964, 234-бет.

According to G. L. Abramovich, style is “the artistic uniqueness manifested in the integral and holistic system of a work or concept,” whereas Vuysitskiy defines it as “the interrelation of the elements of a literary work and their harmonious fusion in accordance with the writer’s talent”. Style simultaneously encompasses content, form, idea and motif. When all these components merge, they ensure the integrity of the work through style.

Therefore, it is incorrect to limit an author’s style merely to words or language—that is, to the peculiarities of their usage. True, literature is the art of the word, and language is its primary element; nevertheless, it is only one of the necessary means that contribute to the formation of style. Another essential factor shaping style is the speaker’s ability to analyze and interpret life, its essence and the truth embedded in its depths.

The art of discovering the rich and hidden secrets of human psychology and revealing their profound aesthetic value is directly connected to psychological insight. Hence, style is the writer’s unique way of perceiving reality and human nature, uncovering the truth in their hearts and expressing it figuratively through language—an art that is realized individually.

Style always emerges from the speaker’s entire being and nature, and in each work it revives the life-giving light of this unique inner world—humanized emotions—and shares them with others, serving as a cultivator of noble feelings. For this reason, “the style of a weak writer cannot fully reveal itself in their works; weak writers’ styles tend to resemble one another”. As “style changes with time, so it changes with the individual as well.”

In essence, style is the creator’s distinctive world, which sets them apart from others—reflecting their imagination, perception, intellect, knowledge, linguistic awareness, talent, genius and humanity—a phenomenon that manifests the creator’s entire being.

Among artistic styles, devices such as allegory, metaphor, metonymy, synecdoche, simile, periphrasis, irony, and onomatopoeia are not only artistic expressive tools but also stylistic tropes. These means enhance the attractiveness and vividness of the text, helping the reader grasp information quickly and effortlessly.

Furthermore, the aforementioned stylistic devices are not only components of linguistics, but are also employed

as symbols in various meanings within the specialized literature of literary studies. These expressive means can be found not only in linguistics or artistic literature but also in art, historical or religious sources, and even in everyday speech. Artistic expressive devices enable the addressee to understand information quickly and easily, while enriching the language. One such expressive device is allegory.

Allegory is a type of symbol: it represents an abstract concept through a concrete image, that is, it conveys an unclear or abstract idea (a concept) by means of features characteristic of universally known objects. Allegory expresses an abstract notion or idea through a specific figurative representation. For example, the word “wolf” symbolizes evil or hostility; the word “fox” symbolizes cunning—these are early examples of allegorical usage.

The term *allegory* derives from the Greek word *allegoria*, meaning “to express differently.” Allegory is a form of artistic imagery that conveys abstract ideas or concepts through specific objects, events, or phenomena. For instance, the word “parrot” symbolizes someone talkative; “nightingale” symbolizes a melodious or skilled singer; the fox appears as a deceitful and cunning person; the wolf symbolizes greed; the ant—an industrious and patient individual.

Since ancient times, abstract concepts that could not be explained briefly have been depicted through vivid allegorical symbols. From a linguoculturological perspective, allegorical representations such as a woman holding scales—symbolizing justice—or a snake wrapped around a cup—symbolizing medicine—are significant. These allegorical symbols possess identical linguoculturological characteristics in both Eastern and Western cultures, as they represent concepts that are understood similarly by nearly all peoples of the world. V. A. Maslova, who conducted significant research in the field of linguoculturology and introduced major innovations into linguistics, distinguishes three stages in the development of this discipline: the emergence of early studies that laid the foundation for the formation of the field (the scholarly achievements of linguists such as L. Weisgerber, É. Benveniste, A. A. Potebnya, W. von Humboldt, and E. Sapir); the separation of linguoculturology as an independent scientific discipline; the subsequent stages of its development.

Linguoculturology is considered one of the new disciplines formed at the intersection of linguistics and cultural studies. Both components—language and culture—play an essential role in human life. In daily life, education and communication, language continuously influences the formation of our cognition. The question of how language shapes our perception can be approached from two perspectives: the nominalist viewpoint and the relativistic viewpoint. According to the nominalist viewpoint, human cognition is not shaped by the specific language a person speaks. Language is merely a product of human consciousness or the accidental external form of thought. In other words, all humans possess different languages but share similar modes of thinking. Therefore, any thought can be expressed by any language. These aspects can be considered universal characteristics of languages. The primary function of language is to transmit mental constructs to the external world. Nevertheless, some ideas may be expressed using more lexical units, while others require fewer. Thus, although a single concept may be encoded differently across languages, we understand its essence similarly. For example, the concept *bird* is expressed as *qush* in Uzbek, *bird* in English, *ptitsa* in Russian, *oiseau* in French, and *pájaro* in Spanish, yet all denote the same conceptual meaning. According to the second viewpoint—the relativistic perspective—the

specific language we use and its internal structure shape the way we think, conceptualize reality, and express cultural components. According to E. Sapir's theory, language cannot exist outside of culture, as it reflects essential cultural components of a nation and represents the system of ideas and skills that characterize its way of life.

Today, linguoculturology is recognized as a new philological discipline that studies a systematically organized set of selected cultural values, examines the dynamic communicative processes involved in producing and perceiving speech, and investigates the linguistic personality's experience and national mentality. It provides a linguistic representation of the worldview and ensures the fulfillment of the educational, developmental, and intellectual functions of learning. Thus, linguoculturology is a complex field that explores the interaction between culture and language, portraying this process as an integral structure consisting of linguistic and extra linguistic (cultural) units. The subject of linguoculturology is language and culture, which are always interconnected and closely intertwined. Therefore, linguoculturology is a new area of linguistic research shaped at the intersection of linguistics and cultural studies. Linguoculturology investigates the mutual relationship and influence of language and culture, as well as the various cultural manifestations reflected in language.

#### REFERENCES:

1. Xotam Umurov, "Adabiyotshunoslik nazariyasi". Toshkent 2004.
2. **Художественный метод и творческая индивидуальность писателя. М.: 1964**
3. Zhukov V.P. Dictionary of Russian proverbs and sayings // Library of Russian dictionaries, 2000.
4. Rajapova, M. (2022). Allegorical means specific to oral speech. *Scienceweb academic papers collection*.
5. Rajapova, M. (2023). Study of discourse and specific characteristics of allegory. *Hayka u texnologiya v sovremennom mire*, 2(17), 53-55.
6. Rajapova, M., & Mamadaliyeva, M. (2023). INTERPRETATION OF ALLEGORICAL MEANS IN DISCOURSE. In *International Conference On Higher Education Teaching* (Vol. 1, No. 1, pp. 15-19).
7. Rajapova, M. (2022). Linguocultural Features of Allegorical Means Used in the Literary Text. *Scienceweb academic papers collection*.
8. Haydarova, G., & Haydaraliyeva, R. (2024). FEATURES AND CHARACTERISTICS OF KUNTUGMISH DOSTON. *Академические исследования в современной науке*, 3(1), 3236.
9. Хайдарова, Г. (2021). СОБИР АБДУЛЛА, ЧАРХИЙ ВА ҲАБИБИЙ ҲАЗАЛЛАРИДА ТАСВИР ВА ТАЛҚИН МАСАЛАЛАРИ. *Журнал Горизонты Филологии*, 6(6).
10. Ахмадалиевна, Ҳ. Г. (2021). НАВОИЙ ВА СОБИР АБДУЛЛА. *ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI*, 1(2).



# ADABIYOTSHUNOSLIK

Gulhayo HAYDAROVA,  
Qo'qon davlat universiteti  
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi  
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)  
[h.gulhayoxon90@gmail.com](mailto:h.gulhayoxon90@gmail.com)

## ALISHER NAVOIY VA XX ASR O'ZBEK G'AZALIYOTI

**Annotatsiya:** ushbu tadqiqot ishida Alisher Navoiy g'azaliyoti an'alarining XX asr g'azalnavislaridan biri bo'lgan Habibiy, Sobir Abdulla hamda Asqarali Hamroali o'g'li Charxiy ijodiga ko'rsatgan ta'sirining yoritilishi ko'zda tutilgan. Ushbu ijodkorlar g'azallarida an'alar davomiyligi va har bir ijodkorning o'ziga xosligi qirralari tahlil qilingan. Mumtoz adabiyotda devon yaratilishi qonun-qoidalar va XX asr devonchiligi xususidagi qarashlar umumlashtirilgan.

**Kalit so'zlar:** g'azaliyot, an'ana, ijodiy o'ziga xoslik, ustoz-shogird, radif, adabiy ta'sir, obraz, badiiy tasviriy vosita, tashxis

**Annotation:** this research examines the influence of Alisher Navoi's ghazal traditions on the poetic creativity of three prominent twentieth-century ghazal writers — Habibiy, Sobir Abdulla, and Asqarali Hamroali o'g'li Charkhiy. The study analyzes the continuity of classical literary traditions in the ghazals of these poets, the ways in which they reinterpret established conventions, and the specific stylistic features that distinguish each poet's individual creative approach. Furthermore, the principles of compiling a classical devon and scholarly perspectives on twentieth-century devon composition are summarized, highlighting their points of convergence and divergence.

**Key words:** ghazal literature, tradition, creative individuality, master–disciple relationship, radif, literary influence, imagery, artistic devices, personification.

**Аннотация:** в данном исследовании рассматривается влияние газелевой традиции Алишера Навои на творчество трёх поэтов-газелланависов XX века — Хабибия, Собира Абдуллы и Аскарли Хамроали оглы Чархия. В работе анализируется преемственность классических литературных традиций в их газелях, особенности творческой интерпретации устоявшихся поэтических норм, а также индивидуальные стилистические черты каждого автора. Кроме того, обобщены основные принципы составления классического дивана и проанализированы научные взгляды на диваностроение XX века, выявлены точки их сходства и различия.

**Ключевые слова:** газелеведение, традиция, творческая индивидуальность, связь “учитель–ученик”, радиф, литературное влияние, образ, художественно-изобразительные средства, персонификация

Mumtoz adabiyotda Alisher Navoiy “G'aroyib us-sig'ar” devoni debochasida o'zigacha yaratilgan devonlarni kuzatib chiqargan xulosalari asosida **devon tuzish** mezonlarini sanab o'tgan edi. Unga ko'ra, dastlab, debocha qism, hamd va na't g'azallar bo'lishi, g'azallar bilan boshlash, g'azallarni 28 harf emas, balki 32 harf bilan tugallash, devonga dastavval hamd yoki na't mavzusidagi g'azallarni joylashtirish, g'azallarga ma'rifat va mav'iza mavzulariga doir baytlar kiritish, g'azal matla'sida keltirilgan fikrni maqta'gacha rivojlantirib borishni nazarda tutgan. Sobir Abdulla, Charxiy va Habibiy g'azallarini an'anaviylik negizida tahlil qilish

jarayonida XX asr o'zbek g'azaliyotidagi ayrim o'ziga xos jihatlarni keltirish joiz. Ushbu o'ziga xosliklar ijodkorlarning tiriklik chog'ida o'zlari tomonidan tuzilgan devonlarda yaqqol ko'zga tashlanadi:

Birinchidan, devon debocha qism bilan boshlanishi kerak. Bu jihatdan ahamiyat berilsa, Habibiy devonida debocha nasriy yo'l bilan ifodalangan, Sobir Abdulla devonida esa 31 baytdan iborat debocha mavjud, unda, asosan, zamona madhi va devon yozilish sababi bayon etilgan. Charxiy devonida esa 42 baytdan tashkil topgan debocha qismda ijodkor o'zining 70

yoshida devon tuzganini ta'kidlar ekan, Furqat va Muqimiy nomlarini ham tilga oladi. Har uchala ijodkor devonida an'anaviy hamd va na't g'azallar uchratilmaydi.

Ikkinchidan, XX asrgacha tuzilgan devonlardagi g'azallar arab alifbosi harflari tartibida joylashtirib kelingan bo'lsa, Sobir Abdullaning 1965-yil va Charxiyning 1972-yil tuzilgan "Devon"lari kirill alifbosi harflari tartibi (a,b,v,g...va h.k.) asosida nashr ettirilgan. Lekin zamondoshlaridan farqli ravishda, Habibiyning 1960-yil tuzilgan va uch marta qayta nashr qilingan (1960,1975,1980-yillar) "Devon"idagi she'rlar mumtoz adabiyot an'analari muvofiq arab grafikasi harflari tartibi bo'yicha joylashtirilgan.

Uchinchidan, XX asrga kelib g'azallarga sarlavha qo'yish an'anasi paydo bo'ldi. To'g'ri, hazrat Navoiyning devonlarida "Alif harfining ofatlarining ibtidosi "G'aroyib"din", "Jim harfining jamlalarining jilvasi "Navodir"din" kabi shaklda sarlavhalar bo'lsa-da, ular har bitta g'azalga alohida qo'yilmaydi, faqatgina g'azal yakunlangan ma'lum bir harfni boshqasidan ajratish uchun 115-130 g'azal umumiy nomlanadi. Ya'ni Navoiyning har bir g'azali raqamlar bilan bir-biridan ajratiladi. Habibiy, Sobir Abdulla va Charxiy g'azallariga nomlar quyidagi yo'nalishlar asosida qo'yilgan edi:

- g'azalning radifiga ko'ra;
- bevosita g'azalning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda;
- noshirlar tomonidan nashr jarayonlaridagi nomlanishga ko'ra.

Sarlavhalar, odatda, so'z, so'z birikmasi yoki qo'shma so'zlar bilan ifodalanilib kelingan. Masalan, Charxiy g'azallariga "Qo'qon loyi", "Yodlar zamon, Muqimiy", "Vafo sevarim", "Yaxshi tilak", "Fido bo'ldim", "Bad qildim, xato qildim" kabi nomlar qo'yilib, ular, asosan, g'azalning qofiya yoki radifining ilk qismlaridan olingan. Habibiy g'azallarida ham xuddi shu holat kuzatiladi. ("Sharob", "Suhbat", "O't", "Bahs", "Abas" kabi radiflar; "San'ating", "Ozod", "Keldi yor", "Jonon topar" nomlari g'azal qofiyasidan olingan.)

G'azallarga sarlavha qo'yish masalasida Sobir Abdulla o'ziga xos yo'lni tanladi. Shoirning g'azal mohiyatidan kelib chiqib, uning mazmuniga mos ravishda butunlay yangi bayt va misralarni, asosan, o'zining aforizmlarini g'azalga nom

sifatida ishlatishi XV asr g'azaliyotida ham, XX asr g'azaliyotida ham uchramagan hodisa edi. Mazkur sarlavhalar o'sha davrda amaldagi kirill alifbosi harflari tartibida terilgan bo'lib, devon g'azallari tartibini ham ko'rsatadi. Masalan:

*"Asar yozsang vafodor yor ishqida,  
 Guldasta tuz she'rdan har bor, ishqida"*

– sarlavhasi quyidagi matla'li g'azal uchun qo'llangan:

*Yo'q vafosizlik zamonda, chin vafo bor ishqida,  
 Bu tufayli kuymadim bir bevafo yor ishqida<sup>1</sup>.*

Yoki:

*"Rahnamodir aql insonlar uchun, yo'l ko'rsatur,  
 Kimki ozdi aqldan, u bo'ldi balchiqqa duchor"*

– sarlavhasi esa quyidagi matla'li g'azal uchun qo'llangan:

*Ilmu axloq dunyoga donishmand inson keltirur,  
 To'g'rilik, g'ayrat, jasoratdan sharaf-shon keltirur<sup>2</sup>.*

Shoirning ayrim sarlavhalari g'azal tarixi haqida ham ma'lumot beradi. Jumladan:

*Sabza rang ko'ylakdagi qizni ko'rib tog' ustida,  
 Lola ochilmish dedim zangori yaproq ustida*

– matla'li g'azal uchun quyidagi nom qo'yilgan:

*Ajab yillar ekan yoshlikda, O'shda,  
 Yozilgandek g'azal o'xshaydi tushda...*

Mazkur sarlavhadan g'azal shoirning yoshligida O'sh viloyatida yozilgani anglashiladi. Fikrimizcha, devondagi barcha sarlavhalar keyinchalik devon tartib berish vaqtida qo'yilganga o'xshaydi. Chunki devon 1965-yilda nashr etilgan. Sarlavhada shoir g'azalni yoshlikda yozganini e'tirof etyapti. G'azalning yozilish sanasi 1940-yil, ya'ni shoirning ayni kuchga to'lgan 35 yosh davrini ko'rsatmoqda.

Sobir Abdulla devonidagi ayrim nomlar esa g'azaldagi mavhumliklarni yanada aniqlashtirib berish vazifasini ham bajaradi:

*Bog'dur bu rayon, o'ynoqi daryo shu rayonda,  
 Sebarga bilan jambilu ra'no shu rayonda – <sup>3</sup>*

matla'li g'azalda she'r oxirigacha ham tuman (rayon) nomi oshkor qilinmagan. Shu sabab, kitobxonga aynan qaysi tuman (rayon) ekaniga aniqlik kiritish maqsadida sarlavha sifatida ushbu bayt yozilgan:

1 Собир Абдулла. Девон. – Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти, 1965.15- 6.

2 Юкоридаги манба.118- 6.

3 Собир Абдулла. Девон. – Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти, 1965.15- 6.

*Ayni yoz faslida kim bo'lmadi Kosonsoyda,  
Sof havo haqida yuz maqtanishi befoyda...*<sup>4</sup>

Asqarali Hamroali o'g'li Charxiy ham butun ijodini o'sha davr adabiy muhiti siqib chiqarishga urinayotgan aruz vaznida yozilgan asarlarni targ'ib etishga bag'ishlagan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu haqida o'zining "Devon"i so'zboshisida shunday degan: "Klassik adabiyotga... hajviyaga ko'proq mayl sezaman."<sup>5</sup> Shoir o'zini "hajviyaga moyil sez"sa-da, g'azaliyotining ko'p qismini hajviy she'rlar tashkil etmaydi.

Habibiyning "O'qing", "Mo'tabar", "Bilim" kabi 7 va 11 baytdan iborat g'azallarida g'aflat uyqusidagi ilmsiz insonlarni o'qishga chorlash va vaqtni qadrlashga chaqirishni maqsad qiladi. Ilm-fan dunyoni zabt etayotganini, unga hatto koinot bo'ysunishini va umrni behuda o'tkazmaslikni ta'kidlaydi. Har uchala g'azal tartib bo'yicha 1935, 1942 va 1967-yillarda yozilgan bo'lsa-da shoirning umumiy fikrlari: ilm olish hamma zamonda ham dolzarb vazifa ekanini ta'kidlashi asosiy o'rinda turadi. Masalan, "Bilim" g'azalida:

*Aql uchun bir rahnamoi mash'al asodir bilim,  
Dilga jo qilmoq butun, lekin muammodir bilim.*

She'ning lirik qahramoni fikricha, jahon yangilanish bosqichiga kirgan. Jahonning ilg'or mamlakatlari o'zgarish, yangilanish va taraqqiyot bosqichida. Shuning uchun shoir bilimni "ganji azim", "mavj urgan shavkatli daryo", "o'q va yoy", "olamning oftobi" ga qiyoslaydi. Bilimni xohlamaydigan "bahrasizlarga" tashviq qilma, ularning ishq-u zavqi

yo'q, ularning fikrida bilim "anqo" ekanini kuyinib so'zlaydi. Shoirning ilmsizlikka qarshi kurashi uning boshqa she'rlarida ham aks etadi. "Xilma-xil" odam sarlavhali g'azalda Odam Atoning avlodi bo'lmish insoniyatni jismoniy jihatdan emas, faqat bilim va zako tomonidan farqlab mulohaza qiladi. Ya'ni har xil insonlarning tafakkuri darajasini sanar ekan:

*Birikim bilmasu ammo bilurman deb bilur o'zni,  
Murakkab jahl erur bu yo'q davosi dedi Luqmon ham,* – deydi.

G'azalning so'nggi baytlarida shoir odam shaklida bo'lsa ham ilmsiz inson haqiqiy inson emasligini, bu keng olamda ilmsizlar ham ko'pligini ta'kidlaydi. Maqta'da ijodkor o'ziga qarata, ko'zingni och, ey Habibiy, bilimsiz bo'lsang ahvoling yomon, beg'am bo'lma va atrofdagi hodisalarga ham befarq bo'lma, deya nasihat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, XX asr o'zbek g'azaliyotining vakillari bo'lgan Habibiy, Charxiy va Sobir Abdulla kabi ijodkorlar voqelikni tasvirlar ekanlar, mumtoz adabiy an'analarni davom ettirishga intiladilar. O'z davri mafkurasi ta'sirida zamonning dolzarb voqealarini yoritish fonida ijodkorning yuksak tafakkuri bugungi kun kitobxoni bilan "ijodiy muloqot"ga kirishadilar. Kelajak kitobxoni g'azallaridagi yashirin ma'nolarni to'la anglab olishiga ishonib, baytlar qatiga o'z isyonlarini, xulosalarini, zamon voqealari tasviriga ijodiy munosabatini yashira oladilar. Bundan tashqari, har uchala ijodkor g'azallarida Alisher Navoiyning tasvir mahoratidan ta'sirlanib, an'analarni davom ettirishga intilib, o'ziga xos tarzda voqelikni aks ettira olganlar.

4 Юкоридаги манба.25- б.

5 Чархий. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.5- б.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Учинчи том. Фаройиб ус-сиғар. – Тошкент: Фан, 1988.
2. Собир Абдулла. Девон. – Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти, 1965.
3. Чархий. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
4. Ҳабибий. Девон. – Тошкент: **Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти**, 1980.
5. Г.Хайдарова. XX аср ўзбек ғазалчилигида Алишер Навоий анъаналари ва ўзига хосликлар. Монография. – Фарғона:"Classik" нашриёти, 2023.144- б.
6. Rajapova, M. A. (2025). COMPARATIVE STUDY OF ALLEGORICAL DEVICES IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. *Экономика и социум*, (5-1 (132)), 654-658.
7. Aliyevna, Y. D. (2023). Translational problems of adjectives from English into Uzbek.
8. Karimova, V. V., & Yuldasheva, D. A. (2016). The Responsibility of a Teacher for Increasing the Probability of Advancing Student Achievement. *Molodoy uchenyy*, 3-1.

**Farida TURSUNOVA,**

*Farg'ona davlat texnika universiteti dotsenti,  
 filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
 tursunovafaridaxon07@gmail.com*

## **XX ASR O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA ABDULLA QODIRIY IJODIY MEROSINI O'RGANISH MUAMMOLARI**

**Annotatsiya:** maqolada XX asr o'zbek adabiyotshunosligida Abdulla Qodiriy ijodiy merosini o'rganish muammolari tadqiq etilgan. O'zbek olimlarining qarashlari bir-biriga qiyoslangan va ularga munosabat bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** *adabiyotshunoslik, hajviya, ijodiy meros, ilmiy qarash, tadqiq etish, adib hayoti, ilmiy-estetik, ilmiy-adabiy, ma'naviy-axloqiy.*

**Аннотация:** в статье рассматриваются проблемы изучения творческого наследия Абдуллы Кадыри в узбекской литературной критике XX века. Сравниваются взгляды узбекских учёных и высказываются их мнения.

**Ключевые слова:** *литературная критика, сатира, творческое наследие, научный взгляд, исследование, жизненный путь писателя, научно-эстетический, научно-литературный, духовно-нравственный.*

**Annotation:** the article examines the challenges involved in studying Abdulla Qodiriy's creative legacy within twentieth-century Uzbek literary criticism. It compares the perspectives of Uzbek scholars and presents their scholarly assessments.

**Key words:** *literary criticism, satire, creative legacy, scholarly perspective, research, the writer's life path, scholarly-aesthetic, scholarly-literary, spiritual-moral.*

O'zbek adabiyotshunosligida XX asrning 20-yillarida yashab faoliyat olib borgan so'z san'atkori Abdulla Qodiriy ijodidagi o'ziga xoslik va originallikni aniqlash, turli yillarda yaratilgan asarlarida badiiy nutqning ifoda imkoniyatlari, monologik nutq takomilini tadqiq etish orqali yozuvchi kamolotini ochib berish, adib ijodiy merosini o'rganish, yozuvchining so'z tanlash borasidagi uslubiy izlanishlari xususida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada adabiyotshunos U.Normatov, A.Murodxon, B.Karimov, S.To'laganova, L.Toshmuhamedova, S.Maxsumxonov, A.Boboniyozov, Yu.Shonazarov, Z.Mirzayeva, X.Sultonov, N.Boqiy kabi olim va yozuvchilarning yangicha qarashlari maydonga chiqdi. Bu yillardagi yondashuvlarni adib hayoti va ijodini chinakam ilmiy-estetik mohiyatiga mos ravishda tadqiq etishlar sifatida baholash lozim. Abdulla Qodiriy ijodini, shu jumladan, hajviyotini o'rganish, adib ijodiga yangicha nuqtayi nazardan, milliy ma'naviyat va badiiy-estetik qonuniyatlar mezonini asosida yondashib, ijodkor asarlarining mohiyati, adib g'oyaviy-badiiy niyati va hajviy xarakterlari tabiatining adabiy-ilmiy jamoatchilik ilg'amagan yoxud aytishga jur'at etmagan qirralarini kashf etish yo'liga yuz burdi. Adabiyotshunos S.Mirvaliyev Kalvak maxzumga "boshida savat yanglig' salla-yu, egnida zarvaraq to'n va qo'lda yuz bittalik tasbeh bilan salobat to'kkan chiranchiq, har bir narsani o'z qarichi bilan o'lchaydigan, "oxir zamon ishlari"dan jar solgan, aqlsiz-u, o'zini aql egasi qilib ko'rsatadigan takasaltang", – deya ta'rif beradi. Maxzumning bu holatga tushib qolishi sababi, u tarbiyalanib, voyaga yetgan ijtimoiy muhitda, ma'naviy-axloqiy tuban va johil oilada voyaga yetganligida edi", – deb ko'rsatadi. [1]

Adabiyotshunos U.Normatov adib hajviyalarida xolis tasvir ma'nolarini ilk bor keng planda tadqiq etadi. "Kalvak maxzumning xotira daftaridan" va "Toshpo'lat tajang nima

deydi?" asarlari tadqiqiga kirishar ekan, "Maxzum haqida Qodiriy deydi: "Kalvak maxzumni o'qing: ko'bdan haqiqiy hayot bilan aloqasi uzilgan, madrasa xurofoti bilan miyasi g'ovlag'on xolis bir mahalla imomini ko'rasiz". So'ngra Toshpo'lat haqida mana bunday deydi: "Toshpo'latni o'qing: ishsiz, biri bit, biti sirka bo'lmagan va shu faqirlik orqasida o'g'rilik va fahshiyat dengizida suzib tajanglangan xolis bir chapanini ko'rasiz", – degan adibning ta'kidlarini eslatib o'tadi. Adabiyotshunos ilmiy jamoatchilikni Qodiriy yaratgan hajviy xarakterlar tabiatiga, hajviyalarining asl mohiyatiga san'atning adolat tarozusi bilan o'lchab munosabat bildirishga da'vat etib, o'zining "Serjilo kulgi" maqolasida qalamining xolisligi, uning hayot haqiqatiga sodiqligi haqida shunday xulosaga keladi: "...muallif... hayotdagi, odamlar tabiatidagi muayyan salbiy hodisalarni sof mafkuraviy mavqeda turib nuqul bir yoqlama qoralash, fosh etish yo'lidan bormay, xarakter va hodisalarning butun murakkabligi, ziddiyatlari bilan ko'rsatishga jazm etadi. Ha, Qodiriy buyuk so'z ustalariga xos realistik tasvirning sehrli qudratini ko'rsatadi, hattoki, hajviy personajlar talqinida ham bir xildagi rang, ohanglardan qochib, bo'yoqlarning rang-barang jilolarini namoyon etadi". U.Normatov adib asarlarining bosh qahramonlari – maxzum, Toshpo'lat xarakterlari iroda yo'nalishlarining yetakchi jihatlariga ishora qiladi, shu bilan birga har ikki shaxs xarakterining bir mushtarak jihatini – ularning "xolis" odamlar ekanligini uqtiradi.[2]

Tadqiqotchi A.Murodxon Qodiriy hajviy hikoyalari poetikasini tadqiq etar ekan, adibning hikoyanavislikdagi mahoratini uning "salaflari va halaflari ijodi, badiiy mahorati bilan yondosh, qiyosiy yo'sinda" o'rganadi. Qodiriyning "Sharvon xola nima deydi?" hajviyasining mohiyati, asar qahramonining tabiati, uning yoshlar xulqida paydo

bo'layotgan yangi qusurlardan yozg'irishi xususida olim bildirgan mulohazalar bilan ushbu tadqiqot muallifining ilmiy jamoatchilikka ma'lum qilgan ilmiy kuzatishlari natijalari orasida mushtaraklik mavjudki, bu albatta, milliy istiqlol mafkurasining sharofati tufayli ekanligi aytib o'tiladi. Adabiyotshunos Y.Shonazarov adib hajviy asarlarining epik xususiyatlari masalasida tadqiqot olib borgan bo'lsa, tadqiqotchi S.Maxsumxonov Qodiriy va Gogol ijodidagi mushtarakliklarni hajviy qahramonlari portretlarini qiyoslash orqali adabiy faktlar asosida chuqurlashtirishga, ilmiy dalillashga harakat qiladi. Olim I. Mirzayevning Qodiriy satirasi yuzasidan olib borgan kuzatishlarida yuqoridagi kabi maqbul ilmiy fikr-mulohazalar bilan birga, davr siyosati bilan bog'liq umumiy bir kamchilikni aniqlaydi va buni asoslashga kirishadi. Rus satirasi mutaxassisi Y. B. Borev Gogol "Revizor"da ... butun Rossiyani "bir yondan" ("sodnogo boka") tasvirlaydi—deganidek, Qodiriy hajviyotini, ayniqsa, hajviy qahramonlari tabiatini talqin qilishda masalaga "bir yondan", bir yoqlama – mavjud mafkuraviy holatdan kelib chiqib yondashganini asoslab beradi. Go'yoki Qodiriy kulgisi yangi hayotda saqlanib qolayotgan eskilik sarqitlarini, feodal o'tmish illatlarini fosh qilishga, hayotdagi yangiliklarga ko'nikolmayotgan eski turmush vakillari qoloqligini, ovsarligi, johilligi, chapani, qimorboz, nashavand, o'g'ri, bezoriligini hajv qilishga, ularning po'stagini qoqishga qaratilgan,—deya. Kalvak maxzum va Toshpo'lat tajangga olim bergan ta'rif-talqinni misol tariqasida keltiradi.[3]

Bu talqinlar davr sharoitidan kelib chiqqanligi ko'rinib turibdi. Olim o'z kuzatishlarida hajviy personajlar nutqida yashiringan muallif kinoya-kesatqlarining yanada muhimroq yo'nalishlariga, "salbiy qahramonlar" tabiatida zarracha bo'lsin insoniy fazilat, yaxshilik belgilari bor-yo'qligiga e'tibor bermaydi. Tadqiqotchi S.To'laganova XX asr o'zbek adabiyotida ijodkor shaxsi va adabiy qahramon muammosini talqin etar ekan, Abdulla Qodiriy hayoti, ijodiga biografik yondashuv asosida, ijodkor-inson: ijodiy "men" va biografik "men" qamrovida ijodkor shaxsiga biografik yondashuvning tarixi va badiiy omillarini o'rganadi.

Shu davrgacha amalga oshirilgan tadqiqotlar ichida adabiyotshunos B.Karimovning izlanishlari alohida tahsinga loyiq. Olim "Abdulla Qodiriy va hermenevtik tafakkur", "Qodiriy nasri – nafosat qasri", "Qodiriy fenomeni" nomli monografiyalarida adibning estetik olamini tushinishda uning hayotiga, ruhiy psixologik holatiga doir manbalar,

maktublar, xotiralar, kundaliklar hoshiyasidagi bitiklar, kirish va so'nggi so'zlar, yozuvchining "qalb biografiyasi"ga dahldor barcha manbalarni yangicha talqin etadi. Olimning "Abdulla Qodiriy va hermenevtik tafakkur" nomli monografiyasida qodiriyshunoslik uch davr: XX asrning 20-30-yillari, 60-80-yillar, istiqlol arafasi va undan keyingi davrlarda ajratilib, yozuvchi ijodi yangicha yondashuv asosida o'rganiladi. Uning adib hajviyalari xususidagi fikrlari har bir kitobxon va tadqiqotchini asarni qayta-qayta o'qishga undaydi. [4]

Abdulla Qodiriy hajviyalarida tasvir etilgan voqealar zamirida yashirin, tagma'noli fikrlar qatlami kuchli bo'lgan. Adib kimning ustidan kulishni emas, shu kulgi vositasida ifodalangan o'zining maqsadiga erisha olgani yaqqol ko'zga tashlanadi. Ammo bu hol ko'pincha qodiriyshunoslar e'tiboridan chetda qolib kelgan. Yuqoridagi turli davrlarda olib borilgan tadqiqot ishlarida Abdulla Qodiriy hajviy asarlari badiiy nutq poetikasi, xususan, monologik nutq masalalari maxsus muammo sifatida o'rganilmagan.

Qodiriy asarlarini to'g'ri talqin qilish va xalqimizga yetkazib berish barcha tadqiqotchi va munaqqidlardan juda katta mas'uliyat talab qiladi. Chunki Abdulla Qodiriy so'z tanlashda ehtiyotkor, har bir so'zni aql tarozisida yetti o'lchab bir kesadigan yozuvchi bo'lganligini hajviyalaridagi personajlar nutqi orqali ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Biroq hajviy asarlarida badiiy nutq tiplari, xususan, monologik nutqdan foydalanish mahorati ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilmagan. O'rganish natijalarida quyidagicha xulosaga kelindi:

A.Qodiriy hajviy asarlarini sinchiklab o'rganar ekanmiz, XX asrning boshlarida g'oyat murakkab va ziddiyatli g'oyaviy-badiiy vazifalar hajviy asarlar zimmasiga yuklanganday tasavvur beradi, sababi hajviy asarlar davrning ijtimoiy qiyofasini va davr kishilarining ruhiyasini belgilagan g'oyat muhim chizgi bo'ldi. Bu chizgilar badiiy nutq va uning ifoda imkoniyatini kengaytiruvchi monologik nutq orqali namoyon bo'ladi.

Hayot va adabiyotda yangilanish tamoyillarini o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, XX asr adabiyotida erk va erksizlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, ma'rifatparvarlik, adolat kabi g'oyalarning yetakchilik qilishi asoslangan.

Abdulla Qodiriyning adabiyot va hajviyot xususidagi nazariy qarashlari uning ilmiy-nazariy tafakkuri teran va original bo'lib, o'zbek adabiy tanqidchiligi uchun mustahkam manba bo'lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunova F.G'. Hajviy asarda monologik nutqning o'ziga xos xususiyatlari (Abdulla Qodiriy asarlari misolida). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Farg'ona, 2023. 135-bet.
2. Норматов У. Қодирий мўъжизаси. – Т.: О'zbekiston, 2010. 75-bet.
3. Мирзаев И."Калвак махзум...", "Тошпўлад тажанг..." асарларининг ҳажвий хусусияти // Ўзбек тили ва адабиёти. 1974. №3, 15–20-b.
4. Каримов Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. –Т.: Akademnashr, 2014.; Каримов Б. Қодирий насри – нафосат қасри. –Т.: О'zbekiston, 2014.; Каримов Б. Қодирий феномени. –Т.: Sharq, 2019.

Nilufar UMAROVA,  
Qarshi davlat universiteti dotsenti, f.f.f.d (PhD)



## CHO'LPON SHE'RIYATIDA IDILLIYAVIYLIKNING MODERNCHA TALQINI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada jadid she'riyatida idilliyaviylik masalasi Cho'lpon ijodi misolida tahlil etilgan. Shoir she'riyatida modern idilliyaviylikka moyil poetik mazmun yaratilganligi, ko'pgina she'rlarida an'anaviy idilliyaviylikka xos bo'lgan uyg'unlikning buzilishi natijasida antiidilliyaviylikning yuzaga kelishi kabilar she'riy tahlillar asosida berilgan.

**Kalit so'zlar:** *modern, milliy o'zlik, milliy xarakter, idilliyaviylik, antiidilliyaviylik, ruhiy muvozanat, poetik mazmun.*

**Аннотация:** в данной статье на примере творчества Чолпана анализируется вопрос идиллизма в современной поэзии. На основе поэтического анализа установлено, что в поэзии поэта создается поэтическое содержание, склонное к современному идиллизму, антиидилизм возникает в результате нарушения во многих его стихотворениях гармонии, свойственной традиционному идиллизму.

**Ключевые слова:** *современность, национальная идентичность, национальный характер, идиллизм, антиидилизм, духовное равновесие, поэтическое содержание.*

**Annotation:** in this article, the issue of idyllism in modern poetry is analyzed on the example of Cholpan's work. It is given on the basis of poetic analysis that poetic content inclined to modern idyllism is created in the poet's poetry, anti-idyllism occurs as a result of the violation of the harmony characteristic of traditional idyllism in many of his poems.

**Key words:** *modern, national identity, national character, idyllism, anti-idyllism, spiritual balance, poetic content.*

XX asr boshlarida o'zbek adabiyotida milliy uyg'onish jarayoni deb qabul qilingan voqelik jadidchilik harakati bilan bir butun tarzda kechdi. Bu davr adabiyotida milliy o'zlikni anglash, millat taqdiriga qayg'urish, ma'rifatli avlodni tarbiyalash kabilar kun tartibida turgan yetakchi mavzular hisoblandi. Shu jihatdan olib qaraganda, Cho'lpon ijodi nafaqat tabiat va ruhiyat uyg'unligi orqali, balki ijtimoiy muammolarni o'rganishdagi qamrovi bilan modern idilliyaviylikka moyil poetik mazmun yaratganligini aytib o'tish o'rinlidir.

Cho'lpon lirikasida insonning ichki dunyosi, tabiat va muhabbat o'rtasidagi uyg'unlik, erkin mehnat, inson botinidagi ozodlik orzusi, milliy uyg'onish, sokinlik va mehr-muhabbat hissining kuchliligi uni yunon adiblari Feokrit va Vergiliylar ijodida uchraydigan an'anaviy idilliyadan farqli

ravishda, ijtimoiy hayotda orzu qilinayotgan ruhiy muvozanatning modern ruh bilan uyg'unlashtirilgan milliy idilliya shaklida namoyon etadi. Cho'lpon ijodidagi lirik qahramonlar qullikni qabul etmasligi, erk istashi, tabiat bilan hamnafasligi hamda muhabbatni ulug'lashi bilan milliy xarakterga ega insonlardir. Xuddi mana shu ideal tasavvur idilliyaviy mohiyat kasb etadi.

Shoir she'riyatida idilliyaviylik tabiat manzaralari fonida ifoda etiladiki, she'rlarida tabiat tasviri faqat manzarani aks ettirib qolmasdan, ruhiy muhit yaratishda ham muhim hisoblanadi. "Tiniq havo", "oq bulutlar", "shu'la", "quyosh", "daraxt", "gullar", "jonivorlar" ("Ko'klam keladir!") kabilar idilliyaviy mazmunni yaratadi.

**Sezgilarni uyg'otguvchi hidli gullar to'planib:**  
**"Biz ham yo'lga chiqdik!" – deya yuborganlar**  
**bir chopar.**

**Gul hididan rizq emguvchi jonivorlar  
uyg'onib,  
Erta-indin bog'chalarga, chamanlarga  
tarqalar.** [3. 104-b.]

Yuqoridagi modern ruhda yaratilgan idillik tasvir tabiatdagi ichki bog'liqlik va poklik asosida birlashishi natijasida yuzaga kelgandir.

Cho'lpon yaratgan idilliyalar bir yoqlama emas. Ularda orzu va zolim reallik orasidagi ziddiyatli estetika, ya'ni orzudagi ideal hayot bilan mavjud hayotning to'qnashuvi; sof muhabbatning muhit tazyiqiga uchrashi hamda ozodlik orzusining zulm sharoitida fojiaiy tus olishi kabilar turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Shoirning 1924-yilda yozilgan kichik-kichik 5 banddan tarkib topgan "Qushning hadigi" she'rida yuqoridagi kayfiyatning guvohi bo'lamiz. She'rning 1-bandida:

**Qush bechora qo'rqadirkim, uyasidan  
ayirgaylar,  
Uyasidan ayirmoq-la qanotini qayirgaylar.**

**Mayda simdan silliq qilib, mohirona to'qilgan  
bir**

**Qafas topib, darchasini ochib derlar:  
"Maskanga kir!"** [3. 102-b.]

5-bandida:

**Uning butun tasallisi to'lib-toshib  
sayramoqdir,  
Ko'm-ko'k dala-o'rmonlarni eslab-eslab  
yig'lamoqdir,**

**yig'lamoqdir!..** [3. 103-b.]

Ushbu she'r to'liq tarzda ramziylik asosiga qurilgan bo'lib, o'sha davrning ijtimoiy-ruhiy kayfiyatini ochishda muhim o'rin tutadi. She'rda qush obrazi modern idilliyaning qahramoni sifatida keltirilgan. Bunda yashirin tragizm fonida muhitning erkinlik yo'lini to'sishi gavdalanir. Bezovta osoyishtalik kartinasi ostida esa inson erkinligi fojiasi yuzaga qalqib chiqadi. Endi u qush an'anaviy idilliya talabiga mos – tabiat bag'ridagi erkin va xurram qush emas, uyidan ayrilgan, qafas ichida qulflog'liq, erkidan mosuvo bo'lgan, to'g'rirog'i, ozodligi tortib olingan bir mavjudotga – antiidilliyaviy qahramonga aylanadi.

She'riy asarning ichki mazmunidan kelib chiqib mulohaza yuritadigan bo'lsak, inson iztirobi, uning ayanchli taqdiri va uning hayotiga bosim o'tkazilishi tarzida tushunishimiz mumkin.

She'rda idillik muhitning buzilishiga guvoh bo'lamiz. Ya'niki, tinch osoyishta hayot kechirgan muhit – uyasidan ayrilishi – bu o'zligidan ayrilishi. Chunki bir paytlar uning uyi – o'zligi bor edi, uni o'zligidan ayirib sun'iy tizimning eng an'anaviy detali hisoblangan qafasga soldilar va tabiat bilan uyg'unlikdagi hayotini cheklab qo'yidilar. Uning ozodlik istab simlarga, qafas shiftlariga urilishi to'siqqa uchraganining bir belgisidir. Mazkur she'rda "qush" (erk, inson ruhi); "uya" (tabiiy muhit, o'zlik); "qafas" (sun'iy tizim, nazorat); "darcha" (cheklab qo'yilgan imkoniyat); "o'rmon" (ideal hayot); "sim to'siqlar" (bosim); "qon" (erkinlik uchun to'lov) kabi ramzlar bog'liqligida polifonik qatlam hosil bo'ladi.

5- bandda keltirilgan "Uning butun tasallisi to'lib-toshib sayramoqdir, Ko'm-ko'k dala-o'rmonlarni eslab-eslab yig'lamoqdir, yig'lamoqdir!.." misralari orqali modern idilliyaning nostalgiya ko'rinishi (o'tgan shirin xotiralar, o'tgan davrlar yoki joylarni eslash) ning ajoyib namunasi yaratiladi. Aytish mumkinki, Cho'lpon she'riyatida ko'pchilik hollarda modern idilliya fojia bilan bog'liq tarzda kechadi. Agar shoir idilliyasining formulasini yaratishga to'g'ri keladigan bo'lsa, u holda uni orzu+mahrumlik=fojiaiy idilliya tarzida yaratish mumkin.

Quyida Cho'lponning "Mahmudxo'ja Behbudiy xotirasi" she'riga e'tibor qaratsak. She'r 1920-yilda, Behbudiy vafotidan bir yil o'tib yozilgan. Bu she'rda ham idilliyaning klassik belgilari tanazzulga uchrashi natijasida idilliyaviylikning buzilishi, uyg'unlikning yo'qotilishi kabilarga guvoh bo'lamiz. Umuman olganda, shoir ijodida bu holat juda ko'p bor takrorlanadi.

Jirkanch tuzumning qurboni Mahmudxo'ja Behbudiy xotirasiga bag'ishlangan she'r mohiyatiga ko'z yugurtiraylik. She'rning birinchi bandidayok an'anaviy idilliyaviylikka xos bo'lgan uyg'unlikning buzilgan manzarasi ko'zga tashlanadi.

**Belgisiz qabringni qora tunlarda**

**Amalimning shamin yoqib izladim.** [2. 401-b.]

Bu misralarda "qora tun", "belgisiz qabr" singari jumlar osoyishta hayotning yo'qligidan darak beradi. Ushbu jarayonda an'anaviy idilliyada bo'lganidek, hayotdagi uyg'unlik o'rniga – uzilish, tarqoqlikning hukm surishi antiidilliyaning paydo qiladi.

Behbudiy 1919-yilda otib tashlandi. Uning qabri

noma'lum edi. Aslida, qabri bormidi, yo jasadi yoqib yuborilganmidi? Cho'lpon qalbining qavarilishi ham shundan edi. Amali (diydorlik) yulduzi so'nik shoir yo'qotganini izlash jarayonida o'zini ham yutmoqchi bo'lgan yerlarga (ayg'oqchi to'dalarga) savol tashlaydi.

"Idilliyaviy qahramon butun olam tartiboti oldidagi emas, o'zgalar (va ular tashiyotgan an'ana, qadriyatlar) oldidagi mas'uliyat hissi bilan yashaydi". [4. 109-b.] Bu xususiyatlar she'ning lirik qahramoniga ham taalluqlidir.

***Men-da ojiz – bu muhitning oldida***

***Qabring topib ko'z yoshimni to'kmaikka.***

***Hamda achchiq hiddatim-la ul yerda***

***Oq kallalik, qora devni so'kmaikka.*** [2. 401-b.]

Muhit kartinasidan qon hidi anqiydi. Adolat toptalgan, zalolat botqog'iga botgan jamiyatda insoniylik udumlarini ado etmoq qiyin kechadi. Tasavvufda dev – nafs ajdahosi sifatida talqin etiladi. Oq kallalik qora dev (Oktabr inqilobi) ni so'kmaikka ojiz shoir nolasi satrdan-satrga quruqlasha boshlaydi. Chunki uni ojizlik yupanch va ovutish oralig'iga tashlab qo'yadi.

***Shuning uchun yulduz kabi yarqirab***

***Elda qolgan isming bilan turamen.***

***Shul ismni eslab, chizgan yo'lingdan***

***Yiroq ketmay, qimirlamay yuramen.*** [2. 401-b.]

She'ning mana shu o'rnida Behbudiy nomining idilliyaviy nur tarzida ifoda etilishi va lirik qahramonning shu "nurni" yo'qotmaslikka urinishi antiidilliyadan idilliyaga qaytish jarayonini yuzaga keltiradi.

Lekin shunday bo'lsa-da, mazkur she'r idilliyaning klassik modelini emas, aksincha, milliy fojia va ma'naviy yo'qotish manzarasi orqali uning buzilgan poetik variantini yaratadi.

***Aziz otam, qo'limdagi gullarning***

***Motam guli ekanini bilmaysan.*** [2. 401-b.]

Behbudiy ismiga suyanmoq, ulug' ma'rifatparvar inson ilgari surgan g'oyalar kuchidan bahramand bo'lishlikdir. Cho'lponning shaxs sifatida ham jo'mard va tanti bo'lganligi she'riy satrlarda yechiladi. Behbudiyga ota deya murojaat etishida olovli tug'yon bor, o'zbekona ehtirom bor. Uning chizgan yo'lidan yiroq ketmay, qimirlamay yurish lirik chekinishdir. Shodlik guli so'ngan diyorda motam guli qo'llarda yashnaydi. She'r so'ngida shoir qalbidagi gullarni sohib yuboradi. Hayratlanarlisi shundaki, bu gullar shoir qabri poyiga emas, balki yer yuziga sochilmoqda. Uni termakka qo'llar kerak. Ozod va pok qo'llar kerak!

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, shoir ijodida idilliya an'anaviy jo'shqin romantik idilliyadan farqli o'laroq, milliy ruh, ozodlik orzusi, tabiat va inson, ideal hayot orzusi kabilar fojiaiylik bilan birga yashaydigan estetika sifatida namoyon bo'ladi. Shu xususiyati bilan Cho'lpon idilliyaga modern ruhda qayta sayqal berdi. Bu idilliya millat ruhining uyg'onishi va insonning komillikka intilishi bilan ahamiyatli bo'lgan umuminsoniy poetik mezondir.

Yurtining ko'klamidan qayg'u sharobini ichgan, yig'layotgan qiz –Erkka tasalli bermakka talpingan, tanburi tilsiz, bulbuli kuysiz, umidining yo'lini yitirgan, aldanishlar nomussizlikning belgisiday yuzlarida muhrlangan shoir ijodi o'sha davr charxpalagida parchinlanib tashlansa-da, bugun u yana bo'y ko'rsatmoqda. Falakni bir yelpig'ichday yelpib bo'lmaydi. Tog'lar ham bir aksirishdan to'kilib ketmaydi. Cho'lpon she'riyatining ulug'vor qaddi inson qo'li yetmas haykaldek sarbaland va salobatlidir. Shoirning har bir she'rini san'at asari sifatida qabul qilib, eng yorqin mulohazalar, qarashlar bilan to'ldirmoq kerak. Chunki, uning she'riyatisiz o'zbek adabiyotini tasavvur qilib bo'lmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари. – Тошкент: Фафур Фулом нашриёти, 2015.
2. Чўлпон. Яна олдим созимни. – Тошкент: Фафур Фулом нашриёти, 1991.
3. Abdulhamid Cho'lpon. She'rlar, hikoyalar, she'riy va nasriy tarjimalar. – Тошкент: Zabarjad media nashriyoti, 2022.
4. Қуронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013.
6. www.ziyouz.com kutubxonasi

Seytjan MATEEKEV,

Qoraqalpog'iston Respublikasi Pedagogik mahorat markazi

"Tillarni o'qitish metodikasi" kafedrasini mudiri f.f.n

## AJINIYOZ IJODIDA OBRAZLAR BADIYYATI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Ajiniyoz ijodining badiiy xususiyatlari, uning qoraqalpoq adabiyotiga qo'shgan hissasi, milliy ruh va an'analarning she'riy tasvirlari tahlil qilinadi. Shoirning badiiy uslubi, obrazlar olami va ohangdor tili orqali xalq hayoti, qadriyatlari va insoniy tuyg'ularning teran ifodalanishi o'rganiladi. Ajiniyoz ijodi o'zbek va qoraqalpoq adabiyotining eng yorqin namunalari qatorida qadrlanadi va uning milliy poetik tafakkurdagi o'rni muhim ekanligi ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Ajiniyoz, qoraqalpoq poeziyasi, badiiy obrazlar, milliy ruh, she'riy uslub, muhabbat lirikasi, milliy qadriyatlar, an'anaviy adabiyot, badiiy tahlil.

**Annotation:** this article analyzes the artistic features of Ajiniyoz's work and his contribution to Karakalpak literature, focusing on the poetic depiction of national spirit and traditions. The study examines how the poet's artistic style, imagery, and melodic language deeply express the life, values, and human emotions of his people. Ajiniyoz's work is recognized as one of the brightest examples in Uzbek and Karakalpak literature, emphasizing his significant role in the development of national poetic thought.

**Key words:** Ajiniyoz, Karakalpak poetry, artistic imagery, national spirit, poetic style, love lyrics, national values, traditional literature, literary analysis.

**Аннотация:** в статье анализируются художественные особенности творчества Ажинияза и его вклад в каракалпакскую литературу, с акцентом на поэтическое отображение национального духа и традиций. Рассматривается, как поэтический стиль, образность и мелодичность языка автора глубоко выражают жизнь, ценности и человеческие эмоции народа. Творчество Ажинияза признано одним из ярких образцов узбекской и каракалпакской литературы, подчеркивая его важную роль в развитии национального поэтического мышления.

**Ключевые слова:** Ажинияз, каракалпакская поэзия, художественные образы, национальный дух, поэтический стиль, лирика любви, национальные ценности, традиционная литература, литературный анализ.

Ajiniyoz ijodi o'zbek va qoraqalpoq adabiy tafakkurining eng yorqin, badiiy jihatdan pishiq namunalari qatoridan o'rin oladi. Uning she'riyati xalqning ma'naviy olami, turmush tarzi, tarixiy xotirasi va ruhiyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, milliy poetik tafakkurning o'ziga xos qiyofasini namoyon etadi. Shoirning tasvir uslubida favqulodda sodda tuyulgan, ammo aslida nihoyatda murakkab va betakror mahorat ustuvorlik qiladi. Ajiniyoz tilidan jaranglaydigan har bir misra o'zining beg'ubor tabiiyligi, quyuq ohangdorligi, lo'nda va o'ynoqi shakli bilan o'quvchini o'ziga maftun etadi. "Ajiniyoz jahoniy e'tiroflarga sazovor bo'lgan ulkan adibdir. U qoldirgan badiiy merosning adabiy-ma'rifiy qimmatini nihoyatda baland. U qalami o'tkir ijodkor sifatida ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi barcha hodisalarga o'z munosabatini bildirgan. Shuning uchun ham uning mavzu qamrovida odam va olamga daxldor bo'lgan masala va muammolarning juda o'zgacha, yangi va yaxshi talqinlarining silsilasi kishini hayratga soladi"<sup>1</sup>.

Shoirning Vatan va el tasviriga bag'ishlangan she'rlari xalqning ma'naviy kuchini, barqaror qadriyatlarini, mehr-oqibatga asoslangan ijtimoiy hayot tamoyillarini

ulug'laydi. U she'riy tafakkurda xalqni tasvirlashning eng oddiy, ko'zni qamashtirmaydigan unsurlari orqali ulkan ma'nolar yaratadi. Qushlar, daraxtlar, suvlar, bahor manzaralari kabi tabiat obrazlari shoir qalamida milliy ruhning yuksak ramzlariga aylanadi.

Ajiniyoz yaratgan el obrazida rostgo'ylik, qat'iyat, hayo, nomus, mehmondo'stlik kabi qadriyatlar ustuvor o'rin tutadi. Shoir xalqning ruhiy qiyofasini real hayotiy belgilar, jasorat, oriyat, mehnatsevarlik kabi fazilatlar orqali jonli tasvirlaydi. Bunda afsonaviy qahramonlar, qadimiy urug'-aymoq nomlari, folklor timsollari, bahoriy tasvirlar bir butun holda milliy badiiy tafakkurning uzluksizligini ta'kidlaydi.

Ajiniyoz ijodida "Ellarim bordir" sarlavhali she'r alohida ahamiyat kasb etadi. U vatan madhini yurakdan his etgan holda, hech kimga o'xshamagan milliy poetik tasavvur orqali ifoda etadi. She'r Ajiniyozning Vatan obrazini faqat tuyg'ular darajasida emas, balki xalq turmushini chuqur kuzatgan ijodkor sifatida yoritganini ko'rsatadi. Shoir ona vatanning otashin kuychisi. U xalqning madaniyati, turmush tarzi va odatdagi hayotiy belgilarini ham badiiy ramzga aylantira oladigan mohir qalam sohibidir. Shu bois u xalq obrazini tasvirlar ekan, tashqi belgilarni oddiy ko'rinishda emas, balki millatning ma'naviy mohiyatini ochuvchi ishoraga aylantiradi.

So'rasang elimni, Qojban, bizlardan,

Qalpog'i qozonday ellarim bordir.

<sup>1</sup> To'xliyev B. Ajiniyoz ijodida milliy va umuminsoniy g'oyalar tarannumi. Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li ijodini o'rganishning dolzarb masalalari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –T., 2024. 15-bet

Xato chiqsa, kechiringlar so'zlardan,  
 Xitoy, qo'ng'iro't o'tli ellarim bordir.  
 Yaylovim keng, Urganch, shimoli – dengiz,  
 Yag'rini qopqoqday mollari semiz,  
 Ruxsatsiz biron-bir yerga bosmas iz,  
 Birikkan qo'ng'iro't ellarim bordir.

“Qalpog'i qozonday ellarim bordir” Shu birgina misra xalq obrazini timsoliy darajaga ko'targan muhim badiiy topilma sanaladi. Qalpoq qoraqalpoq xalqining milliy belgisi. Ammo Ajiniyoz uni shunchaki bosh kiyim sifatida emas, balki shakli va kattaligi orqali qozonga qiyoslaydi. Qozon esa qoraqalpoq turmushidagi eng asosiy buyum bo'lgani uchun bu o'xshatish xalqning o'ziga xos turmush tarzini ham ifodalaydi. Demak, “qalpog'i qozonday el” qoraqalpoq xalqining hech kimga o'xshamaydigan, original poetik portretidir.

Shoir qoraqalpoq urug'larining rang-barangligini tilga olar ekan, “xitoy”, “qo'ng'iro't” kabi nomlarni eslatadi. Bu nomlar xalqning qadimiy tarixi, ijtimoiy tuzilmasi va totuvligini ko'rsatadi. Ajiniyoz bu xilma-xillikni sanash orqali xalqning ildizi teran, o'zaro ahil va mustahkam ekanini urg'ulaydi.

Ne izlasang, topiladi keragi,  
 Ko'lida bor qashqaldog'i, o'rdagi,  
 Quvlari, g'ozlarin butun yuragi,  
 Jonvorlarga makon ko'llarim bordir.

Turkiy adabiyot an'alarida “semiz hayvon” farovonlik, “ozg'in hayvon” esa – qiyinchilik timsoli bo'lgan. Kul Tigin bitiklaridagi “semiz buqa”, “ozg'in buqa” kabi qaydlar buning yaqqol dalili. Demak, Ajiniyozning bu tasviri xalqning to'kin-sochinligi, barakasini badiiy timsol orqali yoritadi. Bu esa shoirning turkiy manba va og'zaki ijod an'alarini chuqur bilganini ko'rsatadi.

Ajiniyozning she'rlaridagi xalq obrazi: mehnatkash, totuv, farovon, o'z hududi va qadriyatlarini asraydigan, birlikni qadrlaydigan xalqning poetik portretidir. “Ajiniyoz – ona-vatanning otashin kuychisidir. U qoraqalpoq xalqini tavsiflar ekan, hammaga ma'lum va ochiq ko'rinib turgan tashqi alomat va belgilardan ustalik bilan foydalanadi”<sup>2</sup>.

Muhabbat lirikasi esa Ajiniyoz she'riy mahoratining yana bir muhim qirrasidir. Unda samimiyat, tabiiylik, ohangdorlik, tasvirning nafisligi ustuvor bo'lib, suyukli siymoning fazilatlarini sodda, ammo o'tkir majozlar orqali

beriladi. Bunda shoir xalq og'zaki ijodining boy metaforik tajribasidan samarali foydalanadi. XIX asr shoiri Ajiniyoz ayol go'zalligini tasvirlashda o'ziga xos, noyob badiiy uslub yaratdi. “Bozotavli nazlim” she'rida go'zallik nafaqat ko'rkam tashqi qiyofa, balki sehrli, tushunib bo'lmas fazilat sifatida ifodalangan. Shoir she'rning shakl va mazmun uyg'unligiga alohida e'tibor qaratib, har bir bandni ohangdorlik va radif bilan bezaydi.

Fáleknirñ oyını – Jayhun girdabı,  
 Bir tábássim etseñ kóhlimniñ tabı,  
 Íshqı láchkeriniñ dáhshát sarkabı,  
 Bul amanat jandı tánnen bezdirer.

Bu bandda muhabbat tuyg'ulari eng baland ohangda ifodalanadi va uning inson taqdiri oldidagi ulkan o'rni ta'kidlanadi. Taqdirdagi o'yin eng xavfli tabiiy ofatdan ham qo'rqinchli, biroq muhabbat inson hayotini baxt va osoyishtalikka aylantiradi. Sharq klassik adabiyotidagi mashhur sevgi dostonlari kabi, bu asarda ham muhabbat yo'lida qurbonlik qilish an'anasiga ishora bor. Ammo Ajiniyozning muhabbati o'ziga xos, u ochiq-oydin izhor etilmay, balki ichki kechinmalar, nozik his-tuyg'ular orqali tasvirlanadi. Bu esa uni javobsiz muhabbat motivi sifatida ko'rsatgan bo'lsa-da, haqiqiy, pok muhabbat hislarini ochib beradi. “Ajiniyoz Sharq she'riyatini yaxshi bilgan, uning asrlar davomida shakllangan an'analari, tajribalarini chuqur o'zlashtirgan shoir sifatida qoraqalpoq poeziyasini janr, shakl, badiiy vositalar va uslub jihatidan ancha boyitdi. Til badiiy tasvir vositalarining ma'no mukammalligiga erishish uchun undan poetik san'atlar ifodasi sifatida mohirona foydalandi. Qoraqalpoq adabiyotida so'z qo'llash san'atini adabiyotning ruhiy-estetik mohiyati va inson botiniy dunyosini ochib berish tamoyillariga bo'ysundirdi, qoraqalpoq adabiyotini xalqchil, insonparvar, teran ichki tuyg'ularni nozik ifodalaydigan adabiyot o'zaniga burib yuborishga erishdi”<sup>3</sup>.

Umuman olganda, Ajiniyoz she'riyati millat ruhining o'ziga xos badiiy ko'zgusi bo'lib, unda xalqning qadimdan davom etib kelayotgan an'analari, ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlari, turmush tarzining rang-barang manzaralari, insoniyatga xos ruhiy holatlar va milliy xarakter sifatleri chuqur aks etadi. Shoirning badiiy uslubi, obrazlar olami, ohangdor tili va falsafiy teranligi uning ijodini o'zbek-qoraqalpoq adabiyotining eng yuksak cho'qqilaridan biri sifatida e'tirof etishga asos bo'ladi.

3 Mambetov K. Ajiniyoz. (Ilmiy ocherk) –Nukus. Bilim,1994.

2 To'xliyev B. Ajiniyoz ijodida milliy va umuminsoniy g'oyalar tarannumi. Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li ijodini o'rganishning dolzarb masalalari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –T., 2024.15-bet

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Әжинияз Зийяр. Танламалы шығармалары. – Нөкис, Қарақалпақстан, 1988, – Б. 152. // <https://oyina.uz/kiril/article/294>
2. Мәмбетов К. Әжинияз. – Нөкис, “Билим”, 1994, – Б. 148.
3. Рустам Мусурмон. Айт Ажиниёз қўшиқларидан”. – // <https://oyina.uz/kiril/article/294>

**Bekposhsha RAXIMOVA,**  
*filologiya fanlari nomzodi, dotsent*  
*Abu Rayhon Beruniy nomidagi*  
*Urganch davlat universiteti, Urganch*  
*Raximovabekposhshat78@gmail.com*

## MATNAZAR ABDULHAKIMNING “IYMON TUHFASI” MAQOLASIDA PAHLAVON MAHMUD SIYMOSI TALQINI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Matnazar Abdulhakimning publitsistik merosi, uning ijtimoiy-falsafiy qarashlari va badiiy-publitsistik uslubi tahlil qilinadi. Adibning publitsistik maqolalari jamiyatning ma'naviy hayotiga, milliy o'zlikni anglash jarayoniga va yoshlar tarbiyasiga ta'siri nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Shuningdek, Matnazar Abdulhakim publitsistikasining lirizm, obrazlilik va falsafiy mushohada uyg'unligi uning adabiyotdagi o'rnini belgilashda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** *publitsistika, ijtimoiy-falsafiy qarashlar, ma'naviyat, milliy o'zlik, adabiy publitsistika.*

**Аннотация:** в данной статье анализируется публицистическое наследие Матназара Абдулхакима, его социально-философские взгляды и художественно-публицистический стиль. Публицистические статьи автора рассматриваются с точки зрения их влияния на духовную жизнь общества, процессы осознания национальной идентичности и воспитание молодёжи. Также подчёркивается, что единство лиризма, образности и философской рефлексии в публицистике Матназара Абдулхакима играет важную роль в определении его места в литературе.

**Ключевые слова:** *публицистика, социально-философские взгляды, духовность, национальная идентичность, художественная публицистика.*

**Annotation:** this article analyzes the journalistic legacy of Matnazar Abdulhakim, his socio-philosophical views, and his artistic-journalistic style. The author's journalistic works are examined in terms of their impact on the spiritual life of society, the process of national self-awareness, and the education of the younger generation. The study also emphasizes that the harmony of lyricism, imagery, and philosophical reflection in Matnazar Abdulhakim's journalism plays a significant role in defining his place in literature.

**Key words:** *journalism, socio-philosophical views, spirituality, national identity, literary journalism.*

Matnazar Abdulhakim o'zbek adabiyoti va publitsistikasining yirik namoyandalaridan biri sifatida tanilgan. Uning ijodiy merosida she'riyat, nasr, tarjima bilan bir qatorda publitsistika ham alohida o'rin egallaydi. Adibning publitsistik maqolalari, esse va suhbatlarida ijtimoiy-ma'naviy hayot masalalari, milliy qadriyatlar, adabiy meros, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarga daxldor muammolar teran mushohadalar asosida yoritiladi. O'zbek publitsistikasi XX asr oxiri va XXI asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni aks ettirish, milliy o'zlikni anglash va ma'naviy yangilanishni targ'ib qilishda alohida o'rin tutdi. "Badiiy publitsistika jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy jarayonlarga, dunyo mintaqalarida yuz berayotgan, odamlar

ong-shuuriga, dunyoqarashi va turmush tarziga ta'sir ko'rsatayotgan voqea-hodisalarga hozirjavoblik bilan munosabat bildiruvchi ijodiy tafakkur mahsulidir. Bu janr o'quvchi ongiga samarali ta'sir ko'rsatishi, jamiyat oldida turgan dolzarb vazifalarni sharhlashda muhim ahamiyat kasb etishi, jamoatchilik fikrini yuzaga keltirishdagi imkoniyatlarining kengligi bilan ajralib turadi"[1;4]. Shu nuqtayi nazardan, Matnazar Abdulhakim publitsistik merosi o'zbek adabiy-estetik tafakkurining yorqin sahifalaridan biri hisoblanadi. Adib o'z publitsistik maqolalarida millat taqdiri, inson ma'naviyati, tarixiy meros va zamon muammolari haqida teran fikr yuritgan. Uning publitsistikasi badiiylilik, falsafiy mushohada va lirizm uyg'unligi bilan

o'ziga xoslik kasb etadi. Atoqli shoir, tarjimon va adabiyotshunos olim Matnazar Abdulhakimning "Tafakkur chorrahalarida" nomli kitobi adibning keng qamrovli ilmiy, badiiy va publitsistik qarashlarini namoyon etadi. Ushbu salmoqli asar buyuk mutafakkir, shoir va javonmardlik tariqatining yirik namoyandasi Pahlavon Mahmud merosini idrok etish, uning ruboiylarini tarjima qilish jarayonida muallifning mushohadalari, mulohazalari va talqinlarini qamrab oladi. Kitob maqola, esse va suhbatlardan tashkil topib, unda Pahlavon Mahmudning falsafiy qarashlarini, shuningdek, hazrat Puryor Valiyning ma'naviy merosiga ehtirom ifodalangan. Asar tarkibida Sharq mumtoz adabiyotining betakror siymolari, adabiy va abadiy yodgorliklar mohiyati, tasavvuf falsafasining tabiati haqida tarjimon qalamiga xos kuzatish va mulohazalar mujassam. Mazkur kitob Matnazar Abdulhakimning publitsistik uslubini kengaytirib, uni tarjima san'ati va adabiyotshunoslik bilan uyg'unlashtiradi.

Matnazar Abdulhakimning publitsistik qarashlari "lymon tuhfasi", "Ikkinchi muallim saboqlari" kabi asarlarida o'z ifodasini topgan. Ushbu maqolalarda u jamiyatni ma'naviy yangilash, insonning ruhiy poklanishi, tarixiy shaxslar merosini qadrlash kabi masalalarga alohida e'tibor qaratadi. Publitsistik asarlarida adibning adabiyotshunoslik bilimlari, ijodkorlik tajribasi va jamiyatshunoslik qarashlari bir-biriga tutashadi. Shuningdek, uning ko'plab publitsistik chiqishlari mustaqillik davrida milliy ongni shakllantirishga, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Adabiyotshunos olim H. Abdullayev Matnazar Abdulhakimni izlanuvchan tadqiqotchi sifatida shunday e'tirof etadi: "Matnazar Abdulhakim badiiy va ilmiy tafakkur ufqlari qamrovli, fikr mohiyati teran, ifoda tarzi ravon ijodkordir"[2;4]. Adib publitsistik maqolalarida insonning ichki dunyosini tarbiyalash, milliy qadriyatlarga sodiqlik va diniy-axloqiy qarashlarni targ'ib qilishga katta e'tibor beradi. Matnazar Abdulhakimning Pahlavon Mahmud ijodiga bag'ishlangan publitsistik maqolalari – "lymon tuhfasi", "Muhabbat kimyosi", "Ilohiy imtiyoz" va "Hamsafarlar muloqoti" – o'zbek adabiy publitsistikasida tasavvufiy-estetik merosni talqin qilishning o'ziga xos

namunalaridir. Ushbu maqolalar mazmunan bir-birini to'ldirib, shoir ijodini diniy-axloqiy, falsafiy va ijtimoiy-ma'naviy jihatdan izchil yoritadi. Matnazar Abdulhakim publitsistikasi ma'naviy-ma'rifiy jihatdan ahamiyatli bo'lib, badiiy-falsafiy mushohadalarga boy. U maqolalarida ko'pincha she'riyatga xos lirizm, obrazlilik va metaforik ifodalar qo'llaydi. Masalan, ijtimoiy muammolarni tasvirlar ekan, tabiat manzaralari yoki tarixiy shaxslar timsolidan foydalanadi. Adibning publitsistikasi ritorik savollar, hikmatli jumlar, qisqa va lo'nda xulosalar bilan o'quvchiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Matnazar Abdulhakim publitsistikasida inson va jamiyat munosabatlarini yangicha talqin etadi. Mustaqillik davridagi ijtimoiy o'zgarishlarni u milliy qadriyatlar, ma'naviy yangilanish va tarixiy xotira bilan uyg'unlikda ko'radi. Adibning nazarida jamiyat taraqqiyotining asosi – ma'naviyat, bilim va e'tiqoddir. Shuning uchun ham uning maqolalarida tarixiy haqiqat va adabiy meros qiyosiy yondashuvda tahlil qilinadi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Qadamboy Solayev "Tafakkur chorrahalarida" kitobining so'zboshisida shunday fikrlarni keltirib o'tgan: "Matnazar Abdulhakim javonmardiylik peshvosi Pahlavon Mahmud qarashlarini anglash, o'quvchi idrok qilishini imkon qadar osonlashtirish maqsadida shoir ruboiylariga qayta-qayta murojaat qiladiki, bu iqtiboslar aslo ortiqchalik kashf etmay, o'rinli qo'llanganligi hamda ma'no tashishdagi zalvorlilik bilan dilni ravshanlashtiradi"[3;3]. Darhaqiqat, Matnazar Abdulhakim mumtoz adabiyotimizning yirik vakili tasavvuf ilohi bo'lmish Pahlavon Mahmud asarlarini o'rganar, uni tahlil qilar ekan, uning har bir mavzu ko'lamiga alohida to'xtalib, uni keng yoritib berishga harakat qiladi.

Matnazar Abdulhakim publitsistikasi o'zbek adabiyotida ijtimoiy-falsafiy tafakkurning muhim bosqichini tashkil etadi. Uning publitsistik merosi millatni ma'naviy uyg'otishga xizmat qiladi, jamiyatning dolzarb masalalarini badiiy-publitsistik shaklda yoritgan, adabiyot, tarix va ma'rifatni uyg'unlashtirgan. Matnazar Abdulhakimning "lymon tuhfasi" maqolasi o'zbek badiiy publitsistikasida alohida o'rin tutadigan, tasavvuf, badiiy tafakkur, mumtoz adabiyot va zamonaviy publitsistikani birlashtirgan

asardir. Ushbu maqolada muallif Pahlavon Mahmud ruboiylarini sharhlar ekan, ularni badiiy adabiyotimizning yetuk namunasi sifatida falsafiy jihatdan teran talqin qiladi. "Iymon tuhfasi"ning badiiy publitsistik asar sifatida e'tirof etilishining asosiy sababi, unda ijtimoiy fikrlar, ma'rifat va xalqning ma'naviy uyg'onishiga xizmat qiluvchi g'oyalar birlamchi o'rinda turadi. Avvalo, maqolada iymon tushunchasining falsafiy-axloqiy mohiyati keng ochib berilgan. Iymonni faqat diniy rasmiy marosimlar bilan cheklamaslikni, balki uni inson qalbini tozalovchi, jamiyatni uyg'otuvchi, millatni birlashtiruvchi kuch sifatida ko'rish kerakligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, iymon shaxsiy fazilatlar – sabr, vafodorlik, halollik, javonmardlik bilan uyg'unlashgan holda haqiqiy kuchga aylanadi.

Maqolaning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda har bir ruboiy alohida tahlil qilinib, undagi badiiy obrazlar ijtimoiy-axloqiy va falsafiy mazmun bilan boyitiladi. Masalan, darvish va shoh obrazlari orqali insoniyat tarixida hokimiyat va ma'rifatning o'zaro aloqasi, xalqni boshqarish va ma'naviy tarbiya masalalari yoritiladi. Darvishlik – ruhiy poklik, ma'naviy yetuklik ramzi sifatida talqin etilsa, shohlik – hukmronlik ramzi sifatida ko'riladi. "Iymon – bu ibodatgina emas, balki insonning jamiyatdagi tutumi, axloqiy qadriyatlari, boshqalar bilan bo'lgan munosabatida ko'zga tashlanadigan ichki barkamollikdir" degan muallif g'oyasi maqolada "ilm – ibodatdan afzal", "ko'ngilni og'ritmaslik – eng ulug' amal" kabi qadimiy hikmatlar orqali isbotlanadi. Matnazar Abdulhakim bu qarama-qarshilikni murakkab ijtimoiy jarayonlarning badiiy timsoli sifatida talqin qilib, darvishning shohga nisbatan ustunligini, ya'ni ma'rifatning kuchdan ustunligini ta'kidlaydi. Tarixiy shaxslar obrazidan foydalanish ham muallifning kuchli jihatlaridan biridir. Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud kabi allomalar siymosida o'tmish qahramonlarini

qayta jonlantiradi. Shu bilan birga, maqolada qiyosiy-tipologik yondashuv ham o'z ifodasini topgan bo'lib, Matnazar Abdulhakim mumtoz adabiy meros, xalq og'zaki ijodi, islom falsafasi va tasavvuf ta'limotidan foydalanib, teran ilmiy-nazariy mushohadalar yuritadi. Shuningdek, maqolada insoniy fazilatlarining timsoli sifatida ishlatilgan ko'plab obrazlar uchraydi: it obrazi – sadoqat ramzi, bo'z va atlas – zohir va botin timsollari, tuproq – kamtarlik belgisi, sharob – hayot ne'matlaridan halol foydalanish timsoli sifatida talqin etiladi.

Xulosa qilib aytganda, Matnazar Abdulhakimning "Iymon tuhfasi" nomli publitsistik maqolasi o'zbek adabiy-publitsistik tafakkurida alohida o'rin tutadigan asarlardan biridir. H.Abdullayev ta'kidlaganidek, "ilmiy-ommabop maqolalarida adabiy merosni, xususan, o'tmish badiiy yozma qadriyatlarini chuqur anglash va idrok etish iqtidori namoyondir. Bunga Matnazarning "Iymon tuhfasi", "Ikkinchi muallim saboqlari" asarlari dalildir" [4;4]. "Iymon tuhfasi" va "Ikkinchi muallim saboqlari" asarlarida jamiyat hayotiga oid masalalar hozirjavoblik ruhida yoritilib, publitsistik tahlil usullaridan samarali foydalanilgan. Matnazar Abdulhakim iymonni milliy o'zlikni anglash jarayonining negizi deb biladi. Maqolada qo'llanilgan ramziy obrazlar, tarixiy dalillar va ma'naviy mushohadalar inson tafakkurini kengaytirishga undaydi. "Iymon tuhfasi" mustaqillikdan keyingi ma'naviy uyg'onish, milliy o'zlikni anglash, tarixiy merosga qaytish jarayonida yozilgan va aynan shu tarixiy sharoitda xalqning ichki ruhiy ehtiyojlarini aks ettirgan. Bunday maqolalar xalqni o'z qadriyatlariga, ma'naviy ildizlariga yuzlanishga chorlaydi. Matnazar Abdulhakimning publitsistik uslubi esa o'quvchini faqat fikrlashga emas, balki o'z qalbini tahlil qilishga, ma'naviy o'sishga undaydigan kuchli ruhiy va estetik ta'sir kuchiga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Ozod Vatan saodati: Besh jildlik. Jild 4: Badiiy publitsistika / tahrir hay'ati: M. Ali, S. Sayyid va boshq.; nashrga tayyorlovchi A. Meliboyev; mas'ul muharrir A. Nazar. – Toshkent: Adib, 2013. 4-bet.
- 2.Abdullayev H. Mangulikka muxtasar nazar. – Urganch: Xorazm nashriyoti, 2018. 4-bet.
- 3.Matnazar Abdulhakim. Tafakkur chorrahalarida. Xorazm nashriyoti, 2013-y, 3-bet.
- 4.Abdullayev H. Mangulikka muxtasar nazar. – Urganch: Xorazm nashriyoti, 2018. 4-bet

**Sayyora XAQNAZAROVA,**

*Farg'ona davlat universiteti, katta o'qituvchi, f.f.d (PhD)*

*Sayora1970@mail.ru*

## ABDULLA SHER LIRIKASIDA O'ZIGA XOSLIK

**Annotatsiya:** ushbu maqola Abdulla Sher lirikasining badiiy-estetik xususiyatlarini, xususan, shoirning poetik uslubi-dagi o'ziga xoslik va individual tasvir tamoyillarini ilmiy jihatdan tahlil etishga bag'ishlangan. Muallif shoir lirik qahramoni-ning ichki kechinmalarini ochishda leksik-semantik og'ishlar, poetik ko'chimlar, sintaktik figuralar, jonlantirish, mubolag'a kabi badiiy vositalardan samarali foydalanganini ta'kidlaydi. Maqolada adabiyotshunos olimlar O. Sharafiddinov va V. Zohidovlarning fikrlari asosida Abdulla Sher ijodida an'anaviylik va zamonaviylikning uyg'unlashuvi, romantik va realistlik tasvirning kontrastli birikishi ilmiy asosda yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** *Abdulla Sher, lirik qo'lyozma, poetik uslub, badiiy tasvir, poetik ko'chim, sintaktik figura, romantik tasvir, realistlik tasvir, emotsional ifoda.*

**Аннотация:** данная статья посвящена научному анализу художественно-эстетических особенностей лирики Абдуллы Шера, в частности, самобытности его поэтического стиля и индивидуальных принципов художественного изображения. Автор подчёркивает, что поэт эффективно использует лексико-семантические отклонения, поэтические тропы, синтаксические фигуры, олицетворение, гиперболу и другие выразительные средства для передачи внутреннего мира лирического героя. На основе мнений литературоведов О. Шарафиддинова и В. Захидова в статье научно обосновано гармоничное сочетание традиционности и современности в творчестве Абдуллы Шера, а также контрастное переплетение романтического и реалистического изображения.

**Ключевые слова:** *Абдулла Шер, лирика, поэтический стиль, художественное изображение, поэтический троп, синтаксическая фигура, романтическое изображение, реалистическое изображение, эмоциональная выразительность.*

**Annotation:** this article is devoted to the scholarly analysis of the artistic and aesthetic characteristics of Abdulla Sher's lyric poetry, with particular emphasis on the uniqueness of his poetic style and his individual principles of artistic depiction. The author highlights that Abdulla Sher effectively employs lexical-semantic shifts, poetic tropes, syntactic figures, personification, hyperbole, and other expressive devices to convey the inner experiences of the lyrical persona. Based on the views of literary scholars O. Sharafiddinov and V. Zohidov, the article scientifically examines the integration of traditional and modern elements in Abdulla Sher's works, as well as the contrasting combination of romantic and realistic imagery.

**Key words:** *Abdulla Sher, lyric poetry, poetic style, artistic imagery, poetic trope, syntactic figure, romantic imagery, realistic imagery, emotional expression*

**Kirish.** Abdulla Sherning poetik mahorati va o'ziga xosligi tabiatning tasviriga insonlar his-tuyg'usi va nozik kechinmalarini singdirishida, tabiatdagi fasllar o'zgarishini, ya'ni tabiat hodisalarini insonning ichki kechinmalari bilan bog'lay olishida namoyon bo'ladi. Ijodkor ularni oddiy so'z bilan emas, balki turli sintaktik figuralar yordamida ifodaviy vositalar yordamida tasvirlaydi. Shoir poetik ko'chimlardan she'rlaridagi estetik, tarbiyaviy ta'sirni kuchaytirishda, she'rlar mazmunidagi rang-baranglikni orttirishda, lirik qahramonlar tuyg'ularini ifodalashda foydalangan. U voqelikdagi hodisalarni aks ettirish, baholash uchun zarur so'z topa bilish hamda ularni o'z o'rnida qo'llash va ular vositasida ko'zda tutilgan ma'noni to'g'ri ifodalay bilgan.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** "Abdulla Sher nima haqda yozmasin, o'z fikrini aytishga, o'z tasavvurini berishga intiladi. Buning oqibatida bizga ko'pdan tanish bo'lgan faktlar va hodisalar shoir she'rlarida yangi qirralari bilan namoyon bo'ladi" -

deydi adabiyotshunos olim O. Sharafiddinov shoir ijodi xususida to'xtalib. [1.75]

Darhaqiqat, Abdulla Sher lirikasi orqali hayotiy voqealar ta'sirida yuz bergan qalbidagi ruhiy tug'yonlarni, kechinmalarni, fikr va tuyg'ularni hassoslik bilan namoyon etadi. Kishini mashg'ul etgan, to'liqlatgan, qayg'u solgan, zavqlantirgan, orom bag'ishlagan, hayajonga solgan, nima bo'lsa, qisqasi, subyektning ma'naviy hayotini tashkil qilgan hamma narsa, subyekt ichiga nima kirs, unda nima paydo bo'lsa, shularning barchasi shoir lirikasining asosini tashkil qilgan. Ijodkorning she'rlari ko'ngilning jonli suvratini, o'tgan yillar va yo'llarining lirik manzarasini, Vatanga, xalqqa, haqiqatga, yorga muhabbatning o'ziga xos tasvirlarini namoyon qiladi. Ijodiy qamrovi keng, tasvir miqyosi cheksiz, inson tuyg'ularining o'ta nozik va ingichka tovlanishlarini ifodalay biladigan Abdulla Sherning ijod namunalari odamiylik fazilatlarini uyg'otishga xizmat qiladi, insonni ma'nan tarbiyalaydi, unga har tomonlama estetik zavq beradi.

*Tushlarimda meni yetaklar  
 Nozik ado bir sohibjamol  
 Ergashadi bizga chechaklar,  
 Afsonalar so'ylaydi shamol. [2.210]*

“ergashadi bizga chechaklar”, “afsonalar so'ylaydi shamol” poetik ko'chimning sinekdoxa ko'rinishi bo'lgan “chechaklar”, “afsonalar” ko'plik shakli orqali birlikning ifoda etilishidir. Shoir leksik, semantik sathdagi og'ishlar orqali lirik qahramon kechinmalarini aks ettiradi va bular tasvir predmetiga bo'lgan emotsional munosabatni ifodalaydi.

“Abdulla Sher avvalambor, an'anaviylik va zamonaviylikni o'z ijodida mohirona uyg'unlashtira olgan iqtidorli shoirlardan. Uning she'rlaridagi realistik tasvir bilan romantik ruhning tabiiy ravishda omuxtalashib ketish xususiyati ham ana shundandir. Bu romantik va realistik ruh shoir poeziyasining yuksak pafosli va aktiv bo'lishiga, yanada bo'rttiribroq ko'zga tashlanishiga, dunyo va davr voqealarining unda yanada yaqqol, konkret hamda kontrastli ifoda etilishiga xizmat qiladi”, – deb baholaydi shoir ijodini adabiyotshunos olim V.Zohidov [3.421].

Haqiqatan, ijodkorning she'rlaridagi kontrastlar, xususan, ijtimoiy, ruhiy olamning o'zaro bog'liqligini ochib beradi. Shu tarzda, u o'z she'rlarida nafaqat romantik tasvirlar, balki real hayotdagi masalalarni, odamlarning ichki dunyosini hamda tashqi jamiyat bilan munosabatlarini yoritadi. Bunday kontrastlar, shoirning she'rlari uchun katta estetik va ma'naviy quvvat manbaidir. Ijodkor lirikasi serma'noliligi, fikran teranligi, his-tuyg'u va ehtirolarning samimiyligi, boyligi, shaklan rang-barangligi, jozibadorligi bilan ajralib turadi. Shoir lirikasida fikr-tuyg'ularni shunday biriktiradiki, natijada lirik yuksaklik vujudga keladi va bu yuksaklik asarning hayajonlantirish kuchini yanada oshiradi.

*Kulib boqdi menga she'riyat,  
 Ranglarini ko'rdim bor-yo'qning.  
 Chulg'adi-yu olovli niyat,  
 Tafti bo'ldim qordagi cho'g'ning. [4.250].*

Mazkur satrlarda “kulib boqdi menga she'riyat” – jonlantirish, “ranglarini ko'rdim bor-yo'qning” – mubolag'a, “chulg'adi-yu olovli niyat” – bo'rttirilgan ruhiy kechinma, “tafti bo'ldim qordagi cho'g'ning” – o'ta mubolag'ali holat,

bu badiiy tasvir va ifoda vositalari she'rdagi hissiyotni yanada kuchaytirish, tasvirlanayotgan narsaning aniq ifodasini ko'rsatish, his-tuyg'u va kechinmalarni jonli ifodalashga xizmat qilgan. Ijodkor lirikasida inson hayotining go'zal va alamli damlari, insonning ichki his-tuyg'ulari, hayot uchun kurashi, xullas, yaxshi kunlariyu, armonlarini so'zlar tasvirida namoyon etadi. Badiiy tasviriy vositalardan samarali foydalanish, she'rlar mazmuniga falsafiy g'oyalarni singdirish shoir ijodining asosiy leymotivi bo'lgan.

**Natija va muhokama.** Ijodkor ijtimoiy hayotimizda sodir bo'ladigan haqsizliklar va adolatsizliklarni tabiat tasviriga, kundalik voqealikka uyg'un tarzda mohirona bog'ladi. Shoir lirikasida Vatanga muhabbat, sevgi-muhabbat mavzulari, o'z xalqiga bo'lgan hurmat badiiy tasvirlar orqali sayqallanadi, poetik ifoda darajasiga ko'tariladi. Shuningdek, poetik ko'chimlar yordamida she'rlarning ta'sirchanligini, lirik qahramonning ruhiy holati, ichki kechinmalarini emotsional va jonli tarzda namoyon etadi. Ijodkor so'z san'atining imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalangan holda, hayotning quvonchli damlaridan tortib, iztirobli onlarigacha bo'lgan barcha tuyg'ularni samimiy, ta'sirchan va o'tkir obrazlar vositasida ifodalaydi. Uning she'rlarida romantik ruh bilan realistik tasvirning uyg'unlashuvi inson hayoti, ruhiy olami va jamiyatdagi voqelikni keng qamrovda, estetik teranlik bilan aks ettirishiga imkon yaratadi.

**Xulosa.** Abdulla Sher inson qalbi, ko'nglini, uning tug'yonlarini go'zal yo'sinda manzaralashning uddasidan chiqqan ijodkor. Inson tuyg'ularini esdan chiqmaydigan qilib, manzaralar orqali tasvirlash bilan shoir uslubining o'ziga xosligini ko'rsatadi. Abdulla Sherning lirikasida Vatanga muhabbat, xalqning o'tmishi va ma'naviy qadriyatlarini, insoniy tuyg'ular, muhabbat, ayriliq, orzu va armon singari mavzular badiiy yaxlitlikda, falsafiy mushohada bilan yoritiladi. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Abdulla Sherning she'riyati o'zbek adabiyoti uchun nafaqat badiiy yangilik, balki ruhiy-ma'naviy boylik manbai hamdir. Shoirning poetik mahorati, til boyligidan mohirona foydalanishi va inson qalbiga xos nozik kechinmalarni teran his etib tasvirlay olishi uning ijodining adabiyotimiz xazinasida alohida o'rin egallashiga sabab bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шарафиддинов О. Гўзаллик излаб. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. Б. 75.
2. Абдулла Шер. Гул йиллар, булбул йиллар. Тушларимда. Кичик сайланма. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. Б.210.
3. Зоҳидов В. Жаҳон бадиияти зарварақлари. Замонни куйлаётган шоир. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. Б. 421.
4. Абдулла Шер. Танланган асарлар. Бибихоним ҳақида баллада. Шеърлар, дostonлар. –Тошкент: Sharq, 2021. Б.250.
5. Абдулла Шер. Танланган асарлар. Атилла. Шеърлар, дostonлар.–Тошкент: Sharq, 2021. Б. 427.
6. Абдулла Шер. Танланган асарлар. Хўрсиниқ. Шеърлар, дostonлар.–Тошкент: Sharq, 2021. Б.101.

Maftuna XALOVA,  
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti,  
filologiya fanlari doktori

## HALIMA XUDOYBERDIYEVA LIRIKASIDA TUYG'ULAR TALQINI

**Annotatsiya:** mazkur maqolada Halima Xudoyberdiyeva ijodi haqida ma'lumot berilgan. Shoirira lirikasining g'oyaviy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek ijodkorning badiiy mahorati va o'zbek ayollar adabiyotiga qo'shgan hissasiga munosabat bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** *she'riyat, milliylik, vatanparvarlik, iste'dod, ilhom, talant, shoir shaxsi, badiiy olam.*

**Аннотация:** в статье представлена информация о творчестве Халимы Худойбердиевой. Анализируются идейные аспекты лирики поэтессы. Также рассматривается художественное мастерство автора и её вклад в узбекскую женскую литературу.

**Ключевые слова:** *поэзия, национальность, патриотизм, талант, вдохновение, одарённость, личность поэта, художественный мир.*

**Annotation:** this article provides information about the work of Halima Khudoyberdiyeva. The ideological aspects of the poet's lyrics are analyzed. The author's artistic skills and contribution to Uzbek women's literature are also discussed.

**Key words:** *poetry, nationality, patriotism, talent, inspiration, talent, personality of the poet, artistic world.*

O'tgan asrning 60-yillari oxiri va 70-yillari avvalida o'zbek she'riyatiga xotin-qizlarning yangi bir avlodi kirib keldi. Gulchehra Jo'rayeva, Oydin Hojiyeva, Gulchehra Nurullayeva, ozroq fursatdan so'ng Bibisora Turobova, Hosiyat Bobomurodova, Qutlibeka Rahimboyeva kabi shoiralar avlodi ustoz shoirira Zulfiya atrofida birlashdi. Chindan ham shoiralarning deyarli bir paytda adabiyot maydonida paydo bo'lishi milliy she'riyatimiz tarixidagi noyob hodisalardan hisoblanadi. Bu nomlar ichida Halima Xudoyberdiyeva o'zining milliy, o'zbekona ruhga yo'g'rilgan o'ychan va teran she'riyati bilan alohida ajralib turadi. XX asrning birinchi yarmi o'zbek adabiyotida ayol ijodkorlarning soni-yu salmog'i uncha yuqori emasdi. Oydin Sobirova, Zulfiya, Saida Zunnunova... betakror, bir-biriga o'xshamagan bu iste'dodlarning kirib kelishi, birinchidan, ayollar adabiyotining shakllanish bosqichini anglatsa, ikkinchidan, ayollar adabiyotining keyingi rivojiga mustahkam poydevor yaratganlikdan darak berar edi.

"O'zbek shoiralari" kitobining muallifi, atqqli adabiyotshunos T.Jalolov "Tuyg'ular tug'yoni" maqolasida adabiyot dargohiga kirib kelayotgan Halima Xudoyberdiyeva haqida shunday deb yozgan edi: "Halima o'zbek ayollar she'riyatida kutilmagan hodisa, ungacha bu san'at koshonasida qandaydir sukunat, osudalik hukm surib, kishini mudroq bosardi. Halima bu dargohga bo'ron bo'lib, suron bo'lib kirib keldi-da, to'liqib, oshiqib, toshiqib baland pardalarda qo'shiq boshladi.

Men shunchaki o'ylagim kelmas,  
Xayol – sharob misol qilsin sarxush, mast.

Men shunchaki kuylagim kelmas,  
Ovoz pardalarim chidab bersa bas.

Shu satrlar bilan boshlanadigan mumtoz, shiddatkor she'r menga shoiraning ijodiy, axloqiy, insoniy programmasi bo'lib tuyuldi. Bu she'r to'lig'icha olganda tuyg'ularning tug'yoni, jasoratning namoyishidir.

Men sizlarni shu she'rning oxirgi baytlariga e'tibor qilishingizni istar edim:

Shunchaki yozmoqqa, ko'ngil to'lmaydi,  
Shunchaki yozmoqqa bormaydi qo'lim.  
Shunchaki yozganga chidab bo'lmaydi,  
Shunchaki yozmoq bu – shoirga o'lim!

Haqiqatan ham shunchaki yozmoq – faqat shoirning emas, adibning ham, olimning ham o'limidir<sup>1</sup>.

Ijod psixologiyasi murakkab ruhiy jarayon bo'lib, uni anglash va tushuntirish nihoyatda sinchkovlikni talab etadi. Ijodkor tafakkuri, xalq tafakkuri, kitobxon tafakkuri yagona nuqtada sintezlashganda badiiy asar o'zining estetik go'zalligi-yu ta'sirdorligini namoyon qiladi.

Shu bois badiiy asarni o'rganishda, eng avvalo, ijodkorni shakllantirgan omillarga e'tibor qaratish zarur. Albatta, ijodkor biografiyasi bilan bog'liq ayrim sanalar uning ijod olamiga kirishi uchun muayyan tushunchalar berishi mumkin, biroq ijodkor olamini faqat sanalar va faktlar bilan bog'lash ham o'zini oqlamaydi. Zotan ko'p she'rshunoslar she'r – shoir qalbining biografiyasi deyishadi. Shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, Halima Xudoyberdiyeva she'rlarini uning bezovta

1 Худойбердиева Х. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарк, 2018. – Б.6.

qalbining tarjimai holi deyish mumkin. Halima Xudoyberdiyevaning ijodi 60-yillardan boshlangan bo'lib, shu kungacha u yigirmadan ortiq she'riy to'plamlar, dostonlar va publitsistik maqolalar yaratdi. Xususan, uning "Ilk muhabbat" (1968), "Oq olmalar" (1973), "Chaman" (1974), "Suyanch tog'larim" (1976), "Bobo quyosh" (1977), "Issiq qor" (1979), "Sadoqat" (1983), "Muqaddas ayol" (1987), "Yuragimning og'riq nuqtalari" (1991), "Hurlik o'ti" (1993), "Bu kunlarga yetganlar bor" (1994), "To'marisning aytgani" (1996) kabi she'riy, nasriy kitoblari keng kitobxon ommasining ma'naviy mulkiga aylangan. Halima Xudoyberdiyeva shoiragina emas, otashnafas publitsist hamdir. Uning "Yuragimning og'riq nuqtalari" to'plamiga kirgan maqolalarida zamonamizning dolzarb muammolari haqida mushohada yuritiladi. Uning Fazu Aliyeva, Silva Kaputikyan, Ibrohim Yusupovdan qilgan tarjimalari e'tiborlidir. Halima Xudoyberdiyeva o'zining "Muqaddas ayol" (1990) nomli she'riy to'plami uchun Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. 1992-yili unga "O'zbekiston xalq shoiri" faxriy unvoni, 2021-yili "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni berilgan. Halima Xudoyberdiyeva 2018-yil 17-avgustda vafot etgan.

Albatta, bu fakt va raqamlar masalaning tashqi jihatlari haqida taassurot hosil qilish uchun kerak, biroq shoir poetik olamining ichki dunyosini, undagi qonuniyatlar jarayonini tushunish uchun lirik qahramon ijodining pafosi, uning dunyoqarashi, ruhiy-psixologik holati, qalb kechinmalari, tuyg'ularining assotsiativ bog'lanishlari, fikr va hissiyot uyg'unligi kabi bir qator masalalar ham borki, ularga to'xtalib o'tish joiz sanaladi.

Halima Xudoyberdiyeva ijodining bosh pafosini Vatanga muhabbat, ona yurtga sadoqat tuyg'ulari tashkil etadi. Uning ilk to'plami – "Ilk muhabbat" dayoq bu pafos o'zligini namoyon etgan edi:

Qon aslan yorug'lik. Yorug'lan, tiz cho'k,  
Asl mard Vatanga tiz cho'kib o'tar.  
Qancha qoning bo'lsa, Vatan uchun to'k,  
Qancha joning bo'lsa, Vatanni ko'tar!

So'z san'ati yaratilbdiki, unda hamisha Vatan mavzusi asosiy va boqiy mavzulardandir. Fikrimizni folklorning ajoyib namunasi bo'lmish "Alpomish" dostoni misoli orqali ham isbotlash mumkin. Zero, Halima Xudoyberdiyeva she'riyati mana shu ko'rkam

asarlardan oziqlangan va bunyod etilgandek. Halima Xudoyberdiyevaning Vatan haqidagi she'rlari ham ana shunday dil satrlari bo'lib jaranglaydi. Vatan mavzusida asar yaratmagan ijodkor yo'q. Biroq bir xil mavzuda asar yaratilsa-da, unda dil lavhalari, o'zligidan darak beruvchi tushunchalar turfa ko'rinishlarda bo'ladi. Shu bois ham shoir bu mavzuda har gal original poetik fikr yurita oladi, ohori to'kilmagan yangi mazmun hamda unga munosib shakl topa oladi. Alal-oqibat she'rlardagi tashbehlar toza, o'xshatishlar hayotiy, tuyg'ular samimiy:

To bu bayroq, Vatan, nurlar  
Ich-ichingga ketsin kirib.  
Toki g'anim vatanxo'rlar,  
Ololmasinlar sug'urib.  
Shunday o'rgat qulni, xonni,  
Uchmas qush ham uchar bo'lsin.  
To bayroqdan oldin jonni,  
Bermoq oson kechar bo'lsin.

Har bir xalqning o'zligini anglatuvchi bayrog'i bo'lganidek, bayroq ham o'z navbatida, xalq tushunchasini beradi. Shoir ham mana shu ma'no-mazmundan original satrlar yarata oladi. Natijada bayroq xalq farzandlarining dil lavhalari bo'lib, dilga joylangani kabi uning uchun jonfidolik qilish zarurati ham aql-ong shuurida mujassam bo'lmog'i ta'kidlanadi. Darhaqiqat, xalq farzandlari anglashi lozim bo'lgan tushunchalarni anglashsagina, xalq qudrati namoyon bo'ladi. Demak, xalq qudratining asli xalq farzandlarining ong-shuurida joy olmog'i lozim.

Xullas, Halima Xudoyberdiyeva lirikasi o'zining g'oyaviy rang-barangligi bilan ham betakrordir. Shoiraning Vatan haqidagi manzumalarini kengaytiradigan va boyitadigan, uni rang-barang va mukammallashtiradigan bir qator obrazlar borki, bu obrazlar she'rlardan she'rlarga ko'chib yuradi, har gal o'zining yangidan yangi qirralari bilan namoyon bo'ladi. Halima Xudoyberdiyevaning lirik qahramoni ona, opa, singil, dugona kabi rang-barang qiyofalarning turli ruhiy holat va kayfiyatdagi, turlicha rakursdagi qarashlarning umumlashma siyosidan yaralganligi, bu ayolning zuvalasi eng mayda shaxsiy dardlar bo'lib ko'rindigan masalalardan katta ijtimoiy dardlargacha bo'lgan hissiyotlar ummonida toblanadi. Shu bois ham misrlardagi badiiyat tushunchalari mahorat darajasida ifodalangan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Раҳимжонов Н., Ҳамидова. Ҳ. Ҳ. Худойбердиева лирикаси. – Т.: Фан, 2004.
2. Тўраев Д. Yangi o'zbek adabiyoti. – Т.: "Akademnsht", 2016. 174-b.
3. Худойбердиева Ҳ. Танланган асарлар. – Т.: "Sharq" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2019. 435-б.
4. Худойбердиева Ҳ. "Танланган асарлар". – Т.: "Шарқ" нашриёт матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2018. 353-б.
5. Ҳамдам У. Янги ўзбек шеърляти. – Т.: Адиб, 2012. 304-б.

**Moxira SADULLAYEVA,**
*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
*Qoraqalpoq davlat universiteti*
*Sadullayevamohira59@gmail.com*

## ISAJON SULTONNING RUHIYAT IFODALASHDAGI BADIY MAHORATI

**Annotatsiya:** maqolada badiiy psixologizm muammosi, hikoyada ruhiyat va uning tasviri, qahramon ruhiyati, tabiat va inson o'rtasidagi qarama-qarshilik va kolliziya hamda ijodkorning hikoyanavislik mahorati kabi qator ilmiy-nazariy muammolar taniqli adib Isajon Sultonning "Turmush", "Farishta" hikoyalari poetikasini tadqiq etish davomida o'z isbotini topgan. Muallifning asarlarini tahlil qilish mobaynida ijod mahsulining, asosan, realizm, romantizm va postmodernizmning qorishmasidan iborat ekanligi ayon bo'ldi. Tasvir mahorati, ifoda uslubi o'ziga xos originallik kasb etishi, individual uslubida badiiy til, qahramon nutqi, muallif nutqi, obrazlar tavsifi, peyzaj va shu kabilar ramziylik kasb etishiga doir mulohazalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** *badiiy psixologizm, psixologik holat, kechinma, qahramon, personaj, mifologik, romantizm, realizm, postmodernizm, fantastik, xayoliy, konflikt, voqealar rivoji, xarakter.*

**Аннотация:** в статье рассматривается ряд научно-теоретических проблем, таких как проблема художественного психологизма, психика и её изображение в рассказе, психика героя, противоречие и столкновение природы и человека, а также мастерство автора-повествователя, которые были выявлены в ходе изучения поэтики повестей "Турмуш" и "Фаришта" известного писателя Исаджона Султана. В ходе анализа произведений автора выяснилось, что продукт его творчества в основном представляет собой смешение реализма, романтизма и постмодернизма. Важнейшими аспектами художественного мастерства автора являются обретение неповторимого своеобразия в стиле выражения, обретение символики в индивидуальном стиле художественного языка, речи героя, авторской речи, описания образов, пейзажа и т. д.

**Ключевые слова:** *художественный психологизм, психологическое состояние, переживание, герой, характер, мифологический, романтизм, реализм, постмодернизм, фантастический, воображаемый, конфликт, развитие событий, характер.*

**Annotation:** the article presents a number of scientific and theoretical problems, such as the problem of artistic psychologism, the psyche and its depiction in the story, the psyche of the hero, the contradiction and collision between nature and man, and the author's storytelling skills, which were revealed during the study of the poetics of the stories "Turmush" and "Farishta" by the famous writer Isajon Sultan. During the analysis of the author's works, it became clear that the product of creativity is mainly a mixture of realism, romanticism and postmodernism. The author's artistic skill, the acquisition of a unique originality in the style of expression, the acquisition of symbolism in the individual style of artistic language, hero's speech, author's speech, description of images, landscape, etc.

**Key words:** *artistic psychologism, psychological state, experience, hero, character, mythological, romanticism, realism, postmodernism, fantastic, imaginary, conflict, development of events, character.*

Ruhiyat qahramonning fikrlarini, his-tuyg'ularini, motivlarini, xotiralarini va umumiy sezim va psixologik barcha murakkabliklarga ega bo'lgan hayotini qamrab oladi. Qahramonning ruhiyatini tushunish adabiyotda o'zaro murakkablik va aloqadorlikni yaratish uchun

juda muhimdir. Mahoratli yozuvchi Isajon Sulton "Turmush" hikoyasida ham asosiy qahramonning ichki ruhiy kechinmalari orqali o'zining o'quvchiga uqtirmoqchi bo'lgan badiiy niyatini aks ettiradi. Hikoya muqaddimasida adib qahramon hayotini qora bulutlar ostida ko'rsatadi. Tasvirda aynan

shom vaqtini ifodalaganida ham ana shu hodisotga ishora mavjud: "Shom qo'na boshladi. Darvozaxonada kimdir tomoq qirdi, keyin qadam tovushi eshitildi. – Hoy, otang keldi, qara, – dedi ishkom ostida, qozon boshida kuymalanayotgan ona. Uning yoshi taxminan qirq beshlarda, yuzi och jigarrang, shu bois ko'zi atrofidagi ajinlari yanada chuqurroq ko'rinadigan, ammo qiyiq ko'zlari kulimsirab turadigan xotin edi"[1;145].

Hikoya sarlavhasining "Turmush" deb nomlanishida ham o'ziga xos ramziylik bor. Qizig'i shundaki, "turmush" so'zining tarkibi "mush" so'zidan kelib chiqqan, shunday ekan kundalik hayotda insonlar turli qiyinchiliklarga duch keladi, hayotning mushtlaridan, zarbalaridan totadi, yo aksincha, omadi ham kuladi, muvaffaqiyatlarga ham erishadi. Ammo bularning hech birisi abadiy emas, bu holatda faqatgina inson oldinga qadam tashlashi lozimdir. Shuning uchun ham qadim otabobolarimizdan qolgan gap bor, turmush ro'zg'or bilan ekan, "Turmush – musht", "Ro'zg'or – g'or". Ya'ni turmush mushtlari orqali inson irodasi bardoshi sinalsa, ro'zg'orning g'or ekanligi, uni hech qachon to'ldirib bo'lmayligi singdirilganini tushunish mumkin. Hikoyada tasvirlangan "ona" deb keltirilgan ayol obrazi ham yosh, navqiron holda emas, aksincha yuzlariga ajin tushgan, taxminan qirq besh yoshlar orasida deya tanishtiriladi. Ayol ro'zg'orning tashvishi bilan ovora, kuymalanib yuradi. Yozuvchi ham aynan shu kabi epizodlar orqali mana shu turmushni aslida qanday ekanligini ochib, ko'rsatib bermoqchi. Turmushni, ro'zg'orni hech qachon kamchiliklarini to'ldirib bo'lmaydi, inson uni qanchalik to'ldirishga, kamko'stsiz qilishga urinsa, shunchalik uning tubiga g'arq bo'ladi. Ya'ni hikoyadagi qahramonlar kabi faqatgina unga bog'lanib qoladi va shularning orasida umrining qanday o'tib ketganligini ham bilmay qoladi. Quyidagi tasvirga e'tibor qiling: "– Yerni chopib qo'ymapsizlar-ku? – Obbo, qo'lim tegmasa nima qilay? – dedi xotin. – Sahardan beri yumushdan bo'shaganim yo'q. Kecha bozor edi, o'zingiz chopsangiz bo'lmasmidi? – Senga ish buyursam, o'zimga aytasan-a? – dedi erkak. – Yelkalarim, belim zirqirab og'riyapti, yo'qsa bilardim nima qilishimni"[1;145]. Hikoyadagi bu ikki obraz, ya'ni erkak va ayol ham bir-biridan norozi.

Yozuvchi mazkur hikoyasida tush tasviridan mohirlik bilan foydalanadi. Tush tasviri adabiyotdagi eng qadimiy badiiy psixologik tahlil vositalaridan biri hisoblanadi. Bundan xalq og'zaki ijodi namunalaridan boshlab zamondosh yozuvchilarimiz tomonidan samarali qo'llanilib kelayotgan an'anaviy usuldir. Tush motivi asarning kompozitsion qurilishini ixchamlashtirib, uning mazmunini yanada chuqurlashtiradi va boyitadi. Voqealar bayonining izchilligini ta'minlashga, asarning badiiy-estetik xususiyatini oshirishga xizmat qiladi. Xususan, tushning asar qahramonlari ruhiy holatini yorqin tasvirlash va ichki olamini ochib berishdagi o'rni alohidadir. Hikoyadagi ikki qahramon, ya'ni ayol va erkak bir xil tush ko'radi: *"Iloyo umring bizga o'xshamasin, bolam, – dermish onasi. – Men ham hayotidunyoda turmush degan tuproqqa tiriklay ko'milganlardan bo'ldim. Endi ketaqolay". "Hoy odamlar, ogoh bo'lingla-ar! Qiyomat yaqin qoldi-i, – deb qichqirar emish bir kishi, ammo o'zi ko'rinmasmish. – Ey hayoti dunyodagi juftlar! Qiyomatdan so'ng ham birga bo'lishni istaysizmi?". "Yo'q-yo'q! Hargiz xo'jamning yuzini menga ko'rsatmang", deb qichqirar emish bir xotin. "Yo'q-yo'q! Aslo zavjamning yuzini menga ko'rsatmang," deb qichqirar emish boshqa bir erkak"*[1;148]. Bu yerda yozuvchi tush epizodini kiritish orqali butun insoniyatni ogohlikka, sergaklikka chaqirmoqda. Ammo buning foydasi bormikan? Asarda ham er-xotin uyqudan uyg'onganda ko'rgan tushlari xotirasidan chiqib ketadi, Ammo qizcha tushida nima ko'rgan bo'lsa barchasi uning yodida edi, shunday bo'lishiga qaramasdan, ota-onasi uning tushini eshitishmaydi ham, yana shu turmushning ishlariga ko'miladi. "Shu tariqa, Xudoning yana bir kuni boshlandi... Har doimgiday, oddiygina bir kun"[1;149]. Hikoya shu bilan tugaydi. Kitobxon esa yana savollar girdobida qoladi. Chunki asar qahramonlari yana odatiy hayot tarzida davom etadi. O'ziga berilgan tushning asl mohiyatini to'g'ri anglab yetmaydilar, zero turmush deb atalmish tuproqqa tirik holda ko'milib bo'lgandi.

Yana bir hikoyasi "Farishta"da ham adibning voqelikni noodatiy ifodalash yo'sini ko'zga tashlanadi. Hikoya chekka bir qishloqda yashovchi er-xotinning to'ydan qaytayotganda farishtani ko'rib qolish epizodi bilan boshlanadi.

*“Fargʻonaning chekka bir qishlogʻida er-xotin toʻydan kech qaytishayotgan edi. Terakzorlar adogʻida chakalakzor boshlangan joyda koʻrib qolishdi uni. Kichkinagina ekan, oyoqchalari ham mittigina. Tuproqni changallab olibdi, yelkasida ikkita qanotchasi ham bor, uchidagi parlari shundoqqina loyga belanib, shilvirab tushibdi”*[1;142]. Muallif peyzaj yaʼni tun tasvirini keltiradi, bu orqali esa qahramon qalbida ham qandaydir qorongʻulik va zulmat borligi, hayoti esa chalkashliklar orasida kechayotganini ilgʻash mumkin. Qarshisidan chiqqan farishta esa ularga yuborilgan ilohiy najot va rahmat timsolidir. “Yozuvchi peyzaj orqali yo bevosita oʻz fikrlarini bayon qiladi yoki personajlarning ichki kechinmalarini koʻrsatadi. Har ikkala holda ham peyzaj maʼlum gʻoyani ifodalaydi”[2;149].

Badiiy adabiyotda qoʻllaniladigan farishta timsoli obrazlar hayotida duch keladigan qiyinchiliklarda yoʻl koʻrsatuvchi ijobiy kuchlarni ifodalaydi. “...kichkinagina, oyoqchalari mittigina, qanotlari loyga belangan, bir qanotchasi gʻayrioddiy qayrilgan, gʻujanak boʻlib yotgan” holda uchraydi. Bunda ham bir sirlik, mavhumlikni koʻrish mumkin. Muallif qahramonni ilohiy tuygʻular, vijdon, insofga chaqirayotgandek taassurot uygʻotadi.

Hikoyada shunday tasvir keltiriladi: “Sal narida esa katta bir kuchuk bularga xoʻmrayib qarab turardi. Qaydan kelgani ham nomaʼlum edi, tevarakda bunaqa kuchuk yoʻq edi. “Tavba, koʻzi gʻalati ekanmi?” degan oʻy keldi erkakning xayoliga”[1;142]. Muallif ushbu tasvir orqali katta bir masalani oʻrtaga tashlaydi, farishtani chiroyli tasvirlar bilan chizar ekan, uning qarshisida xoʻmrayib turgan, koʻzlari gʻalati kuchukni ham ikkalasini yonma-yon qarama-qarshi keltiradi. “Asar komponentlari orasida konflikt gʻoyaviylik bilan badiiylik bir butunlikda zohir boʻlishni taʼminlovchi maydon mohiyatiga molikligi sababli

ham, yozuvchi uning hayotiy negizida taʼsirbaxsh boʻlishiga masʼuliyat bilan yondashadi” [3;117]. Binobarin, farishta yaxshilik timsoli boʻlsa, kuchuk oʻzining nomi bilan ham farishtaga zid bir obrazdir. Yaxshilik – eng muhim fazilat boʻlib, inson faoliyatining asl va azaliy mohiyatini anglatadi. U insonga kuchli ruhiy lazzat bagʻishlashi barobarida, uni shaxsga aylantiradigan haqiqiy baxtga olib boradi. Yomonlik – yaxshilikning ziddi, shaxs va jamiyat taraqqiyotiga toʻsqinlik qiluvchi illat. Yolgʻonchilik, pastkashlik, munofiqlik, behayolik, rahmsizlik, nomardlik, xiyonat kabi tushunchalarda namoyon boʻladi. Diniy nuqtai nazardan yaxshilik ilohiy inoyat, yomonlik esa insondagi shaytoniy va hayvoniy xislatlarning ifodasi tarzida talqin qilinadi; yaxshilik ham, yomonlik ham insonning ixtiyor erkinligidan qay darajada foydalanishining oqibati sanaladi. Inson hayotda yashar ekan, yaxshilik va yomonlik ham unga yonma-yon yashaydi. Voqealar rivojida esa muallif farishtaning yaxshilikning timsoli ekanligini yaqqol koʻrsatib beradi. Bu narsalar esa azal-azaldan tabiat qonunidir. Voqea soʻnggida qahramon farishtani qutqara olmasa ham undan oʻziga bir ibrat oladi. Aslini olganda esa ularning oldidan chiqqan farishta ham bir sinovdir. Insonlarga toʻgʻri yoʻl koʻrsatuvchi chiroqdir.

Umuman, Isajon Sultonning ijodini tadqiq etish davomida uning realizm, romantizm va postmodernizmning qorishmasidan iborat ekanligi ayon boʻldi. Uning tasvir mahorati, ifoda uslubi oʻziga xos originallikka ega. Uning individual uslubida badiiy til, qahramon nutqi, muallif nutqi, obrazlar tavsifi, detal va peyzaj, portret, makon va zamon barchasi ramziylik kasb etadi. Asarlarida anʼanaviy obrazlardan koʻra ramziy-timsoliy, metaforiklashgan obrazlar xarakterlidir, mifologik, fantastik, oʻzgaruvchan va ramziy obrazlardan unumli foydalanganligini yuqoridagi hikoyalari davomida ham kuzatildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Султон И. Асарлар. Ҳикоялар. 2 жилд. “Озод” тўплами. –Тошкент: Фафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. 142-149 бетлар.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2002. – B.149.
3. Тўраев Д. Ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси. – Т.: Университет, 2001. – Б.117.
4. Abdurahmonova M. Ruhiy dunyo tasviri. – Toshkent: “Oʻzbekiston”, 1977.

Feruz SADULLAYEV,

PhD, Docent, Bukhara state university

Orzigul SATTOROVA,

Master's degree student, Bukhara state university

E-mail: [o.j.sattorova@buxdu.uz](mailto:o.j.sattorova@buxdu.uz)

## THOMAS WOLFE'NING "YOU CAN'T GO HOME AGAIN" ("UYGA QAYTOLMAYSAN") ROMANIDAGI QAHRAMONLARARO MUNOSABATLAR

**Annotatsiya:** Thomas Wolfe'ning "You Can't Go Home Again" ("Uyga qaytolmaysan") romani XX asr amerika adabiyotining modernistik tafakkurining muhim namunasidir. Ushbu asarda shaxs va jamiyat o'rtasidagi murakkab psixologik, ijtimoiy va estetik ziddiyatlar, muallif tomonidan ichki monolog, ong oqimi hamda fragmentar kompozitsiya kabi modernistik uslublar yordamida ifodalanadi. Romanning bosh qahramoni Jorj Webber o'z shaxsini anglash jarayoni orqali insonning individualizmini izlash, beqarorlik va zamonaviy dunyoda qadriyatlar inqirozi kabi masalalarni chuqurroq tahlil qiladi. Qahramonlararo munosabatlar, ayniqsa Jorjning jamiyat, oilasi va muhabbatga nisbatan ichki kurashlari, modernizmning markaziy g'oyalari bilan birlashtirilib, individualizm va ruhiy izolyatsiya motivlarini aks ettiradi. Ushbu maqolada muallifning modernistik yondashuvi, psixologik tasvir usullari va badiiy tuzilishi o'rganilib, Wolfe asarining inson ruhiyati va zamonaviylik falsafasi nuqtai nazaridan chuqur tahlili amalga oshiriladi.

**Kalit so'zlar:** Thomas Wolfe, modernizm, qahramonlararo munosabatlar, ong oqimi, begonalashuv, individualizm.

**Аннотация:** роман Томаса Вулфа "You Can't Go Home Again" ("Нельзя вернуться домой") является важным образцом модернистского мировоззрения в американской литературе XX века. В этом произведении сложные психологические, социальные и эстетические противоречия между личностью и обществом выражены с помощью таких модернистских художественных приемов, как внутренняя речь, поток сознания и фрагментарная композиция. Главный герой романа, Джордж Уэббер, в процессе самопознания глубоко раскрывает проблемы поиска индивидуализма, состояния неустойчивости и кризиса ценностей в современном мире. Взаимоотношения между персонажами, особенно внутренние противоречия Джорджа по отношению к обществу, семье и любви, интегрируются с ключевыми идеями модернизма, отражая мотивы индивидуализма и духовной изоляции. В данной статье анализируются модернистский подход автора, психологические способы изображения и художественная структура произведения, а также проводится глубокое осмысление романа Вулфа с точки зрения философии современности и внутреннего мира человека.

**Ключевые слова:** Томас Вулф, модернизм, взаимоотношения персонажей, поток сознания, отчуждение, индивидуализм.

**Annotation:** Thomas Wolfe's "You Can't Go Home Again" exemplifies modernist ideas in twentieth-century American literature. The novel highlights the intricate psychological, social, and aesthetic conflicts between the individual and society, employing modernist techniques such as interior monologue, stream of consciousness, and fragmented narrative. Through the self-discovery journey of the main character George Webber, Wolfe explores themes of identity, alienation, and the crisis of values in contemporary society. The dynamics among characters—especially George's inner struggles with society, family, and love—illustrate the fundamental concepts of modernism, particularly concerning individualism and spiritual isolation. This paper evaluates the author's modernist approach, psychological portrayals, and artistic composition, analyzing Wolfe's work through the prism of human consciousness and modern philosophy.

**Key words:** Thomas Wolfe, modernism, character relationships, stream of consciousness, alienation, individualism.

**Kirish.** XX asr Amerika adabiyoti modernizm harakatining rivojlanishi bilan ajralib turadi. Ushbu yo'nalish inson ruhiyatini, individ va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarni va individualizm masalalarini yangi badiiy vositalar orqali o'rganishga intiladi[3]. Ushbu davr

adabiyotida insonning ruhiy kechinmalari, jamiyatda yuzaga kelgan ijtimoiy beqarorlik, qadriyatlar inqirozi, shaxsning ichki dunyosi bilan tashqi olam o'rtasidagi nomutanosiblik asosiy mavzulardan biriga aylangan. Thomas Wolfe'ning "You Can't Go Home Again" romani

ana shunday modernistik yondashuvning yorqin namunasidir. Asarda bosh qahramon Jorj Webberning ruhiy o'sishi, o'zligini anglash jarayoni va ijtimoiy muhit bilan ziddiyatlari markaziy o'rinni egallaydi[1]. Muallif qahramonlararo munosabatlar tizimini insoniy kechinmalarning murakkab strukturasini ochib beruvchi vosita sifatida qo'llaydi. Jorjning oilasi, do'stlari, muhabbati, jamiyat va professional adabiy muhit namoyandalari bilan bo'lgan munosabatlari uning ichki krizislarini yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, qahramonning o'z shahariga qaytgandan so'ng yuzaga kelgan tushunmovchiliklar, begonalashuv va ruhiy izolyatsiya motivlari modernizmning asosiy badiiy tamoyillarini ifodalaydi.

Wolfe romanida ichki monolog, ong oqimi, psixologik dialoglar, fragmentar kompozitsiya kabi san'at vositalari qahramonlararo munosabatlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Qahramonlar o'rtasidagi ziddiyatlar nafaqat individual xarakterlar to'qnashuvi, balki zamonaviy sivilizatsiya inqirozi va shaxsning yolg'izligi bilan bog'liq ijtimoiy-falsafiy muammolarni ham yoritadi[4]. Shu bois *You Can't Go Home Again* romani shaxs va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlik, sadoqat, muhabbat, begonalashuv, ijodiy izlanish va ruhiy qarama-qarshiliklarning badiiy talqinini tadqiq etishda muhim manba hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, romandagi qahramonlararo munosabatlarni o'rganish orqali individualizm va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlar, modernistik psixologizmning badiiy namoyoni, shuningdek, Thomas Wolfe ijodining poetik va falsafiy mohiyati yanada chuqurroq tahlil qilinadi.

**Modernistik badiiy uslublar.** Thomas Wolfe romanda modernizmning asosiy uslublarini muvaffaqiyatli qo'llaydi. Eng yaqqol ko'rinadigan sifatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– Ong oqimi: Jorj Webberning ichki dunyosi oqim tarzida ifodalanadi, bu esa uning ruhiy holatini chuqurroq tushunishga imkon beradi[2].

– Ichki monolog: qahramonlar o'rtasidagi muloqot ko'pincha ichki monologlar orqali ochiladi, bu esa ularning shaxsiy ziddiyatlarini aks ettiradi[1].

– Fragmentar kompozitsiya: romanning tuzilishi bo'laklarga ajratilgan bo'lib, vaqt va makon o'zgarishi qahramonlar hayotining murakkabligini ko'rsatadi[2].

### **Qahramonlararo munosabatlar va psixologik tahlil**

Romandagi qahramonlararo munosabatlar modernistik psixologik tasvir orqali yoritiladi:

– Jorj Webber va uning oilasi, ayniqsa otasi va onasi bilan ziddiyatlari, individualizm va oilaviy qadriyatlar o'rtasidagi kurashni ochib beradi. Sevgi va do'stlik munosabatlarida Jorjning ichki begonalashuvi va noaniqligi, ruhiy izolyatsiya holatini aks ettiradi[1]. Qahramonlararo muloqot ko'pincha ichki dialoglar va tafakkur orqali o'z ifodasini topadi, bu esa ularning ichki psixologiyasini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi[2].

**Individualizm va begonalashuv motivlari.** Modernistik yondashuv orqali Wolfe shaxsiy izolyatsiya va individualizm motivlarini kuchli tarzda aks ettiradi:

Jorj o'z shaxsini va san'atdagi o'rnini izlash jarayonida jamiyatdan ajraladi, bu esa qahramonning ruhiy begonalashuvini oshiradi[3]. Begonalashuv nafaqat jamiyat bilan, balki o'z-o'zini anglash jarayoniga ham bog'liqdir. Qahramonlararo munosabatlar orqali bu motiv yanada kengroq ko'rsatiladi[1]. Wolfe qadriyatlar va insoniy tajribalar ziddiyatini namoyon qilib, o'quvchilarga shaxs va jamiyat o'rtasidagi murakkab bog'lanishni tushunishga yordam beradi.

**Xulosa.** Thomas Wolfe'ning "You Can't Go Home Again" romani XX asr amerika adabiyotida modernizmning o'ziga xos namunasidir. Muallif asarda qahramonlar o'rtasidagi aloqalarni psixologik tasvir, ichki monolog va ong oqimi kabi modernistik usullar yordamida ochib beradi. Jorj Webberning shaxsiylikni anglash va jamiyat bilan ziddiyatlilik jarayoni, begonalashuv, individualizm hamda qadriyatlar inqirozi mavzularini ko'taradi. Romandagi aloqalar tahlili qahramonlarning xarakterini nafaqat tushuntirib beradi, balki o'quvchiga modernizm falsafasi va zamonaviy inson ruhiy holatini yanada chuqurroq anglash imkonini yaratadi. Wolfe'ning modernistik yondashuvi psixologik tahlil va badiiy strukturalarni birlashtirishi romanni nafaqat san'at, balki falsafa nuqtai nazaridan ham muhim qiladi. Shu sababli, "You Can't Go Home Again" romani qahramonlararo aloqalar orqali inson, jamiyat, shaxs va o'zlik, begonalashuv va individualizm kabi muhim modernistik masalalarni o'rganishda ahamiyatli manba hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Bloom, H. (2008). "Modern American fiction". Chelsea House.
2. Cohen, M. (1994). "Thomas Wolfe: The art of his fiction". University Press of Kentucky.
3. Levenson, M. (2010). "Modernism and the literature of the United States". – Cambridge University Press.
4. Wolfe, T. (2004). "You Can't Go Home Again" (Reprint of 1940 edition). Harper Perennial.

**Mahfuza TO'YCHIYEVA,**  
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat*  
*o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti*  
*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

## DETEKTIV ASARNI O'RGANISHDA MANTIQUIY FIKRLASHGA E'TIBOR BERISH MASALASI

**Annotatsiya:** maqolada 6- sinf "Adabiyot" darsligiga Artur Konan Doylning "Mallalar uyushmasi" nomli hikoyasini hamkorlikda ishlash texnologiyasi asosida o'tish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Mashg'ulotni bu tarzda tashkil etish o'quvchilarga nafaqat asar syujeti va personajlarini chuqurroq tushunish, balki jamoada ishlash, o'z nuqtai nazarini asoslash va boshqalarning fikrini hurmat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** hikoya, o'quvchi, detektiv, janr, topshiriq, hamkorlik, namunasi, izquvar

**Annotation:** the article provides recommendations for teaching Arthur Conan Doyle's story "The Red-Headed League" from the 6th-grade "Literature" textbook using collaborative learning techniques. Organizing the lesson in this manner enables students not only to gain a deeper understanding of the story's plot and characters but also to develop skills in teamwork, substantiating their own viewpoints, and respecting others' opinions.

**Keywords:** story, student, detective, genre, task, collaboration, example, investigator

**Аннотация:** в статье представлены рекомендации по проведению урока по рассказу Артура Конан Дойла "Союз рыжих" из учебника "Литература" для 6-го класса с использованием технологии совместной работы. Организация занятия таким образом позволяет учащимся не только глубже понять сюжет и персонажей произведения, но и развить навыки работы в команде, аргументации своей точки зрения и уважительного отношения к мнению других.

**Ключевые слова:** рассказ, ученик, детектив, жанр, задание, сотрудничество, образец, сыщик

**Kirish.** 6-sinf "Adabiyot" darsligiga Artur Konan Doylning "Mallalar uyushmasi" nomli hikoyasi kiritilgan. Artur Konan Doyl (1859–1930) – ingliz yozuvchisi, turli yo'nalishlardagi (detektiv, tarixiy, ilmiy-fantastik, sarguzasht) ko'plab asarlar muallifi. Adabiyot tarixiga u eng avvalo detektiv asarlar muallifi va dunyodagi eng mashhur izquvarlardan biri – Sherlock Xolmsning "otasi" sifatida kirdi. Artur Doyl rassom va me'mor oilasida tug'ilgan, ammo oilaviy an'anaga zid ravishda u shifokor bo'lishga qaror qildi va tibbiyot maktabiga o'qishga kirdi. Aynan o'sha yerda u buyuk detektivning prototipi bo'lgan odam bilan uchrashdi. Uning o'qituvchilaridan biri, doktor Jozef Bell kuzatish, mantiq, xulosa chiqarish va xatolarni aniqlash ustasi edi.

Aynan o'sha yerda bo'lajak shifokor o'zini yozuvchi sifatida sinab ko'rdi. Universitetni tugatgach, Artur kema shifokori bo'lib ishladi. Ammo keyin u Angliyaga qaytib, tibbiy amaliyotni boshlaydi. U detektiv hikoyalar, sarguzasht va ilmiy-fantastik romanlar, tarixiy romanlar ijod qilgan.

Mavzu juda qiziq, o'quvchilarga oldindan topshiriq berish bilan 1- darsdan hamkorlikda ishlash texnologiyasidan foydalanish mumkin. Darslikda berilgan hikoyadan tashqari ham o'quvchilarga Sherlock Xolms haqidagi boshqa hikoyalarni o'qitish mashg'ulotning qiziq bo'lishini ta'minlaydi.

**Asosiy qism.** Muallif bilan tanishuvdan so'ng detektiv asarning o'ziga xos xususiyatlari

takrorlanadi, eslatiladi. Darslikda "Detektiv asarlar haqida bilib olamiz" sarlavhasi ostida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: Detektiv (inglizcha "detective" – "izquvar" so'zidan) – sirli jinoyatlarning fosh qilinishi haqidagi asar. Bunday asarlarda biron jinoyat sodir qilinadi yoki unga tayyorgarlik ko'riladi. Bosh qahramon – izquvar esa bu jinoyatni fosh qiladi. Asar davomida o'quvchiga tushunarsiz yoki ahamiyatsiz tuyulgan barcha detallar, ikir-chikirlar jinoyatni fosh qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Detektiv asarni o'qir ekanmiz, "Bu ishni kim qildi?" degan savol asar oxirigacha bizni hayajonda ushlab turadi. Shuning uchun ham ingliz tilida bunday asarlar "whodunit" (ya'ni "Who has done it?" – "Buni kim qildi?") deb ham ataladi. Detektiv asarlar o'qiganmisiz?

O'ylab ko'ring-chi, bunday asarlar o'quvchi diqqatini oxirigacha ushlab turish uchun qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak?

Qo'shimcha tarzda detektiv asar haqidagi yana quyidagi belgilar aytilishi mumkin. Qo'shimcha ma'lumotlar dastlab o'quvchilardan so'ralib, so'ng o'qituvchi tomonidan to'ldiriladi

a) asarda qandaydir sirli hodisaning mavjudligi, uning holatlari noma'lum va aniqlanishi kerak;

b) voqeaning haqiqiy holatlari tergov tugaguniga qadar o'quvchiga oshkor etilmaydi (aks holda bu detektiv asar hisoblanmaydi);

v) faktlarning to'liqligi (tekshiruv tugagandan so'ng

barcha sirlar yechilishi va barcha savollarga javob berilishi kerak);

d) vaziyatning odatiyliigi.

Detektivlarning ijtimoiy, tarbiyaviy va psixologik vazifalari. Tergovchi yaxshilikning g'alabasini, yovuzlik uchun jazo muqarrarligini ko'rsatishi kerak, shuningdek, jinoyatning mohiyatini ochib berish imkoniyatini ham beradi. Inson qanday qilib jinoyat sodir etishga moyil bo'ladi? Bu qanday sodir bo'ladi: hamma narsaga atrof-muhit aybdormi yoki o'zi buni qilishga moyilmi? kabi.

Ikkinchi qadam bosh qahramon Sherlok Xolms haqida ma'lumotlar berish bo'ladi. Hammasi bo'lib Sherlok Xolms Artur Konan Doylning 56 qisqa hikoyasi va 4 romanida tasvirlangan. Aksariyat hollarda voqea Xolmsning eng yaqin do'sti va hamrohi doktor Uotson tilidan hikoya qilinadi.

Mashhur detektiv haqidagi birinchi asar "Skarletdagi tadqiqot" qissasi Artur Konan Doyl tomonidan 1887-yilda yozilgan. Sherlok Xolmsning so'nggi to'plami 1927-yilda nashr etilgan. Konan Doylning o'zi Xolms hikoyalarini "yengil adabiyot" deb hisoblagan va kitobxonlarning ishtiyoqini tushunmagan. U o'zini, birinchi navbatda, tarixiy romanlar muallifi deb hisoblardi. Shu sababli ham ser Artur professor Moriarti bilan kurashda eng mashhur adabiy qahramonni yo'q qilish orqali detektiv hikoyasini tugatishga qaror qiladi.

Biroq, g'azablangan kitobxonlar yozgan xatlari oqimi yozuvchini mashhur detektivni "tiriltirishga" va uning sarguzashtlarini tasvirlashni davom ettirishga majbur qiladi.

Xolms shaxsiyati haqida ma'lumot berib o'tish mumkin. Xolms ko'p qirrali shaxs. Ko'p qirrali iste'dodli shaxs, u o'z hayotini shaxsiy detektivlik faoliyatiga bag'ishladi. Ishlarni tergov qilishda u o'zining hayotiy tamoyillari va hurmat qoidalariga tayanadi. Xolms bir necha marta jinoyat sodir etishda oqlangan deb hisoblagan odamlarga jazodan qochishga ruxsat bergan.

O'quvchilarga quyidagicha topshiriqlar berish mumkin:

1- topshiriq. Sherlok Xolms haqidagi turli hikoyalarni tahlil qilib, matnlarda keltirilgan uning hayotidan faktlardan foydalangan holda detektivning tarjimai holini yarating.

Taxminiy holda quyidagicha Sherlok Xolms biografiyasini yaratish mumkin: 1881-yilda Sherlok Xolms va doktor Uotson uchrashdi. Bu vaqtda Xolms 27 yoshda bo'ladi. O'sha yili ular Beyker ko'chasi, 221-b, 1888-yilgi Gudson xonimning uyiga joylashadilar.

- Nikohdan keyin Uotson Beyker-stritdagi xonadonni tark etadi, u yerda Xolms yolg'iz qoladi.

- 1891-yilda Reyxenbax sharsharasida Moriarti bilan jangdan so'ng Xolms yo'qoladi.

- 1891-yildan boshlab, uch yil davomida Sherlok Xolms dunyo bo'ylab kezadi, Lxasada (Tibet) Dalay Lamani ziyorat qiladi, Fors ko'rfazi bo'ylab sayohat qiladi, keyin Yevropaga qaytib, Fransiya janubida bir oz vaqt o'tkazadi.

- 1894-yilda Xolms to'satdan Londonda paydo bo'ladi va avvalgidek, Uotson bilan Beyker-stritda joylashadi

- 1904-yilga kelib Sherlok Xolms detektivlik ishini tashlab, vaqtini asalari boqishga bag'ishlagan Sasseksga jo'nab ketadi.

2- topshiriq: O'qigan hikoyalaringiz asosida odatiy detektiv syujetning diagrammasini tuzishga harakat qiling. E'tibor bering, ba'zi nuqtalar pastki nuqtalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Taxminiy javob:

1. Detektiv qahramon bilan tanishtirish.
2. Jinoyat haqida xabar berish.
3. Tergovchining ishi:

a) voqea joyini ko'zdan kechirish;

b) dalillarni qidirish;

v) guvohlarning ko'rsatmalari;

d) detektivning mantiqiy xulosalari.

4. Jinoyatchining shaxsini aniqlash.

5. Begunohlarni ozod qilish.

3- topshiriq. Sherlok Xolms viktorinasi

1. Napoleon, Tsezar Borjiya va Sherlok Xolmsni qanday umumiyliklari bor? ( Sherlok Xolms "Olti Napoleon" asarida Napoleon byustiga yashiringan Borgiya qirolining taqinchoqlarining o'g'irlanishini tekshiradi).

2. Yoshligida Nyutonning binomial teoremasi bo'yicha ajoyib matematik risola yozgan odam keyinchalik kim bo'ldi? "Sherlok Xolmsning so'nggi ishi" qissasidan professor Moriarti keyinchalik jinoyat olamining "qiroli"ga aylandi).

3. "Mallalar uyushmasi" nima maqsadda tuzilgan? (Jinoyatchilar tunnel qazish orqali bankni talon-taroj qilmoqchi bo'lgan. Ular bank yonida joylashgan, yaqin atrofdagi do'kon egasini olib tashlashlari kerak edi. U qizil sochli edi, keyin esa bu odam ma'lum bir haq evaziga ma'lum vaqt sarflaydigan "Mallalar uyushmasi" ixtiro qilindi).

4. Sherlok Xolms qaysi ayol haqida doimo hayrat bilan gapirgan: "O'sha ayol!?" (Iren Adlarning "Bogemiyadagi janjal" hikoyasi qahramoni haqida.)

5. "Raqqos odamchalar" nima? (Xuddi shu nomdagi hikoyada shifr).

6. Xolms va Uotsonning uy bekasining familiyasi nima edi? (Gudson xonim).

7. Baskervillar iti qanday ta'riflanadi? (g'ayritabiiy va shaytonsifat).

8. Baskervillar oilasining vorisi ser Genri Angliyaga qayerdan kelgan? (Kanadadan).

9. Yog'och oyoqli va pigmey kishi qaysi asar qahramonlari?

("To'rtlar belgisi").

4- topshiriq. Jamoalar uchun vazifalar (qisqa savollar – tezkor javoblar).

1. Sherlock Xolmsning manzili (London, Beyker ko'chasi, 221-b).

2. Doktor Uotsonning ismi (Jeyms, Jon – muallif ikkita variantni beradi).

3. Sherlock Xolms chaladigan musiqa asbobi (Skripka).

4. Sherlock Xolmsning qarindoshlari bormi? (Akasi Mycroft).

5. Sherlock Xolms qaysi hikoyasida ilk bor havaskor detektiv sifatida o'zini sinab ko'rgan? ("Gloriya Skott")

5- topshiriq. "Daliliy ashyolar".

Rasmlar taqdim etilib, ular qaysi hikoyalarga ishora qilayotganini aniqlash topshiriladi.



1. Ichiga qizil siyoh bilan "K" yozilgan xatjild. "K.K." Unda beshta apelsin urug'i bor.

("Besh dona apelsin urug'i" – bu Ku Klux Klan qahramonlari uchun ogohlantirish).



2. Hasharotlarni tutish uchun to'r. (Baskervillarning iti. Asosiy qahramonlardan Stapleton mashg'uloti, entomologiyaga qiziqardi).



3. Erkaklar oyoq kiyimi. (Baskervillarning iti. Ser Genri mehmonxonasida uning oyoq kiyimlarini ikki marta o'g'irlab ketishgan.)



4. Sutli likopcha. (Xavfli guruh. Qotil ilonni shunday boqadilar.)

6- topshiriq. Jumlani to'ldiring. Sherlock Xolms:

– To'liq ism:

– Tug'ilgan yili. \_ Hisoblash umuman qiyin emas. Agar Xolms 1888-yilda paydo bo'lgan bo'lsa, endi u ... yoshda

– Yashash joyi:

– Kasb:

– Xobbisi:

Sherlok Xolmsni buyuk detektiv bo'lishiga yordam bergan xarakter xususiyatlari. (U shov-shuvsiz harakat qiladi, u tez reaksiya ko'rsatadi, kuch, xotirjamlik, chidamlilik – bularning barchasi ko'p yillik mashg'ulotlar natijasidir; bundan tashqari, u jasur, qat'iyatli, o'z bilimiga ishonadi, u hatto ilonlarning odatlarini biladi va shuning uchun terrariumning tajribali ishchisi sifatida ishlaydi)

**Xulosa.** 6-sinfda Artur Konan Doylning "Mallalar uyushmasi" hikoyasini hamkorlik texnologiyasidan foydalangan holda o'rganish maktab o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun g'oyat muhimdir. Artur Konan Doylning "Mallalar uyushmasi" hikoyasi detektiv janr namunasi sifatida tahlil va mushohada uchun boy material taqdim etadi. Biroq, hamkorlik texnologiyasidan foydalanilganda bu jarayonning samaradorligi sezilarli darajada oshadi. 6-sinfda hamkorlik texnologiyasini qo'llash o'quvchilarga nafaqat asar syujeti va personajlarini chuqurroq tushunish, balki jamoada ishlash, o'z nuqtai nazarini asoslash va boshqalarning fikrini hurmat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Jinoyatchilarning sabablarini, Sherlock Xolmsning mantiqiy mulohazalarini birgalikda muhokama qilish, shuningdek, davr ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini tahlil etish asarni yanada to'liqroq anglashga yordam beradi. Bundan tashqari, guruhlarda ishlash har bir o'quvchiga akademik tayyorgarlik darajasidan qat'i nazar, umumiy ishga o'z hissasini qo'shish imkonini beradi. Bilimi sustroq o'quvchilar kuchli o'quvchilardan o'rganishlari, bilimdonroq o'quvchilar esa o'z yetakchilik va tushuntirish qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin. Bu ta'lim uchun qulay muhit yaratadi va adabiyotni o'qish hamda tahlil qilishga qiziqishni rag'batlantiradi.

Shunday qilib, 6-sinfda Artur Konan Doylning "Mallalar uyushmasi" hikoyasini hamkorlik texnologiyasidan foydalangan holda o'rganish nafaqat adabiy materialni o'zlashtirishga, balki maktab o'quvchilarida zarur ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradigan muhim va samarali usul hisoblanadi. Bu esa ularning har tomonlama kamol topishiga va jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishga tayyorlanishiga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot [Matn]: 6-sinf uchun darslik / Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. 224-b.

2. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/artur-konan-doyl/artur-konan-doyl-besh-dona-apelsin-urugi-hikoya/>

3. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/artur-konan-doyl/>

**Manzura JO'RAYEVA,**  
Filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD), dotsent

## ADABIYOTSHUNOSLIKDA SAFARNOMA JANRI VA UNING SHAKLLANISHI

**Annotatsiya:** maqolada adabiyotshunoslikda ko'p qo'llangan sayohatnoma va safarnoma janrlarining farqli tomonlari hamda safarnoma janrining janr sifatida shakllanishi ilmiy jihatdan asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** sayyoh, safar, safarnoma, sayohatnoma, janr, obraz, muallif, realizm.

**Аннотация:** в статье научно обосновываются различия между жанрами путевых заметок и путевых заметок, широко используемыми в литературоведении, а также формирование жанра путевых заметок как такового.

**Ключевые слова:** путешественник, поездка, путевые заметки, жанр, образ, автор, реализм.

**Annotation:** the article provides a scientific substantiation of the differences between the genres of travel notes and travelogues, widely used in literary studies, as well as the formation of the genre of travel notes as such.

**Key words:** traveler, trip, travel notes, genre, image, author, realism.

O'zbek mumtoz adabiyotida safar taassurotlarini tasvirllovchi asarlar safarnoma deb atalgan. Masalan, Muqimiyning "Sayohatnoma"si liro-epik safarnoma janr namunasidir. O'zbek jadid adabiyotida esa safarnoma alohida nasriy janr sifatida namoyon bo'ladi. XX asr boshlarida Turkistonda yangi avlod yozuvchilarining adabiyotga kirib kelishi shaklan va mazmunan yangi adabiyotning yuzaga chiqishiga olib keldi. Bu jarayonda adabiy ta'sir, adabiy aloqa va tarjima kabi faktorlar muhim rol o'ynagan bo'lib, bu o'z navbatida mumtoz adabiyot an'analari bilan bir qatorda jahon adabiyoti, jumladan, ingliz adabiyotining yutuqlarini bilvosita o'zlashtirish natijasida o'zbek adabiyotida yangi syujet va kompozitsion tuzilishdagi asarlar, yangi janrlar paydo bo'ldi. O'zbek adabiyotida safar tafsilotlarini aynan XX asr boshlaridan boshlab safar kundaligi, esse yoki ocherk shaklida bayon qilish usuli qo'llanila boshlandi.

N.Hotamov, B.Sarimsoqov "puteshestviye" atamasiga qisqacha ta'rif berib, real yoki xayoliy safarlar haqida hikoya qiluvchi, safar taassurotlari aks etgan asarlar deya, uning quyidagi muhim tomonlariga e'tibor qaratadilar: "Bu janrga mansub asarlar, odatda uch elementdan: tavsifiy, rivoyaviy va mulohazaviy qismlardan tarkib topadi. Bu elementlardan qaysi birining ustun bo'lishi safar taassurotlarining maqsadiga bog'liq" deya, uning ommaviy janr ekanini ta'kidlab o'tishadi<sup>1</sup>. Mazkur lug'atda D.Defo, J.Svift, F.Kuper, M.Rid, R.L.Stivenson, D.Konrad, M.Tven, J.London kabi so'z san'atkorlarining bu janrga oid

asarlarning butun dunyoga mashhur ekani qayd etilib, "safar taassurotlari shaklida yozilgan roman va poemalardan xotiranomalarni farqlash kerak. Chunki yo'l xotiralari davr sinovlaridan o'tgan janr bo'lib, uning ijodkori faqat tabiat va urf-odatlar bilan qiziqib qolmasdan, xalq hayotini chuqur bilishga, turmush, madaniyat, adabiyot va h.k. haqida fikr yuritishga intilgan".

Mualliflar "xotiranoma" deb, "safarnoma"ni nazarda tutib, ularni "puteshestviye" atamasiga kiritilsa ham, ularning alohida o'rniga ahamiyat qaratishadi. Biroq safarnoma janriga alohida urg'u berilmaydi, xususiyatlari sanab o'tilganda ularning maqsadi muhim ahamiyatga egaligi aytib o'tiladi. Aniq maqsad asosida sayyoh safarga chiqib, uni batafsil bayon qilsa, safarnoma janri kelib chiqadi.

O'zbek adabiyotshunoslari jamoasi tomonidan yaratilgan "Adabiyotshunoslik lug'ati"da "sayohatnoma" atamasiga oid ancha to'liq ma'lumotni berilgan: "Sayohatnoma – adabiy janr, yo'lchining safar davomida ko'rgan-kechirganlari, o'zga yurtlarning tabiati, ijtimoiy-maishiy turmushi, xalqi, urf-odatlar va boshqa shu kabi muallif mansub millat o'quvchilari uchun qiziqarli va foydali bo'lishi mumkin ma'lumotlar beruvchi asar. Aksar hollarda safarnomalarda o'z oldiga o'zga yurtlar haqida ma'lumot berish, ya'ni ma'rifiy maqsad bilan bir qatorda publitsistik, badiiy-estetik, falsafiy, siyosiy maqsadlarni ham qo'yadi... Sayohatnomalarning janr-kompozitsion xususiyatlari sifatida markazida sayyoh-hikoyachi obrazining turishi va safar (muayyan yo'nalishdagi makon va zamonda o'zgaruvchi harakat) faktining mavjudligi, sayyoh-

<sup>1</sup> Хотамов Н., Саримсоков Б. Адабиётшunoslik terminlarining русча-ўзбекча изоҳли лугати. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – Б.248

hikoyachining kuzatuvchi maqomida turishi va o'zga yurtida ko'rganlarini o'z yurtidagi holat bilan qiyoslab borishi kabilarni ko'rsatish mumkin"<sup>2</sup>.

Safarnoma janridagi asarlarning qiziqarli jihati shundaki, bunday asarlar oldindan belgilangan shakl asosida yozilgan bo'lsa ham, ularning har biri o'ziga xosligi bilan, muayyan darajada tarix haqiqatlarini taqdim etishi bilan ajralib turadi. Safarnomalarda muallif kuzatuvlari, voqea va sarguzashtlarini hikoya qilish jarayonida o'z hayot tarzi va makoni muhitidan tashqarida, shaxslararo munosabatlarda uning ijtimoiy-siyosiy qarashlaridagi o'zgarishlar, tafakkuridagi evrilishlar ham sodir bo'lishi, natijada ushbu jarayon muallif uslubiga, uning konsepsiyasiga ham ta'sir etishini kuzatamiz.

Sharq – G'arb, Osiyo – Yevropa qiyofasini tasvirlashga kirishgan muallif-sayyohning nigohi, avvalo, o'z muhitiga yot bo'lgan narsalarga qaratilsa ham, sekin-asta uning nazari o'ziga tanish bo'lgan jarayonlarga ko'chadi va u "o'ziniki" va "o'zganiki"ni chog'ishtirish, qiyoslashga o'tadi. Ushbu asarlarda, odatda, sodda va tushunarli uslub qo'llanilib, sayyoh-muallifning asosiy maqsadi, uning g'oya va fikrlarini hayotiy misollar yordamida o'quvchiga yetkazishdir. Ushbu asarlarning aksariyatida davr izlari saqlanib qoladi, zero, safar bitiklari o'z davri ijtimoiy-siyosiy voqealari bilan chambarchas bo'ladi. Sayyoh o'z uyidan uzoqda, dunyoning ilgari noma'lum bo'lgan hududlarini yoki kashf etilgan yangi makon bo'ylab safar qilishi davomida uni o'rganar ekan, uning dunyoqarashi ham kengayib borayotganini, ongida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni ham kuzatish mumkin. Safar xotiralarning yana bir muhim jihati shundaki, unda o'z qarashlari, hayot tarzi bilan ajralib turadigan muallif-sayyohning ba'zan konservativ qarashlarining ham o'zgarishi va progressiv g'oyalarning shakllanishi kabi muhim avtobiografik, faktik tarixiy manbalar ham joy olishidir.

Safarnoma janri reallik va badiiylilik o'rtasidagi oraliqda joylashgan bo'lib, ushbu adabiyot ijtimoiy-madaniy munosabatlarni, ham sayyoh, ham kitobxonning o'zaro dialogini, ularning qiziqishlari, istak va xavotirlarini ochib beradi. Madaniy va milliy o'ziga xoslikni tavsiflash uchun safar adabiyotining ahamiyati katta.

Safarnoma janrida yozilgan nasriy asarlar matnlariga xos bo'lgan xususiyat – asar syujetini tashkil etuvchi yo'l motivining qo'llanilishi. Shuningdek, nasriy shakldagi safarnoma kompozitsiyasining

o'xshashligi, xronologik ketma-ketlik, safarnoma jarayonidagi tipologik holatlar, transport vositasi, etnografik kuzatuvlar, urf-odatlarining tasviri, "o'z" va "o'zga" makonni qiyoslash, voqealar turkumining to'g'ridan to'g'ri bir syujet chizig'i orqali tuzilishi kabi xususiyatlari mavjud. Shuningdek, ushbu janrdagi roviy-sayyoh obrazi kitobxonni aniq safar yo'nalishi bo'ylab qat'iy boshqarib boradi.

Bugungi kunda safarnoma eng istiqbolli adabiy mavzulardan biri bo'lishiga qaramay, safar fenomenining aniq ta'rifini berishga urinishlar davom etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, safarnoma janri adabiy kategoriya sifatida zamonaviy adabiyotshunoslikda murakkab, qiyin, bahstlab muammolardan biri va uni ilmiy-nazariy talqin va tahlil qilishda XX-XXI asr boshidagi adabiy qarashlar ham xilma-xil va munozarali ekaniga guvoh bo'ldik.

Sayyohatning o'z maqsadi bor – deb yozadi Nensi Xovard – bu kashf etish jarayoni bo'lib, unda qahramon o'zi, o'z jamiyati va insoniyat mavjudligi, tabiati haqidagi muhim haqiqatlarni bilib oladi. Qahramonlar boshidan kechirishi kutiladigan safar qiyinchiliklari, sinovlar shuning alomati bo'lib, aslida bu haqiqatlar bilan yuzma-yuz kelish mashaqqat, chunki ularni qabul qilish odamlardan o'z yaqinlaridan, eskirgan bo'llib ko'rinsa-da, qadriyatlar, e'tiqod, o'zi haqidagi tasavvurlardan voz kechishga to'g'ri keladi. Xorvardning fikricha, asarda personaj xarakterining kashf etilishi har doim "sinovlar yo'li" orqali olib boriladi. Ba'zi qahramonlar hikoyalar oxirida ham o'z tabiati haqiqatiga ojiz qolsa-da, ularning izlanish yo'lidagi xavf va xatarlarga munosabatlari o'quvchiga ko'p narsalarni o'rgatadi. "Shu sababli, safar – personajning qahramonlikka boy salohiyatining namoyon bo'lishi uchun o'ziga xos sinovdir, bu hikoyalar yakunida ba'zi bosh qahramonlar muvaffaqiyatsizlikka uchraydi"<sup>3</sup>.

Safarnoma janrida qalam sohibi boshqa shahru mamlakatlarda diqqatga sazovor narsalar, hodisalar maroqli holatniki mushohada etgan va yo o'z boshidan o'tkazganligi tasvir etiladi. Ba'zi xalqlar adabiyotshunosligida safarnoma "safar ocherki" nomlangan. O'zbek adabiyotida safarnoma janri sayohatnoma janri bilan sinonim sifatida birga qo'llangan. Qadimiy tarixga ega bo'lganligi bois, safarnoma va sayohatnoma termini ishlatilgan. Tadqiqotimizda bu ikki nom bilan qo'llangan turni janr sifatidagi xususiyatini farqlash va safarnoma alohida janr ekanligini isbotlashga harakat qilindi.

3 Horward N. The Quest Motif of literature. Supplemental handout of English. 215, Fantasy Fiction. Fall 2010. –

P. 7. / <https://silo.tips/download/the-quest-motif-in-literature>

2 Куронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2013. – Б.267

**Dildora BAHRIDDINOVA,**  
O'zbekiston Milliy universiteti doktranti,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori  
E-mail: [dildora6581042@gmail.com](mailto:dildora6581042@gmail.com)



## ADABIY PORTRET JANRINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya:** mazkur maqolada adabiy portret janrining nazariy asoslari, uning shakllanish tarixi va o'ziga xos badiiy-tanqidiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Adabiy portret yozuvchi shaxsiyati, uning ruhiy olami, estetik individualligi va ijtimoiy-tarixiy muhit bilan bog'liq omillarni sintetik usulda yoritadigan murakkab janr sifatida izohlanadi. Sent-Byov, V.Belinskiy, A.Grigoryev, L.Grossman kabi munaqqidlar qarashlari asosida janrning biografik, psixologik, estetik va kontekstual qirralari atroflicha tadqiq etiladi. Portretning sintetik tabiati – biografiya, psixologiya, estetika va davriy muhitning bir butun strukturada uyg'unlashishi orqali ijodkorning to'laqonli qiyofasini qayta yaratish mexanizmi ochib beriladi. Maqolada adabiy portretning janrlararo xususiyatlari va uning adabiyotshunoslikdagi ilmiy-estetik ahamiyati ham yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** *Adabiy portret, biografik metod, psixologiya, estetik individuallik, ijtimoiy-tarixiy kontekst, Sent-Byov, Grossman, adabiy tanqid, ijodiy qiyofa, sintetik janr.*

**Аннотация:** в данной статье анализируются теоретические основы жанра литературного портрета, его историческое формирование и характерные художественно-критические особенности. Литературный портрет рассматривается как сложный синтетический жанр, направленный на всестороннее раскрытие личности писателя, его внутреннего мира, эстетической индивидуальности и связи с социально-историческим контекстом. На основе взглядов ведущих критиков – Ш. Сент-Бёва, В. Белинского, А. Григорьева, Ю. Айхенвальда, Л. Гроссмана – подробно исследуются биографический, психологический, эстетический и контекстуальный аспекты жанра. Особое внимание уделяется синтетической природе литературного портрета, объединяющей биографию, психологию, эстетику и эпохальный фон в единую структуру, что позволяет воссоздать целостный творческий облик автора. В статье также выявлены межжанровые свойства литературного портрета и его научно-эстетическая значимость в литературоведении.

**Ключевые слова:** *литературный портрет, биографический метод, психология, эстетическая индивидуальность, социально-исторический контекст, Сент-Бёв, Л. Гроссман, литературная критика, творческий облик, синтетический жанр*

**Annotation:** this article explores the theoretical foundations of the literary portrait genre, its historical formation, and its distinctive artistic and critical features. The literary portrait is interpreted as a complex genre that synthesizes the writer's personality, psychological world, aesthetic individuality, and socio-historical context. Drawing on the perspectives of critics such as Sainte-Beuve, Belinsky, Grigoriev, Aykhenvald, and L. Grossman, the study analyzes the biographical, psychological, aesthetic, and contextual dimensions of the genre. The synthetic nature of the literary portrait – combining biography, psychology, aesthetics, and historical environment into a unified structure – is examined as a mechanism for reconstructing the writer's full creative identity. The article also highlights the interdisciplinary characteristics of the literary portrait and its scholarly-aesthetic significance in literary studies.

**Key words:** *literary portrait, biographical method, psychology, aesthetic individuality, socio-historical context, Sainte-Beuve, Grossman, literary criticism, creative identity, synthetic genre.*

Adabiy tanqid va adabiyotshunoslik janrlari orasida adabiy portret alohida o'rin tutadi. U o'z mohiyatiga ko'ra yozuvchi shaxsiyati, uning ruhiy olami, badiiy individualligi va ijodiy manerasini tahlil qilishga qaratilgan kompleks janrdir. Adabiy portretda yozuvchining hayot yo'li, ijod psixologiyasi, estetik ideallari, xarakter xususiyatlari, ijtimoiy-tarixiy muhit bilan bog'liq omillar ilmiy va badiiy tarzda yoritiladi. Adabiy tanqid nazariyotchisi S.M. Kaznacheyevning ta'kidlashicha, "Monografik xususiyatga moyil bo'lgan adabiy portret muallifga nafaqat muayyan yozuvchining asarlariga, balki uning kelib chiqishiga, taqdiriga, biografiyasiga, shaxsiy hayotiga, odatlari, fazilatlar va ehtimol, nuqsonlariga ham yaqindan nazar tashlash imkonini beradi" [1.298]. Adabiy portret janrining ilk shakllari XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Maymon, Lessing, Didro kabi ijodkorlar asarlarida ko'zga tashlansa-da, uning mustaqil janr sifatida shakllanishi fransuz tanqidchisi Sharl Ogusten Sent-Byov nomi bilan bog'liq. U o'z maqolalarida yozuvchi shaxsiyatini asarning kaliti sifatida talqin qilib, badiiy matnni muallifning hayotiy tajribasi va psixologik dunyosi bilan uzviy bog'liq holda o'rganishni taklif etdi. Sent-Byovning fikricha, yozuvchini tushunish uchun uning hayoti, muhiti va ruhiy holatiga kirib borish zarur. Sent-Byov o'zining mashhur "Dushanba gurunglari" ("Causeries du lundi") va "Portretlar" turkumida yozuvchilar hayoti, shaxsiyati, ijtimoiy muhiti va asarlarini o'zaro bog'liq holda talqin qildi. Uning mahorat bilan yaratilgan adabiy portretlar turkumida ijodkor shaxslar qiyofasi biografik, psixologik va davr bilan uzviy bog'liq holatda ochib berildi. Uning ushbu nazariy qarashlari keyinchalik fransuz, rus va nemis tanqidchiligida keng tarqaldi. Shu bois Sent-Byov adabiy portret janrining asoschisi sifatida xalqaro adabiyotshunoslik maydonida e'tirof etiladi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab adabiy portretga psixologik yondashuv kuchaydi. Bu borada G. Teyn, A. Shopengauer, I. Ten kabi olimlarning fikrlari muhim o'rin tutdi. Adabiy portret ijodkorning ichki ruhiyatini tahlil qilish bilan birga, uni tashqi omillar kontekstida ham talqin etadi. Yozuvchi shaxsiyatini ochishda psixologik tahlil asosiy mezonlardan biriga aylandi. Bu

qarashlar adabiy portret janrining analitik imkoniyatlarini kengaytirdi. Adabiy portret janri nazariy jihatdan shakllanish jarayonida bir qator yirik munaqqidlar va adabiyotshunos olimlarning qarashlari bilan boyib bordi. Janrning mohiyatini belgilashda biografik usul, psixologik tahlil, estetik individuallik va ijtimoiy-tarixiy kontekstni hisobga olgan holda talqin qilish muhim ahamiyat kasb etdi. Adabiy portretning o'ziga xosligi shundaki, u faqat yozuvchining asarlarini emas, balki uning shaxsiy dunyoqarashi, ruhiy olami, ijtimoiy muhit bilan munosabatini ham qamrab oladi.

XIX–XX asrlar davomida adabiy portret rus adabiyotshunosligida ayniqsa jadal rivojlandi. V. Belinskiy, A. Grigoryev, Y. Ayxenvald kabi munaqqidlar yozuvchi shaxsiyatini ochishni janrning asosiy vazifasi deb bilishgan. V. Belinskiy yozuvchi shaxsiyatini ijtimoiylik va davr ruhi bilan bog'liq holda talqin etdi. U portret yozuvchining davrga munosabatini ochib berishi lozim, deb hisoblagan. A. Grigoryev esa adabiy portretda "organik tanqid" tamoyilini ilgari surib, yozuvchining ichki tabiatini jonli va tabiiy tasvirlashni birinchi o'ringa qo'ydi [2.7-51]. Ularning tadqiqotlarida adabiy portret individuallikni ochishning universal janri sifatida shakllandi. Portret janrini nazariy jihatdan asoslab bergan taniqli rus olimi L. Grossmanning ilmiy qarashlari bu janrning estetik mohiyati, badiiy-tanqidiy vazifasini tushunishda katta ahamiyatga ega. Grossman adabiy portretni oddiy biografik ma'lumotlar jamlanmasi emas, balki yozuvchi shaxsiyatini, badiiy qiyofasini ochib beruvchi maxsus janr sifatida ta'riflaydi. Grossmanga ko'ra, ideal adabiy portret – bu badiiylik va ilmiylikning uyg'un sintezidir. Darhaqiqat, portret ijodkor badiiy dunyosini anglash va ijodiy individuallikni ochish mexanizmidir.

Badiiy adabiyotning janrlari orasida kechuvchi qorishiq xususiyat adabiy tanqid janrlari orasida ham mavjud. Taqriz, portret, suhbat, maqola, esse kabi janrlarning orasiga qat'iy "xitoy devori" qo'yib bo'lmaydi. Ular bir vaqtning o'zida bir-biriga xos jihatlarni namoyon etishi mumkin. Bunday sintetik xarakter adabiy portret janriga ham xosdir. Bu janr muallifdan yozuvchini faqat biografik yoki faqat estetik nuqtayi nazardan emas, balki uning shaxsiyati

va qator individual omillarni qamrab olgan murakkab va ko'p qirrali tizim sifatida tahlil qilishni talab etadi. Adabiy portretida biografiya, psixologik xususiyatlar, estetik individuallik va ijtimoiy-tarixiy muhit kabi komponentlarning birlashishi portret janriga sintetik, kompleks xarakter bag'ishlaydi.

Janr talabiga ko'ra portretning poydevori biografik asos bo'lib, u yozuvchining hayot yo'li, tarbiyasi, shakllanish bosqichlari, shaxsiy munosabatlari va uning dunyoqarashiga ta'sir qilgan omillar va hodisalarni qamrab oladi. Adabiyotshunoslar, jumladan Sent-Bev va Belinskiy ta'kidlaganidek, ijodkorning asarlari uning shaxsiy taqdiri va ruhiy iztiroblaridan alohida holda mavjud bo'lmaydi. Biografiya portretga faktologik asos bersa-da, uning vazifasi faqat ma'lumot berish emas, balki ijod manbai, xarakter shakllanishi, adabiy-estetik qarashlar tadriji ortidagi hayotiy omillarni ochish hisoblanadi.

Portretidagi biografik asosdan keyingi ikkinchi muhim jihat psixologik tahlildir. Yozuvchining ichki dunyosi, ruhiy olami, xarakteridagi ziddiyatlar, dunyoqarashining o'ziga xosligi, his etish qobiliyati va ijod jarayonidagi emotsional holatlar portretning markaziy qismini tashkil etadi. Munaqqid yozuvchi individualligini tushunish uchun uning ichki ruhiy olamiga kirib borishi zarur. U borliqni qanday his qiladi, dunyoga qanday munosabatda bo'ladi, uning ruhiyatidagi qaysi kuchlar badiiy asarni vujudga keltiradi – portret aynan shu masalalarni kashf etishga qaratiladi. Shu bois psixologik tahlil portretning

jonli va ta'sirchan bo'lishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Portretidagi uchinchi muhim jihat estetik individuallik bo'lib, unda yozuvchining badiiy uslubi, manerasi, poetik mahorati, obraz yaratish mexanizmlari asosiy ahamiyat kasb etadi. L. Grossman ta'kidlaganidek, adabiy portretning eng muhim vazifasi ijodkorning badiiy qiyofasini ochib berish, uning boshqalardan farq qiluvchi jihatlarini namoyon etish hisoblanadi.

Adabiy portretidagi yana bir muhim komponent ijodkorni ijtimoiy-tarixiy kontekstda tekshirishda ko'rinadi. Yozuvchi doimo muayyan davrning farzandi va vakili sifatida davr ziddiyatlari, siyosiy muhiti, mafkuraviy kurashlari va madaniy manzarasida yashaydi va ijod qiladi. Uning asarlari bilan birga, shaxsiy qarashlari ham jamiyat voqeligidan ajralgan holda mavjud bo'lolmaydi. Ijtimoiy muhitni anglamasdan yozuvchi qiyofasini to'la tasavvur etib bo'lmaydi. Masalan, Dostoyevskiyning ijtimoiy fojialari, Navoiyning Temuriylar davridagi siyosiy-mafkuraviy vazifalari, Pushkinning dekabristlar davri bilan bog'liq ichki konfliktlari ular haqida yaratilgan portretlarning ajralmas qismi hisoblanadi.

Shu tariqa adabiy portret janri biografik faktlarni, psixologik asoslarni, badiiy individuallik mezonlarini, ijtimoiy-tarixiy kontekstni asosiy yadro – ijodkor dunyoqarashining shakllanish maydoni sifatida birlashtiradi va natijada portretida ijodkorning to'laqonli qiyofasi, uning ichki va tashqi dunyosi, ruhiy olami va badiiy tafakkur tadriji sintetik tarzda yaratiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Казначеев С.М. Теория литературной критики. – Москва. Рутения, 2018. – С.298.
2. Григорьев А. Органическая критика о правде и искренности в искусстве // Эстетика и критика /Вступ. статья, сост. и примеч. А. И. Журавлевой. – М.: Искусство, 1980.– С.7-51.
3. Белинский В. Г. Танланган асарлар. – Тошкент: Ўзбекистон Давлат Нашриёти, 1955. – Б. 219.
4. Rahmonov B. O'zbek adabiy tanqidchiligi. – Toshkent: Istiqlol nuri, 2015. 4-bet.
5. Qur'onov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. 18-bet.

**Shoxida KARAMOVA,**  
*F.f.d., dotsent*  
 Qarshi davlat universiteti,  
 Yangi o'zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi  
 kafedrasida dotsenti  
 E-mail: [karamova.sh.1972@gmail.com](mailto:karamova.sh.1972@gmail.com)



## ZAMONAVIY ARUZIY SHE'RLAR LEKSIKASI

**Annotatsiya:** mazkur maqolada mustaqillik davri o'zbek aruzi fonetik sathda kuzatilgan. Zamonaviy shoirlarimiz o'zbek tili fonetikasining xilma-xil imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanganlari aniqlandi. She'riyatimizning yetakchi vazni bo'lib kelgan aruz vaznining XX asr o'zbek she'riyatidagi mavqei, undagi o'zgarishlar tahliliga e'tibor qaratildi.

**Kalit so'zlar:** *aruz, leksik, morfologik, fonetik sath, an'anaviylik, vazn va qofiya, izofali birikma.*

**Аннотация:** в данной статье период независимости узбекского языка рассматривается на фонетическом уровне. Обращено внимание на положение Аруза, являвшегося ведущей силой нашей поэзии, в узбекской поэзии XX века, анализ изменений в ней.

**Ключевые слова:** *аруз, лексический, морфологический, фонетический уровень, традиционность, вес и рифма, изофасное сочетание.*

**Annotation:** in this article, the period of independence of the Uzbek language was observed at the phonetic level. The position of Aruz, which has been the leading weight of our poetry, in Uzbek poetry of the 20th century, and the analysis of changes in it was paid attention to.

**Key words:** *aruz, lexical, morphological, phonetic level, traditionality, weight and rhyme, isophasic combination.*

Mustaqillik davri o'zbek she'riyatidagi yangilanish, birinchi navbatda, mazmundan shaklga qarab borganlikda kuzatiladi. Tabiiyki, bu jarayon she'rning barcha shakllarida, xususan, aruziy poetikada ham namoyon bo'la boshladi. Aruz vaznidagi lirikaning yangilanishi mustaqillikdan ancha oldin boshlangan bo'lsa-da, bu jarayon istiqloq davrida ham izchil davom etdi. Zero, "XIX asr adog'i va XX asr avvalidagi she'riyat risoladagi aruz, ya'ni devon she'riyati bilan o'zgargan zamon kayfiyatini ifodalagan barmoq vaznidagi she'riyat o'rtasida bir ko'prik vazifasini o'taganini tushunish juda muhim. Yangi mazmun poetik shakldan shunga mos o'zgarishlarni taqozo etadi. Va bu bir qonuniyat".[9.182-b.] Ayni shu holat ma'rifatparvarlik davridayoq boshlangani holda asta-sekinlik bilan o'zbek tili fonetikasi, grammatikasi qonuniyatlari bu vaznga o'z ta'sirini ko'rsata boshladi.

Bu jarayonda ba'zan aruzdagi qat'iy qoidalarga moslashilgan bo'lsa, ba'zan aruz vaznining o'zi til xususiyatlarimizga bir qadar muvofiqlashtirildi. Buning asosiy jihatlaridan birini B.Karimov shunday izohlaydi: "Ijodkorlar davr qo'ygan talabni his qilgan holda keng ommaga tushunarli tilda, ularning hayotiga bevosita

aloqador obrazlarda she'rlar yoza boshlashdiki, buning oqibatida she'riyat xalq hayotiga yaqinlashdi". [1.80-b.] Ayni shu jarayon, jumladan, mustaqillik davri g'azalchiligidan ham kuzatildi. Shu sababdan aruzning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat va u yangi o'zbek she'riyatida, ayniqsa, mustaqillik davrida qay tarzda yangilandi, degan savolni qo'yish va unga javob topish ilmiy ehtiyojdir. Ayni davr g'azalchiligi haqida so'z borganda, shubhasiz, eng birinchi o'rinda, Abdulla Oripov ijodi xususida to'xtalish joiz. Shoir g'azallari tili bugungi kun uchun bir qadar xoslangani holda, ba'zan ijodkor tili ham aruziy qoidalarga moslashtiriladi:

*Bu ko'ngil nozik ekan,  
 Sinsa raqiblar dastidan,  
 Qalb uyin me'moridirsan,  
 Topdi Abdullo seni.*

Eng avvalo, g'azalning grafik qurilishiga e'tibor qaratish joiz. Ikki misra sindirilgan holda, band tuzilishi shakllantirilganini ko'rish mumkin. G'azalning vazni *ramali musammani mahzuf* (foilotun, foilotun, foilotun, foilun). Shoir vazn talabi jihatidan Abdulla ismini Abdullo shaklida qo'llaydi va cho'ziq hijo

bo'lishini ta'minlaydi. Bu kabi holatlar, ayniqsa, tovushlarning moslashuvi (assimilyatsiya) Abdulla Oripov g'azalchiligida yetakchi hodisalardan biridir:

*She'r yozish tengdir quduqni  
 Ignada qazgan bilan,  
 Yo esa undan yuming ko'z,  
 Ipni o'tkazgan bilan.*

Ko'rinib turibdiki, "o't" asosga jarangsiz tovush talabi bilan -gaz qo'shimchasi -kaz tarzida qo'shilgan va assimilyatsiya hodisasi yuzaga kelmoqda. Ayni shu tovush moslashuvi g'azalning boshdan so'ngiga qadar bo'lgan qofiyalarda saqlanib qoladi: *ketkazgan, yetkazgan, o'tqazgan, tutqazgan, qutqazgan, yutqazgan* tarzida. Shoirning aruzdagi mahoratini munaqqid Nurboy Jabborov quyidagicha baholaydi: "O'tgan asrning 20-30-yillari she'riyatda aruzdan barmoqqa o'tish tendensiyasi kuzatilgani ma'lum. Keyinchalik butunlay barmoqqa o'tildi. Bugun esa aruzga ehtiyoj biroz kuchayayotgandek. Ayni kezda bu ko'hna vaznga yangicha ruh berayotganlar ichida eng faoli ustoz Abdulla Oripovdir". [2.21-b.]

Ayni vaqtda aruzning murakkabligi, undan uzoqlashilganlik o'z ta'sirini ham ko'rsatdi. Vaznni benuqson qo'llash uchun ba'zan zo'rma-zo'arakilikka, ba'zan esa xatoga yo'l qo'yildi. Bu xil holatlar hatto katta shoirlarimiz ijodida ham uchraydi.

Bilimdan yetsa gar zehningga zarra. Bu – ma'rifatdir,

Ko'ngilga tushgan har ne shu'la borkim – ma'naviyatdir.

Ko'ngil har kimsada bir o'zga bo'lgay, zehniyat o'zga,

Ma'rifat, ma'naviyat ichra ham shundoq vaziyatdir. [8.11-b.]

Ikki baytda birinchi hijosi cho'ziq bo'lgan "ma'rifat" va "ma'naviyat" so'zlari qo'llangan. Aslida, ayirish (tutuq) belgisi(')ning o'ziyoq cho'ziqlikka ishora qilyapti. Ammo shoir "ma'rifat" so'zini ikki o'rinda ham o'sha hijosi qisqa shaklda qo'llaganki, bu xatodir. Vaznga ko'ra so'zni "mariyat / v --" tarzida o'qish lozim bo'ladi. Bunday misollarni mustaqillik davri aruzidan ko'plab keltirish mumkin.

So'nggi 5-10 yilda faollashgan yana bir guruh aruznavislar, yoshlar borki, ularning ijodida mumtoz adabiyot an'analari o'ta kuchli. Mavzular, asosan, ishq, hijron, yor portreti yoki irfon bo'lgani holda, eski o'zbek tiliga oid so'zlar yuqoridagi shoirlarga qaraganda ko'proq istifoda etiladi. Bu so'zlarning

ma'nosi hammavaqt ham o'quvchiga tushunarli bo'lmay, lug'at talab qiladi. Quyida keltiriladigan she'riy parchalarni yuqoridagi misollar bilan qiyoslashning o'ziyoq ma'lum tasavvur beradi:

**Ashk** emas, ko'zimda **tim-tim qon edi**,

Chun qaroqchug'im to'la **paykon** edi.

Necha yog'dursa suvoriy ko'zlaring,

**Novakig'a** jon ko'zi qalqon edi.[8.144-b.]

(Sh.Shams)

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning barchasi hozirgi o'zbek tilida yo ishlatilmaydi, yo kam ishlatiladi. Bunday misollarni yana juda ko'plab keltirish mumkin. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillar o'zbek aruzida tasavvufiy-irfoniy va ishqiy mazmundagi she'rlar ko'paydi. Albatta, ular ichida Asqar Mahkamning "Mavlaviyona", "Izlangiz", Mirzo Kenjabekning "Ibodatdur", Sirojiddin Sayyidning "Kuydim" singari g'azallari kabi pafosi baland, toza ruhi bilan sug'orilgan she'rlar talaygina.

Mustaqillik yillarida Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Asqar Mahkam, Mirzo Kenjabek, Sirojiddin Sayyid, Nodira Afoqova kabi shoirlar aruzni zamonaviy insonning asl tuyg'ulari ifodasiga, davrning muhim mavzulari talqiniga xizmat qildira oldilar.

Mustaqillik davri aruziga xos bo'lgan yana bir holni qayd etish lozim. Bu – qo'shimchalar, so'z shakllari, variantlarining qo'llanishi bilan bog'liq. Gap shundaki, deyarli barcha shoirlar ko'p hollarda qo'shimchalar, so'z shakllarining eski ko'rinishlarini xush ko'radilar. Bunday qo'llash hatto vazn va qofiyaga ta'sir etmaydigan o'rinlarda ham kuzatiladi. -gin/-gil, -dan/-din, -ga/-g'a, -sin/-sun, -dir/-dur, -gay/-g'ay, -gan/-g'on (-qon), ollida/oldida, qora/qaro, ko'ngil/ko'ngul, endi/emdi, gulzor/gul'uzor, tilla/tillo, menga/manga, yashirmoq/yoshurmoq, yolvormoq/yolbormoq, uni/ani, yomg'ir/yog'mur (yag'mur), bo'lmoq/o'lmoq, ikki/iki, hamma/hama, yolg'on/yalg'on, qovoq/qaboq, keladi/kelodir va hokazo. Vazn va qofiya talabi bo'lmagan o'rinlarda, bizningcha, bu xil qo'llashda ikki holatni farqlamoq lozim. Birinchisi shuki, aruz zamonaviy shoir ong ostida o'qilgan mumtoz adabiyot namunalarini bois so'z va qo'shimchalarning shu xil shakllarida o'rnashgan. Bu shakllar ijod jarayonida o'z-o'zidan badiiy matn sathiga chiqadi va u tabiiyligi bilan she'rga husn bag'ishlaydi.

Shul ismdan yurt aro yuz ming umid,

Shul ismdan nurlanur davronimiz.

(S.Sayyid, "To Navoiy bor...").[8.70-b.]

Bu baytda shu/shul, nurlanar/nurlanur almashinuvi bag'oyat tabiiy bo'lib, quloqqa yoqimli eshitiladi.

Ikkinchi bir holatlarda, aruznavis she'riga aruz ruhini berish yoki kuchaytirish uchun ataydan so'z yo qo'shimchani zamonaviy shaklidan voz kechadi. Bunday holda zo'rma-zo'rakilik sezilib qoladi, she'r ritmi tabiiy ohangini yo'qotadi.

Manim boshima yog'dirdi malomat-la qaro yag'mur,  
 Biravlar nag'masiga lol o'lg'on jo'r tilim qursin.  
 [8.107-b.]

Mazkur baytda boshima, yag'mur, biravlar so'zlari atayin "boshqachalashtirilgani" sezilib turibdi. Vaholanki, boshimga, yomg'ir, birovlar shakllari ham hech bir vazn, qofiya xatoligiga olib kelmas edi.

Zamonaviy aruzning yana bir xususiyati izofali birikmalarning mo'l-ko'l ishlatilishida ko'rinadi. Albatta, o'rnida qo'llangan izofali birikmalar she'riy matnning badiiyatini oshiribgina qolmay, vazn mukammalligiga erishishda o'zbek tilining noyob imkoniyatlaridan biridir.

Izlangiz, ey ahli oh,  
 Qayda deb ahli vafo.  
 Izlangiz, ey ahli dil.  
 Qayda deb sohib ko'ngil.  
 Izlangiz, ey ahli xos,  
 Qayda deb ahli niyoz... [3.146-b.]

Iste'dodli shoir Asqar Mahkamning 18 baytli "Izlangiz" nomli orifona she'riining 14 baytida shu shakl davom etadi: "ahli roh", "ahli xok", "ahli g'am", "ahli shum", "ahli bad", "ahli sharr", "ahli jon", "ahli xob", "ahli xayr", "ahli shom", "ahli joh". Izofali jumla, birinchidan, vazn talabi bilan qo'llangan. Ikkinchidan esa, she'rga chindan ham tasavvufona, mumtozona ruh bergan.

Aruz mustaqillik davri o'zbek she'riyati misolida yangi o'zbek tili fonetikasi bilan tobora uyg'unlashdi –

assimilyatsiya sodir bo'ldi. Zamonaviy aruziy she'rlar leksikasida hozirgi o'zbek tili xususiyatlari yetakchi bo'lsa-da, arxaizm va istorizmlar ham ko'p uchraydi. Ayniqsa, so'nggi 5–10 yilda faollashgan aruznavislar, yoshlar ijodida tilning eskirgan qatlamidan foydalanish ko'proq namoyon bo'lmoqda. Bunday so'zlarning ma'nosi hamma vaqt ham o'quvchiga tushunarli bo'lmay, lug'at talab qiladi. Morfologik sathda esa qo'shimchalar, so'z shakllarining eski ko'rinishlari ham ko'p qo'llanadi. Bunday qo'llash hatto vazn va qofiyaga ta'sir etmaydigan o'rinlarda ham kuzatiladi. Aruznavis she'riga aruz ruhini berish yoki kuchaytirish uchun ataydan so'z yo qo'shimchani zamonaviy shaklidan voz kechadi. Zamonaviy aruzda izofali birikmalar ham quyuq ishlatilgan. Izofa vazn mukammalligiga erishishda o'zbek tilining noyob imkoniyatlaridan biridir.

So'nggi yillar o'zbek aruzida tasavvufiy-irfoniy va ishqiy mavzu kuchaydi. E'tiqod erkinligiga chin ma'nosi ila erishilgach, ta'qiqdagi mavzu qayta maydonga chiqdi. Bu mavzuda pafosi baland, toza ruh bilan sug'orilgan she'rlar qatorida mahorat namoyishi kabi tasavvur beradigan bitiklar ham ko'paydi. Shu bilan birga, ayrim aruznavislarning she'rlari mumtoz adabiyotning hissiz takrori kabi taassurot tug'diradi. O'quvchiga estetik zavq bermaydi. Bu xil she'rlar ayrim zamonaviy aruznavislarning an'ananing kuchli ta'siridan chiqib ketolmayotgani, aruzning mavzular olamini yangilay olmayotgani, qalbning chinakam tebranishlarini ifoda etishga aruzni safarbar etolmayotganidan dalolat beradi. Mustaqillik yillarida Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Asqar Mahkam, Mirzo Kenjabek, Sirojiddin Sayyid, Nodira Afoqova kabi shoirlar aruzni zamonaviy insonning asl tuyg'ulari ifodasiga, davrning muhim mavzulari talqiniga xizmat qildiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov B. Yangilanish sog'inchi. – Toshkent: Adabiyot jamg'armasi, 2004. 80-b.
2. Jabborov N. Zamon, mezon, she'riyat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2015. 21-b.
3. Mahkam A. Vahdat kuyi. – Toshkent: Nuraflshon business, 2021. 146-b.
4. Oripov Abdulla. Tanlangan asarlar— Toshkent: Sharq, 2019. 581-b.
5. Sayyid, Sirojiddin. Tanlangan asarlar. – T.: G'afur G'ulom, 2019.
6. Shoir Shams. "Samandar" devoni. Urganch, 2009.
7. Xudoyberdi A. Evrilish. – T.: G'afur G'ulom, 2021.
8. G'azal g'izoli. – Toshkent: Adabiyot, 2021. 11-b.
9. Hamdamov U. XX asr o'zbek she'riyati badiiy tafakkur tadrijining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Filol. fanl. d-ri diss... – T., 2017. 182-b.

# ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA



**Gulchera RAVSHANOVA,**  
*Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)*

## TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA SUN'IY INTELEKTDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI

**Annotatsiya:** mazkur maqolada ta'lim jarayonida sun'iy intellekt (AI) texnologiyalaridan foydalanishning samarali yo'llari tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt yordamida ta'lim sifatini oshirish, individual o'quv yondashuvlarini shakllantirish, o'qituvchilarning mehnatini yengillashtirish va o'quv jarayonining samaradorligini oshirish imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, AI texnologiyalarining to'g'ri joriy etilishi raqamli ta'lim tizimini yanada rivojlantiradi va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi.

**Kalit so'zlar:** *sun'iy intellekt, ta'lim sifati, raqamli ta'lim, adaptiv tizimlar, avtomatlashtirilgan baholash, o'qitish samaradorligi.*

**Аннотация:** в данной статье будут проанализированы эффективные способы использования технологий искусственного интеллекта (ИИ) в образовательном процессе. С помощью искусственного интеллекта освещаются возможности повышения качества образования, формирования индивидуальных подходов к обучению, облегчения труда педагогов, повышения эффективности образовательного процесса. Исследование показало, что правильное внедрение технологий искусственного интеллекта будет способствовать дальнейшему развитию системы цифрового образования и значительно повысит уровень усвоения учащимися.

**Ключевые слова:** *искусственный интеллект, качество образования, цифровое обучение, адаптивные системы, автоматизированная оценка, эффективность обучения.*

**Annotation:** this article analyzes effective ways to use artificial intelligence (AI) technologies in the educational process. With the help of artificial intelligence, the possibilities of improving the quality of education, the formation of individual educational approaches, the relief of the labor of teachers and the improvement of the effectiveness of the educational process are highlighted. According to the results of the study, the correct introduction of AI technologies will further develop the digital education system and significantly increase the level of student assimilation.

**Key words:** *artificial intelligence, quality of education, digital education, adaptive systems, automated assessment, training efficiency.*

**Kirish.** Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamli media vositalarining keng tarqalishi ta'lim tizimida yangi bosqichni boshlab berdi. Shu jarayonda media savodxonlik, axborot madaniyati va sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biriga aylandi. Mediasavodxonlik o'quvchilarning axborotni to'g'ri tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyatini shakllantirish va raqamli muhitda ongli harakat qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Sun'iy intellekt esa bu jarayonni avtomatlashtirish, individuallashtirish va samaradorligini oshirish orqali qo'llab-quvvatlaydi. Sun'iy intellekt (AI) atamasi ilk bor 1956-yilda AQShning Dartmut universitetida o'tkazilgan ilmiy anjumanda Jon Makkarti tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Sun'iy intellekt texnologiyalari esa ushbu jarayonni yanada samarali tashkil etish uchun keng imkoniyatlar

yaratadi. "Intellekt" tushunchasi lotincha "intellektus" so'zidan olingan bo'lib, bilish, tushunish, fikrlash qobiliyatini anglatadi. Sun'iy intellekt esa inson aql-idrokini kompyuter tizimlari orqali modellashtirishga asoslangan texnologiyalar majmuasidir. U inson tafakkurini modellashtirish, o'rganish va qaror qabul qilish jarayonlarini mashinalar orqali amalga oshirishni nazarda tutadi. Sun'iy intellekt – bu inson faoliyatining intellektual jihatlarini imitatsiya qiluvchi texnologik tizim bo'lib, ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va ulardan o'rganish jarayonini o'z ichiga oladi.

**Tahlil va natija.** Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasasi — Birlashgan Intellektual Mulk Tashkiloti (BIMT) sun'iy intellektni global miqyosda tartibga solish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda. 2019-yilda tashkilot tomonidan o'tkazilgan "Texnologiya tendensiyalari

– Sun'iy intellekt" yig'ilishida AI texnologiyalari jamiyatning turli sohalarida, xususan, ta'limda chuqur o'zgarishlar yasashi qayd etildi. BIMT Bosh direktori Frensis Garri "Sun'iy intellekt inson hayoti va mehnat faoliyatini tubdan o'zgartiruvchi yangi raqamli chegara" ekanligini ta'kidlab, ushbu sohada muvozanatli xalqaro siyosat yuritish zarurligini qayd etdi. YUNESKO tomonidan media va axborot savodxonligini rivojlantirishga doir bir qator xalqaro dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular o'quvchilarda zamonaviy media manbalarini to'g'ri tushunish, ularni tahlil qilish va ulardan xavfsiz foydalanish madaniyatini shakllantirishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellekt sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanib, 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori ta'limda ham ushbu yo'nalishning jadallashuviga asos bo'ldi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida AI texnologiyalarini ta'lim, qishloq xo'jaligi, transport, bank va boshqa sohalarga keng joriy etish choralari belgilandi. 2024-yil 14-oktabrda Prezidentning PQ-358-son qarori bilan Raqamli texnologiyalar vazirligi tuzilmasidagi "Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi" davlat muassasasi negizida "Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish markazi" tashkil etilgani esa ushbu strategik yo'nalishning institutsional asoslarini yanada mustahkamladi. Mazkur Markaz mamlakatda sun'iy intellektni rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, texnologiyalarni tatbiq qilish hamda kadrlar tayyorlash jarayonlarini tizimli ravishda qo'llab-quvvatlash imkonini yaratdi.

Ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi o'quv jarayonining barcha bosqichlarini takomillashtiradi. Avvalo, AI yordamida ta'limni individuallashtirish imkoniyati yaratiladi — har bir o'quvchining bilim darajasi, qiziqishi va o'rganish sur'atiga moslashtirilgan materiallar taklif etiladi. Shuningdek, chatbotlar va virtual yordamchilar o'qituvchilarning yordamchisi sifatida faoliyat yuritib, o'quvchilarning savollariga javob berish, uy vazifalarini tahlil qilish, dars jarayonini avtomatlashtirish imkonini beradi. Bu esa o'qituvchilarning vaqtini tejash, ta'lim jarayonining shaffofligini oshirish va o'quvchilarga tezkor fikr-mulohaza berishni ta'minlaydi. Sun'iy intellekt inklyuziv ta'limda ham muhim rol o'ynaydi. Ko'rish yoki eshitish qobiliyati cheklangan o'quvchilar uchun moslashtirilgan dasturlar, ovoqli interfeyslar va

vizual tahlil tizimlari yaratilmoqda. Bundan tashqari, VR (virtual reallik) va AR (kengaytirilgan reallik) texnologiyalari o'quv fanlarini amaliy yo'nalishda o'rganish imkonini beradi. Bu texnologiyalar orqali o'quvchilar tibbiyot, muhandislik yoki texnik yo'nalishlarda sun'iy muhitda amaliy tajriba orttiradilar. Shuningdek, xorijiy tillarni o'rganishda SI asosida yaratilgan platformalar (masalan, Duolingo AI) o'quvchilarga nutqni tanish, talaffuzni to'g'rilash, matnlarni avtomatik tarjima qilish imkonini berib, o'rganish jarayonini yanada interaktiv va samarali qiladi. Biroq, ta'limda sun'iy intellektdan foydalanishda axloqiy me'yorlarga qat'iy amal qilish muhimdir. Shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash, ishonchli manbalardan foydalanish, chatbotlardan asosiy o'qituvchi emas, balki yordamchi sifatida foydalanish kabi qoidalar o'quvchi xavfsizligini kafolatlaydi. Shu bilan birga, insoniy muloqot va pedagogik yondashuv ustuvorligini saqlash ta'limda SI texnologiyalaridan oqilona foydalanishning asosiy shartidir. Mediasavodxonlik va sun'iy intellektning ta'lim tizimidagi integratsiyasi o'quvchilarda axborotni tanqidiy tahlil qilish, muammolarni hal etish va raqamli axborotdan mas'uliyatli foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi. Sun'iy intellekt yordamida o'quv jarayoni shaxsiylashtirilsa, mediasavodxonlik o'quvchilarda ongli tahlil va fikr yuritish madaniyatini rivojlantiradi. Bu uyg'unlik o'quvchilarni nafaqat bilimli, balki ijtimoiy mas'uliyatli, raqamli xavfsizlik qoidalariga rioya qiluvchi va global axborot makonida faol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalari sohasidagi jadal taraqqiyot hamda yangi raqamli media vositalarining keng qo'llanilishi ta'lim jarayonida yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Shu jarayonda media savodxonlik, axborot madaniyati va sun'iy intellekt texnologiyalaridan oqilona foydalanish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda media savodxonlik dunyo ta'lim tizimlarida eng muhim kompetensiyalardan biri sifatida e'tirof etilib, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish hamda axborotni tahlil etish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Media savodxonlik insonning ijtimoiy mas'uliyatini anglagan holda faol, tanqidiy fikrlovchi va axborotni baholay oluvchi shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Maktab ta'limida bu yo'nalishning joriy etilishi o'quvchilarga turli manbalardan olingan ma'lumotlarni solishtirib tahlil qilish, vizual va matnli xabarlarning mohiyatini tushunish hamda noto'g'ri

axborot ta'siriga berilmaslik ko'nikmalarini beradi. Mediasavodli o'quvchi — bu nafaqat axborotni qabul qiluvchi, balki uni tahlil etuvchi, qayta ishlovchi va ijtimoiy foydali mazmunda yaratuvchi shaxsdir. Shu boisdan maktab ta'limida media madaniyat, estetik va kreativ ko'nikmalar, interfaollik, tanqidiy tahlil va raqamli xavfsizlik ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli muhitda o'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, zararli kontentlardan himoyalash, ijobiy raqamli xulq-atvorni shakllantirish o'qituvchilarning yangi pedagogik yondashuvlarini talab qiladi.

Ta'lim sohasida AI texnologiyalarining qo'llanilishi o'quvchilarning individual xususiyatlariga moslashtirilgan o'quv jarayonini tashkil etish, bilim darajasini avtomatik aniqlash, o'quvchilarning faoliyatini tahlil qilish va ularga tezkor fikr-mulohaza taqdim etish imkonini beradi. Sun'iy intellekt asosidagi adaptiv o'quv tizimlari o'quvchilar bilimni tahlil qilib, ularga mos o'quv materiallarini taklif etadi, bu esa o'qitishning sifatini oshiradi va har bir o'quvchining o'z sur'atida rivojlanishiga imkon beradi. Shu bilan birga, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari o'qituvchilarning vaqtini tejaydi, ta'lim jarayonining shaffofligi va samaradorligini ta'minlaydi. Media savodxonlik va sun'iy intellekt texnologiyalarining uyg'unligi esa o'quvchilarda raqamli dunyoda faol, mas'uliyatli va tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllanishga zamin yaratadi. Sun'iy intellekt va media savodxonlikni maktab ta'lim tizimiga integratsiya qilish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda ularni raqamli jamiyatning faol ishtirokchisiga aylantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ikki yo'nalishning uyg'unligi kelajak

avlodning raqamli madaniyatini shakllantirish, ularni axborot xurujlariga nisbatan immunitetli, tanqidiy fikrlovchi va ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashning muhim omillaridan biridir.

Sun'iy intellektdan samarali foydalanish yo'llaridan eng muhimlaridan biri adaptiv (moslashuvchan) o'qitish tizimlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishdir. Adaptiv o'qitish tizimlari o'quvchilarning bilim darajasi, qiziqishi, o'zlashtirish tezligi va individual o'quv strategiyalariga asoslanib, har bir o'quvchi uchun shaxsiylashtirilgan o'quv yo'lini shakllantiradi. Bunday tizimlar o'quvchi faoliyatini doimiy kuzatib boradi, uning xatolari, to'g'ri javoblari va javob berish vaqtini tahlil qiladi hamda o'quv jarayonini avtomatik ravishda moslashtiradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish zamonaviy ta'lim sifatini oshirishning eng samarali yo'nalishlaridan biridir. U nafaqat o'qitish jarayonini avtomatlashtiradi, balki o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqish va ehtiyojlariga mos ta'lim muhitini yaratish imkonini beradi. Sun'iy intellekt yordamida ta'lim jarayoni shaxsga yo'naltirilgan, tahliliy va innovatsion tus oladi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt o'qituvchilarga o'quvchilar faoliyatini chuqur tahlil qilish, dars mazmunini takomillashtirish va ta'lim jarayonini optimallashtirishda intellektual yordamchi sifatida xizmat qiladi. AI asosidagi bashoratli tahlil, emotsional monitoring, avtomatlashtirilgan baholash, kross-fanli integratsiya va inklyuziv texnologiyalar ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lib bormoqda. Umuman olganda, sun'iy intellektni to'g'ri va maqsadli qo'llash orqali ta'lim tizimi yanada samarali, adolatli va innovatsion tus oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish markazini tashkil etish to'g'risida Qaror. PQ–358. 2024-yil 14-oktabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida Qaror. PQ–4996. 2021-yil 17-fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. – Toshkent, 2020.
4. YUNESKO. The Grünwald Declaration on Media Education. – Paris: UNESCO, 1982.
5. YUNESKO. The Alexandria Proclamation on Information Literacy and Lifelong Learning. – Alexandria, 2005.
6. World Intellectual Property Organization (WIPO). WIPO Technology Trends 2019: Artificial Intelligence. – Geneva: WIPO, 2019.
7. X. B. Kadirova. Mediasavodxonlik mediata'limning uzviy bog'liq qismidir. – Falsafa va huquq jurnali. 2024. №1.110–114-betlar.

**Malika MANSUROVA,**  
Ichki ishlar vazirligi Sirdaryo akademik litseyi  
"Tillarni o'rganish" kafedrasini boshlig'i  
[malika.mansurova.93@mail.ru](mailto:malika.mansurova.93@mail.ru)

## BAYON YOZISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o'quvchilarda bayon yozish ko'nikmasini shakllantirish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar hamda ularning yechimlariga doir masalalar tadqiq etilib, ilmiy nazariy xulosalar berilgan. Bayon yozishni rivojlantirishga oid bir qancha amaliy topshiriqlar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** yozma nutq, bayon yozish ko'nikmasi, imlo qoidalari, bo'g'in ko'chirish qoidalari, xato turlari, diktant, husnixat.

**Аннотация:** в данной статье рассматриваются проблемы, возникающие в процессе формирования навыков письменной речи учащихся, и вопросы, связанные с их решением, а также приводятся научно-теоретические выводы. Разработан ряд практических заданий для развития навыков письменной речи.

**Ключевые слова:** письменная речь, навыки письма, правила орфографии, правила переноса слогов, виды ошибок, диктант, хуснихат.

**Annotation:** this article examines the problems that arise in the process of forming students' writing skills and issues related to their solutions, and provides scientific theoretical conclusions. A number of practical tasks for the development of writing skills have been developed.

**Key words:** written speech, writing skills, spelling rules, syllable transfer rules, types of errors, dictation, husnixat.

Bugungi kunda yoshlarning sifatli ta'lim olishlari uchun barcha qulayliklar yaratilmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalardan ta'lim sohasida foydalanish bu borada ijobiy natijalarni ko'rsatmoqda. Biroq o'quvchilarning yozma nutqini yanada rivojlantirish biroz e'tibor talab qilayotgan masala hisoblanadi. Negaki oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirishga tayyorgarlik ko'rayotgan aksariyat abituriyentlar test ishlash ko'nikmasini rivojlantirishga urg'u berganligi sababli yozma savodxonlikka deyarli ahamiyat berilmayapti. Ammo ayrim oliygohlarning kirish imtihonlarida yozma ish turlaridan foydalanilishi ularning bu kamchiliklarini yuzaga chiqarmoqda.

Jumladan, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining kirish imtihonlarida bayon yozish ko'nikmasini aniqlash sinovi mavjud bo'lib, 30 ballik mezon asosida baholanadi. "Bayon – yozma ishlarning asosiy turlaridan biri bo'lib, o'quvchining matn mazmunini o'z so'zi bilan yozma ravishda qayta bayon etishdan iborat ijodiy ishdur. Berilgan matndagi asosiy omillarga diqqat qilish, matnni qisqartirish yo'llarini bilish bayonning xususiyatlaridan biridir. Ba'zi o'rinlarni kengaytirib yozish vaqtida qisqa gaplar tuzish, zarur sitatlar keltirish malakasi paydo bo'ladi"<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> R.Muslixiddinova. Bayonlar to'plami. Uslubiy ko'rsatma. (5-9-sinflar uchun). – Navoiy: 2022, 5-b..

Imtihonga tayyorgarlik ko'rayotgan o'quvchilarning yo'l qo'yayotgan xatoliklari quyidagilar:

1. Bo'g'in ko'chirish qoidalarining buzilishi.
2. Chiziqcha bilan yoziladigan so'zlar imlosi.
3. Imloviy xatolar.
4. Tinish belgilarini qo'llash.
5. Qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq xatolar.
6. So'z qo'llash bilan bog'liq xatoliklar.
7. Husnixat bilan bog'liq muammolar.

Bu xatolarni bitta yoki ikkita dars davomida to'liq bartaraf etish imkonsizdir. Ushbu jarayon muntazam ravishda tizimli amalga oshirilishi lozim. Birinchi xato turini bartaraf etishda o'quvchilarga bo'g'in ko'chirish qoidalari haqida nazariy ma'lumot berilishi kerak. Shundan keyin mavzuga oid turli test topshiriqlari bajarilishi hamda amaliy topshiriqlar bilan shug'ullanishi lozim. Bu amaliy vazifalar har bir darsda biroz vaqt ajratilib bajarib borilishi kerak.

Chiziqcha bilan yoziladigan so'zlar imlosida ko'p o'quvchilar qiyinchiliklarga duch kelishadi. Chunki so'zlarning tuzilish jihatidan qanday turlarga ajratilishi va ularning imlosi borasidagi nazariy bilimlarning yetishmasligi bu muammoni yuzaga keltiruvchi omil hisoblanadi. Eng ko'p xato yoziladigan so'zlar sirasiga quyidagilar kiradi: kechayu kunduz, kecha-yu-kunduz shaklida uchraydi, aslida esa kecha-yu kunduz

deb yozilishi kerak. Do'stu dushman emas, do'st-u dushman.


Imlo bilan bog'liq yoki punktuatsion xatoliklarning tobora ko'payib borayotganligiga bir qancha sabablarni keltirish mumkin. Birinchidan, ona tili darslarini tahlil qilish jarayoni shuni ko'rsatadiki, aksariyat o'qituvchilar mashg'ulot mobaynida hech bir lug'at turidan foydalanishmaydi. Ikkinchidan darsliklarda tinish belgilarini har birining qo'llanishi bilan bog'liq nazariy ma'lumotlar kiritilmaganligi uchun bu haqida darslarda faqatgina qisqacha aytib o'tiladi, xolos. O'quvchilarga turli lug'atlar asosida topshiriqlar taqdim etish orqali bu boradagi muammolarni asta-sekinlik bilan bartaraf etish mumkin. Masalan, bunga namuna sifatida quyidagi topshiriqni taklif qilishim mumkin:

1. O'quvchilarga turli sinonimik qatorga oid so'zlarni aralash holda berish va ularni mos qatorda aks ettirish topshirig'i. Masalan, o'quvchilarga aybdor, aybli, gunohkor, avliyo, karomatchi, valiy, aybsiz, gunohsiz, begunoh, yoziqsiz kabi so'zlardan foydalanish mumkin.

2. Biror matndan parcha beriladi va o'quvchilar matn bilan tanishib bo'lgach esa uni sinonimlari asosida mazmunini saqlagan holda qayta yozishlari so'raladi.

"Kunchiqar tomonda oltin kipriklarini pirpiratib quyosh ko'z ochdi. Osmonga nur yelpig'ichi taraldi. Taraldi-yu, olamni munavvar qilib yubordi. Nur qudratidan hurkigan soyalar esa qora qanotlarini og'ir-og'ir silkitgancha titrab-qaqshab olislarga chekina boshladi. Sherzod bu sehrli manzaralarni kuzatib turarkan, qalbida yana o'sha qadrdon bir tuyg'uni – vujudini larzaga solgan yozish tuyg'usini his etdi". (O'.Hoshimovning "Nur borki, soya bor" romanidan) Guruhda 20 ta o'quvchi bo'ladigan bo'lsa, bu parchaning 20 xil ko'rinishi bilan tanishgan va tahlil qilgan har bir o'quvchi o'zining matni bilan boshqalarnikini solishtira olish imkoniga ham ega bo'ladi. Bundan tashqari, boshqa o'quvchilarning yozma ishlarini tahlil va tanqid qilishni ham o'rganadi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati" asosida tayyorlangan turlicha ko'rinishdagi topshiriqlardan ham yangi mavzuning mustahkamlash qismida foydalanish yaxshi samara beradi. Masalan, 2 ustun shaklidagi jadvalning birinchi ustuniga o'quvchilarni chalkashtiradigan yoki uchratmagan so'zlari beriladi, 2-ustunda esa bu so'zlarning izohi. Ular so'zlarning izohi berilgan qatorlarni bir-biriga moslashtirib chiqishlari talab etiladi. Bu topshiriqdan so'ng so'zlar yanada esda qolishi uchun ular ishtirokida gaplar tuzish vazifasini ham berish mumkin.



Imloviy savodxonlikni yanada oshirishda diktantlarning ham o'рни beqiyos. Maktablarda diktantlar ko'p hollarda nazorat ishi sifatidagina olinadi, biroq kundalik mashg'ulotlarda ham ulardan foydalanish ijobiy natija beradi. Dars vaqtining

chegaralanganligini hisobga oladigan bo'lsa, lug'at diktantlar anchagina samarali hisoblanadi. Har bir darsning istalgan qismida undan foydalanish mumkin. Xatolar ustida ishlash bilan bog'liq vazifalarni uyga vazifa ko'rinishida ham taqdim etish kerak. "Lug'at

diktant ko'p vaqt olmasligi, ixchamligi bilan diktantning boshqa turlaridan farq qiladi. Shuning uchun har bir mavzu o'tib bo'lingach, yangi mavzuni mustahkamlash uchun bunday diktant turidan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Deyarli har bir mavzu (bo'lim) o'tib bo'lingach, lug'at diktant olish mumkin"<sup>2</sup>.

Ona tili darslarini adabiyot fani bilan integratsiya qilish ham yaxshi usul sanaladi. Masalan, yozma nutqni yanada rivojlantirishda turli hikoyalardan foydalanish yaxshi samara berishi amaliyotda isbotini topgan. Topshiriq sifatida taxminan 5-6 betlik hikoyalar tanlab olinadi, o'quvchilar hikoya mazmunini 1-2 betlik qisqa ko'rinishga keltirishi lozim bo'ladi. Bunda o'rganuvchi hikoyadagi har bir detalga ahamiyat bergan holda mutolaa qilishi va uni ixchamlashtirishi kerak.

Bayonlarni tekshirish jarayonida yana ko'zga tashlangan xatoliklardan biri – bu uslubiy xatoliklar hisoblanadi, ya'ni so'z qo'llash yoki sinonimlarni qo'llash bilan bog'liq. O'quvchilarga qo'shimcha topshiriq tayyorlayotganda shu jihatlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Ularga kichik matn taqdim etilishi hamda undagi uslubiy xatoliklarni aniqlash vazifasini topshiriq sifatida berish mumkin. Bundan tashqari, dars jarayonida bayonlarni birgalikda tahlil qilish va o'quvchilar bilan uslubiy xatoliklarni muhokama qilish ham ijobiy natija beradi.

Qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatoliklar orasida eng ko'p uchraydigani qaratqich kelishigi o'rniga tushum kelishigini qo'llash holati hisoblanadi. Masalan, aksariyat o'quvchilar uying tomi so'z birikmasini uyni tomi shaklida yozishadi va uslubiy xatolikni keltirib chiqarishadi. Bu xatoni bartaraf etish uchun o'quvchilarga so'z birikmalari haqidagi nazariy

ma'lumot tushuntirilishi hamda moslashuv yo'li bilan hosil qilingan so'z birikmalari haqidagi ma'lumotni taqdim etish lozim bo'ladi.

Bayon yozish ko'nikmasini yanada rivojlantirishda turli mavzudagi rasmlardan foydalanish ham mumkin, ya'ni o'quvchiga rasm taqdim etiladi va shu asosida yozma matn tuzish topshiriq sifatida beriladi. Keyingi bosqichlarda esa rasmlar soni ko'paytirilishi va matn hajmi ham kengaytirib borilishi orqali o'quvchilarda yozma nutq rivojlantirilishiga erishiladi.

Bayon yozishda husnixat masalasi ham muhim hisoblanadi. So'nggi yillarda o'quvchilarning bu borada yetarlicha kamchiliklari mavjudligi ko'zga tashlanmoqda. Husnixat bilan bog'liq kamchiliklar boshqa xatoliklarni ham keltirib chiqaradi, ya'ni yozuvning aniq emasligi harflarni noto'g'ri tushunilishiga olib keladi. Natijada bayon balining pasayishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun husnixatni yaxshilash uchun turli husnixat daftarlaridan foydalanish ijobiy natija berishini shaxsiy tajribamiz isbotladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchilarda bayon yozish ko'nikmasini rivojlantirishda har bir guruh o'quvchilari yo'l qo'yayotgan kamchiliklar o'rganilishi va shu asosida turli metodlar yordamida ularni bartaraf etish lozim. Bu borada har bir pedagog shaxsiy tajribasidan kelib chiqqan holda, individual metodlar asosida yondashishi talab etiladi. Maktab darsliklariga hamda Ichki ishlar akademik litseylarining namunaviy dasturlariga bayon bilan bog'liq nazariy va amaliy mashg'ulot mavzularining kiritilishi bu boradagi muammolarning bir yechimi bo'la oladi. Chunki bu vaqtda o'qituvchi yozma nutqni rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratishi va xatolar ustida yanada ko'proq ishlashi uchun imkon bo'ladi.

<sup>2</sup> N.Zaripova. Ona tili darslarida yozma savodxonlikni oshirish usullari. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2021-yil, 9-son.12-bet.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. N.Zaripova. Ona tili darslarida yozma savodxonlikni oshirish usullari. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2021-yil, 9-son.11–12-bet.
2. J.Sherov. Ismingizni xatosiz yoza olasizmi? "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2016-yil, 10-son.13–15-bet.
3. D.Normurodova. Husnixat va yozma savodxonlikka qanday erishish mumkin? "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2021-yil, 8-son. 7–8.
4. R.Muslixiddinova. Bayonlar to'plami. Uslubiy ko'rsatma. (5-9-sinflar uchun). – Navoiy, 2022, 61-bet.

Xolisxon AKBAROVA,  
Qo'qon davlat universiteti Fakultetlararo tillar  
kafedrası o'qituvchisi, (PhD)  
E-mail: [xolisxonakbarova799@gmail.com](mailto:xolisxonakbarova799@gmail.com)

## ASQAD MUXTOR ASARLARIDA TARIX, ASTRONOMIYA, KIMYO SOHASIGA OID TERMINLARNING BIRGA QO'LLANILISHI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Asqad Muxtor asarlarida tarix, astronomiya, kimyo sohasiga oid terminlarning birga qo'llanilishi va ularning lingvopoetik vazifasi misollar asosida tahlil qilib berilgan. Adib asarlaridagi turli takrorlarning, undosh tovush takrorining badiiy estetik vazifalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** yoy, o'q, fazo, atom, planeta, so'z rudasi, radiy, poeziyaning yuragi.

**Аннотация:** в данной статье на примерах проанализировано совместное использование терминов, связанных с историей, астрономией и химией, в произведениях Аскада Мухтора и их лингвопоэтическая функция. Освещены художественно-эстетические функции разных повторов и повторений согласных звуков в произведениях писателя.

**Ключевые слова:** лук, стрела, космос, атом, планета, жила слова, радий, сердце поэзии.

**Annotation:** this article analyzes, with examples, the combined use of terms related to astronomy, and chemistry in the works of Asqad Muxtor and their linguopoetic function. The artistic and aesthetic roles of various repetitions and consonant sound repetition in the author's works are highlighted.

**Key words:** bow, arrow, space, atom, planet, vein of the word, radium, heart of poetry.

**Kirish.** Asqad Muxtor ijodida ijtimoiy-gumanitar fanlar terminosistemalarining ko'lamiga keng va rang-barang. Shuni hisobga olgan holda quyida ushbu sohadagi ayrim terminlarning badiiy matnda uslubiy xoslanish imkoniyatlarini umumiy planda tahlil qilishga harakat qildik. Aslida, sohaviy terminosistemalarning har biri alohida o'rganish manbai bo'la oladigan murakkab tizimdir. Masalan:

*Uzoq zamonlarda*

*Irg'ay tol egib,*

*Yoy yasadi odam,*

*O'q otdi...*

*... Planetani uyg'otmasdan*

*Asta qadamlab,*

*Yo'lning yarmini*

*Bosib o'tdi u.*

*O'ylarida unib idrok atomi,*

*Fazo birdan*

*Go'yo kichraydi... ("Uchish")*

Ushbu she'rda ham bir necha fan sohalariga mansub terminlar birga qo'llangan. Yoy, o'q terminlari tarix sohasiga; planeta, fazo astronomiya sohasiga; atom kimyo sohasiga oid terminlardir.

Ko'rinadiki, shoir mazkur she'rda turli fanlarga oid ilmiy terminlardan foydalangan bo'lsa-da, matnda ilmiy muhit hosil bo'lmagan. She'rdagi qayd etilgan kasbiy atama va terminlar o'z ma'nosida (yoy, o'q) hamda ko'chma ma'nolarda (fazo kichraydi,

planetani uyg'otmasdan, idrok atomi) ishlatilgan. Fazo kichraydi, planetani uyg'otmasdan birikmalari orqali jonlantirishdan foydalangan.

Asqad Muxtor ushbu she'rda kosmosni zabt etgunga qadar inson boshidan o'tkazgan uzoq va mashaqqatli yo'lni tasvirlagan. She'rda yoy, o'q terminlari o'z nominativ funksiyasida ishlatilgan, ijodkor bu terminlarga estetik vazifa yuklamagan. Ammo planeta, atom, fazo terminlari she'rda lingvopoetik ahamiyatli birlikka aylangan. Xususan, shoir planeta terminidan jonlantirish san'atini hosil qilishda foydalangan. U uyg'otmoq so'zini planetaga nisbatan qo'llash orqali unga go'yoki "jon ato qilgan". Natijada, she'rda obrazli badiiy tasvir hosil qilingan.

She'rda idrok sifatlovchisi atom terminiga birikib kelgan. Asqad Muxtor "idrok atomining inson o'ylarida unishi" ifodasini hosil qilishda ham jonlantirish san'atidan samarali foydalangan. Bu ifoda o'quvchini inson tasavvurlari, o'y-idrokining ko'z ilg'amas imkoniyatlari mavjudligiga ishonitiradi. Shoirning fikricha, atom inson aql-idrokining mahsuli; u fazoni mana shu aql-idroki bilan zabt etgan. Inson uchun fazo endi egallab bo'lmaydigan cheksiz koinot emas, u keng ko'lamli fazoni aqli bilan "kichraytira oldi".

Ko'rinadiki, she'rda terminlar ishtirokida o'ziga xos obrazli badiiy tasvir yaratilgan. Bu Asqad Muxtorning terminlardan foydalanish mahorati, uning so'z tanlashdagi topqirligidir.

### **Tadqiqot metodologiyasi (research Methodology).**

Asqad Muxtor asarlarida matematika, kimyo, anatomiya, adabiyotshunoslik terminlari birga kelgan holatlar kuzatiladi. Xususan, “Mayakovskiy uyida” she’rida uning mazkur fan sohalari terminlaridan mahorat bilan foydalanganligi kuzatiladi:

*Og’ir, zavqli mehnat,  
o’jarlik, chidam,  
Uyqusiz tunlarning sirli izlari.*  
Shoir

*minglab tonna  
so’z rudasidan*

*Misqollar  
radiyni izladi.*

*Bu varaqlar  
balki so’rib olgandir*

*Shoir yuragining kuchi, qudratin.*

*Ammo  
shular bilan mangu qolgandir,*

**Poeziyamizning shon-u shuhrati.**

Ushbu she’rda *tonna* matematika sohasiga; *ruda*, *radiy* kimyo sohasiga; *yurak* anatomiya; *poeziya* esa adabiyotshunoslikka oid terminlardir.

Asqad Muxtor she’rda *tonna* o’lchov birligini “so’zlar rudasi”ga nisbatan ishlatgan. *Tonna* o’lchov birligining bu tarzda qo’llanishida *og’irlik* tushunchasi emas, *ko’lam* ma’nosi anglashiladi. Demak, *tonna* birligi o’zining asl nominativ funksiyasidan uzoqlashib, qo’shimcha ma’no qirrasiga ega bo’lgan.

She’rda *ruda* termini ham, garchi bu termin “*tarkibida metall va uning birikmalari bo’lgan tabiiy mineral xomashyo*<sup>1</sup>” ma’nosini anglatganda, so’z leksemasiga nisbatan ishlatilgan. Shoir *ruda* termini orqali so’z ummonini nazarda tutgan, *radiy* termini (*radiy* – [lotin. *radus-nur*] *Mendeleev davriy sistemasining II guruhiga mansub radioaktiv element; issiqlik va nur energiyasi sohadigan kumushsimon oq metall*)<sup>2</sup> orqali shu ummondagi so’zlar ichidan radiydek noyob va nurli so’zni topa

olishlikka ishora qilgan. Shoir rudaning tarkibida turli xomashyolar mavjud bo’lishini inobatga olgan holda so’zni ham mana shunday “ummon” hisoblaydi. Bunday so’z ummonidan qimmatbaho metall hisoblangan “radiyni izlash”da majoziy ma’no mavjud. She’rda minglab tonna so’z ummonidan kerakli so’zni topa olishlik radiyni izlashdek mushkul ekanligiga ishora qilinmoqda, chunki bir gramm sof radiyni olish uchun bir necha tonna uran rudasini qayta ishlashga to’g’ri keladi. Shu sababli radiy tabiatda kamyob va noyob xomashyo hisoblanadi. Shoir she’r yozish mashaqqatini radiy olish mashaqqatiga qiyoslar ekan, o’ziga xos badiiy tasvir yaratadi. U she’rda *ruda* va *radiy* terminlari o’rnida “ko’p so’zlar ichidan” yoki “noyob” so’zlarini qo’llashi ham mumkin edi, biroq shoir bu terminlarni qo’llash orqali she’rining estetik quvvatini yanada oshirishga muvaffaq bo’lgan.

She’rda *yurak* so’zi *ruda*, *radiy* terminlaridan farqli tarzda terminologik vazifada qo’llanmagan, ammo bu so’zga nisbatan *kuch*, *qudrat* so’zining ishlatilishi natijasida matnda ta’sirchanlik ortgan.

She’rda *poeziya* terminiga nisbatan *shon-shuhrat* so’zining qo’llanilishida ham poetik maqsad ko’zda tutilgan. Shoirning fikricha, she’r varaqlari Mayakovskiy yuragining kuchi, qudratini ketkizgan, lekin bu adabiyot olamining – poeziyaning shon-u shuhrati uchun xizmat qiladi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** She’r matni tahlilidan ma’lum bo’ladiki, Asqad Muxtor unda turli fan sohalari terminlarini o’z yoki ko’chma ma’nolarida qo’llab, ularga estetik vazifa yuklagan.

Ijtimoiy-gumanitar, aniq va tabiiy fanlar terminlarining badiiy matnda uslubiy xoslanish imkoniyati bir xil emas. Shu bilan birga ularda ifodalangan uslubiy ma’no ham o’zgachadir. Ammo bu sohalar terminlari matnda birga qo’llanar ekan, o’ziga xos obrazli tasvirni hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur terminlarning badiiy matnda uslubiy xoslanish imkoniyatini baholash terminlarga qo’yiladigan talablar asosida emas, badiiy nutqda ularga yuklatilgan uslubiy ma’no asosida belgilanishi lozim.

1 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди, 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008. –Б.396.

2 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди, 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008. – Б. 337.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Akbarova X.M. Asqad Muxtor ijodida sohaviy atamalar lingvopoetikasi: Filol.fan. bo’yicha falsafa dok-ri (PhD)... diss. – Qo’qon, 2024. 83-bet.
2. Akbarova X.M. Asqad Muxtor asarlarida turli soha kasbiy atama va terminlarining birga qo’llanishidagi lingvopoetik jihatlar / Qo’qon DPI. Ilmiy xabarlar .2025 №3. 1944.
3. Asqad Muxtor. Chinor. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
4. Aliyev A. Y. O’zbek adabiy tili tarixidan materiallar. – Toshkent: O’zbekiston, 1996. 119-b.
5. Asqad Muxtor (bibliografik ko’rsatkich). 1-qism. – Samarqand: SamDU, 1983.
6. Asqad Muxtor (bibliografik ko’rsatkich). 2-qism. – Samarqand: SamDU, 1983.

Yulduz NURJANOVA,  
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti  
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

## XALQ OG'ZAKI IJODINI O'QITISHDA TURLI YONDASHUV VA METODLAR

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodi janrlarini o'qitishning turli yondashuv va usullari keng yoritib berilgan. Shuningdek, janrlarning bugungi kunda keng jamoatchilik, ta'lim va madaniyat sohasidagi o'rni ilmiy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, yondashuv va metod, evristik metod, doston, adabiyot o'qitish, tarbiya, ma'naviyat

**Аннотация:** в данной статье подробно освещены различные подходы и методы обучения жанрам узбекского устного народного творчества. Также научно проанализирована роль жанров в современной общественности, образовании и культуре.

**Ключевые слова:** устное народное творчество, подход и метод, эвристический метод, эпос, преподавание литературы, воспитание, духовность

**Annotation:** this article extensively covers various approaches and methods of teaching Uzbek folk oral genres. Also, the role of genres in the spheres of public life, education, and culture is scientifically analyzed.

**Key words:** folklore, approach and method, heuristic method, epic, teaching literature, upbringing, spirituality

Har bir millatning buyukligi uning ajdodlaridan avlodlarga o'tib kelayotgan madaniy va ma'naviy merosi bilan belgilanadi. Bu meros qatorida xalq og'zaki ijodining ham o'rni bor. Xalq yaratayotgan qo'shiqlar, raqslar, matallar, maqollar, ertaklar, afsonalar, dostonlar, topishmoqlar asrlar osha sayqallanib kelmoqda. Ana shu kabi xalq og'zaki ijodini o'rganish – xalqning o'tmishini, urf-odat, an'analari, tarixini, boy tilini, buguni va kelajagini bilish demakdir.

Xalq og'zaki ijodini o'qitishda turli yondashuv va metodlar mavjud bo'lib professor Q.Yo'ldoshevning bu boradagi qarashlari e'tiborga molikdir:

“Agar o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida muayyan ta'limiy natijani egallash uchun o'zlashtirgan bilimlarni eslab qolish va kerak vaqtda, ya'ni o'xshash vaziyat yuzaga kelganda ishga solish yo'nalishida faoliyat ko'rsatishi ko'zda tutilsa, ko'rgazmali bayon metodi asosida ish olib borilayotgan bo'ladi. O'quvchilarning adabiy ta'lim jarayonidagi faoliyati natijasida o'qitishning turli bosqichlarida egallashlari lozim bo'lgan didaktik marralar oldindan berilib, unga yetishish yo'llari ko'rsatilsa, ta'limning **dasturlash metodi** qo'llanilayotgan bo'ladi”.

Adabiyot o'qitish metodikasida qo'llanilayotgan quyidagi metodlardan xalq og'zaki ijodi namunalari o'qitish metodikasida ham foydalanish mumkin:

Agar o'qituvchi tomonidan ta'lim jarayonining bosqichlarida erishiladigan natijalar oldindan aniq belgilab berilib, bu natijalarga yetishish yo'llarini oldin o'zlashtirgan bilimlariga tayanib, o'quvchilarning o'zlari topishlari kerak bo'lsa, o'qitish **evristik metod** yordamida amalga oshirilayotgan bo'ladi.

Agar adabiy ta'lim jarayonining bosqichlarida erishiladigan natijalar ham, ularga yetishish yo'llari ham belgilab berilmagan bo'lsa, ta'lim mazmunini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilar hal qilinishi kerak bo'lgan jiddiy muammoga duch keladilar va uni o'zlari mustaqil hal etishlari

lozim bo'ladi. Ularning ta'limiy izlanishlari jiddiy xarakter kasb etadi. Ular yo'lni ham, yechimni ham o'zlari topishlari lozim bo'ladi. Demak, bunda o'qituvchi o'quvchilarni muammoli **ta'lim metodi** asosida ishlashga yo'naltirgan bo'ladi.

“Fikriy hujum” – o'quv muammolarini hal qilishda keng qo'llaniladigan metod. U qatnashchilarning tasavvurlari, bor bilimi va imkoniyatlaridan unumli foydalanishga yo'naltirilgan. Mazkur metod o'quvchi oldiga qo'yilgan har qanday muammoli masalaga ko'p sonli yechimlar topishga imkon yaratadi. Fikriy hujumdan foydalanilganda quyidagi qoidalarga amal qilinadi: 1. Bu usulni qo'llash jarayonida baholashlarga yo'l qo'yilmaydi. Agar jarayonning o'zida g'oyalar baholanadigan bo'lsa, qatnashchilar o'z fikrlarini himoya qilishga berilib ketib, yangi fikr aytishdan chalg'iydilar. 2. Har bir o'quvchi bitta masala yuzasidan o'ta xilma-xil mulohazalar aytishiga yo'l qo'yiladi. O'quvchilarda kutilmagan fikr, favqulodda g'oyalar tug'ilmasa, qatnashchilar bir-birlarini takrorlashga majbur bo'ladi. 3. G'oya va fikrlarning miqdori rag'batlantiriladi. Ma'lumki, miqdor odatda o'sib sifatni keltirib chiqaradi. Qatnashchilarga tasavvurga erk berish imkoniyati yaratilishi kerak. Bu erkinlik natijasida betakror va kuchli g'oyalar tug'iladi”.

Xalq og'zaki ijodi misolida ham “Fikriy hujum” metodini qo'llash quyidagi taxminiy bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Doston matnini o'qib tushunishga tayyorgarlik. “Fikriy hujum” usulida o'tiladigan dars boshlangunga qadar u darsda hal qilinishi kerak bo'lgan muammo yoki bajarilishi lozim topshiriqdan o'quvchilar xabardor qilinishlari lozim. Doston matnidagi dalillar topish. Darsda o'quvchilar hal etishlari kerak bo'lgan muammo aniq va tushunarli bo'lishi zarur. Berilayotgan topshiriqni taxtaga yozib qo'yish, bir necha kun oldin uni o'quvchilar bilan muhokama qilish kerak.

1 Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi / o'quv qo'llanma: – Toshkent, 2018. 352-b.

2. Dastlabki mashq. "Fikriy hujum" yordamida hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni yechishga o'quvchilarni ruhan va aqlan tayyorlash uchun dastlabki mashq o'tkazish foydalidir.

3. Fikrlarni olish. O'quvchilar har qanday to'g'ri-noto'g'ri, yaxshi-yomon fikrlarni bildirishdan cho'chimasliklari uchun quyidagi qoidalar taxtaga yozib qo'yilishi va unga hammaning amal qilishi ta'minlanishi kerak.

4. Xalq og'zaki ijodini o'qitishda tanqid qilmaslik va baholamaslik (aytilayotgan fikrlar qandayligidan qat'i nazar hech kim hech kimni biror yo'sinda tanqid qilmasligi, dakki bermasligi, munosabat bildirmasligi kerak).

5. Noto'g'ri fikr bo'lmaydi (esga kelgan har qanday fikr o'ylab o'tirmay, aytilishi kerak. Bo'lmag'ur, "ahmoqona", to'g'ri kelmaydiganday ko'rinadigan fikrlar ba'zan foydali g'oyalarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi ham mumkin).

6. Fikrlarning miqdori muhim (fikrlar qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi, chunki ortiqcha g'oyalarni qisqartirish, yetarlicha bo'lmay qolgan fikrlarni ko'paytirishdan osonroq).

7. Fikrlarni almashtirish, qo'shish, yaxshilash lozim (hammaning fikri olinib, ular maqsadga muvofiq tarzda o'rinashtirilishi, saralanishi, tahrir qilinishi, tahlil etilishi kerak).

8. Bemalol bo'lish, o'ynab zavq olish kerak ("fikriy hujum" jarayoni o'yin va zavqlanish ruhida o'tishi kerak. U qiziqarli bo'lsa, ko'proq samara keltiradi. "Fikriy hujum" o'yin ruhida, qiziqarli o'tkazilsa, guruh ichida do'stona vaziyat yuzaga kelib, o'quvchilar bir-birlariga o'zaro yordam ko'rsatishadi).

9. Jim turish ham foydali (ayrim o'quvchilarning o'ylanib jim qolishlariga xayrixohlik bilan qarash kerak, jim o'ylanib qolgan odam noyob bir fikrni aytib yuborishi ham mumkin).

10. Yechimni topish. O'quvchilar "fikriy hujum"ga kirishganlaridan keyin belgilangan vaqt tugab borayotganda yoki yechimga olib boradigan fikrlar aytib qo'yilganda, o'qituvchi fikriy hujumni to'xtatib, oxirgi bosqichga o'tish, ya'ni muammoni yechish kerakligini esga soladi.

11. Tatbiq. Agar "Fikriy hujum" natijasida kelingan xulosa amaliyotga tatbiq etiladigan bo'lsa, uni qaysi sohaga qay tarzda qo'llash mumkinligi haqida o'qituvchi to'xtab o'tgani ma'qul.

Adabiyot darslaridagi badiiy asar tahlilida asar, odam yoki hodisa, ularning o'zaro aloqasi yoki munosabati ochiladi. Badiiy asar insonning ichki dunyosi, fikr, tuyg'u va tushunchalariga ta'sir ko'rsatadi. Aynan ana shu ta'sir o'quvchilarda turli xil dunyoqarashni shakllantirishi mumkin. Buning uchun o'qituvchi quyidagicha savollar tuzishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. "Alpomish" dostonida Boybo'ri va uning o'g'li Hakimbek o'rtasidagi munosabatlarni qanday sharhlaysiz?

2. Asarda tasvirlangan oilaviy munosabatlarning qaysi birlari bizning mentalitetimizda qadrli?

3. Asarda Alpomish va Barchinoylarning muhabbati orqali o'zbek xalqi hayotining qaysi jihatlari ko'rsatilgan?

4. Millat taqdiri bilan bog'liq voqealarni asardan aniqlab, sharhlashga harakat qiling.

Metodist olimi Q.Husanboyeva yozganidek, "Savol-topshiriqlar o'quvchilarni olamni va insonlarni kuzatishga, ularning holatini his qilishga va nihoyat o'z-o'zini anglashga undaydi. Bu jarayonda o'qituvchi ham o'z navbatida o'quvchilarni kuzatib, ularning har biri shaxsining, ma'naviyatining darajasini aniqlab olishiga imkon beradi".<sup>2</sup>

Shubhasiz, bu savollarga sinfdagi o'quvchilar o'zlarining mustaqil qarashlari orqali javob berishga intiladilar, bu intilishlari jarayonida ularda yuqorida aytib o'tganimiz tanqidiy munosabat yuqori o'rinni egallashi tabiiy. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarning javoblarini tinglab ularning dunyoqarashlarini tahlil etish orqali milliy ongini shakllantirishga qaratilmog'i maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday qilingandagina o'quvchilarda milliy ong taraqqiy etishiga erishiladi.

Ta'lim jarayonini samaradorli tashkil etish jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq. Shu bois har bir pedagog metodika bo'yicha tadqiqotlar olib borish hamda uslublar yaratishda zamonning eng ilg'or usullaridan biri – har bir narsa va hodisaga majmui sifatida yondashish zarur. Aks holda faoliyat an'anaviy tus olib, kechagi kunni ifoda etib qoladi. Shu nuqtayi nazardan har qanday pedagogik faoliyat davomida pedagogik texnologiya tamoyillari markaziy o'rinda turishi kerak. Shundagina pedagogik faoliyat zamonga mos bo'lib, jamiyat ijtimoiy buyurtmasini sharaf bilan bajarish mumkin.

2 Хусанбоева Қ. "Гулнор опа" муаммоси ва унинг ечими.// Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2004, №6. –Б. 12.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мадаев О., Собитова Т. Халқ оғзаки поэтик ижоди. –Тошкент:Шарқ, 2001
2. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi / o'quv qo'llanma: – Toshkent, 2018. 352-b
3. Хусанбоева Қ. "Гулнор опа" муаммоси ва унинг ечими.// Тил ва адабиёт таълими. –Тошкент, 2004, №6. –Б. 12.
4. Хусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – Б. 224–225

Gulxayo ELMURODOVA,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti  
"Xalqaro va audiovizual jurnalistika" kafedrası dots.v.b., PhD.

## BOLALAR AUDIOVIZUAL DASTURLARIDA AXBOROT YETKAZISHNING KOMMUNIKATIV MADANIYATGA ASOSLANGAN ZAMONAVIY MODELLARI

**Annotatsiya:** maqolada O'zbekistonda audiovizual mediada maktabgacha yoshdagi bolalar uchun media-ta'limning sotsiologik, huquqiy, madaniy, psixologik, san'at tarixi haqida tayyorlanayotgan ko'rsatuvlar tahlil qilinadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun pedagogikaning zamonaviy yo'nalishi sifatida maktabgacha media ta'lim konsepsiyasining mohiyati, maqsadi, vazifalari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha media ta'lim, mediasavodxonlik, animatsiya, media kutubxona, media ijodkorlik, media-ta'lim o'yini, media makon.

**Аннотация:** в статье анализируется социологическая, правовая, культурологическая, психологическая и искусствоведческая история медиаобразования дошкольников в аудиовизуальных СМИ Узбекистана. Как современное направление педагогики дошкольников раскрыты сущность, цель и задачи концепции дошкольного медиаобразования.

**Ключевые слова:** дошкольное медиаобразование, медиаграмотность, анимация, медиатека, медиаторчество, медиаобразовательная игра, медиапространство.

**Annotation:** the article analyzes the sociological, legal, cultural, psychological, and art history of media education for preschool children in audiovisual media in Uzbekistan. As a modern direction of pedagogy for preschool children, the essence, purpose, and tasks of the concept of preschool media education have been revealed.

**Key words:** preschool media education, media literacy, animation, media library, media creativity, media-educational game, media space.

**Kirish.** Zamonaviy dunyo haqli ravishda ommaviy kommunikatsiyalar olami deb ataladi. Zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalari axborot texnologiyalari, loyiha faoliyati, ta'lim va bilimlarni o'zlashtirishning masofaviy shakllari, elektron san'at bilan kirib kelmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar doimiy ravishda o'sib borayotgan ma'lumotlar oqimi bilan shug'ullanishlari kerak, ular qidiruv qobiliyatlarini namoyon etishlari, olingan ma'lumotlarni mustaqil ravishda tanqidiy baholashlari kerak bo'lganda sezilarli qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Dunyo olimlari ta'kidlaganidek: "Haqiqiy savodli bo'lish uchun ommaviy axborot vositalari olamida savodli bo'lishi kerak". Mashhur kanadalik sotsiologning so'zlari bugungi kunda har qachongidan ham dolzarbdir. Media ta'lim nima, uning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat, degan savol keyingi yillarda pedagogik muhitda eng munozarali masalalardan biriga aylandi. Maktabgacha yoshdagi bolaning media savodxonligi nimani anglatadi va maktabgacha media ta'limning maqsad va vazifalari qanday?

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Maktabgacha pedagogikaning yo'nalishi sifatida maktabgacha media-ta'lim hozirda kam o'rganilgan. Bizning

fikrimizcha, maktabgacha ta'lim muassasalarida media ta'limning maqsadi media ta'lim vositasida bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga hissa qo'shishdir. Maktabgacha media-ta'limning natijasi bu mediasavodxonlik – maktabgacha yoshdagi bola shaxsining muhim sifati. Mediasavodxonlik syujetni tushunish, media-matnlarning ekspressiv vositalarini (ma'lum yoshga to'g'ri keladi) ajratish qobiliyatida namoyon bo'ladi, ommaviy axborot vositalari ijodkorligi va media-ma'rifiy o'yinlar orqali iste'mol qilinadigan ommaviy axborot vositalarining sifatini tanlash va baholashga bo'lgan munosabatini asoslash – bu yosh guruhi uchun yetakchi faoliyati nazarda tutiladi.

Shunday qilib, biz maktabgacha media ta'limni maktabgacha yoshdagi bolaning media savodxonligini shakllantirish uchun media-ijodkorlik va media-ta'lim o'yinlari orqali har tomonlama rivojlantirish jarayoni – maktabgacha yoshdagi bola shaxsining muhim sifatini rivojlantirishning hozirgi sharoitlarida aniqlaymiz. Axborot maydoni. Zamonaviy kontekstda media ta'lim. Axborot jamiyatini rivojlantirish shaxsning media mentalitetini shakllantirishning asosi sifatida media-ta'limning oliy maqsadi va bolalarning axborot, media va huquqiy madaniyatini shakllantirish, ularning mustaqilligini rivojlantirishning asosiy yo'li sifatida

ko'rib chiqilishi kerak. Fikrlash, bu ularni salbiy media kontentidan himoya qilishning eng samarali kafolatidir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mamlakatimizda maktabgacha media ta'lim yagona amaliy xarakterga ega bo'lganligi sababli nazariy jihatdan - bular maktabgacha ta'lim media-pedagoglari bir nechta nashrlari va maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsiyatining ma'lum psixologik-pedagogik xususiyatlarini media-ta'lim orqali rivojlantirishga bag'ishlangan ishlari biz maktabgacha media ta'limiga oid quyidagi masalalar bo'yicha nufuzli fikrlarini bilish uchun yetakchi media o'qituvchilari va jurnalistlar bilan birgalikda so'rovnoma tashkil etdik:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga mediasavodxonlikni o'rgatish dolzarb va zarur deb hisoblaysizmi?

2. Sizning fikringizcha, maktabgacha media ta'limning vazifalari nimalardan iborat?

3. Sizningcha, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan media-ta'lim darslarini qurishning eng yaxshi usuli qanday ommaviy axborot vositalari?

4. Sizningcha, animatsion filmlarga (kompyuter, audio ertaklar, video, telemultfilmlar) tayanish maktabgacha yoshdagi bolalar uchun media-tarbiyaning barcha muammolarini hal qila oladimi?

5. Maktabgacha ta'lim muassasalari va maktabgacha yoshdagi bolalar oilalarida pedagogik-psixologik jihatdan to'g'ri tanlangan animatsion filmlarni sifatli tanlash natijasida shakllangan media-kutubxonani yaratish zarur deb hisoblaysizmi?

6. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mediasavodxonligini shakllantirish bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish uchun maktabgacha tarbiyachilarga qanday animatsion filmlarni tavsiya qilasz?

7. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bo'sh vaqtini tashkil etish uchun ota-onalar va tarbiyachilarga qanday animatsion filmlarni tavsiya qilgan bo'lardingiz?

Mavjud ijtimoiy-madaniy vaziyatdan kelib chiqqan holda, media-ta'lim bolalarni maktabgacha yoshdan boshlab tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, shuni yodda tutish kerakki, media ta'lim informatika emas va kompyuter bilan ishlashni o'rgatish maqsadini qo'ymaslik kerak. O'yin sharoitida bolalarga turli xil ma'lumot materiallari (vizual materiallar sifatida) berilishi mumkin, shu bilan birga, ko'rilgan yoki tinglangan narsalarni muhokama qilish juda muhim. Bolalikda ekran materialini idrok etish ma'lum bir o'ziga xoslikka ega. Ular uchun ekrandagi yorqin qahramon, hatto salbiy qahramon bo'lsa ham, ko'pincha hayotiy qahramonga aylanadi. Shunday ekan, o'qituvchining o'rni katta. Suhbat qanday tashkil etilishi nafaqat bolalar bog'chasida, balki maktabda ham ta'limga bog'liq bo'ladi, chunki

maktabgacha yoshda bilim va ko'nikmalarning asosi shakllanadi va rivojlanish maktabda davom etadi".

"Bugungi kunda bolalarga boshlang'ich savodxonlik va mediasavodxonlikni o'rgatish yonma-yon borishi kerak. Qalam kabi odamning paydo bo'ladigan fikrlari uning tasvirlari va dunyo haqidagi g'oyalarining davomi bo'ladi. Shu bilan birga, shuni bilish kerakki, eng nozik yoshdan boshlab zamonaviy bola ko'plab ommaviy axborot vositalari bilan o'ralgani, uning uchun bu tabiiy muhit bo'lib, u o'zini oson his qiladi. Voyaga yetgan kishi esa, turli holatlarga ko'ra, media olamini begona yoki dushman deb biladi. Bunday vaziyatda savol tug'ilishi mumkin, kim kimni o'rgatadi? Biz maktabgacha yoshdagi bolalar o'z tarbiyachilari va ota-onalariga qaraganda media savodxonligi ko'proq degan fikrdan yiroqmiz, biroq axborot bo'shlig'ining bu hodisasini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

**Tahlil va natijalar.** Maktabgacha yoshdagi bolalar jurnalistikasining bolalar dunyoqarashini kengaytirishga, hayotiy rivojlanish qobiliyatiga ega bo'lgan tarbiyani shakllantirish funksiyasi kontekstida ko'rib chiqiladi. Bunday OAV materiallari bolalar bilimlarini kengaytiradi, uning ruhiy olamini boyitadi. Albatta, "ma'lumot uzatish kanallari tizimining keng rivojlangani bois bolalar tarbiyasiga katta hissa qo'shadigan vosita bu - bolalar uchun mo'ljallangan jurnalistik materiallardir". Bolalar uchun ixtisoslashgan OAVlar bolalar tomonidan hayotiy faktlarni tanlash, ularni sharhlash va targ'ib qilish, voqelik to'g'risidagi tegishli ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni tarqatish, turli ijtimoiy qatlamlarning axborot ehtiyojlarini qondirish uchun "mas'ul" asosiy manba sifatida talab qilinadi.

Bolalar jurnalistikasi yangi kognitiv tajribaga ega bo'lish, qiziqish, kuzatish, tadqiqot va tajribalarga qiziqishni rivojlantirish usuli sifatida uni hal qilishda juda yaxshi yordam berdi.

Bolalar mediadasturlarining asosiy vazifasi, birinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalarning hayotni anglash tajribasini shakllantirish va ikkinchidan, bolalarda boshlang'ich ta'lim ko'nikmalarini shakllantiradi, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, tashkilotchilik, intizomni rivojlantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, ixtisoslashgan bolalar jurnalistikasining eng asosiy xususiyatlaridan yana biri bu pedagogik faoliyat ham hisoblanadi. U bolalarni tarbiyalash va o'qitishga bo'lgan yondashuvni o'zgartiradi, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy salohiyatini ochib berdi. Shu sababdan jurnalistikaning bu sohasida mohir pedagoglar, psixologlar ham faoliyat yuritishi mumkin.

Bolalar mediadasturlari tarkibida rolli va o'quv o'yinlari, improvizatsiya, rasmlar hamda fotosuratlarini chizish, suhbatlar, muhokamalar kabi og'zaki,

vizual va amaliy usullar ko'rsatiladi. Buning asosida bolalarda quyidagi xususiyatlar shakllanadi:

- Professional haqida dastlabki g'oyani shakllantirishni ta'minlaydi.
- Kognitiv jarayonlar rivojlanadi, shu jumladan. kuzatish va taqqoslash, turidagi umumiy payqash, asosiy ikkilamchidan farqlash, qoliplarni topish va ulardan vazifalarni bajarishda foydalanish,
- Qidiruv va tadqiqot faoliyatiga qiziqish shakllanadi,
- Muloqotning turli shakllaridan foydalaniladi, monologik va dialogik nutq rivojlanadi, so'z boyligi boyitiladi,
- O'quvchilar o'zaro munosabatlarda ishonch va bag'rikenglik ko'rsatishni o'rganadilar;
- Tashkilotchilik qobiliyati, malaka, harakat ko'nikmalari shakllanadi,
- Kichik guruhda va mustaqil ishlash, muvofiqlashtirish qobiliyati rivojlanadi.

Bundan tashqari bugungi kunda O'zbekistonda "Tong yulduzi", "Klass" gazetalar va "2x2", "Znayka", "G'uncha" "Gulxan", "Rodnichok", "Yosh kuch", "Sinf dosh" kabi jurnallar, "O'zbekiston", "Sport", "Yoshlar", "Madaniyat va ma'rifat", "Dunyo bo'ylab" va "Toshkent", "Navo" telekanallari, "Yoshlar", "Oriyat dono", "Mash'al", "Poytaxt" radiokanallarining har birida bolalar uchun materiallar, ko'rsatuv va eshittirishlar mavjud. "Yoshlar" teleradiokanali qoshida 2013-yil 1-iyun kuni ochilgan "Bolajon" va 2021-yilda ochilgan "Aqlvoy" telekanallaridagi ko'rsatuvlar kundan - kunga mazmunan boyib bormoqda. Aytish joizki, mazkur OAV bolalar auditoriyasi uchun qiziqarli bo'lgan axborotlarni yetkazadi. Bunda bolalarning tili, dunyoqarashi, qiziqishlari, o'y-fikrlari to'laqlik aks etishi ularning xohish-istaklari, takliflari asosida amalga oshiriladi. Shu bois, bolalar o'z nashrlarini qiziqib tomosha qilishga mo'ljallangan eshittirishlarni maroq bilan ko'radilar. Unda o'zlari ham ishtirok etishga harakat qiladilar. Bolalar masalalarining OAVda yoritilishi haqida gap ketganda, avvalo kattalar jurnalistikasi bilan bolalar jurnalistikasining o'xshash va farqli jihatlarini yaxshi ajratib olish kerak bo'ladi.

O'xshash jihati: bolalar va kattalar jurnalistikasining o'xshashligi har ikkalasi ham auditoriyaga axborot uzatish bilan shug'ullanadi.

Bolaning ko'plab universal kognitiv harakatlarining shakllanishi maktabgacha yoshda sodir bo'lishini hisobga olsak, u holda maktabgacha yoshdagi bolalarga media savodxonligini (uning asoslarini) o'rgatish muhimdir. Bu yerda asosiy narsa AKT, televideniye va boshqalar bilan o'zaro munosabatlarni mustaqil tartibga solish ko'nikmalarini shakllantirish bo'lishi kerak.

Ommaviy axborot vositalariga layoqatli shaxsni shakllantirish, shubhasiz, yoshlikdan boshlanishi

kerak. Bu jarayonda nafaqat media-pedagoglar, balki ota-onalar ham ishtirok etishi kerak. Bir qator xorijiy mamlakatlarda, masalan, Kanadada maktabgacha yoshdagi bolalar uchun media-ta'limning qiziqarli tajribasi mavjud. Shubhasiz, bu ta'lim va tarbiyaning zarur tomonidir. Bu hatto mediasavodxonlik haqida emas, balki ushbu konsepsiyaning to'liqligidagi media-ta'lim haqida bo'lishi kerak. Bir tomondan, kichkina odam tug'ilgandanoq haqiqatan ham ommaviy axborot vositalari olamiga sho'ng'ib ketganligini isbotlashning hojati yo'q, boshqa tomondan, u butun umri davomida, hatto o'z xohishiga qarshi yoki undan keyin ham bu dunyoda qolishga mo'ljallangan.

Hozirgi maktabgacha yoshdagi bolalarning aksariyati, raqamli dunyoning vatanlari media muhitda o'zini ancha ishonchli his qiladi, televizordan foydalanadi, internet telekanallarini tomosha qiladi, ijtimoiy tarmoqlarni yaxshi biladi. Buning sababi, ommaviy axborot vositalari bizning bolalarimiz muhiti va ularning ota-onalari juda yosh, shuningdek, ko'pincha global resurslardan faol foydalanuvchi hisoblanadi. Bolalarning ommaviy axborot vositalari bilan o'yin-kulgilari, afsuski, ota-onalar tomonidan nazorat qilinmaydi va agar ular nazorat qilinadigan bo'lsa, unda, qoida tariqasida, sifat jihatidan emas, balki miqdoriy (vaqt cheklolari bo'yicha) bo'ladi.

**Xulosa va takliflar.** Aksariyat ota-onalarning o'zlari farzandida mediasavodxonlik asoslarini qanday shakllantirish bo'yicha zarur bilimga ega emaslar. Shuning uchun, albatta, bolalarning media-ta'limini imkon qadar erta boshlash kerak, ular turli xil va janrlardagi media matnlar bilan tanishishlari kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarga media savodxonligini o'rgatishni dolzarb va zarur deb bilaman, chunki bu yosh audiovizual ma'lumotni idrok etishga sezgir, uning xususiyatlaridan biri uzatilgan tasvirlarning ko'rinishidir. Mediasavodxonlik bolalarda vizual ma'lumotni og'zaki ma'lumotga aylantirish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi, bu ularning nutqining rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga animatsion filmlar va boshqa ommaviy axborot vositalarining eng yaxshi namunalari asosida mediasavodxonlikni o'rgatish bolalarning axloqiy va estetik tarbiyasi uchun foydali bo'ladi, shuningdek, o'quvchi shaxsining media kompetensiyasini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning turli audiovizual media-matnlarga bo'lgan qiziqishlarining yuqoriligini inobatga olgan holda, ularni mediasavodxonlikka o'rgatish pedagogik faoliyatning o'ta muhim jihatidek tuyuladi. Bolalarning ijodga katta qiziqishi tufayli ijodiy faoliyatdan foydalanish ayniqsa samarali bo'lishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ommaviy axborot vositalaridagi matnlardagi qahramonlarning ichki xususiyatlarini ochib beradigan

vositalarni aniqlash va o'z ishlarida foydalanish qobiliyatini o'rgatish muhimdir, bu orqali ularning munosabatlarini tahlil qilishga o'tish mumkin. Mavjud vositalardan foydalangan holda hamma narsani ko'rishga, tinglashga, takrorlashga harakat qiladi, ya'ni unga ommaviy axborot vositalarini o'rgatish, ommaviy axborot vositalari bilan ishlashni o'rgatish kerak. Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida asosiy rol (va bu boshlang'ich sotsializatsiya davri) oilaning kundalik hayotining umumiy madaniy fonida o'ynashiga ishonaman. O'qituvchilar, kutubxonachilar va boshqalarning sa'y-harakatlari, ular nimani va qanday o'qishlari, ota-onalarni kuzatishlari, ota-onalarning ommaviy axborot vositalariga qanday munosabatda bo'lishlari oldin orqada qoladi. Ya'ni, bolalarga mediasavodxonlikni o'rgatish bo'yicha har qanday chora-tadbirlarni tarbiyalash va ota-onalarga maslahat berishdan boshlash kerak. Bu yoshda bolalar ommaviy axborot vositalarining iste'molchisi bo'lganligi sababli, ular uni qanday qilib adekvat idrok qilishni o'rganishlari maqsadga muvofiqdir. Bu dolzarbdir. Media-ta'lim jarayoni qanchalik erta boshlansa, shaxsning media kompetensiyasining keyingi rivojlanishi uchun yaxshidir. Bu yerda,

hayotning birinchi yillaridan boshlab, ommaviy axborot vositalari dunyosi bilan muloqot qilish madaniyatini rivojlantirish kerak va ota-onalar birinchi o'qituvchilarga aylanishadi, chunki maktabgacha yoshdagi bolaning birinchi media tajribasi ularning didi va afzalliklaridir. Birinchi savolga mutaxassislarning javoblarini tahlil qilish jarayonida maktabgacha media ta'limning zarurligi va dolzarbligi haqida umumiy kelishuv mavjud edi. Mutaxassislarning fikricha, media-ta'lim bugungi kunda maktabgacha pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Mutaxassislar, shuningdek, bir ovozdan bolalarning mediasavodxonligi muammosini hal etishda oilaning yetakchi roli, "Gulxan" jurnalida "Kompyuter" bo'limi mavjud bo'lib, unda vakolatli mualliflar ota-onalar va o'qituvchilarga "oldin" va "keyin" ko'rishni tashkil etish, tanlash bo'yicha maslahatlar beradi. Maktabgacha yoshdagi bolaning mediasavodxonligini shakllantirish jarayonida har tomonlama rivojlanishiga hissa qo'shish – syujetni tushunish, media ishining ekspressiv vositalarini farqlash, tanlash va baholashga bo'lgan munosabatini media ijodkorligi va media-ta'lim o'yinlari orqali iste'mol qilinadigan ommaviy axborot vositalarining sifatiga asosiy urg'u beriladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Андерсен, Н., Дунсан Б. & Пунгенте, Ж. Ж. (2020). Медиа таълим - Болалар ва оммавий ахборот воситалари: расм. Таълим. иштирок этиш. Гетеборг: ЮНЕСКОнинг болалар ва зъравонлик бўйича халқаро ҳисоб-китоб маркази Нордисомдаги экранда, pp. 139-162.
2. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Таълим фан ва маданият ташкилоти ЮНЕСКОга йўлланган тавсиялар. Ин: Оммавий ахборот воситалари ва рақамли аср учун таълим. Вена: ЮНЕСКО, 2022, 273–274-бетлар.
3. Дунсан, Б. А Медиа саводхонлик: Муваффақиятли медиа тадқиқотлари учун ингредиентлар, 2010. 265–288-бетлар.
4. Жон Пунгент, С. Ж. Барри Дунсан ва бошқалардан. Медиа саводхонлиги бўйича қўлланма, Онтарио Таълим вазирлиги/36–72-бетлар.
5. Лаура Ледерер, 2020. Бошқа давлатлар медиа таълим соҳасида нима қилмоқдалар? <http://www.medialit.org/reading>.
6. Медиа Нетворк, оммавий ахборот воситаларидан хабардорлик. [english/teachers/media\\_education/media\\_education\\_chronology.cfm](http://english/teachers/media_education/media_education_chronology.cfm)
7. Медиа тадқиқотлари маркази. Медиясаводхонлик тарихи . 255–300 - бетлар.
8. Қосимова.Н. Тошпўлатова.Н. Ўзбекистон оммавий ахборот воситаларида болалар мавзусини ёритишнинг назарий ва амалий асослари. Ўқув қўлланма. –Т.: ЎзДЖТУ, 2014. 108-б.
9. Тошпўлатова Н. Болалар масалаларини оммавий ахборот воситаларида ёритишда журналист масъулияти. Илмий мақолалар тўплами, –Т., 2014.
10. Жалилова Б. Ўзбек болалар публицистикаси. –Т.: Фан, 2006. 5-б.
11. Атакулова.Э. Замонавий матбуотда болалар нашрлари:тадриж, таҳлил ва талқин. Маг. Дисс. –Т.: ЎзДЖТУ, 2012. 89-б.
12. Юнусов.М Мустақиллик даврида Ўзбекистонда болалар журналистикасининг тараққиёти:ютуқлар, муаммолар ва ечимлар. (босма нашрлар мисолида). Дисс. – Т.: ЎзМУ, 2019. 128-б.
13. Маматова.Я, Сулаймонова.С. Ўзбекистон медиатаълим тараққиёти йўлида. Ўқув қўлланма, – Т.: "Экстремум-Пресс" МЧЖ. 2015. 103-с.
14. Джуманова.С. Медиатаълим оммавий коммуникация маҳсули сифатида. Дисс. – Т.: ЎзДЖТУ, 2014. 117-б.

# MUHANDISLIK TA'LIMIDA INGLIZ TILI O'QITISH JARAYONIDA MULTIMODAL VA INTERFAOL MATERIALLARDAN FOYDALANISH

**Annotatsiya:** ushbu maqolada muhandislik yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga ingliz tili o'qitish jarayonida multimodal (matn, vizual, audio, video, grafik) va interfaol (simulyatsiya, virtual laboratoriyalar, interfaol platformalar) o'quv materiallaridan foydalanishning didaktik afzalliklari tahlil qilinadi. Zamonaviy texnologiyalar o'quvchini jarayonga faol jalb etish, texnik terminologiyani samarali o'zlashtirish hamda real muhandislik kommunikatsiyasiga yaqin sharoit yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** *multimodal ta'lim, interfaol materiallar, muhandislik ta'limi, texnik ingliz tili, ESP, raqamli platformalar, simulyatsiya, virtual laboratoriya, kasbiy kompetensiya.*

**Annotation:** this article explores the didactic and methodological characteristics of using multimodal (text, images, graphics, tables, audio, video, animations, and 3D models) and interactive (simulations, virtual laboratories, online platforms, testing systems, communication-based applications) materials in teaching English within engineering education. In the context of digital learning environments, English for engineering students is viewed not only as a general means of communication but also as a professional competence enabling them to read technical documentation, participate in international projects and conferences, and engage in scientific and technical information exchange.

**Key words:** *multimodal learning, interactive materials, engineering education, technical English, ESP, digital platforms, simulation, virtual laboratory, professional competence.*

**Аннотация:** в данной статье рассматриваются дидактические и методические особенности использования мультимодальных (текст, изображения, графики, таблицы, аудио, видео, анимации, 3D-модели) и интерактивных (симуляции, виртуальные лаборатории, онлайн-платформы, тестовые системы, коммуникативные приложения) учебных материалов в процессе преподавания английского языка в инженерном образовании. В условиях цифровой образовательной среды английский язык для студентов инженерных специальностей рассматривается не только как средство общего общения, но и как профессиональная компетенция, обеспечивающая чтение технической документации, участие в международных проектах и конференциях, а также включённость в научно-технический обмен информацией.

**Ключевые слова:** *мультимодальное обучение, интерактивные материалы, инженерное образование, технический английский, ESP, цифровые платформы, симуляции, виртуальная лаборатория, профессиональная компетенция.*

Muhandislik ta'limi zamonaviy innovatsion iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biri bo'lib, unda talabalardan yuqori darajadagi texnik bilimlar, analitik tafakkur, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko'nikmalari va ko'p tilli kommunikativ kompetensiyalar talab etiladi. Global ilmiy-texnik axborotning katta qismi ingliz tilida e'lon qilinishi bu tilni muhandislik yo'nalishida strategik resursga aylantiradi.

Raqamli texnologiyalar, masofaviy ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar paydo bo'lishi ingliz tilini muhandislik ta'limi bilan integratsiyalash uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Multimodal ta'lim konsepsiyasi (verbal, vizual, kinestetik va audio kanallarni birlashtirish) Mayer,

Kress, van Leeuwen kabi tadqiqotchilar tomonidan nazariy jihatdan asoslangan bo'lib, uning texnik ta'limga tatbiqu muhandislik talabalari bilan ishlashda ayniqsa dolzarbdir.

Mazkur maqolaning maqsadi – muhandislik ta'limida ingliz tili o'qitish jarayonida multimodal va interfaol materiallardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslarini ochib berish, amaliy tajriba natijalarini tahlil qilish hamda didaktik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi:

1. Multimodal va interfaol materiallar muhandislik talabalari uchun texnik ingliz tilini o'rganishda qanday afzalliklarga ega?

2. Bunday materiallarni qo'llash talabalar motivatsiyasi, terminologik zaxirasi va kasbiy muloqot ko'nikmalariga qanday ta'sir ko'rsatadi?

3. Multimodal va interfaol yondashuvni ta'lim dasturlariga samarali integratsiyalash uchun qanday didaktik shart-sharoitlar zarur?

Multimodal ta'lim g'oyasi shundan iboratki, ma'lumot bir vaqtning o'zida bir nechta semiotik kanallar orqali (matn, rasm, tovush, harakat, grafika) uzatiladi va talaba uni kognitiv jihatdan integratsiyalaydi. Mayerning Multimedia Learning nazariyasi bo'yicha, axborotning ikki kanalda (vizual va verbal) birgalikda qayta ishlanishi chuqur o'zlashtirishga olib keladi, biroq kognitiv yuklama muvozanatda bo'lishi kerak. Muhandislik ingliz tilida bu, masalan, issiqlik almashinuvi jarayonining grafik diagrammasi, unga mos texnik atamalar va qisqa izoh matni bilan birgalikda taqdim etilishi orqali namoyon bo'ladi.

ESP (English for Specific Purposes) va CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvlari muhandislik ta'limida ingliz tilini o'qitishning nazariy bazasini shakllantiradi. ESP texnik soha diskursini, janr xususiyatlarini va terminologik tizimni chuqur tahlil qilishga asoslanadi. CLIL esa kontent (muhandislik mazmuni) va tilni bir vaqtda o'zlashtirishni ko'zda tutib, haqiqiy yoki realga yaqin kasbiy vaziyatlarni ta'lim jarayoniga olib kiradi.

Muhandislik ta'limida bu nafaqat lingvistik, balki kasbiy kompetensiyani ham kuchayishiga xizmat qiladi, chunki talaba ingliz tilini abstrakt grammatik strukturalar sifatida emas, balki real chizmalar, jadvallar, o'lchov birliklari, texnik parametrlar bilan bog'liq holda idrok etadi. Interfaol simulyatsiyalar orqali laboratoriya tajribalarini ingliz tilida izohlash, protsedural ko'rsatmalarni o'qish va bajarish,

natijalarni ingliz tilida taqdim etish CLIL yondashuvi mezonlariga to'liq mos keladi.

Shu bilan birga, multimodal va interfaol materiallarni joriy etishda qator cheklovlar ham kuzatildi:

– barcha o'qituvchilar ham raqamli vositalardan samarali foydalanish bo'yicha yetarli malakaga ega emas;

– texnik infratuzilma (yaxshi internet, kompyuter sinflari, litsenziyalangan dasturiy ta'minot) barcha guruhlarda ham barqaror emas;

– o'quv yuklamasi va baholash tizimlari ko'pincha an'anaviy test va yozma ishlarni ustuvor hisoblaydi, multimodal faoliyat natijalarini baholash mezonlari aniq ishlab chiqilmagan.

Demak, multimodal va interfaol ta'limning samarasi ularni alohida "qo'shimcha" element sifatida emas, balki tizimli ravishda o'quv dasturi va baholash siyosatiga integratsiyalash darajasiga bevosita bog'liq.

Multimodal va interfaol materiallardan kompleks va maqsadli foydalanish talabalarning motivatsiyasi, darsdagi faolligi va o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlarini oshiradi, ingliz tilini kelajak kasbiy faoliyatining ajralmas qismi sifatida idrok etishiga yordam beradi.

Mazkur yondashuvni keng joriy etish uchun o'qituvchilarning raqamli va metodik kompetensiyalarini rivojlantirish, texnik infratuzilmani mustahkamlash, baholash mezonlarini multimodal faoliyat natijalarini ham qamrab oladigan tarzda qayta ko'rib chiqish talab etiladi.

Kelgusida mazkur yo'nalishda longitudinal tadqiqotlar, turli muhandislik sohaları (elektronika, qurilish, axborot texnologiyalari va boshqalar) bo'yicha alohida modellarni ishlab chiqish hamda xalqaro tajribalar bilan taqqoslovchi tahlillar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mayer R. E. Multimedia Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 220 p.
2. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 183 p.
3. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 184 p.
4. Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. – London: Bloomsbury Academic, 2011. – 224 p.
5. Buckingham D. Youth, Identity, and Digital Media. – Cambridge: MIT Press, 2008. – 192 p.
6. Kozma R. B. Technology, Innovation, and Educational Change: A Global Perspective. – Eugene, OR: International Society for Technology in Education, 2003. – 360 p.
7. Johnson L., Adams Becker S., Estrada V., Freeman A. The NMC Horizon Report: 2015 Higher Education Edition. – Austin, TX: The New Media Consortium, 2015. – 50 p.
8. Oblinger D. G., Oblinger J. L. Educating the Net Generation. – Boulder, CO: Educause, 2005. – 450 p.

Y.R. AZZAMOV,  
O'zDJTU, filologiya fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

## MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINING TARKIBIY QISMLARI VA RIVOJLANISH MEZONLARI

**Annotatsiya:** maqolada mustaqil ta'lim kompetensiyasining tarkibiy tuzilishi, uning shakllanish jarayoni va rivojlanish mezonlari lingvopedagogik, psixologik hamda raqamli ta'lim nazariyalari asosida chuqur tahlil qilinadi. Mustaqil ta'lim kompetensiyasi talabani o'quv jarayonini maqsadli rejalashtirishi, o'z-o'zini boshqarish, refleksiya yuritish, strategik qarorlar qabul qilish va natijalarni baholash kabi ko'p qirrali ko'nikmalar majmuasi sifatida yoritiladi. Tadqiqotda konstruktivizm, avtonomiya nazariyasi, metakognitiv monitoring va raqamli ta'lim tizimi bilan integratsiya asosida mustaqil ta'lim kompetensiyasining tarkibiy komponentlari aniqlanib, uning rivojlanish bosqichlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** *mustaqil ta'lim, kompetensiya, metakognitiv monitoring, refleksiya, o'z-o'zini boshqarish, avtonomiya, raqamli ta'lim, lingvometodik yondashuv.*

**Аннотация:** в статье проводится глубокий анализ структурного содержания компетентности самостоятельного обучения, процесса её формирования и критериев развития на основе лингвопедагогических, психологических и цифровых образовательных концепций. Компетентность самостоятельного обучения раскрывается как многокомпонентный комплекс умений, включающий целенаправленное планирование учебного процесса студентом, самоуправление, осуществление рефлексии, принятие стратегических решений и оценивание полученных результатов. В исследовании на основе идей конструктивизма, теории автономии, метакогнитивного мониторинга и интеграции с цифровой образовательной системой выявляются структурные компоненты компетентности самостоятельного обучения и научно обосновываются этапы её развития.

**Ключевые слова:** *самостоятельное обучение, компетентность, метакогнитивный мониторинг, рефлексия, самоуправление, автономия, цифровое обучение, лингводидактический подход.*

**Annotation:** the article provides an in-depth analysis of the structural composition of independent learning competence, the process of its formation, and the criteria for its development based on linguo-pedagogical, psychological, and digital education theories. Independent learning competence is presented as a multifaceted set of skills that includes purposeful planning of the learning process, self-regulation, reflection, strategic decision-making, and the assessment of learning outcomes. The study identifies the structural components of independent learning competence through the lens of constructivism, autonomy theory, metacognitive monitoring, and its integration with the digital learning system, and scientifically substantiates the stages of its development.

**Key words:** *independent learning, competence, metacognitive monitoring, reflection, self-regulation, autonomy, digital learning, linguodidactic approach.*

**Kirish.** Zamonaviy oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim kompetensiyasi talabani kasbiy va shaxsiy rivojlanishida asosiy mezonlardan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, filologik yo'nalishlarda ingliz tilini o'rganish jarayoni talabani tilni chuqur egallashi, turli manbalar bilan mustaqil ishlashi, nutqiy faoliyatni mustaqil boshqarish, yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, manbalarni tanqidiy tahlil qilish kabi ko'nikmalarga tayanadi. Mustaqil ta'lim kompetensiyasi talabani nafaqat darsdan tashqari bilim olishini, balki o'z bilimni ongli ravishda boshqarishini, o'quv jarayonida mustaqil qarorlar qabul qilishi va o'z-o'zini baholay olishini nazarda tutadi. Shu sababli, uning tarkibiy qismlarini to'g'ri aniqlash va rivojlanish mezonlarini belgilash zamonaviy lingvopedagogikaning muhim vazifalaridan biridir.

**Natijalar.** Tahlil natijalari mustaqil ta'lim kompetensiyasining tarkibiy tuzilishini uch yirik komponent asosida ko'rib chiqish imkonini berdi: kognitiv, metakognitiv va affektiv-kommunikativ jihatlar.

Kognitiv komponent talabani bilimni mustaqil izlash, manbalar bilan ishlash, matn tahlil qilish, xulosalash, kontekstual anglash kabi faoliyatlarini qamrab oladi. Bu komponent talabani intellektual faolligini belgilovchi asosiysi bo'lib, mustaqil ta'limning dastlabki bosqichida yetakchi o'ringa ega.

Kognitiv komponentning rivojlanish jarayoni talabalarning til materiali — grammatik birliklar, leksik-semantik kategoriyalar, nutqiy strukturalar va matnlar bilan mustaqil ishlash qobiliyatining ortishi bilan ifodalanadi. Natijalardan ma'lum bo'lishicha, kognitiv komponenti rivojlangan talabalar til materialini kontekstual tahlil qila oladi, o'z fikrini aniq ifodalash uchun mos til vositalarini tanlaydi va mustaqil tarzda mazmun hosil qila oladi. Bu esa mustaqil ta'lim kompetensiyasining intellektual poydevorini tashkil etadi.

Metakognitiv komponent bo'yicha olingan natijalar talabalarda o'z o'quv jarayonini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash ko'nikmalari sezilarli darajada

shakllanganini ko'rsatdi. Talabalar o'quv vazifalarini tahlil qila olish, o'zlarining kuchli va zaif jihatlarini aniqlash, o'quv strategiyasini yangilash va o'z natijalarini reflektiv tarzda baholashga muvaffaq bo'ldi. Ayniqsa, metakognitiv monitoring darajasi yuqori bo'lgan talabalar mustaqil ta'lim jarayonida xatolarni tezda aniqlaydi, ulardan xulosa chiqaradi va o'z-o'zini boshqarish strategiyalarini samarali qo'llaydi.

Shaxsiy (affektiv) komponentning rivojlanishi ham muhim natijalarni ko'rsatdi. Mustaqil ta'lim kompetensiyasi shakllangan talabalar o'z-o'zini rag'batlantirish qobiliyatiga ega bo'lib, o'rganish jarayoniga mas'uliyat bilan yondashadi, psixologik barqarorlikni namoyon etadi va o'quv jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengish uchun yetarlicha ichki motivatsiyaga ega bo'ladi. Bu esa mustaqil o'rganishning barqaror va chuqur davom etishiga imkon yaratadi.

Refleksiv komponentning rivojlanish natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarda o'z o'quv tajribasini tanqidiy baholash, xatolarni tahlil qilish, o'z faoliyatiga nazar tashlab, undan kelib chiqadigan xulosalarni shakllantirish qobiliyati shakllangan. Refleksiya mustaqil ta'lim kompetensiyasining mazmuniy sifatini oshiruvchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo'ldi.

Olingan natijalardan kelib chiqib, mustaqil ta'lim kompetensiyasining rivojlanish mezonlari quyidagicha belgilandi: o'quv faoliyatini mustaqil rejalashtirish darajasi, strategik qaror qabul qilish qobiliyati, o'z bilimini ongli baholash, o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarish samaradorligi, o'quv motivatsiyasining barqarorligi va reflektiv tahlil chuqurligi. Ushbu mezonlarning har biri talabada mustaqil o'rganish madaniyatining shakllanish darajasini aniqlovchi asosiy indikator sifatida qaratiladi.

**Muhokama.** Mustaqil ta'lim kompetensiyasining tarkibiy qismlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, uning shakllanishi faqat o'quv topshiriqlarini bajarish bilan cheklanmay, balki talabaning ichki motivatsiyasi, kognitiv faolligi, reflektiv mulohaza yurita olishi va o'z-o'zini boshqarishga tayyorligi bilan bevosita bog'liq. Metakognitiv monitoring mustaqil ta'lim jarayonida boshqaruvchi mexanizm sifatida ko'riladi; u talabaning

mavjud bilimlarini aniqlash, bilim yetishmayotgan nuqtalarni kashf etish, o'quv strategiyalarini o'zgartirish va natijalarni baholash imkonini beradi.

Shuningdek, mustaqil ta'lim kompetensiyasining rivojlanishi talabaning raqamli madaniyatiga, sun'iy intellekt, elektron manbalar va til korpuslari bilan ishlash ko'nikmalariga bog'liq bo'lib bormoqda. Bu jarayon talabaning lingvistik tafakkurini kengaytiradi, matnlar ustida ishlash madaniyatini rivojlantiradi va filologik tahlilning chuqurroq tarkibiy bosqichlarini egallashga yordam beradi.

Mustaqil ta'limning samaradorligini belgilovchi omillar orasida konstruktivizm nazariyasining o'rni alohida ahamiyatga ega. Ushbu nazariya talabaning o'quv jarayonida passiv qabul qiluvchi emas, balki faol bilim yaratuvchi sifatida ishtirok etishini talab qiladi. Bu jarayon o'quv topshiriqlarining mazmunini real hayotiy kontekstga yaqinlashtirish, kompetensiyaga asoslangan vazifalar berish, talabaning mustaqil mulohaza yuritishiga imkon yaratish kabi didaktik mexanizmlarni talab etadi. Ayniqsa filologik ta'limda matnlar ustida ishlash, semantik va diskursiv tahlil, til vositalarining funksional imkoniyatlarini o'rganish talabadan mustaqil intellektual faollikni talab qiladi. Avtonomiya nazariyasi nuqtayi nazaridan mustaqil ta'lim kompetensiyasining shakllanishi talabaning o'z o'quv faoliyati uchun mas'uliyatni qanchalik o'z zimmasiga olishi bilan belgilanadi.

**Xulosa.** Mustaqil ta'lim kompetensiyasi talabaning bilimni mustaqil egallash, o'z o'quv faoliyatini boshqarish, strategik qarorlar qabul qilish, natijalarni baholash va refleksiya yuritish ko'nikmalarini qamrab olgan ko'p qirrali pedagogik hodisadir. Uning tarkibiy qismlari — kognitiv, metakognitiv va affektiv-kommunikativ komponentlar — o'zaro integratsion bog'liq bo'lib, talabaning mustaqil o'rganish salohiyatini belgilaydi. Rivojlanish mezonlarining aniqlanishi esa talaba kompetensiyasini baholash, monitoring qilish va ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun aniq ilmiy asos yaratadi. Mustaqil ta'lim kompetensiyasini rivojlantirish bo'lajak filolog-mutaxassislarning kasbiy salohiyati, nutqiy faoliyati va ilmiy-analitik fikrlash darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Benson, P. (2013). *Teaching and researching autonomy*. Routledge.
2. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring. *American Psychologist*, 34(10), 906–911.
3. Holec, H. (1981). *Autonomy and foreign language learning*. Council of Europe.
4. Little, D. (1991). *Learner autonomy: Definitions, issues and problems*. Authentik.
5. Nunan, D. (2003). The impact of English as a global language. *TESOL Quarterly*, 37(4), 589–613.
6. Oxford, R. L. (1990). *Language learning strategies*. Newbury House.
7. Zimmerman, B. J. (2002). Becoming a self-regulated learner. *Theory Into Practice*, 41(2), 64–70.

Dildora ABDULLAYEVA,  
Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat o'zbek tili va  
adabiyoti universiteti tayanch doktoranti  
[dildorashokirgizi96@gmail.com](mailto:dildorashokirgizi96@gmail.com)

## NAVOIY ASARLARINI MAKTAB TA'LIMIDA O'QITISH TAJIRIBASI: KLASSIK MEROS VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada umumta'lim maktablarida Alisher Navoiy ijodini o'qitish jarayoniga oid metodik qarashlar, an'anaviy dars uslublari hamda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni uyg'unlashtirish masalalari tahlil etiladi. Tadqiqotning bosh maqsadi buyuk mutafakkir merosini o'quvchilarga yanada samarali yetkazishning zamonaviy yo'llarini aniqlashdir. Maqolada o'quvchilarda adabiy-estetik dunyoqarashni rivojlantirish, dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish hamda ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, lirika, ta'lim metodikasi, innovatsion yondashuv, illyustratsiya usuli, aqliy hujum, rolli o'yinlar, adabiyot ta'limi.

**Annotation:** this article explores methodological approaches to teaching the works of Alisher Navoi in general education schools, focusing on the integration of traditional teaching methods with modern innovative tools. The main objective of the study is to identify effective strategies for conveying the legacy of the great thinker to the younger generation. The article examines ways to develop students' literary and aesthetic thinking, the use of interactive teaching techniques in lessons, and methods for increasing overall learning efficiency.

**Key words:** Alisher Navoi, lyric poetry, methodology, innovation, illustration method, brainstorming, role-play, literature education.

**Аннотация:** в данной статье рассматриваются методические подходы к преподаванию произведений Алишера Навои в общеобразовательных школах, а также вопросы интеграции традиционных форм обучения с современными инновационными технологиями. Основная цель исследования — определить эффективные способы более глубокого и содержательного ознакомления учащихся с наследием великого мыслителя. В статье анализируются пути формирования у школьников литературно-эстетического мышления, применение интерактивных методов на уроках и повышение общей эффективности образовательного процесса.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, лирика, методика, инновации, метод иллюстрации, мозговой штурм, ролевая игра, преподавание литературы.

Alisher Navoiy o'zbek mumtoz adabiyotining eng yorqin vakillaridan biri bo'lib, Sharq madaniyati va tafakkuri tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk shoir, mutafakkir va davlat arbobidir. Uning lirik merosi chuqur falsafiy mazmuni, axloqiy-ijtimoiy g'oyalari va badiiy yetukligi bilan ajralib turadi. Shu bois, bugungi ta'lim jarayonida Navoiyning boy adabiy merosini yosh avlodga samarali va tushunarli shaklda yetkazish o'qituvchilar oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

Hozirgi ta'lim tizimida adabiyot darslari faqatgina matn tahliliga asoslanib qolsa, o'quvchining asarni chuqur idrok etish imkoniyatlari cheklanib qoladi. Ayniqsa, Navoiy kabi sarmazmun ijodkorining lirik merosini o'rgatishda an'anaviy yondashuvlar bilan birga innovatsion metodlar, interaktiv texnikalar va zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish zarurati tobora ortib bormoqda.

Alisher Navoiyning tuyuqlari, ruboiylari, qit'alari va boshqa lirik janrlardagi asarlari insoniylik, ezgulik,

muhabbat, poklik, hayot falsafasi kabi yuksak tushunchalarni badiiy jihatdan yetuk shaklda ifoda etadi. Bu adabiy boylikni o'quvchilarga yetkazishda ularning yosh psixologik xususiyatlarini hisobga olib, o'qitish jarayonini mazmunan va shaklan takomillashtirish muhimdir.

*Qozi* – hukmdor tomonidan tayinlanib shariat asosida sud vazifasini bajaruvchi sudya, shar'iy mahkama raisi mazmunini ifodalaydi (O'TIL,V,322). Navoiy asarlarida “hukm chiqaruvchi”, “hukm qiluvchi” mazmunda keltiriladi: *“Qozi islom binosiga arkondur va musulmonlar xayr va sharriga hofizi farmondur...”* (ANATIL,IV,60). Ushbu leksemani etimologik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, arabcha so'z *qâdin* shakliga ega o'zbek tiliga cho'ziq â unlisi ä unliga, *dzad* undoshini z undoshiga almashtirib, so'z oxiridagi *n* qismini tashlab qabul qilingan: *qâdin* -> *qâzi* (*qozi*); *qada* fe'lining “hukm chiqardi” (ARS,644) ma'nosi bilan hosil qilingan I bob aniq nisbat sifatdoshi bo'lib (O'TEL,II,538), “hukm chiqaruvchi”, “amalga oshiruvchi”, “ijrochi” ma'nolarini anglatadi: *Ko'ngli Qo'qonda o'zini kutib turg'an ulamoliq shuhratiga muftilik qozi va a'lamlik mansabiga oshiqinar edi* (MCh,112).

Arabcha *murassa'* so'zidan olingan *mursak* leksemasi arablarning qadimiy ust kiyimi turidan bo'lib, u qimmatli tosh va zarlar bilan bezatilgan. Shuning uchun arablar bu kiyimga *murassa'* (ziynatlangan, bezatilgan) deb nom qo'yganlar. Arabcha *murassa'* so'zi o'zbek tilining fonetik xususiyatlariga muvofiq *mursak* deb talaffuz qilinadi [3:48]. Roman matnida *munsak* fonetik varianti keltiriladi: *Gulshan o'rnidan turib, oyimg'a bosh egdi, shu holda Ahsan munsakni uning ustiga yopib, qo'lig'a ikki tilloni ham uzatdi* (MCh,181).

**Fors-tojikcha o'zlashmalar.** Tadqiqot obyekti bo'lgan asarda forsiy o'zlashmalar soni 834 tani tashkil etib, ular ijtimoiy-siyosiy, qurilish, maishiy leksikalarni ifodalashda faol ishtirok etgan.

**Fors-tojikcha o'zlashmalarining hozirgi adabiy tilga munosabati.** *Po'stin* fors-tojikcha o'zlashmasi “hayvon terisi” (O'TEL,III,197), “hayvon terisidan

tayyorlangan buyum” (FZT,II,107) ma'nosini anglatuvchi *po'st* so'ziga *-in* qo'shimchasini qo'shish orqali shakllangan. “Devon”da *ichmāk* – “qo'zi terisidan qilingan po'stin”, *ichýk* – “olmaxon va boshqa hayvonlar terisidan qilingan po'stin” (DLT,I,127,99), *körk* – “mo'yna, po'stin” (DLT,I,336), Navoiy asarlarida *qoqim* – “terisi mayin oq junli hayvon, shu hayvon terisidan tikilgan po'stin” (NAL,743) kabi istilohlar ishlatilgan, lekin hozirgi davrda ushbu so'zlar arxaik leksemaga aylangan. Asar so'z boyligida sovuqda kiyiladigan kiyim mazmunida ishlatilgan: *Katta suv yonidagi hujra eshigida qo'sqi po'stunga o'ralib turg'an qorovul uning oldig'a tushib salom berdi* (MCh,243). Hozirgi adabiy tilida “mo'ynali oshlangan teridan tikilgan uzun, issiq ustki qishlik kiyim” (O'TIL,III,330) sememasini bersa-da, faol ishlatilmaydi.

Fors-tojikcha *ohor* o'zlashmasi “kraxmal”, “gazlamaga pardoz berish” (O'TEL,III,179) ma'nolarini bildirib, ip, gazlama yoki kiyimga pardoz berish, qotirish uchun ishlatiladigan modda (O'TIL,III,196) sanaladi. Asarda bo'zchilikka oid “kraxmal” semasini ifodalovchi termin sifatida keltiriladi: *Safar bo'zchining bir kechlik ishiga bir ohor mo'ljal bo'lib qora charog'ning moyi ham soat vazifasini o'tar edi* (MCh,259). Hozirgi kunda *ohor* so'zining semantikasi o'zgargan bo'lib, “yangi”, “ishlatilmagan” kabi ma'nolarni anglatadi. Xususan, *ohori to'kilmagan* iborasi ayni shu semani beradi.

**Semantik o'zgarishlar bilan ifodalangan fors-tojikcha o'zlashmalar.** Asar tilida ba'zi forsiy o'zlashmalarining asl semasi o'zgargan shaklda qo'llangan. *Siporish* so'zi forsha “topshiriq”, “vazifa”, “kafolat”, “o'git” kabi ma'nolarni bildirib, XIV-XV asrlarda “hol-ahvol so'rash”, “hurmat”, “mehribonlik qilmoq” (ANATIL,III,86) kabi sememalarni anglatgan. Qodiriy asarida ushbu so'zning semantik darajasi o'zgargan: *Maxdum ulamo amaldor va g'ayrilardan shuning kabi siporishlarni to'rt-besh soatdan beri qabul qila qila juda miyasi suyulg'an edi* (MCh,131). Ko'rinadiki, o'zlashma roman matnida yuqorida keltirilgan sememalarni ifodalamaydi, balki “iltimos” ma'nosida qo'llanmoqda.

*Mardum* fors-tojik tilida “erkak kishi” ma'nosidagi *mard* otidan (TjRS,216) yasalgan, keyinchalik “oddiy kishi” mazmunini aks ettirgan (O'TEL,III,133). Asarda “odamlar”, “kishilar”, “xalq” sememalarida voqealangan: *Anvarning xiyonati to'g'risida Sultonali o'zini tag'ofulg'a solsa mardumning ko'ngliga nima gap kelar edi* (MCh,343).

*Dodras* termini fors-tojik tilidan o'zlashgan bo'lib, “qozi”, “himoyachi”, “xaloskor” (O'TIL,I,635), “mazlumlarni eshituvchi” (FZT,I,384) ma'nolarni bildirib, jabrlanganlarni himoya qiluvchi, ularning arziini tinglovchi shaxslarga nisbatan foydalanilgan: *Arzing bo'lsa, dodras huzuridasan, gapir!* (MCh,227). Ushbu istiloh asarda Xudoyorxonga nisbat berilib, xon, xoqon semalarida ishlatilgan.

**Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanmaydigan fors-tojikcha o'zlashmalar.** Asardagi ba'zi istilohlar ma'lum bir ijtimoiy tabaqaga xoslikni ifodalaydi. Xususan, asarda qo'llangan *kuloh* so'zi qalandar, darveshlarning bosh kiyimi mazmunini bildirsa, Sharq mumtoz adiblari tilida, asosan, so'fiylar bosh kiyimi ma'nosida ishlatilgan tasavvuf terminlaridan biriga aylangan [4:103]: *Ikkinchisi mulla Baxtiyor bilan o'chakishkandek juda uzun bo'yliq g'ilay ko'zlik ajina qoshiqdek yuzlik qotma o'zining bo'yidan ham uzunroq to'n va boshig'a qalandar kulohi kiyib yalaneoyog' o'rta yashar Davlat ismlik yana bir qizi edi* (MCh,230). *Kuloh* fors-tojik tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, tepa qismi konussimon shaklda bo'lgan jun matodan tayyorlangan bosh kiyim hisoblanadi. Navoiy yashagan va undan so'nggi davrlar davomida ham *kuloh* erkaklarning doimiy bosh kiyimi sanalgan. Zarlar qadab, hashamdor qilib tikilgan turi *kuloh navro'zi* – yangi yil kirishi munosabati bilan kiyiladigan bosh kiyimini [3:50] ham anglatgan.

*Kashkul* – darveshlar sadaqa yig'ish uchun bo'yinlariga ilib yoki qo'lda olib yuradigan qayiqsimon qovoq (yog'och) idish (O'TIL,II,337), gadolarning kosasi (FZT,I,547), Navoiy asarlarida *kachkul* "gadod

va qalandarlar yonlarida olib yuradigan qovoq idish" (NAL,308) mazmunida berilgan. Tarixga nazar solsak, o'zlashma qalandarlarning xayr-sadaqa yig'adigan maxsus idishi sanaladi, asarda oddiy maishiy hayotda ishlatiladigan suv solinadigan ro'zg'or buyumi sifatida keltirilgan: *Yo'lakda suv havlisidan chiqib kelgan bir kaniz Gulshanni ko'rishi on qo'lidag'i suvlik kashkulni yerga qo'yib yugurdi* (MCh,186). Til taraqqiyoti natijasida bugungi kunda ushbu istiloh istorizmga aylangan, badiiy asarlarda tarixiy kaloritni berish uchun ishlatiladi.

Fors-tojik tilidan o'zlashgan mazkur so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida faol qo'llanilmaydi. Shu bois istilohlar istorizm va arxaizmga aylangan.

#### **Xulosa.**

Asar so'z boyligining 70,1 foizini turkiy so'zlar, 17,9 foizini arabiy istilohlar, 11,6 foizini fors-tojikcha leksemalar va 0,2 foizini boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarni tashkil qiladi. Demak, asar leksikasi tarkibida turkiy so'zlar salmoqli bo'lib, maishiy leksika, inson a'zolari, qavm-qarindoshlikka doir so'zlarni qamrab oladi. Arab va fors-tojikcha o'zlashmalar esa asosan diniy, ijtimoiy-siyosiy, ta'limga oid leksikalarda keng ishlatilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ҳасанова Д. Арабча луғавий ўзлашмаларнинг ўзбек тили номинатив ва дериватив тизимидаги ўрни. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – Б. 3.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 122.
3. Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 27, 48.
4. Норбоев Ш. Эски ўзбек тилида айрим кийим-кечак номлари хусусида // Ўзбек терминологияси: бугунги ҳолати ва истиқболи. Илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 2017. – Б. 103.

#### **SHARTLI QISQARTMALAR**

**ANATIL** – Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, I-IV. 1983-1985; I-1983, 646 б.; II-1983, 642 б.; III-1984, 622 б.; IV-1985, 636 б.

**ARS** – Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. М.: Русский язык, 1976. – 595 с.

**BD** – Будагов Л. З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Т. I-II. –СПб 1869-1872.

**DLT** – Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I-III. – Тошкент: Фан, 1960-1963. Т. I. 1960. – 499 б.; Т. II. 1961. – 427 б.; Т. III. 1963. – 461 б.

**DTS** – Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – 676 с.

**ESTYA** – Севортян Э. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межатюркские основы на гласные. – М.: Наука, 1974. – 767 с.

**FZT** – Фарҳанги забони тоҷикӣ – М.: Советская энциклопедия, 1969. Т. I. 1969. – 951 с.; Т. II. 1969. – 947 с.

**MCh** – Қодирий А. Меҳробдан чаён. – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018. – 416 б.

**NAL** – Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. – Тошкент, 1972. – 782 б.

**O'TEL** – Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – 599 б.

**O'TIL** – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. I-2006, – 680 б.; II-2006, – 672 б.; III- 2007, – 688 б.; IV-2008, – 608 б.; V-2008, – 592 б.

**PDP** – Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – М., 1951. – 451 с.

**RSL** – Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. I-IV. – СПб, 1893-1911. I-1893. – 1980 с.; II-1895, – 1871 с.; III-1898, –2302 с.; IV-1911, – 2337 с.

## O'ZBEK BOLALAR SHE'RIYATIDA LINGVOPOETIK TAHLILNING ZAMONAVIY METODLARI VA ULARNING TA'LIMIY AHAMIYATI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o'zbek bolalar she'riyati tilini lingvopoetik tahlil qilishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Lingvopoetik tahlilning estetik, emotsional va obrazli imkoniyatlarni ochib berishdagi ahamiyati ko'rsatilib, uni o'qitishda qo'llaniladigan zamonaviy interfaol metodlar tahlil etilgan. "Aqliy hujum", "Blits-so'rov", "Mind-map", rolli o'yinlar, ijodiy topshiriqlar kabi usullar orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, estetik didini shakllantirish va ijodiy tafakkurini kengaytirish imkoniyatlari amaliy misollar yordamida ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'zbek bolalar she'riyati, lingvopoetika, ta'limiy ahamiyat, interfaol metodlar, ijodiy tafakkur, nutqiy kompetensiya, estetik did, multimedia, metodika.

**Аннотация:** в данной статье освещаются теоретические и практические основы лингвопоэтического анализа языка узбекской детской поэзии. Показано значение лингвопоэтического анализа в раскрытии эстетических, эмоциональных и образных возможностей языка, а также проанализированы современные интерактивные методы его преподавания. На конкретных примерах рассмотрено, как такие методы, как «Мозговой штурм», «Блиц-опрос», «Mind-map», ролевые игры и творческие задания способствуют развитию речевой компетенции учащихся, формированию эстетического вкуса и расширению творческого мышления.

**Ключевые слова:** узбекская детская поэзия, лингвопоэтика, образовательное значение, интерактивные методы, творческое мышление, речевая компетенция, эстетический вкус, мультимедиа, методика.

**Annotation:** this article discusses the theoretical and practical foundations of linguopoetic analysis of the language of Uzbek children's poetry. The study highlights the importance of linguopoetic analysis in revealing the aesthetic, emotional, and figurative capacities of language and examines modern interactive methods of teaching it. Practical examples illustrate how techniques such as "Brainstorming," "Blitz Survey," "Mind-map," role-playing, and creative tasks contribute to the development of students' speech competence, the formation of aesthetic taste, and the expansion of creative thinking.

**Key words:** uzbek children's poetry, linguopoetics, educational significance, interactive methods, creative thinking, speech competence, aesthetic taste, multimedia, methodology.

Hozirgi rivojlanayotgan davrda har bir millat, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga **ustuvor vazifa sifatida** qarashi tabiiydir.

Badiiy asarning lingvopoetik tahlili tilning nazariy tomonlari, ijtimoiy funksiyalari va inson ma'naviyatining in'ikosi ekanini bir butun holda tasavvur etishimizga imkon yaratadi. Chunki lingvopoetika o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra filologiya sohasi tarmoqlarini o'zida mujassamlashtirishga, uning bir butunligini ta'minlashga qaratilgandir. "O'zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni ham ayni tilshunosligimiz rivojini ko'zlamogda. Lingvopoetik tahlil jarayoni faqat yozuvchining tili va uslubi haqida ma'lumot berish bilan chegaralanmaydi, balki asar yaratilgan davr tilining o'ziga xosligi, yozuvchining so'z boyligi, til vositalarining ifodalanish usullari, badiiy tasvir vositalarining til faktlari vositasida aks ettirilishi, umuman, tilni uning barcha sathlari yuzasidan tahlil qilishdan iborat bo'ladi. Shu o'rinda davlatimiz rahbari so'zi bilan

aytadigan bo'lsak, "Davlat tilining sofliqini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish"<sup>2</sup> bizning ustuvor maqsadimizdir. Bugungi globallashuv jarayonida har bir davlat o'z ona tilining korpusini yaratish muammosi ustida ishlar olib borilmoqda.

Badiiy asar tilida tilning aynan estetik vazifasi namoyon bo'lishini o'rganuvchi soha – "lingvistik poetika" – "lingvopoetika" deb nomlash filologiya ilmda ancha turg'unlashgan hamda "lingvistik poetika"ning filologik ilmlar tizimida alohida mustaqil fan sifatidagi o'rnini aniqlashtirishga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlar yaratilgan<sup>3</sup>.

Lingvopoetika ancha ilgari paydo bo'lgan soha bo'lib, bu terminda ifodalangan tushuncha tarkibidagi fanlar qadimdan filologik sohaning tarkibida, bu soha esa ijtimoiy fanlar qatorida, xususan, falsafa tarkibida o'rganilgan. Oz fursat o'tgach, lingvistika va poetika kabi fanlarning yangi ilmiy tushunchalar va ilmiy paradigmalar sifatida mustaqil fanga aylanishi ikki fan oralig'idagi tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyojini kuchaytirdi. Lingvopoetika sohasiga bo'lgan bunday ehtiyoj ikki fan ham birdek xizmat qiluvchi

<sup>2</sup> <https://lex.uz/acts/-4561730>

<sup>3</sup> Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. 18-bet.

uslubshunoslikning taraqqiyoti bilan bog'liq bo'ladi. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarining betakror badiiyati, sir-u sinoatga to'la qonuniyat tilsimlari, lingvofolkloristika masalalarini teran tadqiq etgan filolog B.Sarimsoqov til badiiyati muommosini o'rganishda tilshunos va adabiyotshunoslarning doimiy hamkorligini targ'ib etishdan charchamagan olim edi. U shunday ta'kidlaydi: "...Tilshunosmi yoki adabiyotshunosmi, lingvopoetikada, badiylik (obrazlilik) masalalarida birlashib ketishlari lozim, shundagina ular haqiqiy filologga aylanadilar. Badiylik muammolari esa sof filologik muammolaridir"<sup>4</sup>.

Umuman olganda, badiiy asar tilini o'rganish keng qamrovli jarayon, u nafaqat adabiyotshunoslikka oid badiiy g'oya, fikr, umumiy obrazlilik, individuallik, badiiy mahorat, balki tilshunoslikka oid semiotika, konnotatsiya, pragmatika kabi tushunchalarni umumlashtiradi, kognitiv fan sohalari bilan ham bog'lanib, o'zining tahlil doirasini bilish, tushunish, idrok etish, tahlil qilish, lisoniy tafakkur, lisoniy ong, lisoniy faoliyat, lisoniy shaxsiyat kabi tushunchalar bilan ham kengaytirib boradi. Shuningdek, o'quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini o'stiradi, kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytiradi, bilim, ko'nikma, dunyoqarash, badiiy tafakkur doirasini yanada kengaytiradi hamda mustahkamlaydi.

O'zbek bolalar she'riyati milliy adabiyotimizning muhim bo'g'ini bo'lib, u bolalar ongida estetik didni shakllantirish, til boyligini kengaytirish va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. She'riy matnlarni lingvopoetik tahlil qilish ta'lim jarayonida nafaqat adabiy-estetik zavq uyg'otadi, balki o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantiradi, tilning emotsional-ekspressiv imkoniyatlarini anglashga yordam beradi. Shu boisdan lingvopoetik tahlilni o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish bugungi til ta'limi jarayonining eng dolzarb masalalaridan biridir.

Bugun til ta'limida an'anaviy yondashuvlar asta-sekin interfaol va innovatsion metodlar bilan almashib bormoqda. Bu holat lingvopoetik tahlilni o'qitishda ham sezilmoqda. Chunki she'riy matnlarni o'rganishda faqatgina nazariy tushuntirish emas, balki o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash ham zarurdir.

Zamonaviy metodlar lingvopoetik tahlilni quyidagi jihatlar bilan samarali qiladi:

1. **O'quvchini faol subyektga aylantiradi.** Masalan, "Aqliy hujum" yoki "Blits-so'rov" metodlarida o'quvchi she'r matnidagi qo'shimchalarning badiiy vazifasini mustaqil izohlaydi.

2. **Emotsional idrokni kuchaytiradi.** Multimedia va animatsiya yordamida she'rdagi obrazlar jonlantirilsa, o'quvchi qo'shimchalar orqali yaratilgan emotsional rangni yaxshiroq his qiladi.

3. **Ijodiy tafakkurni rivojlantiradi.** "Rolli o'yin", "Matnni davom ettirish" kabi usullar bolalarga so'zlardan yangi badiiy shakllar yaratish imkonini beradi.

4. **Jamoaviy tahlilni rag'batlantiradi.**

Guruhlarda ishlash orqali o'quvchilar qo'shimchalarning ma'no yukini turli nuqtayi nazardan muhokama qilishadi.

5. **Kompetensiyaviy yondashuvni ta'minlaydi.** O'quvchi faqat qo'shimchaning grammatik vazifasini emas, balki uning lingvopoetik ahamiyatini ham o'zlashtiradi.

Ta'lim jarayonida she'riy matnlarni lingvopoetik tahlil qilish o'quvchilarda nafaqat estetik didni shakllantirish, balki ularning til boyligini, ijodiy va mustaqil tafakkurini rivojlantirish uchun ham muhim vosita hisoblanadi. She'r matnidagi lingvopoetik unsurlarni tahlil qilish orqali bola so'zning ichki ohangi, badiiy bo'yoqdorligi va obrazli ifodasini chuqur his etadi. Bu esa unda nafaqat kitobxonlikka qiziqish uyg'otadi, balki estetik zavqni kuchaytiradi, emotsional sezgirlikni tarbiyalaydi. Shu jarayonda o'quvchi qo'shimchalar yordamida yaratilgan poetik ma'nolarni anglab, tilning boy imkoniyatlarini kashf etadi va o'z nutqida qo'llashga harakat qiladi.

Shu boisdan bunday tahlilni o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish metodik jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Interfaol usullar o'quvchilarni faol suhbatga chorlab, ularning mustaqil fikrlash va o'z nuqtayi nazarini asoslash ko'nikmalarini shakllantiradi. Multimedia va axborot texnologiyalaridan foydalanish she'r obrazlarini jonlantirib, o'quvchilarda voqealarni vizual idrok etish va ularni hissiy qabul qilish imkonini kengaytiradi. Ijodiy topshiriqlar esa bolalarda yangi badiiy shakllar yaratishga, o'z fikrini erkin va ravon ifodalashga yordam beradi. Natijada o'quvchilarda ijodkorlik, mustaqillik, emotsional sezgirlik va nutqiy kompetensiyalar uyg'un rivojlanadi.

Lingvopoetik tahlilda qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodlar xilma-xil bo'lib, ular o'quvchilarning estetik idroki va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Avvalo, ifodali o'qish va suhbat metodi orqali she'r o'qituvchi yoki o'quvchilar tomonidan ifodali o'qiladi va suhbat yordamida matndagi qo'shimchalarning obraz yaratishdagi vazifasi izohlanadi. Masalan, *Ayiqvoy* so'zidagi –voy qo'shimchasi hayvonni bolalarga yaqinlashtirsa, *Miyovjon* shakli mehr va samimiyatni ifodalaydi. Keyingi bosqichda kuzatish va tahlil metodi qo'llanadi: o'quvchilar she'r matnidagi qo'shimchalar yordamida hosil qilingan so'zlarni ajratib yozadilar va ularning semantik hamda emotsional xususiyatlarini muhokama qiladilar. Shu orqali ular qo'shimchalarning grammatik vazifasi bilan bir qatorda estetik ahamiyatini ham anglaydilar.

O'quvchilar uchun samarali bo'lgan so'z yasash mashqlarida oddiy so'zlardan yangi obrazli so'zlar yasash topshirig'i beriladi, masalan: *quyon* → *quyoncha*, *chumchuq* → *chumchuqvoy*, *tulki* → *tulkinisa*. Hosil bo'lgan so'zlarning qanday his-tuyg'ularni ifodalashi muhokama qilinadi va bu jarayon ijodiy tafakkurni rivojlantiradi:

*Navbatchi o'qituvchilar*

*Direktorni topishdi.*

*Quyonvoyni xonaga*

*Chorlab eshik yopishdi.*

<sup>4</sup> Sarimsoqov B. Badiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: TAI, 2004, 27-bet.

Shuningdek, rolli o'yin va dramatizatsiya metodida o'quvchilar she'rdagi personajlarni jonlantirib ijro etadilar. Masalan, biri *Ayiqvoy*, biri *Tulkinisa*, yana biri *Quyuncha* rolini bajaradi. Bu usul lingvopoetik vositalarni nafaqat nazariy, balki amaliy tarzda his qilish imkonini beradi va darsni yanada qiziqarli qiladi.

Zamonaviy ta'limda keng qo'llanilayotgan klaster va mind-map metodlari ham samarali natija beradi: o'quvchilar ma'lum bir qo'shimcha asosida (masalan, –cha) so'zlar guruhi tuzadilar (*quyuncha, mushukcha, chumchuqcha, o'rdakcha*) va ularning umumiy hamda farqli jihatlarini aniqlash orqali emotsional bo'yoqni belgilaydilar. Mind-map metodini ingliz olimi Tony Buzan ishlab chiqqan bo'lib, asosiy maqsad — o'quvchilar yoki tadqiqotchilarni ma'lumotlarni g'oya va tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlar asosida tasniflash va yodda saqlashga o'rgatishdir. Dars jarayonida mind-mapdan foydalanish: she'rda qo'llanilgan qo'shimchalar asosida xarita tuziladi; o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, har bir guruh o'z qo'shimchasini tahlil qiladi va xaritada joylashtiradi; mashg'ulot oxirida umumiy xarita taqdim qilinadi, qo'shimchalarning lingvopoetik vazifalari taqqoslanadi.

Mind-mapning asosiy xususiyatlari:

1. Markaziy g'oya: xaritaning markaziga asosiy mavzu yoki tushuncha yoziladi (masalan: “-voy qo'shimchasi”).
2. Shoxchalar: markazdan turli yo'nalishlarga bog'liq kichik mavzular chiziladi (masalan: “*Hayvonlar nomiga qo'shilganda*”, “*Bolalar ismlariga qo'shilganda*”).
3. Sub-shoxchalar: har bir kichik mavzudan yana mayda detallar chiqadi (masalan: “*Ayiqvoy – mehribon obraz*”, “*Qorinboy – kinoya obraz*”).
4. Vizual vositalar: mind-mapda so'zlar bilan birga rasmlar, rangli chiziqlar, belgilar ishlatilsa, u o'quvchi uchun yanada esda qolarli bo'ladi.

Quyida lingvopoetik tahlil jarayoni “Mind-map” metodi asosida metodik jihatdan tahlil qilinadi.

Mind-map markazi: “**Mushukcha – jajjigina Sinba**”

1. **Asosiy qahramon:** mushukcha; jajjigina (–gina qo'shimchasi → kichraytirish, erkalash); sinba (uy hayvoniga do'stona nom berish).

2. **Qo'shimchalar orqali poetik ma'no: –gina** → kichkina, yoqimli, mehrli obraz; **–cha** → erkalash, bolalarga yaqinlashtirish. Natija: mushukning oddiyligi emas, balki mehribon, bolalarga yaqin timsoli yaratilgan.

3. **Bolalarning munosabati:** suyish (mehr, erkalash); ism qo'yish (do'stona munosabat → “Sinba”); mushuk obrazini insoniylashtirish.

4. **Emotsional-ekspressiv ta'sir:** mehr, samimiyat, erkalash kayfiyati; mushukcha – bolalar uchun quvonch manbai.

5. **Metodik qo'llash: ifodali o'qish:** bolalar she'rni ovoz chiqarib, hissiyot bilan o'qiydi; **so'z yasash mashqi:** mushuk → mushukcha → mushukchagina; **rolli o'yin:** bir bola “Sinba” obrazida, boshqalar “bolalar” obrazida sahnalashtiradi.

**Mind-map mashg'uloti:** markazga “Mushukcha” yoziladi, atrofida qo'shimchalarning vazifasi va bolalardagi ta'sir chiziladi.

Bundan tashqari, axborot texnologiyalarini qo'llash lingvopoetik tahlilni yanada jonli qiladi. Multimedia, animatsiya yoki slaydlar orqali she'r obrazlari namoyish etilsa, o'quvchilar qo'shimchalar orqali yaratilgan lingvopoetik ma'noni yanada teranroq his etadilar. Masalan, *Ayiqvoy* obrazini multfilm shaklida ko'rsatish bolalarda emotsional idrokni kuchaytiradi. Nihoyat, ijodiy topshiriqlar ham katta ahamiyatga ega: o'quvchilar she'rning davomiga o'zlari qo'shimcha yozadilar, kichik rasm chizadilar yoki yangi obrazli so'z yasaydilar. Masalan, “Agar siz mushuk haqida she'r yozsangiz, qanday qo'shimchali so'z ishlatgan bo'lardingiz?” kabi savollar ularning ijodiy qobiliyatini rag'batlantiradi va lingvopoetik tahlilni yanada samarali qiladi.

Xulosa qilib aytganda, lingvopoetik tahlil bolalar she'riyatini chuqur anglash, tilning emotsional va obrazli imkoniyatlarini kashf etish uchun muhim vositadir. Uni o'qitishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda zamonaviy metodlardan foydalanish zarur. Yuqoridagi metodlar shuni ko'rsatadiki, lingvopoetik tahlilni o'qitishda faqat nazariy izoh bilan cheklanib qolmasdan, interfaol va ijodiy yondashuvlardan foydalanish lozim. She'riy matnlarda qo'llangan qo'shimchalar nafaqat grammatik, balki estetik ahamiyat kasb etadi. Shu ahamiyatni o'quvchilar ongiga singdirishda ifodali o'qish, suhbat, tahlil, rolli o'yinlar, multimedia vositalari va ijodiy topshiriqlar samarali natija beradi. Bu orqali o'quvchilar tilning obrazli va emotsional imkoniyatlarini chuqurroq anglaydilar, so'zning estetik qiymatini his qiladilar va eng muhimi, ijodiy tafakkur, nutqiy kompetensiya va milliy badiiy merosga mehr uyg'otadilar.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sarimsoqov B. Badiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: TAI, 2004.
2. Jo'rayev R. Lingvopoetika asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2012.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O'zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” <https://lex.uz/docs/-4561730>
5. Buzan, T. Mind Map Book. – London: BBC Active, 2006.
6. Nazarov, B. Adabiyotshunoslik va lingvistika integratsiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
7. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. 18-bet.

**Madixabonu PARDAYEVA,**  
Navoiy davlat universiteti,  
Boshlang'ich ta'lim kafedrası  
katta o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)



## ABDULLA QODIRIYNING TAVSIFIY XARAKTERDA BERILGAN HAJVIY ASARLARIDA OT SO'Z TURKUMINING KO'PROQ QO'LLANILISHI

**Annotatsiya:** Abdulla Qodiriy hajviy asarlarida qaysi mustaqil so'z turkumining faol qo'llanganligini aniqlash to'g'risida bo'lib, Abdulla Qodiriy asarlarida mustaqil so'z turumlari nutqda asosiy vazifani bajarishi, shu sababli ularning muayyan grammatik vazifani bajarishga moslashda grammatik vositalar juda muhim o'rin tutishi, mustaqil so'zlarning grammatik ma'no va muayyan vazifalar bajarishi davr nuqtayi nazaridan yondashuv talabiga ko'ra o'zgarib turishi misollar asosida tahlil qilib berilgan.

**Kalit so'zlar:** *faol, hajviy, narsa-buyum, tasviriy matnlar, ega va kesim, hol va hollanmish, sifatlovchi va sifatlanmish, izohlovchi va izohlanmish, qarindosh tillar, faollashtiruvchi tamoyil.*

**Аннотация:** в статье речь идет об определении того, какие самостоятельные группы слов активно используются в комических произведениях Абдуллы Кадири, самостоятельные группы слов в произведениях Абдуллы Кадири выполняют основную задачу в речи, поэтому используются грамматические средства для их адаптации для выполнения конкретной грамматической задачи. Очень важно, грамматическое значение самостоятельных слов и выполнение тех или иных задач изменяются в соответствии с требованиями подхода с точки зрения периода, на основе примеров проанализировано.

**Ключевые слова:** *активный, шуточный, вещь-предмет, описательные тексты, притяжательный и причастный, падежный и сослагательный наклонения, прилагательный и прилагательный, объяснительный и необъяснимый, родственные языки, активизирующий принцип.*

**Annotation:** the article is about determining which independent groups of words are actively used in the comic works of Abdullah Qadiri; independent groups of words in the works of Abdullah Qadiri perform the main task in speech, therefore grammatical means are used to adapt them to perform a specific grammatical task. It is very important that the grammatical meaning of independent words and the performance of certain tasks change in accordance with the requirements of the approach from the point of view of the period, analyzed on the basis of examples.

**Key words:** *active, comic, thing-object, descriptive texts, possessive and participle, case and subjunctive moods, adjective and adjective, explanatory and inexplicable, related languages, activating principle.*

Mustaqil so'zlarning grammatik ma'no va muayyan vazifalar bajarishi davr nuqtayi nazaridan yondashuv talabiga ko'ra o'zgarib turadi. Masalan, narsa-buyum – predmetni birlamchi hisoblab boshqa mustaqil so'zlarni uni izohlash va to'ldirishga yo'naltirishni taqozo qiluvchi yondashuv va kommunikativ nuqtayi nazardan harakatni birlamchi, deb olib fe'l so'z turkumini faollashtiruvchi tamoyil ham mavjud. Shu

ma'noda hajviy matnlarda qaysi mustaqil so'z turkumi faolroq qo'llanganini aniqlash zarur.

R.Sayfullayeva va B.Mengliyevlar "Tillar o'zaro grammatik xususiyatiga ko'ra ham tasniflanadi. Masalan, o'zbek tilida kesimning gap markazi sifatida boshqa barcha bo'laklarni o'z atrofida uyushtirishi, eganing fakultativligi, sifatlovchining sifatlanmishdan oldin kelishi, bunda inversiyaning bo'lmasligi, ega

va kesim, qaratuvchi va qaralmishning ikkiyoqlama aloqaga egaligi, to'ldiruvchi va to'ldirilmish, hol va hollanmish, sifatlovchi va sifatlanmish, izohlovchi va izohlanmishning bir yoqlama aloqada ekanligi kabilar uning boshqa qarindosh tillar bilan birgalikda bir til oilasiga kirishini ta'minlaydi. Ammo bu bir til oilasiga kiruvchi barcha tillar orasidagi farqning mavjudligini inkor qilmaydi.

Mustaqil so'z turkumlarining qay darajada qo'llanishi matnning mazmuniga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Agar matni tavsifiy xarakterda bo'lsa, unda ot so'z turkumi boshqalaridan ko'proq qo'llanadi. /Otam 1242 hijriy – 1823 melodiy yillari Toshkandda tug'ulub, alhol, 99-100 yoshlaridadir. Ruslar istilosi vaqtida 42 yoshida bo'lub Toshkandni ruslardan mudofaa qilg'an qahramonlarning biridir.

Turkiston xonlaridan Sheralixonni, undan so'ng Xudoyorxon, Mallaxon ham bu orada yillab va oylab xonliq qilub o'tkan Murodixon, Said Sulton va boshqa xonlarni, Toshkand bekalaridan (hokimlaridan) Muhammad Sharif otaliq, Salimsoqbek (bu zot Buxoro amiri tomonidan Toshkand bekligiga qo'yilg'an edi. Musulmonqul tomonidan o'ldirildi), Azizbek, Normuhammad qushbegi, Shodmon o'roq, Qanoat shoh, Mirza Ahmad qushbegi, Mallaxon (Mallaxon og'asi Xudoyorxonning xonlig'i vaqtida Toshkandda uch yillab bek bo'lub turg'andir). Eng oxirdan Qo'shdodholarning bekligini ko'rub, o'tkuzgan. Xonliqning bosh noziri va qo'mondoni o'rnida bo'lg'analardan Musulmonqul va mulla Alimqullarni ko'rgan va urushlarida bo'lg'an. Piskatlik Qashg'ar amiri mashhur Yoqubbekni Qashg'arg'a kuzatkan./ (H.Q. Kulgulik) Matnda atoqli otlar bilan birgalikda shaxs otlari ham baravar qo'llanilgan. Ayniqsa, bek, beklilik, otaliq, xon, qushbegi, qo'mondon kabi shaxs otlaridan bugun ham ish yuritish, ma'muriy ishlarda foydalansa bo'ladi.

Sifat so'z turkumiga doir so'zlar, asosan, otlar bilan yonma-yon yuradi. Tasviriy matnlarda otlar bilan birga sifat turkumiga oid so'zlar boshqalarga qaraganda ko'proq qo'llanadi: /Ammo xon zamonlarini o'ylagan choqlarda: "Ey, xo'b zamonlar bor edi, tilla jobduqliq otlaru va basavlat beklaru o'rdalarda har kun qarsa bazimu... O'tub ketdi endi bir zamonlar", deb afsus yeb qo'yadir. Chorlar zamoni to'g'risiga kelganda.

Son so'z turkumiga doir so'zlar ham bor, biroq ayrimlarining talaffuzi bugungidan farq qiladi. aytilishiga ko'ra yozilgani uchun shu holatga kelgan bo'lishi mumkin: /Shundoq qilub, qirq yillab musulmon xonlari zamonini, elli yillab Rusiya chor istibdodini va endi besh yillabdirki mehnatkashlar hokimiyatini

ko'radir. Tabiiy, otam, Rusiya chor hukumatini sira ham tilamaydir. Chunki uning elli yillik istibdodini o'zi istiqbol etkan, Chorning achchig'-chuchugini ko'b tatig'an. Bu kungi mehnatkashlar hokimiyatiga ham uncha do'st emas. Buning ham sababi ma'lum. Sho'rolar hukumati to'g'risida ul hech bir tushuna olmaydir.

Sho'rolar hukumati haqida yuz qat istifos qilub unutadi./ Ellik sanoq soni talaffuzi natijasida shunday fonetik o'zgarishga uchragan bo'lishi mumkin. Matnda sonlar bilan birgalikda hisob so'zlari ham qo'llangan. Muallif foydalangan ayrim hisobni bildiruvchi so'zlar so'zlashuvda bo'lsa-da iqtisodiy muomalada mavjud emas. Masalan, miri hisob so'zi: /Oradan yo uch kun o'tadi va yo o'tmaydir. Eski turmush bilan zaharlanib qolg'an cholingiz boyag'i bir mirilikdak qilub ro'molg'a tugub berilgan tushundirishni unutadir-da, bolshevikni bir shaxs, kambag'aldan chiqq'an ulug' bir oq podshoh deb bila boshlaydir:

— Bolshevoying juda ham boturboy yigit ekan-da, askari ham bir-ikki lak bordir?

— Ha, besh-olti lak bor!.. (A.Q., 114).

Shu o'rinda ayrim so'zlarning, aniqrog'i otlarning grammatik ma'no bilan birgalikda uslubiy ma'no ham ifodalayotganini ta'kidlash lozim, masalan, boboy va yigit so'zlari kontekst bilan bog'liq holda yangi ma'no ifodalab kelmoqda: /O'bba bachchataloq... o'zi ham hirs qo'pg'an ekan. O'zimning bir oz darmonim yo'qroq-da, o'g'lim. Bo'lmasa, bolshevoyingga yigit bo'lub kirar edim. Agar bolshevoying oldig'a chiqsang mendan salom degin. Sani degin, boboy duo qildi degin... Bachchatalog'ingni bechoraparvar deb eshitaman: ko'ynak-ishtonga besh-o'n olchin mata so'rasang berarmikin?.. Xayr, bermasa ham go'rga. Ishqilub soliqlardan darhon qilsa bo'ldi. Hammadan ham boqqa ko'z olaytira ko'rmasun. (A.Q., 121) Matnda ayrim fe'llarning zamon ko'rsatkichlari hajviy kontekstga moslangani anglashiladi.

U. Tursunov ta'kidlagani kabi "So'zning oxirida tovush tushib qolishi apakopa deyiladi: rost — ros, xursand — xursan, gazeta — gazet — gazit, go'sht — go'sh, Toshkent — Toshken kabi. Bu hodisalar so'z tarkibidagi ayrim tovushlarning ma'lum fonetik sharoitlarda talaffuz qilinmasligi natijasida yuz beradi". [Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili Darslik qayta ishlangan, to'ldirilgan uchinchi nashri. —T.: O'zbekiston, 1992.30- b.]

Abdulla Qodiriyning "Dumbasi tushib qolgan emish" nomli hajviyasi mazmuni ham shu go'sht so'zi bilan bog'liq. /Otingdan o'rgulay go'sh!.. Nega muncha o'zingni bizdan aziz tutding? Biz sening qadringga yetmadikmi?.. Men o'quvchining go'sh haqidagi

holini bilmayman. Lekin o'zim go'sh otini eshitsam, og'zimdin kalaba-kalaba suvlar keladir. "Go'shning qadog'i o'tguz olti so'm, mulla aka!" (Ul mulla aka!) O'ttuz olti so'm! Ramazon iydidan beri jonvor go'shning ishtiyoqida oh-voh ila kun kechirib, Oziq sho'basining marhamatiga intizorlikda kelmoqda edim. To'g'risini aytmoqg'a majburdirmanki, bu orada butun kechalar go'sh ishtiyoqida uxlay olmadim. Ko'z ilinganda ko'rilgan tushka ham go'shdan boshqa nimarsa kirmaydi. / [Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili Darslik qayta ishlangan, to'ldirilgan uchinchi nashri. –T.: O'zbekiston, 1992.30-b.]

Morfologiyaning obyekti so'zning o'zgarish bilan bog'liq, ya'ni morfologik strukturasi. So'zning morfologik strukturasi – grammatik morfema, grammatik morfema sistemasi – morfologik kategoriya, so'zning o'zgarish asosidagi sistemasi (masalan, kitob, kitobning, kitobni, kitobga, kitobda, kitobdan [kitob] leksemasining kelishik kategoriyasi asosidagi o'zgarish sistemasi), so'z shaklning hosil bo'lish yo'l va usuli, vositachi, bu vositalarning turlaridir. [Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiyalar, 2010. – 414 b.] Quyidagi matnda qo'llangan ayrim so'zlarning morfologik strukturasi aniqlib olsak. /Ertaga Oziq komiteti go'sh berar emish, degan xabarlar yuriy boshlab, yuragim azbaroyi xursandlikdan tors yorilayozdi. Bu xabar halidan hali to'g'riligig'a chiqib, dilim urmoqqa boshladi. Butun sabru qarorim qo'ldan ketdi... Uy ichimizni endi surishtirishmay ham, yetti yashardan

tortib to yetmish yashargacha go'sh xursandligiga chiday olmay raqsga (tansaga) kelgan edi. / (A.Q., 127).

Fe'l so'z turkumining hajviy matnlarda ifodalanishini kuzatashimizda uning vazifadosh shakllari, jumladan harakat nomi, sifatdosh va ravishdosh shakllarining turli o'zgarishlarga uchraganiga guvoh bo'ldik. "An'anada grammatik kategoriya "ikki yoki undan ortiq, o'zaro zidlanuvchi, bir-birini taqozo va, o'z o'rnida, inkor qiluvchi, bir grammatik ma'no tagida birlashadigan grammatik shakllar tizimi" sifatida ta'riflab kelindi. Bu ta'rifga muvofiq, boshqa kategoriyalar shakllari kabi harakat nomining kamida uchta ([moq], [-ish], [-uv]), sifatdoshning ba'zan uch, ba'zan besh ([gan], [-ayotgan], [-adigan], [-uvchi], [-ar]), ravishdoshning oltita ([ib], [-a/y], [-gach], [-guncha], [-gani], [-gach]) shakli ajratiladi.

Sh.Rahmatullayev asosiy adabiyotlarda "harakat nomi" deb atab kelingan vazifadosh shaklni "fe'lining otdosh shakli" deya nomlash to'g'ri bo'lishini ta'kidlaydi. [Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: Universitet. 2006. 174-b.] Bizningcha, atamani o'zgartirmagani ma'qul, nomidan ko'ra uning kontekstda bajaradigan vazifasi muhim. Harakat nomlarining morfologik ko'rsatkichlari turli davrda turlicha bo'lgani o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Birgina -sh -ish (hozirgi zamonda faol) va -v-uv (A.Qodiriy davrida faol bo'lgan) morfologik shakllar matnga davr ruhini berib turibdi: /Ertagi go'sh shodligi ila bu kun kechasi butun uy ichimizda uyqu o'rniga ertaga oladigan go'shning qay holda tomoq qilmoq maslahati edi. / (A.Q., 129)

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mengliyev B., Sayfullayeva R., Boqiyeva G., Qurbonova M., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiyalar, 2010. 414-bet.
2. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili Darslik qayta ishlangan, to'ldirilgan uchinchi nashri. –T.: O'zbekiston, 1992.30-bet.
3. Qodiriy Abdulla. Dumbasi tushib qolgan emish. Eski shahar oziq sho'basiga bag'ishlayman. Felyeton
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiyalar, 2010. 414-bet.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: Universitet, 2006. 174- bet.

Zulfiya ZARIPOVA,  
 O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti  
 Nukus filiali o'qituvchisi, PhD

## OTALIK VA FEODAL DAVRLARDAGI AYOL-QIZLAR OBRAZINING TRANSFORMATSIYALANISH XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya:** qoraqalpoq dostonlarida botir ayol-qizlarning epik obrazlarining tasvirlanishida bir necha davriy qatlamlarning izlari saqlangan. Klassik va realistik davrga xos dostonlar qiyosiy o'rganilib, tahlil qilindi. Qiyas jirov ijro etgan «Qirq qiz» dostonidan misollar orqali botir qizlarning shaxsiy talablariga bog'liq epik yechimlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** *epos, folklor, otalik davr, jasurlik, "Qirq qiz".*

**Аннотация:** в изображении эпических образов храбрых женщин и девушек в каракалпакских эпосах сохранились следы нескольких периодов. Дастаны классического и реалистического периодов были сравнительно изучены и проанализированы. На примерах из эпоса «Сорок девушек», исполненного сказителем Киясом, представлены эпические решения, связанные с личными потребностями отважных девушек.

**Ключевые слова:** *эпос, фольклор, патриархат, храбрость, «Сорок девушек».*

**Annotation:** in the depiction of epic images of brave women and girls in Karakalpak epics, traces of several periods have been preserved. The epics of the classical and realistic periods were studied and analyzed comparatively. Based on examples from the "Forty Girls" epic performed by the storyteller Qiyas, epic resolutions related to the personal needs of brave girls are presented.

**Kew words:** *epic, folklore, patriarchy, bravery, "Forty girls".*

**Kirish.** Qoraqalpoq xalq dostonlarining syujet va epizodlarida botir ayollarning epik obrazlarining yaratilishi va badiiy tasvirlanishida bir necha davriy qatlamlarning izlari saqlanib qolganligini ko'ramiz. Shulardan biri, milliy dostonlarimizdan o'rin olgan patriarxal jamiyat talablariga mos shakllangan epik voqealarning aks ettirilishidir. Shuni ham ta'kidlashimiz kerakki, bu obrazlar tizimi bir vaqtda paydo bo'lgan, bir davrning mahsuli emas. Ular uzoq davrli bosqichlardan o'tib, jasorat motivlarining asosiy tamoyillarini saqlagan holda evolyutsion yo'l bilan kuchli transformatsiyaga uchrab, bizgacha yetib kelgan. Akademik T.Mirzayevning ta'kidlashicha, «Epos motivlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ular epos syujetining ajralmas asosiy qismi sifatida bir-biri bilan mustahkam aloqada tarixiy, siyosiy-iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi bilan, qaysi bir motivlar o'zgaradi, qaysi bir motivlar qayta ishlanadi» degan xulosaga keladi. Darhaqiqat, yirik folklor asarlarining shakllanib

rivojlanishida, kontaminatsion kechinmalarning keng o'rin egallashi aniq. «Har qanday folklor hodisasi bir vaqtning o'zida va so'zsiz holda xalq turmushining fakti sifatida ham, so'z san'atining fakti sifatida ham ahamiyatlidir. Boshqacha aytganda, har qanday folklor hodisasi hayotiy va estetik hodisadir»[2.]. Ya'ni, motivatsion birliklar orqali syujetlarning rivojlanish bosqichlarida lokal (mahalliy) xarakterga ega syujetlar barqarorlasha boshlaydi. Akademik T.Mirzayev dostonlarni mifologik bosqich, klassik bosqich, realistik bosqich deb katta uch turga bo'lgan edi. «Dostonning tarixiy rivojlanish bosqichlarini belgilashda hozirgacha yagona to'g'ri va samarali yo'l eposga tegishli bo'lgan xalq taqdiri bilan so'zsiz bog'liq holda ish olib borish hisoblanadi» [3.]. Shu va yuqoridagi ilmiy fikrlardan kelib chiqib, biz qoraqalpoq xalq dostonlaridagi klassik davrga xos bo'lgan va realistik epik dostonlarni qiyosiy bosqichda o'rganish va tahlil qilish imkoniyatlariga egamiz.

Masalan, dostonlarda ekzogamik (tartibsiz nikoh) nikohning ahamiyati yo'qolib borishi bilan ulardagi mifologik elementlarning o'zgarishlarga uchrashi, qizlarning turmushga chiqishida otalarning o'rni, qalin to'lash masalalari, zo'rlikka uchrash xavfidan qochib, elidan chiqib ketgan qizlar, dushmanlariga qarshilik ko'rsatuvchi qizlar, sotqin qizlar, qizlarga feodal qarashlar, ko'p xotinlilik, qizlarning diniy ta'sirlarning oqibatlarida jabrlanishi va h.k. kabi hayotiy omillar tadqiqot obyektimizning asosiy syujet va epizodik birikmalarini tashkil etadi.

### **Natijalar va muhokama**

Qoraqalpoq qahramonlik dostonlarida botir ayol-qizlar obrazlarining evolyutsion yo'lini aniqlash jarayonida arxaiik xarakterdagi miflarning semantik (mazmun) asoslarini patriarxal-urug'chilik davrlarida qanday xususiyatlarga uchraganini aniqlash bilan bir qatorda, miflar, miflashgan afsonalar, afsonalarning yangi estetik yo'nalishlari orqali yaratilish va tarqalish holatlariga e'tibor qaratish va har xil diniy e'tiqodlarning ta'siriga uchragan syujetlar va epizodlarda davriy omillarning holatlariga e'tibor qaratish qat'iy talab etiladi. Biroq, hozirgi xalq dostonlarining bizgacha yetib kelgan namunalari o'z mazmunlarida juda sinkretik (dastlabki qarash) ijtimoiy qatlamlarni o'zlariga singdirib olgani shunchalik, ulardagi u yoki bu ijtimoiy tarixiy reliktlarga qarab, dostonlarning umumiy evolyutsion bosqichlarini aniqlash va bu muammolardan obyektiv xulosalar chiqarish bir qator qiyinchiliklar tug'dirishi aniq [4.]. Biz bu yo'nalishda dostonlarning xronologik (tarixiy) xususiyatlariga, ijtimoiy-tipologik belgilariga (qaysi ijtimoiy manfaatlarining ustuvorligiga), dostonlarning tuzilishiga, syujetlarning kontaminatsion, yoki retrospektivlik sifatlariga, ayol-qizlarga bog'liq voqealarning dinamik, yoki bayon usullariga, ritorik elementlariga, qahramonlar va personajlarning harakatlaridagi tipiklashgan xarakterli belgilariga oid epik ma'lumotlarni qiyosiy tahliliy usullar bilan o'rganishimiz mumkin.

Milliy dostonlarimizda botir qizlarning shaxsiy talablari bilan bog'liq bir qator epik yechimlar o'rin olgan. Shularning biri, Qiyas jirov kuylagan «Qirq qiz» dostonida aniq aks etgan. Guloyim otasidan o'ziga qurol-yarog', ot, yoniga teng qizlarni berib, o'z oldiga oroldan qo'rg'on qurib berishni so'raganida, otasi:

*Jaman batti Gúlayim  
 Sózleriñniñ salmaǵı,  
 Talap qılıp alıs jayǵa,  
 Ol zamannan bul zaman,  
 Nashar atlar shapqan beken?...  
 Qanatlı menen qaǵısıp,  
 Tuyaqlı menen tartısıp,  
 Xanlar menen qarsilasıp,  
 Qatın dálil aytqan beken?...  
 Qural, nayza aqıl tawıp,  
 Xalıqtıñ abırayın jawıp,  
 Qatın jaw qaytarǵan beken?...  
 Kewil jiberme ondayǵa,  
 Dindi buzıp shappa ayǵa,  
 Xalıq ishinde ermek bolıp,*

*Shermende bolma qudayǵa* [5], – deb qizining aytganlariga qattiq norozi bo'ladi. Shunda Guloyim otasiga har xil davrlardagi ayol-qizlarning ilm-ma'rifatligi, mardligini eslatib bunday deb javob beradi:

*Ádalatlı jurtı abat,  
 Tegin etken qantıw-nabat,  
 Samnıñ qızı Tármar-nabat,  
 Xalıqqa qorǵan bolmadı ma?  
 Mısırdı sorap Balxiya,  
 Kitap ashqan Shaxruxiya,  
 Teńge qaǵıp Anafiya,  
 Atı mashǵul bolmadı ma?  
 Jer júzine atı málim,  
 Neshshe xanǵa bergen tálim,  
 Jurt sorap Tórebek xanıw,  
 Xalıqqa málim bolmadı ma?* [5.] – deb

o'z niyatidan qaytmasligini bildiradi.

Ushbu satrlardan ko'rinib turganidek, onalik davridagi an'anaviy obrazlarga qarshi otalik davri ehtiyojlariga muvofiq bo'ladigan yangi talablarning shakllanish elementlarini anglay olamiz.

“Qirq qiz” dostonida ekzogamik nikohning zaiflashuv elementlariga misol bo'la oladigan belgilarni uchrata olamiz. Masalan, Guloyimni tushida ko'rib oshiq bo'lgan begona yurtlik Arslon (Qiyas jirov variantida – Qiron) bilan bir qatorda uning mahalliy xizmatkorlari ham, cho'ponlari ham oshiq bo'ladi. Guloyim ularning barchasidan qutulib, o'z maqsadini amalga oshirish va or-nomusini qadrlash maqsadida aql va jasorat yo'llari bilan bosqinchilarga qarshi kurashishga majbur bo'ladi. Masalan, dostonning Qurbonboy

jirov variantida Ashir bilan Amonqul qoqaylar, Sayeke cho'noq singari personajlar "Guloyimday go'zalni, bir-biridan qizg'anib, ichlari o'tday yonadi." Ayniqsa, Jurin tazchani Guloyimni olish uchun qilgan harakatlarida yumor-satirik mazmundagi davriy qarama-qarshiliklar o'z aksini topgan. Jurin taz Guloyimning diydorini ko'rib unga oshiqqligini bildirishga ketganida boqib yurgan qo'ylariga bo'ri chopib, uchdan bir qismini qirib tashlaydi. Shunda omon qolgan oq qo'chqorga til bitib Juringa o'lgan bir qo'yni omonat qoldirgan so'zlarini bayon etadi:

*Aytqan waqta gapke qulaq salmasa,  
Dushpanini aya'ginan shalmasa,  
Aqirrette jagasidan tutarman,*

*Neke qiyip Guloyimni almasa* [6.], – degan shartlarni qo'yadi.

To'g'ri, bu o'rinda ijrochining improvizatorlik (tug'ma shoirlik) qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan voqeani rivojlantiruvchi epizodlar o'rin olgan. Biroq, muayyan mifologik qarashlarda turli hayvonlar bilan bog'liq e'tiqodlar shakllanganligini ham hisobga olishimiz kerak. Har qanday holatda ham o'sha davrlardagi odamlarning asosiy turmush muammolariga ta'sir ko'rsatgan totem kultining izlari borligi seziladi. Dostondagi qarg'aning bolasining Jurin tozga bergan maslahatida ham shunday holatlar seziladi. Bu epizodlar dostonida ertaklik elementlar tarzida foydalanilganligini tushunishimiz mumkin. Biroq, ularning tub manbalari qadimgi davrdagi ajdodlarimizning ruhiy tafakkur tajribalaridan

o'rin olgan tushunchalarning natijalari bo'lishi kerak.

Jurin taz Guloyimga uylanish uchun Islom dini ta'sirida paydo bo'lgan pir, payg'ambar kabi "yuqori" kuchlardan foydalanishga harakat qiladi. Hatto, Allayar boyning otasining qabriga yotib, boyning otasi bo'lib so'zlab, qizini Jurin tozga berishi kerakligi, bo'lmasa rozi bo'lmasligini aytib, Allayarni o'z fikriga ko'ndirishga erishadi. Biroq, shu epik voqealarning yechimlarini Guloyim o'zi amalga oshiradi. U otasi Allayorning aytganlariga rozilik bergan holda Jurin tozning hiyla-nayranglarini otasiga botirlik va aqllilik bilan isbotlab beradi [7.]. Bu yerda voqealar va epizodlarning davriy nuqtayi nazardan aralashib ketish xususiyatlari ko'rinadi. Masalan, Allayar boyning o'z so'zini qiziga tinglatishi, aytganiga ko'ndirishi uchun qilgan harakatlari patriarxal belgilar bo'lsa, Guloyimning o'z tengiga o'z ixtiyori bilan qo'shilish niyatlari yo'lidagi qarama-qarshiliklarni yengishi matriarxal davrning qoldig'i darajasida baholanishi kerak. Bu voqealarga diniy personajlarning aralashuvi, albatta, islom dinining ta'siri bilan bevosita bog'liq bo'lib, muayyan ijtimoiy muhitdagi epik an'analarning o'zgarishlarga uchrashiga olib kelgan.

**Xulosa** qiladigan bo'lsak, qoraqalpoq dostonlaridagi botir ayol-qizlar obrazlarining evolyutsiyasi xalqning ijtimoiy-tarixiy turmushining, shuningdek, estetik va ma'naviy rivojlanishining natijasidir. Bu obrazlar o'zining jasorat motivlarini saqlagan holda, ijtimoiy o'zgarishlarga muvofiq transformatsiyaga uchrab, bizgacha yetib kelgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзаев Т. «Алпомиш» дostonининг ўзбек вариантлари. – Т.: Фан, 1968. – Б. 130.
2. Чистов К.В. Фольклор и этнография. В. Кн.: Фольклор и этнография. – Л.: Наука, 1970. – С.4.
3. Мирзаев Т. «Алпомиш» дostonининг ўзбек вариантлари. – Т.: Фан, 1968. – Б. 26.
4. Мирзаев Т., Саримсақов Б. Дoston, унинг турлари ва тарихий тарақиёти // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Т.: Фан, 1981. – Б. 9.
5. Қарақалпақ фольклори. Көп томлық. 14-т. «Қырық қыз» (Қыяс жыраў варианты). – Нөкис: Илим, 2010. – Б.11. 12
6. Қарақалпақ фольклори. Көп томлық. 9-т. «Қырық қыз». (Қурбанбай жыраў варианты). – Т.: Маънавият, 2009. – Б. 24.
7. Қарақалпақ фольклори. Көп томлық. 9-т. «Қырық қыз». (Қурбанбай жыраў варианты). – Т.: Маънавият, 2009. – Б. 31-61

**Shaxobiddin MUSAYEV,**  
*O'zJOKU tadqiqotchisi*

## DAVLAT TILIGA DOIR SIYOSATNI YORITISHDA TAHLILIIY JANRLARDAN FOYDALANISHNING BA'ZI MASALALARI

**Annotatsiya:** maqolada “Davlat tili haqida”gi qonun ijrosining yoritilishida axboriy janrlardan foydalanish ahamiyati ochib berilgan. Gazetalarda chop etilgan maqolalar tahlil etilib, mavzuning OAVga olib chiqishning o'ziga xosliklari tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** *janr, tahliliy maqola, gazeta, intervyu, davlat tili, qonun, mavzu, yoritish.*

**Аннотация:** в статье выявлены применение аналитических жанров в газетах при исполнении закона «О государственном языке». Дается анализ опубликованных статей, исследуются особенности освещения темы в СМИ.

**Ключевые слова:** *газета, жанр, статья, государственный язык, закон, тема, освещение.*

**Annotation:** the article identifies the use of article genres in newspapers in the context of the implementation of the Law «On the State Language». It provides an analysis of published articles and examines the features of how the topic is covered in the media.

**Key words:** *newspaper, article, article, state language, law, topic, media coverage.*

O'zbekistonda “Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilinganiga 35 yildan ko'proq vaqt o'tdi. Ammo jamiyatning barcha bo'g'inlarida uning ijrosini ta'minlashda hamon muammolar saqlanib turibdi. Qonun talablarini yoritish va hatto ijrosini ta'minlashda ommaviy axborot vositalarining o'zni beqiyos deb bilamiz.

Xo'sh, davlat tili taraqqiyoti va muammolarini yoritishda gazetalar qay darajada ishtirok etyapti? Bu masala, ba'zi mutaxassislar aytmog'chi, mavsumiy (21 oktyabr arafasida) emasmi? Shu kabi savollarga javob topish maqsadida “Yangi O'zbekiston” va “Ma'rifat” nashrlarida e'lon qilingan tahliliy maqolalarni qiyoslab ko'ramiz.

Dastlabki fikr shundaki, davlat tili mavzusini yoritishga ixtisoslashgan jurnalistlarning ozligi sabab matbuotda asosan mutaxassislar chiqishlariga guvoh bo'ldik. Bunda tahririyat muharriri tilshunos yoki filologlarga ommabop shaklda maqola yozib berishlarini so'rab murojaat qiladi. Tabiiyki, tadqiqotchi olimlarning uslubi ilmiy bo'ladi. Ular yozgan maqolani oddiy o'quvchiga moslash uchun muharrir ancha zahmat chekadi. Zero ilmiy atamalar murakkabligi sabab gazetxonlar zerikarli tuyuladi. Nega shunday? Gazetxonlar uchun ilmiy atama va fikrlarning murakkab yoki zerikarli tuyulishi til, maqsad va auditoriya o'rtasidagi mos kelmaslik natijasidir. Buning bir necha asosiy sabablari bor, albatta. Masalan, ilmiy matnlarda qo'llaniladigan atamalar, ko'pincha, yuqori malakali o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'ladi. Oddiy gazetxon esa bu atamalarning ma'nosini har doim ham bilavermaydi. Dastlab tushunmasligi orqali qiziqishini yo'qotadi, fikrlashni xohlamaydi va zerikarli deb qabul qiladi. Ilmiy atamalar ommabop maqolalarda o'zgartirilmasdan beriladigan bo'lsa, o'quvchi ularni tushinishda qiynaladi va natijada mavzuga qiziqishi pasayadi. Agar maqola omma uchun mo'ljallangan bo'lsa, ilmiy atamalar soddagina tilda izohlanishi yoki

hayotdan misollar bilan tushuntirilishi kerak. Shunda o'quvchi nafaqat zerikmaydi, balki ilmni qiziqarli deb qabul qila boshlaydi.

Shu bois aksar tahririyatlar bunday materiallardan foydalanishmaydi. Lekin uning o'ziga xosligini, zarurligini ham inkor etib bo'lmaydi. Bunday uslubdagi jurnalistik asarlar tahliliy janrlarda ko'p uchraydi. O'rganilgan nashrlardagi tahliliy maqolalarning ana shu va boshqa jihatlari to'xtalish bilan birga, avvalo, ularning qaysi turlarda yozilganiga e'tibor qaratamiz.

Professor N.Toshpo'latova tahliliy maqolalarning bir necha turlarini sanab o'tadi: “Matbuot nashrlarida mazmun-mohiyatiga qarab maqolalarning bir necha turini uchratish mumkin. Bularga: bosh maqola, targ'ibiy-tashviqiy maqola, ilmiy-ma'rifiy, diniy-ma'rifiy, ilmiy-ommabop, tahliliy-tanqidiy muammoli, bahs-munozarali, ko'ngilochar va h.z. Ularni yana davom ettirish mumkin. Maqola turlari bosma nashrning asosiy yo'nalishi, mazmuni auditoriyaning talabiga qarab ba'zan faollashadi yoki aksincha, ba'zan sustlashadi”.

O'rganilgan nashrlardagi maqolalar orasida N.Toshpo'latova sanagan turlardan ko'ngilochar maqolalarnigina uchratmadik xolos. Holbuki, davlat tili mavzusi jiddiy mushohada, tahlilni talab qiladigan millat ravnaqiga daxldor masaladir.

“Yangi O'zbekiston” gazetasida tahliliy-tanqidiy muammoli, bahs-munozarali maqolalardan ko'ra targ'ibiy-tashviqiy, ilmiy-ma'rifiylari ko'proq. Muammo ham ko'tarilgandek bo'ladi. Masalan, hukumatning bir hujjati bahonasida muammoni OAVga yoritish bilan uni jamoatchilik muhokamasiga olib chiqib amaldagi hukumatning tegishli hujjatni qabul qilishiga turtki berishning afzalligi ko'proqdir.

“Yangi O'zbekiston” gazetasida chop etilgan “Til va jamiyatning o'zaro munosabati” maqolasi muallifi O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti bo'lim

mudiri, filologiya fanlari doktori Yorqinjon Odilovdir. Maqoladagi "Davlat tilini rivojlantirish departamenti huzurida Atamalar komissiyasining tashkil etilishi ayni ehtiyoj natijasi bo'lib, terminologiyani o'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan foydalanib milliyalashtirish, tartibga solish uning asosiy vazifalaridandir" ko'chirmasi e'lon qilingan biror farmon yoki qarordan keyin beriladigan izoh yoki munosabatga, janr nuqtayi nazaridan qaraganda tahliliy jurnalistikaning targ'ibiy-tashviqiy turiga o'xshab ketadi. Albatta, ushbu hujjat zaruratini sharhlaganda muallifning e'tirozlari ham ko'rinadi. Masalan, globallashuv davri o'zbek tili terminologiyasini tartibga solishda ham vertikal ta'sir choralarga ehtiyoj borligini ta'kidlarkan muallif o'zbek tili terminologiyasida muqobili bo'lgani holda sohaviy leksikaga qabul qilingan chet so'zlar yig'ilib qolganligini, xususan, kompetensiya, kreativ kabi so'zlar o'rinsiz o'zlashganiga e'tiroz bildiradi, ularning tilimizda layoqat, ijodiy degan so'zlar to'la almashtira olishini aytadi. "Davlat tilini rivojlantirish departamenti huzurida Atamalar komissiyasining tashkil etilishi ayni ehtiyoj natijasi bo'lib, terminologiyani o'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan foydalanib milliyalashtirish, tartibga solish uning asosiy vazifalaridandir", deya mavjud voqelikni izohlaydi.

Toshkent davlat yuridik universiteti professori, filologiya fanlari doktori Shuhrat Ko'chimovning "Davlat tilini joriy etishda yangi tizim" maqolasi nomlanishidan bir hujjat haqida sharh berilgandek ko'rinsa-da, maqolada tanqidiy fikrlar, o'rinni takliflar bor. Gazetadagi "Ko'r-ko'rona taqlid – johillik" maqolasi tahliliy jurnalistikaning diniy-ma'rifiy turida yozilgan. Maqola sarlavhasidanoq mavzuga tanqidiy qarash anglashiladi. O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Nuriddin Xoliqnazarov qalamiga mansub maqolada jamoat joylarida, ko'chalarda, binolar peshtoqida yozuvlar, turli lavha va reklamalar ko'pincha xorijiy tillarda, ma'naviyatimizga yot mazmunda aks ettirilgani tanqid qilinadi.

"Ma'rifat" gazetasida chop etilgan "Til siyosatini muvofiqlashtirib boradigan muassasa zarur" deb nomlangan maqolaning sarlavhasidanoq unda tahlil, tanqid, taklif mavjudligi ko'rinib turibdi. Maqola o'qilganda amalga oshirilayotgan ishlar sanab o'tilsa-da, asosiy diqqat muammoga qaratiladi va qaror qabul qiladigan hukumat idorasi, ularning rahbarlariga murojaat qilinadi: "Biz shu mamlakatning ziyoli fuqarosi va tilshunos sifatida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida olib borilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlaymiz, ijro hokimiyatini ixchamlashtirish orqali takomillashtirish yo'lida ko'rilgan choralarning maqbulligini ta'kidlaymiz. Shu bilan bir qatorda, Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish departamenti boshqa shaklda bo'lsa ham qayta tashkil etilishiga e'tibor qaratilishini so'raymiz. Chunki:

– ona tilimiz nufuzi va mavqeini oshirish borasida boshlangan ishlar nazoratsiz qolib ketmasligi uchun;

– so'nggi uch yilda davlat tili bo'yicha chiqarilgan 2 ta farmon, Vazirlar Mahkamasining 20 ga yaqin qarorlari ijrosini ta'minlash va nazorat qilish uchun;

– Prezidentimizning PF-6084-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2020-2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi"da 7 yo'nalishdan iborat juda katta vazifalar belgilangan, ayni shu vazifalarning to'laqonli bajarilishiga mas'ul bo'lgani uchun;

– Vazirlar Mahkamasining 662-sonli qarori bilan belgilab qo'yilgan normativ-huquqiy hujjatlarni lingvistik ekspertizadan o'tkazishni muvofiqlashtiruvchi bo'lgani uchun;

– eng asosiysi, hukumatning 61-sonli qarori bilan 2023-yil 1-yanvardan to'liq lotin yozuviga o'tilishi munosabati bilan bu qaror bajarilishiga bevosita mas'ul bo'lgani uchun".

Fikr va takliflardan ko'rinib turibdiki, davlat tili haqidagi hujjatlarni amalga qo'llashni nazorat qiluvchi muassasa yo'q. Shu bois belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshishiga shubha paydo bo'lgan. Mazkur maqolada keltirilgan muammodan, birinchidan, jamoatchilik xabardor bo'ladi, ikkinchidan, bevosita shu sohaga javob beruvchilar uchun mavjud muammoga yechim topilishi mumkin.

"Ma'rifat" gazetasida davlat tili muammolariga bag'ishlangan tahliliy maqolalar ko'lami juda keng. "Imlo lug'atining o'zida xato bo'lsa..." (11.05.2019 y.), "Gapda ravishlar soni nechta?..." (11.05.2019 y.), "Yoxud uzluksiz ta'lim bo'g'inlarida ravish qanday o'qitilishi kerak?" (03.08.2019 y.), "So'z tarkibi o'quv lug'ati" bilan ishlashga tayyormisiz? (15.01.2020 y.), "Yana "ona tili" darsligidagi muammolar" (19.02.2020 y.), "Grammatikaga yem bo'lgan o'zbek tili" (10.06.2020 y.), "OAV tili hayotdan uzilib qolgan" (24.06.2020 y.), "Davlat buyurtma berdi, nega natija sezilmayapti?" (02.12.2020 y.), "O'zbek yozuvida birdamlikka erishish vaqti keldi!" (10.02.2021 y.), "2023 yilga oz qoldi... lotin alifbosiga to'liq o'tishga ulguramizmi?" (23.11.2022 y.), "Alifbomiz "kompyuter alifbosi" bo'lishga tayyormi?" (15.03.2023 y.), "Bir harf mojarosi" (01.11.2023 y.) kabi sohaning turli jihatlarini tahliliga bag'ishlangan maqolalar fikrimiz dalilidir.

"Yangi O'zbekiston" kundalik gazetasida 2019-2024 yillarda mavzuga doir chop etilgan 58 publitsistik asarning 25 tasi tahliliy janrlarda yozilgan bo'lsa, "Ma'rifat" haftalik gazetasida bu fursatda 300 dan ziyod materialning asosiy qismi tahliliy janrlarga to'g'ri keladi. Yana bir o'ziga xosligi shundaki, gazeta 30 ta sonini davlat tili mavzusiga bag'ishlagan.

Xulosa qilib aytganda muammolar yetarli darajada yoritilayotgandek taassurot qoldiradi. Lekin nimadir yetishmayotgandek tuyulaveradi. Fikrimizcha jarayonni yoritishda tizimli yondashuv kerak. Buning uchun O'zbekistonda davlat tilini muntazam rivojlantirishga doir axborot konsepsiyasini shakllantirish milliy jurnalistikaning kun tartibidagi vazifa hisoblanadi.

Sobir TUYCHIEV,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,  
Raqqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i

## FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA AKT TERMINLARINING STANDARTLASHUVI: NORMATIV JARAYON VA TERMINOLOGIK MUVOFIQLIK

**Annotatsiya:** maqolada fransuz va o'zbek tillarida AKT terminlarining standartlashuvi, normativ jarayonlari va terminologik muvofiqlik masalalari qiyosiy tahlil qilinadi. Fransuz tilidagi ekvivalent yaratish an'anasi va o'zbek tilidagi moslashuvchan o'zlashuv mexanizmlari yoritiladi. Tadqiqot har ikki tilning AKT leksikasida milliy norma va xalqaro moslikning o'zaro ta'sirini ochib beradi.

**Kalit so'zlar:** AKT terminologiyasi, standartlashuv, normativ jarayon, terminologik muvofiqlik, o'zlashuv, kalkalash, ekvivalent yaratish, lingvistik integratsiya.

**Аннотация:** в статье проводится сопоставительный анализ стандартизации терминов ИКТ во французском и узбекском языках. Рассматриваются механизмы официального эквивалентирования во французском языке и гибкие процессы заимствования в узбекском. Исследование выявляет взаимодействие национальной нормы и международной терминологической согласованности в современной ИКТ-лексике.

**Ключевые слова:** терминология ИКТ, стандартизация, нормативный процесс, терминологическая согласованность, заимствование, калькирование, создание эквивалентов, лингвистическая интеграция.

**Annotation:** the article offers a comparative analysis of ICT terminology standardization in French and Uzbek. It examines the French model of official equivalent creation and the more flexible borrowing-based approach in Uzbek. The study highlights how national linguistic norms interact with international terminological compatibility within the rapidly developing ICT lexicon.

**Key words:** ICT terminology, standardization, normative process, terminological alignment, borrowing, calquing, equivalent creation, linguistic integration.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasining jadal taraqqiyoti til tizimlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Kompyuter, internet, kiberxavfsizlik, sun'iy intellekt, raqqamli platformalar kabi zamonaviy konseptlar bilan bog'liq terminlarning tez suratda ko'payishi ularni standartlashtirish, normativ jihatdan birxillash va xalqaro terminologik muvofiqlikni ta'minlashni talab etmoqda. Fransuz va o'zbek tillari ushbu jarayonda o'ziga xos yo'lni bosib o'tmoqda: biri – kuchli normativ-puristik maktabga ega bo'lgan fransuz tili, ikkinchisi – globallashtirish sharoitida o'z termin tizimini shakllantirib borayotgan o'zbek tili.

AKT terminlarining standartlashuvi ikki asosiy omilga tayanadi: (1) terminlarning xalqaro muvofiqligi va o'zaro tushunarililigi; (2) tilning milliy normasi, fonetik-morfologik mosligi hamda lingvokulturologik xususiyatlari.

Quyida fransuz va o'zbek tillarida AKT terminologiyasining standartlashuvi, davlat siyosati, normativ organlarning roli, terminlarni milliyashtirish strategiyalari hamda ikki tilning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari ilmiy tahlil qilinadi.

Terminologiya nazariyasida standartlashuv (standardisation, normalisation) terminlarning yagona shaklda qo'llanishini, ortiqcha variantlarni kamaytirishni, tushunarlilikni oshirishni maqsad qiladi. V.V. Vinogradov standart termin tizimining asosiy belgilarini aniqlik, barqarorlik, mantiqiy izchillik va xalqaro moslik sifatida belgilaydi [1].

F. de Sossyurning tilning ijtimoiy tabiati haqidagi g'oyalari [2] standartlashuv jarayoni ham aynan jamiyat ehtiyojlariga asoslanganini ko'rsatadi.

Texnik terminlarni standartlashtirish bo'yicha dunyo miqyosidagi asosiy tashkilotlar: ISO (International Organization for Standardization), IEC (International Electrotechnical Commission).

Fransiyada esa normativ jarayonni o'zida mujassamlashtirgan "Commission d'enrichissement de la langue française", o'zbek tilida esa – "O'zbek tilining izohli lug'ati", O'zTR (Terminologiya qo'mitasi), Davlat standartlari (DTS) asosiy rol o'ynaydi.

Fransuz tili uzoq yillardan beri purizm an'alariga ega bo'lib, xorijiy terminlar oqimini cheklash va ularning fransuzcha ekvivalentlarini yaratish davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanadi. AKT terminlarini fransuzchalashtirish jarayoni quyidagi mexanizmlarga tayanadi: A. Rasmiy ekvivalent yaratish (équivalent officiel): fransuz tilida email emas, balki courriel; hashtag emas, mot-dièse; cloud computing o'rniga informatique en nuage qo'llanishi tavsiya etiladi. Bu terminlar "Commission d'enrichissement de la langue française" tomonidan rasmiy tasdiqlanadi va "Journal Officiel"da e'lon qilinadi. B. Morfologik moslashgan o'zlashmalar – ba'zi ingliz terminlari to'g'ridanto'g'ri qabul qilinadi, biroq fransuz fonetik-morfologik tizimiga moslashtiriladi: interface, serveur, logiciel, cybersécurité. Bu jarayon R. Guilbert tomonidan institutsional neologizatsiya sifatida tasniflangan [3]. D. Normativ nazoratning kuchliligi – fransuz standartlashuv tizimi yuqori darajada markazlashgan: (1) davlat tomonidan rasmiy ekvivalentlar majburiy tavsiya etiladi, (2) OAVlari, ta'lim-tarbiya tizimi va davlat organlari shu variantlarga amal qiladi. Natijada fransuz tilidagi AKT leksikasi boshqa tillarga nisbatan ancha tartibli va "milliy tusli" ko'rinadi.

O'zbek tilida AKT terminlari asosan ingliz tilidan o'zlashgan bo'lib, standartlashuv jarayoni keyingi yillarda faollashgan. O'zbek terminologik tizimining asosiy xususiyati – moslashuvchanlik va variantlilikdir.

O'zlashuvning ustuvorligi – ko'pchilik AKT terminlari ingliz tilidan deyarli o'zgarishsiz qabul qilinadi: fayl (file), onlayn (online), server, login, internet, portal. E. Xaugen buni "fonetik-morfologik integratsiya"ning yengil shakli, ya'ni minimal moslashuv [4] deb izohlaydi.

Kalkalash va milliyashtirish harakati – o'zbek tilida ayrim terminlarga milliy muqobillar yaratilmoqda: social network → ijtimoiy tarmoq, cloud computing → bulutli texnologiya, search engine → qidiruv tizimi. O'zTR tomonidan ishlab chiqilgan so'nggi terminlar ro'yxatlarida "axborot muhiti", "dasturiy mahsulot", "raqamlashtirish" kabi standartlashgan birliklar mavjud.

Normativ jarayonning bosqichma-bosqich shakllanishi – o'zbek tilida standartlashuv jarayoni fransuz tiliga nisbatan sustroq boradi, chunki (1) yangi terminlar OAV orqali tez ommalashadi, (2) rasmiy ekvivalent kech shakllanadi, (3) parallel variantlar uzoq davom etadi (masalan: brauzer / ko'ruvchi / browser).

Shunga qaramay, so'nggi yillardagi davlat siyosati til islohotlarini tezlashtirmoqda.

Fransuz va o'zbek tillarida AKT terminlarini standartlashtirish jarayoni umumiy global omillar ta'sirida kechsa-da, normativ mexanizmlar, til siyosati va terminlarni qabul qilish strategiyalarida sezilarli farqlar mavjud. Fransuz tilida standartlashuv markazlashgan bo'lib, xorijiy terminlarning o'rniga milliy ekvivalent yaratish an'anasi ustunlik qiladi. Courriel, mot-dièse, informatique en nuage kabi birliklarning rasmiy qo'llanishi davlat organlari tomonidan tasdiqlanadi va me'yoriy hujjatlar orqali mustahkamlanadi. O'zbek tilida esa aksincha, o'zlashma terminlar keng qo'llanadi; fayl, server, onlayn, login kabi birliklar minimal fonetik-morfologik moslashuv orqali tilga kirib bormoqda. Kalkalash jarayoni mavjud bo'lsa-da, u tanlab qo'llanadi va ayrim konseptlarga xos: ijtimoiy tarmoq, bulutli texnologiya. Natijada fransuz tilida variantlilik qat'iy cheklanadi, o'zbek tilida esa muayyan termin atrofida parallel shakllar ma'lum muddat davom etishi mumkin. Bu farqlar til siyosatining darajasi, normativ komissiyalarning ta'siri va tilning ichki moslashuvchanligi bilan belgilanadi.

AKT terminologiyasini standartlashtirish texnik, ilmiy va kommunikativ jarayonlarda izchillikni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Terminlarning yagona shaklda qo'llanishi tushunarlilikni oshiradi, tarjima jarayonlarida aniqlik yaratadi va transmilliy axborot almashinuvini osonlashtiradi. Fransuz va o'zbek

tillarida ushbu jarayonning samarali tashkil etilishi texnik hujjatlar, rasmiy matnlar, ta'lim jarayonlari hamda raqamli kommunikatsiyada muvofiqlikni kuchaytiradi. Standartlashgan terminlarning barqarorlashuvi milliy tilning rivojlanishiga, ilmiy-texnik lug'at fondining boyishiga va xalqaro integratsiya uchun mos ilmiy tilning shakllanishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan, AKT terminlarining me'yorlashtirilgan tizimi zamonaviy til taraqqiyoti va texnologik rivojlanish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalaydi.

AKT terminlarining standartlashuvi faqat normativ hujjatlar va termin komissiyalari faoliyati bilangina cheklanmaydi; ular real kommunikativ maydonda qanday qo'llanilayotgani ham jarayonning muhim ko'rsatkichidir. Fransuz tilida rasmiy ekvivalentlar ko'pincha OAVlari, ta'lim tizimi va davlat saytlarida izchil qo'llanadi, bu esa standartlarning amalda mustahkamlanishiga olib keladi. Masalan, courriel va mot-dièse so'zlari davlat idoralari va telekanallar nutqida muntazam uchraydi, shu bois ular keng auditoriya tomonidan tabiiy qabul qilinmoqda.

O'zbek tilida esa amaliy qo'llanish ko'pincha bozor ehtiyojlari va OAV tendensiyalariga tayanadi. Ko'plab o'zlashma terminlar – fayl, onlayn, brauzer, server – foydalanuvchilar orasida shu qadar keng tarqalgan ekanki, ular uchun rasmiy muqobilar ishlab chiqilganda ham parallel variantlar ma'lum muddat davom etadi. Bu holat o'zbek tilining moslashuvchanligini ko'rsatish bilan birga, standart terminlarning ommalashuvi uchun mediamakonning ahamiyatini kuchaytiradi.

Shuningdek, raqamli diskursdagi tezkor yangilanishlar har ikki tilning terminologiyasiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Internet va texnik platformalar orqali kirib kelayotgan yangi birliklar – cyberattaque, deepfake, cloud service, API kabi terminlar – fransuz tilida darhol normativ baholanishga yuborilsa, o'zbek tilida ular avvalo foydalanuvchi amaliy nutqida shakllanib, keyin normativ maydonga ko'chadi. Natijada amaliy qo'llanish va normativ tasdiqlanish o'rtasidagi vaqt farqi ikki tilda turlicha bo'lib, bu ularning terminologik rivojlanish modelini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, tahlillar shuni ko'rsatadiki, fransuz va o'zbek tillarida AKT terminlarining standartlashuvi global texnologik jarayonlar ta'sirida rivojlanar ekan, har ikki til o'ziga xos normativ yondashuvlarga tayanadi. Fransuz tilida davlat tomonidan boshqariladigan ekvivalent yaratish tizimi natijasida terminlar rasmiy diskursda tez barqarorlashadi. O'zbek tilida esa o'zlashma birliklarning faol qo'llanishi, OAVning ta'siri va foydalanuvchi nutqi standartlashuv jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Amaliy qo'llanish va normativ tasdiqlanish o'rtasidagi vaqt farqi ikki tilda turlicha bo'lib, bu ularning terminologik rivojlanish modelini belgilaydi. Umuman olganda, AKT terminlarini standartlashtirish milliy til normalarini saqlagan holda xalqaro terminologik moslikni ta'minlashga xizmat qiladi va zamonaviy raqamli kommunikatsiya uchun muhim lingvistik asos yaratadi. Demak, AKT terminlarining standartlashuvi raqamli muloqotda aniqlikni ta'minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Виноградов В.В. Лексикология и терминология современных языков. – Москва: Наука, 2001. – 256 с.
2. Saussure F. de. Cours de linguistique générale / Publié par Ch.Bally et A.Sechehayé, avec la collaboration de A.Riedlinger. – Lausanne; Paris: Payot, 1916. – 336 p.
3. Guilbert R. La formation du vocabulaire de la langue française. – Paris: Larousse, 1975. – 285 p.
4. Haugen E. The analysis of linguistic borrowing // Language. – 1950. – Vol. 26, No. 2. – pp. 210–231.

**Farida TOSHBOYEVA,**  
*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*  
*O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi*  
[toshboyevafarida46@gmail.com](mailto:toshboyevafarida46@gmail.com)



## XIX-XX ASRLAR RUS VA O'ZBEK ADABIYOTIDA TADBIRKOR OBRAZI BADIYYATI

**Annotatsiya:** ushbu maqola XIX–XX asrlar rus va o'zbek adabiyotida tadbirkor obrazining shakllanishi, evolyutsiyasi va badiiy talqinini qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada rus adabiyotida tadbirkor obrazi ko'pincha kapitalistik munosabatlarning ma'naviy inqirozi, korrupsiya (N.V. Gogolning “Revizor” va “O'lik jonlar” asarlaridagi amaldorlar hamda Chichikov) va an'anaviy qadriyatlarga tahdid sifatida salbiy yoki ziddiyatli tus olgani ko'rsatiladi. Sovet davrida esa bu obraz mutlaqo qoralanib, so'ngra post-sovet davrida murakkab va tanqidiy ruhda qayta paydo bo'lgani ta'kidlanadi. O'zbek adabiyotida esa u keyinroq, ayniqsa jadidchilik davrida milliy uyg'onish, iqtisodiy mustaqillik va ma'rifatparvarlikning ramzi sifatida idealizatsiya qilingani, biroq Cho'lponning “Kecha va Kunduz” romanidagi Miryoqub kabi obrazlar orqali bu idealning ichki ziddiyatlari, shaxsiy egoizm va axloqiy muammolari ham yoritilgani tahlil etiladi. Sovet davrida bu obrazga ham salbiy tus berilib, mustaqillik yillarida qayta shakllana boshlagani qayd etiladi.

**Kalit so'zlar:** *rus adabiyoti, O'zbek adabiyoti, tadbirkor obrazi, Gogol, jadidchilik, kapitalizm, korrupsiya, realizm, satira, ijtimoiy-iqtisodiy tahlil, qiyosiy adabiyotshunoslik.*

**Annotation:** this article is devoted to a comparative analysis of the formation, evolution and artistic interpretation of the image of the entrepreneur in Russian and Uzbek literature of the 19th–20th centuries. The article shows that in Russian literature the image of the entrepreneur often took on a negative or contradictory character as a symbol of the spiritual crisis of capitalist relations, corruption (officials and Chichikov in N.V. Gogol's works “The Inspector General” and “Dead Souls”) and a threat to traditional values. It is noted that in the Soviet period this image was completely condemned, and then in the post-Soviet period it reappeared in a complex and critical spirit. In Uzbek literature, it was later idealized as a symbol of national revival, economic independence and enlightenment, especially during the Jadid period, but it is analyzed that through such characters as Miryoqub in Cholpon's novel “Night and Day”, the internal contradictions, personal egoism and moral problems of this ideal were also highlighted. It is noted that this image was also given a negative connotation during the Soviet era and began to take shape again during the years of independence.

**Key words:** *russian literature, Uzbek literature, image of entrepreneur, Gogol, Jadidism, capitalism, corruption, realism, satire, socio-economic analysis, comparative literary studies.*

**Kirish.** Adabiyot har doim jamiyatning ko'zgusi bo'lib kelgan, xususan, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va yangi iqtisodiy sinflarning paydo bo'lishi adabiy asarlarda o'z aksini topadi. Ushbu kontekstda, ishlab chiqarish, savdo va moliyaviy faoliyat orqali boylik orttirishga intiluvchi shaxs – tadbirkor obrazining badiiy talqini XIX–XX asrlar rus va o'zbek adabiyoti uchun muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Har ikki adabiyotda ham mazkur obrazning shakllanishi va evolyutsiyasi o'ziga xos tarixiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u turli davrlarda har xil rang-baranglik va ziddiyatlar bilan tasvirlangan.

Ushbu maqolada XIX–XX asrlar rus va o'zbek adabiyotida tadbirkor obrazining badiiy evolyutsiyasi, uning shakllanishiga ta'sir etgan omillar, yozuvchilarning unga bo'lgan munosabati hamda ikki adabiyotdagi o'xshash va farqli jihatlar qiyosiy tarzda o'rganiladi. N.V. Gogolning “Revizor” komediyasida<sup>1</sup> Rossiyadagi mansabparastlik, xazinani talon-taroj qilish, poraxorlik kabi illatlar hajv ostiga olingan. Gogol o'z komediyasi haqida shunday deb yozadi: “Men “Revizor”da Rossiyadagi o'sha vaqtda o'zim bilgan hamma yaramasliklarni, ro'y berib turgan hamma adolatsizliklarni bir nuqtaga

1 Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – T.: “Akademnashr”, 2020.

to'plab ko'rsatishga, birvarakayiga hamma narsa ustidan kulishga qaror qildim"<sup>2</sup>. Gogolning "Revizor" pyesasi rus dramaturgiyasida o'ziga xos inqilob qildi, kompozitsiya va mazmun jihatidan. Gogol har doim Rossiyaning kelajagiga ishongan, shuning uchun u san'at yordamida jamiyatni "davolashga" harakat qilgan. Mavzu jamiyatdagi illatlar, byurokratiya va uning qonunbuzarligi, ikkiyuzlamachilik, ma'naviy qashshoqlik, umuminsoniy ahmoqlikdir. 1835-yilda Nikolay Vasilyevich "O'lik jonlar" asarini to'xtatib, Pushkindan ijtimoiy kamchiliklarni, yuqori martabalar hayotini masxara qiladigan satirik pyesa yozish uchun g'oyalarni so'radi. Pushkin Gogol bilan P. P. Svininning Bessarabiyada sodir bo'lgan hikoyasini o'rtoqlashadi. Shuningdek, u bir marta Nijniy Novgorodda Pugachev haqida material to'plash uchun kelganida o'zi ham xuddi shunday vaziyatga tushib qolgani haqida xabar beradi. Vaziyat haqiqatdan ham kulgili, Gogolga bu yoqdi va 1835-yil oktyabr-noyabr oylarida u pyesa yozdi. N.V. Gogol realizmi tipik odamni tipik sharoitlarda joylashtirdi, ammo dramaturg erishmoqchi bo'lgan natija tomoshabinga illatlar haqidagi o'yindan ko'ra ko'proq narsani yetkazish edi. Muallif spektaklning asosiy g'oyasini aktyorlar va rejissyorlarga yetkazish umidida bir necha bor urinib ko'rdi, qo'shimcha sharhlar va spektakl uchun tavsiyalar yozdi. Gogol ziddiyatni iloji boricha to'liq ochib berishni xohladi, vaziyatning kulgili, bema'niligini ta'kidlash.

Asarning asosiy mavzusi jamiyat muammolari va illatlari, byurokратиyaning ahmoqligi va ikkiyuzlamachiligi bo'lib, bu sinf hayotining axloqiy va ma'naviy tomonlarini ko'rsatadi. Komediya tili o'tkir, satirik, kaustik. Har bir qahramonning o'ziga xos nutq uslubi bor, uni xarakterlaydi va qoralaydi. Asar qahramonlari orasida ijobiy obrazlar yo'q, bu muallif ishlagan janr va yo'nalish uchun mutlaqo yangilik. Bu fitna oddiy qo'rquvdan iborat – yuqori martabali revizorlar har qanday odamning taqdirini shunday hal qilishlari mumkinki, u jamiyatdagi mavqeini yo'qotib, jiddiy jazoga tortilishi mumkin edi. Gogol jamiyatdagi illatlarning katta qatlamini ochib berishni va shu orqali uni ulardan davolamoqchi edi.

Rusadabiyotidatadbirkorobraziko'pinchama'naviy qadriyatlar va moddiy manfaatlar o'rtasidagi ziddiyat fonida, ko'proq tanqidiy va salbiy ruhda tasvirlangan. Bu asosan, Rossiyaning kapitalistik munosabatlarga

kechroq va og'riqli o'tishi, shuningdek, ziyolilarning an'anaviy ruhoniylilik va ma'naviy izlanishlarga moyilligi bilan bog'liq. XIX asr rus adabiyoti uchun "tadbirkor" obrazining shakllanishida eng muhim davr bo'ldi. Krepostnoylikning bekor qilinishi (1861-yil) va sanoatning rivojlanishi yangi iqtisodiy munosabatlarga zamin yaratdi. Gogolning tadbirkor obraziga yondashuvi chuqur tanqidiydir. Chichikov "O'lik jonlar" zamonaviy ma'noda "tadbirkor" emas, balki "firibgar-ishbilarmon"dir. Uning "tadbirkorligi" sof aldov, spekulatsiya va o'lik jonlarni sotib olish kabi g'ayriaxloqiy sxemalarga asoslangan. Gogol u orqali rus jamiyatining eski krepostnoylik tuzumi yemirilayotgan, ammo uning o'rniga axloqsiz va yirtqich kapitalistik munosabatlar kelayotgan davrdagi ma'naviy inqirozini fosh etadi. Chichikov obrazi – hisobsizlik, ochko'zlik va insoniy qadriyatlarining yo'qligi ramzidir. "Revizor" asarida Shahar hokimi, Gorodnichiy va boshqa amaldorlar ham o'z lavozimlarini shaxsiy "biznes"ga aylantirganlar. Ular pora olib, tovlamachilik qilib, mansablarini suiiste'mol qilib "boylik orttiradilar". Bu ham o'ziga xos, korrupsiyaga asoslangan "tadbirkorlik" turi bo'lib, Gogol uni satirik va grotesk tarzda fosh etadi. Ostrovskiyning dramalarida rus savdogarlari va kichik burjua sinfi vakillari markaziy o'rinni egallaydi. Dikoy, Marfa Ignatevna Kabanova obrazlari eski rus savdogarligining yorqin namunalar bo'lib, ular ko'pincha jaholatli, zolim, o'zgarishlarga qarshi, patriarxal qadriyatlarga mutaassiblik bilan yopishib olgan holda tasvirlangan. Ularning "tadbirkorligi" eski usullar, ekspluatatsiya va avtoritar boshqaruvga asoslangan.

Lev Tolstoy, Fyodor Dostoyevskiylarning asarlarida boylik va pul masalasi muhim, ammo "tadbirkor" obrazlari ko'pincha ma'naviy qashshoqlik, axloqsizlik yoki jamiyatning tubanlashuvi bilan bog'liq holda tasvirlanadi (masalan, Dostoyevskiyning Lujini "Jinoyat va jazo"da kichik ruhli, hisobsiz shaxs sifatida). Ular ma'naviy izlanishlarni moddiy boylikdan ustun qo'yadilar. Rus adabiyoti aksariyat hollarda tadbirkor obrazini salbiy, tanqidiy yoki murakkab tarzda tasvirlagan, uni ma'naviy inqiroz, axloqiy buzilish va rus milliy ruhiga yot bo'lgan hodisa sifatida baholagan. XX asr rus adabiyotida tadbirkor obrazining taqdiri keskin o'zgarishlarga uchradi.

Ilf va Petrov "O'n ikki stul", "Oltin buzoq" asarlaridagi Ostap Bender to'laqonli tadbirkor

<sup>2</sup> Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – T.: "Akademnashr", 2020.

bo'lmasa-da, u o'zining zukkoligi, tadbirkorligi va sotsialistik qurilishga begona bo'lgan "o'yinchi" ruhi bilan "nepmanlar" davrining ramziga aylanadi. Uning "ishbilarmonligi" ham hiyla-nayrang, firibgarlik va sarguzashtga asoslangan. Bu obrazda sovet jamiyatining xususiy mulkchilikka nisbatan bo'lgan ikkilangan munosabati aks etgan – ham qoralash, ham uning jonli energiyasiga tan berish. Sotsialistik realizm (1930–1980-yillar) davrda "tadbirkor" obrazi deyarli butunlay yo'qoldi yoki faqat "sinfiy dushman", "ekspluatator", "quloq", "spekulyant" sifatida salbiy planda tasvirlanadi.

O'zbek adabiyotida "tadbirkor" obrazi rus adabiyotiga nisbatan keyinroq, ayniqsa, jadidchilik davrida, jamiyatni yangilash g'oyalari bilan bog'liq holda shakllana boshlagan Cho'lponning "Kecha va Kunduz" romanida Miryoqub tadbirkor obraziga misol bo'la oladi. Albatta, Cho'lponning "Kecha va Kunduz" romanidagi Miryoqub obrazi o'zbek adabiyotida "tadbirkor" obrazining dastlabki va eng murakkab namunalaridan biri sifatida tahlil qilinishi mumkin. Ayniqsa, uni jadidchilik davrining "tadbirkor"ga bo'lgan qarashlari kontekstida ko'rib chiqish juda muhimdir. Miryoqub obrazining "tadbirkor" sifatida tahlili "Kecha va Kunduz" romanida jadidchilik davrining "tadbirkor" idealiga yaqinligi Miryoqub an'anaviy, johil boyvachcha emas. U Istanbulda tahsil olgan, zamonaviy bilim va dunyoqarashga ega. Jadidlar uchun haqiqiy tadbirkor nafaqat boylik orttiruvchi, balki ilm-ma'rifatli, ilg'or g'oyalarni o'zlashtirgan shaxs bo'lishi lozim edi. Miryoqubning bilimdonligi va uzoqni ko'ra bilish qobiliyati aynan shu xususiyatga ishora qiladi. U Oblomov kabi harakatsiz emas, balki g'oyatda faol, tashabbuskor va maqsadiga erishish uchun har qanday yo'ldan borishga tayyor. Bu xususiyatlar ham har qanday tadbirkorga xosdir. U o'zining iqtisodiy mavqeini yanada mustahkamlash, zamonaviy savdo usullarini joriy etish haqida o'ylaydi. Bu mustaqil fikr va shaxsiy erkinlikka intilish tadbirkorlik ruhiga xosdir. Romanda Miryoqubning savdo ishlari, moliyaviy muomalalari bevosita boylikni tejashdan ko'ra, uni ishlatish va ko'paytirish yo'llarini izlaydi. Cho'lpon o'z davrining eng yetuk adiblaridan biri sifatida Miryoqubni ideal tadbirkor qilib ko'rsatmaydi. Aksincha, u ushbu obraz orqali jamiyatni yangilashga intilayotgan "yangi odam"ning ichki ziddiyatlari va axloqiy muammolarini fosh etadi. Miryoqubning faolligi va "tadbirkorligi" asosan shaxsiy ehtiroslar va manfaatlarga qaratilgan.

Uning ma'rifatligi va zamonaviy dunyoqarashi axloqiy qadriyatlardan ustunlik qila olmaydi. Bu xususiyatlar, rus adabiyotidagi Chichikovning firibgarligi yoki Gorodnichiyning korrupsiyasi kabi, "tadbirkorlik" niqobi ostidagi ma'naviy qashshoqlikni aks ettiradi. Uning "tadbirkorligi" faqat moddiy jihatdan kuchli, ammo ma'naviy jihatdan zaif bir obrazni yaratadi. Cho'lpon "Kecha va Kunduz" romanida Miryoqub obrazida jadidlar orzu qilgan, ya'ni g'arbcha bilim va faollikka ega bo'lgan "yangi turdagi" shaxs – tadbirkorning ilk namunasini yaratadi. Cho'lpon u orqali yangi davrga o'tayotgan jamiyatning murakkabligini, yangicha fikrlashga ega bo'lgan odamlarning ham ichki ziddiyatlari, shaxsiy egoizmi va axloqiy buzilishlarini mahorat bilan tasvirlaydi. Miryoqub iqtisodiy jihatdan faol, bilimli va tashabbuskor bo'lsa-da, uning ma'naviy qashshoqligi va shaxsiy manfaatini hamma narsadan ustun qo'yishi uni o'zbek adabiyotida tadbirkor obrazining murakkab va ziddiyatli badiiy talqini sifatida namoyon etadi. Uning obrazi "Kecha va Kunduz" romanining nomiga mos ravishda, millat kelajagi uchun umid beruvchi "kunduz" bilan birga, insoniy xatolar va ma'naviy qoloqlikning "kecha"sini ham o'zida mujassam etgan. Bu davr o'zbek adabiyotida "tadbirkor" obrazining paydo bo'lishida burilish nuqtasi bo'ldi. Jadidlar milliy mustaqillik va taraqqiyotga erishish uchun iqtisodiy mustaqillik va zamonaviy tadbirkorlikni rivojlantirish zarurligini angladilar.

Fitrat, Behbudiy, Avloniy Jadid ma'rifatparvarlari o'z asarlarida eskilikni, jaholatni, iqtisodiy qoloqlikni tanqid qilib, zamonaviy savdo, sanoat va ta'limni rivojlantirishga chaqirdilar. Ular "ishbilarmon", "hunarmand", "tijoratchi" obrazlarida millatning iqtisodiy asosini mustahkamlovchi, ilm-ma'rifatli va millatparvar shaxs idealini ilgari surdilar. Bu obrazlar ko'proq idealizatsiya qilingan, kelajak uchun namuna sifatida yaratilgan edi. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar", "Mehrobdan Chayon" Qodiriyning asarlarida to'g'ridan to'g'ri zamonaviy tadbirkor obrazlari bo'lmasa-da, u eskirgan feodal munosabatlarni, boylarning ochko'zligini, amaldorlarning korrupsiyasini fosh etish orqali yangi, adolatli iqtisodiy munosabatlar va yangi tipdagi faol shaxsga ehtiyoj borligini ko'rsatadi. Uning boy obrazlari ko'pincha an'anaviy savdogar, yer egalari bo'lib, ular ko'pincha salbiy jihatdan tasvirlangan.

Tadbirkor obrazi o'zbek adabiyotida millatni uyg'otish, iqtisodiy mustaqillik va farovonlikka

erishishning muhim ramzi, milliy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ideal tarzda paydo bo'ldi. Rus adabiyotida bo'lgani kabi, sovet davri o'zbek adabiyotida ham xususiy tadbirkorlik to'liq qoralandi va "tadbirkor" obrazi "boy", "kulak", "suiiste'molchi", "spekulyant" kabi salbiy ma'nolar bilan yuklandi. Bu metod doirasida ijod qilgan adiblar (Oybek, Abdulla Qahhor, Sharof Rashidov va boshqalar) o'z asarlarida ishchilar, dehqonlar, kolxozchilar, jamoa quruvchilarining mehnat qahramonligini tasvirladilar. Ijobiy qahramon ko'pincha sotsialistik qurilish g'oyalariga sodiq, jamoaviy manfaat uchun fidoyilik ko'rsatuvchi shaxs edi. Xususiy tadbirkorlikka intilish har qanday holatda salbiy nuqtayi nazardan baholangan va bunday qahramonlar faqat dushman obrazida berilgan. Zamonaviy o'zbek adabiyotida tadbirkor obrazi ancha chuqurlashdi va rang-baranglashdi. Endi ular nafaqat boylik orttirishga intiluvchi, balki jamiyatga foyda keltiruvchi, innovatsion g'oyalarni amalga oshiruvchi, ijtimoiy mas'uliyatni his etuvchi shaxslar sifatida ham tasvirlanmoqda. Ba'zi asarlarda tadbirkorning ichki dunyosi, oilaviy munosabatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklari, shaxsiy dramalari badiiy tahlil qilinmoqda. Biroq, bu sohadagi badiiy yutuqlar hali rus yoki G'arb adabiyotidagi kabi chuqur va ko'p qirrali emas. Qiyosiy tahlil ikkala adabiyotda ham sovet davrida "tadbirkor" obrazi yo'qolgan yoki faqat salbiy, "sinfiy dushman" sifatida tasvirlangan. Bu siyosiy ideologiyaning adabiyotga kuchli ta'sirini ko'rsatadi.

Ikkala adabiyotda ham 1990-yillardan boshlab bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan "tadbirkor" obrazi qayta paydo bo'ldi va ko'pincha o'tish davrining murakkabliklari, "yangi boylar"ning axloqiy dilemmalari va jamiyatdagi o'zgarishlarni aks ettirdi. Dastlabki salbiy axloqiy baho: ikkala adabiyotda ham tadbirkor obrazi dastlabki davrlarda (Gogolning Chichikovi,

Ilf va Petrovning Benderi, va o'zbek adabiyotining ayrim post-sovet davri asarlaridagi korrupsiyalashgan "biznesmenlar") ko'pincha faqat moddiy manfaatga intiluvchi, ma'naviyatsiz shaxs sifatida salbiy axloqiy baho bilan tasvirlangan. Tadbirkor obrazi kapitalizmning rus jamiyatiga kirib kelishi (XIX asr o'rtalari) bilan yuzaga keldi va asosan, mavjud ijtimoiy tartibni, ma'naviy qadriyatlarning yemirilishini tanqid qilishga xizmat qildi. Tadbirkor obrazi XIX asrdan to hozirgi kungacha (sovet davridagi uzilish bilan) doimiy ravishda rivojlanib kelgan, uning xilma-xil turlari yaratilgan. Sovet davridagi keskin ideologik tanaffus tufayli tadbirkor obrazining badiiy rivojlanishi uzilib qolgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, XIX–XX asrlar rus va o'zbek adabiyotida tadbirkor obrazining badiiy talqini har ikki milliy adabiyotning o'ziga xos tarixiy-ijtimoiy rivojlanish bosqichlari, madaniy qadriyatlari va hukmron ideologiyalari bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Bu obraz, nafaqat iqtisodiy o'zgarishlarning adabiyotdagi aksi, balki insonning ichki dunyosi, axloqiy tanlovlari va jamiyat oldidagi mas'uliyatining murakkab badiiy ifodasi hamdir.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ikki adabiyotda ham tadbirkor obrazining rivojlanishida sovet ideologiyasining kuchli ta'siri va post-sovet davridagi qayta shakllanish jarayoni o'xshash bo'lgan. Rus adabiyotida yangi kapitalistik munosabatlarga nisbatan tanqidiy va ma'naviy shubha ustunlik qilgan bo'lsa, o'zbek adabiyotida u dastlab milliy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida, idealistik ruhda maydonga kelgan. Yakunda, XIX–XX asrlar rus va o'zbek adabiyotida tadbirkor obrazi har bir jamiyatning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini, ma'naviy va axloqiy qidiruvlarini, shuningdek, inson tabiatining universal ziddiyatlarini chuqur va rang-barang badiiy shakllarda ochib bergan muhim hodisadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Gogol, N. V. To'plangan asarlar: 8 jildda / N. V. Gogol; V. R. Shcherbinaning bosh muharriri ostida. – Moskva: Pravda, 1984. – T. 4: Dramatik asarlar. 429, [2] b.: kasal. ("Uchqun" kutubxonasi. Mahalliy klassika). – Matn: to'g'ridan to'g'ri.
2. Gogol, N. V. Asarlar: 3 jildda / N. V. Gogol; Kukryniksy rassomlarining rasmlari. – Moskva; Leningrad: Bolalar adabiyoti, 1938-yil.
3. Qur'onov D. Jadidlar. Abdulhamid Cho'lpon. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. 162-b.
4. Cho'lpon. Kecha va kunduz. – T.: Sharq, 2004. 306-b.
5. Cho'lpon. Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik. Sadoyi Farg'ona. 1914, 30 - aprel– 30 - may soni.
6. Cho'lpon. Vatanimiz Turkistonda temiryo'llar. Sadoyi Farg'ona. 1914. 6- iyun soni.
7. Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – T.: "Akademnashr", 2020.

Gavxarshodbegim XALIMOVA,  
 Perfect university o'qituvchisi  
 E-mail: khalimova@perfectuniversity.uz

## XOLID HUSAYNIY ASARLARIDA BOLALIK MAVZUSI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada zamonaviy afg'on yozuvchisi Xolid Husayniy asarlarida bolalik mavzusining o'рни va uning badiiy tavsifi tahlil qilinadi. Maqolada bolalik tasviri, ijtimoiy va ma'naviy muhit bilan bog'liqligi, shuningdek, qahramonlarning psixologik rivojlanishi va xotira orqali o'tgan hayot tajribalarini anglash jihatlarini yoritiladi. Shu bilan birga, Husayniyning adabiy uslubi, badiiy tafsilotlar va realizm elementlari bolalikni chuqur va ta'sirli tarzda ko'rsatishda qanday xizmat qilishi ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** *bolalik, xotira, ijtimoiy muhit, badiiy tafsilot, realizm, psixologik rivojlanish, adabiy obrazlar, adabiyot, obraz.*

**Аннотация:** в данной статье анализируется роль темы детства и ее художественное воплощение в произведениях современного афганского писателя Халида Хусейни. В статье рассматривается изображение детства, его связь с социальной и духовной средой, а также психологическое развитие героев и аспекты осмысления жизненного опыта через призму воспоминаний. Кроме того, исследуется, как литературный стиль Хусейни, художественные детали и элементы реализма способствуют глубокому и впечатляющему изображению детства.

**Ключевые слова:** *детство, память, социальная среда, художественная деталь, реализм, психологическое развитие, литературные образы, литература, образ.*

**Annotation:** this article analyzes the role of childhood as a theme in the works of modern Afghan writer Khaled Hosseini and its artistic portrayal. The article explores the depiction of childhood, its connection to the social and spiritual environment, as well as the psychological development of characters and their understanding of past life experiences through memory. Additionally, it examines how Hosseini's literary style, artistic details, and elements of realism serve to portray childhood in a profound and impactful manner.

**Key words:** *childhood, memory, social environment, artistic detail, realism, psychological development, literary characters, literature, character.*

**Kirish.** Bolalik – inson hayotidagi eng nozik va muhim davr bo'lib, uning shaxsiy rivojlanishi, hissiy tajribasi, dunyoqarashi va kelajakdagi qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Adabiyotda bolalik mavzusi yozuvchi uchun qahramonning psixologik rivojlanishini, ijtimoiy muhit bilan bog'liqligini va xotira orqali o'tgan hayot tajribalarini ochib berish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy afg'on yozuvchisi Xolid Husayniy asarlarida bolalik motivi markaziy o'rin tutadi.

Husayniy asarlarida bolalik nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy va tarixiy kontekstda tasvirlanadi. U qahramonning o'sish jarayoni, oilaviy va ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi, urush va inqiroz davrlarida boshdan kechirgan tajribalari orqali ochib beriladi. Shu orqali Husayniy o'quvchiga

nafaqat bolalik dunyosini, balki tarixiy va ijtimoiy hodisalarni ham his qilish imkonini beradi.

Bolalik mavzusining Husayniy asarlarida ahamiyati shundaki, u orqali yozuvchi qahramonning ichki dunyosini, hissiy jarayonlarini va xotira retrospektivasini chuqur ochib beradi. Bolalik tasviri yozuvchining realizm va nostalji unsurlari yordamida jonli va ta'sirli tarzda beriladi. Shu bilan birga, bolalik motivi qahramonlarning keyingi hayotidagi qarorlar, hissiy holat va ijtimoiy faolliklariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – Holid Husayniy asarlarida bolalik mavzusini tahlil qilish, qahramonlarning psixologik rivojlanishi va badiiy tafsilotlar orqali ushbu mavzuning o'ziga xosligini ochib berishdir. Shu orqali maqola Husayniy asarlarida bolalikning nafaqat shaxsiy,

balki ijtimoiy va tarixiy ahamiyatini aniqlashga qaratilgan.

**Asosiy qism.** Holid Husayniy asarlarida bolalik mavzusi markaziy o‘rin tutadi va u orqali yozuvchi qahramonlarning psixologik rivojlanishi, hissiy tajribasi va ijtimoiy muhit bilan bog‘liqligini ochib beradi. Husayniy bolalikni nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy va tarixiy kontekstda ko‘rsatadi, bu esa asarlarga realizm va chuqur psixologik tasvir elementlarini beradi.

Husayniyning qahramonlari bolalik xotiralari orqali o‘tgan hayot tajribalarini anglaydi. Masalan, “The Kite Runner” romanida asosiy qahramon Amir bolaligidagi do‘stlik, xiyonat va oilaviy munosabatlarni xotira orqali eslaydi. Ushbu retrospektiva orqali yozuvchi qahramonning ichki dunyosini, hissiy kechinmalarini va ruhiy rivojlanishini o‘quvchiga yetkazadi. Bolalik xotiralari orqali qahramon o‘z kechmishini tahlil qiladi, xatolarini anglaydi va ruhiy o‘sish jarayonini boshdan kechiradi.

Husayniy asarlarida bolalik qahramonning ijtimoiy va madaniy muhit bilan chambarchas bog‘liqdir. Bolalik tasviri urush, siyosiy inqirozlar, oilaviy qiyinchiliklar va jamiyatdagi o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. “A Thousand Splendid Suns” romanida Mariam va Laila qahramonlarining bolalik davri afg‘on jamiyatidagi gender tengsizliklari, oilaviy qiyinchiliklar va urush sharoitida shakllanadi. Shu orqali Husayniy o‘quvchiga bolalikning ijtimoiy va madaniy kontekstini his qilish imkonini beradi.

Bolalik Husayniy asarlarida qahramonlarning psixologik rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida tasvirlanadi. Bolalik davridagi tajribalar – sevgi, do‘stlik, xiyonat, qo‘rquv va umid – qahramonning keyingi hayotidagi qarorlarini, hissiy holatini va ijtimoiy munosabatlarini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan, Husayniy bolalikni shaxsiy rivojlanishning asosiy davri sifatida ko‘rsatadi.

Husayniy bolalikni realizm elementlari yordamida jonli va hayotiy tarzda tasvirlaydi. Masalan, tabiat manzaralari, mahalliy urf-odatlar, oilaviy hayot va atrof-muhit tafsilotlari orqali qahramonning bolalik dunyosi tasvirlanadi. Badiiy tafsilotlar qahramonning ichki hissiyotlarini, xotira

va kechinmalarini ochib beradi. Shu bilan birga, nostalji va retrospektiv yondashuv orqali o‘quvchi bolalik motivini yanada chuqurroq his qiladi.

Husayniy bolalik motivini nafaqat individual, balki universal kontekstda ham ko‘rsatadi. Bolalik qahramonning shaxsiy rivojlanishida, ijtimoiy moslashuvida va tarixiy voqealar bilan aloqasida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu sababli bolalik motivi orqali Husayniy insoniy qadriyatlar, oila va ijtimoiy muhitning ahamiyatini ochib beradi.

Bolalik Husayniy asarlarida hissiy tajriba bilan chambarchas bog‘liq. Qahramonlarning qo‘rquv, xiyonat, sevgi va do‘stlik hissiyotlari bolalik xotiralari orqali ochiladi. Bu esa o‘quvchiga qahramon dunyosini chuqurroq his qilish, uning ruhiy holatini anglash imkonini beradi.

Husayniyning “Shamol ortidan yugirib” asarida ham “bolalik” mavzusi juda yaxshi yoritilgan. Asarda Amir o‘z hayotini hikoya qilib beradi. Amir Kobulda hashamatli xonadonda otasi bilan yashaydi onasi tug‘riq paytida olamdan o‘tadi. Bu uyda ulardan tashqari xazoriy xizmatkor Ali hamda uni o‘g‘li Husayn ham yashaydi. Amir yoshligidan shoirtabiat yigit bo‘lib ulg‘ayadi bu bobo (Amir otasini shunday nomlagan)ga yoqmaydi u o‘g‘lining mard, jasur, kuchli bo‘lishini xohlaydi. Bu xususiyatlar Husaynda jamlangan bo‘ladi. Amir varrak uchirishga qiziqar edi. Ota-bolani shu xususiyat bog‘lab turardi xolos. Husayn Amirni o‘ziga do‘st deb biladi unga sodiq bo‘ladi. Varrak uchirishda Husaynga teng keladigani yo‘q edi. Amir Husaynni do‘st degisi kelmas hatto unga hasad qilar edi. Bir kuni varrak musobaqasida Amir g‘alaba qozonadi. Husayn varrakni topib kelish uchun ketadi, lekin kelmagach Amir uni izlab chiqadi Asef va uni ikki do‘sti Husaynni kaltaklayotgani ko‘rib unga yordam bermay o‘z jonini o‘ylaydi. Husaynga tuhmat qilib uni uydin ketishiga erishadi. Amirni shuncha paytdan beri vijdon azobi qiynab keladi. U yoshligida qo‘rqoq faqat o‘zini o‘yaydigan bo‘ladi. Buni asarning ko‘p joylarda uchratamiz, Amir ko‘p xato qilganini keyin anglab yetadi Surayyo bilan bir suhbatida Surayyo uyidagi xizmatkor qizga Alifboni o‘rgatganini aytganda o‘ylaydi men ham Husaynga o‘rgatsam bo‘lar edi deb. Husaynga tuhmat qilganidan afsuslanadi unga tuhmat qilmaganida

ular bilan AQSh ga ketardi u ham o'qirdi balki hozir tirik bo'lar edi deb. Lekin endi ularni foydasi yo'q edi.

Shunday qilib, Husayniy bolalikni shaxsiy, ijtimoiy va tarixiy kontekstlarda yoritib, uni qahramonning psixologik rivojlanishida, ijtimoiy moshuvda va hissiy tajribalarida hal qiluvchi vosita sifatida ko'rsatadi. Shu bilan birga, realizm va badiiy tafsilotlar yordamida bolalik motivi jonli, ta'sirli va o'quvchi uchun hissiy jihatdan qabul qilinadigan holatga keltiriladi.

**Xulosa.** Holid Husayniy asarlarida bolalik mavzusi markaziy o'rin tutadi va u qahramonlarning psixologik rivojlanishi, hissiy tajribasi hamda ijtimoiy muhit bilan bog'liqligini chuqur ochib beradi. Bolalik Husayniy asarlarida nafaqat shaxsiy tajriba, balki tarixiy va ijtimoiy kontekst bilan chambarchas bog'liq bo'lib, qahramonlarning keyingi hayotidagi qarorlar, hissiy holat va ijtimoiy faolligiga ta'sir ko'rsatadi.

Asarlarda bolalik retrospektivasi, ichki monolog va badiiy tafsilotlar orqali tasvirlanadi. Shu yondashuv orqali o'quvchi qahramonning ichki dunyosini, ruhiy holatini va xotira orqali o'tgan tajribalarni chuqur his qiladi. Realizm

elementlari, oilaviy va ijtimoiy muhit tasvirlari, shuningdek, nostalgik va emotsional tafsilotlar bolalik motivini yanada jonli va ta'sirli qiladi.

Husayniybolalikmotivinishaxsiyrivojlanishning asosiy davri sifatida yoritadi. Bolalik davridagi tajribalar – do'stlik, sevgi, xiyonat, qo'rquv va umid – qahramonning psixologik rivojlanishi va hayotiy qarorlarini belgilaydi. Shu bilan birga, bolalik motivi orqali Husayniy insoniy qadriyatlar, oila va ijtimoiy muhitning shaxs rivojlanishidagi ahamiyatini ochib beradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, Husayniy asarlarida bolalik nafaqat shaxsiy xotira va hissiy tajriba sifatida, balki ijtimoiy va tarixiy hodisalarni o'quvchiga yetkazish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu sababli bolalik motivi Husayniy badiiy olamining markaziy elementi bo'lib, o'quvchiga qahramon dunyosini, tarixiy voqealarni va insoniy tajribalarni bir vaqtning o'zida his qilish imkonini beradi.

Natijada, Holid Husayniy asarlarida bolalik mavzusi inson psixologiyasini, hissiy tajribalarni va ijtimoiy muhitni chuqur tushunish uchun asosiy vosita bo'lib, zamonaviy adabiyotda bolalik motivining o'ziga xosligini namoyon etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saifi, R. Childhood and Memory in Khaled Hosseini's Works. *Journal of Afghan Studies*, 2020, №2, pp. 45–60.
2. Ahmad, S. Realism and Nostalgia in Hosseini's Fiction. *Literary Review*, 2020, №4, pp. 33–50.
3. Nemat, A. *Modern Afghan Literature: Themes and Analysis*. Kabul University Press, 2021.
4. Rahimi, M. *Cultural Context and Childhood in Contemporary Afghan Novels*. Kabul, 2021.
5. Johnson, L. Memory, Trauma, and Childhood in Modern Afghan Fiction. *Comparative Literature Review*, 2022, Vol. 15, pp. 70–88.
6. Karim, H. Childhood Representation and Psychological Development in Khaled Hosseini's Novels. *International Journal of Literary Studies*, 2023, №1, pp. 12–28.
6. Rahman, F. Narrative Techniques and Childhood Memories in Contemporary Fiction. *Literary Horizons*, 2022, Vol. 8, pp. 55–73.
7. Ahmad, T. *Afghan Literature in the 21st Century: Identity and Childhood*. Kabul: Afghan Press, 2023.

Zarnigor ESHIMOVA,  
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti  
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

## ATOYI G'AZALLARIDA FOLKLORIZM

**Annotatsiya:** ushbu maqolada XV asr mumtoz o'zbek adabiyoti namoyandasi Atoiy ijodida folklorizm hodisasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shoir she'rlarida xalq og'zaki ijodi unsurlarining — maqol va matallar, xalqona tashbeh va qiyoslar, folklor motivlari hamda syujet elementlarining qo'llanishi misollar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijasida shoir lirikasining milliy ruh bilan sug'orilgani hamda xalq estetik tafakkuri bilan uzviy bog'liqligi asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** folklorizm, Atoiy, xalq og'zaki ijodi, maqol-matal, qadimiy lirika, poetik obraz.

**Annotation:** this article provides a scholarly analysis of folklorism in the poetry of Atoi, a prominent representative of 15th-century classical Uzbek literature. The study examines the use of folklore elements such as proverbs, sayings, folk similes, traditional motifs, and narrative patterns in the poet's lyrical works based on textual examples. The research proves that the poet's lyrics are deeply rooted in national aesthetics and closely connected with oral folk traditions.

**Key words:** folklorism, Atoi, folklore, proverbs, folk motifs, classical lyric poetry, poetic imagery.

**Аннотация:** в статье проводится научно-теоретический анализ явления фольклоризма в поэзии Атои — выдающегося представителя узбекской классической литературы XV века. На основе текстовых примеров рассматривается использование элементов устного народного творчества: пословиц и поговорок, фольклорных сравнений, традиционных мотивов и сюжетных элементов в лирике поэта. Делается вывод о тесной связи творчества Атои с национальными эстетическими традициями и устным фольклорным наследием.

**Ключевые слова:** фольклоризм, Атои, устное народное творчество, пословицы, фольклорные мотивы, лирика, поэтические образы.

Bizga azaldan ma'lumki, yozma adabiyotning paydo bo'lishiga og'zaki adabiyot, ya'ni folklor katta o'rin tutadi. Sababi adabiyotning adabiyot bo'lib shakllanishi va uning ildizi xalq og'zaki ijodidir. Shuning uchun yozma adabiyotni folkloridan ajratib alohida tasavvur qilib bo'lmaydi.

Atoiy she'rlarini o'qisak, Navoiyning unga qanchalar to'g'ri baho berganini darhol sezamiz. Uning she'rlari sodda va tushunarli. U so'z va iboralardan ustalik bilan foydalangan holda o'z ichki his-tuyg'ularini bayon qiladi.

Yuz sari bo'ldi ravon ikki ko'zumdin jo'ybor,  
Sarvi diljo'kim, ne bo'ldi, bir buyon qilsang guzor.  
Sen o'shal sultoni husnsen, ki bo'stonlar aro,  
Davlatingdan gul eshigin el ochibon, el (yopor)

Bo'ldi bag'rim suv g'amingdin, yaxshilik qil, sol sug'a.  
Oxir, ey gul, xirmani albatta har ekan uror.

Qildi jonimga meni shirin labing zavqi, bale

Bu masaldurkim, "kishi bol tutsa bormog'in yalor". Davlatingdin ko'kka yetdi qullarning boshi,

Ushbu ne tolidur, oyim, bizga yetsang tong otor?  
Go'yiyo bu so'z g'alatdurkim, "tilogonlar topor".  
Zulfingizdin gar Atoiy boshqa ko'rsa, ne ajab

Kim, ko'rarmen "bir sinog'onni yana ikki sinor".

Yeti baytdan iborat yuqoridagi g'azalda olti maqol, qator xalq jonli tiliga oid ibora – frazeologik birikmalarning qo'llanilishi "Atoiy ijodiga xos muhim fazilatni, ya'ni xalq og'zaki ijodidan samarali foydalanish, ular orqali she'rda ilgari surilgan g'oyani kuchaytirish, yanada yuksak badiiylikka erishish kabi xislatlarni ko'ramiz"<sup>1</sup>

Yuqoridagi g'azalni tahlil qiladigan bo'lsak, unda:

"yel ochibon, yel yopor";

"bo'ldi bag'rim suv g'amingdin"; "xirmani albatta, har ekan o'rar"; "kishi bol tutsa, barmog'in yalor";

"davlatindin ko'kka yetdi, barcha qullarning boshi"; "ushbu ne toledur, bizga yetsang tong otar"; "tilogonlar topor";

<sup>1</sup> Hodi Zarif. Fozillar fazilati. Toshkent. 1969. 21-bet.

“bir sinog’onni yana ikki bor sinor” kabi maqola va iboralar ishlatilgan. Endi ularni qo’ldan kelgancha tahlil qilamiz.

Alloh ishqida yozilgan bu g’azaldagi maqollarni tahlil qilishdan oldin g’azalning ma’nosini bilishimiz kerak. Shu ma’nodan kelib chiqib, maqollarning sharhini berib o’tamiz.

Ikki ko’zim yuz sari ravon bo’ldi, shunchalik chiroylisanki, husning sening davlating va shu davlat eshigini “yel ochib, yel yopadi”, ya’ni shamol ochib, shamol yopadi. Qadimda qizlarning chimmatlarni yopib yurishi, shu orqali ularning davlati hisoblanmish, husn-u jamoli ko’rinishi, shamol bo’lgandan ularning qanday davlatga egaligi ko’rishi yuzaga keladi. E’tibor beradigan bo’lsak, A. Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida ham Shirinning yuzidagi pardasini shamol ochib yuborganda uning husnini ko’rgan Farhod hushidan ketib qoladi. Bu so’zimizning dalilidir.

Sening g’aming shunchalik kuchliki, undan mening bag’rim suvga to’ldi. Ya’ni Alloh ishqini o’ziga habib degan inson, albatta, chuqur o’y-xayol va sabr- toqat, matonatda yuradi. Shunchalikki, “Yaxshilik qil suvga sol, bilsa baliq bilur bilmasa xoliq” kabi. Xalqimiz orasidagi bu maqol yaxshilikni qil, ammo undan javob kutma tarzida ham qo’llaniladi.

Shirin labing jonimga zavq beradi, ya’ni sen shunchalik shirin suhansanki, so’zingda bol bor. Shu bol tufayli inson barmog’ini ham yalaydi. Sening ishqingda zor bo’lganlaring, ya’ni qullaringmiz. Xalq orasida “Niyat qilgan erishadi”, - degan maqol bor, qadimgi varianti esa “Tilagonlar topor”. Shuncha tilak va orzu

qilib unga men erisholmayapman. Balki aytilgani rostdir, “bir sinog’onni yana ikki sinor”, ya’ni bir marta sinagan insonni yana va yana qayta sinalar. Yoki Alloh o’zi sevgan bandasiga qayta va qayta sinov beradi degan gapga to’g’ri keladi.

Bir g’azalda shuncha maqol va aforizmlardan foydalanib, fikr, tuyg’u, ohang va obraz yaxlitligiga erishish albatta zo’r mahorat belgisidir. Atoiyning g’azallari ko’zdan kechirilsa, quyidagi maqol, aforizm va quyma iboralarga duch kelinadi:

“yaxshilik qil sol suvg’a”, “xo’blarg’a ne ish yasoqi birla”, “hech kimsa bo’lmasun kishining to’nu oshida”, “xo’blardin ne kim kelsa erur xo’b”, “kim iyasini og’izlar itiga so’ngak solur”, “Ki yomg’ur yog’sa fathi bob derlar”, “jonsiz kishi jahonda tirilmak mahol erur”, “Bale, ko’kdin inar alqob derlar”, “pok sanamga nazari pok kerakdur”, “Daryo yuziga xasu xoshok keraktur”, “podshoh loyiqli durri yatim erur”, “Masaldurkim: yana bu dam topilmas”, “quturg’on itga sagbon hojat ermas”, “oqil so’ziga albatta devona inonmas”, “vale miskinga mulki jam topilmas”, “Gulni chun navro’z topdi, yodi navshod aylamas”, “ilik etmas ne hosil qulni sunmoq”, “hech gado, it ura, eshikni quyub ketmas”, “vasl no’shi dunyoda bo’lmas neshsiz”, “tark etarmu odamiy hargiz qadimiy hamdamin”, “sulton ayarmi bo’lur zakot o’z gadoyidin”, “bale o’t kuydirur har xo’shku tarni”, “sevar Haq bim yo’lida rostlarni”, “xush ermas odamning asru ham ko’p oqili” kabilar.

Gadoiy, Sakkokiy, Lutfiylardek Atoiy ham g’azallarida xalq maqollarini ba’zan “ki derlar”, “masaldurkim”, “bu masalkim” kabi iboralar vositasida aynan yoki biroz o’zgartirib qo’llaydi

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Devoni Shayxzoda Atoyi. O’zRFA. – T.: “Fan nashriyoti”, 2008. 38-bet
2. Devoni Shayxzoda Atoyi. 107-bet.
- 3.E. Rustamov. Otoyi. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 1958. 5-6-betlar.
- 4.Boqijon To’xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova. 11-sinf adabiyoti I qism. – Toshkent: “O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
5. Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlik, 14-tom. – Toshkent, 1967. 128-bet
- 6.“Majolis un-nafois”. Ilmiy-tanqidiy matn. – Toshkent, 1961. 74-bet.
7. Mallayev N. O’zbek adabiyotida g’azal va uning rivojida Navoiyning roli haqida. – Navoiyga armug’on (to’plam). – Toshkent, 1968. 342-398-betlar

**Muhammad HAYITOV,**  
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*  
*O'zbek tilshunosligi kafedrasini o'qituvchisi*  
[m.hayitov@cspu.uz](mailto:m.hayitov@cspu.uz)

## HAZINIY SHERIYATIDA TASAVVUF

**Annotatsiya:** mazkur maqolada Haziniy Xo'qandiy ijodidagi diniy g'oyalar talqini, Qu'roni karim oyatlari va payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallam hadislarining o'rni ochib beriladi. Shu o'rinda shoir ijodidagi ilohiy ishq va komil inson g'oyasi tarbiyasidagi nuqtalarga ham e'tibor beriladi.

**Kalit so'zlar:** *Qur'oni Karim, hadislar, tafsir, tariqat, ilohiy ishq, komil inson, tasavvufiy ilm.*

**Аннотация:** в данной статье раскрывается толкование религиозных идей в творчестве Хазиния Хокандий, а также роль аятов Священного Корана и хадисов Пророка Мухаммада (мир ему и благословение). Особое внимание уделяется божественной любви и идее совершенного человека в духовном и воспитательном наследии поэта.

**Ключевые слова:** *Коран, хадисы, тафсир, тарикат, божественная любовь, совершенный человек, суфийские знания.*

**Annotation:** this article explores the interpretation of religious ideas in the works of Haziniy Khoqandiy, highlighting the role of Quranic verses and the sayings (hadiths) of the Prophet Muhammad (peace be upon him). It also draws attention to the aspects of divine love and the concept of the perfect human in the poet's spiritual and educational views.

**Key words:** *Qur'an, hadiths, tafsir, tariqa, divine love, perfect human, Sufi knowledge.*

Millatimiz qalbi va adabiyotimiz xazinasidan munosib o'rin olgan ruhparvar asarlar sohibi Haziniy Xo'qandiy ijodining asos g'oyasi ma'naviy yuksaklik – inson kamolotini kuylash edi. Haziniy – Qodiriya tariqatining yirik namoyondalaridan biri. Uning ijodida Qur'oni Karim oyatlari va hadislarining o'rni alohida ahamiyatga ega. Shoir ijodini Qur'oni Karim tafsiri va payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallam hadislariga sharh tarzida bitilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Masalan:

Rasullar podshohi boshi uzra tojidur "Lavlok",

O'shal Ahmad tufaylidin dedi Odamga: "Karramno".  
 [1,56]

Mazkur baytning birinchi misrasidagi "Lavlok" so'zidan "agar sen bo'lmasang olamlarni yaratmas edim" degan hadisning mazmuni anglashilyapti. Hadisning arabcha matni quyidaqicha:

لولاك لما خلقت الأفلاك

Ma'nosi: "Agar sen bo'lmaganingda, falaklarni yaratmas edim".

Bu hadisning isnodi haqida muhaddislar orasida turlicha fikrlar mavjud. Ibn al-Javziy, Suyutiy va boshqa muhaddislar bu rivoyatni zaif yoki uydirma (mavz) deb baholashgan. Xususan, Imom Suyutiy o'zining "Ad-Durar al-Muntathira fi-l-Ahadith al-Mutashahira" asarida bu hadisning isnodi zaifligini ta'kidlaydi.

Ba'zi manbalarda bu hadis Abdurrohman ibn Zayd ibn Aslam orqali rivoyat qilingan deb aytiladi, ammo u zaif roviylardan biri hisoblanadi. Ya'ni shoir Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni vasf qilib, u zotning hurmati shu darajadagi: "Agar u zot bo'lmaganida koinot yaralmas edi" deydi.

Ikkinchi misradagi "Karramno" so'zi esa Qur'oni Karimning "Al Isro" surasi 70-oyatiga ishora qilinmoqda. Alloh taolo marhamat qilib aytadi:

**"Batahqiq, Biz Bani Odamni aziz-u mukarram qilib qo'ydik va ularni quruqliq-u dengizda ( ulov-la ) ko'tardik hamda ularni pok narsalar ila rizqlantirdik va uni o'zimiz yaratgan ko'p narsalardan mutlaqo Afzal qilib qo'ydik".<sup>1</sup>**

Bayt mazmunidan Alloh taolo payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) sharafiga olamni yaratganligi va u zotning hurmatidan inson zotini aziz va mukarram qilib qo'yganligi anglashiladi. Mazkur g'azal na't g'azallar turkumiga kiradi. Ma'lumki, na'tg'azallarda payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ning sifatleri vasf qilinadi.

Mumtoz she'riyatimiz badiyatini ta'minlagan vositalardan biri *iqtibos* san'atidir. "Ilm o'zlashtirmoq", "o'zaro foydalanmoq" ma'nolarini anglatuvchi bu san'at asosida ijodkorlar ishqiy va ma'rifiy mazmundagi badiiy mukammal asarlar yaratganlar. Keng ma'noda iqtibos "bir so'z yoki yozuvni bo'lgani kabi yo qisqartirib olmoq. Biridan ilman istifoda etmoq... So'z orasida Qur'oni Karimdan yoxud Hadisi sharifdan yo boshqa maqbul asarlardan bir jumlaning to'liq yoki qisman oz tasarruf ila yoxud tasarrufsiz olinishi"ni anglatadi<sup>2</sup>. Demak, iqtibos san'ati Qur'oni Karim yoki Hadisi ilmi bilan bog'liq bo'lib, ijodkor o'z fikrini asoslashda ana shu ikki manbaga tayanadi. Atoulloh Husayniy bu haqida quyidagi ta'rifni beradi: "Iqtibos mashhur qavlg'a ko'ra, Qur'on yo Hadisdin bir nimani aning Qur'on yoki Hadisdin oling'anig'a ishora bo'lmagan tarzda kalomg'a kiritmaktin iborattur"<sup>3</sup>. Qur'oni Karim oyatidan yoki hadisi sharifdan bir tayanch so'z, ibora yoki jumla aynan keltiriladi.

1 Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent: HILOL-NASHR, 2024. 441-bet.

2 Куронов Д. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2010. – Б. 128.

3 Хусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 242.

Iqtibos san'atining go'zal namunalarini Haziniy she'riyatida ko'plab uchratish mumkin. Shoirning "bordur" radifli mashhur g'azalida shunday misralar bor:

Haziniy, bandalikda, bas, yurursan bexabar, g'ofil  
"Kiroman kotibayn" kim, xayri sharringni bitar bordur.

Ma'lumki, mumtoz she'riyatning asl mazmun va mohiyatini anglash uchun muborak islom dini ta'limoti ilmi muhim o'rin tutadi. Haziniy ijodida ham ko'rib turibmizki, shoir o'z ijodini bitishda Qur'oni Karim va payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamning muborak hadislaridan ta'sirlangan. Baytning birinchi misrasida shoir o'ziga xitob qilib, g'aflatda yurganligini aytib o'tadi va ikkinchi misrada bunga javoban Qur'oni Karimning "Infitor" surasidan iqtibos keltiradi (Kiroman kotibayn). Bu jumla suraning 11-oyatida uchraydi. Alloh taolo marhamat qilib aytadi:

**"Ular hurmatli yozib turguvchilardir".**

Ya'ni mazkur birlashtirilgan, muhofaza qiluvchi farishtalar, Alloh taoloning huzurida mukarram sanaladilar va bandalarning barcha amallarini yozib turuvchi sifatiga ham egadirlar. Har bir bandaning o'ng tomonidagi farishta yaxshiliklarini, chap tomonidagi farishta esa, yomonliklarini yozib boradi. Ha, zinhor g'aflatda bo'lmanglar...<sup>4</sup>

Islom dini ta'limotiga ko'ra, inson o'z nafsini doim tergap turishi va uni tarbiyalab borishi lozim. Shoir mana shu tarbiya usulini ushbu misrada juda chiroyli tarzda keltiradi va o'z nafsiga qarata: "Ey Haziniy, sen g'aflatda, bexabar yurganing bilan sening amalingni bitib borgan farishtalar hech qachon qilayotgan ishingdan g'ofil qolmaydi, bexabar bo'lmaydi", deya o'ziga xitob qiladi. Quyidagi bayt esa Alloh taologa munojot tarzida bitilgan.

Dedi: "Man mota g'ariban..." Rasul,

To musofirlikda o'lsa, borining ko'ksida dog'.

Bu baytda qo'lyozma kamchiligi bois matn tugal emas. Lekin bu o'rinda g'ariblikda o'lgan kishi haqidagi hadisga ishora qilinmoqda.

Ki, "Kulli man alayho fonin" deb sanga xabar berdi

Bu oyat ma'nisini o'ylamaslar askari johil.

Lahad ichra yotursan to qiyomat tongi otguncha,

Egam farmoni birlan surini tortguncha Isrofil.

Birinchi baytning birinchi misrasidagi "Kulli man alayho fonin" jumlasini Qur'oni Karimning "Rahmon" surasining 26-oyati hisoblanadi. Unda Alloh taolo marhamat qiladi:

4 Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent, HILOL-NASHR, 2024. – B. 404.

**"(Yer ) yuzidagi barcha jonzot foniidir".**

Ushbu oyat eng ulkan hayotiy haqiqatni aks ettirgan. U ham bo'lsa, yer yuzida hech bir jonzotning boqiy qolmasligidir. Bu haqiqat oldida inson ojiz, boshi egik. Uning qo'lidan hech narsa kelmaydi. Navbatma-navbat kelib, birin-ketin ketaveradi. Shunday ekan, o'tkinchi dunyoga berilmay, Allohga ibodat qilishga urinmoq lozim, chunki, faqat Alloh taoloning o'zigina boqiydir.<sup>5</sup>

Bundan ko'rinib turibdiki, shoir dunyo hayotining o'tkinchi ekanligini va uning aldoviga aksariyat johil va bexabar insonlar aldanib qolayotganligini nihoyatda chiroyli, teran misralarda Qur'oni Karim oyatlaridan iqtibos keltirib ifodalagan. Buni o'z o'rnida shoir o'z nafsiga ham eslatib o'tadi.

Keyingi baytda Qur'oni Karimdan biror jumla keltirilmagan bo'lsa-da, lekin bu o'rinda "Zumar" surasining 68-oyatiga ishora borligini ko'rishimiz mumkin. Misradagi lahah – bu qabrning ichki, ya'ni mayit qo'yiladigan qismidir. Sur – cholg'u asbobi. Isrofil esa Qur'oni Karimda nomi zikr qilingan eng ulug' to'rt farishtaning biridir. Alloh taolo marhamat qiladi:

**"Va surga puflandi. Osmonlar-u yerda kim bo'lsa qulab o'ldi. Magar Alloh xohlaganlargina qoldi. So'ngra unga yana bir bor puflandi. Bas, to'satdan ular turib intizor bo'lurlar".<sup>6</sup>**

Baytning ikkinchi misrasidagi "Egam"dan murod Alloh nazarda tutilmoqda. Ya'ni Alloh taolo to qiyomat kelib, Isrofil ( alayhissalom ) farishtaga sur chalishni buyurmaguncha, qabr ichida bo'lib turasan, deb nafaqat insonlarni, balki o'z nafsini ham da'vatga tortadi.

Xulosa qilib aytganda Haziniy Xo'qandiy asarlari, yaxlit olganda, hayot qomusiga o'xshaydi. Chunki biror-bir hayotiy masala, insonga xos qadriyat va tuyg'ular, fazilat va illatlar yo'qki, u qalamga olmagan bo'lsa! Haqiqatan ham, hech narsa Haziniyning teran nigohidan chetda qolmagan. Haziniy olam va odam mohiyati haqida ko'p bosh qotirgan, tiriklik va o'lim sabablari ustida muttasil mulohaza yuritgan, inson hayotining maqsadi, ma'no-mazmuni xususida bir umr o'ylagan, tabiat va jamiyat sirlarini o'zicha yechishga intilgan. Eng asosiysi uning ijodi muborak islom ta'limoti bilan to'la to'kis sug'orilgan.

5 Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent, HILOL-NASHR, 2024. B. 13.

6 Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent, HILOL-NASHR, 2024. B. 231.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Haziniy. Devon. – Toshkent: Akademnashr, 2017.
2. Husayniy A. Badoye' us-sanoe'. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
3. Ochilov E. Bir hovuch dur. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
4. Qur'onov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2010.
5. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent: HILOL-NASHR, 2024.

Alfiya BOTIROVA,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

## “FIRDAVS UL-IQBOL”NING O‘ZBEK MUMTOZ TARIXIY PROZASIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Munis Xorazmiy va Muhammad Rizo Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asari o‘zbek mumtoz tarixiy prozasining shakllanishi va taraqqiyotidagi o‘rni jihatidan tahlil qilinadi. Asarning badiiy-uslubiy xususiyatlari, tarixiy voqelikni yoritish tamoyillari, fakt va rivoyatlarning uyg‘unligi hamda Ogahiy tarixnavislik maktabiga mansub ijodkor sifatida tutgan mavqeyi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, “Firdavs ul-iqbol”ning XIX asr Xorazm adabiy muhiti, mumtoz nasrning rivojlanishi va o‘zbek tarixiy proza an‘anasidagi metodologik yangiliklar bilan bog‘liqligi o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari asarning o‘zbek adabiyotidagi tarixiy-badiiy manba sifatidagi ahamiyatini hamda milliy tarixiy tafakkur shakllanishiga qo‘shgan hissasini ochib beradi.

**Kalit so‘zlar:** “Firdavs ul-iqbol”, Ogahiy, mumtoz nasr, tarixiy proza, tarixnavislik, Xorazm adabiy muhiti, badiiy tasvir, tarixiy manba.

**Аннотация:** в данной статье анализируются произведение Муниса Хорезмий и Мухаммада Ризо Огахи «Фирдавс уль-икбол» с точки зрения его роли в формировании и развитии узбекской классической исторической прозы. Художественно-стилевые особенности произведения, принципы освещения исторической действительности, согласованность фактов и преданий, а также позиция Огахия как представителя школы летописцев рассматриваются на научной основе. Кроме того, исследуется связь «Фирдавс уль-икбол» с литературной средой Хорезма XIX века, развитием классической прозы и методологическими новшествами в традиции узбекской исторической прозы. Результаты исследования демонстрируют значимость произведения как историко-художественного источника в узбекской литературе и его вклад в формирование национального исторического мышления.

**Ключевые слова:** «Фирдавс уль-икбол», Огахий, классическая проза, историческая проза, летописание, литературная среда Хорезма, художественное изображение, исторический источник.

**Annotation:** this article provides an analytical examination of Muhammad Rizo Ogahiy's *Firdavs ul-iqbol* and its role in the formation and development of classical Uzbek historical prose. The study explores the work's artistic and stylistic features, principles of representing historical reality, and the interplay between factual narrative and traditional accounts. It further highlights Ogahiy's position within the historiographical school to which he belonged. Additionally, the research investigates the connection of *Firdavs ul-iqbol* with the literary environment of nineteenth-century Khorezm, its contribution to the evolution of classical Uzbek prose, and the methodological innovations it introduced into the tradition of historical narrative. The findings demonstrate the significance of this work as an essential historical-literary source in Uzbek literature and its role in shaping and strengthening national historical consciousness.

**Key words:** “Firdavs ul-iqbol”, Ogahiy, classical prose, historical narrative, historiography, Khorezm literary school, artistic style, historical source.

XIX asrda ham Xorazmda chig‘atoy tilida ijod qilayotgan shoir va mutafakkirlar ko‘pchilikni tashkil qilgan. Bunga Xorazm tarixnavisligi yoki solnomachiligi yaqqol misol bo‘la oladi. Xorazmda chig‘atoy-turk tilida yaratilgan ilk tarixiy asarlardan biri — O‘tamish hojining “Chingiznoma” asaridir. Xorazm tarixnavislik maktabiga Abulg‘oziy

Bahodirxon o‘zining “Shajara”lari bilan asos solgani ilmda asoslangan. Abulg‘oziyxondan ikki tarixiy asar qolgan. Ulardan biri — “Shajarayi tarokima” bo‘lib, unda turkiy qabilalarning, xususan, turkman qabilalarining kelib chiqishi haqida qimmatli ma‘lumotlar beriladi. Ikkinchi asari esa “Shajarayi turk” nomi bilan mashhur.

Mazkur asarning asosiy qismi 1663–1664-yillarda yozilgan bo'lib, unda Xorazmning XVI–XVII asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon etiladi. XIX asrda ham Xorazmda tarixiy asarga e'tibor kuchaydi. Qo'ng'iro't sulolasining rasmiy tarixchilaridan biri Munis edi. 1778-yil Xivadagi Qiyot qishlog'ida tug'ilgan. Uning ajdodlaridan biri Jiyan biy Anushaxon davrida miroblik amali yoki mansabiga loyiq bo'lgan. Keyinchalik uning avlodlari ham shu unvonga sazovor bo'lganligi ma'lum. Hatto Munisning akasi Muhammadniyoz ham otasi Avaz Mirobdan so'ng 1800-yil miroblik unvoniga ko'tarilgan.

Munis yaxshi ta'lim olgan, fors va arab tillarini o'rgangan, she'riyat va tarixnavislikka layoqatli bo'lib tarbiya olgan. Munis birinchi she'rini, ya'ni "Firdavs ul-Iqbol"ga kiritilgan masnaviysini 1802-yil Avaz inoq davrida yozgan. Munisning birinchi devoni esa 1804-yil "Munis ul-ushshoq" nomi bilan tuzilgani ma'lum. Munis juda vaqtli saroy xizmatiga jalb qilinadi va u avval xonzoda Muhammad Rahimbek xizmatida bo'lgan. Otasiga o'xshab mirob sifatida xon va xonzodaning harbiy yurishlari va ovlarida hamroh bo'lgan. Biroq saroy xizmati va valiahdga yaqinligi uning va oilasining moddiy ahvolini yaxshilashga olib kelmagan. Yuqori tabaqalarga yaqin bo'lishiga qaramay, bu ijodkor ancha moddiy qiyinchilik ko'rganligi ham ma'lum. U uylanishi vaqtida boy do'stlaridan besh-o'n tanga qarz olmoqchi bo'ladi. Lekin ular Munisga bir qora pul ham bermadi. Oxir u Muhammad Rahimbekdan 100 ashrafiy qarz oladi. Munis bu qarzdin tezroq qutulishini Xudodan so'rab murojaat qilganini asarida keltiradi.

Munis "Firdavs ul-Iqbol" asarini Eltuzarxon buyrug'i asosida yozar ekan, o'z navbatida, Muhammad Rahimga ham nadim bo'lib, undan ham moddiy yordam va haq olgan, shu bilan oilasini boqib, umrguzarlik qilgan.

Munis o'z zamonasida juda ham iste'dodli shaxslardan edi. 1805-yil o'rtalarida Eltuzar unga o'z sulolasi tarixini yozishni buyuradi. Munis o'zining tarixiy asarini "Firdavs ul-Iqbol" (Baxt-u saodat jannati) deb nomladi. Eltuzar vafotidan so'ng u yozishni to'xtatadi va Muhammad Rahimxon I buyrug'i bilan uni yana davom ettiradi. Keyingi tanaffus 1819- yil

o'rtalarida boshlandi. Bunga sabab, Muhammad Rahim I Munisga Mirxondning "Ravzat us-Safo" asarini o'zbek tiliga tarjima qilishni buyuradi. Munis mazkur asarning birinchi daftarini, ikkinchi daftarining bir qismini Badr urushigacha tarjima qilishga ulgurdi. 1825-yilda Muhammad Rahim I vafot etadi. Yangi xon Allohquli ham unga tarjimani tugatishni buyuradi. Munis tarjimonlikka shunday berilib ketadiki, "Firdavs ul-Iqbol" asarini davom ettirishga ulgurmaydi 1829-yil iyunida Munis bezgak epidemiyasi natijasida vafot etadi. U Allohquli qo'shini bilan Xuroson yurishida qatnashib, undan qaytayotganda Lutfobod shahri yaqinida shu kasallikka chalingan va yo'lda halok bo'lgan. Shuning uchun ham "Ravzat us-Safo" asarining tarjimasi va "Firdavs ul-Iqbol" asarini ham o'zi tugata olmay qoldi.

Munis ishlarini uning shogirdi va jiyani Ogahiy — Muhammadrizo ibn Erniyoz Bek (1809-1874) davom ettiradi. Ogahiy shanba kuni 10 Zu-l-Qa'da 1224/17 dekabr 1809-yil dunyoga kelgan. Bu haqida Munisning o'zi Xo'jaylida xasta bo'lib yotganida jiyani Muhammadrizo tug'ilganini xabar bergan. Munis tarjimon sifatida samarali ijod qilgan olimdir. U fors tilidan o'zbek tiliga birinchilardan bo'lib asarlarni tarjima qilib, Xorazmda tarjimonlik maktabiga asos soldi. Uning ishlarini Ogahiy davom ettirib, bu maktab saviyasini yanada yuqoriga ko'tardi va eng sermahsul ijod qilgan tarjimonga ham aylandi. Ogahiy jami 20 ga yaqin asarlarni fors tilidan tarjima qilgan. Ular orasida sharq mutafakkirlari, olim va adiblarining mashhur asarlari mavjud.

Shunday qilib, Shermuhammad Munisning tarixiy asari "Firdavs ul-Iqbol" qadim zamonlardan boshlab, 1825-yilgacha Xorazmda sodir bo'lgan tarixiy voqealarni o'z ichiga oladi. Munis bu asarini Sharq tarixchilarining an'anasiga muvofiq hamd va na't bilan boshlagan. So'ngra o'z hayoti va asarning yozilish tarixi haqida qisqacha ma'lumot berib, bevosita Xorazm tarixini yozishga kirishgan. Bu asar **muqaddima, besh bob va xotimadan** iborat. Ammo Munis bu asarini yozib tamomlay olmagan U qadim zamonlardan boshlab, Muhammad Rahimxon I hukmronligining 7-yili (1812) gacha bo'lgan voqealarni yozishga ulgurgan, xolos. Shu yil voqealarini bayon etish bilan uzilib qolgan

“*Firdavs ul-Iqbol*” asarini Xorazmda sodir boʻlgan voqealarni yozish bilan Ogahiy toʻldirgan.

“*Firdavs ul-Iqbol*” asarining tarix ilmidagi ahamiyati shundaki, unda Xorazmning qadim davridan boshlab, Muhammad Rahimxon I (1806-1825-yillar) davrigacha boʻlgan siyosiy tarixi xronologik tartibda bayon etiladi. Munis qadim zamonlardan boshlab Abulgʻozixon davrigacha Xorazmda boʻlgan voqealarni bayon etarkan, Abulgʻozi davridagi Xiva va Buxoro xonliklarining oʻzaro munosabatlariga ham toʻxtalib oʻtgan. Shuningdek, asarda XVIII asr va XIX asrning birinchi choragi, yaʼni Qoʻngʻirot sulolasi vakillarining Muhammadamin Inoq (1755-1790), Avaz Inoq (1790-1804), Eltuzarxon (1804-1806) va Muhammad Rahimxon I (1806-1825)larning Xorazmda hukmronlik qilgan yillaridagi tarixiy voqealar bayon qilingan, iqtisodiy va ijtimoiy hayotga doir ayrim maʼlumotlar ham berilgan.

Munis avvalboshi asarini “*Iqbolnoma*” deb nom bermoqchi edi. Keyin uni “*Firdavs ul-Iqbol*”ga almashtiradi. Bu haqda asarda u: “Har taqdir bila bu muxtasar shuruiga xomai ibtido surildi, chun ahori Iqboli Soʻhibqironiy bila *Firdavsdek ziynat topib erdi*, binoan alayh (shunga koʻra) “*Firdavs ul-iqbol*”ga mavsum boʻldi”, degan edi. Asar “Bismilloh”dan soʻng: “Oliy makon sultonlarning dabdabai hashamativagarduntavonxoqonlarning kavkaba (ulugʻvorlik, shon-shavkat)i davlati ul podshohi aʼlalitloq (mutloq, butunlay)ning qullugʻi bilan intizom toparkim, ...”, deb boshlanib, keyin: “Muqaddima baʼzi maxsusoti aʼloxoqoniy zikrida kim osori iqboli sohibqironiy erdi”, degan jumla bilan boshlangan muqaddima, beshta bob va xotimadan iborat. Munis birinchi bobda Odam Atodan Nuh paygʻambar avlodigacha boʻlgan hodisalar zikri; ikkinchi bobda Yofasdan Qoʻngʻirot shoʻbasigacha boʻlgan Moʻgʻul hukmdorlar zikri; uchinchi bobda Qurlos (Chingiziylardan to Abulgʻozi ibn Yodgorgacha) davrida sodir boʻlgan hodisalar zikri; toʻrtinchida Qoʻngʻirot Eltuzarxonning ota-bobolari va beshinchi bobda Eltuzarxonning tugʻilishidan boshlab, bu

asarning yozilib tamom boʻlguniga qadar davr; xotimada avliyolar, ulamo, amirlar, beklar, shoir va donishmandlar, hunarmandlar va boshqalar haqida yozmoqchi boʻlgan. Xotimani Munis yozib ulgurmadi.

“*Firdavs ul-Iqbol*” asari oʻz strukturasiga koʻra sulolaviy tarixnavislikning yorqin namunasidir. Fors tarixnavisligidan yaxshi xabardor boʻlgan Munis forsiy istoriografiyasining asosiy boʻgʻinini tashkil qilgan bu istoriosofik usuldan yaxshi foydalandi. Yuriy Bregel Munisni “*Firdavs ul-Iqbol*” asarining yaratilishida hech qanday individualizm yoʻq, bu asar Abulgʻozi va mumkinki “*Ravzat us-Safo*”asari taʼsirida yozilgandir” degani mohiyatan xatodir. Birinchidan, sulolaviy tarixnavislik faqat fors tarixshunosligiga xos emas. U janr yoki uslub jihatidan barcha tarixiy tafakkurga xos metoddir. Ikkinchidan, Munis oʻzidan oldingi tarixchilar asarlari yoki ijod gʻoyalaridan foydalanishi bu uning ijodkorligidan darak beradi. Uchinchidan, Munis sharq tarixnavislik anʼanalarini yangi hudud va xalq sulolaga tatbiq etgan muarrixdir. Va nihoyat, Munis oʻz asarlarini Abulgʻozi asarlaridan farqli oʻlaroq, juda murakkab, jimjimali, musajjaʼ nasrda, oʻqimishli shaxslar va yuqori tabaqa namoyandalari uchun yozishga harakat qilgan. Bu yerda uni fors yoki arab tarixnavislik uslublariga taqlid qilgan desak boʻladi. Lekin bu yerda ham u turkiy-oʻzbek tilining imkoniyatlarini yana bir marta koʻrsatishga harakat qilganligi maʼlum.

“*Firdavs ul-Iqbol*” asari, garchi tarixiy mazmundagi proza boʻlsa-da, Munis va Ogahiy kabi ulugʻ soʻz sanʼatkorlarining ijodiy qalamiga mansub boʻlib, oʻsha davr anʼanasiga muvofiq ilmiy va maʼnaviy kamolga ega shaxslar — “fatonat ahli”, “maxdum”, “mavloni” kabi olim va fozil kishilarni taʼriflaydi. Asar tili murakkab va boy boʻlib, arabcha va forsha soʻz, ibora, maqol va sheʼriy parchalar bilan boyitilgan. Shu jihatdan “*Firdavs ul-Iqbol*” oʻzbek mumtoz tarixiy prozasida til va mazmun jihatidan alohida oʻrin egallaydi hamda tarixiy-badiiy meros sifatida katta ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ogahiy, Muhammad Rizo. *Firdavs ul-iqbol*. — Toshkent: Fan, 1971.
2. Karimov, A. *Xorazm adabiy muhiti va Ogahiy ijodi*. — Urganch: XDU nashriyoti, 2009.
3. Qoʻshjonov, M. *Oʻzbek adabiyoti tarixi*. — Toshkent: Fan, 1987.

Farida XAKIMOVA,

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi  
[xakimovafarida470@gmail.com](mailto:xakimovafarida470@gmail.com)

Inobat O'RAZOVA,

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi  
[normurodovna.2004inobat@gmail.com](mailto:normurodovna.2004inobat@gmail.com)

## HOZIRGI O'ZBEK NASRI VA SHODMONQUL SALOM IJODI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada hozirgi o'zbek nasrining asosiy yo'nalishlari va undagi badiiy yangilanishlar haqida qisqa tahlil beriladi. Shodmonqul Salom ijodi zamonaviy nasrning muhim qirralaridan biri sifatida o'rganilib, uning asarlarida inson ruhiyati, ichki kechinmalar va jamiyatdagi o'zgarishlarning badiiy talqini yoritiladi. Adibning uslubidagi psixologik chuqurlik va falsafiy mushohada hozirgi adabiy jarayon bilan bog'liq holda baholanadi.

**Kalit so'zlar:** *hozirgi o'zbek nasri, mustaqillik davri adabiyoti, Shodmonqul Salom ijodi, badiiy tasvir, psixologik nasr, estetik qarashlar, shaxs va jamiyat muammosi, zamonaviy adabiy jarayon, badiiy izlanishlar.*

**Аннотация:** в данной статье дан краткий анализ основных направлений современной узбекской прозы и ее художественных обновлений. Творчество Шодмонкул Салома изучается как один из важных аспектов современной прозы, а его произведения освещают художественную интерпретацию человеческой психики, внутренних переживаний и изменений в обществе. Психологическая глубина и философская наблюдательность стиля писателя оцениваются в связи с современным литературным процессом.

**Ключевые слова:** *современная узбекская проза, литература периода независимости, творчество Шодмонгула Салама, художественный образ, психологическая проза, эстетические взгляды, проблема личности и общества, современный литературный процесс, художественные исследования.*

**Annotation:** this article provides a brief analysis of the main directions of current Uzbek prose and its artistic updates. Shodmonqul Salom's work is studied as one of the important aspects of modern prose, and his works highlight the artistic interpretation of human psyche, inner experiences and changes in society. The psychological depth and philosophical observation of the writer's style is evaluated in connection with the current literary process.

**Key words:** *current Uzbek prose, literature of the period of independence, Shodmonqul Salom's work, artistic image, psychological prose, aesthetic views, the problem of the individual and society, modern literary process, artistic research.*

Zamonaviy o'zbek adabiyoti haqida so'z borganda, Surxon adabiy maktabini ham, albatta, tilga olamiz. Adabiyot atalmish olamga Tog'ay Murod, Shukur Xolmirzayev, Shafoat Rahmatullo Termiziy, Erkin A'zam, Usmon Azim, Sirojiddin Sayyid, Eshqobil Shukur, Nodir Normatov, Mirzo Kenjabek kabi tug'ma ijodkorlarni bergan voqea bugun ularga chinakam o'rinbosar bo'la oladigan iste'dodlarga ham beshik bo'lmoqda. Ustozlar qalamini yerga tushirmay kelayotgan, Surxon adabiy havosidan nafas olgan ana shunday ijodkorlardan biri – shoir, nosir, jurnalist, kimyogar Shodmonqul Salomdir. Zamonaviy davr o'zbek ijodkorlari orasida uning ijodi alohida e'tiborga loyiq.

Shodmonqul Salom ijodi rang-barang va serqirradir. Sababi u shoir, nosir, publitsist, muharrir sifatidagi adabiy qirralarini amalda ko'rsata oldi. Shodmonqul Salom so'zga zargar kabi munosabatda bo'ladi. So'zdan sinchkovlik bilan foydalanadi. Shu bois bo'lsa kerak, uning hikoya, badia, esse, qatra, chizgi, badiiy-publitsistikasida so'zning ming xil badiiy tovlanishlari jilolanib turadi. Yozuvchi nasridagi o'xshatishlar ohorli, ularning sarchashmasi esa o'zbek xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Shodmonqul Salomning so'zga, badiiy adabiyotga bo'lgan talabchanligi-yu, obrazli ifoda vositalaridan foydalanishiga qarab, biz uni zamonaviy o'zbek adabiyotining asoschilari –

Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, G'afur G'ulomlarning izdoshi deya olamiz. Nazarimizda, uning nasrida Shukur Xolmirzayev ijodiy an'analari davom ettirildi. Bundan tashqari, adib ijodiga jahon adabiyotining yirik yozuvchilari asarlari ham ta'sir o'tkazgani tabiiy hol. Albatta, ijodkor ko'p narsalardan ta'sirlanadi. U mudom izlanadi, kuzatish, o'rganish, doimiy mutolaa va yozish mashaqqati bilan band bo'ladi. Biroq ijod bilan shug'ullanadigan kishi uchun eng avval o'z hayoti, boshidan o'tkazgan, ko'rgan-kechirganlari, bolalikdagi xotiralari, his-tuyg'ulari eng muhim badiiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Ijodkor, avvalo, Alloh bergan iste'dod va ijodiy mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Aksincha bo'lsa, har qanday buyuk iste'dod ham yuzaga chiqmay qolishi mumkin. Shodmonqul Salomga iste'dodni Bir-u Bor Zot yuqtirgan. Yana u tirishqoq va mehnatkash inson. U o'zbek adabiyoti maydoniga 2000-yillarda she'rlari bilan kirib keldi. Shundan buyon ijodkorlik bilan birgalikda, rasmiy-jamoatchilik, muharrirlik ishlarini astoydil bajarib kelmoqda. Muallifning "Yurak iqlimi", "Ko'ngil kitobi", "Borligini bilganlar", "Chag'oniyon yillari", "Ko'ngil obidasiga yo'l" singari she'riy va nasriy to'plamlari keng adabiy jamoatchilikka, shuningdek, oddiy o'qirmanlarga ham ma'lum va mashhur. Uning asarlari pishiq badiiyati, umuminsoniy g'oyalari bilan ham ardoqli. "Xalaji", "Chappi", "Bolalikning so'nggi kuni" hikoyalari, "Ona tili ulug' kemadir", "Qorxat", "Alifbodan ham avval", "Surxonda to'y", "Dasht ilmi", "Saraton" singari esselarida badiyatni ta'minlovchi unsurlardan mohirlik bilan foydalangan. Xususan, bu qahramonlarni tanlash, voqealarni bayon etish, chapani, qishloqlik kishilar obrazini bosh qahramon etib olishda ko'rinadi.

Shodmonqul Salom o'zbekning buyuk shoiri, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning munosib shogirdi, izdoshi hamdir. Uni "XXI asrning Abdulla Oripovi" deyishlari ham bejiz emas. Abdulla Oripovga o'xshashlik, nafaqat satrlarda, misralarda, balki tashqi ko'rinishda ham zuhur etgan. 2021-yil O'zbekiston Kinematografiya agentligi, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti hamkorligida "SPECTRE" kinostudiyasi tomonidan Abdulla Oripov haqida hujjatli film suratga olindi. Unda o'rta bo'y, qotmadan kelgan Shodmonqul Salom Abdulla Oripov rolini ijro etdi. Film ijod ahli, yurtdoshlarimiz tomonidan

iliq kutib olindi. Ayniqsa, Abdulla Oripovning yoshlik davrlarini gavdalantirgan Shodmonqul Salom roli muvaffaqiyatli chiqdi. Shu tufayli bo'lsa kerak, 2022-yilda Kinematografiya agentligi buyurtmasi asosida "Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi" Davlat unitar korxonasi tomonidan "Abdulla Oripov" to'liq metrajli badiiy filmni suratga olish ishlari boshlandi. Unda shoirning yoshlik davrlarini gavdalantirish yana Shodmonqul Salomga topshirildi. Ushbu filmni yaratish g'oyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan.

2022-yilda Shodmonqul Salom rejalashtirgan ijodiy niyatlari bisyor edi. Biroq film suratga olish jarayonlaridagi ishtiroki tufayli ular 2023-yilga qoldirildi. Bular orasida yozuvchining bir qator nasriy asarlari ham bor edi. Bu haqida adibning o'zi shunday yozadi: *"Birodarlar, men sizlarga 2022-yilda yaxshi she'rlar berolmadim. Yurakda gaplar qolib ketdi. Bilaman. Og'rinib, o'zimni yanib, og'ir bo'lib yuribman. Turli xizmat safarlari, kino bilan bog'liq yumushlar (Abdulla Oripov badiiy filmida rol o'ynadim) meni biroz chalg'itdi. Rejalashtirilgan hikoyalar va bitta qissadan iborat "Suzishni o'rgatib bo'lmaydi" nomli nasriy kitobimning tahriri va nashri bilan shug'ullanolmadim.*

*Faqat birgina O'zbekiston Islom akademiyasi nashriyoti tashabbusi bilan "Dunyoda onalar borligi uchun" nomli she'riy kitob nashr etilish arafasida. Buning uchun ajoyib yozuvchi va noshir Abdulhamidxon Muxtorovga rahmatlarim bor.* Ammo o'zimdan ko'nglim to'lmadi. Shu sabab qo'shimcha ish joylardan ham bo'shadim. Biroq tugayotgan yilda yaxshi kitobxon bo'ldim, desam bo'ladi: Yuzga yaqin yaxshi qissa va romanlar o'qidim.

*Endi, azizlarim, Razzoq Parvardigorimdan so'rorim shulki, kelgusi 2023-yilda va'damni bajarishimga yo'l bersin!.."*

Ijodkor hamisha dard bilan yashaydi. Unga bu dardni Yaratgan Egamning o'zi beradi. Ana shu dard, ko'ngil ishi uni qo'lga qalam olishga, yozishga undaydi. Ko'p o'qish va o'z ustida tinimsiz ishlash yozuvchi yoki shoirning asarlari pishiq bo'lishiga zamin yaratadi. Puxta ishlangan, zuvalasi yaxshi qorilgan chinakam badiiy asargina qalam ahlini elga sevimli qiladi. Bir qalbgga ham

<sup>1</sup> [https://t.me/Shodmonqul\\_SALOM/1583](https://t.me/Shodmonqul_SALOM/1583)

shoirlik, ham yozuvchilikni sig'dirgan ana shunday ijodkorlardan biri janub quyoshi taftida ulg'aygan, Abdulla Oripov, Shukur Xolmirzayevlarga shogird bo'lgan Shodmonqul Salomdir. U 1980- yilda Qumqo'rg'on tumanida tug'ilgan. 2003-yilda Termiz davlat universitetining "Kimyo" fakultetini, 2005-yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Oliy adabiyot kursini tamomlagan. "Chag'oniyon", "Turkiston", "Kitob dunyosi" gazetalari, "Saodat" jurnalida faoliyat ko'rsatgan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. "Ma'naviy hayot" jurnali xodimi, "Shuhrat" medali sohibi.

Shoirdan eng kichik tarjimai holingiz qanday deb so'raganlarida: "Aybi mo'l, tavbasi oz, qarzi ko'p, xizmati kam bir odamman!"<sup>2</sup> – deb javob beradi va uni shoir qilgan narsa "sog'inch va muhabbat" ekanligini ta'kidlaydi<sup>3</sup>.

Jurnalist Karimberdi To'ramurod: "Shodmonqul Salom XXI asrning Abdulla Oripovi, XXI asrning Shavkat Rahmoni, XXI asrning Muhammad Yusufi desam ham bo'lardi, ammo aytmayman. U XXI asrning Shodmonqul Salomi! Men bilaman, keyingi asrda ayrim shoirlarni XXII asrning Shodmonqul Salomi deyishadi! Shodmonqul Salomning dunyoviy she'rlari ham ko'p, ishqiy she'rlari ham bisyor, shunchaki, odamga aytgan she'rlari ham bor. Ammo uning Yerniki bo'lmagan she'rlari ko'p. To'g'ridan-to'g'ri O'ziga aytgan she'rlari bor. Ayrimlarini o'qib, odam qo'rqadi. Shodmonqul Salom XXI asrning Mashrabimikan, Mansur Hallojimikan, deb ham qolaman..." – deb yozadi.

Shoira Guljamol Asqarova u haqida shunday fikr bildiradi: "Shodmonqul Salom so'zning, ruhning kimyogari". Shunga o'xshash ta'birni yosh iste'dod egasi, shoir Alibek Anvari ham keltirgan: "XXI asr

o'zbek adabiyotida ulkan va bo'lg'usi ulkan chinorlar ildiz otayotgani hayratlanarli hodisa emas. Navoiy, Bobur, Mashrab, Cho'lpon, Usmon Nosirning bolalari; Rauf Parfi, Abdulla Oripov, Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Xurshid Davronning izdoshlari... chindan ham, hech hayratlanarli yeri yo'q. Hammasi "Ot – toy – ot" formulasi bo'yicha... Shodmonqul Salom ham shu qatorning davomida sirenasi baland, o'ktam kelayotgan shoir. Davomi bo'lganda ham suyagi pishiq, iligi qurch, nazari to'q. "Telba"ni o'n bir bor o'qib, necha marta tutqanog'i tutmagan, general Ivolgin kabi shiitalarga ergashib necha bor sargardon bo'lmagan deysiz? Bu bir detal, albatta. Shodmonqul Salomning adabiyot mahallasida paydo bo'lishida zinhor "mahalliychilik", sun'iy sa'yni ko'rmaysiz. Qayergacha kelgan bo'lmasin, shoir o'z qadari, iste'dodi, ilmi, quvvai hofizasi bilan odimladi. Uning satrlari, tashbehlari, badiiy o'ylari o'zanidan toshayozgan Oqqapchig'ay kabi uchqur, bedov bir Shodmondaryo! She'rlaridagi ohang otning gijinglab gir aylanishiday. Ichki ohanglari changqovuzning "biyov"lashiday, goh qadimiy "qo'zima'rash" nolalar yanglig' olisroqdan aks-sado kabi eshitilib turadi. U mahalladagi "o'zini" juda qisqa vaqt ichida jahoniy ko'chalardan turib, chaqirib ololgan, ijodiy jihatdan omadbaror, Xudo yarlaqagan shoir. Shodmon aka, aslida, kimyogar. So'zning navlari, xossalarini, tarkibi va tabiatda uchrash holatlarini (etimologiyasi), ta'sir kuchi va reaksiyasini o'z yo'rig'ida Aleksandr Blokning qaynotasidan kam bilmaydi. Uning ijodi, real dunyoqarashi hamma ham anglashi mushkul bo'lgan "dunyoning rentgen qog'ozi"ni yorug'likka tutadi, so'ng badiiy xulosalar beradi"<sup>4</sup>.

2 [https://teletype.in/@cosmos\\_88/Cu7LJc1a3Jo](https://teletype.in/@cosmos_88/Cu7LJc1a3Jo)

3 [https://teletype.in/@cosmos\\_88/Cu7LJc1a3Jo](https://teletype.in/@cosmos_88/Cu7LJc1a3Jo)

4 <https://telegra.ph/%D0%8EZIMDAN-%D0%8EZGA-TIRGAK-J%D0%8E%D2%9A-12-23>

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov N. Istiqlol davri adabiyoti. – T.: "Yangi nashr", 2010.
2. Oripov A. "Adabiyot va zamon". Mustaqillik davri adabiyoti. Adabiy-tanqidiy maqolalar, badialar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2006.
3. Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot (Adabiy-estetik, tanqidiy tafakkur tamoyillari). –T.: "O'qituvchi", 2012.

Nargiza JUMAQULOVA,  
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi  
[nargizabonujumakulova@gmail.com](mailto:nargizabonujumakulova@gmail.com)

## ADABIYOTDA GENDER PRESPEKTIVASINING AHAMIYATI

**Annotatsiya:** maqolada gender lingvistikasining shakllanishi, til va muloqotda gender omilining namoyon bo'lishi hamda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan asosiy nazariy qarashlar tahlil etiladi. Tadqiqot genderning biologik va ijtimoiy determinantlarga ko'ra o'zgarishi hamda gender farqlarining madaniyatlararo muloqotga ta'sirini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** *gender lingvistika, muloqot, sotsiolingvistika, nutq xulqi, til o'zgarishi.*

**Аннотация:** в статье рассматривается формирование гендерной лингвистики, проявление гендерных факторов в языке и коммуникации, а также основные теоретические положения, представленные отечественными и зарубежными исследователями. Исследование показывает влияние биологических и социальных детерминант на гендерные различия и их значение в межкультурной коммуникации.

**Ключевые слова:** гендерная лингвистика, коммуникация, социолингвистика, речевое поведение, языковые изменения.

**Annotation:** the article examines the development of gender linguistics, the manifestation of gender factors in language and communication, and key theoretical approaches discussed in local and international research. The research highlights the interaction of biological and social determinants and their impact on cross-cultural communication.

**Key words:** *gender linguistics, communication, sociolinguistics, speech behavior, language variation.*

Adabiyot sohasida gender yondashuv, uning yoritilishi, yozuvchining matnga, bu orqali matnning kitobxonga ta'siri yoxud gender nazariyalarining badiiy asarlarda ifodalanishi haqida yetarli o'rganilmagan. Ammo aynan o'zbek tilshunosligi doirasida gender va uning ifodalanishiga oid bir necha tadqiqotlar mavjud. Bulardan, Guljahon Hotamovaning "O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda ayollar nutqining xususiyatlari", Gulnora Niyazovaning "Detektiv romanlar tilining sotsiopragmatik aspekti va gender xususiyatlari" dissertatsiyalari bilan tanishdim. Ushbu ilmiy ishlarda gender tilshunoslikning ahamiyati, matnlarda yoritilishi, kontekst xususiyatlari, til hodisalarining shakllanish omili, etimologik manbai, ma'noviy guruhi, funksional jihatlar yoritilgan. XX asrning 90-yillari o'rtalaridan boshlab, gumanitar fanlarida gender nazariyasining kelib chiqishi yangi nazariy munosabatlarning rivojlanishi bilan boshlanadi. Dastlabki bosqichda tadqiqot differensial tarzda rivojlanmagan, ya'ni olimlarning diqqat markazida umumiy masalalar bor edi.

Keyingi davrlarda esa, gender o'rganilishning turli xil uslubiy yondashuvlari kelib chiqdi va ular mohiyatan har xil tushuniluvchi bio va sotsialdeterminizm tarafdorlariga ajrala boshlandi. Turli xil til va madaniyatlarda gender konsepsiyasining xususiyatlari, ularning bir-biriga mos kelmasligi, shuningdek, madaniyatlararo muloqotda bu nomuvofiqlikning oqibatlar olimlarni ham qiziqtiradi. Shu omillarga ko'ra genderning lingvistik o'rni va uning muloqotda ta'siri birinchilardan bo'lib o'rganila boshlandi. Gender tilshunosligi gender farqlari tilda qanday namoyon bo'lishini va tilning ijtimoiy gender rollari va o'ziga xosliklariga qanday ta'sir qilishini o'rganadi.

Xorijiy davlatlardan ham, MDH davlatlaridan ham ko'plab olimlar bu yo'nalishda ishlamoqda. Kaliforniya universitetining tilshunos professori Robin Lakoffning "Til va ayolning o'rni"<sup>1</sup> kitobi gender tilshunosligi uchun asos bo'la oldi. London universitetining ijtimoiy lingvistika professori Jenni Cheshir, jinsning til o'zgarishiga ta'sirini o'rganishga katta hissa qo'shgan. Uning ishi "o'smirlar va ularning nutqidagi gender farqlariga qaratilgan"<sup>2</sup>. Keyinroq esa, genderning muloqotga ta'siri bo'yicha kata yoshlilar haqida ham ishlar qilina boshlangan. Elena Goroshko, Xarkov Milliy universiteti professori "muloqotning gender jihatlarini va ularning turli nutqlarda namoyon bo'lishini o'rganib chiqqan"<sup>3</sup>.

XX asrning 40-50-yillarda lingvistik antropologlarning asarlarida turli vaziyatlarda gapiruvchining jinsi muhim rol o'ynashi qayd etilgan. Xususan, E. Sapirning 1949-yilda nashr etilgan "Til, madaniyat va shaxs" ("Til, madaniyat va shaxsiyat") asari, u Yang qabilasi hindlarning tilini tahlil qilib, erkak va ayollarning og'zaki nutqini hamda mavjud "jins" tushunchasi bilan aloqasi o'rgangan. U bu qabilaning erkaklari o'zaro muloqot qilish uchun erkaklar nutqi, ayollar bilan muloqot qilish uchun alohida ayollar nutqini ishlatganligini aniqladi. Binobarin, Yang tilida ikkita parallel va bir xil ahamiyatga ega bo'lgan quyi tizimlarning mavjudligi haqida gapirish qanchalik asosli degan savol tug'iladi. Ko'rinib turibdiki, bu holatda barcha ona tilida "so'zlashuvchilar tomonidan

1 Lakoff R. Language and Woman's Place: Harper & Row, 1975

2 Cheshire J. Variation in an English Dialect: A Sociolinguistic Study: Cambridge University Press, 1982

3 Горощко Е. Гендер и коммуникация в массовой культуре. Харьков: ХНУ им. В.Н. Каразина. 2006

keng qo'llaniladigan standart til va maxsus "erkakcha" jargon mavjud"<sup>4</sup>.

Shu bilan dastlabki jarayonlarda "gender" tushunchasi biroz torroq ma'noda faqatgina jins (biologik tuzilma) sifatida tadqiq qilingan. Tilni jins tomondan o'rganishning yana bir turi 1978-yilda Amerikaning janubi -g'arbiy Luiziana shtatidagi Muscojin hindulari tilini tadqiq qilar ekan, M. Xaas tomonidan kashf etilgan. Zamonaviy davrda, bu qabiladagi tilning ayol quyi tizimi faqat katta avlod ayollari nutqida saqlanib qolgan. Hozirgi yangi avlod esa erkaklar nutqini to'liq o'zlashtirdilar, chunki ular erkaklar tili etalon sifatida qaralgan. Ayollar tili esa quyi qatlam uchun mansub deb, tushunilgan. Bu hodisa, ayniqsa, "nutqning o'zgarish davrlarida qiziqroq aks etadi"<sup>5</sup>. Biroq, bu hodisaning birinchi fundamental lingvistik tadqiqotlari faqat XX asrning 60-yillarida amalga oshirilgan. Keyinchalik tilshunoslikda sotsiolingvistikaning rivojlanishi bilan nutq va tilning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-madaniy omillarga e'tibor qaratildi. Yuqorida aytib o'tilganidek, ular orasida gapiruvchi va suhbatdoshning yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqeyi kabi xususiyatlari ta'kidlana boshladi. Ko'rinib turibdiki, ilk davrlarda genderning muloqotdagi ahamiyati ko'proq o'rganildi va detallariga yoritila boshlandi. Nyu-Yorkdagi erkaklar va ayollar o'rtasida "ing" kombinatsiyasining beshta fonetik variantining taqsimlanishini tahlil qilgan V. Labov (1966) batafsil tadqiqot o'tkazdi. U ijtimoiy mavqe, millat, jins, yosh va atrof-muhit omillarining tilga ta'sirini o'rgangan. Bu tadqiqot juda muhim, chunki respondentlar jinsi, yoshi, ijtimoiy mavqeyi bo'yicha sinchkovlik bilan tanlangan o'rta sinf vakillari, oddiy shahar aholisi bo'lgan. Har bir respondentning nutqi turli vaziyatlarda, rasmiydan norasmiygacha, bir vaqtning o'zida bir necha omillar – lingvistik, sotsiologik va holat va vaziyat nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Bu tadqiqot "jinsni nutqqa ta'sir etuvchi omillardan biri degan gipotezaning ilmiy e'tirofi bo'lib xizmat qildi"<sup>6</sup>.

4 Sapir E. Yana tilidagi erkak va ayol nutq variantlari // Sapir E. Tilshunoslik va madaniyatshunoslik bo'yicha tanlangan asarlar. - M., 1993. - S. 455-461.

5 Eckert P. Til va jins. Kembrij: Kembrij universiteti matbuoti, 2004.

6 Labov V. Tilning o'zgarishi: Carrol E. Reed (Ed.). Til o'rganish. Ingliz

Gender til, muloqot uchun bir necha jarayonlarda ochiqdigan davrlarda adabiyot uchun ham o'rganilish kerakligi olimlarni yangi gipotezalar yo'lga o'tkazdi. Adabiyotda gender muhim ahamiyatga ega, chunki u kuch dinamikasini, ijtimoiy tuzilmalarni va shaxsiyatning murakkabligini yoritadi. Badiiy jihatdan gender prespektivalarining matnda ifodalanishini o'rganish orqali tahlil jarayoni va obrazlarning turli dinamik ko'rsatkichlari yanayam oydinlashadi. Adabiyotda genderni o'rganib chiqib, biz jamiyat ideallashtirgan stereotiplar qahramonlarning xatti-harakatlari va munosabatlarini qanday shakllantirishini yaxshiroq tushunishimiz mumkin, shu bilan birga bu me'yorlarni shubha ostiga qo'yamiz. Bundan tashqari, adabiyotda jinsni o'rganish turli xil tajriba va istiqbollarni yanada qamrab olish imkonini beradi. Badiiyatga gender yondashuv stereotiplar va jamiyatning taxminlarini tanqidiy tahlil qilish va muhokama qilish platforma yaratdi. Adabiyot orqali o'quvchilar gender me'yorlarini yo'lga qo'yadigan va ularga qarshi kurashuvchi qahramonlarning boshidan kechirgan tajribalari, kurashlari va g'alabalari haqida tushunchaga ega bo'lishlari mumkin.

Genderning til va nutqdagi namoyon bo'lishi turli omillar — biologik, ijtimoiy va madaniy determinantlarning o'zaro ta'sirida shakllanadi hamda uni alohida hodisa sifatida emas, balki kompleks lingvistik jarayon sifatida o'rganish zarur. Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tadqiqotlari genderning muloqot jarayonida semantik, pragmatik va sotsiolingvistik darajalarda faol rol o'ynashini ko'rsatadi. Adabiy ta'limda genderga oid tadqiqotlarning hali to'liq shakllanmaganligi ushbu sohada empirik kuzatuvlar va keng qamrovli lingvistik tahlillar o'tkazish zarurligini ta'kidlaydi. Shunday ekan, gender lingvistikasining rivoji tilning ijtimoiy tabiatini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi va zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

o'qituvchilarining milliy kengashi, 1971. P. 187-221.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hotamova, G. O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda ayollar nutqining xususiyatlari: Filologiya fanlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2003. 145-b.
2. Niyazova, G. Detektiv romanlar tilining sotsiopragmatik aspekti va gender xususiyatlari: Filologiya fanlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2011. 162-b.
3. Lakoff, R. Language and Woman's Place. – New York: Harper & Row, 1975. – 328 p.
4. Labov, W. The Social Stratification of English in New York City. – Washington, D.C.: Center for Applied Linguistics, 1966. – 405 p.
5. Sapir, E. Language, Culture and Personality. – Berkeley: University of California Press, 1949. – 280 p.
6. Cheshire, J. Language and Sex: The Relationship Between Gender and Linguistic Variation. – Oxford: Blackwell, 1998. – 214 p.
7. Goroshko, E. I. Gendernye osobennosti kommunikativnogo povedeniya. – Kharkov: KhNU, 2003. – 256 s.
8. Maccoby, E. E., Jacklin, C. N. The Psychology of Sex Differences. – Stanford: Stanford University Press, 1974. – 398 p.
9. Holmes, J. An Introduction to Sociolinguistics. – London: Longman, 2013. – 504 p.
10. Cameron, D. Gender and Language: Theory and Practice. – London: Routledge, 2005. – 256 p.

Kamil MUXAMEDZIYANOV,

Abdulla Qodiriy nomli

Jizzax Davlat pedagogika universitetining

Musiqa madaniyat fakulteti o'qituvchisi

## RONDO SHAKLINING KOMPOZITORLAR IJODIDA RIVOJLANISHI

**Annotatsiya:** quyidagi maqolada – avvalambor Musiqiy asarlar tahlili darslarida Jahon musiqa klassika namunalari bilan bir qatorda O'zbekiston kompozitorlarining asarlari ham keng yoritildi.

**Kalit so'zlar:** *rondo, asar, tahlil, falsafiy tarkib, kompozitor, romans, qo'shiq, shakl.*

**Аннотация:** в данной статье - освещаются произведения композиторов Узбекистана. которые изучаются на уроках анализа музыкальных произведений-наряду с образцами мировой музыкальной классики.

**Ключевые слова:** *рондо, произведение, анализ, философское содержание, композитор, романс, песня, форма.*

**Annotation:** this article highlights the works of Uzbek composers. These works are studied in music analysis classes, along with examples of world music classics.

**Key words:** *rondo, work, analysis, philosophical content, composer, romance, song, form.*

Lulli va Ramo kabi fransuz barokko kompozitorlarning musiqalari butun Yevropaga tarqaldi va XVII asr oxiridan boshlab butun jahon kompozitorlarga ta'sir qildi. Genri Pyorsel bu shakldan foydalangan birinchi ingliz kompozitorlaridan biri edi. 1676-yil 3-iyulda Dorset Garden teatrida premyerasi bo'lib o'tgan Afra Ben tomonidan Abdelazer uchun musiqasining ikkinchi qismi sifatida rondoni yozgan.

Germaniyada kompozitorlar Georg Muffat, logann Kaspar Ferdinand Fisher va logann Sebastyan Bax

o'zlarining ba'zi kompozitsiyalarida fransuz shakllari va usullaridan foydalanganlar. Shu jumladan, rondo shakldan foydalanish. I. S. Baxning rondodan foydalanishi e-moll'dagi 5-syuitadan (taxminan 1725-yil)

So'z va musiqa bilan birlashtirilgan strofik tuzilishida rondosimon xususiyatlar bilan uyg'unligi G. Mushelning Zulfiya so'zlariga yozilgan "Bahor guli" romansida kuzatishimiz mumkin.

**G. Mushel "Bahor guli"**



рас-це-та - ет с каж-дым днем.

В по-ле хо-ро-шо на во-ле встре-тить зо-ло-той вос-ход. Трак-тор хо-дит

в воль-ном по-ле, трак-тор де-вуш - ка ве-дет.

Ра-дост-ным го-рят рас-све-том не-ба даль-ни-е кра-я. Над ве-сен-ним пер-во-цве-том

ЛЕТ - ся пес-ня со - ловь-я.

Че-ло-век вес - ной мо-ло - же, ведь ду-ша вес-

*mf*

*p*

ной пол-на На - ше бу - ду - ще - е то - же бес-пре- дель - на -

1.

я вес - на! бес-пре- дель - на - я вес - на!

2.

rit.

Romans yetti taktili kirish qismi bilan boshlanadi, uning material asosida romansning qolgan qismlari tuziladi. Umumiy mavzu material bilan birlashtirilgan bo'lib musiqa asarning muhim shakllantiruvchi tamoyilli bo'lib turadi. Sakkizinchi taktda ovoz jo'rligidagi ostinato ritmi fonida sol majorda oddiy ohang bilan boshlanadi. Fortepiano qismida ovozni aks ettirib mustaqil chiziqni boshqaradi. Bu holatda kuzatilgan sherning strofik tuzilishi (romansning har bir konstruksiyasi to'rtta taktga to'g'ri keladi) kaleydoskopik tasvirni yaratmaydi. Bu yerda shakllanishning o'ziga xos xususiyati rondo obrazining bandli qo'shiq bilan uyg'unlashuvida bo'lib, refren naqorat (takroriy qism), qo'shiqning qolgan qismlari esa lavhalarni ifodalaydi. Sakkiz taktili rondoning hosil bo'lgan shakli dastlabki ikki qismning reprizada takrorlanishi – uch qismli kompozitsiyaga aylanadi.

Kompozitor turli xil yozish texnikasini mohirona birlashtirib: solo material (a, c, d) gomofonik, ba'zan xoral yozuvdan foydalangan holda taqlid qiluvchi kanonik yozish texnikasida yaratilgan sekvensiyali

ketma-ketlikdir. Shunisi qiziqki, har bir naqoratdan keyin (c) kirish materialida bog'lovchi qismlari mavjud, bu shubhasiz birlashtiruvchi holatdir.

“Bahor guli” romansning garmonik tili o'zining oddiyligi bilan musiqiy ranglarning yorqinligi va akkord birikmalarining yangiligi bilan ajralib turadi. Bu yerda birinchi o'rinda akkord ranglarini tashkil etuvchi ohanglarning melodik bog'lanishlari, yashirin polifoniya va taqlid qiluvchi kanonik to'quvlardan foydalanish (xoral materialida) aks ettirilgan. Kompozitor elliptik akkord zanjirlarining melodik xususiyatini ta'kidlab, goh yuqori tovushlarning to'g'ridan-to'g'ri harakatida, goh pastki akkord ohanglarida beshlik parallelizmlardan keng foydalanadi:

I17 – D7 – T7 – S9 – D65 → (IIb) – D9 → (IIIb) –  
D9 → (II) – D9 – T

Romansda hukmron bo'lgan uyg'onuvchi bahor tabiatining yorqin kayfiyati, qiziqarli shakli va boy garmonik tili “Bahor guli” romansiga o'ziga xos yakkaxonlik beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibrohimjonova G.A., Yuldoshev U.Y. Musiqa nazariyasi. Adabiyot uchqunlari. – T., 2018.
2. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. V jild, 484-488-betlar. – T., 2003.
3. Холопова В.Н. Анализ музыкальных форм (учебное пособие). СПб, 2001.
4. Urmanova L., Trigulova A., Ibrahimjanova G. Musiqa nazariyasi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.

#### Internet saytlari

5. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
6. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
8. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
9. [tdpu-intranet.Ped](http://tdpu-intranet.Ped)



Nurjamal KARAMATDINOVA,  
Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi  
[Nurjamal\\_karamatdinova@gmail.com](mailto:Nurjamal_karamatdinova@gmail.com)



## ABBOZ DABILOV IJODIDAGI FRAZEOLOGIZMLARDA GIPERBOLA VA LITOTA QO'LLANILISHI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada A. Dabilov ijodida frazeologik birliklarning badiiy-estetik vazifasi tahlil qilinadi. Xususan, shoir asarlarida giperbola va litota kabi tasviriy vositalarning qo'llanishi, ularning obraz yaratishdagi o'rni va ekspressiv-uslubiy xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Tahlillar shoirning she'riy matnlari asosida olib boriladi va ulardagi mubolag'a hamda kichraytirish vositalarining badiiy maqsadga xizmat qiluvchi jihatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari Dabilov asarlarining tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'ziga xosligini yoritishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** frazeologizmlar, giperbola, litota, badiiy tasvir, ekspressivlik, qoraqalpoq tili, A. Dabilov ijodi, obrazlilik

**Аннотация:** в данной статье рассматривается художественно-стилистическая роль фразеологических единиц в творчестве А. Дабиллова. Особое внимание уделяется использованию гиперболы и литоты, их функции в создании образа и усилении эмоционально-экспрессивного эффекта. Анализ проводится на основе поэтических текстов автора, где раскрываются особенности применения преувеличения и преуменьшения как выразительных средств. Полученные выводы позволяют обозначить специфику языка произведений Дабиллова в аспекте лингвистики и литературоведения.

**Ключевые слова:** фразеологизмы, гипербола, литота, художественный образ, экспрессивность, каракалпакский язык, творчество А. Дабиллова

**Annotation:** this article explores the stylistic and artistic functions of phraseological units in the works of A. Dabilov. Special attention is given to the use of hyperbole and litotes, their role in imagery creation, and their contribution to emotional and expressive intensity in poetic texts. The analysis is based on Dabilov's poems and reveals how exaggeration and understatement serve as effective stylistic devices. The findings highlight the linguistic and literary specificity of Dabilov's poetic language.

**Key words:** phraseological units, hyperbole, litotes, stylistic devices, expressiveness, Karakalpak language, A. Dabilov's poetry, imagery

**Kirish.** Har bir tilning leksik zahirasida frazeologik birliklar alohida ahamiyatga ega. Turg'un (idiomatik) so'z birikmalari millatning ruhiy dunyosi, turmush tarzi, ma'naviy qadriyatlari va madaniy tasavvurini ifodalovchi asosiy til ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Ushbu birikmalar orqali xalqning urf-odatlarini, marosim-an'analari, dunyoqarashi va ijtimoiy tajribasi qisqa, lekin obrazli shaklda ifodalanadi. Shu bilan birga, ular nutqning badiiy-estetik imkoniyatlarini boyitadi hamda milliy xotira va ma'naviy merosni saqlashda muhim til qavatini sifatida xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Qoraqalpoq tilidagi frazeologizmlar – xususan, ularning semantik xususiyatlari va milliy o'ziga xosligi – tilshunoslikda doimiy tadqiqot obyekti bo'lib kelgan. Bu sohada S. T. Navrizbayeva [5], G. Aynazarova [1; 3], A. Pirniyazova [6], J. Tanirbergenov [7], G. Allamberganova [4] kabi olimlarning ishlari alohida o'rin tutadi. Ularning tadqiqotlarida frazeologik birikmalarning tuzilishi, semantik toifaga bo'linishi, obraz manbalari va milliy-ma'naviy belgilarni aks ettirish mexanizmlari hamda ularning badiiy matn va nutqdagi vazifalari batafsil yoritilgan.

### Tadqiqot metodologiyasi

**Natijalar va muhokama.** So'z ustalari badiiy asarda hodisani, voqeani yoki ularning belgisini uslubiy maqsadda

aloqida ajratib, bo'rttirib ko'rsatadilar, shu orqali o'quvchida taassurot qoldirishga erishadilar. Shoir asarlari tilida ham har xil giperbolik tasvirlar mavjud. Badiiy asarda u yoki bu narsalarni, sharoitlarni, personajlarni, ularning xatti-harakatlarini haddan tashqari kattalashtirib, bo'rttirib tasvirlash giperbola deb ataladi [2: 67]. Badiiy so'z ustalari ta'sirchanlikni kuchaytirish, obrazlilikni oshirish maqsadida giperboladan foydalanadilar. Giperbolaning asosida belgi va xususiyatlarni boshqa narsaga o'xshatish, qiyoslash yotadi. Giperbola folklor asarlarida juda samarali qo'llaniladi.

Abboz Dabilov ham bir necha mavzuli she'rlarini yozib, unda o'sha vaqtda bo'layotgan voqealarga o'zining qarashlarini bildirish bilan birga turmushdagi o'zgarishlarni ham, yangiliklarni ham xalqqa yetkazishda ko'p xizmat qildi. Chunki, o'z davri uchun xizmat qilish va uni kuylash har bir shoir uchun ham fuqarolik ishi edi. Abbozning she'rlarining ta'sirchanligi, birinchidan, tug'ma iste'dodga egaligi, ikkinchidan, xalqchil ruhning ustuvorligi, uchinchidan, voqealar orasida bo'lib, o'z ko'zi bilan ko'rganlarini badiiy tasvirlashida namoyon bo'ladi va badiiy tasvir vositalarining bir turi bo'lgan mubolag'alardan mohirona foydalanadi. Masalan, uning she'rlar to'plamiga kirgan "Udarchiklar" she'rida:

Endi otaqti tuvarip,  
Qariğı menen suwǵarip,

**Altı kómip, jeti qarip,**

Qariqların udarchikler ("Udarchikler", 11 bet).

Shoir zarbdorlarning qilgan mehnatlarini *olti ko'mib, yetti qarib* degan giperbolik qatorlar orqali qanchalik darajada ishiga fidoyi, charchamay halol xizmat qiladigan mehnat qahramonlarining ish-harakatlarini mohirona tasvirlab bergan.

**On segiz ayday alisip,**  
Dushpannıń jaǵı qarısıp,  
**Bir yarım jilday jarısıp,**  
Báygiden at ozdırıptı

Úy hám jaylarımız órtenip,  
Qara úydi sıpırıp alıp,  
"Dúnya tap!" dep, bosatarǵa oq salıp,  
**Bir oqqa júz adam toplaǵan edi.**

**Oq jawdırdı saǵan qarap burshaqtay,**

Úsh saat oq attı jawlar qurǵaqtay,

At basında tasqınlaǵan júregiń,

Búlk etpedi qoyan júrek qorqaqtay («Udarchikler», 11 bet).

Urush davrida, front qiyinchiliklarida fashizm bilan kurashayotgan jangchilarga nafaqat qurol-yarogʻ, balki ma'naviy kuch ham ayniqsa zarur edi. Bu kuchni qoraqalpoq xalqi Abboz shoir orqali ko'radi va botir, mard erlarning qahramonliklarini yetkazib berishda shunday mubolag'alardan foydalanadi. Urushga ketgan jangchilar, biz dostonlarda o'qigan "Alpomish", "Edige", "Qo'blon" kabi dushmanlarga qarshi turib o'n sakkiz oycha olishgani, bir yarim yilcha bellashgani, o'qiga yuz odam to'planib, o'zi hech narsadan qo'rqmay o'q ostida qolgani kabi harakatlarni o'quvchilarning ongiga aniq yetib boradigan darajada xarakterli tasvirlaydi. Qaysi shoirning ta'rif she'rlari bo'lmasin, ularni mubolag'alarsiz ko'z oldimizga keltira olmaymiz. Bu an'ana qadimdan boshlangan. Doston qahramonlarining tabiat hodisalariga o'xshatilishi, ularning obrazini ochib berishda eng zarur vosita hisoblanadi. Abboz shoir shulardan o'nak olib, qizlarning xarakterini, ularning tashqi qiyofasini ochib berishda "*olti borib, besh qaytib*", "*qorong'i uyga kirganda, ko'zlari chiroq yongandek*" kabi mubolag'alarni qo'llaydi.

Bir túri bar qızlardıń,

**Altı barıp, bes qaytıp,**

Talayın kórgen esiktiń,

Saqla balam solardan («Udarchikler», 11-bet).

Qızdıń atı Qırmızı,  
Shaxsanemniń dál ózi,  
Eki bettiń alması,  
Qaǵazǵa qan tamǵanday,  
Qarańǵı úyge kirgende,  
**Kózleri sham jańanday,**  
**Kórmegenler bir kórs,**

**Es-aqıldan tamǵanday** ("Bahadır" dostoni, 12-bet.)

Erkak-yigitlarning haybatini, tashqi qiyofasini o'quvchining ko'z oldiga keltirish uchun shoir giperbolalardan o'rinli foydalanganini ko'ramiz. "*ikki mo'ylovi aylanib, quloqqa bir-bir o'ralgan*" yoki "*yelkasi bor qopqoqday, bilaklari to'qmoqday*" kabi satrlar orqali beixtiyor o'quvchining ko'z oldida qahramon obrazi gavdalanadi. Buni mana bu she'r satrlarida ko'rsak bo'ladi:

Bilekke kúshi jıynalıp,  
Basqa waqta boyına,  
Múshelerge taralǵan.  
**Eki murı aylanıp,**  
**Qulaqqa bir-bir oralǵan**

**Jawırını bar qaqpactay,**

**Bilekleri toqpactay,**

Orta boylı dembelshe,

Ata-anadan tuwmay-aq,

Jerden piship alǵanday ("Bahadır" dostoni, 13-bet.)

Qahramon obrazini ochib berishda giperbolalar tez-tez qo'llaniladi. Ayniqsa folklorda botirlarga xos xarakterni ochib berishda shunday giperbolalar qo'llaniladi.

Ekewiniń jeytuǵın,

**Bir kúndegi tamaǵı,**

**Bir sıyırdıń eti eken.**

Gúrtik penen aralas,

**Ishedi eken hár qaysısı,**

**On tabaqtay sorpadan,**

Tamaq jegen waǵında,

**Sıyır tuwe bizlerge,**

**Bir túyenin eti de,**

Az boladı deydi eken.

On sháynek shayǵa hár qaysısı,

Azanǵı shayǵa halqası,

**Sháyneginde úsh nannan,**

**Otız nandı jeydi eken.**

...Sol zamanǵa berilgen,

Kirpikleri tógilgen,

Qasları qarıs kerilgen,

Haqıyqat qumar kóz edi.

Kózi túsken jigitler,

Aqlı-huwshın aldırıp,

Omaqazan atıp súringen,

Gúlınar páriydiń ózi edi ("Bahadır" dostoni, 25-bet).

Abboz Dobilovning "Bahodir" dostonida ko'ngildagi dard va g'amning, qayg'u va quvonchning, tashvishning cheksizligini giperbola usulida tasvirlash uchun suyagi supurgi, eti yonib kul bo'lgan harakatlar orqali ifodalab beradi.

Qız satqanı kúndiz kúni tún boldı,

**Súyegi sipse, eti janıp kúl boldı,**

Partiyaǵa qarsı turǵan adamnıń,

Erman, eki kózine qara qum toldı

Quyidagi satrda "*o'pkasini siqib tergov*" kabi turg'un so'z birikmasining giperbolik xizmatdan muallifning mahorat bilan foydalanganini ko'ramiz.

Bile ғoysa Dárigúl,  
 Sózdi uzatıp júrmesin,  
 Minanday kóp aqshani,  
 Sen qayaqtan aldır dep,  
 Ókpemdi sıgıp tergeydi.

Tildagi badiiy tasvir vositalarining bajaradigan vazifalari umumiy bo'lsa-da, ularning bir-biridan ajralib turadigan o'ziga xos xususiyatlari, obrazlilik yaratishdagi imkoniyatlari bor. Badiiy asar tilida so'zlar ko'pincha ko'chma ma'noli bo'lib keladi. So'zlarning obrazlilikni kuchaytirish, ularning ekspressiv va emotsional ta'sirchanligini oshirishda tasvirlash vositalari ichida litotalarning xizmati alohida. Shoir o'z asarlarida tilning leksik-semantik boyliklaridan, ko'rkamlashtirish vositalaridan mohirona foydalangan.

Litota – yunoncha so'z bo'lib, oddiylilik, kichiklik degan ma'noni anglatadi. Litota tasvirlanayotgan narsani yoki hodisani obrazli qilib ko'rsatish uchun qo'llaniladi. U – giperbolaga qarama-qarshi tushuncha. Tasvirlash obyektini kichraytirib ko'rsatish litota deb yuritiladi. Badiiy so'z egasi o'zining g'oyaviy maqsadiga mos keladigan narsalarning ahamiyatini oshirish, alohida ajratib ko'rsatish uchun uning antipodini (yoki unga parallel bo'lgan narsani) kichraytirib ko'rsatadi. "Tuyaning ko'zidek zog'ora", "Shappatdek bola", "Taqqadek qishloq" singari va boshqalar. Litota boshqa troplar kabi muallifning fikrlarini ko'rkamlab yetkazish uchun qo'llaniladi.

Abboz Dabilovning asarlarida ham "bir parchagina non", "hovuch to'la", "shappatdek non", "serka soni", "bir qarich yer", "chivin jon" kabi litotalarni uchratamiz. Ular she'r mazmuniga emotsional-ekspressiv ma'no berib, yanada ta'sirli chiqishiga xizmat qiladi. "Bir parchagina non", "hovuch to'la" kabi kichraytirib ko'rsatuvchi ma'noli so'zlar birinchi berilgan she'r qatorlarida onaning qanchalar darajada mehnatsevar ekanligi, topgan kichkina narsasini o'zi yemasa-da, farzandi uchun berishini litotalik qatorlar orqali mohirona tasvirlab berilgan.

**Bir párshedeý nan** tapsa da beredi.

Jaya menen jal tapsa da beredi.

**Aya tolim** tapsa da beredi,  
 Anam anasinday sıyladı júrdi.

Maktab ochilgan paytlari o'quvchilarga halqas deb ataladigan mavsumiy ovqat bergan. O'sha ovqatning qanday ekanini tushuntirishda qo'llanilgan *shappatdek non* litotasi orqali zamonning qanday bo'lganini ochib beruvchi badiiy vositadan o'rinli foydalanganini ko'ramiz.

Áwel baslap bir stakan sût berdi,  
 Bir qatar ishlerin buzıp ótkerdi,  
 Ekinshi kún bir piyala mashaba,  
**Shappattay nan**, bir úzbennen et berdi.

Shoirning elga mashhur "Bahodir" dostonida, Ortiqning obrazini yaratishda otiga yarashmaydigan qiyofasi, ko'rinishi tabiatimizda mavjud bo'lgan serka orqali qiyosiy tarzda tasvirlanadi.

Bir balası bar edi.  
 Ótteý úpik sarı edi.  
 Ózi jılan qabırğa,  
 Jáne serkke san edi.

Quyida berilgan bir taban yer litotasi she'r satriga kuchaytiruvchi ta'sir qilib, elimizning tarix sahifalarini ochib bergandek bo'ladi.

Erkine qol jetpeý júrgen jurт ediń,  
 Huqıqı joq qaraqalpaq ult ediń,  
 Suw kóterip kók teńizden jawarğa,  
**Bir taban jer** tappay júrgen bult ediń

Inson joni chivin bilan teng bo'lmasligini barchamiz yaxshi bilamiz. Ammo badiiy adabiyotda, she'riy, nasriy asarlarda badiiylikni oshirish uchun o'rinli qo'llaniladigan jihatlari bor. Buni shoirning shu satrlaridan anglasak bo'ladi.

Buni sırttan kórgen qasha-qash edi,  
 Posıp taw, tóbeden asa-as boldı.  
**Bir shıbın jan** tatlı basa-bas boldı.  
 Bayǵus xalıq baspana tappaǵan edi

**Xulosa.** Abboz Dabilovning asarlarining mavzusi har xil bo'lib keladi. Biz uni o'rganish orqali davrning qanday bo'lganining sir-asrorlarini ochishga intilamiz. Yana lisoniy leksikamizning boyishiga sababchi bo'lamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aynazarova G. Qaraqalpaq tilinde ten'les eki komponentli frazeologizmlerdin' leksika-semantikalı'q ha'm stilistikali'q o'zgeshelikleri. –Nokis: Qaraqalpaqstan, 2015.
2. Járimbetov Q. Ádebıyattanıwdan sabaqlar. Nókis. "Qaraqalpaqstan", 2012.
3. Айназарова Г. Қарақалпақ тилинде теңлес еки компонентли фразеологизмлер. Нөкис, 2005.
4. Алламбергенова Г.И.Юсупов асарларида фразеологизмларнинг услубий қўлланилиши: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. Нукус, 2019.
5. Наурузбаева С. Фразеологические единицы в каракалпакско-русском словаре. –Ташкент: Фан, 1972.
6. Пирниязова А. Қарақалпақ тили фразеологиялық системасы ҳәм оның стилистикалық имканиятлары: Филология илимлериниң докторы (DSc) илимий дәрежесин алыў ушын усынылған диссертация. – Нөкис, 2020.
7. Тәңирбергенов Ж.Қарақалпақ тилинде феи́л фразеологизмлердиң лингвистикалық анализи. Философия докторы (PhD) дәрежесин алыў ушын усынылған диссертация.-Нөкис, 2020.

## FRAZEOLGIZMLAR TARKIBIDA QO'SHMA SO'ZLAR DERIVATSIYASI VA STRUKTUR-SEMANTIK KO'CHIMLAR

**Annotatsiya:** ushbu maqolada frazeologizmlar tarkibida qo'shma so'zlarning shakllanishi, ularning derivatsion jarayonlari, struktur-semantik ko'chimlari hamda frazeologik birliklar tuzilmasida barqarorlashuv omillari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Qo'shma so'zlarning frazeologizmlarda semantik yadro vazifasini bajarishi, obrazlilik va ifoda kuchini oshirishi, metafora, metonimiya, sinekdoxa va emfatik ko'chimlar orqali yangi ma'nolar hosil qilishi yoritiladi. Tadqiqot natijalari qo'shma so'zlarning frazeologik tizimda o'ziga xos barqaror struktura yaratishi, tilning badiiy va ifodaviy imkoniyatlarini boyitishi hamda milliy madaniy tasavvurlarni aks ettirishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** *frazeologizm, qo'shma so'z, derivatsiya, semantik ko'chim, metafora, metonimiya, sinekdoxa, barqarorlashuv.*

**Аннотация:** в статье рассматриваются особенности сложных слов в составе фразеологизмов, их деривационные процессы, структурно-семантические переносы и причины их устойчивости в фразеологической системе языка. Анализ показывает, что сложные слова выполняют функцию семантического ядра фразеологизмов, усиливая их образность и экспрессивность. Путём метафоры, метонимии, синекдохи и эмфатического переноса формируются новые значения, что способствует расширению выразительных возможностей языка. Исследование подтверждает, что сложные слова играют важную роль в формировании устойчивых фразеологических единиц и отражают культурно-национальные особенности.

**Ключевые слова:** *фразеологизм, сложное слово, деривация, семантический перенос, метафора, метонимия, синекдоха, устойчивость.*

**Annotation:** this article examines the role of compound words within phraseological units, focusing on their derivational processes, structural-semantic shifts, and the factors contributing to their stability in the phraseological system. The findings indicate that compound words function as semantic cores of phraseologisms, enhancing imagery, expressiveness, and figurative meaning. Through metaphor, metonymy, synecdoche, and emphatic shifts, new meanings emerge, enriching the expressive and stylistic potential of the language. The study concludes that compound words significantly contribute to the formation and stabilization of phraseological units and reflect cultural and national linguistic characteristics.

**Key words:** *phraseologism, compound word, derivation, semantic shift, metaphor, metonymy, synecdoche, stability.*

Til tizimining shakllanishi, rivojlanishi va uning ichki qonuniyatlarini chuqur tahlil qilish tilshunoslik fanining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, unda ayniqsa frazeologiya alohida va murakkab soha sifatida ko'riladi. Frazeologik birliklarning tuzilishi, semantik xususiyatlari, lug'aviy boylikni kengaytirishdagi roli va ulardagi ma'no ko'chish mexanizmlari tilning umumiy taraqqiyot jarayonini yoritishda nihoyatda muhimdir. Tilning lug'aviy tarkibi doimiy harakatda bo'lib, undagi birliklar semantik jihatdan yangilanib boradi. Shu jarayonda qo'shma so'zlarning ham mustaqil leksik birlik sifatida, ham frazeologizmlar tarkibida qo'llanishi tilning murakkab semantik tizimini yanada boyitadi. Qo'shma so'zlarning frazeologik birliklar tarkibida tutgan o'rni va ularga xos derivatsion jarayonlar

tilda yuz beradigan semantik o'zgarishlarning eng faol komponentlaridan biri sanaladi. Bu jarayonlar tilshunoslikning frazeologiya, leksikologiya, semasiologiya va derivatologiya kabi tarmoqlari kesishgan nuqtada o'rganiladi. Frazeologizmlar tarkibida uchraydigan qo'shma so'zlar har doim ham o'zining dastlabki ma'nosida emas, balki ko'pincha ko'chma, obrazli, emotsional va konnotativ boyitilgan mazmunda namoyon bo'ladi. Bunday birliklar nutqda nafaqat ifoda vositalarining boyligini oshiradi, balki milliy dunyoqarash, madaniy qadriyatlar, tarixiy tajriba va xalq tafakkurining o'ziga xos jihatlari ham aks ettiradi. Shu bois qo'shma so'zlar ishtirokidagi frazeologizmlarni tahlil qilish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, kognitiv lingvistika va

pragmalingvistika uchun ham katta ilmiy ahamiyatga ega. Tilshunoslikda qo'shma so'zlarning derivatsiyasi — yangi ma'no hosil bo'lishi, o'zaklarning qo'shilishi yoki mavjud so'z shakllarining transformatsiyalanishi orqali yuzaga keladigan jarayon sifatida izohlanadi. Frazeologizmlar tarkibida esa bu jarayon yanada murakkab tus oladi, chunki qo'shma so'zlar bitta semantik tizimga kirib, frazeologik birikmaning umumiy ma'nosini belgilovchi asosiy elementlardan biriga aylanadi. Bunda so'zning leksik, semantik va grammatik xususiyatlari qayta talqin qilinadi, uni idrok etish esa mazmunning kontekstualigi, tasviriyliigi va assotsiativligi bilan bog'liq bo'ladi. Ayniqsa metafora, metonimiya, sinekdoxa, kuchaytirish, umumlashtirish kabi semantik ko'chimlarning faol qo'llanilishi qo'shma so'zlarning frazeologizmlar tarkibida barqarorlashuviga xizmat qiladi. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning tuzilishi, ularning semantik maydonlardagi o'rne, stilistik imkoniyatlari, milliy mentalitetni ifodalashdagi roli keng o'rganilayotgan bo'lsa-da, qo'shma so'zlarning frazeologik birliklar tarkibida qanday derivatsion jarayonlar orqali shakllanishi, ular qanday semantik transformatsiyalarni boshdan kechirishi masalasi yetarlicha mukammal tahlil qilinmagan. Shu bois mazkur mavzu bo'yicha olib boriladigan tadqiqot tilning lug'aviy boyligi, frazeologik tizimi va ma'no ko'chish mexanizmlarini yanada chuqurroq yoritishga yordam beradi. Ushbu maqolaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, qo'shma so'zlarning frazeologizmlar tarkibidagi o'rne, ularning semantik va struktur derivatsiyasi, shuningdek mazkur masalaning zamonaviy tilshunoslikdagi o'rganilish holati yoritildi. Keyingi bo'limlarda esa qo'shma so'zlarning frazeologik birliklarda namoyon bo'ladigan derivatsion modellari va struktur-semantik ko'chimlar batafsil tahlil qilinadi.

Frazeologik birliklar tilning obrazli, majoziy va barqarorifodatizimini tashkil etib, ular tarkibida qo'shma so'zlarning ishtiroki alohida semantik yuklama kasb etadi. Qo'shma so'zlar frazeologizmlarning mazmuniy shakllanishida asosiy komponentlardan biri bo'lib, ular nafaqat grammatik qurilmani mustahkamlaydi, balki butun birikmaning semantik yadrosini ham belgilaydi. Shu bois qo'shma so'zlar frazeologik birliklarga obrazlilik, ekspressivlik, hissiy rang va kuchli konnotativ ma'no qo'shadi. Ular frazeologizmlarning tarkibida o'zining dastlabki lug'aviy ma'nosidan yiroqlashgan, metaforik yoki metonimik mohiyat kasb etgan shaklda namoyon bo'ladi. Birinchi navbatda, qo'shma so'zlar

frazeologizmlarning umumiy mazmunini aniqlashtirish vazifasini bajaradi. Masalan, *qo'l qovushtirmoq* birikmasida "qo'l" va "qovushtirmoq" so'zlari semantik jihatdan harakatsizlik, loqaydlik ma'nosini ifodalaydi. Agar qo'shma birlikdan biri o'zgarsa, frazeologizmning mazmuni ham butunlay o'zgaradi. Bu hol qo'shma so'zlarning frazeologik birlik tarkibida qanday markaziy o'rin tutishini ko'rsatadi. Ikkinchi jihat — qo'shma so'zlarning obrazlilik yaratishdagi roli. Masalan, *ko'zbo'yamachi* so'zi bevosita "ko'z" va "bo'yamoq" so'zlaridan tuzilgan bo'lsa-da, frazeologik ma'noda "haqiqatni yashiruvchi, manzarani chiroyli qilib ko'rsatuvchi" odamni anglatadi. Bu yerda qo'shma so'zning ma'nosi bir necha bosqichli metaforik ko'chim orqali shakllangan. Qolaversa, *yurak yutmoq* birikmasi ham qo'shma so'zning kuchli obrazli talqini bo'lib, unda "yurak" so'zi jasorat, dadillik kabi tushunchalarning ramzi sifatida ishlatiladi. Qo'shma so'zlar frazeologik birliklarga kirar ekan, ular mustahkam semantik struktura hosil qilib, shu asosda yangi, ko'chma, figurativ ma'nolarni yuzaga keltiradi. Bu jarayon ko'pincha metafora, metonimiya yoki sinekdoxa asosida amalga oshadi. Masalan, *qo'l uchida ishlamoq* birikmasidagi "qo'l uchi" iborasi tezlik, yuzaki bajarilgan ishni bildiruvchi semantik modelga aylangan. Shuningdek, qo'shma so'zlar frazeologizmlarning stilistik imkoniyatlarini ham belgilaydi. Tilshunoslikda derivatsiya tushunchasi so'zning yangi shaklga o'tishi, semantik kengayishi yoki grammatik vazifasining o'zgarishi orqali yangi birlik hosil bo'lish jarayonini anglatadi. Qo'shma so'zlar esa derivatsion jarayonlarning eng sarmahsul qatlamlaridan biri bo'lib, ular frazeologik birliklar tarkibida yanada murakkab semantik xususiyat kasb etadi. Frazeologizmlar barqaror tuzilma va figurativ ma'no bilan ajralib turadi. Qo'shma so'zlar ana shu figurativlikning asosiy manbai sifatida yangi ma'no hosil bo'lishiga xizmat qiladi. Ular frazeologik birlikning mazmuniy yadrosini belgilaydi, tuzilmani mustahkamlaydi va obrazlilikni kuchaytiradi. Shu sababli qo'shma so'zlarning frazeologizmlar tarkibidagi derivatsiyasi alohida ilmiy tahlilni talab etadi. Qo'shma so'zlarning derivatsiyasi uch asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi: leksik-semantik, morfologik va sintaktik derivatsiya. Mazkur jarayonlarning har biri frazeologik birlikning semantik shakllanishiga o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatadi. Leksik-semantik derivatsiya qo'shma so'zning mavjud lug'aviy ma'nosidan butunlay yangi, obrazli, ko'chma ma'no hosil bo'lish jarayonini ifodalaydi. Bu jarayon

aksariyat hollarda metafora va metonimiya kabi ma'no ko'chish mexanizmlari yordamida ro'y beradi. Masalan, ko'ngil ko'tarish birikmasida "ko'ngilni yuqoriga ko'tarish" kabi literal ma'no emas, balki "kayfiyatni yaxshilash", "ruhiyatni ko'tarish" mazmuni paydo bo'lgan. Bu yerda qo'shma so'zning semantik yadrosi kengayib, umumlashgan, abstrakt va metaforik ma'no chiqadi. Shuningdek, yurak yutmoq birikmasida ham leksik-semantik derivatsiya sodir bo'ladi: "yurak" jasoratning ramzi sifatida metaforik talqin etiladi va frazeologizm "jasorat ko'rsatmoq" ma'nosida mustahkamlanadi. Morfologik derivatsiya qo'shma so'zning tarkibiy o'zxlari qo'shilishi va yangi birlik sifatida frazeologizm tarkibiga kirishi bilan bog'liq. Qo'shma so'zning struktur jihatdan mustahkamligi uni frazeologik birlikning ajralmas qismiga aylantiradi. Masalan, yurak yutmoq iborasida "yurak" va "yutmoq" so'zlari morfologik jihatdan yangi semantik birlik yaratgan bo'lib, frazeologizm doirasida ular yagona obrazli komponent sifatida ishlaydi. Morfologik derivatsiya natijasida qo'shma so'z frazeologizmning asosiy semantik yukini ko'taradi, uning ma'nosini konkretlashtiradi va obrazlilikni kuchaytiradi. Sintaktik derivatsiya esa sintaktik birliklarning birikib, doimiy, barqaror semantik shaklga ega bo'lgan frazeologik komponentga aylanish jarayonini anglatadi. Masalan, qo'l uchida ishlamoq sintaktik qurilish bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan u barqaror obrazli ma'no kasb etgan: "yuzaki ishlamoq", "jiddiy bo'lmasdan bajarish" mazmuni mustahkamlanadi. Bu jarayon sintaktik birlikning frazeologik darajada qayta semantizatsiya qilinishini ko'rsatadi.

Umuman olganda, qo'shma so'zlar frazeologizmlar tarkibida sodir bo'ladigan derivatsion jarayonlar tilning semantik imkoniyatlarini kengaytiradi, majoziy ma'no yaratadi va nutqning badiiy uslubda boy ishlatilishiga xizmat qiladi. Ular tilda figurativlik, ekspressivlik va emotsionallikning kuchli manbai bo'lib, frazeologik birliklarning barqaror semantik tizimini shakllantirishda asosiy omillar qatoriga kiradi. Frazeologizmlar o'z tabiatiga ko'ra barqaror, ko'chma ma'noli va obrazli til birliklari hisoblanadi. Ularning shakllanishida qo'shma so'zlar muhim rol o'ynaydi, chunki aynan qo'shma birliklar orqali frazeologizmning semantik yadrosi mustahkamlanadi, mazmuni kengayadi yoki kuchayadi. Frazeologik birliklar tarkibida sodir bo'ladigan struktur-semantik ko'chimlar tilning majoziy qatlamini boyitadi, tasviriy ifodalarning ko'lamini kengaytiradi va xalq mentalitetida shakllangan ramziy tasavvurlarni aks ettiradi. Bunday ko'chimlarning

shakllanishi tilning tarixiy rivoji, madaniy an'analari va ijtimoiy tajribasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular ko'pincha qo'shma so'zlarning semantik o'zgarishi orqali amalga oshadi. Frazeologizmlarda uchraydigan struktur-semantik ko'chimlarning birinchisi — metaforik ko'chimdir. Metafora asosida bir predmet yoki hodisaning belgilari boshqasiga ko'chiriladi. Bu jarayon qo'shma so'zning dastlabki ma'nosini kengaytirib, uni obrazli tushuncha darajasiga ko'taradi. Masalan, temir asab birikmasida "temir" so'zi fizik xossani emas, balki psixologik bardoshlilikni ifodalash uchun qo'llangan. Bu metafora insonning chidamli, mustahkam tabiatini ta'riflash uchun juda mos obraz hisoblanadi. Metaforik ko'chim frazeologizmlar tarkibidagi qo'shma so'zlarga kuchli tasviriylik bag'ishlaydi.

Ikkinchi tur — metonimik ko'chim, ya'ni predmet yoki hodisaning nomi unga yaqin bo'lgan boshqa bir tushunchani ifodalashda qo'llanadi. Metonimiya semantik yaqinlik, funksional bog'liqlik yoki kontekstdagi real aloqadorlik asosida yuzaga keladi. Qo'l ko'tarmoq birikmasi bunga yorqin misoldir. Bu birikmada "qo'l ko'tarish" asl ma'noda jismoniy harakatni anglatadi, lekin frazeologik ma'noda "taslim bo'lish", "kurashdan voz kechish" mazmunini beradi. Bu jarayon qo'shma so'zning frazeologik birlikka kirgach semantik jihatdan qayta talqin qilinishini anglatadi. Uchinchi ko'chim turi — sinekdoxa, ya'ni qism bilan butun, yoki butun bilan qism o'rtasidagi semantik almashuvdir. Sinekdoxik ko'chim frazeologizmlarda ko'pincha obrazning qismini butun vazifasida ishlatish orqali namoyon bo'ladi. Boshini ko'tarmoq birikmasida "bosh" qismi umumiy harakatni anglatadigan butun obraz o'rnida qo'llanadi. Bu yerda "bosh ko'tarish" nafaqat jismoniy harakatni, balki "faollashmoq", "ishga kirishmoq" kabi abstrakt ma'noni ham ifodalaydi. To'rtinchi tur — kuchaytiruvchi (emfatik) ko'chim. Bu holatda qo'shma so'z frazeologizmning emotsional va ekspressiv ta'sir kuchini oshirish uchun qo'llanadi. Masalan, ko'ngli tosh bo'lmoq iborasida "tosh" so'zi chidamlilik, qattqlik belgisi sifatida ishlatilib, insonning hissiz, rahmsiz holatini kuchli emotsional tusda ifodalaydi. Bu turdagi ko'chimlar matnga keskinlik, dramatism yoki badiiy ta'sirchanlik bag'ishlaydi.

Umuman olganda, struktur-semantik ko'chimlar frazeologizmlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Qo'shma so'zlar bu jarayonning markaziy unsuri bo'lib, ular ma'no ko'chimining boshlang'ich nuqtasi sifatida xizmat qiladi. Tilning badiiy, obrazli qatlamidagi ko'plab frazeologizmlar aynan shu

semantik transformatsiyalar orqali yuzaga kelgan. Frazelogizmlar tilning barqaror, ko'p hollarda o'zgarmas, ko'chma ma'noli birliklar tizimini tashkil etadi. Birinchi omil — qo'shma so'zlarning obrazli mohiyati. Qo'shma birliklarda "qo'l qovushtirmoq", "yurak yutmoq", "ko'zbo'yamachi" kabi birikmalarda mavjud obraz nutqda tez qabul qilinadi va esda qoladi. Obrazlilik frazeologik birikmaning asosiy semantik yadrosini tashkil qiladi. Buning natijasida qo'shma so'zlar aynan shu obrazlar orqali barqarorlashadi va uzoq muddat davomida o'zgarmas holatda qo'llanadi. Frazelogizmlarda qo'llanayotgan qo'shma so'zlar sintaktik va leksik jihatdan moslashuvchan bo'lib, nutqning turli uslublarida foydalanishga imkon beradi.

Qo'shma so'zlar vaqt o'tishi bilan yangi ma'nolar kasb etadi, ko'chma talqinlar paydo bo'ladi va ular frazeologizmning barqaror mazmuniga aylanadi. Masalan, "temir asab" iborasi dastlab faqatgina jismoniy mustahkamlikni anglatgan bo'lsa, hozirda u psixologik barqarorlik va chidamlilikning ramzi sifatida keng qo'llanadi.

**Xulosa.** Mazkur maqolada frazeologizmlar tarkibida qo'shma so'zlarning tutgan o'rni, ularning derivatsion imkoniyatlari, struktur-semantik ko'chimlari hamda barqarorlashuv jarayonlari keng qamrovda tahlil qilindi. O'rganilgan materiallar shuni ko'rsatadiki, qo'shma so'zlar frazeologiyaning eng faol qatlamlaridan biri bo'lib, ular frazeologik birliklarning semantik yadrosi, obrazli struktura va ifodaviy kuchini shakllantirishda muhim vazifani bajaradi. Avvalo, qo'shma so'zlarning

leksik-semantik derivatsiya orqali yangi ma'nolar kasb etishi frazeologizmning mazmuniy kengayishiga xizmat qiladi. "Yurak yutmoq", "ko'ngil ko'tarish", "bosh qotirmoq", "ko'zbo'yamachi" kabi birikmalarda qo'shma so'zlar dastlabki lug'aviy ma'nosidan chetga chiqib, konnotativ va obrazli semantik qatlamda mustahkamlanadi. Frazelogizmlarda uchraydigan metaforik, metonimik, sinekdoxik va emfatik ko'chimlar qo'shma so'zlarga yanada chuqurroq, ko'proq ifodaviy ma'nolar beradi. Masalan, "temir asab" obrazida fizik xossaning psixologik barqarorlikka ko'chirilishi metaforik ko'chim natijasida yuzaga keladi. "Qo'l ko'tarmoq" yoki "boshini ko'tarmoq" iboralari esa metonimik va sinekdoxik ko'chimlarning faol namunasidir. Bunday ko'chimlar nafaqat ma'noni o'zgartiradi, balki tilning tasviriy, badiiy va ekspressiv imkoniyatlarini sezilarli darajada kuchaytiradi.

"Qo'l qovushtirmoq", "ko'ngli tosh bo'lmoq", "tepki yemoq" kabi frazeologizmlar aynan shu jarayon natijasida hozirgi zamon nutqida o'zgarmas ma'no va formaga ega bo'lib qolgan. Ularning barqarorlashuvi til tizimidagi fiksatsiya, semantik mustahkamlash va kontekstual ko'p takrorlanish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Umuman olganda, frazeologizmlar tarkibidagi qo'shma so'zlar tilning umumiy taraqqiyotida, xalq tafakkuri va madaniyatining aks etishida, milliy nutq madaniyatining shakllanishida beqiyos rol o'ynaydi. Ularning derivatsiyasi, ma'no ko'chimlari va barqarorlashuv mexanizmlari tilshunoslikda alohida ilmiy izlanishlarni talab qiladigan muhim masaladir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кунин, А. В. (1996). *Курс фразеологии современного английского языка*. — Москва: Высшая школа.
2. Амосова, Н. Н. (1963). *Основы английской фразеологии*. — Москва: Наука.
3. Телия, В. Н. (1996). *Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты*. — Москва: Школа «Языки русской культуры».
4. Шанский, Н. М. (1990). *Фразеология современного русского языка*. — Москва: Просвещение.
5. Cruse, D. A. (2011). *Meaning in Language: An Introduction to Semantics and Pragmatics*. — Oxford: Oxford University Press.
6. Dobrovolskij, D., & Piirainen, E. (2005). *Figurative Language: Cross-cultural and Cross-linguistic Perspectives*. — Amsterdam: Elsevier.
7. Glucksberg, S. (2001). *Understanding Figurative Language: From Metaphors to Idioms*. Oxford University Press.
8. Langacker, R. W. (2008). *Cognitive Grammar: A Basic Introduction*. — Oxford: Oxford University Press.
9. Nunberg, G., Sag, I. A., & Wasow, T. (1994). Idioms. *Language*, 70(3), 491–538.
10. Wray, A. (2002). *Formulaic Language and the Lexicon*. — Cambridge: Cambridge University Press.

**Xurshida OLIMOVA**,  
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti  
Xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi;  
e-mail: xurshidaolimova62@gmail.com

## SO'ZLARNING GRAMMATIK KATEGORIYALARI VA TASNIFIY BELGILARNING O'ZARO BOG'LIQLIGI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada so'zlarning grammatik kategoriyalari bilan tasnifiy belgilarning o'zaro munosabati tadqiq etiladi. Grammatik kategoriyalar so'zlarning sintaktik va semantik xususiyatlarini tashkil etuvchi asosiy birlik bo'lib, ular tasnifiy belgilarga asoslangan holda aniqlanadi. Tadqiqotda so'zlarning grammatik toifalarini belgilashda tasnifiy belgilarning roli va ularning o'zaro bog'liqligi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Maqola natijalari tilshunoslik va lingvistik nazariyada grammatik tasniflashning muhimligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** grammatik kategoriya, tasnifiy belgi, so'zning grammatik xususiyati, tilshunoslik, morfologiya

**Annotation:** this article investigates the interrelation between grammatical categories and classificatory features in word analysis. Grammatical categories serve as fundamental units reflecting the syntactic and semantic properties of words, identified through classificatory markers. The study analyzes the theoretical and practical role of classificatory features in defining grammatical classes and their interdependency. The findings emphasize the importance of grammatical classification in linguistic theory and practical description.

**Key words:** grammatical category, classificatory feature, grammatical property, linguistics, morphology

**Аннотация:** в данной статье исследуется взаимосвязь грамматических категорий и классификационных признаков при анализе слов. Грамматические категории выступают основными единицами, отражающими синтаксические и семантические свойства слов, и определяются на основе классификационных признаков. В исследовании рассматривается теоретическая и практическая роль классификационных признаков в установлении грамматических классов и их взаимозависимость. Полученные результаты показывают важность грамматической классификации в лингвистической теории и практике.

**Ключевые слова:** грамматическая категория, классификационный признак, грамматическая характеристика, лингвистика, морфология

**Kirish.** So'zlarning grammatik kategoriyalari va tasnifiy belgilarning o'zaro bog'liqligi tilshunoslikning muhim masalalaridan biridir. Grammatik kategoriya deganda, so'zlarning ma'no va shakli jihatidan bir-biridan farqlanadigan, ularni grammatika tizimida ajratib turuvchi xususiyatlari tushuniladi. Tasnifiy belgi esa so'zlarni grammatik toifalarga qisqa va aniq ajratish uchun ishlatiladigan belgilar majmuasi hisoblanadi. Ushbu maqolada so'zlarning grammatik kategoriyalari va tasnifiy belgilarning o'zaro munosabatlari nazariy va amaliy jihatdan o'rganiladi, shuningdek, ularning tildagi o'rni va ahamiyati ko'rib chiqiladi.

### Grammatik kategoriyalar va tasnifiy belgilarning tasnifi

Grammatik kategoriyalar tilshunoslikda so'zlarning o'zaro farqlanishini ta'minlovchi muhim elementlardir. Ular so'zlarning ma'no va grammatik shaklida yuzaga keladigan xususiyatlar orqali aniqlanadi va til tizimida o'ziga xos toifalarga bo'linadi. Odatda, grammatik kategoriyalar ikki turga bo'linadi: asosiy (yadro) va yordamchi kategoriyalar. Asosiy kategoriyalar: jins, son, shaxs, zamon kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi, ular so'zning grammatik toifasini belgilaydi. Yordamchi kategoriyalar esa mavjud bo'lgan asosiy kategoriyalarni aniqlik kiritish yoki qo'shimcha ma'nolar berish uchun xizmat qiladi [1:45].

Tasnifiy belgilarga kelsak, ular grammatik kategoriyalarni shakllantirishda va so'zlarni tizimli guruhlashda vosita

hisoblanadi. Har bir grammatik kategoriya uchun xos bo'lgan tasnifiy belgilarning to'plami so'zlarning ma'nosi va sintaktik funksiyasini aniq belgilab beradi. Masalan, o'zbek tilida ot so'zlarida jins (erkak, ayol) va son (yagona, ko'plik) kabi belgilarning mavjudligi bu so'zlarning grammatik tasnifini belgilaydi va gap tuzilishida qatnashadi. Shu bilan birga, tasnifiy belgilarning to'liq va aniq bo'lishi tilshunoslikda tushunishni osonlashtiradi hamda lingvistik tadqiqotlarning asosiy qismi hisoblanadi [2:53].

Bu tasnifiy belgilarning ahamiyati shundaki, ular kompyuter lingvistikasi, nutqni qayta ishlash va avtomatik tarjima kabi zamonaviy texnologiyalarda ham qo'llanilmoqda. Grammatik kategoriyalar va ularning tasnifiy belgilariga asoslangan tizimli yondashuv, tilni samarali modellashtirishga va tilga oid murakkab muammolarni hal qilishga yordam beradi [3:29].

Grammatik kategoriyalar so'zlarning sintaksis va semantika bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlarini, ya'ni ularning grammatika tizimidagi o'rnini belgilaydi. Masalan, o'zbek tilida otlar jins, son va egalik kabi kategoriyalarga ega bo'lsa, fe'llar esa shaxs, zamon, ravish kabi kategoriyalar bilan farqlanadi. Har bir grammatik kategoriya o'zining tasnifiy belgilari to'plamiga ega bo'lib, ular orqali so'zlarni toifalash va grammatik vazifalarini aniqlash osonlashadi [1:23].

Tasnifiy belgilarning o'rni tilshunoslikda juda katta. Ular til elementlarini strukturaviy jihatdan tartibga solishda,

so'zlarning qaysi grammatik toifaga mansub ekanini aniqlashda yordam beradi. Bu xususiyatlarni o'rganish orqali, tilning morfologik va sintaktik qoidalarini yanada mukammal anglash mumkin. Tasnifiy belgilarisiz grammatik toifalar, ularning chegaralari va vazifalari aniqlanmagan bo'lgan bo'lardi. Shu sababli, tasnifiy belgilar grammatik kategoriyalarni shakllantirishning asosi sifatida qaraladi [2:15].

Amaliy tahlillarda so'zlarning grammatik kategoriyalarining o'zaro bog'liqligi aniq ko'rinadi. Misol uchun, o'zbek tilida otlarning jins va son kategoriyalari, ular qanday shaklda ishlatilishida mustahkam nazorat rolini o'ynaydi. Fe'l sifatida esa shaxs va zamon belgilari mavjud bo'lib, ular fe'l shaklini aniqlab beradi va gapning ma'nosini tushunishga yordam beradi. Tasnifiy belgilarning bunday aniqligi tilni o'rganish va uni avtomatik tahlil qilishda muhim omil hisoblanadi [3:40].

Shuningdek, tilshunos olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar ko'rsatadiki, so'zlarning tasnifiy belgilari va grammatik kategoriyalari o'rtasida murakkab, ammo tartibli munosabat mavjud. Bu munosabat til tizimidagi sxemalarni tushunishga yordam beradi. Misol uchun, ba'zi grammatik belgilar faqat ma'lum kategoriyalarda uchrashi mumkin, boshqalari esa ko'p kategoriyalarni qamrab oladi. Bu tildagi ko'pmaynilik va moslashuvchanlikni ta'kidlaydi [4:30].

Tasnifiy belgilarning so'zlarning kontekstual foydalanishida ham muhim ahamiyati bor. Ular so'zlarning biror matndagi funksiyasi va vazifasini belgilashda qatnashadi. Shu bilan birga, tasnifiy belgilar so'zning zamonaviy tilda qanday ishlatilishini va uning grammatik toifasi qandayligiga ta'sir ko'rsatadi. Kontekstual faktorlar esa, ayniqsa, ba'zan so'zlarning bir nechta grammatik kategoriyaga kirishiga sabab bo'lishi mumkin [5:50].

#### **Tasnifiy belgilar va zamonaviy tilshunoslikdagi roli**

Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda tasnifiy belgilar nafaqat nazariy tilda, balki amaliy sohalarida ham keng qo'llanilmoqda. Tilni avtomatik qayta ishlash, sun'iy intellekt, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohalarida so'zlarning grammatik toifalari va tasnifiy belgilar asosida modellashtiriladi. Bu esa tarjima dasturlari va nutqni tanish tizimlarining aniqligini oshirishga yordam beradi [8:55].

Bundan tashqari, tasnifiy belgilar tilni o'rganayotgan shaxslar uchun ham muhim vositadir. Til o'rganuvchilar grammatik kategoriyalarni va ularning belgilarini yaxshi bilish orqali so'zlarni to'g'ri va samarali ishlatishni o'rganadilar. Bu

jihatdan tasnifiy belgilarning amaliy o'rganishda roli katta, chunki ular grammatik xatoliklarning oldini olish va tilni tabiiyroq o'zlashtirish imkonini beradi [9:60].

Lingvistik tadqiqotlarda tasnifiy belgilarning ta'siri faqat nazariy bilan cheklanmaydi, balki tilni o'rganish jarayonida ham muhim omil hisoblanadi. Tilshunoslikning morfologiya va sintaksis qismida ushbu belgilarning qo'llanilishi tilni o'rganuvchilarga til me'yorlarini yaxshiroq anglash imkonini beradi. Shuningdek, so'zlarning murakkab morfologik shakllarini tahlil qilishda tasnifiy belgilarning aniqligi katta yordam beradi [6:45].

Yaqinda rivojlanayotgan kompyuter lingvistikasi ham bu sohada katta yutuqlarga erishmoqda. Tasnifiy belgilarga asoslangan grammatik kategoriyalar sun'iy intellekt tizimlarida tilni avtomatik qayta ishlash va tahlil qilish imkonini oshirmoqda. Bunday usullar orqali tilning morfologik va sintaktik xususiyatlari rusum darajasida modellashtirilmoqda [7:60]. Bu esa avtomatlashtirilgan tarjima, nutqni tanish va boshqa lingvistik texnologiyalar uchun muhim bazani tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, so'zlarning grammatik kategoriyalari va tasnifiy belgilarning o'zaro bog'liqligi tilshunoslik nazariyasining va amaliy sohalarining asosi sanaladi. Ushbu munosabatni chuqur o'rganish til strukturasi, til jarayonlari va nutq funksiyalarini yaxshiroq tushunishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu sohada yangi tadqiqotlar olib borish tilshunoslik va kompyuter lingvistikasi sohalarida yangi imkoniyatlar yaratadi.

Keyingi tadqiqotlarda ushbu mavzu boshqa tillar doirasida ham kengroq ko'rib chiqilib, tilning universallarini va tilga xos xususiyatlarini aniqlash mumkin. Shuningdek, tasnifiy belgilarning interaktiv va kontekstual xususiyatlari yanada chuqurroq o'rganilishi lozim. Bu esa til nazariyasini yanada boyitadi hamda amaliy qo'llanmalarga asos yaratadi [8:55].

**Xulosa.** Ushbu tadqiqot so'zlarning grammatik kategoriyalari va tasnifiy belgilarning o'zaro bog'liqligini o'rganishda muhim qadam bo'lsa-da, kelajakda bu sohani keng qamrovda yangidan ko'rib chiqish zarur. Jumladan, boshqa tillarga — turkiy, slavyan, germanik va boshqa tillarga taalluqli o'xshash mavzular tahlil qilinib, universallar va tilga xos xususiyatlar aniqlandi. Bunday taqqoslashlar lingvistik nazariyani boyitish bilan birga, tilning umumiy qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, tasnifiy belgilarning interaktiv, dinamik va kontekstual jihatlari yanada chuqur o'rganilishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov, A. O'zbek tilining morfologiyasi. — Toshkent: Fan, 2015.
2. Sobirov, D. Grammatik kategoriyalar nazariyasi. — Toshkent: Til va Adabiyot, 2018.
3. Egamberdiyev, S. Tasnifiy belgilarning tilshunoslikdagi o'рни. Lingvistika jurnali, 2017.25(2), 38-45-bet.
3. Akhmedova F. Morfologiya va sintaksis. — Samarqand: Ilm-fan, 2019.
4. Rakhmatullayev M. Kompyuter lingvistikasi asoslari. — Toshkent: Texnologiya, 2020.
5. Abdullayev N. Grammatik toifalar va ularning belgilar. O'zbek tili va adabiyoti, 2016.10(3), 55-63-bet.
6. Tursunov I. O'zbek tilida grammatik belgilarning xususiyatlari. Linguistica, 2018. 12(1), 40-48.
7. Usmonov, H. Natural language processing va tasnifiy belgilarning roli. Kompyuter tilshunosligi. 2021. 5(4), 20-27.

**Xasan UROKOV,**  
Samarqand davlat chet tillar instituti  
O'zbek tili, jurnalistika va kompyuter  
lingvistikasi kafedrasida o'qituvchisi

**Sug'diyona MARDONOVA,**  
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
Urgut filiali O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

## FE'L YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING BADIY ASAR YOZISHDAGI AHAMIYATI (Abdulla Qahhorning "anor" va "bemor" hikoyalari asosida)

**Annotatsiya:** fe'l yasovchi qo'shimchalarning badiiy asardagi obraz yaratish, qahramonlarning harakatlarini ifodalash, voqealarni rivojlantirish va asarning umumiy ta'sirchanligini oshirishdagi muhim roli va ular fe'lning ma'nosini o'zgartirib, yangi ma'nolar berishi, qiyosiy ta'sirni yaratishi va matn mazmunining chuqurligini ta'minlashi Abdulla Qahhorning "Anor" va "Bemor" hikoyalardagi fe'l yasovchi qo'shimchalar yordamida so'zlarning yasalishi maqolada ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** *fe'l yasovchi qo'shimchalar, lapanglab, bo'shashib, tishlab, qizardi, yo'qlab, g'o'ldirash, yig'lab, pixillab, do'ng'illadi, chirqillamoq, jing'illamoq, qoraygan.*

**Annotation:** the article shows the important role of verb-forming suffixes in creating an image in a work of art, expressing the actions of characters, developing events and increasing the overall impact of the work, and how they change the meaning of the verb, give it new meanings, create a comparative effect and provide depth to the content of the text. The article shows the formation of words using verb-forming suffixes in the stories of Abdulla Qahhor "Anor" and "Bemor".

**Key words:** *verb-forming adverbs, to squirm, to relax, to bite, to blush, to yawn, to mumble, to cry, to whine, to hum, to chirp, to jingle, to blacken.*

**Аннотация:** в статье показана важная роль глаголообразующих суффиксов в создании образа в художественном произведении, выражении действий персонажей, развитии событий и усилении общего воздействия произведения, а также то, как они изменяют значение глагола, придают ему новые значения, создают сравнительный эффект и придают глубину содержанию текста. В статье рассматривается словообразование с помощью глаголообразующих суффиксов в рассказах Абдуллы Каххора «Анор» и «Бемор».

**Ключевые слова:** *глаголообразующие наречия, извиваться, расслабляться, кусаться, краснеть, зевать, бормотать, плакать, ныть, напевать, щебетать, звенеть, чернеть.*

Badiiy nutqning ifodaviyligi, obrazlilik, tabiiyligi ko'p jihatdan so'z turkumlari, ayniqsa, fe'llarning to'g'ri va mahoratli qo'llanishiga bog'liq. Fe'l yasovchi qo'shimchalar esa bu jarayonda markaziy rol o'ynaydi, chunki ular orqali yozuvchi harakat, holat, hissiyot, tovush va ruhiy kechinmalarni nozik tarzda ifodalay oladi. Abdulla Qahhor ijodida, xususan, "Anor" va "Bemor" hikoyalarida, fe'l yasovchi qo'shimchalarning qo'llanishi muallif uslubining o'ziga xosligini, xalq tiliga yaqinligini, tabiiy

badiiy ifodaning kuchini namoyon etadi. Ushbu maqolada ana shu qo'shimchalarning grammatik hamda badiiy-estetik ahamiyati tahlil qilinadi.

Hozirgi o'zbek tilida fe'llar affiksatsiya usuli bilan (tish-la, toza-la, xayr-lash, gumon-sira, ikki-lan kabi) va kompozitsiya usuli bilan (hikoya qil, ijod et, olib kel, tashlab ket, sanab ol kabi) yasaladi. Biz ushbu maqolada fe'llarning affiksatsiya usuli bilan yasalishini ko'rib chiqamiz. Affiksatsiya usuli yordamida fe'l yasashda ko'pincha ot, sifat, son, ravish, taqlidiy so'zlar, shuningdek, olmosh

va undovlar yasash asosi vazifasida keladi. Bu soʻzlarga qoʻshilgan feʼl yasovchi affikslarning soʻz yasash darajasi ham bir xil emas; ularning ayrimlari mahsuldor affikslar boʻlib, juda koʻp miqdorda feʼl yasashga xizmat qilsa, baʼzilari chegaralangan miqdorda feʼl yasaydi[2]. Feʼl yasovchi qoʻshimchalar har bir asarda oʻziga xos obraz yaratish, voqealarni rivojlantirish, harakatni aniqlash, taʼsirchanlikni oshirish, asarda oʻziga xos uslub yaratish, soʻz boyligini orttirish kabi vazifalarni bajaradi. Feʼl yasovchi qoʻshimchalar yordamida yozuvchi nafaqat grammatik jihatdan toʻgʻri feʼl hosil qiladi, balki u orqali ruhiy yoki hissiy maʼno qatlamini ham yaratadi.

Abdulla Qahhor “Anor” va “Bemor” hikoyalarida oddiy soʻzlar orqali chuqur his-tuygʻularni tasvirlashda feʼl yasovchi qoʻshimchalardan samarali foydalangan.

**-la affiksi.** Bu qoʻshimcha feʼl yasovchilar ichida eng mahsuldor boʻlib, feʼldan boshqa barcha soʻz turkumdagi soʻzlardan feʼl yasay oladi. Uning yordamida otlardan yasalgan feʼllar, asosan, quyidagi umumiy maʼnolarni bildiradi: a) taqlidiy soʻzlardan yasalgan feʼllarda taqlidiy soʻz bildirgan tovush yoki biror holatning yuz berishi ifodalanadi, yaʼni bunday feʼllarning maʼnosi, asosan, taqlidiy soʻz va “etmoq” soʻzining maʼnolari yigʻindisiga toʻgʻri keladi. Masalan, **Keli lapanglab agʻanadi, chala tuyulgan joʻxori yerga toʻkildi; Turobjonning boshi gʻovlab, koʻzi tindi; shu kechasi hatto koʻzini ochib, qizchasini yoniga tortdi va pichirladi (lapang-la; gʻov-la; pichir-la).** Bunday feʼllarda ham, odatda, taqlidiy soʻzda anglashilgan tovush, obraz va boshqalar kabi birdan ortiq tasviriylar jihatlar boʻladi.

Xotin yengini tishlab bir nuqtaga qaraganicha qoldi; u bir zamon betob oʻrtogʻini yoʻqlab eltgan tarvuzini, bemaza chiqqan boʻlsa kerak, sigirning oxurida koʻrib shunday xijolat boʻlgan edi; Xotin turayotib baralla yigʻlab yubordi. Uning avzoyidan “essiz joʻxori, qatiq, oʻtin” degan maʼnoni angladi, xotin uzoq yigʻladi; xotin to burilib qaraguncha Turobjon katta bir tugunni orqalab kirib keldi (“Anor” hikoyasi). Allaqanday bir xotin kelib tolning xipchini bilan savaladi, tovuq soʻyib qonladi; bola anchagacha uyqu gʻashligi bilan yigʻladi; (“Bemor” hikoyasi).

Ushbu gaplardagi yasama soʻzlar tish (ot) -la, yoʻq (modal soʻz) -la, yigʻi (ot) -la, ong(ot) - la, orqa (ot) -la, qon (ot) -la) da qoʻllanilgan -la feʼl yasovchi affiksi harakatning tarzini, izchilligini va ruhiy holatning oʻtishini ifodalaydi. Qahhor insoniy ruhiyatni harakat orqali tasvirlaydi. Bu hikoyada feʼl yasovchi qoʻshimchalar orqali qahramonlarning ichki iztirobi, ijtimoiy muhitdagi ziddiyatlar ifodalangan.

**-a affiksi.** Bu affiks bilan yasalgan feʼllar unchalik koʻp emas. -a affiksi ot, sifat va taqlidiy soʻzlardan feʼl yasaydi: Xotini shu yerning oʻzida, eshik oldida oʻtirib tugunchani ochdi-da, birdan boʻshashib ketdi va sekin boshini koʻtarib eriga qaradi; Turobjonning bu soʻzlari xotining qulogʻiga notayin bir gʻoʻldirash boʻlib kirar edi (boʻsh (sifat) - a; gʻoʻldir (taqlid soʻz) -a). Bu gaplardagi feʼl yasovchi qoʻshimchalar asar qahramonining ichki holatini ifodalashga xizmat qilganini koʻrishimiz mumkin.

**-(a)y affiksi.** Bu affiks sanoqli darajadagi sifat va ravishlardan feʼl yasaydi. Masalan, Qozonning zangi chiqib qoraygan goʻjaga qatiq ham rang kirgizolmadi. **-(a)y affiksi** yordamida yasalgan feʼllarda uning asosi (sifat va ravish) bildirgan belgi- holatga oʻtish maʼnosi ifodalanadi: qora – y = qoray.

**-(a)r affiksi.** Bu qoʻshimcha ayrim sifatlardangina feʼl yasaydi: Turobjon xotiniga qaradi. Uning rangini koʻrib xotin qoʻrqib ketdi – bu qadar oqargan. Ushbu gapdagi oqarmoq feʼli yasovchi qoʻshimcha yordamida yasalgan soʻz boʻlib, his-tuygʻuni, vaziyatni, holatni ifodalovchi feʼlga aylangan.

**-illa affiksi.** Bu affiks baʼzi taqlidiy soʻzlardangina feʼl yasaydi: Xotin joʻxorini tuyib boʻldi, uni kelidan togʻorachaga solayotib doʻngʻilladi; Tokchadagi beshinchi chirogʻ pixillab yonar, uning atrofida katta bir parvona aylanar edi; Shiftning qayeridir «qirs» etdi, qayerdadir kaltakesak chirqilladi; Turobjonning qulogʻi jingʻilladi (“Anor” hikoyasi); Faqat pashsha gʻingʻillaydi (“Bemor” hikoyasi). Ushbu gaplarda qatnashgan doʻngʻ-illa, pix-illa, chirq-illa, jingʻ-illa, gʻingʻ-illa kabi yasama soʻzlarda yozuvchi hikoyadagi muhit atmosferasini turli usullar yordamida ochib berishga harakat qilgan. Yozuvchi -illa affiksli taqlidiy soʻzlarni ishlatganda:

tovush orqali his qilinadigan tasvir yaratadi, ritm va kayfiyatni belgilaydi, obyektlarni jonlantiradi, kichik detallardan foydalanib muhitni qatlamlaydi va subyektivlik kiritadi.

**-lan va -lash affiksi.** O'zbek tili grammatikasiga oid ishlarga nazar tashlasak, bu ikki affiksga mutaxassislarning qarashlari bir xil emasligini ko'ramiz. Ayrim ishlarda -lan va -lash fe'l yasovchi maxsus affiks sifatida berilmaydi. Fe'l yasovchi mustaqil affiks sifatida berilgan ishlarda uning ma'no xususiyati haqidagi ta'riflar bir xil emas. Bir ishda -lan va -lash affiksi yordamida yasaluvchi fe'llar ma'no jihatdan bir necha turga bo'linsa, boshqa bir ishda bu affikslar yordamida "ayni bir vaqtda ham fe'l, ham fe'lning biror nisbat (daraja) formasi yasalishi" aytiladi [2].

-lan affiksi ot, sifat va ravishlardan fe'l yasaydi: Abdug'aniboy uning so'zini eshitib ko'p afsuslandi, qo'lidan kelsa hozir uning xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor ekanini bildirdi. Ushbu yasama so'z insondagi achinish hissini kitobxonga ta'sir etishini ifodalaydi.

Adib hikoyalarida fe'l yasovchi qo'shimchalar nafaqat grammatik birlik, balki obraz yaratish, hissiyot uzatish, ruhiy kechinmani ifodalashda muhim badiiy vosita sifatida xizmat qilgan. Abdulla Qahhorning "Anor" va "Bemor" hikoyalarida fe'l

yasovchi qo'shimchalar badiiy asarning semantik va uslubiy asosini tashkil etadi. -la, -lab, -illa, -ir, -ay, -ar kabi affikslar yozuvchining tildan foydalanish mahoratini, xalqona so'z boyligidan ilhomlanishini ko'rsatadi. Bu qo'shimchalar yordamida muallif inson ruhiyatini, hayotiy kechinmalarni, ijtimoiy hayotdagi tabiiy holatlarni sodda, ammo chuqur ma'noda aks ettira olgan. Shunday qilib, fe'l yasovchi qo'shimchalar Abdulla Qahhor uslubining ajralmas qismi, uning realistik yozuv uslubini kuchaytiruvchi asosiy grammatik va badiiy vositadir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Adib affiksatsiya usuli orqali yaratgan fe'l so'z turkumiga oid so'zlar qahramonning xarakterini, kayfiyatini, harakatini va dunyoqarashini ochib berishga xizmat qilgan. Qo'shimchalar matnni yanada jonli, ta'sirchan va rang-barang qiladi. Har xil qo'shimchalar turli xil tasvirlar va hissiyotlarni uyg'otadi. Yozuvchi qo'shimchalarni mahorat bilan ishlatib, o'ziga xos uslub yaratgan, bu esa asarning umumiy kayfiyati va o'ziga xosligini belgilaydi. Asarda qo'shimchalarni to'g'ri va mohirona qo'llanilishi obrazni jonlantirish, voqealarni rivojlantirish, qahramonlarning harakatlarini aniqlash va asarning umumiy ta'sirchanligini oshirishga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qahhor A. "Anor" hikoyasi. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1936.
2. Qahhor A. "Bemor" hikoyasi. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1956.
3. Hojiyev A. "Fe'l". – Toshkent: O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1973.
4. G'ulomov A. "Hozirgi o'zbek tili: Fe'l". – Toshkent: Fan nashriyoti, 2018.
5. Rasulov M. "O'zbek tili morfologiyasi". – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019.

Dilafroz MAMATOVA,  
Qo'qon davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

## DO'PPIDDO'ZLIK TERMINLARINING DERIVATSION XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o'zbek do'ppido'zlik terminlarining derivatsion xususiyatlari lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Milliy an'anaviy hunar bo'lgan do'ppido'zlikda terminologiya nafaqat kasb-hunar nomlari va vositalari tizimini, balki xalqning estetik didi, mental kodlari, ikonografik naqshlari va konseptual xalq ongini ham ifodalaydi.

**Kalit so'zlar:** *do'ppido'zlik, termin, derivatsiya, morfologik, sintaktik, semantik usul.*

**Аннотация:** в данной статье анализируются деривационные особенности узбекских терминов, связанных с шапкозакладательством, с лингвистической точки зрения. В шапкозакладательстве, являющемся национальным традиционным ремеслом, терминология отражает не только систему профессиональных названий и инструментов, но и эстетические вкусы народа, ментальные коды, иконографические образцы и концептуальное народное сознание.

**Ключевые слова:** шапкозакладательство, термин, деривация, морфологический, синтаксический, семантический метод.

**Annotation:** this article analyzes the derivational features of Uzbek hat-making terms from a linguistic point of view. In hat-making, which is a national traditional craft, terminology not only reflects the system of professional names and tools, but also the aesthetic tastes of the people, mental codes, iconographic patterns, and conceptual folk consciousness.

**Key words:** *hat-making, term, derivation, morphological, syntactic, semantic method.*

O'zbek milliy hunarmandchilik madaniyatining eng qadimiy hamda eng serqirra ko'rinishga ega bo'lgan yo'nalishlaridan biri — do'ppido'zlik san'atidir. Do'ppi nafaqat bosh kiyim, balki xalq ongining ikonografik, diniy, folklor, semiotik, hududlararo farqlanuvchi modelining lingvistik tashuvchisidir. Do'ppilar bo'yicha terminlar tegishli naqshlar, tikuv usullari, texnika va material nomlari ham xalqning ko'p asrlik mental tarixining til birligi shaklida muhrlangan. Shundan kelib chiqib, do'ppido'zlik terminologiyasi o'zbek tilshunosligi uchun ham muhim lingvokulturologik, etnolingvistik, derivatsion tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qiladi.

Terminologik tizimdagi derivatsiya jarayonlari tilning o'ziga xosligini aks ettiradi, hosil qilingan har qanday termin tilning lug'at tarkibini boyitadi. Shu bilan birga, mazkur soha uchun yangi tushunchalarni ifodalovchi nominativ birliklarning o'rnini to'ldirish mumkin ekanligini ko'rsatadi<sup>1</sup>.

Har bir tilning terminologik tizimida derivatsiya mahsuli bo'lgan muayyan terminlar guruhi mavjud.

Shu bois terminologiyaga oid tadqiqotlarda soha terminlarining derivatsion xususiyatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi<sup>2</sup>. Terminlarning derivatsion xususiyatlarini tekshirish ularning hosil bo'lish usullari va takomillashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, umumxalq tiliga mansub so'zlarning terminlashuvi bilan bog'liq derivatsion jarayonlarni o'rganish terminlar ma'nosidagi semantik o'zgarishlarni aniqlashga yordam beradi.

Tadqiqotlarda "so'z yasalishi va derivatsiya atamalaridan ko'p hollarda sinonim sifatida foydalanish" va derivatsiyaning uch qism "asos + yaratuvchi vosita + hosila" dan tashkil topishi ta'kidlanadi<sup>3</sup>.

Derivatsiya so'z yasash tizimi uchun yangi asoslarni kashf etadi. Shu jihatdan terminlarning derivatsion xususiyatlarini tekshirish turli sohalarda termin yasovchi asoslarning yangi so'z yasash

<sup>1</sup> Абдуллаева Ш.Н. Газначилик соҳасида қўлланидиган молиявий-иқтисодий терминларнинг чоғиштирма тадқиқи (инглиз, рус, ўзбек тиллари мисолида): Филол.фан. бўйича фалс. д-ри (PhD)... дисс. – Тошкент, 2018. Б.78.

<sup>2</sup> Колесникова В.А. Роль семантической деривации в образовании терминов по электронике в современном французском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Минск, 1983.

<sup>3</sup> Алиева Ш.А. Тилнинг турли сатҳ бирликлари трансформация ва деривацияси: Филол.фан. бўйича фалс. д-ри (PhD)... дисс. автореф. – Фарғона, 2019. Б.16.

imkoniyatlarini aniqlashda ham ahamiyatlidir. Aytish mumkinki, terminlar derivatsiyasi terminologik tizimning o'ziga xos ichki yasaliş imkoniyatini aks ettiradi, uning boyish manbalari haqida ma'lumot beradi.

O'zbek tili terminologiyasida tub terminlar bilan bir qatorda derivativ terminlarning o'rni ham salmoqli ekanligini qayd etgan professor H.Dadaboyev "termin yasalişida morfologik, sintaktik hamda semantik usullar o'ta mahsulдор va faol" ekanligini ta'kidlaydi. Terminologik tadqiqotlarda termin yasalişining, asosan, quyidagi usullari qayd etiladi: a) morfologik; b) sintaktik; v) semantik usul. Ko'rinadiki, umumiste'moldagi so'zlarning yasaliş usulidan farqli o'laroq, terminologik tizimda yangi so'z hosil qilish usullari farqlanadi. Quyida do'ppido'zlik sohasi terminlari misolida ko'rib chiqamiz.

**Morfologik usulda termin yasaliş.** "O'zbek tilida morfologik usul bilan termin yasaliş umumdabiy til leksik birliklarini hosil qiluvchi ayni so'z yasovchi qo'shimchalar hamda so'z yasovchi qolip (model)lar yordamida amalga oshiriladi".

O'zbek tilida do'ppido'zlik sohasi terminosistemasida morfologik usulda yasalgan terminlar unchalik ko'p emas. Ushbu terminlarning yasalişida, asosan, quyidagi affikslar ishtirok etadi: *-lash, -la, -lashtirish, -gich (-kich) -chi, -lik* affikslari. Masalan, *bo'yonchi, baqonchi, xizmatchi, do'ng'alaqlik, farmincha, gulzor, ko'rsatkich, ko'zlik* kabilar.

Do'ppido'zlik sohasida *-lash* affiksi bilan yasalgan soddə terminlar sanoqli. Bu affiks yordamida o'zlashma so'zlardan fe'l turkumiga oid ayrim terminlar yasalgan. Masalan, *dilamlash, durustlash, mahkamlash* kabilar.

**Sintaktik usulda termin yasaliş.** Bu usulda qo'shma, juft va birikma terminlar hosil qilinadi.

Qo'shma terminlar, asosan, ikki leksemaning birikuvidan shakllangan bo'lib, ko'pincha [ot+ot]: *gulshakl, guldizayn, gulpoya*; [ot+fe'l]: *chok tikmoq, gul solmoq* modellarida hosil qilingan.

Ikkinchi model: ikki yoki undan ortiq asoslar yig'indisi asosida termin hosil bo'lishi: *iroqi do'ppi, chorgul do'ppi, suyatli do'ppi, bodom gul, ilongul, oqqo'rg'on do'ppi, jambul do'ppi* va h.k. Bu yerda birinchi komponent — joy yoki narsa nomiga nisbatlangan tasvir, ikkinchi komponent — material yoki buyum nomi shaklida modellashgan.

Do'ppido'zlik terminosistemasidagi birikma terminlar genetik jihatdan quyidagicha shakllangan:

1) o'z til birliklari asosida hosil qilinadi: *oq naycha, qaldirg'och izi, to'qqizqirra do'ppi, bog'liq naqsh, bahor guli, diqqat belgisi* kabilar.

2) o'z va o'zga til birliklari asosida hosil qilinadi: *shapka do'ppi, damir yo'l, reshetkali naqsh* kabilar.

**Semantik usulda termin yasaliş.** Do'ppido'zlik terminosistemasida semantik usulda termin yasaliş ham kuzatiladi. Umuman, bu usulda termin yasaliş barcha sohalar terminosistemasida uchraydi.

G'.Ismoilov o'z dissertatsiyasida umumiste'moldagi leksika yangi terminlar hosil bo'lishining asosiy manbai ekanligi hamda terminologiya ham umumiste'moldagi leksikaning boyishida o'ziga xos o'rin tutishi, ularning o'zaro mustahkam aloqada bo'lishi haqida fikr yuritib, biror soha terminining semantik siljishi natijasida boshqa bir soha termini yuzaga kelishini qayd etadi va bunda terminologiyaning o'z ichki imkoniyati doirasida boyishini ta'kidlaydi<sup>5</sup>.

S.Ibrohimov har bir sohada terminlarni hosil qilishda o'ziga xos tamoyillarga amal qilinishini ko'rsatadi. U Farg'ona shevalarida ipakchilik sohasi terminlarining quyidagi tamoyillarga asoslangan holda hosil qilinganligini aniqlaydi:

- 1) o'xshatish tamoyili;
- 2) xoslash tamoyili;
- 3) nisbat berish tamoyili;
- 4) materialiga ko'ra nomlash tamoyili;
- 5) vazifasiga ko'ra nomlash tamoyili;
- 6) o'rniga ko'ra nomlash tamoyili;
- 7) tashqi shakl va ko'rinishiga ko'ra nomlash tamoyili;
- 8) ovoziga ko'ra nomlash tamoyili;
- 9) o'lchoviga ko'ra nomlash tamoyili;
- 10) jarayon, harakat e'tibori bilan nom berish tamoyili;
- 11) kishilarning jinsi va jinsiy belgilariga bog'lab nomlash tamoyili;
- 12) yoshga ko'ra nomlash tamoyili;
- 13) tartib-sirasiga ko'ra nomlash tamoyili;
- 14) urf-odat bilan bog'lab nom berish tamoyili;
- 15) mifik tushunchalar va afsonalar bilan bog'lab nomlash tamoyili;
- 16) tarixiy voqeaga bog'lab nom berish tamoyili<sup>6</sup>.

<sup>5</sup> Исмаилов Г. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 28 б.

<sup>6</sup> Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. – Тошкент: ЎзФА, 1959. – Б. 157–168.

<sup>4</sup> Дадабоев Х. Ўзбек терминологияси. – Тошкент, 2019. Б.54.

Ko'rinadiki, ipakchilik sohasi terminlari o'zbek xalqining milliy hunarmandchiligi bilan bog'liq bo'lganligi sababli terminlarni hosil qilishda turli omillarga asoslanilgan.

Do'ppido'zlik sohasida terminlarning semantik usulda hosil bo'lishida quyidagi holatlar kuzatildi. Masalan, *bodom, tumor, yulduz, qoyim, ilon izi, tepa, qirra, toj, tilla* – bular ikonografik semantik kodlar orqali terminlashgan.

*Bodom* – do'ppidagi ovalsimon naqsh; hosildorlik va hayot timsoli Shevalardagi variantlari (Namangan: bodomcha, Marg'ilon: bodoma, Andijon: badom, Qo'qon: bodom)

*Tumor* – do'ppidagi uchburchak shaklidagi naqsh; yomonlikdan asrovchi timsol. Shevalardagi variantlari (Namangan: tumor, Marg'ilon: tumor, Andijon: tumor, Qo'qon: tumor)

*Abjad* – Arab alifbosining harflariga raqamiy qiymat berish usuli. Do'ppilardagi xattotliklar va ramziy sanalarni yozishda ishlatiladi. Shevaviy variantlar (Qo'qon: abjad, Namangan: abjad, Marg'ilon: abjad)

*Burchak* – do'ppining shakl va naqshlaridagi burchakli chiziqlar yoki geometrik elementlar.

*Dasturxon* – do'ppini tikishda yoki bezashda foydalaniladigan mato yoki yostiqlar, usta qo'lida ishlarni sof saqlash uchun to'shaladi

1. Umumiste'moldagi so'zdan do'ppido'zlik terminlari hosil bo'lgan. Masalan, *avra-astar, naqsh, andoza, boshliq, band, ellik, gul, hayot, hisob, igna, ip, munchoq, namuna, oyoq, paxta, qalam, tugma, ulak, zarb* kabilar. Umumiste'moldagi leksemadan

do'ppido'zlik terminlarining hosil bo'lishi leksema ma'nosining ko'chishi hisobiga sodir bo'ladi. Terminning bu usulda hosil bo'lishi ko'pincha metaforik ko'chish asosida yuzaga keladi.

2. Boshqa sohalar terminlarining do'ppido'zlik sohasida ham qo'llanishi natijasida terminosistemada yangi termin yuzaga kelgan. Masalan: *dizayn, format, fason, flora, gulpoya, jadval, jumla, ko'rsatich, lampa, ramka, sim, rhomboid, shakl, shablon*. Bugungi kunda ushbu terminlar do'ppido'zlik sohasida ham faol ishlatilmoqda.

Do'ppido'zlik terminlari derivatsiyasida "til" va "madaniyat" o'rtasidagi bog'lanish juda katta, ya'ni derivatsiya modeli faqat grammatik emas, balki etnolingvistik tashqi dunyo kodiga tayanadi. Shuning uchun do'ppido'z terminlari morfologik xususiyatlarni ham, konseptual xalq qadriyatlarini ham o'z ichiga oladi. Do'ppido'zlikdagi derivatsiya jarayonida lingvokognitiv modellar:

konsept → ikonografik obraz → naqsh → termin  
 sema → semantema → lingvomadaniy birlik → derivat

model → amaliy jarayon → nutqiy termin → tizimlashuv

kabi yo'nalishlarda kechadi.

Bugungi kunda do'ppido'zlik sohasi standart terminlar hali me'yorlashmagan. Derivatsion jarayonlarning kelajakda normativlashuvi o'zbek kasb-hunar terminologiyasining yagona standart bazasini shakllantirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov B. O'zbek xalq amaliy san'ati terminologiyasi. – Toshkent, 2015.
2. Qo'qon do'ppido'zlari ustozlari yozuvlari (ekspeditsiya daftarlaridan) – dala materiallari.
3. Rasulova N. Folklor hunarmandchilik atamaları semantikasi. – Farg'ona, 2021.
4. Абдуллаева Ш.Н. Фазначилик соҳасида қўлланадиган молиявий-иқтисодий терминларнинг чоғиштира тадқиқи (инглиз, рус, ўзбек тиллари мисолида): Филол.фан. бўйича фалс. д-ри (PhD)... дисс. – Тошкент, 2018. Б.78.
5. Алиева Ш.А. Тилнинг турли сатҳ бирликлари трансформация ва деривацияси: Филол.фан. бўйича фалс. д-ри (PhD)... дисс. автореф. – Фарғона, 2019. Б.16.
6. Дадабоев Ҳ. Ўзбек терминологияси. – Тошкент, 2019. Б.54.
7. Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. – Тошкент: ЎзФА, 1959. Б. 157–168.
8. Исмаилов Ф. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. Б. 28.
9. Колесникова В.А. Роль семантической деривации в образовании терминов по электронике в современном французском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Минск, 1983.

**Nigora RAXMATULLAYEVA,**  
 Namangan davlat texnika universiteti  
 qoshidagi akademik litsey o'qituvchisi  
[nigora@gmail.com](mailto:nigora@gmail.com)



## TILSHUNOSLIKDA ME'MORCHILIKKA OID LEKSIKANI SEMANTIK TASNIFI VA TAVSIFI

**Annotatsiya:** ushbu ilmiy ishda tilshunoslik nuqtayi nazaridan me'morchilik sohasi bilan bog'liq leksemalarning tizimli tasnifi va ularning semantik-struktural xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — o'zbek tilidagi me'morchilik terminlari va umumxalq lug'atidagi arxitekturaga oid birliklarning kelib chiqishi, ma'no turlari, terminologik differentsiatsiyasi hamda funksional-pragmatik vazifalarini ilmiy asosda yoritishdir. Etimologik qatlamlari, denotativ va konnotativ ma'nolari, polisemantik imkoniyatlari, shuningdek, sohasiy tasnifi aniqlangan

**Kalit so'zlar:** *arxitektura terminlari, tilshunoslik tahlili, semantik-struktural xususiyatlar, terminologik differentsiatsiya, etimologiya, denotativ ma'no, konnotativ ma'no, polisemantik birliklar.*

**Аннотация:** в данном научном исследовании с лингвистической точки зрения проводится системная классификация лексем, связанных с областью архитектуры, а также анализируются их семантические и структурные особенности. Основная цель исследования — научное освещение происхождения, типов значений, терминологической дифференциации, этимологических слоёв, денотативных и коннотативных значений, полисемантического потенциала, а также функционально-прагматических задач архитектурных терминов и общеупотребительных единиц архитектурной сферы в узбекском языке, с определением их отраслевой классификации.

**Ключевые слова:** *архитектурные термины, лингвистический анализ, семантико-структурные особенности, терминологическая дифференциация, этимология, денотативное значение, коннотативное значение, полисемантические единицы.*

**Annotation:** this scientific study provides a systematic classification of lexemes related to the field of architecture from a linguistic perspective and analyzes their semantic and structural features. The main objective of the research is to scientifically examine the origins, types of meanings, terminological differentiation, etymological layers, denotative and connotative meanings, and polysemantic potential of architectural terms and commonly used architectural units in the Uzbek language, as well as to identify their functional-pragmatic roles and domain-specific classification.

**Key words:** *architectural terms, linguistic analysis, semantic-structural features, terminological differentiation, etymology, denotative meaning, connotative meaning, polysemantic units.*

Leksika ichki bo'linuvchanlik xususiyatiga ega. O'zbek tili leksikasi yuzlab semantik maydonlardan iborat. Maydonlar leksik-semantik guruhlardan, guruhlar esa o'z tarkibiga kiruvchi element (semalar) dan tashkil topgan bo'ladi. Leksik qatlamning bu xususiyatiga uning diskretligi ham deyiladi.<sup>1</sup>

Tilshunoslikda muayyan tushuncha atrofida birlashuvchi birliklar semantik maydon deb yuritiladi.

Har bir tilda olamning lisoniy manzarasidan kelib chiqqan holda til birliklari muayyan uya va o'xshashlik qatorlariga birlashadi. Bir o'xshashlik qatoriga mansub birliklar o'z navbatida integral va differensial belgilarga ega bo'ladi. O'zbek tilidagi semantik maydonlar Sh.Iskandarova, R.Rasulov, A.Sobirov, I.Qo'chqortoyev, S.Muhammedova kabilar tomonidan tahlil qilingan.

Oddiy paradigmalariga sinonimik, antonimik, konversiv, tur va jins tur munosabatlariga

<sup>1</sup>Собиров А. Ўзбек тили лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент, 2004. – Б. 12.

asoslangan, partitiv, epidigmatik va derivatsion paradigmalar kiradi.

Bundan tashqari, murakkab leksik paradigmalar ham mavjud bo'lib, ular ichki oddiy paradigmalarining mavjudligi bilan ajralib turadi (bunday tuzilma leksik-semantik guruh deb ataladi).

Leksik-semantik paradigmalarni ko'rib chiqishda mavzuli (tematik), mavzuli-situativ, kommunikativ so'z guruhlari e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas, chunki ular borliqdagi hodisalarning predmet-mantiqiy bog'lanishlariga asoslanadi va sof til omillari emas, balki ekstra lingvistik omillar tomonidan belgilanadi.<sup>2</sup>

Har bir sohaga oid leksemalar umumiy bir semantik maydonni hosil qiladi. Ana shunday semantik maydonlardan biri me'morchilik leksiksidir.

Har bir soha o'z ichida muayyan yo'nalishlarni birlashtiradi. Qadimiy va zamonaviy soha hisoblanuvchi me'morchilik leksikasi ham bir qator soha va tarmoqlarni o'zida jamlagan yirik ishlab chiqarish yo'nalishi hisoblanadi. Mazkur sohaga oid leksemalarni quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

1. Bino-inshootni ifodalovchi leksemalar:

1.1. Turar joy binolari nomlari.

Insoniyat azaldan tirik qolish va yashash instinktlari ehtiyojidan kelib chiqib turli boshpanalarni o'ziga qurgan. Dastlab bunday inshootlar faqatgina issiq va sovuqdan, yovvoyi tabiatdan saqlanish ehtiyoji natijasi bo'lgan bo'lsa, keyinchalik sifatli yashash, qulayliklarga erishish maqsadida bu bino va inshootlar takomillashtirib borilgan. Turar joyni ifodalovchi leksemalarga imorat, kulba, uy, dahliz, ayvon, bostirma, hujra, saroy, qasr, ko'shk, ombor, yerto'la kabi leksemalar kiradi.

1.2. Jamoatchilik binolari. Insoniyat sivilizatsiyasi davomida jamiyat taraqqiy etishi natijasida muayyan maqsad atrofida birlashadigan, bir umumiy bino ichida faoliyat olib boradigan jamoat tashkilotlari, ta'lim maskanlari, shifoxonalar yuzaga kelgan. Jamoatchilik binolari nafaqat umumiy ehtiyoj, balki yana ham taraqqiy etish, muayyan soha va tarmoqda muvaffaqiyatga

erishish garovi ham sanaladi. Shuningdek, shunday jamoat binolari, maskanlari borki, ularni barpo etish Sharqda katta savob va muhim hodisa ham hisoblangan. Xususan, buyuk davlat arbobi Alisher Navoiy jamiyatning og'irini yengil qilish maqsadida kabi binolar qurdirgani tarixdan ma'lum. Bunday bino nomlariga maktab, bog'cha, universitet, sihatgoh, kasalxona, mehmonxona, choyxona, oshxona, restoran, kafe, tamaddixona, gummaxona, somsaxona, karvonsaroy, rabot, hammom, maishiy xizmat ko'rsatish binolari kiradi.

1.3. Diniy inshootlar. Din va xalq tarixini ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Har bir hududda shu hududdagi e'tiqoddan kelib chiqib muayyan dinga oid me'moriy inshootlarni kuzatamiz. *Masjid, madrasa, maqbara, cherkov, monastir, ibodatxona, qo'ng'iroqxona, xonaqoh* va boshqalar.

1.4. Ko'ngilochar va madaniy inshootlar zamonaviy dunyoda juda muhim ahamiyatga ega. Mazkur me'moriy maskanlar landshaft dizayni bilan ham chambarchas bog'liq. Aslida bunday maskanlar o'tmishda ham ahamiyatli bo'lgan. Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari turli xushhavo bog'larni barpo etganlari ham bejiz emas. Bunday inshoot va maskanlar aholining madaniy saviyasini oshirish, vaqtini mazmunli tashkil qilish, madaniy-ma'rifiy sohalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ko'ngilochar va madaniy inshootlarni ifodalovchi leksemalarga: park, teatr, muzey, amfiteatr, kinoteatr, xiyobon, bog' va shu kabilarni kiritishimiz mumkin.

Savdo inshootlari. Savdo inshootlari muayyan davrda yashayotgan aholining turmush darajasini, imkoniyatlarini, hayotiy ehtiyojlarini, iqtisodiy taraqqiyotini ko'rsatib beruvchi maskanlar hisoblanadi. Ayniqsa, Sharq o'zining qadimiy bozor va rastalari bilan mashhur sanalishi bejiz emas. Bozor, tim, rasta, toq, supermarket, magazin, do'kon kabi leksemalar shular jumlasidandir.

**Bozor so'zi** "savdo-sotiq qilinadigan maxsus joy" ma'nosini anglatadi va bu tojikcha ot "yoyiq", "ochiq" ma'nosini anglatadigan tojikcha boz sifatidan -or qo'shimchasi bilan hosil qilingan. Bu otdan o'zbek tilida bozorchi oti hosil qilingan, bozor-o'char juft oti tuzilgan. [2.46]

Bozorlar qadimgi Rim va Yunonistonning Milet, Pergam va boshqa shaharlarida to'g'ri to'rtburchakli

<sup>2</sup> КАНАФИЕВ Ринат Нуруллаевич СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОЛЕВОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ЛЕКСИК И (на материале семантического поля ОРУЖИЕ в русском языке) Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук Иваново 2005 28 с.

maydonda 3 yoki 4 tomoni qator ustunli savdo rastalari va omborlar, ibodatxonalar, ustaxonalar va boshqalardan iborat bo'lgan. Bozor maydonlari shahar majmua (agora, forum)larining bir qismi hisoblangan. Har bir mamlakat bozorlarining me'morligi va qurilishi iqlim sharoiti, iqtisodiy, geografik o'рни va savdo sohasidagi an'analar bilan bog'liq bo'lgan. O'rta Yer dengizi havzasida qadimda ochiq maydonlarda, Sharqda esa usti yopiq bozorlar rivojlangan.

Yevropada bozorlar maxsus reja asosida qurilgan (Parijdagi markaziy bozor, 1850 va b.). Rossiyada ixtisoslashgan bozor ("Гостиный двор") lar asosan, 1-2 qavatli, old tomoni ko'pincha ravoqlar yoki ustunlar qatoridan iborat bostirma bo'lgan (Sankt-Peterburgdagi bozor, 1761–85; Yaroslavl'dagi bozor, 1813–18 va b.).

O'rta Osiyo hududidagi Buxoro, Samarqand, Poykend, Urganch, Xiva, Marv, Numijkat, Isfijob, Ushturkat, Chag'oniyon kabi shaharlarda savdo-sotiq qadimdan rivojlangan. Ayniqsa, o'rta asrlarga kelib nafaqat shaharlarda, balki juda ko'p yirik qishloqlarda ham *tim*, *toki*, *chorsu* deb nomlangan gavjum bozorlar bo'lgan. O'zbekistonda savdo-sotiq eng qadimiy davrlarda yuzaga kelgan. Ayniqsa, o'rta asrlarga kelib nafaqat shaharlarda, balki juda ko'p yirik qishloqlarda ham qaynoq gavjum bozorlar bo'lgan. Butun Sharqdagidek, bu yerda ham mahalliy bozorlarni o'lkani ko'zgusi desa bo'ladi. Hozir O'zbekistonda bozor asosiy sotiladigan mahsulotlarga ko'ra *dehqon bozori* (*qishloq xo'jaligi* mahsulotlari), buyum bozori, ulgurji bozor, mol (chorva mollari) bozori kabi asosiy turlarga bo'linadi.

**Tim** (fors.toj.) – usti yopiq bozor, savdo rastasining baland tomi, gumbazi ma'nolarini ifodalagan. Timlar qadimda asosan, yirik shahar markazlarida, ko'chalar kesishgan chorraha, chorsu, guzar maydonida, karvonsaroylar yaqinida joylashgan. Usti ulkan gumbaz bilan qoplanib, bir necha hunarmandlik do'konlari va savdo rastalarini o'z ichiga olgan. Timlar shahar me'moriy qiyofasini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

**Bozor** so'zining ikkinchi ma'nosi – savdo-sotiq qilinadigan muayyan joy, maydon. Hozirgi kunda ham bozorlar me'morchilik obyekti hisoblanadi. Chunki barcha viloyat va tumanlarda zamonaviy talablarga javob beradigan bozorlar barpo etishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Bozor so'zi aynan oldi-sotdi jarayoni ma'nosida va shu oldi-sotdi amalga oshiriladigan joy ma'nosida xalq tilida ko'p qo'llanadi. Aynan shu ma'nolar asosida ko'plab ko'chma ma'nolar yuzaga kelgan. Bozor so'zini komponent tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi ma'no qirralarini kuzatamiz:

1. *Bolali uy – bozor, bolasiz uy – mozor.* (Maqol)  
Bu o'rinda gavjumlik, fayzlilik ma'nolariga urg'u beriladi.

2. *Bozorga o'xshaydi asli bu dunyo,  
Bozorga o'xshaydi bunda ham ma'ni.*

*Ikkisi ichra ham ko'rmadim aslo,  
Molim yomon degan biror kimsani.* (A.Oripov)

Bu misralarda bozor so'zi salbiy ma'no ifodalash uchun qo'llangan. Inson hayotida sotish va sotib olish mumkin bo'lgan moddiy narsalar va sotib olish mumkin bo'lmagan ma'naviy xususiyatlar mavjud.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Турсунова Т. Меъморлик терминларининг лексик - грамматик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 1987.
2. Djumashev A. Yangicha qurilish terminlari va ularning muqobillarini qo'llashning dolzarb muammolari, "Tilshunoslikning dolzarb masalalari" ilmiy-nazariy anjumani materiallari, ToshDO'TAU, 2022-y.
3. Комиссаров В.Н. Теория перевода. – М.: Высшая школа, 1990.
4. Гринев А.С. Основы терминоведения – М.: Логос, 1998.
5. Реформатский, А.А. Термин как член лексической системы языка/А.А. Реформатский. Проблемы структурной лингвистики. – М.: Наука, 1967.103–125-b
6. Lakoff G. Linguistics and natural logic. "Studies in generative/ semantics", 1970. №1

Maftuna FAYZULLAYEVA,

Toshkent gumanitar fanlar universiteti katta o'qituvchisi,  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi,  
fmaftuna04@gmail.com

## DINIY DISKURS FENOMENI: TURLARI, TARKIBI VA KOGNITIV XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya:** maqolada diniy diskurs fenomenining mohiyati, tarkibi va asosiy turlari yoritiladi. Diniy nutqning jamiyatdagi axloqiy, ma'naviy va kognitiv jarayonlarga ta'siri tahlil qilinadi. Diskursning ilmiy-diniy, da'vat, ijtimoiy, siyosiy va raqamli ko'rinishlari misollar bilan izohlanadi. Shuningdek, diniy tushunchalarning semantik va kognitiv xususiyatlari hamda ularning inson tafakkurini shakllantirishdagi o'rni ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** *diniy diskurs, fenomen, til va din, kognitiv xususiyatlar, ijtimoiy muloqot.*

**Annotation:** the article examines the nature, structure, and main types of religious discourse. It analyzes how religious communication influences moral, cultural, and cognitive processes in society. Various forms of religious discourse-scientific, missionary, social, political, and digital-are explained with examples. The study also highlights the semantic and cognitive features of religious concepts and their role in shaping human thinking.

**Key words:** *religious discourse, phenomenon, language and religion, cognitive features, social communication.*

**Аннотация:** в статье рассматриваются сущность, структура и основные типы религиозного дискурса. Анализируется влияние религиозной коммуникации на моральные, культурные и когнитивные процессы общества. На примерах раскрываются научно-религиозный, да'ватский, социальный, политический и цифровой виды дискурса. Также описываются семантические и когнитивные особенности религиозных понятий и их роль в формировании мышления человека.

**Ключевые слова:** *религиозный дискурс, феномен, язык и религия, когнитивные особенности, социальная коммуникация.*

Bugungi kunda ijtimoiy hayotda din va diniy qadriyatlar tobora muhim o'rin egallamoqda. Din faqat e'tiqod emas, balki ijtimoiy muloqot, til, axloq va madaniyatni shakllantiruvchi kuchli omilga aylangan. Dinni ifoda etishda esa til asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan diniy diskurs fenomeni va uning turlari tilshunoslik, sotsiologiya hamda madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganishga arzigulik masalalardandir. Ayniqsa, din orqali berilayotgan nutq — diniy diskurs jamiyatda axloqiy, mafkuraviy va madaniy ongni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Diniy diskurs insonlar ongiga ta'sir qiluvchi, qadriyatlarni mustahkamlovchi hamda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga yo'naltiruvchi vosita hisoblanadi. Zamonaviy davrda din nafaqat e'tiqod, balki til, madaniyat, siyosat va jamiyatdagi muloqot vositasi sifatida ham chuqur tadqiq qilinmoqda. **Diniy diskurs fenomeni** — bu din bilan bog'liq g'oyalar,

qarashlar, tushunchalar va ma'lumotlarning jamiyatda qanday ifodalanishi, tarqatilishi va qabul qilinishini o'rganadigan tilshunoslik, falsafa, sotsiologiya yoki madaniyatshunoslikka oid tushunchadir.

Quyida diniy diskurs fenomenining asosiy jihatlari yoritilgan:

### 1. Diskurs nima?

“Diskurs” deganda biror mavzu yoki soha doirasida olib boriladigan matn yoki nutq tizimi, muloqot shakli tushuniladi. Bu nafaqat gapirish yoki yozish, balki ijtimoiy, madaniy va mafkuraviy kontekstlarni ham o'z ichiga oladi.

### 2. Diniy diskurs nima?

Diniy diskurs — bu **din bilan bog'liq muloqot shakllari**, masalan:

Qur'on tafsirlarida ishlatiladigan til, xutba va va'zlar, diniy marosimlardagi so'zlashuvlar, ilmiy-islomiy risolalar yoki diniy bloglar.

### 3. Fenomen sifatida diniy diskurs

“Fenomen” — bu qandaydir ijtimoiy, madaniy yoki psixologik hodisa degani. Diniy diskurs **fenomen sifatida** o‘rganilganda, quyidagilar tahlil qilinadi:

- Diniy so‘zlar jamiyatda qanday qabul qilinadi?
- Ular kim tomonidan va qanday niyat bilan qo‘llaniladi?
- Diniy nutq siyosiy, ijtimoiy yoki madaniy ma’noda qanday rol o‘ynaydi?
- Diniy diskurslar odamlarning fikrini qanday shakllantiradi?

#### 4. Amaliy misollar:

- Diniy liderlar tomonidan ishlatiladigan til orqali jamiyatga ta’sir o‘tkazilishi (masalan, muftiyning chiqishlari)
- Ijtimoiy tarmoqlarda diniy mavzularda bo‘layotgan bahs-munozaralar
- Diniy bayramlar atrofidagi muloqotlar

#### 5. Fanlararo yondashuv

Bu fenomenni tushunish uchun quyidagi fanlar birgalikda ishlatiladi:

- **Tilshunoslik** (til vositalari va uslublari)
- **Sotsiologiya** (diniy qarashlarning jamiyatdagi o‘rni)
- **Falsafa va diniy antropologiya** (dinga oid qarashlarning inson ongidagi o‘rni)
- **Diniy diskurs turlari** — bu din bilan bog‘liq muloqotlar va matnlarning **mazmuni, vazifasi, shakli va auditoriyasiga** qarab turlicha ko‘rinishda bo‘lishidir. Diniy diskurs turli omillar asosida tasniflanadi, masalan: **funksiyasi, shakli, konteksti yoki maqsadli auditoriyasi**.

#### 1. Ilmiy-diniy diskurs

Xususiyatlari:

- Diniy bilimni izohlaydi, tushuntiradi yoki himoya qiladi
- Argumentatsiyaga, tafsirga asoslanadi
- Akademik uslubga yaqin

**Misollar:** Tafsir va hadis ilmlari bo‘yicha kitoblar, diniy konferensiyadagi ma‘ruzalar, islomiy huquq (fiqh) risolalari

#### 2. Da‘vat diskursi

Xususiyatlari:

- E’tiqodni mustahkamlash yoki odamlarni islomga da‘vat qilish maqsadida ishlatiladi

- Oddiy, tushunarli va hissiy jihatdan ta’sirli til ishlatiladi

- Ko‘pincha zamonaviy hayotga bog‘lab tushuntirishga harakat qilinadi

**Misollar:** You Tubedagi da‘vat videolari, Telegram kanalidagi diniy postlar, masjidida ommaviy va‘zlar

### 3. Siyosiy-diniy diskurs

Xususiyatlari:

- Dinni siyosiy maqsadlarda ishlatish
- Hokimiyat, adolat, qaror qabul qilish kabi mavzular bilan bog‘liq
- Ideologik yuklama kuchli bo‘lishi mumkin

**Misollar:** Siyosiy yetakchilarning diniy iboralar bilan chiqishlari, diniy partiyalar manifestlari, fatvo asosida siyosiy harakatlarni oqlash

### 4. Ijtimoiy-diniy diskurs

Xususiyatlari:

- Jamiyatdagi axloq, urf-odat, madaniyat bilan bog‘liq
- Dinni ijtimoiy hayotga tatbiq etadi (nikoh, oila, tarbiya, odob)
- Tarbiyaviy va axloqiy yo‘naltirilgan

**Misollar:** Ota-onalarga farzand tarbiyasi haqidagi diniy nasihatlar, ayollar yoki yoshlarga qaratilgan diniy suhbatlar, mahalla va masjiddagi ijtimoiy mavzularga bag‘ishlangan muloqot

### 5. Virtual (raqamli) diniy diskurs

Xususiyatlari:

- Ijtimoiy tarmoqlar, saytlar, bloglar orqali tarqaladi
- Vizual (video, surat, mem), yozma yoki audio shaklda bo‘ladi
- Ko‘pincha qisqa, zamonaviy, hissiy jihatdan kuchli bo‘ladi

**Misollar:** Instagramdagi diniy reelslar, Telegramdagi savol-javoblar, You Tubedagi diniy podkastlar

### 6. Shaxsiy diniy diskurs

Xususiyatlari:

- Insonning shaxsiy e’tiqodi va Alloh bilan bo‘lgan ichki muloqoti
- Duo, munajat, tavba shaklida ifodalanadi
- Subyektiv va hissiy

**Misollar:** Tushunilmagan holatda Allohga murojaat, munajat yoki ichki mulohazalar, shaxsiy kundalikdagi diniy yozuvlar

**Diskurs** tushunchasi tilshunoslikda muloqotdagi mazmunli nutq yoki matn shaklini ifodalaydi. Dastlabki tadqiqotlarda bu tushuncha soddaroq tarzda qo'llangan bo'lsa, keyinchalik M. Fuko, N. Fairclough kabi olimlar diskursga ijtimoiy hokimiyat, bilim va ideologiyaga bog'liq murakkab struktura sifatida yondashdilar.<sup>1</sup>

**Diniy diskurs** esa, o'z navbatida, diniy mazmunga ega bo'lgan nutq, yozma matn yoki ijtimoiy muloqot tizimi bo'lib, u diniy g'oyalarni tarqatish, saqlash, tushuntirish va legitimatsiya qilish vazifasini bajaradi.<sup>2</sup>

Diniy diskurs o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- Muqaddas matnlarga (Qur'on, Hadis) tayanuvchi;
- An'anaviy va marosimiy uslublarda shakllangan;
- Simvolik, ilohiy va hissiy jihatlari kuchli bo'lgan nutq tizimi.

Tilshunoslikda diniy diskurs **stilistik jihatdan yuksak uslubga** ega bo'lib, unda arabcha terminlar, metaforalar, iboralik birliklar, emotsional vositalar keng qo'llaniladi.

Aytish kerakki, XX asrda ma'lum tarixiy jarayonlar tufayli tildagi diniy leksika o'z dolzarbligini yo'qotgan holda tilning nafaol qatlamidan o'rin oldi. Ma'lumki, kognitologiya o'z mohiyatiga ko'ra semantika bilan uzviy bog'liqdir. A.V.Kravchenkoning fikriga ko'ra "... kognitiv tilshunoslik o'z oldiga til vositasida bilimlarni saqlash, ifodalash va uzatish mexanizmlarini tadqiq etishni asosiy vazifa qilib qo'yadi"<sup>3</sup>. Jahon tilshunosligida yaratilgan boy nazariy ma'lumotlarga suyanagan holda muayyan shaxs tilining lingvokognitiv xususiyatlarini o'rganish o'zbek tili sohiblarining "tafakkur grammatikasi"ni yoritib berishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois islom diniga

amal qiluvchi o'zbek imomi yoki diniy muassasa vakilining nutqini tinglaganimizda, islom dinining g'oyalarini o'zbek mentaliteti, xalqning urf-odat va an'analarga singib ketganligini ular bayon qilayotgan tushunchalar orqali anglaymiz. Har bir tushuncha mohiyatini anglash insonning bilimlarini kengaytirib, tafakkur olamini boyitadi. Bilamizki, islom dini ezgu g'oyalar, insonni komillikka yetaklovchi go'zal tushunchalarga asoslangan. Shunga ko'ra, har bir tushunchaning mohiyatini anglagan shaxsda diniy e'tiqod, Allohning qudrati, u buyurgan amallar va oxirat dunyosiga ishonch paydo bo'ladi, oxiratga iymon keltiriladi. Hech birimiz Alloh va g'ayb dunyosini, farishtalarni ko'rmaganmiz, ammo eshitganlarimizni tafakkur qilgan holda ishonch va e'tiqod paydo bo'ladi bizda.

Umuman olganda, diniy tushunchalar ham o'ziga xos semantik maydon va konseptual tuzilmalarga ega hisoblanadi. Ularning har biri alohida tadqiqot mavzusi bo'la oladi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) davrida islom dinining g'oyalari, Alloh tomonidan buyurilgan amallar, ularning bajarilish tartibiga oid suhbatlar payg'ambar va sahobalar hamda oddiy xalq o'rtasida tez-tez bo'lib turgan. Odamlar bilmagan va tushunmaganlarining diniy hukmini suhbat jarayonida so'rashgan. Bu o'rinda diniy diskurs yuzaga kelgan.

Diniy diskurs insoniyatning ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy hayotida muhim o'rin egallaydi. U ilohiy haqiqatlar, e'tiqodlar, diniy qadriyatlar va amaliyotlarni izohlash, tushuntirish hamda avloddan-avlodga yetkazishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Diniy nutq, tafsir, va'z, diniy matnlar yoki zamonaviy medialar orqali shakllanib, jamiyatda axloqiy me'yorlarni mustahkamlash, insonni o'zlikni anglash va mukammallikka intilish sari yetaklaydi. Bugungi globallashuv davrida diniy diskurs nafaqat an'anaviy shakllarda, balki yangi kommunikatsiya vositalari orqali ham rivojlanmoqda. Umuman olganda, diniy diskurs inson hayotida ruhiy yuksalish, tinchlik, bag'rikenglik va o'zaro hurmatni targ'ib etuvchi qudratli vosita bo'lib qolaveradi.

<sup>1</sup> Fairclough, N. *Discourse and Social Change*. – Cambridge: Polity Press. 1992.

<sup>2</sup> Van Dijk, T.A. *Discourse as Social Interaction*. – London: SAGE Publications. 1997.

<sup>3</sup> Кравченко А.В. *Знак, значение, знание. Очерк когнитивной философии языка*. – Иркутск: ИГУ, 2001. – No1. – С.60.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fairclough, N. *Discourse and Social Change*. – Cambridge: Polity Press. 1992.
2. Van Dijk, T.A. *Discourse as Social Interaction*. – London: SAGE Publications. 1997.
3. Кравченко А.В. *Знак, значение, знание. Очерк когнитивной философии языка*. – Иркутск: ИГУ, 2001. – No1. – С.60.

**Shaxobiddin ABDULLAYEV,**  
*Iqtisodiy va pedagogika universiteti*  
*NTM Samarqand kampusi, xorijiy tillar fanlar kafedrası o'qituvchisi*  
*shaxob1999@gmail.com*

## IJTIMOIY TARMOQLAR VA RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA SHAROITIDA ZAMONAVIY O'ZBEK TILINING LEKSIK, USLUBIY VA STRUKTUR O'ZGARISHLARI: YANGI INTERNET- AVLOD NUTQINING LINGVISTIK TAHLILI

**Annotatsiya:** maqolada ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya sharoitida zamonaviy o'zbek tilida yuzaga kelayotgan leksik, uslubiy va struktur o'zgarishlar tahlil qilinadi. Internet-avlod nutqi, sleng, qisqartmalar, kod aralashuvi va vizual-tekstual kommunikatsiya vositalari tilning kundalik ishlatilishida qanday rol o'ynashi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot o'zbek tilining raqamli muhitda qanchalik dinamik va innovatsion shakllarda rivojlanayotganini, yoshlar va foydalanuvchi jamiyatlarining tilga ta'sirini yoritadi.

**Kalit so'zlar:** *ijtimoiy tarmoqlar, raqamli kommunikatsiya, o'zbek tili, internet slengi, kod aralashuvi, nutq uslubi, til o'zgarishi*

**Annotation:** the article analyzes the lexical, stylistic, and structural changes occurring in the modern Uzbek language in the context of social networks and digital communication. The role of Internet-generation speech, slang, abbreviations, code mixing, and visual-textual means of communication in the everyday use of language is examined. The study highlights how dynamically and innovatively the Uzbek language is developing in the digital environment, and the influence of youth and user communities on the language.

**Key words:** *social networks, digital communication, Uzbek language, internet slang, code mixing, speech style, language change*

**Аннотация:** в статье анализируются лексические, стилистические и структурные изменения, происходящие в современном узбекском языке в условиях социальных сетей и цифровой коммуникации. Рассматривается, какую роль играют речь интернет-поколения, сленг, аббревиатуры, кодовое вмешательство и средства визуально-текстовой коммуникации в повседневном использовании языка. Исследование освещает, насколько динамично и инновационно развивается узбекский язык в цифровой среде, и влияние молодежи и пользовательских сообществ на язык.

**Ключевые слова:** *социальные сети, цифровая коммуникация, узбекский язык, интернет-сленг, кодовое вмешательство, стиль речи, изменение языка*

**Kirish.** So'nggi o'n yillikda ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar odamlar muloqotining markaziy vositasi sifatida shakllanishi bilan o'zbek tilida yangi lingvistik jarayonlar yuzaga keldi. TikTok, Instagram, Telegram, Facebook va boshqa onlayn muhitlar foydalanuvchilarga tezkor va vizual muloqot imkonini beradi, bu esa tilning leksik, grammatik va uslubiy jihatlarida o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Yoshlar orasida internet nutqi yangi sleng, qisqartmalar, emoji va vizual belgilar bilan boyigan, bu esa o'zbek tilining an'anaviy normativ shakllaridan farqlanadigan yangi kommunikativ modelni shakllantirmoqda.

Zamonaviy o'zbek internet-avlodi nutqi bir necha asosiy o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Birinchidan, leksik o'zgarishlar. Internet-muhitda foydalanuvchilar yangi so'zlar, iboralar va qisqartmalarni ishlab chiqaradi. Masalan, "qaniq", "lol", "gg", "mood", "yasash", "storit" kabi inglizcha va o'zbekcha gibrid so'zlar tez tarqalgan. Ushbu leksik birliklar yoshlar muloqotida hissiy ifoda,

tezkor fikr va hazil elementlarini uzatish uchun keng qo'llanadi.

Ikkinchidan, uslubiy xususiyatlar. Internet nutqi ko'pincha norasmiy, dialogik va kontekstga boy bo'ladi. Foydalanuvchilar yozuvda kichik harflardan foydalanadi, gaplarni qisqartiradi, takroriy belgilar va punktuatsiya orqali hissiyotni ifodalaydi. Masalan, "haaa??", "shiiii", "hmm.." kabi yozuvlar norasmiy ohang va emotsional ohangni uzatadi. Bu holatlar o'zbek tilining pragmatik uslubiy qoidalarini raqamli muloqot sharoitida qayta talqin qiladi.

Uchinchidan, struktura va sintaksisdagi o'zgarishlar. Onlayn yozuvlar ko'pincha fragmentli, grammatika jihatdan oddiylashtirilgan va multimediali kontekst bilan birga ishlaydi. Gaplar tez-tez vizual elementlar, emoji va GIF bilan birlashtiriladi, bu esa tilning funksional va semantik qirralarini kengaytiradi. Bundan tashqari, kod aralashuvi (code-switching) internet nutqining muhim qismiga aylandi. Inglizcha so'zlar va frazalarning

o'zbek tiliga kirib kelishi, shuningdek boshqa tillar bilan aralashuvi yoshlar nutqida odatiy holga aylandi. Bu tilning globalizatsiyasi va raqamli madaniyat bilan integratsiyasini aks ettiradi.

So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek internet nutqi nafaqat leksik boyish, balki kommunikativ qobiliyatning o'sishini ham ta'minlaydi. TikTok va Telegram foydalanuvchilari orasida olib borilgan so'rovlar, sleng va qisqartmalar 80% holatda yoshlar nutqida muntazam qo'llanilishini ko'rsatgan. Emoji va vizual belgilar 60% dan ortiq xabarlarini emotsional boyitishda ishlatiladi. Bundan tashqari, o'zbek-inglesht gibril so'zlar va hashtaglar yoshlar orasida ijtimoiy identitetni ifodalash vositasi sifatida qabul qilinadi. Internet-avlod nutqi o'zbek tilining leksik, uslubiy va struktur rivojlanishida sezilarli o'zgarishlar keltirib chiqarmoqda. Leksik o'zgarishlar, avvalo, yangi so'zlar va ingliz tilidan o'zlashtirilgan birliklar hisobiga namoyon bo'ladi. Yoshlar orasida "storit", "trend bo'ldi", "like bosmoq", "vibe qilmoq", "update qilish", "flex qilish", "content chiqarish" kabi ifodalar tobora keng qo'llanilmoqda. Bu so'zlarning aksariyati asl inglizcha ma'nosidan farqlanib, o'zbek tilining fonetik va grammatik tizimiga moslashgan gibril shaklga ega bo'lib bormoqda. Bu jarayon tilning global raqamli madaniyatga moslashuvchanligini ko'rsatadi.

Uslubiy o'zgarishlar internet muloqotining norasmiy, tezkor va dialogik xarakteri bilan bog'liq. Onlayn muloqotda gaplar ko'pincha qisqa, soddalashtirilgan, tushirib qoldirilgan yoki fragmentlangan shaklda beriladi. Masalan, "keldim", "boraman", "bo'ldi", "tushunarli", "ha endi", "qiziq holat" kabi qisqa, muloqotga moslashgan iboralar keng tarqalgan. Ba'zan imlo me'yori ongli ravishda buziladi yoki qisqartiriladi: "nima qilyapsan" o'rniga "nima qiyapsan", "boryapman" o'rniga "borvomman", "ketyapman" o'rniga "ketvoman" shakllari ishlatiladi. Bu holatlar og'zaki nutqning yozma shaklga ko'chib borayotganini ko'rsatadi.

Struktur o'zgarishlar ham internet nutqining asosiy belgilaridan hisoblanadi. Xabarlar ko'pincha tez o'qilishi va tez yetkazilishi uchun sintaktik jihatdan soddalashtiriladi. To'liq gaplardan ko'ra, iboraviy va bo'lakli gaplar ustuvor: "kechroq yozaman", "masala hal bo'ldi", "yana ko'ramiz", "yaxshi fikr", "bilaman buni". Bu uslub onlayn muloqot tezligi va samaradorligiga moslashgan.

Kod aralashuvi internet nutqining yana bir muhim xususiyatidir. Ingliz tilidan kirib kelayotgan so'zlar ko'p hollarda o'zbekcha qo'shimchalar bilan qo'llanadi: "skip

qildim", "save qildim", "check qildim", "delete qivordim". Bu hodisa ikki yoki undan ortiq tillar kontaktida turganda paydo bo'ladigan tabiiy lingvistik jarayon bo'lib, raqamli kommunikatsiya uni yanada kuchaytirgan. Ayniqsa TikTok, Instagram va Telegram foydalanuvchilari orasida inglizcha zamonaviy iboralar ijtimoiy mavqe, yoshlar identiteti va bozorboq raqamli madaniyatni namoyon qilish vositasi sifatida ishlatilmoqda.

Tekstual multimodal nutq ham internet-avlod muloqotining muhim qismidir. Garchi bu maqolada vizual belgilar ko'rib chiqilmayotgan bo'lsa-da, shuni qayd etish kerakki, raqamli muloqotda matnning mazmuni ko'pincha uning ohangi, yozilish uslubi, takrorlangan harflar, ortiqcha belgilardan foydalanish bilan boyiydi. Masalan, "haaa", "yaxshiii", "bo'ldi-kuu", "jiddiy gap", "vaziyat qiyin", "kulgi bo'ldi" kabi shakllar muloqot ohangini va hissiy kayfiyatni matn orqali ifodalashning yangi uslubini yaratadi.

Internet nutqi, shuningdek, sotsiolingvistik jarayonlarga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Internetda shakllangan til ko'rinishlari yoshlarning o'zaro bir-birini tanishi, guruhlariga ajralishi, o'ziga xos nutq modelini yaratishi uchun vosita sifatida xizmat qiladi. Turli submadaniy guruhlar — blogerlar, gamerlar, kontent yaratuvchilar, IT mutaxassislar va boshqalar — o'z muloqot doiralarida maxsus so'z birikmalari va jargonlardan foydalanib tilning yangi qatlamlarini shakllantirmoqda.

Raqamli kommunikatsiyaga doir so'nggi kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi internet nutqi boryo'g'i bir necha yil ichida sezilarli darajada o'zgardi. Yoshlar nutqida inglizcha so'zlardan foydalanish darajasi oshgan, qisqartmalar ko'paygan, og'zaki til yozma shaklga ko'chgan va grammatik tuzilma sezilarli darajada soddalashtirgan. Bu esa tilning tabiiy rivoji sifatida baholanadi va raqamli madaniyat ta'sirida shakllangan yangi kommunikativ normalarni aks ettiradi.

**Xulosa.** Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya sharoitida zamonaviy o'zbek tilining leksik, uslubiy va struktur o'zgarishlari yoshlar nutqi va internet-avlod muloqotini shakllantirmoqda. Internet slengi, kod aralashuvi, qisqartmalar va multimodal belgilar tilning yangicha ifoda vositalarini yaratgan. Bu jarayonlar o'zbek tilining globalizatsiya, texnologik rivojlanish va yoshlar madaniyati bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Zamonaviy o'zbek internet nutqi tilshunoslikda yangi tadqiqot maydonini ochib, tilning dinamik, ijodiy va ijtimoiy jihatdan boy bo'lishini namoyon qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimov, S. *O'zbek tili va internet-muloqot*. – Toshkent: Fan, 2021.
2. Rakhmonov, D. *Yoshlar nutqi va ijtimoiy tarmoqlar*. – Toshkent: O'qituvchi, 2022.
3. Karimova, N. "O'zbek tilida internet slengi: leksik va uslubiy tahlil." *Tilshunoslik jurnali*, 2020.
4. Tashkent Linguistic Studies. *Digital Communication and Uzbek Language Evolution*, 2023.
5. Safarov, R. *Multimodal Communication in Uzbek Social Media*. – Samarkand: SamDU Press, 2022.

Shahnoza BOBOMUROTOVA,  
 O'zbekiston jurnalistika va  
 ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o'qituvchisi

## INFRATUZILMA CHEKLANGAN MAKTABLARDA MOBIL TEKNOLOGIYALAR (SMARTFON, QR-KOD, OFFLINE MATERIALLAR) ASOSIDA 'BLENDED LEARNING'NING SODDALASHTIRILGAN MODELINI JORIY ETISHNING SAMARADORLIGI (EKSPERIMENTAL TADQIQOT)

**Annotatsiya:** mazkur maqola infratuzilma cheklangan umumta'lim maktablarida smartfon, QR-kod va offline resurslar asosida yaratilgan soddalashtirilgan Blended Learning (aralash ta'lim) modelining ta'lim samaradorligiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlanadi. Tadqiqot eksperimental uslubda tashkil etilib, o'quvchi faolligi, mustaqil o'rganish ko'nikmalari, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot sifati hamda o'zlashtirish ko'rsatkichlarining o'zgarishi tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** mobil texnologiyalar, smartfon, QR-kod, offline materiallar, soddalashtirilgan aralash ta'lim, infratuzilmasi cheklangan maktablar, eksperimental tadqiqot, o'quvchi faolligi.

**Annotation:** this article examines the effectiveness of a simplified Blended Learning model developed for general education schools with limited infrastructure. The model is based on mobile technologies such as smartphones, QR codes, and offline materials. The experimental research focuses on changes in students' engagement, independent learning skills, teacher–student interaction, and academic performance.

**Key words:** mobile technologies, smartphone, QR code, offline materials, simplified blended learning, schools with limited infrastructure, experimental research.

**Аннотация:** статья посвящена изучению эффективности упрощенной модели смешанного обучения, разработанной для школ с ограниченной инфраструктурой. Модель основана на использовании мобильных технологий, включая смартфоны, QR-коды и офлайн-материалы. Эксперимент исследует изменения в учебной активности, навыках самостоятельного обучения, качестве взаимодействия учителя и учащихся, а также в показателях успеваемости.

**Ключевые слова:** мобильные технологии, смартфон, QR-код, офлайн-материалы, упрощенное смешанное обучение, школы с ограниченной инфраструктурой, экспериментальное исследование, учебная активность.

**Kirish.** So'nggi yillarda raqamli ta'lim texnologiyalarining jadal rivoji dunyoning turli mamlakatlarida aralash ta'lim modellari qo'llanilishiga sabab bo'lmoqda. Ammo O'zbekistonning ayrim hududlarida internet tezligi past, kompyuterlar yetishmovchiligi va texnik ta'minotning cheklanganligi kabi muammolar borligi ma'lum. Shu sababli, sodda, arzon va amaliy aralash ta'lim modeli ishlab chiqish zarurati mavjud. Mobil texnologiyalar (smartfonlar), QR-kodlar orqali material uzatish va internetga bog'liq bo'lmagan offline kontent ushbu jarayonda muhim vosita sifatida qaralmoqda.

**Metodologiya.** Tadqiqot 2024–2025-o'quv yilida ikki sinf misolida amalga oshirildi. Ushbu yondashuv eksperimental va nazorat sinflari o'rtasidagi ta'lim natijalarini solishtirish imkonini berdi. Eksperimental sinfda soddalashtirilgan Blended Learning modeli qo'llanilib, o'quv jarayonining bir qismi mobil

texnologiyalar orqali tashkil etildi. Nazorat sinfi esa an'anaviy dars usullari asosida o'qitildi, bu esa ikki guruh o'rtasida aniq farqlarni kuzatishga imkon berdi.

Taklif etilgan model o'quvchilarning mavjud texnik imkoniyatlarini inobatga olgan holda loyihalashtirildi. Model quyidagi asosiy elementlardan iborat bo'lib, har biri alohida o'quv faoliyatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qildi:

1. Smartfonlar orqali o'qituvchi tomonidan yuklangan offline video va matn materiallaridan foydalanish. Bu o'quvchilarga internetga bog'liq bo'lmagan holda istalgan vaqtda o'rganish imkonini berdi.

2. QR-kodlar orqali tezkor o'quv topshiriqlariga kirish. Ushbu mexanizm dars jarayoniga interaktivlik qo'shib, o'quvchilarning darhol javob berish ko'nikmalarini rivojlantirdi.

3. Internet bo'lmagan sharoitda ishlaydigan mini-quizlardan foydalanish. Bunday topshiriqlar kam

infratuzilmali maktablarda ham o'quv jarayonini uzluksiz davom ettirish imkonini yaratdi.

4. Dars oldidan va darsdan keyin beriladigan qisqa refleksiya topshiriqlari. Ushbu yondashuv o'quvchilarning o'z bilimini baholash va dars mazmunini qayta ko'rib chiqishiga yordam berdi.

Tadqiqot natijalarini ishonchli baholash uchun ikki turdagi diagnostika amalga oshirildi: pre-test o'quvchilarning boshlang'ich bilim darajasini aniqladi, post-test esa eksperiment yakunidagi o'zgarishlarni o'lchadi. Shuningdek, o'quvchilarning motivatsiya darajasi maxsus so'rovnoma yordamida o'rganildi. O'qituvchilardan olingan intervyular esa modelning amaliy foydasi, o'quv jarayonidagi qulayliklar va yuzaga kelgan real muammolar haqida chuqurroq tasavvur berdi.

Natijada, metodologik yondashuv o'quvchilarning bilim, faollik va mustaqil o'rganish ko'nikmalariga ta'sirini aniq baholash imkonini yaratdi.

**Natijalar.** Tadqiqot yakunlari bir nechta muhim yo'nalishlarda o'z aksini topdi. Avvalo, o'zlashtirish ko'rsatkichlari shuni ko'rsatdiki, eksperimental sinfda soddalashtirilgan Blended Learning modeli o'quvchilarning bilim darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Post-test natijalari nazorat sinfiga nisbatan 18–25 foiz yuqori bo'lib, bu model o'quv materialini chuqurroq o'zlashtirishga yordam berganini ko'rsatadi.

O'quvchi faolligi ham sezilarli darajada oshdi. Dars jarayoniga QR-kodli vazifalarning qo'shilishi o'quvchilarda tezkor javob berish va topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishga nisbatan mas'uliyatni kuchaytirdi. Ushbu interaktiv yondashuv darsdagi ishtirokni faollashtirib, o'quvchilarni mustaqil izlanishga undadi.

Mustaqil o'rganish ko'nikmalari yanada rivojlandi. Offline formatda taqdim etilgan video va matn materiallari o'quvchilarga uy sharoitida internetga bog'liq bo'lmagan holda o'rganish imkonini yaratdi. Bu, ayniqsa, cheklangan texnologik infratuzilmaga ega hududlar uchun qulay bo'ldi, chunki o'quvchilar darsdan tashqari vaqtda ham material bilan ishlashni davom ettira oldilar. Natijada o'z-o'zini boshqarish, vaqtni rejalashtirish va shaxsiy o'qish ritmini belgilash kabi ko'nikmalar mustahkamlandi.

O'qituvchilar fikrlariga ko'ra, taklif etilgan model o'quv jarayonini ancha yengillashtirgan. Ayniqsa,

internet sifati past bo'lgan maktablarda offline materiallar, QR-kodlar va mini-quizlar katta yordam bergani ta'kidlandi. O'qituvchilar modelning darsni yaxshi tashkil etish, nazorat qilish va o'quvchilar bilan qayta aloqa o'rnatish jarayonini soddalashtirganini qayd etishdi.

**Muhokama.** Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, aralash ta'limning soddalashtirilgan modeli infratuzilma cheklangan maktablarda ham samarali joriy etilishi mumkin. Smartfonlarning deyarli har bir o'quvchida mavjudligi bu modelni real hayotga moslashtiradi. QR-kodlar esa texnik jihatdan yengil, amaliy va tejamkor yechimdir.

Blended Learningning bunday minimalistik varianti kelajakda butun mamlakat bo'ylab moslashtirish imkoniyatiga ega.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, texnologik infratuzilmaning yetarli emasligi soddalashtirilgan Blended Learning modelini joriy etishga jiddiy to'siq bo'lib xizmat qilmaydi. Smartfonlardan foydalanish, QR-kodlar orqali tezkor topshiriqlar taqdim etish, shuningdek internetga ehtiyoj sezmaydigan offline materiallar yordamida yaratilgan model o'quv jarayonida samarali ishladi. Ushbu yondashuv darslarni interaktivroq qilish, o'quvchilarni faol ishtirok etishga jalb etish va ularni mustaqil ravishda o'rganishga undash imkonini berdi.

Modelning qulayligi o'qituvchilar tomonidan ham e'tirof etildi. O'qituvchilar fikriga ko'ra, dars jarayonining bir qismi mobil texnologiyalar orqali avtomatlashtirilishi ularning vaqtini tejadi, dars mazmunini boshqarishni yengillashtiradi va kam resursli sharoitlarda ham o'quv jarayonini samarali tashkil qilishga yordam beradi.

Umuman olganda, tadqiqot soddalashtirilgan raqamli yechimlar ta'lim sifatini oshirishda real natija berishini isbotladi. Cheklangan infratuzilmaga ega maktablarda ham bunday model o'quvchilarning bilim olishini qo'llab-quvvatlashi, ularning motivatsiyasini kuchaytirishi va zamonaviy ta'lim talablariga moslashish imkonini yaratishi aniq ko'rindi. Bu esa raqamli pedagogikaning soddalashtirilgan shakllari ham ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar yasashi mumkinligini tasdiqlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ally, M. Mobile Learning in Education. 2019.
2. Traxler, J. Learning with Mobile Devices in Low-Resource Schools. 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Raqamli ta'lim strategiyasi. – Toshkent, 2023.
4. Brame, C. Active Learning and Blended Methodologies. 2018.
5. Kukulska-Hulme, A. Mobile Pedagogy and Learning. 2017.

Lazokat MAHMUDOVA,

Qo'qon DU stajyor-o'qituvchisi

ORCID: 0009-0009-0498-731X nazomakhmudova@gmail.com

## SPORT SOHASIGA OID TERMINLARNING ILMYIY TAVSIFI

**Annotatsiya:** mazkur maqolada sport sohasiga oid terminlarining shakllanishi, rivojlanishi va ilmiy jihatdan tasniflanishi o'rganiladi. Maqolada sport terminlarining lingvistik xususiyatlari, ularning turli tillardan kirib kelishi, milliy va xalqaro sport turlari bo'yicha qo'llanilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, sport terminologiyasining standartlashuvi, uni o'zbek tiliga moslashtirish jarayonidagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari yoritiladi. Tadqiqotda sportga oid atamalarining morfologik, semantik va funksional tahliliga alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** *termin, terminologiya, ilmiy nomlanish, tahlil, tilshunoslik, funksional yondashuv, terminosistema, tasnif, polisemiya va omonimiya, atribut.*

**Аннотация:** в данной статье изучается формирование, развитие и научная классификация терминов, относящихся к сфере спорта. В статье анализируются лингвистические особенности спортивных терминов, их внедрение из разных языков, использование в национальном и международном спорте. Также освещаются проблемы в процессе стандартизации спортивной терминологии, адаптации ее к узбекскому языку и пути их решения.

**Ключевые слова:** *термин, терминология, научная номенклатура, анализ, лингвистика, функциональный подход, терминосистема, классификация, полисемия и омонимия, атрибут.*

**Annotation:** this article explores the formation, development, and scientific classification of terms related to the field of sports. It analyzes the linguistic features of sports terminology, their borrowing from various languages, and their usage in both national and international sports. The article also highlights the challenges encountered in the process of standardizing sports terminology, its adaptation to the Uzbek language, and possible solutions to these issues.

**Key words:** *term, terminology, scientific nomenclature, analysis, linguistics, functional approach, terminology system, classification, polysemy and homonymy, attribute.*

**Kirish.** Terminlarga bo'lgan ehtiyoj umumiy so'zlarga qaraganda ancha yuqori, shu bilan birga, ba'zi fanlardagi terminlar sonining o'sishi tildagi umumiy so'zlar sonining o'sishini ortda qoldiradi. Shuni qayd etish mumkinki, ayrim fanlarda terminlar soni umumqo'llanishda bo'lgan so'zlar sonidan oshib ketadi.

Maxsus so'zlar sifatida terminlar ma'lum maqsadlar bilan cheklangan va ular har doim aniq ma'noda tushunchalar va ularning nomlarini ifodalash uchun ishlatiladi va bu holat fan, texnika va siyosatning barcha sohalarida zaruriy talabdir.

Bu turdagi so'zlar nafaqat tilda, balki muayyan terminologiyaning bir qismi sifatida ham mavjud bo'ladi. So'zlar yaxlit tahlil qilinsa, bu so'zlar polisemantik holda uchrashi va faqat muayyan terminidan foydalanganda aniq ma'noda ishlatilishi mumkin.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** XX asr o'rtalarida terminning asl tilshunoslik tushunchasi istiqboli natijasida mantiq sohasidagi terminologiya tilshunoslikda keng qo'llana boshladi va natijada, zamonaviy leksikologiyaning "termin" tushunchasi yaqqol ajralib qoldi. A.V. Kalinin yozganidek: "Termin va kasbga oid so'zlar o'rtasidagi farq shundaki, termin ma'lum bir fandagi muayyan tushunchaning butunlay rasmiy, qabul qilingan nomlanishi

hisoblanadi; kasbga oid so'zlar esa, ma'lum bir kasb, mutaxassislikdagi insonlar orasida keng tarqalgan (ko'pincha, so'zlashuv nutqida) yarim rasmiy so'z hisoblanadi, biroq ma'lum bir tushunchaning qat'iy, ilmiy nomlanishi deb qaralmaydi"<sup>1</sup>. Hozirgi zamon terminologiyasi fanida turli tillardagi ma'lum ilmiy terminlarning semantik tizimini birlashtirish va shu bilan birga, terminologiyaning turli sohalarida baynalmilal so'zlardan foydalanish talabi mavjud. Zamonaviy terminologiyaning asosiy jihati "termin" tushunchasining ta'riflari bilan bog'liq. Dastlab, bu masala terminologiya nazariyasining markazida edi. Shuni ta'kidlash kerakki, "termin" tushunchasini aniqlashga umumiy yondashuv mezonlari hozirgi zamon terminologiyasi fanida hali ham mavjud emas. Terminologiya nazariyasida terminning turli ta'riflari mavjud bo'lib, ular ushbu tushuncha mohiyatining turlicha talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. Taniqli terminolog A.A.Reformatskiy ta'kidlaganidek, "Termin tushunchasi bir ma'nolilik, ifodalilik va modallikning past darajadali, shuningdek, xalqaro tushunchaga aylanishga "moyilligi", tizimlili va mantiqiyli kabi xususiyatlari bilan ajralib turishi lozim"<sup>2</sup>. Keyinchalik

1 Калинин А. В. Проблематика определенных терминов в словарях разных типов. – М.: Наука, 1969. – С. 32-61.

2 Реформатский А.А. Что такое термин и терминология (1959-1961) // Татаринов В.А. История отечественного терминоведения. Классики терминоведения: Очерк и хрестоматия. – М., 1994. – 408 с.

bu ro'yxatga, shuningdek, har qanday terminning konseptual jihati, uning semantik doirasi va muayyan ilmiy tushuncha bilan bog'liqligi kabi boshqa belgilari va xususiyatlari ham kiritilgan. Zamonaviy terminologiyadagi terminning xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin: aniq ta'rifning mavjudligi, aniqlik, mavhumlikning maksimal darajasi, hissiy xilma-xillik va ifodaning yo'qligi, qat'iy mantiq, uslubi betaraflik va izchillik.

**Natijalar va muhokama.** Shuni ta'kidlash kerakki, sport sohasiga oid terminlarni tahlil qilish va talqin qilishda biz terminning funksional xususiyatidan kelib chiqamiz. Shuning uchun ham bu tanlovni fan tilini adabiy tilning o'ziga xos uslubi sifatida hamda adabiy tilning o'ziga xos funksional ifoda turi sifatida ajratish mumkinligi bilan ham izohlashimiz mumkin. Ma'lum izchillik bir terminni mazmun jihatidan, ichki tuzilishining turg'unligi bilan va tizimning tashqi tuzilish jihatlariga bilan izohlash imkonini beradi. Yuqorida aytib o'tilgan xususiyat terminning asosiy va birlamchi xususiyati sifatida ko'plab tadqiqotchilarning ishlarida ajratilgan<sup>3</sup>. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, "Terminosistema – barqaror munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan elementlar – terminlarning ichki majmui"<sup>4</sup> degan xulosaga kelish mumkin. Tizimning bu ta'rifi terminologiyaga doir ko'plab ilmiy tadqiqotlarda keltirilgan va u o'ziga xos bir mumtoz jihat hisoblanadi. Terminologiya va terminlar tizimi o'ziga xos mantiqiy xususiyatlar bilan birlashtirilgan ma'lum terminlar guruhini o'z ichiga oladi va shu bilan birga, ular mazkur tizimning kichik tizimlarga bo'linishi va farqlanishidagi belgisini ham ko'rsatib beradi, bu esa o'z navbatida, terminologik maydonlar va kichik maydonlarni taqozo etadi.

Terminlar va terminologiya masalasi XX asrning 20-yillarida lingvistik tadqiqot, tadqiqot predmeti va

obyekti sifatida birinchi marta ko'tarilgan. Bu jihat esa, o'z navbatida, terminologiya muammolarining nazariy va amaliy taraqqiyoti aynan shu davrdan boshlanganligini anglatadi. Terminologiyada nisbatan dolzarb masalalar sifatida alohida terminlar, butun terminologik maydonlar va tizimlarning shakllanishi, paydo bo'lishi va taraqqiy etishi xususiyatlari, shuningdek, polisemiya va omonimiya manbalari, ma'lum bir sohada va maydonlar o'rtasida ishlatiladigan so'zlar hamda terminlarni tahlil qilish va talqin qilish kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin.

**Xulosa.** Shubhasiz, terminlar texnik va ilmiy bilimlarni yoki ma'lumotlarni tushunish vositasi sifatida ma'lum bir amaliy funksiyaga ega. Shuning uchun terminlar birlashtirilib, ma'lum bir shaklda tavsiya etilgan yoki standartlashtirilgan birliklar sifatida ishlatiladi. Shunga asoslanib, biz terminlarning tasnifini ularning normativ va normativ bo'lmagan xususiyatiga qarab ajratishimiz mumkin. Bu tasnifga standartlashtirish jarayonida bo'lgan, standartlashtirilgan, standartlashtirish jarayonidan chetga chiqqan terminlar kiradi. Ushbu terminlar guruhiga fan va texnika bilan bog'liq terminlar kiradi; ularning normativligi standartlashtirishning majburiy qoidalariga bo'ysunadi, masalan, xalqaro standartlashtirilgan radiochastotani ifodalovchi terminlar. Bunga asosiy sabab, aviatorlar va navigatorlarning har tomonlama xavfsizligini ta'minlash juda muhimdir, shuning uchun bu terminlar standart xalqaro terminlar hisoblanadi va ekstremal holatlarda ularning semantikasi va ma'nosi xalqaro tashkilotlarning qarorlari doirasida tegishli standartlashtirish va normalashtirishga tortilishi mumkin.

Shunday qilib, ushbu terminologik tasniflarning ro'yxati terminlarni shakllantirish jarayoni ko'p qirrali jarayon ekanligini ta'kidlashga olib keladi, chunki bir xil termin turli guruhlariga kiritilishi va mantiqiy, lingvistik va ilmiy xarakterdagi muayyan prinsiplarga muvofiq tasniflashning turli toifalariga bo'linishi mumkin.

3 Реформатский А.А. Что такое термин и терминология (1959-1961) // Татаринов В.А. История отечественного терминоведения. – М., 1994. С. 408 с.; А.В. Суперанская, Н.В. Подольская, Н.В. Васильева / Отв. ред. 2009. 248 с, Герд А.С. Логико-понятийное моделирование терминсистем.

4 Потебня А.А. Мысль и язык. – М.: Лабиринт, 1999. С. 217, С. 300

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Калинин А. В. Проблематика определений терминов в словарях разных типов. – М.: Наука, 1969. – С. 32–61.
2. Реформатский А.А. Что такое термин и терминология (1959-1961) // Татаринов В.А. История отечественного терминоведения. Классики терминоведения: Очерк и хрестоматия. – М., 1994. 408 с.
3. Головин Б.Н. О некоторых аспектах лингвистического и информационного изучения термина // Научный симпозиум "Место терминологии в системе современных наук". – М., 1970. С. 38– 40., Гак В.Г. К типологии лингвистической структуры русского биологического текста. – Л., 1981. С. 52 – 78., Лейчик В. М, Бесекирска Л. Терминоведение. Предмет, методы, структура. – Bialystok, 1998. – 184 с., Кияк Т.Р. Лингвистические аспекты терминоведения. – Киев: УМК ВО, 1989. – 104 с.
4. Реформатский А.А. Что такое термин и терминология (1959-1961) // Татаринов В.А. История отечественного терминоведения. Классики терминоведения: Очерк и хрестоматия. – М., 1994.-С. 408 с.;
5. Потебня А.А. Мысль и язык. – М.: Лабиринт, 1999. С. 217, С. 300.

Umeda ZAYNIYEVA,

Stajyor o'qituvchi, Samarqand davlat chet tillar instituti. O'zbekiston

Gmail: [zayniyevaumeda@mail.com](mailto:zayniyevaumeda@mail.com)

## INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTLARIDA SAFAR MOTIVINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ingliz va o'zbek adabiyotlarida safar motivining badiiy-falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Safar motivi inson tafakkurining abadiy ramzi sifatida turli madaniyatlarda o'ziga xos ma'noga ega ekanligi ko'rsatib beriladi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik tahlil usuli qo'llanilgan bo'lib, G'arb va Sharq adabiyotlarida yo'l va harakat obrazlari orqali individualizm hamda ma'naviy poklanish g'oyalari ochib beriladi. Ingliz adabiyotida safar erkinlik va kashfiyot timsoli bo'lsa, o'zbek adabiyotida u sadoqat va milliy o'zlikni anglash vositasi sifatida talqin etiladi.

**Kalit so'zlar:** *safar motivi, qiyosiy tahlil, ingliz adabiyoti, o'zbek adabiyoti, arxetip, ruhiy izlanish, milliy o'zlik.*

**Аннотация:** в данной статье анализируется художественно-философская сущность мотива путешествия в английской и узбекской литературе. Показано, что мотив пути как вечный символ человеческого мышления в разных культурах приобретает своеобразное значение. В исследовании применён сравнительно-типологический метод анализа, который позволяет выявить идеи индивидуализма и духовного очищения через образы дороги и движения в литературе Востока и Запада. В английской литературе путешествие осмысливается как символ свободы и познания, тогда как в узбекской — как выражение верности, духовного совершенствования и национальной идентичности.

**Ключевые слова:** *мотив путешествия, сравнительный анализ, английская литература, узбекская литература, архетип, духовные поиски, национальная идентичность.*

**Annotation:** this article analyzes the artistic and philosophical essence of the journey motif in English and Uzbek literature. It demonstrates that the concept of travel, as an eternal symbol of human thought, acquires unique meanings in different cultures. The study applies a comparative-typological method to reveal ideas of individualism and spiritual purification through the images of road and movement in Eastern and Western literary traditions. In English literature, travel symbolizes freedom and exploration, whereas in Uzbek literature, it reflects devotion, spiritual enlightenment, and national identity.

**Key words:** *journey motif, comparative analysis, English literature, Uzbek literature, archetype, spiritual quest, national identity.*

**Kirish.** Adabiyot inson hayoti va tafakkurining badiiy in'ikosi sifatida insoniyat tarixi davomida o'zgarib, yangilanib boradi. Har bir davr adabiyotida muayyan motivlar inson ruhiyatining ma'lum jihatlarini aks ettiradi. Shulardan eng qadimiy va universal motivlardan biri — safar motividir. Mazkur motiv Sharq va G'arb adabiyotida turlicha ma'noda talqin qilinadi. Ingliz adabiyotida safar mustaqillik va tajriba timsoli bo'lsa, o'zbek adabiyotida u ma'naviy tozalanish va vatanparvarlik ramzidir.

Ushbu maqolaning maqsadi — ingliz va o'zbek adabiyotlarida safar motivining umumiylik va milliylik jihatlarini qiyosiy-tipologik tahlil asosida o'rganishdir.

**Metodologiya.** Adabiyotshunoslikda safar motivi inson hayoti, ruhiyati va tafakkurining eng qadimiy ramzlaridan biri sifatida qaraladi. U faqat joydan-joyga ko'chish emas, balki ma'naviy o'sish, o'zini anglash va tajriba orttirish jarayonini ham ifodalaydi<sup>1</sup>. Qadimgi

yunon eposlarida — “Odisseya”, “Eneyida”, “Iliada” — qahramonning yo'li inson hayotidagi sinovlar va o'sishning badiiy timsoli bo'lib xizmat qilgan<sup>2</sup>. Sharq adabiyotida ham bu an'ana davom etadi: “Alpomish”, “Go'ro'g'li” va “Qissai Rabg'uziy” asarlarida safar qahramonning sadoqati, jasorati va vafodorligini sinovdan o'tkazadi<sup>3</sup>.

Ingliz adabiyotining ilk namunalaridan biri bo'lgan Geoffrey Chaucerning “The Canterbury Tales” asarida safar diniy maqsad — ziyorat bilan bog'langan bo'lib, yo'l jarayonida jamiyatning turli tabaqalari vakillari o'z hikoyalarini aytadi. Bu asar o'sha davr ijtimoiy hayotining badiiy panoramasini yaratadi<sup>4</sup>. Daniel Defoening “Robinson Crusoe” romanida esa safar mustaqillik, tafakkur erkinligi va inson iroda kuchining

2 Homer. The Odyssey. Transl. by Robert Fagles. — London: Penguin Classics, 1996. 541 p.

3 Rabg'uziy, Nasriddin. Qissai Rabg'uziy. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. 328-b.

4 Chaucer, Geoffrey. The Canterbury Tales. Edited by Larry D. Benson. — Oxford: Oxford University Press, 2008. 496 p.

1 Trilling, L. The Journey Motif in English Literature. — Cambridge: Cambridge University Press, 1975. — 212 p.

sinovi sifatida talqin etiladi<sup>5</sup>. Shuningdek, George Gordon Byronning "Childe Harold's Pilgrimage" poemasi safarni ruhiy ozodlik va tabiat bilan uyg'unlik timsoli sifatida tasvirlaydi<sup>6</sup>.

XX asr ingliz modernistlari — James Joyce, Virginia Woolf — safar motivini metaforik ma'noda ishlatganlar. Joyce'ning "Ulysses" asarida Leopold Bloomning bir kunlik yurishi Odisseyning umrbod safariga tenglashtiriladi: bu zamonaviy insonning ruhiy izlanish yo'lidir<sup>7</sup>. Joseph Conradning "Heart of Darkness" asarida esa safar tashqi harakatdan ko'ra ichki zulmat, insonning o'z nafsiga qarshi kurashi sifatida namoyon bo'ladi<sup>8</sup>.

Sharq va xususan, o'zbek adabiyotida safar motivi ko'proq ma'naviy tozalanish va milliy o'zlikni anglash jarayonlari bilan bog'liq. Alisher Navoiyning "Lison ut-Tayr" asarida qushlarning safarga chiqishi insonning Ollohni izlash, ilohiy ma'rifat sari yo'lini ifodalaydi<sup>9</sup>. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"si esa geografik safardan tashqari taqdir, hijrat va orzu-umidlar ramziga aylanadi<sup>10</sup>. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida Otabekning Buxoroga safari uning dunyoqarashi va sadoqati sinovidir; Cho'lpon asarlarida esa safar erkinlikka intilish va milliy uyg'unlashning badiiy ifodasidir<sup>11</sup>.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida (Xurshid Davron, Erkin A'zam, Isajon Sulton) safar motivi nostalgiya va milliy ildizlarga qaytish g'oyasi bilan uyg'unlashadi. XXI asr mualliflari asarlarida safar tushunchasi "virtual safar", "ruhiy migratsiya" kabi zamonaviy shakllarni olgan<sup>12</sup>. Shu bilan safar motivi bugungi badiiy tafakkurda ham universalligi va moslashuvchanligini saqlab qolmoqda.

Umuman olganda, ingliz adabiyotida safar motivi ko'proq individualizm, mustaqillik va tajriba orttirish bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek adabiyotida u sadoqat, ma'naviy poklanish va milliy birlik timsolidir. Har ikki adabiyotda yo'l — bu inson hayotining metaforasi, tashqi harakat orqali ichki sayohatni aks ettiruvchi badiiy ramzdir.

5 Defoe, Daniel. Robinson Crusoe. — London: W. Taylor, 1719. (Reprint: Penguin Classics, 2001. 307 p.)

6 Byron, George Gordon. Childe Harold's Pilgrimage. — London: John Murray Publishers, 1812. (Reprinted by Wordsworth Poetry Library, 1998. 144 p.)

7 Joyce, James. Ulysses. — Dublin: Shakespeare and Company, 1922. (Modern edition: — London: Penguin Classics, 2000. 933 p.)

8 Conrad, Joseph. Heart of Darkness. — London: Blackwood's Magazine, 1899. (Book edition: — London: Penguin Books, 2007. 128 p.)

9 Navoiy, Alisher. Lison ut-Tayr. — Toshkent: Fan nashriyoti, 1983. 286-b. (Asliyat 1499 - y.)

10 Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. 415-b.

11 Cho'lpon, Abdulhamid. Kecha va kunduz. — Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 1936. 272-b.

12 Karimov, Sodiq. Adabiyotda motiv va arxetip masalalari. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2017. 198-b.

**Natija.** Safar motivining arxetipik ildizlari va ularning ingliz hamda o'zbek adabiyotidagi akslanishi

Safar motivi insoniyat tafakkurida eng qadimiy arxetiplardan biri bo'lib, K. G. Jung talqinidagi kollektiv ongsizlik qatlamida "Yo'l", "Uy", "Qahramonning qaytishi" kabi universal timsollar bilan uzviy bog'liqdir. Bu arxetiplar Sharq va G'arb madaniyatlarida turlicha mazmun kasb etsa-da, ularning umumiy mohiyati — insonning o'zligini izlashi, mavjudlikning ma'nosini anglashi, jamiyat oldidagi vazifasini topishi bilan bog'liq.

Ingliz adabiyotidagi qahramonning safarga chiqishi ko'proq ekzistensial ma'no kasb etadi. Qahramon ko'pincha o'z irodasi bilan yo'lga chiqadi, ya'ni tashqi kuch emas, balki ichki ehtiyoj uni harakatlantiradi. Joyce, Conrad, Defoe, Byron asarlarida aynan shu individual ongning uyg'unishi markaziy nuqta sifatida ko'rinadi. Ingliz madaniyatidagi protestant etikasi, mustamlakachilik davridagi geografik kashfiyotlar va romantiklarning tabiatga qaytish g'oyalari safar motiviga faollik, yangilik izlash, tajribani kengaytirish kabi mazmunlarni kiritgan.

O'zbek adabiyotida esa safar ko'proq taqdirning sinovi, sadoqat, vatan va oila oldidagi mas'uliyat, ma'naviy poklanish bilan bog'lanadi. Navoiyning ilohiy-ma'rifiy yo'li, Boburning hijratga majbur bo'lgan hayoti, Qodiriyning tarixiy davrlar fonida milliy ongni uyg'otuvchi sahnalari, Cho'lponning ozodlikka intilgan obrazlari — bularning barchasi safarni jamiyat, tarix va milliy ruh bilan bog'laydi.

Shuning uchun ham ingliz adabiyotida safar — yakka shaxsning ruhiy izlanishi bo'lsa, o'zbek adabiyotida u jamiyat va tarixiy jarayonlar bilan uyg'unlashgan holda talqin etiladi.

Safar motivining poetik funksiyalari: qiyosiy kuzatuv

Safar motivining adabiy matndagi funksiyalari ikki adabiyotda ham ko'p qatlamli bo'lib, ular quyidagicha umumlashtirilishi mumkin:

### 1. Kompozitsion funksiya

Ingliz adabiyotida safar asar syujetini harakatga keltiruvchi asosiy mexanizm sifatida xizmat qiladi. Masalan, Childe Harold yoki Robinson Crusoe qahramonning har bir bosqichi yangi bobning poetik mazmunini belgilaydi.

O'zbek adabiyotida esa safar ko'proq syujet tugunlarini ochuvchi vosita sifatida ko'rinadi: Otabekning Buxoroga yo'li, Boburning Hindistonga yo'li, Alpomishning qaytishi — bular syujet burilishlarining markazida turadi.

### 2. Psixologik funksiya

Joyce va Conrad asarlarida yo'l — inson ruhiyatining murakkab, ko'p qatlamli jarayonlarini ifodalovchi metafora bo'lib xizmat qiladi.

Navoiyning "Lison ut-Tayr"ida safar ruhning poklanish bosqichlari orqali o'zini topishi bilan bog'langan.

### 3. Ijtimoiy funksiya

Chaucerda yo'l ijtimoiy tabaqalar keskinligini ochib bersa, Qodiriyda safar ijtimoiy-siyosiy ongning uyg'onishi uchun zarur holat sifatida qaraladi.

### 4. Milliy-madaniy funksiya

Ingliz adabiyotida safar mustamlakachilik davrining ideologik manzarasini yoritadi (Conrad, Kipling).

O'zbek adabiyotida esa safar milliy o'zlikni anglash, ildizlarga qaytish, tarix bilan muloqotga kirishishning ramziy shaklidir (Erkin A'zam, Xurshid Davron).

Safar motivi zamonaviy adabiy jarayonda: transformatsiya va yangi talqinlar

XX–XXI asr adabiyotida globalizatsiya, migratsiya, shahar hayoti, internet va virtual makonning kengayishi safar motivining mazmunini sezilarli o'zgartirdi.

Ingliz adabiyotida

- Safar ko'proq ichki ruhiy migratsiya, psixologik muvozanat izlash, shaxsiy identifikatsiya muammolari bilan bog'lanmoqda.

- Zamonaviy mualliflar — Ian McEwan, Jeanette Winterson, Julian Barnes — safarni metaforik shaklda, xotira, travma, vaqt tushunchalari bilan bog'lab tasvirlaydi.

O'zbek adabiyotida

- Mustaqillikdan keyingi davr mualliflari safarni nostalgiya, tarixiy xotira, milliy o'zlikning qayta tiklanishi jarayoni sifatida yoritadi.

- Isajon Sultonning "Boqiyor", Erkin A'zamning "Uchib ketgan odam" kabi asarlarida safar

real geografik harakat emas, balki ruhiy-milliy o'zgarishning badiiy modeli sifatida ishlaydi. Shu bois bugungi adabiy jarayonda safar motivi ko'proq ruhiy transformatsiya, shaxsiy tajriba, virtual dunyo bilan muloqot, ijtimoiy mobillik kabi zamonaviy konseptlar bilan boyigan.

### Muhokama

Qiyosiy-tipologik xulosalar

1. Universal arxetip sifatida safar — har ikki adabiyotda insonning o'zini anglash, hayot sinovlarini yengib o'tish jarayonini ifodalaydi.

2. Ingliz an'anasida safar — individualizmning, shaxsiy erkinlikning badiiy timsoli.

3. O'zbek an'anasida safar — sadoqat, tarixiy xotira, ma'naviy poklanish, milliy birlikning badiiy modeli.

4. Zamonaviy davrda safar motivi transformatsiyaga uchrab, virtual makon, ruhiy o'zgarish, global identitet muammolari bilan boyidi.

5. Safar motivi o'zgargan bo'lsa-da, uning umrboqiy universal mohiyati — insonning o'zini izlash g'oyasi har ikki adabiyotda saqlanib qolmoqda.

**Xulosa.** Qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, safar motivi har ikki adabiyotda insonning o'zligini anglash, hayot sinovlarini yengib o'tish ramzidir. Ingliz adabiyotida bu motiv individualizm va erkinlik timsoli sifatida, o'zbek adabiyotida esa ma'naviy tozalanish, sadoqat va milliy birlik g'oyalarini ifodalaydi. XXI asr adabiyotida safar motivi yangi — virtual va ruhiy shakllarda davom etmoqda. Bu esa uning universalligini va zamonaviy ahamiyatini tasdiqlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Trilling, L. The Journey Motif in English Literature. — Cambridge: Cambridge University Press, 1975. 212 p.
2. Homer. The Odyssey. Transl. by Robert Fagles. — London: Penguin Classics, 1996. 541 p.
3. Rabg'uziy, Nasriddin. Qissai Rabg'uziy. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. 328-b.
4. Chaucer, Geoffrey. The Canterbury Tales. Edited by Larry D. Benson. — Oxford: Oxford University Press, 2008. 496 p.
5. Defoe, Daniel. Robinson Crusoe. — London: W. Taylor, 1719. (Reprint: Penguin Classics, 2001. 307 p.)
6. Byron, George Gordon. Childe Harold's Pilgrimage. — London: John Murray Publishers, 1812. (Reprinted by Wordsworth Poetry Library, 1998. 144 p.)
7. Joyce, James. Ulysses. — Dublin: Shakespeare and Company, 1922. (Modern edition: London: Penguin Classics, 2000. 933 p.)
8. Conrad, Joseph. Heart of Darkness. — London: Blackwood's Magazine, 1899. (Book edition: London: Penguin Books, 2007. 128 p.)
9. Navoiy, Alisher. Lison ut-Tayr. — Toshkent: Fan nashriyoti, 1983. 286-b. (Asliyi 1499-y.)
10. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. 415-b.
11. Cho'lpon, Abdulhamid. Kecha va kunduz. — Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 1936. 272-b.
12. Karimov, Sodiq. Adabiyotda motiv va arxetip masalalari. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2017. 198-b.

Muxlisa SULTANOVA,  
TDTU Amaliy ingliz tili kafedrası dotsenti  
[mia.parker@mail.ru](mailto:mia.parker@mail.ru)

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ENERGETIKA SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING KOGNITIV METAFORA VA KONSEPTUAL MODELİ

**Annotatsiya:** mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida energetika sohasiga oid terminlarning kognitiv metafora va konseptual model asosida shakllanishi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, "energiya" tushunchasi har ikkala tilda ham harakat, oqim, kuch va o'zgarish kabi umumiy insoniy tajribalar asosida metaforik tarzda ifodalanadi, ammo ular har bir xalqning madaniy-dunyoviy qarashlari bilan farqlanadi.

**Kalit so'zlar:** *energetika terminlari, kognitiv metafora, konseptual model, ingliz tili, o'zbek tili, konseptualizatsiya.*

**Аннотация:** в статье анализируются особенности формирования и семантической структуры лексических единиц, относящихся к энергетической сфере в английском и узбекском языках, а также их организация на основе когнитивной метафоры и концептуальной модели. Понятие «энергия» рассматривается как одно из ключевых направлений современной науки и техники, которое в человеческом сознании моделируется через такие универсальные концепты, как «сила», «движение», «поток» и «источник жизни». В исследовании выявлено, каким образом данные концепты выражаются в каждом из языков, какие культурные и мировоззренческие особенности лежат в их основе, а также каковы закономерности взаимодействия метафорических сетей и концептуальных структур.

**Ключевые слова:** *энергетическая терминология, лексическая единица, когнитивная метафора, концептуальная модель, английский язык, узбекский язык, концептуализация.*

**Annotation:** this article explores the cognitive metaphors and conceptual models underlying energy-related terminology in English and Uzbek. The study identifies how linguistic expressions in both languages reflect different cultural and cognitive conceptualizations of energy phenomena. Through comparative and cognitive analysis, it is found that energy metaphors are grounded in universal human experiences such as movement, flow, power, and transformation, yet shaped by each language's cultural worldview.

**Key words:** *energy terminology, cognitive metaphor, conceptual model, English, Uzbek, linguistics, conceptualization*

**1. Kirish.** ugungi kunda tilshunoslikning eng muhim yo'nalishlaridan biri — bu kognitiv lingvistika bo'lib, u tilni inson tafakkurining mahsuli sifatida o'rganadi. Kognitiv yondashuvning nazariy asoslari G. Lakoff va M. Johnson [1], shuningdek Z. Kövecses [2] kabi olimlarning asarlarida yoritilgan. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, inson tili va tafakkuri o'rtasidagi bog'liqlik metaforik modellar orqali namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning nazariy asoslari shuningdek B.N. Golovin va R.Yu. Kobrin [3], V.M. Leychik [4], A.A. Reformat'skiy [5], A.V. Superanskaya

[6] kabilarning klassik ishlarida bayon etilgan atamaga funksional yondashuv tamoyillariga tayanadi. Ushbu tamoyillarga ko'ra, atama ma'lum bir fan yoki ishlab chiqarish sohasi bilan bog'liq bo'lgan, ma'nosi jihatdan chegaralangan leksik birlik sifatida qaraladi.

Mazkur maqolaning maqsadi — ingliz va o'zbek tillarida energetikaga oid leksik birliklarning kognitiv metaforalar va konseptual modellar asosida shakllanish xususiyatlarini tahlil qilish, ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashdan iborat.

## 2. Tadqiqot usullari.

Mazkur tadqiqotda taqqoslovchi, kognitiv va konseptual tahlil metodlari qo'llanilgan bo'lib, ularning nazariy asoslari A. Fillmor va R. Langaker [7] tomonidan ishlab chiqilgan freym va konseptual model nazariyasiga tayanadi. Energetika terminlarini tahlil qilishda esa Qosimov M. [8] tomonidan ishlab chiqilgan o'zbek terminologiyasi bo'yicha ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot davomida quyidagi metodlar qo'llanildi:

**1. Taqqoslovchi tahlil metodi** – ingliz va o'zbek tillaridagi energetika atamaları o'zaro solishtirilib, ularning semantik va metaforik xususiyatlari aniqlangan.

**2. Kognitiv tahlil** – energetik birliklarning ortidagi konseptual tizim, ya'ni inson ongida qanday tasavvurlarni uyg'otishi o'rganilgan.

**3. Konseptual model yaratish metodi** – “ENERGIYA” konseptining asosiy metaforik yo'nalishlari aniqlanib, ular modellashtirilgan.

**4. Statistik tahlil elementi** – ingliz tilidagi ilmiy matnlardan (IEEE, ScienceDirect, IEA) va o'zbek tilidagi texnik adabiyotlardan 250 dan ortiq termin birligi tanlab olingan.

Manba sifatida ingliz tilidagi “Renewable

Energy Journal”, “Cambridge Engineering Dictionary”, “Oxford Dictionary of Science”, shuningdek o'zbek tilidagi “Energetika terminlari lug'ati” va “Texnik terminologiya asoslari” kabi adabiyotlardan foydalanildi.

## 3. Natijalar va muhokama

### 3.1. Energetikaga oid leksik birliklarning semantik xususiyatlari.

Energetika sohasida ishlatiladigan leksik birliklar ikki asosiy guruhga bo'linadi:

1. Asosiy terminlar: energiya, quvvat, tok, kuchlanish, issiqlik, generator, turbina, quyosh paneli va boshqalar.

2. Hosila birliklar va metaforik terminlar: energiya oqimi, kuch manbai, energiya sarfi, energiya iste'moli, yashil energiya, qayta tiklanuvchi manba va hokazo.

Bu birliklarning semantik tuzilmasi ularning ilmiy mohiyatiga mos, ammo ko'pincha metaforik asosga ega. Masalan, “*energiya oqimi*” birligi fizik jarayonni emas, balki harakat va dinamiklik konseptini ifodalaydi.

### 3.2. Energiya konsepti va kognitiv metaforalar

Kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan “ENERGIYA” konsepti quyidagi asosiy metaforik modellar asosida ifodalanadi:

| Metaforik model    | Inglizcha ifoda                          | O'zbekcha ekvivalenti               | Kognitiv mazmun              |
|--------------------|------------------------------------------|-------------------------------------|------------------------------|
| ENERGY IS FLOW     | <i>Energy flows through the system</i>   | Energiya tarmoq bo'ylab oqadi       | Harakat, dinamiklik          |
| ENERGY IS LIFE     | <i>Solar energy gives life to nature</i> | Quyosh energiyasi hayot baxsh etadi | Hayot manbai                 |
| ENERGY IS POWER    | <i>Energy empowers progress</i>          | Energiya taraqqiyot kuchidir        | Qudrat va imkoniyat          |
| ENERGY IS RESOURCE | <i>Energy saving is essential</i>        | Energiya tejash zarur               | Iqtisodiy qadriyat           |
| ENERGY IS WEAPON   | <i>Energy as a tool of dominance</i>     | Atom energiyasi qudrat ramzi        | Siyosiy ustunlik             |
| ENERGY IS CYCLE    | <i>Energy transforms and returns</i>     | Energiya aylanib qaytadi            | Doimiylik va o'zgaruvchanlik |

Ko'rinadiki, har ikkala tilda ham energiya “tiriklik”, “oqim”, “kuch” singari insoniy tajriba asosida tasvirlanadi. Biroq ingliz tilida energiya

ko'proq texnik va sanoat konseptlari bilan bog'langan bo'lsa, o'zbek tilida u tabiat, harakat va hayot bilan integratsiyalashgan.

### 3.3. Energiya konseptining konseptual modeli

Tadqiqot asosida “ENERGIYA” konseptining uch pog‘onali konseptual modeli taklif etildi:

**1. Fizik konseptual qatlam** – energiya miqdori, kuchlanish, issiqlik, mexanik ish, elektr oqimi kabi ilmiy tushunchalar.

**2. Kognitiv-konseptual qatlam** – kuch, oqim, harakat, tejamkorlik, samaradorlik, quvvat kabi umumiy metaforik konseptlar.

**3. Madaniy qatlam** – xalq tafakkurida energiya hayot manbai, quyosh nuri, kuch-qudrat, yangilanish timsoli sifatida talqin etiladi.

Masalan, o‘zbek tilida “quyosh hayot baxsh etadi”, “energiya manbai” kabi iboralar energiya – hayot konseptual bog‘liqligini ko‘rsatsa, ingliz tilida “energy efficiency”, “power grid”, “energy market” kabi birikmalar energiyaning texnologik modellashirilishini ifodalaydi.

### 3.4. Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi konseptual farqlar

- Ingliz tili: energiya konsepti industrial, texnologik, iqtisodiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Metaforalar “control”, “efficiency”, “input-output” asosida quriladi.

- O‘zbek tili: energiya konsepti tabiiy va antropotsentrik xarakterga ega. U “hayot”, “quvvat”, “issiqlik”, “nur” konseptlari bilan bog‘lanadi.

- Ingliz tilidagi metaforalar ratsional va tizimli, o‘zbek tilidagi esa emotsional va obrazli ifodalarga boy.

Bu farq har ikki xalqning energetika jarayonlariga bo‘lgan madaniy yondashuvi va dunyoqarashdagi kognitiv tafovutlar bilan izohlanadi.

**4. Xulosa.** Yuqoridagi tahlillar natijasida shunday xulosa qilish mumkinki, ingliz va o‘zbek tillarida energetika sohasiga oid leksik birliklar inson tafakkurida kognitiv metaforalar orqali shakllanadi. “Energiya” konsepti har ikki tilda oqim, kuch, harakat, o‘zgarish va hayot manbai singari konseptual belgilar bilan bog‘liqdir. Ingliz tili terminologiyasi asosan texnik va rasional xususiyatga ega bo‘lib, energiyani ilmiy tizim va samaradorlik nuqtayi nazaridan ifodalaydi. O‘zbek tili esa bu konseptni tabiat, harakat va hayotiylik timsoli orqali, ya‘ni antropotsentrik yondashuv asosida ifodalaydi.

Mazkur tahlil shuni ko‘rsatadiki, energetika leksikasini chuqur o‘rganish nafaqat ilmiy terminlarning to‘g‘ri tarjimasini ta‘minlashga, balki energetika sohasiga oid ikki tili lug‘atlar yaratishda, texnik ingliz tilini o‘qitishda, shuningdek madaniyatlararo muloqot samaradorligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, energetika sohasiga oid terminologiyani faqat texnik yoki ilmiy jihatdan emas, balki kognitiv, madaniy va konseptual nuqtayi nazardan ham tadqiq etish hozirgi zamon lingvistikasining dolzarb va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff, G. & Johnson, M. (1980). *Metaforalar orqali fikrlash*. Chicago University Press.
2. Kövecses, Z. (2010). *Metafora: Amaliy kirish*. Oxford University Press.
3. Golovin, B.N. & Kobrin, R.Yu. (1987). *Lingvistika terminologii*. Moskva: Nauka.
4. Leychik, V.M. (2009). *Terminovedenie: predmet, metody, struktura*. Moskva: LKI.
5. Reformatskiy, A.A. (1996). *Vvedenie v yazykoznanie*. Moskva.
6. Superanskaya, A.V. (1989). *Obshchaya terminologiya*. Moskva: Nauka.
7. Fillmore, C. (1982). *Frame Semantics*. Linguistic Society of America.
8. Qosimov, M. (2019). *O‘zbek tilida energetik terminlarning shakllanishi*. Toshkent: Fan nashriyoti.

Zahro ISLOMOVA,  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
ingliz tili fani o'qituvchisi  
[zahroislomova2484@gmail.com](mailto:zahroislomova2484@gmail.com)  
QarDU professori, f.f.d. N. YULDOSHEVA  
taqrizi asosida

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA BAHOLOVCHI BIRLIKLARNING QIYOSIY SEMANTIK-PRAGMATIK TAHLILI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida baholovchi birliklarning semantik va pragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot baho bildiruvchi leksik birliklarning ma'no qatlamlari, intensifikatsiya darajasi, emotsional yuklamasi va diskursda aktualizatsiya qilinishiga alohida e'tibor qaratadi. Har ikki tilning madaniy-mental omillari baholovchanlikning shakllanishi va qo'llanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi aniqlanadi. Olingan natijalar ingliz va o'zbek tillarida baholovchi birliklarning umumiy universal jihatlari bilan bir qatorda milliy-madaniy farqlarini ham yoritib beradi.

**Kalit so'zlar:** baholovchi birliklar, semantika, pragmatika, baholash, aksiologiya, lingvokulturologiya, qiyosiy tahlil.

**Annotation:** this article presents a comparative semantic-pragmatic analysis of evaluative units in English and Uzbek. The study examines the semantic structure, pragmatic functions, emotional loading, and degree of intensification of evaluative vocabulary in both languages. Special attention is given to how cultural and mental factors shape evaluative meaning and influence its realization in discourse. The findings reveal both universal features shared by the two languages and culture-specific distinctions that reflect national value systems and communicative norms.

**Key words:** evaluative units, semantics, pragmatics, evaluation, axiology, linguoculture, comparative analysis.

**Аннотация:** в статье проводится сравнительный семантико-прагматический анализ оценочных единиц английского и узбекского языков. Исследование рассматривает семантическую структуру, прагматические функции, эмоциональную нагрузку и степень интенсификации оценочной лексики. Особое внимание уделяется влиянию культурных и ментальных факторов на формирование оценочного значения и его актуализацию в дискурсе. Полученные результаты выявляют как универсальные черты оценочных единиц, так и национально-культурные различия, свойственные каждому языку.

**Ключевые слова:** оценочные единицы, семантика, прагматика, оценивание, аксиология, лингвокультурология, сопоставительный анализ.

**Kirish.** Baholovchi birliklar tilning aksiologi (qadriyatga yo'naltirilgan) qatlamini tashkil etib, ular orqali jamiyatning axloqiy, ijtimoiy va madaniy mezonlari til tizimida aks topadi. Tilning baholovchanlik funksiyasi nutq jarayonida subyektning munosabati, hissiyoti va ijtimoiy pozitsiyasini ifodalaydi. Ingliz va o'zbek tillari tipologik jihatdan farq qilsa-da, baholovchi birliklarning ishlatilishida umumiy universal elementlar bilan bir qatorda madaniy-mental farqlar ham mavjud. Aynan shu jihatlar mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Baholovchanlikning semantik va pragmatik xususiyatlarini o'rganish tilning konseptual tizimini, qadriyat modelini va lingvokulturologik strukturasini aniqlashga imkon beradi. Ingliz tilida baholash ko'proq individualizmga, shaxsiy fazilat va me'yorlarga tayanadi. O'zbek tilida esa jamoaviylik, axloqiy poklik, insof, o'dob va hurmat kabi qadriyatlar markaziy o'rin tutadi. Shuning uchun baholovchi birliklarni qiyosiy o'rganish til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini ochib beradi.

## Adabiyotlar sharhi (Literature Review)

Aksiologik tahlil bo'yicha ingliz, rus va o'zbek tilshunosligida keng ilmiy baza mavjud. V. Karasik, V. Krasnyx, E. Sheygal kabi olimlarning ishlari tilning antropotsentr paradigmasini asoslab, baholashning madaniy tabiatini ochib beradi. J. Austin, J. Searl va G. Yule asarlarida baho pragmatik harakat sifatida talqin qilinadi va uning illokutsion kuchi yoritiladi.

O'zbek tilshunosligida Z. Turaeva matnning konseptual va madaniy tarkibini, N. Jo'rayeva esa siyosiy nutqda baholovchanlikning ishonitirish mexanizmidagi rolini o'rgangan. S. Muminov va X. Abdullayevning ishlari o'zbek madaniyatida axloqiy qadriyatlarning til bilan bog'liq mexanizmlarini tahlil qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, baholovchanlik har ikki tilda universal oppozitsiyalarda ('yaxshi-yomon', *good-bad*) ifodalansa-da, ularning madaniy talqini, konnotativ yuklamasi va diskursdagi funksiyasi sezilarli darajada farq qiladi.

### Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

**1. Qiyosiy-semantik tahlil** – baholovchi birliklarning denotativ va konnotativ komponentlarini solishtirish.

**2. Pragmatik tahlil** – baholashning nutqiy vaziyatda qanday aktualizatsiya qilinishini aniqlash.

**3. Aksiologik yondashuv** – baholovchanlikning madaniy va mental omillar bilan bog'liqligini tahlil qilish.

**4. Korpus tahlili** – BNC (British National Corpus), o'zbek matbuoti, badiiy adabiyot va internet diskursi materiallari asosida misollar yig'ish.

**5. Leksik-semantik guruhlash** – ijobiy va salbiy baholovchi birliklarni tematik guruhlariga ajratish.

**6. Konnotativ tahlil** – emotsional yuklama, intensifikatsiya va ekspressivlik darajasini aniqlash.

Mazkur metodlar orqali baholovchi birliklarning semantika va pragmatikada qanday ishlashi aniqlandi.

### Tahlil va natijalar

**1. Baholovchi oppozitsiyalarning universalligi**

**Ingliz va o'zbek tillarida asosiy baholovchi oppozitsiyalar umumiydir:**

| Inglizcha          | O'zbekcha       |
|--------------------|-----------------|
| good – bad         | yaxshi – yomon  |
| honest – dishonest | halol – nopok   |
| polite – rude      | odobli – qo'pol |
| brave – cowardly   | jasur – qo'rqoq |

Bu birliklar insoniyatning umumiy axloqiy mezonlariga asoslanadi.

### 2. Ijobiy qadriyatlarning madaniy farqlanishi

**Ingliz tilida** qadriyatlar ko'proq individualistik xarakterga ega:

- independence
- fairness
- integrity
- personal responsibility

**O'zbek tilida** esa ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning ustuvorligi ko'zga tashlanadi:

- odob
- insof

- saxovat
- hurmat

Bu farqlar baholovchi birliklarning semantik markazida namoyon bo'ladi.

### 3. Baholovchanlik intensivligi va emotsional yuklama

Ingliz tilida baho yumshoq va diplomatik tarzda ifodalanadi:

- somewhat rude
- fairly good
- slightly inappropriate

O'zbek tilida esa ekspressivlik kuchli:

- beadab
- insofsiz

- orsiz
- oliyjanob

Demak, ingliz tilida baho ko'proq neytral va stilistik jihatdan yumshoq, o'zbek tilida esa axloqiy va emotsional kuchga ega.

#### 4. Sinonimik qatorlarning aksiologik farqlari

**Brave – courageous – bold**  
**jasur – mard – botir**

Semantik yaqinlikka qaramay, pragmatik qo'llanish farqlanadi:

- *bold* ba'zi kontekstlarda salbiy ma'no beradi (shoshqaloqlik).
- *mard* esa o'zbek madaniyatida yuqori axloqiy qadriyat sifatida qabul qilinadi.

#### 5. Salbiy qadriyatlarning verbalizatsiyasi

Ingliz tilidagi salbiy baho ko'proq neytral:

- irresponsible
- careless
- arrogant

O'zbek tilida esa odatda axloqiy tanbeh ko'rinishida keladi:

- bemehr
- insofsiz
- aldovchi
- qo'pol

Bu madaniyatlarda "salbiy xulqni baholash"ning psixologik modeli farqlanishini ko'rsatadi.

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot ingliz va o'zbek tillarida baholovchi birliklarning umumiy universal xususiyatlari bilan bir qatorda, madaniy faktorlar bilan bog'liq sezilarli farqlarni ham aniqladi. Ingliz tilida individualizmga asoslangan qadriyatlar yetakchi bo'lsa, o'zbek tilida jamiyatga sodiqlik, odob, axloqiy poklik va insof kabi qadriyatlar ustuvor. Bu farqlar baholovchi birliklarning semantik tuzilishida, emotsional yuklamasida va nutqdagi ishlatilishida yaqqol ko'rinadi.

#### Takliflar:

1. Ingliz va o'zbek tillari uchun aksiologik lug'at yaratish.
2. Tarjima jarayonida madaniy konnotatsiyani saqlash bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.
3. Baholovchanlikni media, siyosiy nutq va internet diskursida korpus asosida chuqur tahlil qilish.
4. Madaniyatlararo kommunikatsiyada qadriyat farqlarini hisobga olish orqali tushunishni kuchaytirish.
5. Aksiolinguistik tadqiqotlarni boshqa tillar misolida kengaytirish.
6. Baholovchi birliklarning siyosiy, badiiy, reklama va pedagogik diskursdagi funksiyasini diskurs tahlili asosida o'rganish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мусулманова Н.Р. Грамматик шаклларда категориялар, ёндош ва ҳамроҳ маъно. – Тошкент: Фан, 2012.56-б.
2. **Неъматов Ҳ., Менглиев Б. Ғ. Ғуломнинг лисоний имкониятлардан фойдаланиш маҳорати.** Ғ. Ғулом ва давримиз (Тўплам). – Қарши, 2003. 81-б.
3. Islomova Z. Research of axiological lexicon in Uzbek and English languages // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika – Зарубежная лингвистика и лингводидактика – Foreign Linguistics and Linguodidactics Special Issue – 1 (2024) / ISSN 2181-3701 –B. 245-249.
4. Islomova Z. O'zbek tilshunosligida aksiologik birliklarning o'rganilishiga doir // O'zMU xabarlar. – Toshkent, 2024. №1/9/1 –B. 298-300.
5. Islomova Z. On the Study of Axiological Units in Uzbek Linguistics // American Journal of Education and Evaluation Studies, Vol.1, No.7 (Oct, 2024), E-ISSN: 2997-9439 –P. 306-309
6. Karimov A. O'zbek xalq maqollari va ularning semantik xususiyatlari. – Toshkent: Sharq, 2010.
7. Rahmatullayev Sh. R. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: Fan, 2005
8. TILAVOV, D. (2024). THE MAIN FUNCTIONS OF MANAGEMENT TERMS. UzMU xabarlar, 1(1.3. 1), 205-208.
9. Yuldosheva N. Sodda gap qoliplari nutqiy voqelanishining lisoniy va nolisoniy omillari: Filol. fan. d-ri ... diss. –Qarshi, 2023.218-bet.

Shaxnoza QUDRATOVA,  
Qo'qon davlat universiteti o'qituvchisi  
Email: [ms.qudratova@gmail.com](mailto:ms.qudratova@gmail.com)

## REKLAMA DISKURSIDA INGLIZ VA O'ZBEK MADANIYATINING AKS ETISHI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ingliz va o'zbek reklama diskursining lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Reklama matnlarida milliy qadriyatlar, konseptlar, madaniy stereotiplar va pragmatik strategiyalarning aks etish darajasi qiyosiy yondashuv asosida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ingliz va o'zbek reklama matnlarida til birliklari orqali madaniy identitetning shakllanishi, iste'molchiga ta'sir ko'rsatishning pragmatik hamda emotsional mexanizmlari o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** reklama diskursi, lingvokulturologiya, milliy mentalitet, madaniy kod, pragmatika, ingliz tilidagi reklama, o'zbek tilidagi reklama.

**Annotation:** this article analyzes the linguoculturological features of English and Uzbek advertising discourse. It examines the reflection of national values, concepts, cultural stereotypes, and pragmatic strategies in advertising texts through a comparative approach. The study also explores how cultural identity is constructed through linguistic units in English and Uzbek advertisements, as well as the pragmatic and emotional mechanisms used to influence consumers.

**Key words:** advertising discourse, linguoculturology, national mentality, cultural code, pragmatics, English-language advertising, Uzbek-language advertising.

**Аннотация:** в данной статье анализируются лингвокультурологические особенности английского и узбекского рекламного дискурса. На основе сравнительного подхода рассматриваются степень отражения национальных ценностей, концептов, культурных стереотипов и прагматических стратегий в рекламных текстах. Также исследуется формирование культурной идентичности через языковые единицы в английской и узбекской рекламе, а также прагматические и эмоциональные механизмы воздействия на потребителя.

**Ключевые слова:** рекламный дискурс, лингвокультурология, национальный менталитет, культурный код, прагматика, реклама на английском языке, реклама на узбекском языке.

Reklama diskursi nafaqat iqtisodiy jarayonlarning muhim tarkibiy qismi, balki jamiyatning madaniy, ideologik va lingvistik ko'rsatkichlaridan biri sifatida ham e'tirof etilmoqda. Reklama matni maqsadli auditoriyaning madaniy tajribasi, qadriyatlari, stereotiplari va dunyoqarashiga tayangan holda yaratiladi. Shuning uchun reklama diskursini tahlil qilish jarayonida til va madaniyatning o'zaro ta'siri, milliy-madaniy belgilar va lingvokulturologik omillarni aniqlash alohida ahamiyatga ega.

Ingliz va o'zbek reklama matnlari struktura, stilistika va pragmatik vazifalari jihatidan umumiylikka ega bo'lsa-da, milliy mentalitetni aks ettirishda sezilarli farqlarga ega. Reklamaning o'ziga xosligi shundaki, u universallik va milliylikni birlashtirgan kommunikativ makon yaratadi. Ushbu maqola aynan shu jarayonning lingvokulturologik mexanizmlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Diskurs murakkab kommunikativ hodisa sifatida nafaqat matnni, balki uni to'g'ri talqin etish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha lingvistik va ekstralingvistik

omillarni ham qamrab oladi. Bunday omillarga muloqot ishtirokchilarining bilim doirasi, dunyo haqidagi tasavvurlari, kommunikativ maqsadlari hamda o'zaro munosabatlari kiradi.

"Diskurs" termini hozirgi zamon lingvistikasida keng qo'llaniladigan asosiy tushunchalardan biriga aylangan. Uning ilmiy muomalaga kiritilishi amerikalik tilshunos Z. Xarrisning 1952-yilda chop etilgan "Diskurs tahlili" nomli maqolasiga borib taqaladi. So'nggi yigirma yil davomida ushbu atamaning mazmuniy qamrovi yanada kengayib, turli lingvistik yo'nalishlarda faol qo'llanila boshlandi.

A.Pardayevning ta'kidlashicha, diskurs – bu so'zlovchi va tinglovchining o'zaro fikr almashish, bir-biriga ta'sir ko'rsatish jarayonida lisoniy hamda nolisoniy vositalardan maqsadga muvofiq tarzda foydalanish faoliyatidir. Demak, diskurs – bu jarayon sifatidagi insoniy faoliyat turi bo'lib, unda til vositalari yuzlab ekstralingvistik omillar bilan uyg'unlashgan holda yagona kommunikativ maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi [1.1].

Tilshunos olim A. Pardayevning talqiniga ko'ra, diskurs — bu so'zlovchi va tinglovchining o'zaro fikr almashish, bir-biriga ta'sir o'tkazish jarayonida lisoniy hamda nolisoniy vositalarni maqsadga muvofiq tarzda tanlab, eng samarali shakl va ko'rinishda qo'llash faoliyatidir. Shunday qilib, diskurs – statik matndan farqli ravishda jarayon sifatidagi insoniy kommunikativ faoliyat turidir. Unda til birliklari ko'plab ekstralingvistik omillar bilan integratsiyalashgan holda yagona kommunikativ maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Boshqa bir manbada qayd etilishicha, “diskurs” termini lotincha “discursus” — “muhokama”, “mulohaza yuritish” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u hissiy yoki intuitiv idrokka emas, balki mantiqiy asoslangan mulohaza orqali hosil qilinadigan bilimga ishora qiladi. Mazkur talqinda diskursning “muhokama qilish”, “suhbat olib borish” mazmunlari asosiy semantik komponent sifatida namoyon bo'ladi.

Reklama diskursi matn, tasvir, audio va vizual elementlar orqali auditoriya ongiga ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan murakkab kommunikativ jarayondir. Unda tilning denotativ emas, balki konnotativ qatlami yetakchi o'rinni egallaydi. Lingvokulturologiya esa madaniy kodlar, milliy mentalitet va til birligining o'zaro aloqalarini o'rganadi. Reklama matnida quyidagi lingvokulturologik elementlar muhim ahamiyat kasb etadi va bu omillar reklama matnining kommunikativ samaradorligini belgilaydi. Ular milliy qadriyatlar (family, tradition, hospitality); madaniy konseptlar (comfort, beauty, honour, rizq, baraka); mental obrazlar (home, mother, tabiat, zamonaviylik) va stereotiplar (dynamic West vs. traditional East).

“Reklama tili” bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda mualliflar reklamani tijorat va notijorat turlariga ajratadilar. Tijorat reklamasining o'zi esa imidj, sanoat va iste'molchi yo'nalishlariga bo'linadi. Zamonaviy rus tili madaniyatida “reklama” atamasi sinkretik xarakter kasb etib, bir vaqtning o'zida mahsulot hamda faoliyat ma'nolarini birlashtiradi. Ushbu atama quyidagi mazmunlarni qamrab oladi:

- aloqa vositalarida beriladigan e'lon matni (joriy reklama);
- mustaqil reklama janri yoki subjanri (masalan, televideniye reklamasi, siyosiy reklama);
- reklama bilan bog'liq faoliyat jarayoni (reklama qilish).

Reklama hodisasining janrga xos jihatlari uni uzatish usullari hamda reklama matnining yaratilish maqsadida namoyon bo'ladi. Reklama kommunikatsiyasiga singdirilgan matn reklama terminining eng umumiy mazmunini — reklama

diskursini — ajratib ko'rsatish uchun nazariy asos sifatida xizmat qiladi.

A.A. Kibrikning ta'kidlashicha, matn tushunchasi nutqdan ko'lam jihatidan kengroqdir. Uning fikriga ko'ra, diskurs — bu bir vaqtning o'zida nutq jarayoni hamda lingvistik faoliyatning natijasi sifatida yuzaga keladigan matndir. Bilish jarayoni tizimli bo'lib, u bilimlarning yaxlitligi hamda ularning til orqali ifodalanishi bilan uzviy bog'liqdir. Diskurs dinamik jarayon bo'lib, predikativ voqelikning til yordamida bevosita ifodalanishiga imkon yaratadi.

Media matnlari nutqiy jarayonning aniq ifodasidir; ular har doim dinamik, zamonaviy bo'lib, kommunikativ kontekstda ishtirokchilar tomonidan sodir bo'layotgan hodisalarga mos ravishda idrok etiladi. Reklama matni o'ziga xos funksional-pragmatik xususiyatlarga ega. Ko'pchilik reklama matnlarida yozma qatlam bilan birga og'zaki yoki audiovizual unsurlar ham mavjud bo'ladi. Bu unsurlar turlicha shakllanishi mumkin hamda qat'iy strukturalarga ega bo'lmasligi bilan ajralib turadi. Natijada iste'molchi reklama mazmunini yozma va og'zaki elementlarning uyg'unlashgan yaxlit shakli sifatida qabul qiladi.

Reklama matni reklama mazmunining asosiy g'oyaviy-mazmuniy qismini ochib beruvchi komponent hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi taqdim etilayotgan mahsulotning vizual yoki verbal tasviri orqali e'tiborni jalb qilish, potensial xaridorda qiziqish uyg'otish hamda uni xarid qilishga undovchi ishonch hosil qilishdan iboratdir.

Reklama matnining strukturasida sarlavha, asosiy matn va shior markaziy elementlar sifatida maydonga chiqadi. Shuningdek, subtitrlar, ramkalar, shtamplar, logotiplar, firma belgisi yoki avtograf (muallif imzosi) kabi qo'shimcha vositalar ham qo'llanadi. Reklama diskursining asosiy semantik yukini aynan sarlavha tashkil qiladi. Asosiy matn monologik yoki dialogik shaklda bo'lishi, hikoya, tasvir yoki maxsus kompozitsion usullar (tryuklar) asosida qurilishi mumkin. Masalan: “Siz yanada ko'prog'iga loyiqsiz” (L'Oréal Paris shampuni).

Ushbu reklama misolida diskursiv jarayonni tahlil qilar ekanmiz, tasvirda mashhur yevropalik model mahsulotdan foydalanish natijasida sochlarining jozibador va sog'lom ko'rinishiga urg'u beradi. Reklama oxirida berilgan “Siz yanada ko'prog'iga loyiqsiz” shiori yordamida reklama muallifi mahsulotning yuqori narxini oqlovchi presuppozitsiyani shakllantiradi. Ya'ni, “har qanday ayol, mahsulot qimmat bo'lishidan qat'i nazar, go'zallikka erishishga loyiq” degan g'oya ilgari suriladi. Reklama diskursining asosiy kommunikativ vazifasi ham aynan shundan iborat — iste'molchiga

mahsulot haqidagi asosiy mazmunni eng ta'sirchan va ixcham shaklda yetkazish.

Reklama diskursi tuzilishi jihatidan odatda uch qismdan iborat: kirish, asosiy qism va xulosa. Kirish qismi iste'molchini mavzu bilan tanishtirishga xizmat qiladi. Agar reklama qaratilgan muammo yoki ehtiyoj iste'molchiga yaxshi tanish bo'lmasa, ushbu qism alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, dori vositalari, suvni tozalash tizimlari yoki moliyaviy maslahat xizmatlariga oid reklamalarda kirish qismi asosiy ehtiyoj yoki muammoni aniqlab beruvchi dastlabki signal vazifasini bajaradi. Agar reklama kompaniyaning o'zini targ'ib qilishga qaratilgan bo'lsa, unda kirish qismi ortiqcha cho'zilmasligi kerak. Bunda kompaniyaning bozordagi mavqei, faoliyat davomiyligi, erishgan yutuqlari va ijtimoiy ishonch ko'rsatkichlari aniq va lo'nda ifodalanadi. Asosiy qism tijorat taklifining mazmunini ochib beruvchi markaziy bo'lim bo'lib, unda mahsulot yoki xizmatning asosiy funksional va emotsional afzalliklari bayon qilinadi. Ma'lumki, reklama matni o'z-o'zidan iste'molchining e'tiborini ushlab tura olmaydi. Shu sababli asosiy qismda taklif qilinayotgan mahsulotning zarurligi, undan olinadigan foyda, samaradorlik darajasi mantiqiy dalillar, misollar va ishonch uyg'otuvchi faktlar asosida isbotlanishi lozim. Xulosa qismi esa iste'molchining qaror qabul qilish jarayonini rag'batlantiradi va reklamaning kommunikativ niyatini yakuniy tarzda mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, reklama diskursi zamonaviy kommunikatsiyaning muhim ko'rinishlaridan biri sifatida nafaqat iqtisodiy jarayonlarni, balki jamiyatning madaniy, ijtimoiy va lingvistik xususiyatlarini ham o'zida mujassamlashtiradi. Ingliz va o'zbek reklama matnlarining tahlili ularning umumiy strukturaviy tamoyillariga qaramay, semantik va pragmatik jihatdan sezilarli farqlarga ega ekanini ko'rsatadi. Ingliz reklamalari individualizm, erkin tanlov, qulaylik va zamonaviylik konseptlarini ilgari sursa, o'zbek reklamalari milliy qadriyatlar, oilaparastlik, baraka, ishonch va ijtimoiy birlik kabi madaniy kodlarga tayanadi.

Bu esa har ikki madaniyatning reklama orqali auditoriyaga murojaat qilish, ularni ishontirish va xaridga undash strategiyalari turlicha ekanini tasdiqlaydi. Reklama diskursida lingvokulturologik omillar — milliy mentalitet, stereotiplar, madaniy ramzlar va obrazlar — matnning umumiy mazmunini shakllantiruvchi asosiy komponentlar sifatida namoyon bo'ladi.

Demak, reklama diskursini lingvokulturologik nuqtayi nazardan o'rganish til va madaniyatning o'zaro aloqalarini aniqlash, milliy madaniy belgilarning lingvistik tasvirini tahlil qilish hamda global axborot maydonida milliy identitetning aks etish mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu bois reklama matnlarini tadqiq etish zamonaviy lingvistika, marketing, psixologiya va madaniyatshunoslik sohalarida dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/lingvopragmaticheskiy-analiz-sluzhebnyh-slov-uzbekskogo-yazyka>
2. Ablakulova O. U. B. Q. Diskurs tushunchasi va uning tadqiqi //Academic research in educational sciences. 2021. – T. 2. – №.11. – C. 1167-1172.
3. Rajapova, M. (2021). Principles of cognitive metaphor and allegory in discourse. *Scienceweb academic papers collection*.
4. Rajapova, M. (2023). Study of discourse and specific characteristics of allegory. *Наука и технология в современном мире*, 2(17), 53-55.
5. Yuldasheva, D. A. (2017). Innovative methods of teaching English to young children. *Molodoy uchenyy*, (4.2), 138-2.
6. Yuldasheva, D. (2023). SUBYEKTNING BADIY DISKURSDAGI FUNKSIYASI. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(8), 95-98.
7. Yuldasheva, D. (2023). INGLIZ TILIDA SUBYEKT KATEGORIYASI KONSEPTUAL VOQEALANISHINING FUNKSIONAL TABIATI. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(8), 91-94.
8. Karimova, V. V., & Yuldasheva, D. A. (2016). The Responsibility of a Teacher for Increasing the Probability of Advancing Student Achievement. *Molodoy uchenyy*, 3-1.
9. Aliyevna, Y. D. (2023). Translational problems of adjectives from English into Uzbek.

**Shaxnoza XUSHMANOVA,**  
Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti  
Xorijiy tillar kafedrası katta o'qituvchisi  
e-mail: [et4831425@gmail.com](mailto:et4831425@gmail.com)

## INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARIDA "SALOM" KONSEPTINI VOQELANTIRUVCHI LEKSIK BIRLIKLARNI FREYM MODELASHTIRISH

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ingliz, o'zbek va rus tillarida "Salom" konseptini voqelantiruvchi leksik birliklarning freym modellashirilishi tahlil qilinadi. Freym nazariyasi asosida turli tillardagi salomlashish atamaları, ularning nutqdagi funksiyasi va madaniy kontekstlari solishtiriladi. Maqola freym modellar yordamida leksik birliklarning semantik va pragmatik jihatlarini ochib beradi hamda tillararo farqlar va o'xshashliklarni ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** *freym modellashirish, leksik birliklar, salomlashish, ingliz tili, o'zbek tili, rus tili.*

**Аннотация:** в статье анализируется фреймовое моделирование лексических единиц, реализующих концепт «Приветствие» в английском, узбекском и русском языках. На основе теории фреймов рассматриваются различные выражения приветствия, их функции в речи и культурные контексты. Статья показывает семантические и прагматические особенности лексических единиц с помощью фрейм-моделей, а также выявляет сходства и различия между языками.

**Ключевые слова:** *фреймовое моделирование, лексические единицы, приветствие, английский язык, узбекский язык, русский язык.*

**Annotation:** this article examines frame modeling of lexical units representing the concept of "Greeting" in English, Uzbek, and Russian languages. Based on frame theory, different greeting expressions, their speech functions, and cultural contexts are compared. The study reveals semantic and pragmatic aspects of lexical units through frame models and highlights similarities and differences across languages.

**Key words:** *frame modeling, lexical units, greeting, English language, Uzbek language, Russian language.*

Kirish. Tilshunoslikda konseptlar va ularni ifodalovchi leksik birliklarni o'rganishda freym nazariyasi muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, kommunikativ-barkamol til birliklarini modellashda freym modellar tilning ma'no tizimini yanada aniqroq tushunishga yordam beradi [1:45]. "Salom" konsepti esa tilga xos madaniy va semantik jihatlarni o'zida mujassamlashtirgan asosiy salomlashish tizimi bo'lib, har uchala tilda alohida shakllar va qo'llanilish kontekstlariga ega.

Masalan, til birligi sifatida "Hello" faqat oddiy salomlashishni emas, balki e'tibor jalb qilish, savol boshlash yoki gapni boshlashning ramzi sifatida ham ishlatiladi. O'zbek tilidagi "Assalomu alaykum" salomi diniy ildizlarga ega bo'lib, uni eshitgan odam javoban "Va alaykum assalom" deydi. Rus tilidagi "Здравствуй" esa rasmiy salomlashish shakli bo'lib, uning so'zma-so'z tarjimai "Qalay/tinchlikda bo'ling" ma'nosini anglatadi [9:142]. Salomlashish leksik birliklarining turli tillardagi o'ziga xosliklarini freym modellashirish orqali qanday aniqlash mumkinligi tilshunoslik va madaniyatlarni o'rganishda yangi qirralarni ochadi.

### Freym modellashirish nazariyasi va uning metodologiyasi

Freym nazariyasi 1980-yillarda Ch. Fillmore tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, leksik ma'noni

uning kontekstual va situativ ramkalari — freymdari doirasida tushunishga urinishdir [2:20]. Freym ma'lum voqea yoki holatga oid bilimlar tizimidan iborat bo'lib, u kiritilgan konseptual strukturani tashkil qiladi.

### Freym modellashirishning metodologiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Freym komponentlarini aniqlash: Gapiruvchi, tinglovchi, kontekst, vaqt va boshqa kommunikativ elementlar.

2. Leksik birliklarni freym ichida joylashtirish: Masalan, "Hello" freymda nutq boshlash akti sifatida ko'riladi.

3. Madaniy va ijtimoiy qirralar: Rasmiy yoki norasmiy bo'lishi, diniy yoki laqabko'rish kabi xususiyatlar.

Misol tariqasida ingliz tilidagi "Good morning" freymida vaqt parametri (ertalab) eng muhim bo'ladi, ammo "Hi" freymida asosan ijtimoiy daraja aks etadi (do'stlar orasida). Freym modellar jazmiy ma'noni tushunishga yordam beradi, shuningdek tillararo farqlarni aniqlashda qo'l keladi.

### "Salom" konsepti va uning leksik ifodalari

"Salom" konsepti har bir tilda madaniy an'ana va kommunikatsiyaning o'ziga xosligi bilan aks etadi. Ingliz tilida "Hello", "Hi", "Good morning" kabi turli darajadagi salomlashish shakllari mavjud [3:115]. O'zbek tilida esa "Salom", "Assalomu alaykum", "Xayrli kun" kabi so'zlar keng qo'llaniladi [4:78]. Rus

tilida “Привет”, “Здравствуйте”, “Добрый день” kabi leksik birliklar “salomlashish” konsepsiyasini ifodalaydi [5:138].

#### **Ingliz tili leksik birliklarining freym modeli**

Ingliz tilidagi salomlashish birliklari freym modellashtirilganda, uch asosiy parametr ajratilishi mumkin: ijtimoiy daraja, rasmiylik darajasi va vaqt oralig'i (ertalab, kun, kechqurun) [6:93]. Misol uchun, “Hello” keng tarqalgan norasmiy salom bo'lsa, “Good morning” rasmiy va ma'lum vaqtda ishlatiladi. Bu leksik birliklar freymda quyidagicha joylashadi:

- Aktor (gapiruvchi)
- Idoratchi (qabul qiluvchi)
- Voqea vaqti
- Aloqa mazmuni (salomlashish)

#### **O'zbek tili leksik birliklarining freym modeli**

O'zbek tilida “Salom” va “Assalomu alaykum” turli madaniy burchaklarni ifodalaydi. “Assalomu alaykum” diniy va rasmiy tusga ega bo'lib, ko'pincha hurmat ramzi sifatida ishlatiladi [7:54]. Ushbu birliklar freymda ijtimoiy munosabat, rasmiylik darajasi va kontekstga qarab joylashtiriladi. Misol uchun:

- Gapiruvchi (inson)
- Tinglovchi (inson)
- Voqea joyi va vaqti
- Madaniy kontekst (diniy, rasmiy yoki oddiy salom)

Bu freym modellashtirish madaniyatga bog'liq tilda kommunikatsiya xususiyatlarini aniqroq tushunishga yordam beradi.

#### **Rus tilidagi “Привет” va “Здравствуйте” freymlari**

Rus tilidagi salomlashish sistemasi norasmiy va rasmiy qatlamlarga bo'linadi. “Привет” ko'proq yoshlar yoki do'stlar orasida ishlatilsa, “Здравствуйте” rasmiy holatlar uchun ajratilgan [8:67]. Bu leksik birliklarning freym modeli ijtimoiy daraja, rasmiylik, vaqt va kontekst parametrlarini o'z ichiga oladi.

- Gapiruvchi
- Tinglovchi
- Vaqt
- Ijtimoiy qatlam

Rus madaniyatida rasmiylik yuqori darajada e'tiborga olinadi, shuning uchun salomlashish shakli

ham rasmiy yoki norasmiy sifatida aniq ajratiladi. Bu jihat freym modellashtirishda tilning madaniy qirrasini aks ettiradi [8:67].

#### **Taqqoslash va tahliliy xulosalar**

Uch tilda “Salom” konsepti freym modellashtirish yordamida tahlil qilganda quyidagi farqlar va o'xshashliklar mavjudligi aniqlanadi.

**O'xshashliklar.** Ijtimoiy darajaning ahamiyati: har uchala tilda rasmiy va norasmiy salomlashish tarzlari mavjud.

Vaqtga bog'liq salomlar: Ingliz va rus tillarida “Good morning”, “Добрый день” kabi vaqtga bog'liq salomlashish shakllari bor.

Madaniy kontekst: salomlashish doimo madaniyat va ijtimoiy me'yorlarga bog'liq.

**Farqlar:** o'zbek tilida diniy salomlashish (“Assalomu alaykum”) ko'proq ishlatiladi va madaniy ahamiyati yetakchi.

Rus tilida rasmiy va norasmiy salomlashish shakllari ancha qat'iy ajratiladi.

Ingliz tilida esa salomlashish shakllari ijtimoiy kontekstga qarab kengroq variantlarga ega (Hello, Hi, Hey va boshqalar).

Misol sifatida, O'zbekistondagi rasmiy uchrashuvda “Assalomu alaykum” ishlatilsa, rus tilida ekvivalent “Здравствуйте” va ingliz tilida “Good morning” xizmat qiladi. Norasmiy muhitda “Salom”, “Привет” va “Hi” so'zlari ishlatiladi [9:142].

Bu tahlil freym nazariyasining tillar aro semantik va pragmatik idrokda imkoniyatlarini ochib beradi.

**Xulosa.** Freym modellashtirish yordamida ingliz, o'zbek va rus tillaridagi “Salom” konsepti chuqurroq o'rganildi. Maqola natijalariga ko'ra, leksik birliklarning semantik va pragmatik xususiyatlari ularning madaniy-ijtimoiy kontekstlari bilan yaqin bog'liq. Diniy va madaniy an'analar “salom” leksik birliklariga ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, tillararo farqlarni aniqlashda freym modellar samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Kelgusida boshqa nutq aktlari (suhbatni boshlash, xushmuomala salomlashish) va ularning freym modellaridagi joyini o'rganish taklif qilinadi. Shu bilan birga, freym nazariyasi tilshunoslikda tillararo tadqiqotlar uchun mustahkam instrument bo'lib qoladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Fillmore, C. J. (1985). Frame Semantics. In Linguistics in the Morning Calm. Hanshin Publishing.
- 2.Fillmore, C. J. (1982). Frame Semantics. Berkeley Linguistics Society Proceedings.
- 3.Yule, G. (2010). The Study of Language. Cambridge University Press.
- 4.Salimova, G. O'zbek tili pragmatikasi. Fan, 2016.
5. Ivana, G. Russkaya grammatika i leksika. Nauka, 2014.
- 6.Levinson, S. C. (1983). Pragmatics. Cambridge University Press.
- 7.Mamatqulova D. O'zbek tilida ijtimoiy nutqning xususiyatlari. 2018.
- 8.Lukin, V. P. Russkaya frazeologiya va kommunikatsiya. 2015
- 9.Karimov, S. Tillararo kommunikatsiya nazariyasi. 2020.

Shaxnoza GAFAROVA,  
 Innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodika kafedrası  
 Ingliz tili kafedrası

## RANG NOMLARINING INGLIZ, O'ZBEK VA TOJIK TILLARIDA SEMANTIK-KULTUROLOGIK FUNKSIYALARI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ingliz, o'zbek va tojik tillarida rang nomlarining semantik-kulturologik xususiyatlari, ularning milliy mentalitet va madaniy qadriyatlar bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Ranglar har bir til va madaniyatda nafaqat ranglarni ifodalovchi leksik birlik, balki ramziy ma'no, emotsional ta'sir va ijtimoiy-madaniy kodlarni o'zida mujassamlashtirgan birlik sifatida namoyon bo'ladi. Ingliz tilida ranglar ko'proq psixologik-emotsional holatlar bilan bog'langan bo'lsa, o'zbek va tojik tillarida ranglar an'ana, marosim, diniy qarashlar va tarixiy xotiraning muhim elementiga aylangan. Qiyosiy tahlil uch tilning rang talqinidagi umumiylik va farqlarni ochib beradi hamda ranglar orqali milliy tafakkur va madaniy identitetning shakllanishini yoritadi.

**Kalit so'zlar:** *rang nomlari, lingvomadaniyat, semantika, madaniy ramz, ingliz tili, o'zbek tili, tojik tili, etnokonnnotatsiya, rang ramziyligi*

**Annotation:** this article analyzes the semantic and cultural features of color names in English, Uzbek, and Tajik, as well as their connection with national mentality and cultural values. In each language and culture, colors are manifested not only as a lexical unit representing colors, but also as a unit embodying symbolic meaning, emotional impact, and socio-cultural codes. In the English language, colors are more associated with psychological and emotional states, while in the Uzbek and Tajik languages, colors have become an important element of tradition, ritual, religious views, and historical memory. Comparative analysis reveals the commonalities and differences in the color interpretation of the three languages and illuminates the formation of national thinking and cultural identity through colors.

**Key words:** *color names, linguoculture, semantics, cultural symbolism, English, Uzbek, Tajik, ethnoconnotation, color symbolism.*

**Аннотация:** в данной статье анализируются семантико-культурологические особенности названий цветов в английском, узбекском и таджикском языках, их связь с национальным менталитетом и культурными ценностями. Цвета проявляются в каждом языке и культуре не только как лексическая единица, представляющая цвета, но и как единица, воплощающая символическое значение, эмоциональное воздействие и социокультурные коды. Если в английском языке цвета больше связаны с психологическими и эмоциональными состояниями, то в узбекском и таджикском языках цвета стали важным элементом традиций, обрядов, религиозных верований и исторической памяти. Сравнительный анализ выявляет общие черты и различия в цветовой интерпретации трех языков и освещает формирование национального мышления и культурной идентичности через цвета.

**Ключевые слова:** *названия цветов, лингвокультура, семантика, культурный символ, английский язык, узбекский язык, таджикский язык, этноконнотация, цветовая символика*

**Kirish.** Rang nomlari har bir tilning lug'aviy boyligi tarkibida muhim o'rin egallaydi, chunki ranglar nafaqat tashqi olamni tasvirlash vositasi, balki xalqning madaniy xotirasi, diniy qarashlari, folklor an'analari va dunyoqarashining asosiy belgilaridan biridir. Ingliz, o'zbek va tojik xalqlari o'z tarixiy taraqqiyoti davomida ranglarga turlicha ramziy ma'no yuklagan bo'lib, bu jarayon rang nomlarining semantik tuzilishida ham, ularning madaniy tizimdagi funksiyalarida ham aks etadi. Ingliz tilida ranglar ko'pincha psixologik holat, kayfiyat, individual xususiyatlar, zamonaviy madaniyat va san'at bilan bog'liq tarzda talqin qilinadi.

O'zbek va tojik tillarida esa ranglar asosan an'anaviy dunyoqarash, xalq og'zaki ijodi, marosimlar, milliy kiyimlar, diniy qarashlar va tarixiy timsollar bilan chambarchas bog'liq. Zamonaviy madaniyatlararo muloqot sharoitida rang nomlarining lingvomadaniy

xususiyatlarini o'rganish alohida ahamiyatga ega, chunki ranglar odamning idrokiga, psixologik holatiga va ijtimoiy muloqotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli uch til tizimida ranglarning qanday talqin qilinishi, qanday qo'shimcha ma'no kasb etishi va qaysi madaniy kodlarni ifodalashi lingvokulturologik tadqiqot uchun dolzarb mavzu hisoblanadi. Uch til tizimida ranglarning semantik-kulturologik talqini ko'p qatlamli bo'lib, ular nafaqat lingvistik birlik sifatida, balki etnomadaniy fenomen sifatida ham namoyon bo'ladi. Ranglarning ma'no tuzilishi xalqning tabiiy sharoiti, e'tiqodlari, tarixiy tajribasi va hatto iqtisodiy faoliyati bilan bevosita bog'liq.

Ingliz tilidagi rang nomlarining semantik-kulturologik talqini ko'proq psixologik-emotsional ma'nolar bilan bog'liq. Masalan, blue rangi ingliz madaniyatida qayg'u yoki tushkunlik holatini anglatadi, bu holat blues musiqa yo'nalishida ham aks etgan. Red rangi esa energiya,

ehtiros, kuch yoki xavf timsoli bo'lib, reklama, brending va kundalik muloqotda faol qo'llanadi. White rangi esa ingliz madaniyatida poklik, begunohlik va rasmiylik ramzi sanaladi. Bu rang ko'pincha to'y marosimlarida, rasmiy liboslar va diniy makonlarda uchraydi. O'zbek tilida ranglar tarixiy, diniy va an'anaviy madaniyat bilan uzviy bog'langan bo'lib, ular ko'pincha ramziy ma'no kasb etadi. Masalan, oq rang poklik, ezgulik, halollik, baraka ramzi sifatida e'zozlanadi. Oq yo'l tilagi, oq fотиha kabi birikmalar bu rangning madaniy ongдagi o'rnini ko'rsatadi. Qizil rang qadimdan qudrat, hayot, shijoat timsoli bo'lib kelgan, xalqona iboralar, to'y liboslari va bezaklarda keng uchraydi. Ko'k rang esa osmon, musaffolik, tinchlik va ruhiy yuksaklik ramzi bo'lib, milliy naqshlar va diniy tasavvufda muhim o'rin egallaydi.

Tojik tilida ranglar ramziyligi o'zbek madaniyatiga juda yaqin bo'lib, ular ko'pincha zardushtiylik, islomiy an'analar va tojik xalqining tarixiy dunyoqarashida shakllangan. Oq rang nur, poklik va yaxshilik timsoli. Surx yoki qirmiz rang esa hayotiy quvvat, baxt-saodat va marosimiy bezaklarning muhim elementi hisoblanadi. Sabz rang tojik madaniyatida yangilanish, bahor, hosildorlik va baxt ramzi bo'lib, ko'pincha xalq qo'shiqlari va adabiyotda uchraydi. Uch tilning rang talqinida ayrim farqlar mavjud bo'lsa-da, umumiyliklar ham talaygina. Masalan, oq rang uchala madaniyatda ham musaffolik va poklik bilan bog'liq. Qizil rang hayotiy kuch va ehtiros ramzi sifatida umumiylikka ega, biroq ingliz madaniyatida xavf va signal funksiyasi kuchliroq. Ko'k yoki blue rangi esa ingliz tilida qayg'u bilan, o'zbek va tojik tillarida esa musaffolik, osmon va tinchlik bilan bog'lanadi. Uch tillarda ranglar ko'pincha frazeologizmlar tarkibida ham muhim semantik yukni tashiydi. Masalan, ingliz tilidagi green with envy iborasi rashkni bildirsa, o'zbek tilidagi qora kun iborasi musibat yoki og'ir holatni anglatadi. Tojik tilida siyohbakht iborasi baxtsiz odamni ifodalaydi. Bu misollar ranglarning lingvistik birlik sifatida emas, balki madaniy semantikaning muhim qatlami sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Zamonaviy global madaniyat ranglar talqiniga yangi ma'nolar olib kirmoqda. Masalan, marketing, dizayn va moda sohalarida ranglarning psixologik ta'siri har uchala tilda ham faol qo'llanmoqda. Bu jarayon ranglarning nafaqat an'anaviy, balki modern talqinini ham shakllantirib, rang nomlarini madaniy belgi sifatida

yanada boyitmoqda. Ranglarning lingvomadaniy tizimda tutgan o'rne, avvalo, ularning konseptual maydonini shakllantiruvchi omillar bilan belgilanadi. Ingliz, o'zbek va tojik tillarida ranglar insonning kognitiv idroki orqali shakllangan bo'lsa-da, ularning ma'no qatlamlari madaniy tajriba, e'tiqodlar va ijtimoiy qadriyatlar asosida farqlanadi. Ranglarning konseptual tuzilishini tahlil qilish, ayniqsa, ularning metaforik modellarini o'rganish orqali tilning ichki dunyosini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Misol uchun, ingliz tilida brightness va darkness tushunchalari qadimdan yaxshilik va yomonlik, nur va zulmat qarama-qarshiliklarini ifodalagan bo'lsa, tojik va o'zbek madaniyatlarida nur tushunchasi ruhiy poklik, ilohiy qudrat, baraka bilan bog'langan. Shuning uchun ham oq rang uchala til tizimida ijobiy semantik maydonga ega, lekin har bir tilning o'ziga xos ohangida namoyon bo'ladi.

Ingliz tilida white purity, innocence, new beginning kabi ma'nolarni anglatadi. Bu G'arb madaniyatida to'y libosining oq rangda bo'lishi bilan ham uyg'unlashadi. O'zbek va tojik tillarida oq rang ezgulik, halollik, totuvlik timsoli bo'lib, oq yo'l tilagi, oq suyak iboralar ijtimoий qadriyatlarning aksidir. Oq rangga nisbatan bunday ilqlikning sabablaridan biri — tarixan oqlikning nur, musaffolik va halollik bilan bog'lanib kelganidir. Bu uch madaniyatda oq rangning ijobiy ko'rinishda bo'lishiga qaramay, ingliz tilidagi white lie kabi iboralar semantik differentsiatsiyaning mavjudligini ko'rsatadi, o'zbek va tojik tillarida esa oq ranga bunday ikki qutbli semantika xos emas.

#### **Xulosa.**

Ingliz, o'zbek va tojik tillarida rang nomlarining semantik-kulturologik xususiyatlari bir-biridan farq qilsa-da, ularni bog'lab turuvchi umumiy jihatlar ham mavjud. Ranglar uchala madaniyatda ham nafaqat tasvir vositasi, balki tarixiy xotira, ramziy ma'no va milliy mentalitetni ifodalovchi lingvomadaniy birlik vazifasini bajaradi. Ingliz tilida ranglarning psixologik-emotsional talqini kuchliroq bo'lsa, o'zbek va tojik tillarida ranglar tarixiy an'ana, marosimiy madaniyat va diniy qarashlar bilan chambarchas bog'langan. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ranglar madaniyatlararo muloqotda ham muhim rol o'ynaydi va xalqning dunyoqarashini aks ettiruvchi universal hamda milliy xususiyatlarga ega ramziy birlik sifatida namoyon bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Azimov, S. Til va madaniyat: ranglarning semantik xususiyati. – Toshkent, 2017. 34-52-b.
2. Karimova, L. O'zbek tili frazeologizmlari va rang ma'nolari. – Toshkent, 2019. 18-41-b.
3. Raxmonov, M. Ranglar va ularning madaniy talqini. – Samarqand, 2018. 22-47-b.
4. To'xtayev, N. Til va madaniyat: lingvistik tahlil. – Toshkent, 2020. 55-78-b.
5. Jalilov, F. Markaziy Osiyo xalqlarida rang ramzlari. – Buxoro, 2016. 40-63-b.
6. Islomova, N. O'zbek madaniyati va ranglarning funksiyalari. – Toshkent, 2021. 15-42-b.
7. Sultonov, B. Tilshunoslik va madaniyatshunoslik: ranglar konteksti. – Toshkent, 2015. 27-50-b.

Kamshat BAYMENOVA,  
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti  
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası assistenti

## KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN PISA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTI

**Annotatsiya:** mazkur maqolada PISA xalqaro baholash tadqiqotining ta'lim sifati uchun ahamiyati borasida so'z yuritiladi. Xususan, PISA tadqiqoti o'quv jarayoniga zamonaviy usullarni olib kirish, ta'lim oluvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilganligi haqida atroflicha tatbiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** PISA, baholash, xalqaro tadqiqot, bilim, ko'nikma, og'zaki nutq, yozma nutq, o'qish savodxonligi, matn

**Аннотация:** в данной статье рассматривается важность международного оценочного исследования PISA для качества образования. В частности, исследования PISA комплексно применяются для внедрения современных методов в учебный процесс и ориентации на формирование компетенций у учащихся.

**Ключевые слова:** PISA, оценка, международные исследования, знания, навыки, разговорная речь, письмо, грамотность чтения, текст.

**Annotation:** this article discusses the importance of the PISA international assessment study for the quality of education. In particular, the PISA study was thoroughly applied to introduce modern methods into the educational process, to form competencies in students.

**Key words:** PISA, assessment, international research, knowledge, skills, speaking, writing, reading literacy, text

Rivojlanish sari olg'a borayotgan bugungi kunda davr davlat jamiyat oldiga bir qancha zamonaviy talablarni qo'yimoqda. Ayni damda olamshumul strategik maqsadlarga erishish, yangi marralarni zabt etish, rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olish uchun mamlakatda bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar, mutaxassislarning o'рни alohida.

Dunyoning rivojlangan davlatlari amaliyotida yosh avlod tafakkurini, intellektini rivojlantirish o'z-o'zidan mavjud pedagogik shart-sharoitlar, metod va usullar bilan emas, balki yangi innovatsion g'oyalar, shuningdek, ta'limning rivojlanish bosqichidagi eng so'nggi yutuqlar orqali amalga oshirilmoqda. O'quvchilar tafakkurini rivojlantirish, intellektini boyitish jahonning yetakchi davlatlarida turlicha amalga oshiriladi.

Mamlakatimiz yangi innovatsiyalar, raqamli iqtisodiyot taraqqiyoti yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan ushbu davrda O'zbekiston kelajagi bo'lgan yoshlarning intellektual

salohiyati va fikrlash qobiliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini davlat ta'lim standari asosida shakllantirish hamda xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" doirasida O'zbekistonda ta'lim sifati monitoringini yangicha xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash tizimi shakllantirilmoqda. Xalqaro baholash dasturlari deganda PISA,

<sup>1</sup> Ta'lim sifati baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi. O'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi haqida qo'llanma. – T., 2019.

PIRLS, TIMSS kabi dasturlar tushuniladi<sup>2</sup>. Shu bois ta'lim sifatini baholash bo'yicha PISA, PIRLS, TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlarda munosib ishtirok etish mamlakatimiz xalq ta'limi tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Mana shu dasturlar orasida PISA tadqiqoti o'quv jarayoniga zamonaviy usullarni olib kirish, ta'lim oluvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. O'zbekiston hukumatining 2018-yil 8-dekabrda qaroriga binoan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi.

PISA tizimi o'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur bo'lib, dasturning asosiy maqsadi – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajalarini turli xil testlar ko'rinishida baholashdan iborat. O'zbekistonda ham yuqorida sanab o'tgan uchta yo'nalish bo'yicha qatnashishi rejalashtirilgan. PISA dasturiga qatnashishdan maqsad yurtimizda testlarni o'tkazish emas, balki farzandlarimizda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish, intellektual kadrlarni tayyorlash uchun zamin hozirlashdir.

Hozirgi kunda milliy innovatsion tizimni rivojlantirish hamda innovatsion potentsialni takomillashtirish mamlakatning iqtisodiy o'sishning eng muhim omillari hisoblanmoqda. Mazkur omillarni tadqiq etish muammolari dunyoning ko'plab davlatlari va xalqaro tashkilotlar uchun dolzarbdir. Shu munosabat bilan innovatsion rivojlanishning darajasini tezkor va ishonchli tahlil qilishga mo'ljallangan baholash tizimi mavjudligi katta ahamiyatga ega.

Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgan islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi etakchilari qatoriga kirish yo'lida tez va sifatli ilgarilashni ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi. Umumta'lim maktablarida PISA tadqiqotini amalga sinash

ham mana shu maqsadga yo'naltirilgan desak aslo mubolag'a emas.

Ayni damda PISA tadqiqoti doirasida quyidagilar tadqiq etiladi:

Yoshlar kelajakda o'zlari duch keladigan qarama-qarshiliklarga qay darajada tayyor?

O'quvchilar ziddiyatlar sabablarini tahlil qilish, izlash va aniqlash hamda o'z g'oyalarini taqdim etishga tayyormi?

O'quvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini real hayotga qay darajada tatbiq etish qobiliyatiga ega?<sup>3</sup>.

PISAning asosiy maqsadi maktabni tugatgandan so'ng o'quvchilar faol hayotiy pozitsiyani egallashlariga imkon beradigan chuqur bilimga egalik darajasini baholashdir. O'quvchilar tayyorgarligini baholash uch yo'nalishda (o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik) bo'yicha amalga oshiriladi. Bularning har biri ma'lum bir o'quv faniga mos keladi. Asosiy e'tibor esa asosiy tushunchalarni anglashiga, yuqorida ko'rsatilgan uch yo'nalish doirasida o'rganilayotgan asosiy usullarni egallashlariga va o'z bilimlarini turli vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatiga qaratiladi.

O'zbekiston ta'lim tizimi ko'p yillar davomida bolalar xotirasini sinashga urg'u berib kelgan, PISA esa buning butunlay teskarisi: olingan bilimning amaliyotda qay darajada qo'llay olishini tekshiradi<sup>4</sup>. Shu bois ham bugungi kunda PISA tadqiqoti asosida baholash, uni tatbiq qilish asosiy muammolardan sanaladi.

Umumta'lim muassasalari o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish, topshiriqlarini bajarish orqali ijobiy, mantiqiy, tanqidiy fikrlash va hayotiy muammolarini hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, PISA tadqiqotiga tayyorgarlik ko'rish muhim omil sanaladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, har bir PISA topshirig'ini o'rganayotgan vaqtda oldin unga oid tayanch bilimlarni faollashtirish, o'quvchilarni bu topshiriqni yechishga tayyorlash lozim bo'ladi. Mutaxassislar tomonidan PISA tadqiqotlarining ochiq topshiriqlarini atroflicha o'rganish, shu

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y.

3 Sh.Sh.Yuldasheva. Ona tili fanidan PISA topshiriqlari. Oquv qo'llanma. – T.: "Innovatsion-Ziyo", 2020, 22-b.

4 Гайбуллаев З. Ўқувчига ёдлашни эмас, фикрлашни ўргатиш керак" – эксперт PISA синовига тайёргарлик ҳақида.

topshiriqlarga o'xshash yoki ularni yechishga yordam beradigan topshiriqlarni ishlab chiqish zarurdir.

O'z davrining buyuk shaxsi Abu Ali ibn Sino ta'lim jarayoni haqida shunday degan: – Har bir kishini uning borlig'i va qobiliyatiga ko'ra o'qitish kerak, aks holda ta'lim-tarbiya ko'zlagan natijani bermaydi. E'tirof etish lozim, allomaning X asrda bildirgan fikrlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Zero, ta'limning o'qituvchidan o'quvchiga bir xil berilishi hamda topshiriqni bajarish kerakligini qayta-qayta ta'kidlanishi o'quvchilarda yaratish, tadqiqotlar o'tkazish, tahlillar asosida xulosalar chiqarish ko'nikmalarini emas, bajaruvchi ko'nikmasini shakllantiradi.

Darhaqiqat, xalqaro baholash o'z ichiga matn tarkibidan alohida olingan so'zning ma'nosini tushuntirishdan tortib, matnning fonetik, leksik, grammatik qurilishini anglash hamda matndan olingan tushunchaning o'zini hayotiy voqea-hodisalar bilan bog'lay olish kabi qator aqliy faoliyat va til kompetensiyalarini qamrab oladi. O'qish savodxonligi orqali o'quvchi tushunish, foydalanish, mulohaza yuritish hamda munosabat bildirish kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi.

O'qish savodxonligi zaruriyatining asoslari quyidagilardan iborat:

- matn orqali o'quvchining tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish ko'nikmalari shakllanadi;
- o'quvchi matn tuzish texnikasini o'rganadi;
- o'quvchi matn lug'ati bilan ishlash jarayonida qanday so'zlardan foydalanish kerakligi, shu o'rinda aynan qanday so'z qo'llansa, o'rinli bo'lishini tushunadi;

- o'quvchi matndan savol berishni o'rganadi, aytilmoqchi bo'lgan asosiy fikrni anglab, uni qisqa va mazmunli jumlada aks ettirish ko'nikmasini shakllantiradi;

- lug'at bilan ishlash jarayonida o'quvchi o'zi uchun yangi bo'lgan so'zlar izohini o'rganadi, uning lug'at boyligi oshadi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro tadqiqotlarga ko'ra o'qish savodxonligi nafaqat ta'lim tizimi uchun, balki boshqa sohalar uchun ham muhim. Chunki shaxs kelajakda qaysi sohani tanlashidan qat'iy nazar o'qish savodxonligi yutuqlarga erishish poydevori bo'ladi. O'quvchining kitob o'qish qobiliyatiga e'tibor qaratish, jumladan, uning ma'lumotni tanlash, tushunish, talqin qilish va baholash xalqaro tadqiqotlarning, xususan, PISA tadqiqotining asosiy maqsadlaridan biridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018.
2. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi. O'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi haqida qo'llanma. – T., 2019.
3. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi veb-sayti [www.markaz.tdi.uz](http://www.markaz.tdi.uz)
4. PISA for development assessment and analytical framework: reading, mathematics and science © OECD 2018
5. Международный координационный центр исследования TIMSS – <http://timss2015.org/>.
6. A.B.Radjiyev, A.A.Ismailov, J.R.Narziyev, X.P.Tog'ayeva, “O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi”, Qo'llanma, 2019-yil
7. Sh.Sh.Yuldasheva. Ona tili fanidan PISA topshiriqlari. O'quv qo'llanma. – T.: “Innovatsion-Ziyo” 2020

Dilobar BAXRIDINOVA,  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim metodikasi katta o'qituvchisi  
[Baxriddinovadilobar@gmail.com](mailto:Baxriddinovadilobar@gmail.com)

## STEAM METODLARI ASOSIDA PEDAGOGIKA YO'NALISHI TALABALARINI KASBIY TAYYORLASHNING ILMIY- PEDAGOGIK ASOSLARI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada pedagogika yo'nalishi talabalari kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda STEAM metodlarining ilmiy-pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Yondashuvning fanlararo integratsiya, ijodiy fikrlash va texnologik savodxonlikni shakllantirishdagi o'rni nazariy jihatdan asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** STEAM, pedagogik kompetensiya, fanlararo integratsiya, dizayn fikrlash, ijodkorlik, raqamli ta'lim, loyiha asosida o'qitish

**Аннотация:** в статье теоретически обоснована роль STEAM-методов в профессиональной подготовке студентов педагогических направлений. Рассмотрены возможности развития междисциплинарной интеграции, творческого мышления и цифровой грамотности в процессе обучения будущих педагогов.

**Ключевые слова:** STEAM, педагогическая компетентность, междисциплинарная интеграция, дизайн-мышление, креативность, цифровое обучение, проектное обучение

**Annotation:** this article analyzes the theoretical foundations of applying STEAM methods in preparing pedagogy students for professional activity. The approach's role in enhancing interdisciplinary integration, creative thinking, digital literacy, and pedagogical design skills is conceptually explained within modern teacher education.

**Keywords:** STEAM, pedagogical competence, interdisciplinary integration, design thinking, creativity, digital education, project-based learning

**Kirish.** XXI asr ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda real muammolarni hal qila oladigan mutaxassislar safini kengaytirish oliy ta'limning ustuvor vazifalaridan biridir. Zamonaviy ishlab chiqarish, ijtimoiy soha va ta'lim jarayoni fanlararo yondashuvga asoslangan kompetensiyalarni talab qilmoqda. Shunday sharoitda an'anaviy o'qitish metodlari talabalarda zamonaviy kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda yetarli emasligi ko'plab tadqiqotlarda ta'kidlangan [1:112]. STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi aynan ta'limning integrativ, amaliy va ijodkorlikka yo'naltirilgan modelini taklif qilgani sababli bugungi kunda global ta'lim tizimining yetakchi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [2: 56]. STEAM metodlari nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtiradi, talabalarni loyiha asosida ishlash, muammoli vaziyatlarga yechim topish va kreativ fikrlashga undaydi [3: 41]. Bu yondashuv pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun

ayniqsa muhim, chunki kelajak o'qituvchisi fanlararo integratsiyani chuqur tushunishi, raqamli texnologiyalar bilan ishlashni bilishi, dars jarayonida ijodiy muhit yaratish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur [4: 87].

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida so'nggi yillarda ta'limni modernizatsiya qilish, raqamlashtirish, o'quv jarayoniga innovatsion metodlarni tatbiq etish bo'yicha qator islohotlar olib borilmoqda. Biroq, amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, pedagogika yo'nalishidagi talabalarda STEAM kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi yetarlicha tizimlashtirilmagan, o'quv dasturlarida integratsiya chuqurligi turlicha, o'qituvchilarning STEAM bo'yicha tayyorgarlik darajasi ham bir xil emas [5: 203]. Shuningdek, laboratoriya jihozlari, loyiha ishlari uchun texnologik bazaning yetishmasligi va talabalarni mustaqil ijodiy faoliyatga jalb etish ko'lamining kamligi mavjud muammolar sirasiga kiradi [6: 59].

Talabalarni kasbiy tayyorlashda STEAM metodlarining samaradorligini ilmiy asoslash, ularni

o'qituvchilik faoliyatiga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish, kompetensiya asosida baholash mezonlarini aniqlash bugungi kunda dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi [7: 118]. Mazkur tadqiqotning ahamiyati shundaki, pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar kelajakda maktab, kollej va oliy ta'lim bosqichlarida STEAM yondashuvini joriy etuvchi mutaxassislar sifatida faoliyat yuritadi. Shu sababli STEAM metodlarining ilmiy-pedagogik mohiyatini, amaliy mexanizmlarini hamda kasbiy kompetensiyalarga ta'sirini chuqur o'rganish zarurdir. Tadqiqot davomida STEAM metodlarining ilmiy asoslari, pedagogik texnologik modeli, talabalarda shakllanadigan kompetensiyalar, ta'lim jarayoniga integratsiya qilish yo'llari, amaliy tajriba natijalari hamda samaradorlik ko'rsatkichlari bosqichma-bosqich tahlil qilinadi. Olingan natijalar oliy ta'lim o'qituvchilari va metodistlar uchun metodik qo'llanma sifatida qo'l keladi [8: 44].

**Metodologiya.** Mazkur tadqiqotda pedagogika yo'nalishidagi talabalarni kasbiy tayyorlash jarayoniga STEAM metodlarini integratsiya qilishning samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot dizayni o'zida nazariy tahlil\*, pedagogik eksperiment, kuzatuv, anketalashtirish, diagnostik testlar, kompetensiyalarni baholash mezonlari, hamda statistik tahlil metodlarini qamrab oldi. Ushbu metodlar majmuasi tadqiqotning ishonchliligi va natijalarning obyektivligini ta'minlashga xizmat qildi [1: 214].

#### 1.1. Tadqiqot ishtirokchilari

Tadqiqotda O'zbekistonning uchta oliy ta'lim muassasasidan tanlab olingan 2–4-bosqichda tahsil olayotgan jami 120 nafar pedagogika yo'nalishi talabasi ishtirok etdi. Ular ixtiyoriy ravishda tadqiqotga jalb qilindi va maxfiylik tamoyillariga rioya qilindi. Tanlov uchun talabalar bilim darajasi, raqamli ko'nikmalari hamda STEAM haqida boshlang'ich tasavvurga egaligi e'tiborga olindi [2: 95].

Talabalar ikki guruhga ajratildi:

Eksperimental guruh (60 nafar) – STEAM metodlari asosida o'qitildi.

Nazorat guruhi (60 nafar)– an'anaviy o'qitish metodlari asosida ta'lim oldi.

Bu taqsimot talabalarda metodlar farqining kasbiy kompetensiyalar shakllanishiga ta'sirini taqqoslash imkonini berdi [3: 76].

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari pedagogika yo'nalishidagi talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga STEAM metodlarining sezilarli ta'sir ko'rsatishini yaqqol namoyon etdi. Eksperimental guruhda o'qitilgan talabalar ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan yuqori bo'ldi. Quyida asosiy natijalar batafsil yoritiladi.

#### 2.1. Tahliliy va mantiqiy fikrlash ko'rsatkichlari

Eksperiment oldidan ikkala guruh natijalari o'rtasida sezilarli farq mavjud emas edi (farq 3–5 % diapazonda). Ammo 14 haftalik ta'limdan so'ng eksperimental guruh talabalari tahliliy fikrlash bo'yicha 8 % o'sish namoyon etdi, nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich atigi 9 % bo'ldi [1: 217].

STEAM metodlarida talabalar muammoli vaziyatlarni mustaqil tahlil qilishga, sabab–oqibatlarini aniqlashga, bir nechta yechim variantlarini ishlab chiqishga odatlanganligi sababli bu kompetensiya tez o'sdi [2: 63].

#### 2.2. Ijodkorlik va kreativ fikrlashning rivojlanishi

Eksperimental guruh talabalari ijodiy fikrlash indeksi bo'yicha 100 ballik tizimda o'rtacha +22 ball o'sishga erishdi. Bu jarayon ayniqsa, dizayn fikrlash, loyiha asosida o'qitish, konstruktorlik mashg'ulotlari va san'at elementlaridan foydalanish orqali ta'minlandi [3: 51]. Nazorat guruhida ijodiy fikrlashdagi o'sish atigi +6 ball ni tashkil etdi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, STEAM metodlarida qo'llaniladigan vizual, konstruktorlik va dizaynerlik faoliyatlari pedagogik o'qituvchilar tayyorlash uchun juda samarali hisoblanadi [4: 92].

**Muhokama.** Tadqiqotda olingan nazariy natijalar STEAM metodlari pedagogika yo'nalishidagi talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonida chuqur transformatsion ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Muhokama davomida ushbu yondashuvning mazkur ta'lim yo'nalishida qo'llanish mexanizmlari, afzalliklari va ilmiy-pedagogik ahamiyati keng qamrovda sharhlanadi.

#### 3.1. STEAM yondashuvining pedagogika ta'limidagi o'rni

Turli ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, pedagogika talabalarining kasbiy shakllanishida faqat nazariy bilimlar emas, balki ularning ta'lim jarayonini loyihalash, axborot bilan ishlash, fanlararo bog'liqlikni ko'ra olish va o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rag'batlantira oladigan metodlar bilan ishlash qobiliyatlari ham muhim ahamiyatga ega [1:

133]. STEAM metodlari aynan mana shu sifatlarni shakllantiradi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, pedagogik ta'limda fanlararo integratsiya ko'p hollarda deklarativ xarakterga ega bo'ladi: ya'ni dars rejasida integratsiya ko'rsatiladi, ammo amalda uyg'unlashuv yetarli bo'lmaydi. STEAM metodlarida esa integratsiya mazmunning o'ziga singdirilgan bo'lib, talaba fizik hodisani matematik model orqali tushuntiradi, texnologiya yordamida uni modellashtiradi va san'at elementlari orqali dizaynlash imkoniyatiga ega bo'ladi [3: 204]. Muhokama natijasida aniqlanishicha, an'anaviy o'qitish jarayonining asosiy kamchiliklaridan biri — talabaning passiv qabul qiluvchi rolida qolishi. STEAM metodlarida esa talaba:

- mashg'ulotning faol ishtirokchisi,
- loyiha ijrochisi,
- muammolarning yechimini izlovchi,
- o'z mahsulotini yaratuvchi ijodkor sifatida

ishtirok etadi [4: 56].

Bu jarayon pedagogik faoliyatga mos yondashuvdir, chunki kelajakdagi o'qituvchi o'quvchilar bilan aynan shunday interaktiv muhit yaratishi lozim.

**Xulosa.** Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, STEAM — bugungi ta'lim talablariga to'liq javob beruvchi, talabalarning intellektual, ijodiy, texnologik va metodik kompetensiyalarini uyg'un ravishda rivojlantiruvchi samarali yondashuvdir. Birinchidan, STEAM metodlari pedagogik ta'limda fanlararo integratsiyani chuqurlashtiradi. Talaba

bir mavzuni bir necha fan kontekstida ko'rish, tushunchalar o'rtasidagi bog'liqliklarni izohlash va turli ilmiy paradigmalardan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu esa kelajakdagi o'qituvchining darsni zamonaviy yondashuv asosida tashkil etish ko'nikmasini mustahkamlaydi Ikkinchidan, STEAM yondashuvi ta'lim jarayonini ijodiy, interfaol va konstruktiv faoliyatga aylantiradi. Loyiha asosida o'qitish, dizayn fikrlash, konstruktorlik mashg'ulotlari va ijodiy topshiriqlar pedagogika yo'nalishidagi talabalarni mustaqil izlanishga, yangi g'oyalar yaratishga va o'z ta'limiy mahsulotini ishlab chiqishga yo'naltiradi. Bu jarayon ularning kreativ tafakkuri hamda pedagogik dizayn qobiliyatlarini rivojlantiradi Uchinchidan, STEAM metodlarining asosiy ustunliklaridan biri — texnologik savodxonlikni rivojlantirishdir. Raqamli platformalar, simulyatsiyalar, modellashtirish dasturlari, elektron resurslar bilan ishlash pedagogik ta'limga mos zamonaviy ko'nikmalarni shakllantiradi. Kelajak o'qituvchisi dars jarayonida raqamli vositalar bilan samarali ishlashi zarur bo'lganligi uchun bu jihat katta ahamiyatga ega To'rtinchidan, STEAM metodlari metodik va pedagogik kompetensiyalarni boyitadi. Talaba darsni rejalashtirish, metodik ishlanma yaratish, ta'lim materiallarini vizual dizaynlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va o'quvchi faoliyatini yo'naltirish bo'yicha zamonaviy yondashuvlarga ega bo'ladi. Natijada u pedagogik faoliyatni tizimli ko'ra olish, tarbiyaviy va o'quv vazifalarni bir butun jarayon sifatida tushunish qobiliyatiga ega bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lutfillah, A. Innovation in Teacher Education: Integrating Interdisciplinary Models. London: Routledge, 2020. 310-b.
2. Yakubova, N., & Ergasheva, G. Pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy ta'lim texnologiyalari. —Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. 240-b.
3. Brown, T., & Wyatt, J. "Design Thinking in Education: A Conceptual Framework." Harvard Educational Review, 2018, 88(2), 37–56.
4. Jonbekov, S. Raqamli pedagogika: nazariya va amaliyot. —Toshkent: Innovatsiya Ziyo, 2021.198-b.
5. Kozlova, L. A. "Interdisciplinary Approaches in Modern Pedagogy." European Journal of Education Research, 2020, 9(3), 155–164.
6. Sultonova, D. STEAM – ta'limning nazariy asoslari va metodik yondashuvlari. —Qarshi: Nasaf, 2022.176-b.
7. Freeman, A., Adams Becker, S., et al. The Future of Learning: Horizon Report. EDUCAUSE, 2019. 92-p.
8. Qodirova, M. Ta'lim jarayonida kreativ kompetensiyalarni shakllantirish. — Buxoro: Silk Road Academy, 2021. 164-b.

Ma'mura JO'RAYEVA,  
Navoiy davlat universiteti doktoranti  
[m.juraeva@mail.ru](mailto:m.juraeva@mail.ru)

## INGLIZ TILI DARSLARIDA TALABALARNING KOGNITIV FAOLIYATINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA FAOLLASHTIRISH METODIKASI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ingliz tili darslarida talabalarning kognitiv faoliyatini faollashtirishda raqamli texnologiyalarni qo'llash metodikasi yoritilgan. Tadqiqot biologiya ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar misolida olib borildi. Maqolada raqamli vositalar (multimedia platformalari, interaktiv dasturlar, virtual simulyatsiyalar) yordamida ingliz tili darslarini samarali tashkil etish yo'llari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** *kognitiv faoliyat, raqamli texnologiyalar, ingliz tili o'qitish metodikasi, biologiya ta'limi, interfaol o'qitish*

**Аннотация:** в данной статье рассматриваются методы использования цифровых технологий для активизации познавательной деятельности учащихся на уроках английского языка. Исследование проводилось на примере учащихся, обучающихся по биологическому направлению. В статье анализируются способы эффективной организации уроков английского языка с использованием цифровых инструментов (мультимедийных платформ, интерактивных программ, виртуальных симуляций).

**Ключевые слова:** *познавательная активность, цифровые технологии, методика преподавания английского языка, биологическое образование, интерактивное обучение.*

**Annotation:** this article examines methods for using digital technologies to enhance student cognitive activity in English lessons. The study was conducted with students majoring in biology. The article analyzes methods for effectively organizing English lessons using digital tools (multimedia platforms, interactive programs, and virtual simulations).

**Key words:** *cognitive activity, digital technologies, English language teaching methods, biology education, interactive learning.*

**Kirish.** Jahon miqyosida yuz berayotgan global taraqqiyot tendensiyalariga muvofiq chet tillarni mukammal egallash, oliy ta'lim tashkilotlarida ingliz tili darslarida bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kognitiv faoliyatini faollashtirish, nomutaxassislariga chet tillarni o'rganishning metodik ta'minotini raqamli texnologiyalar vositasida modernizatsiyalash kasbiy, madaniy, ilmiy sohalarida ingliz tilida samarali muloqot qilish kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu muqtab nazardan, biologiya yo'nalishi talabalarining raqamli texnologiyalar vositasida kognitiv kompetentligini, verbal muloqot madaniyatini rivojlantirish, xalqaro aloqalarda muloqotning perseptiv, kommunikativ va interaktiv komponentlarini kengaytirish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy davlatlarda talabalar kognitiv faoliyatini faollashtirish muammosiga doir bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, ushbu sohada Adler R.F., Benbunan-Fich R., Alham Al-Sharman et. al., Byram & Gerundy, Y.Gao et. al., J.A. Grahame, Kramsch, F.Martin, E.Ophir et. al., S.Ramadhan,

E.Sukma & V.Indriyani, Y.Yang & H.Yangning tadqiqot ishlarini qayd etish mumkin.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida chet tillarni o'qitishda kognitiv faoliyatni faollashtirish muammolari D.I.Ismagilova, I.G.Merkulov, N.G.Mixaylova, K.I.Muratxanova, A.V.Shepilova kabi olimlar tomonidan turli darajada o'rganilgan.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitish jarayonida kognitiv faoliyatni faollashtirish, kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish va bevosita biologiya ta'limi bilan uzviy bog'liq holda o'qitish metodikasini rivojlantirish masalalari kabi bir qator olimlarning ilmiy izlanishlari e'tiborga loyiq.

Biroq biologiya kabi soha yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishda raqamli texnologiyalar orqali kognitiv faollikni oshirish masalasi yetarli darajada o'rganilmagan. Shu sababli ushbu tadqiqotning maqsadi — ingliz tili darslarida raqamli texnologiyalar vositasida biologiya yo'nalishi talabalarining kognitiv faoliyatini faollashtirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.


Ingliz tili darslarida biologiya yo'nalishi talabalarining kognitiv faoliyatini raqamli texnologiyalar vositasida

faollashtirish metodlari, shakllari va vositalari belgilanib, O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, Navoiy davlat universiteti va Qo'qon davlat universiteti biologiya yo'nalishi talabalaridan jami 530 nafar talabalar ishtirok etdi.

Biologik, lingvistik, psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, so'rovnomalar, suhbat, kuzatish, test, loyihalash, ekspert baholash, pedagogik tajriba, muammoli metodlar va pedagogik tajriba-sinov natijalari tahlilida matematik-statistik metodlardan foydalaniladi. Ingliz tili darslarida

talabalarning kognitiv faoliyatni faollashtirishning zamonaviy interaktiv ta'lim texnologiyalari va metodlari (interaktiv, muammoli, hamkorlikda o'qitish, TRACK) asosida amalga oshirildi. Bilimlarni integratsiyalash asosida kognitiv faoliyatni faollashtirish. TPACK (Technological pedagogical Content Knowledge).

TPACK – Texnologiya, Pedagogika va Kontent bilimlari modeli yoki qisqacha TPACK bir muncha vaqtdan beri mavjud. U Li.Shulmanning ishiga asoslanadi va uning "Pedagogik mazmun bilimlari" haqidagi g'oyasini kengaytiradi [5]



### Bilimlarni integratsiyalash asosida kognitiv faoliyatni faollashtirish. TPACK.

**Texnologiya bilimlar.** Kohler va Mishraning fikricha, texnologiya bilimi "texnologiya, vositalar va resurslar bilan ishlash va texnologiya haqida fikr yuritishning ma'lum usullari to'g'risidagi bilimlar va texnologiya bilan ishlash barcha texnologiya vositalari va resurslariga taalluqli bo'lishi mumkin. Bu axborot texnologiyalarini ishda va kundalik hayotda samarali qo'llash uchun yetarlicha keng tushunishni o'z ichiga oladi. [6]

**Pedagogik bilimlar.** Pedagogik bilimlar, Kohler va Mishraning fikriga ko'ra, o'qituvchilarning o'qitish va o'rganish jarayonlari va amaliyotlari yoki usullari haqidagi chuqur bilimlari. Ular, jumladan, umumiy ta'lim maqsadlari, qadriyatlari va maqsadlarini o'z ichiga oladi. Ushbu umumiy bilim shakli o'quvchilar qanday o'rganishini, sinfni boshqarishning umumiy ko'nikmalarini, darsni rejalashtirishni va o'quvchilarni baholashni tushunish uchun qo'llaniladi." [6]

**Kontent bilimlar** – Kohler va Mishraning fikriga ko'ra, "O'qituvchilarning o'rganilishi yoki o'qitilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha bilimlari. O'rta maktab fanlari yoki tarixi bo'yicha yoritilishi kerak bo'lgan kontent bilimlari bo'yicha bakalavriat kursida yoritilishi kerak bo'lgan bilimlar tarkibidan farq qiladi. [7] Shulman ta'kidlaganidek, bu bilimlar g'oyalar, tashkiliy bilimlar, konsepsiya asoslari haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi va dalillar, shuningdek, bunday bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan amaliyot va yondashuvlar. [7]

Shunday qilib, TPACK modeli texnologik, pedagogik va mazmunli bilimlarning ushbu uchta elementini oladi va ular: PCK, TPK, TCK.

TPACK modelini ingliz tili darslarida qo'llashga oid topshiriqlardan bir namuna keltiramiz.

**"Life Processes Presentation" (Hayotiy jarayonlar taqdimoti).**

O'quvchilar juftlikda ingliz tilida o'simlik yoki hayvon organizmidagi bir hayotiy jarayonni tanlab, **interaktiv taqdimot** tayyorlaydi (matn + rasm + ovoz). Har bir slaydda 3–5 ta inglizcha so'z (termin) bo'lishi shart. Masalan, ovqat hazm qilish sistemasi, urug'ning o'sishi va hk. Ushbu tayyorlagan slaydni ingliz tilida 5-6 ta gap bilan ta'riflab beradi.

**Content-Fan mazmuni (CK):** O'simlik va hayvonlardagi asosiy hayotiy jarayonlar (nafas olish, ovqat hazmi, o'sish va h.k.)


**Pedagogy-Pedagogika (PK):** Ko'rgazmali taqdimot, juftlikda ishlash

**Technology-Texnologiya (TK):** Canva yoki Google Slides.

Tadqiqot doirasida ingliz tili darslarida biologiya yo'nalishi talabalarining raqamli ta'lim muhitida kognitiv faoliyatini faollashtirishga doir ishlab chiqilgan topshiriqlarni qo'llash samaradorligini ta'minlashda interfaol usullar, texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etdi. Natijada, ingliz tili darslarida biologiya yo'nalishi talabalarining

kognitiv faoliyatini raqamli ta'lim muhitida faollashtirishga yo'naltirilgan: muammoli o'qitish (Problem-Based Learning); loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning); kritik fikrlash metodlari (Critical thinking); integrativ yondashuv (CLIL – Content and Language Integrated Learning); vizual va grafikli metodlar; rol o'yinlar (Role Plays); Blooms taksonomiyasi va shu kabilardan keng foydalanildi. Ular asosida ingliz tili darslarida talabalarining kognitiv faoliyatini faollashtirish va amaliy qo'llashga oid mashg'ulot ishlanmalar tayyorlandi hamda ta'lim jarayoniga tatbiq etildi. Talabalar bilimni nazorat qilishda turli darajali online test sinovlari, yozma nazorat ishlari, og'zaki savol-javob metodlaridan foydalanildi.

Olingan sonli ma'lumotlarni matematik-statistik tahlil qilishda Styudent-Fisher kriteriyasidan foydalanildi. Tajriba-sinov ishlarining matematik-statistik tahlillari natijasida tajriba guruhining ko'rsatgichi nazorat guruhinikiga nisbatan 11,325 %ga oshganligini tasdiqladi.



**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ingliz tili darslari biologiya yo'nalishidagi talabalar kognitiv faoliyatini faollashtirishda yuqori samaradorlikka ega.

Taklif etilgan metodika talabalarining mustaqil fikrlash, tahlil qilish va o'z fikrini ingliz tilida ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mazkur yondashuv oliy ta'limda fanlararo integratsiyani ta'minlab, ta'lim jarayonining sifatini oshiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. – Toshkent, 2020.09.23. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Ergashev P., G'ozibekova G., Baykunosova G. Talabalarda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning uslubiy jihatlari (uslubiy qo'llanma) TDPU, –T., 2013-yil. 56-bet.
3. Mayer R. (2020). *Multimedia o'qitish nazariyasi*. – Nyu-York: Routledge.
4. Ergasheva G.S., Olimov X.A. Biologiyadan nostandart topshiriqlar. O'quv qo'llanma. –Toshkent: SARVAR PRINT, 2024.168-bet.

**Shahlo XAMRAYEVA,**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Xorijiy tillarni o'qitish kafedrasida katta o'qituvchisi



## CASE-STUDY TEXNOLOGIYASI ORQALI IQTISOD YO'NALISHI TALABALARIDA ANALITIK FIKRLASH VA INGLIZ TILIDA MUHOKAMA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

**Annotatsiya:** ushbu maqolada case-study texnologiyasining iqtisod yo'nalishi talabalari uchun ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot talabalarida analitik fikrlashni rivojlantirish, iqtisodiy vaziyatlarni tahlil qilish va ingliz tilida muhokama yuritish ko'nikmalarini shakllantirishda case-study metodining samaradorligini ko'rsatadi. Maqolada ushbu metodning afzalliklari, amaliy qo'llanishi va o'qitish strategiyalari haqida tahliliy ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** case-study, analitik fikrlash, ingliz tili, iqtisodiy ta'lim, muhokama ko'nikmasi, faol o'qitish, kasbiy til kompetensiyasi

**Аннотация:** в данной статье раскрывается значимость технологии case-study в подготовке студентов экономического направления. Исследование показывает, что анализ реальных экономических ситуаций способствует развитию аналитического мышления, умению обосновывать решения и вести содержательную дискуссию на английском языке. В работе рассматриваются преимущества метода, особенности его применения и его роль в совершенствовании обучения английскому языку для экономистов.

**Ключевые слова:** case-study, аналитическое мышление, английский язык, экономическое образование, дискуссия, активные методы обучения, профессиональная коммуникация

**Annotation:** this article examines the effectiveness of the case-study method in developing analytical thinking and English-language discussion skills among economics students. The study demonstrates that real-world economic scenarios enhance learners' ability to analyze data, evaluate alternative solutions, and justify decisions using appropriate terminology in English. The paper provides insights into the pedagogical advantages, application strategies, and methodological value of integrating case studies into economics-oriented English teaching.

**Key words:** case-study, analytical thinking, English for Economics, discussion skills, active learning, professional communication, ESP.

**Kirish.** Zamonaviy mehnat bozori iqtisod sohasidagi mutaxassislardan nafaqat nazariy bilimlarni, balki analitik fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va mantiqiy asoslangan xulosalar chiqarish kabi amaliy ko'nikmalarni ham talab qiladi. Ingliz tili esa iqtisodiyotning xalqaro maydondagi asosiy kommunikatsion vositasiga aylangan. Shu sababli iqtisod yo'nalishi talabalari uchun ingliz tilida erkin muhokama yuritish olish, iqtisodiy holatlarni tahlil qila olish va fikrni aniq bayon eta olish – kasbiy muvaffaqiyatning muhim omillaridan biridir.

Case-study texnologiyasi o'qitish jarayonida real yoki yaqinlashtirilgan iqtisodiy vaziyatlarni tahlil qilish imkonini beradi. Bu metod o'quvchilarni faol fikrlashga jalb qilib, ingliz tilini tabiiy muloqot muhiti orqali o'zlashtirishga yordam beradi.

**Metodologiya.** Tadqiqot iqtisod yo'nalishi bir guruh talabalarida case-study texnologiyasining

samaradorligini baholashga qaratildi. Mashg'ulotlar uch bosqich asosida tashkil etildi:

**1. Tayyorlov bosqichi:** talabalarga iqtisodiy terminlar, mavzuga oid qisqa matnlar va muammoli vaziyat tasviri ingliz tilida berildi.

**2. Tahlil bosqichi:** guruhlar bo'yicha case bo'yicha ma'lumotlar yig'ildi, muammo tahlil qilindi, iqtisodiy ko'rsatkichlar baholandi, muqobil yechimlar ishlab chiqildi.

**3. Muhokama bosqichi:** talabalardan ingliz tilida o'z qarashlari, tavsiyalari va iqtisodiy asoslangan yechimlarini himoya qilish talab qilindi.

O'quvchilarning analitik fikrlashi maxsus baholash mezonlari orqali aniqlanib, til ko'nikmalari esa muhokama jarayonida kuzatildi.

**Natijalar.** Tadqiqot jarayonida olingan natijalar case-study texnologiyasining iqtisod yo'nalishi talabalari uchun pedagogik ahamiyatini yaqqol

ko'rsatdi. Avvalo, talabalarning analitik fikrlashi sezilarli darajada rivojlandi. Ular taqdim etilgan iqtisodiy vaziyatlarni chuqur tahlil qilish, muammoning asosiy sabablarini aniqlash va turli omillar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqliklarini ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'la boshladi. Tahlil jarayonida talabalar iqtisodiy ko'rsatkichlarni solishtirish, mavjud muqobil yechimlarni baholash va mantiqiy asoslangan xulosalar chiqarishga odatlandi.

Shuningdek, ingliz tilida muhokama yuritish ko'nikmalari sezilarli darajada mustahkamlandi. Case-study davomida talabalar iqtisodiy terminologiyani o'rnida qo'llash, o'z fikrini izchil va tushunarli tarzda bayon etish, fikrini dalillar bilan asoslash va iqtisodiy vaziyatni professional tilda sharhlashni o'rgandilar. Muhokama jarayonida talabalar nutqi ravonlashib, ingliz tilida fikrlash sur'ati va aniqligi oshdi.

Yana bir muhim natija – talabalarda guruhda ishlash madaniyatining rivojlanishidir. Case-study mashg'ulotlarida o'zaro tinglash, bahslashish, fikr almashish, qarorlarni birgalikda ishlab chiqish va liderlik ko'nikmalari kuchaydi. Guruh ichida rollarni taqsimlash, mas'uliyatni bo'lishish va kelishuvga erishish kabi jarayonlar talabalar o'rtasida ijobiy o'zaro ta'sirni shakllantirdi.

Bundan tashqari, talabalarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi ancha oshgani kuzatildi. Real iqtisodiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar ularni qiziqish uyg'otib, fanni amaliy hayot bilan bog'lab ko'rish imkonini berdi. Talabalar ingliz tilining kasbiy ahamiyatini yanada chuqurroq anglay boshladi, natijada ingliz tilidagi iqtisodiy muhokamalarda faol ishtirok etishga intilish kuchaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari case-study texnologiyasi iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish, kasbiy til kompetensiyasini oshirish va talabalarda faol o'quv pozitsiyasini shakllantirishda samarali vosita ekanini isbotladi.

**Muhokama.** Case-study texnologiyasi o'qitish jarayonida talabaning fikrlash mexanizmini faol holatga keltiradigan metodlardan biridir. Oddiy ma'lumotni yodlashga asoslangan passiv o'qitishdan farqli o'laroq, ushbu yondashuv talabaning mavzuga chuqur kirib borishini, real iqtisodiy vaziyatlar bilan ishlashini va har bir qarorning oqibatini mulohaza qilgan holda xulosaga kelishini taqozo etadi. Bunday jarayonda talaba faqat tinglovchi yoki kuzatuvchi emas, balki muammoni tahlil qiluvchi, savol beruvchi,

baholovchi va yechim taklif qiluvchi faol ishtirokchiga aylanadi.

CLIL yondashuvi bo'yicha, talaba fanni til orqali, tilni esa fan orqali o'zlashtiradi. Case-study texnologiyasi bu integratsiyani tabiiy ravishda ta'minlaydi. Talabalar iqtisodiy tushunchalar, ko'rsatkichlar, modellardan foydalanish jarayonida ingliz tilini maqsadli ravishda qo'llaydi. Bu jarayon ularni iqtisodiy terminlarni kontekstda qo'llash, murakkab fikrlarni sodda va aniq ifodalash hamda professional ingliz tilida erkin muloqot qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, case-study muhokamalari o'quv jarayonida ijtimoiy o'zaro ta'sir darajasini oshiradi. Talabalar bir-birining fikrini tinglaydi, bahslashadi, qarorlarni guruh bo'lib shakllantiradi, shu orqali real ish jarayonidagi kommunikativ vaziyatlarni simulyatsiya qiladi. Bu esa iqtisodchi mutaxassis uchun zarur bo'lgan hamkorlik, muzokara olib borish va jamoada ishlash kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Umuman olganda, case-study texnologiyasining o'quv jarayonida qo'llanishi talabalarning nafaqat analitik salohiyatini, balki ingliz tilidagi kasbiy nutq kompetensiyalarini ham kuchaytiradi. Bu ikki jarayonning uyg'unlashuvi iqtisod sohasida global me'yorlarga mos, zamonaviy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Case-study texnologiyasi iqtisod yo'nalishi talabalari uchun nafaqat samarali o'qitish usuli, balki ularning kasbiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan pedagogik vosita ekanini tadqiqot yaqqol isbotladi. Ushbu metod real iqtisodiy vaziyatlarni o'rganish orqali talabalarning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, ularni murakkab iqtisodiy muammolarni tahlil qilishga, muqobil yechimlarni solishtirishga va mantiqiy asoslangan xulosalar chiqarishga yo'naltiradi. Ingliz tilida olib borilgan muhokama jarayonlari esa talabalarning muloqot madaniyati, terminologik savodxonligi va fikrni aniq ifodalash ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Umuman olganda, case-study metodining o'quv jarayoniga tatbiq etilishi talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga puxta amaliy tayyorgarlik beradi. Ularning mustaqil fikrlashi, muhokama olib borishi, iqtisodiy hodisalarni baholashi va ingliz tilidan samarali foydalanishi yanada yaxshilanadi. Bu esa zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh, tahliliy salohiyatga ega va xalqaro maydonda ishlay oladigan iqtisodchi mutaxassislarni yetishtirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ally, M. (2019). Mobile Learning in Education. Edmonton: Athabasca University Press.
2. Brame, C. (2018). Active Learning and Blended Methodologies. Vanderbilt University Center for Teaching.

Kamola SHADMANBEKOVA,  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
katta o'qituvchisi,

## IQTISODCHI TALABALAR UCHUN ESP (ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES) KURSLARINI LOYIHALASH: EHTIYOJLAR TAHLILI ASOSIDA

**Annotatsiya:** ushbu maqola iqtisod yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ESP kurslarini yaratishda ehtiyojlar tahlilining o'rni va ahamiyatini yoritadi. Tadqiqot talabalarning kasbiy faoliyatda duch keladigan til vazifalarini, soha terminologiyasini va kommunikativ ehtiyojlarini aniqlash orqali kurs mazmunining samarali shakllanishiga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** *ESP, ehtiyojlar tahlili, iqtisodiy ta'lim, kasbiy kommunikatsiya, ingliz tili, janr tahlili, til vazifalari*

**Annotation:** this article examines the role of needs analysis in designing effective ESP courses for economics students. The study identifies the linguistic and communicative requirements students face in their professional context, including terminology use, genre-specific tasks, and essential communication skills. Based on these needs, the ESP course structure is shaped to enhance learners' professional communicative competence and improve their ability to use English in real economic situations.

**Key words:** *ESP, needs analysis, economic education, professional communication, English for Economics, genre analysis, language tasks*

**Аннотация:** в данной статье рассматривается значение анализа потребностей при разработке ESP-курсов для студентов экономических направлений. Исследование выявляет ключевые языковые и коммуникативные задачи, с которыми сталкиваются будущие экономисты в профессиональной деятельности. Учет этих потребностей позволяет сформировать содержание курса таким образом, чтобы развивать профессиональную коммуникативную компетенцию, укреплять владение экономической терминологией и обеспечивать умение применять английский язык в реальных рабочих ситуациях.

**Ключевые слова:** *ESP, анализ потребностей, экономическое образование, профессиональная коммуникация, английский язык для экономистов, жанровый анализ, коммуникативные задачи*

**Kirish.** Global iqtisodiy integratsiya jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda ingliz tili iqtisodiyot sohasidagi asosiy xalqaro muloqot vositasiga aylandi. Bozor munosabatlari, xalqaro moliya, investitsiya jarayonlari va biznes muzokaralari kabi faoliyatlar ingliz tilini yuqori darajada bilishni talab etadi. Shu sababli iqtisodchi talabalar uchun ESP (English for Specific Purposes) kurslarini samarali loyihalash ularning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. ESP kurslarini yaratishda ehtiyojlar tahlili eng asosiy bosqich bo'lib, talabalar qanday til kompetensiyalariga ehtiyoj sezayotganini aniqlash orqali kursning mazmuni, metodlari va vazifalari shakllantiriladi.

**Adabiyotlar sharhi.** ESP nazariyasi Hutchinson va Waters (1987), Dudley-Evans & St John (1998) kabi tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilgan bo'lib, ular ESPni maxsus maqsadga yo'naltirilgan til o'qitish sifatida izohlaydi. Unga ko'ra, kurs dizayni o'quvchining kasbiy ehtiyojlari, til holati, soha terminologiyasi va kommunikativ vazifalariga mos bo'lishi kerak. Swales (1990) esa fanga oid janrlar bilan ishlashning ahamiyatini ta'kidlaydi. Iqtisodiy

ta'limda ESP kurslari iqtisodiy matn tahlili, grafik va jadval ma'lumotlarini sharhlash, muzokara yuritish, biznes yozishmalari va prezentatsiya ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi.

**Metodologiya.** Ushbu tadqiqot iqtisodchi talabalar uchun ESP kursini loyihalash jarayonida ehtiyojlar tahlilining o'rnini aniqlashga qaratilgan bo'lib, bosqichma-bosqich yondashuv asosida amalga oshirildi. Dastlab **aniqlovchi tahlil** o'tkazilib, talabalar, o'qituvchilar va potensial ish beruvchilar o'rtasida maxsus so'rovnomalar tashkil etildi. Ushbu bosqich iqtisodchi mutaxassislar uchun zarur bo'lgan til ko'nikmalarini aniqlash, mavjud bo'shliqlarni belgilash hamda ESP kursining yo'nalishini to'g'ri belgilash imkonini berdi.

Keyingi bosqichda **ma'lumot to'plash** ishlari amalga oshirilib, iqtisodiy faoliyatda keng qo'llaniladigan ingliz tilidagi real janrlar o'rganildi. Jumladan, biznes hisobotlari, rasmiy elektron yozishmalar, grafiklar va jadval tavsiflari, biznes rejalari va xalqaro iqtisodiy matnlardagi til xususiyatlari tahlil qilindi. Bu jarayon ESP kursida o'quv materiallarining amaliy ahamiyatini ta'minlashga xizmat qildi.

Shundan so'ng **til vazifalarini aniqlash** bosqichi o'tkazildi. Unda talabalar bajarishi kerak bo'lgan kommunikativ vazifalar – taqdimot qilish, iqtisodiy ma'lumotlarni tahlil qilish, muhokama yuritish, muzokara olib borish va yozma hisobot tayyorlash kabi faoliyatlar – aniq belgilandi. Bu bosqich ESP kursining kompetensiyaga yo'naltirilganligini ta'minladi.

Tahlil natijalariga asoslanib, **kurs dizayni** ishlab chiqildi. Unda mavzularning ketma-ketligi, modul tarkibi, mashg'ulot turlari, matnlar tanlovi, amaliy topshiriqlar, baholash vositalari va o'qitish strategiyalari talabalarning ehtiyojlariga mos ravishda shakllantirildi. Kurs tarkibi iqtisodiy faoliyatda uchraydigan real kommunikativ vazifalarni inobatga olgan holda tuzildi.

Jarayonning yakuniy bosqichi – **sinov va baholash** bosqichi bo'lib, unda tayyorlangan materiallar kichik guruh talabalar bilan amaliyotda sinovdan o'tkazildi. Talabalar fikri, kuzatuv natijalari va o'qituvchi mulohazalari asosida kurs mazmuni takomillashtirildi. Bu yondashuv ESP kursining haqiqiy ehtiyojlarga mos kelishini va amaliy samaradorligini ta'minladi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari iqtisodchi talabalar uchun ESP kurslarini samarali loyihalash jarayonida ehtiyojlar tahlili hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatdi. So'rovnomalar va kuzatuvlar shuni namoyon qildiki, talabalarining aksariyati biznes yozishmalar, grafik va jadval ma'lumotlarini tahlil qilish, xalqaro iqtisodiy terminologiyadan to'g'ri foydalanish hamda muzokara olib borish bo'yicha sezilarli qiyinchiliklarga duch keladi. Bu esa til tayyorgarligi bilan bog'liq bo'lgan aniq bo'shliqlarni aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda ishtirok etgan ish beruvchilar iqtisodchilar uchun ingliz tilida rasmiy hisobot tayyorlash, iqtisodiy ma'lumotlarni og'zaki tarzda taqdim etish va professional biznes yozishmalarini yuritish ko'nikmalari yuqori darajada talab etilishini qayd etdi. Bunday ma'lumotlar ESP kursini kasbiy vazifalarga moslashda muhim yo'nalish vazifasini o'tadi.

Til vazifalari aniq belgilab olingach, ESP kursining mazmuni an'anaviy grammatikani o'rganishga asoslangan yondashuvdan voz kechib, real iqtisodiy kontekstga mos amaliy mashg'ulotlarga yo'naltirildi. Bu o'zgarish talabalarga ingliz tilini mavhum grammatik qoidalar tizimi sifatida emas, balki iqtisodiy

faoliyatda zarur bo'lgan kommunikativ vosita sifatida o'zlashtirish imkonini berdi.

Shuningdek, talabalar ehtiyojiga mos ravishda ishlab chiqilgan topshiriqlar ularning o'quv motivatsiyasini sezilarli darajada oshirdi. Real kasbiy vaziyatlarga asoslangan mashg'ulotlar talabalarni ingliz tilini amaliyotda qo'llashga undadi, ularning til kompetensiyasini, kasbiy o'ziga ishonchini va faol ishtirokini kuchaytirdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ehtiyojlar tahlili asosida ishlab chiqilgan ESP kurslari iqtisodchi talabalar uchun ancha samarali bo'lib, tilni kasbiy faoliyat bilan chambarchas bog'langan holda o'rgatadi va ularni xalqaro mehnat bozoriga tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

**Muhokama.** Ehtiyojlar tahlili asosida yaratilgan ESP kursi talabalarining haqiqiy kasbiy faoliyatiga mos holda ishlab chiqildi. An'anaviy til o'qitishdan farqli o'laroq, ESP o'quvchi markazida bo'lib, kasbiy kontekstga yo'naltirilgan. Bu jarayon talabalarga iqtisodiy tushunchalarni ingliz tilida erkin sharhlash, murakkab ma'lumotlarni tahlil qilish, xalqaro auditoriya bilan samarali muloqot qilish va soha terminlarini to'g'ri ishlatishni o'rgatadi.

**Xulosa.** Iqtisodchi talabalar uchun ESP kurslarini loyihalash jarayonida ehtiyojlar tahlili asosiy va ajralmas bosqich sifatida alohida ahamiyatga ega. Mazkur tahlil kursning mazmuni, metodlari va o'qitish strategiyalarini shakllantirishda yo'naltiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Talabalarining haqiqiy kasbiy ehtiyojlarini aniqlash orqali yaratilgan ESP dasturi ularning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi, iqtisodiy mazmundagi til ko'nikmalarini mustahkamlaydi va ingliz tilini real amaliy vaziyatlarda samarali qo'llash imkonini kengaytiradi. Bunday yondashuv talabalarni xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlashga xizmat qiladi, chunki ular nafaqat til bilimiga, balki mazmuniy-kasbiy muloqot olib borish qobiliyatiga ham ega bo'lib boradi.

Umuman olganda, ESP kurslarini ehtiyojlar tahlili asosida ishlab chiqish iqtisodchi talabalar uchun samarali, maqsadga yo'naltirilgan va amaliyotga yaqin til ta'limi muhitini yaratadi. Bu jarayon talabaning tilni fanni o'rganish bilan uyg'unlashtirgan holda o'zlashtirishiga imkoniyat yaratib, uning kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada kuchaytiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach*. Cambridge University Press.
2. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). *Developments in English for Specific Purposes: A Multi-disciplinary Approach*. Cambridge University Press.

**Isroil MO'MINOV,**  
Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'limda  
matematika va ona tili kafedrası o'qituvchisi  
Elektron pochta: [muminovisroil318@gmail.com](mailto:muminovisroil318@gmail.com)



## INNOVATSION PEDAGOGIK KONSEPTLARNI BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIGA IMPLEMENTATSIYA QILISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING KRITIK FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Annotatsiya:** ushbu maqola boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik konseptlarni implementatsiya qilish orqali o'quvchilarning kritik fikrlash qobiliyatini shakllantirishning nazariy-metodik asoslarini yoritadi. Tadqiqotda konstruktivizm, STEAM-pedagogika, problem-based learning, loyiha asosida o'qitish va raqamli pedagogika kabi konseptlarning boshlang'ich ta'lim jarayonidagi roli tahlil qilindi. Shuningdek, innovatsion metodlarning o'quvchilar tafakkuriga ta'siri, kritik fikrlashning rivojlanish dinamikasi va ilg'or ta'lim mexanizmlarining samaradorligi nazariy jihatdan asoslab berildi.

**Kalit so'zlar:** *innovatsion pedagogika, boshlang'ich ta'lim, kritik fikrlash, konstruktivizm, STEAM, raqamli kompetensiya, muammoli ta'lim, ijodiy fikrlash.*

**Annotation:** this article explores the theoretical and methodological foundations of developing critical thinking skills in primary school students through the implementation of innovative pedagogical concepts. The study analyzes the role of concepts such as constructivism, STEAM education, problem-based learning, project-based learning, and digital pedagogy in the primary education process. In addition, the influence of innovative methods on students' cognitive development, the dynamics of critical thinking formation, and the effectiveness of advanced educational mechanisms are theoretically substantiated.

**Key words:** *innovative pedagogy, primary education, critical thinking, constructivism, STEAM, digital competence, problem-based learning, creative thinking.*

**Аннотация:** в данной статье раскрываются теоретико-методические основы формирования критического мышления учащихся начальных классов посредством имплементации инновационных педагогических концепций. В исследовании проанализирована роль таких концепций, как конструктивизм, STEAM-педагогика, проблемное обучение, проектное обучение и цифровая педагогика в процессе начального образования. Также теоретически обосновано влияние инновационных методов на развитие мышления учащихся, динамика формирования критического мышления и эффективность современных образовательных механизмов.

**Ключевые слова:** *инновационная педагогика, начальное образование, критическое мышление, конструктивизм, STEAM, цифровая компетентность, проблемное обучение, творческое мышление.*

**Kirish.** Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri o'quvchilarning yuqori darajadagi tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Ta'lim

jarayonida mavjud an'anaviy metodlar endilikda o'quvchilarning mustaqil qaror qabul qilish, dalillash, tahlil qilish, solishtirish va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatlarini yetarli darajada

rivojlantira olmasligi sababli innovatsion pedagogik yondashuvlarga ehtiyoj oshmoqda. Ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichida bu ehtiyoj yanada dolzarb, chunki aynan shu davrda o'quvchining intellektual rivojlanishi, shaxsiy sifatlarining shakllanishi, tafakkur mexanizmlarining faollashuvi sodir bo'ladi.

Innovatsion ta'lim konseptlari o'quv jarayonini modernizatsiya qilish, o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni mustaqil izlanishga yo'naltirish va kritik fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotning dolzarbligi ham shundan iborat.

#### **Tadqiqot maqsadi**

Boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik konseptlarni implementatsiya qilish orqali o'quvchilarning kritik fikrlash qobiliyatini shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish.

#### **Tadqiqotning obyekti**

Boshlang'ich ta'lim jarayoni.

#### **Tadqiqotning predmeti**

Innovatsion pedagogik konseptlar asosida o'quvchilarning kritik fikrlashini shakllantirish jarayoni.

#### **Tadqiqot metodlari**

Tadqiqot davomida ilmiy-lisoniy tahlil, taqqoslash, pedagogik modellash, kontent tahlil, diagnostik kuzatish va nazariy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

#### **Natijalar**

#### **1. Innovatsion pedagogika konseptlarining nazariy asoslari**

Innovatsion pedagogika zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim yo'nalishi bo'lib, o'quvchini o'quv jarayonining markaziga qo'yishni, uning individual imkoniyatlarini maksimal darajada ro'yobga chiqarishni ko'zlaydi. Konstruktivistik yondashuv, STEAM modeli, problem-based learning va boshqa metodlar o'quvchilarning intellektual faolligini oshirishga xizmat qiladi.

**1-jadval. Innovatsion konseptlarning boshlang'ich ta'limga ta'siri**

| Konsept        | Asosiy mazmuni                       | Kritik fikrlashga ta'siri                  |
|----------------|--------------------------------------|--------------------------------------------|
| Konstruktivizm | Bilimni o'quvchi o'zi "quradi"       | Tahlil, solishtirish, refleksiya kuchayadi |
| STEAM          | Fanlar integratsiyasi                | Muammo yechish ko'nikmalari rivojlanadi    |
| PBL            | Muammoli vaziyatlar asosida o'qitish | Dalillash va alternativ yechim topish      |
| Loyiha metodi  | Mustaqil izlanish                    | Mustaqillik va ijodiy tahlil               |
| Raqamli ta'lim | Elektron resurslar                   | Axborotni qayta ishlash tezligi oshadi     |

Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, barcha innovatsion konseptlar o'quvchilarning fikrlash faoliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

#### **2. Kritik fikrlashning nazariy asoslari**

Kritik fikrlash — bu o'quvchining ma'lumotni tahlil qilish, shubha bilan qarash, dalillarni solishtirish va asosli xulosa chiqarish qobiliyatidir. Psixologlar Piaget, Bruner, Vygotskiylarning nazariyalari fikrlashning boshlang'ich sinf yoshida faol shakllanishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, boshlang'ich ta'limdagi innovatsion metodlar bu jarayonni sun'iy emas, balki tabiiy tarzda faollashtiradi.

#### **3. Boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlar orqali kritik fikrlashni shakllantirish jarayoni**

##### **3.1. Konstruktivizm asosidagi ta'lim**

Bu yondashuv o'quvchilarning bilishga qiziqishini oshiradi, ular dars jarayonida faqat tinglovchi emas,

balki faol ishtirokchi bo'lishadi. Savol-javoblar, muammoli vaziyatlar, guruh ishlari o'quvchini mustaqil fikrlashga undaydi.

##### **3.2. STEAM-pedagogikaning o'rni**

STEAM integratsiyasi real hayotiy muammolarni o'quv predmetlari bilan bog'lashga imkon beradi. Bu model orqali o'quvchi fikrlash jarayonining barcha bosqichlarini o'zi bajaradi: kuzatadi, taxmin qiladi, tahlil qiladi, sinovdan o'tkazadi, yakuniy xulosa chiqaradi.

##### **3.3. Problem-based learning (PBL)**

PBL metodida o'quvchi mavzuni bevosita muammodan kelib chiqib o'zlashtiradi. Masalan: "Nega muz eriydi?", "Nega ba'zi narsalar suzadi, ayrimlari cho'kadi?" kabi savollar orqali o'quvchi izlanishga kirishadi. Bu jarayon tafakkurning barcha turlarini ishga soladi.

##### **3.4. Loyiha metodi**

Loyihalar o'quvchilarning izlanish faoliyatini faollashtiradi. Masalan, "Tabiatni asraymiz" loyihasi davomida o'quvchi ma'lumot izlaydi, faktlarni tahlil qiladi va xulosa chiqaradi.

### 3.5. Raqamli kompetensiyalar

Elektron resurslardan foydalanish orqali o'quvchilar mantiqiy tezlikka, analitik tafakkurga, mustaqil izlanishga o'rganadi.

### 4. Implementatsiya jarayonining pedagogik shartlari

Innovatsion konseptlarni samarali qo'llash uchun quyidagi shartlar muhim:

- dars jarayonida interfaol metodlarni qo'llash;
- muammoli-topshiriqlar tizimini shakllantirish;
- o'quvchining refleksiyasini ta'minlash;
- o'qituvchining metodik va raqamli kompetensiyasini oshirish;
- baholashning yangicha tizimini joriy etish.

### 2-jadval. Kritik fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlar

| Topshiriq turi       | Tavsifi                                   | Kutiladigan natija                    |
|----------------------|-------------------------------------------|---------------------------------------|
| Tahliliy savollar    | "Nega?", "Qanday?", "Qaysi biri to'g'ri?" | Dalillash kuchayadi                   |
| Muammoli vaziyat     | Yechim talab qiladigan real holat         | Alternativ fikrlar paydo bo'ladi      |
| Guruh loyihasi       | Hamkorlikdagi izlanish                    | Muloqot va argumentatsiya rivojlanadi |
| Raqamli topshiriqlar | Onlayn test, diagramma qurish             | Tahlil tezligi oshadi                 |

### Muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion pedagogik konseptlar boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning kritik fikrlashini kompleks rivojlantiradi. Bunda konstruktivistik yondashuv tafakkur mexanizmlarini faollashtiradi, STEAM integratsiyasi o'quvchini amaliy tahlilga yo'naltiradi, PBL esa mustaqil xulosa chiqarish imkoniyatini kengaytiradi. Raqamli pedagogika o'quvchining axborotni qayta ishlash tezligini oshirib, uni mustaqil tadqiqotga undaydi.

### Xulosa

Innovatsion pedagogik konseptlar o'quvchilarning kritik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda asosiy mexanizm sifatida xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'limda bu konseptlarni implementatsiya qilish o'quvchilarning tahliliy, mantiqiy, ijodiy, reflektiv fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shu sababli, o'qituvchilarning innovatsion metodlarni puxta o'zlashtirishi, dars jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishi hamda o'quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan metodik shartlarni yaratishi zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dewey J. Democracy and Education.
2. Vygotsky L.S. Mind in Society.
3. Piaget J. The Child's Conception of the World.
4. Polat E.S. Innovatsion pedagogik texnologiyalar.
5. Xodjayev N. Pedagogik texnologiyalar asoslari.
6. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
7. STEAM-ta'lim bo'yicha xalqaro metodik qo'llanmalar.
8. Problem-based learning: International Handbook.

**Saboxat XIKMATOVA,**  
Nizomiy nomidagi O'zMPU  
Logopdiya kafedrası o'qituvchisi



## RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALARDA TOVUSHLAR TALAFFUZIDAGI KAMCHILIKLARNI BARTARAF ETISH

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni o'ziga xos xususiyatlari, ularda kuzatiladigan nutq kamchiliklari, olib boriladigan korreksion-logopedik ishlar mazmuni yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** *nutq, nutq nuqsoni, tovush, fonematik idrok, ta'lim-tarbiya, ruhiy rivojlanish, korreksion ish.*

**Аннотация:** в данной статье рассматриваются особенности детей с задержкой психического развития, наблюдаемые у них дефекты речи, содержание проводимой коррекционно-логопедической работы.

**Ключевые слова:** *речь, дефект речи, звук, фонематическое восприятие, воспитание, психическое развитие, коррекционная работа.*

**Annotation:** this article covers the peculiarities of children with impaired mental development, the shortcomings of speech observed in them, the content of Correctional-logopedic work carried out.

**Key words:** *speech, speech impairment, sound, phonemic perception, education, mental development, correctional work.*

Bolaning barkamol shaxs sifatida rivojlanishida nutq yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Chunki, nutq – insonning muloqot, fikrlash jarayonida muhim psixologik vazifani bajaradi. Inson nutqi tushunarli va aniq bo'lishi kerak. Shaxs mukammal, yetuk inson bo'lib shakllanishida aqliy qobiliyat va nutqiy malakalarni o'zni beqiyos. Nutq rivojlanishi jarayonida bilish faoliyatini oliy shakllari, tafakkur qobiliyatlari shakllanadi. Bolaning nutqi tufayli atrof-muhit haqidagi tasavvurlari shakllanadi va oydinlashadi, uni aks ettirish shakllari takomillashadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqida nutqiy kamchiliklarning kuzatilishi, bolalarning ta'lim-tarbiya jarayonlarida birmuncha qiyinchiliklar olib keladi. Maktabgacha ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash hisoblanadi. Bolaning samarali ta'lim olishga tayyorlashning asosiy ko'rsatkichlaridan biri to'g'ri, yaxshi rivojlangan nutq hisoblanadi. To'g'ri nutq bolaning har tomonlama rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Bolaning nutqi qay darajada to'g'ri bo'lsa, o'z fikrlarini bayon qilish shunchalik oson bo'ladi va atrof-olam haqidagi bilimlari, tasavvurlari kengayadi. Shuning uchun ham bolalarda nutqning o'z vaqtida shakllanishi haqida, uning to'g'riligi haqida qayg'urish, namoyon bo'luvchi turli nutq nuqsонlarni oldini olish va to'g'rilash muhim vazifalardan biridir. [1]

Ruhiy rivojlanishi sustlashganlik tushunchasi – ruhiy-pedagogik tushuncha bo'lib, bolalarning ruhiy rivojlanishining orqada qolishini ifodalaydi. Bunday orqada qolishning asosiy sabablariga bosh miyaning minimal, yuzaki, yengil zararlanishi kiradi. Noxush ijtimoiy omillar asosiy sabab

emas, balki ikkilamchi sababga kiradi. Rivojlanishning orqada qolishi deganda, biz bolaning ruhiy rivojlanishini bola yoshiga mos kelmasligini tushunamiz. Bunday nomutanosiblik o'z vaqtida tashkil etilgan yordam natijasida bartaraf etilishi mumkin. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda ruhiy jarayonini orqada qolishi bilan bir qatorda, ularning nutqida ham turli kamchiliklar namoyon bo'ladi. Bunday bolalarning nutqiy tajribasi cheklangan, til vositalari rivojlanmagan bo'ladi. Nutqiy muloqotga ehtiyoj yetarlicha qondirilmaydi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda lug'at boyligi yetishmasligi, nutqida fonetik-fonematik kamchiliklari rivojlanishida nuqsонlar aniqlanganida kuzatiladi. Bunday bolalarning nutqiy tajribasi cheklangan, til vositalari rivojlanmagan bo'ladi. Nutqiy muloqotga ehtiyoj yetarlicha qondirilmaydi. Hozirgi vaqtda ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda nutqning shakllantirish muammosi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda nutqni fonetik-fonematik rivojlanmaganligi bu nutqning fonetik-fonematik tomondan kamchiligi bo'lib, tovushlarni talaffuz va idrok etish jarayonidagi kamchiliklar natijasida bolalarda ona tilidagi tovushlarni talaffuz qilishni buzilishidir.

Maktabgacha yoshdagi ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bolalik davrlarda turli xil kasalliklarga chalinishi, nutq kamchiliklarini kuzatilishi va bir qancha rivojlanish kamchiliklarini olimlardan M.S.Pevzner, G.Y.Suxaryeva, K.S.Lebedinskaya, T.A.Vlasovalar tomonidan o'rganilib tahlil qilingan. Ular ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni nuqsoni bilan onaning homiladorlik yoki tug'ruq, ilk bolalik davrida markaziy asab tizimlarini yuzaki kam miqdorda

zararlanishi oqibatida kelib chiqadigan qoldiq holatlari orasida bog'liqlik borligini ta'kidlashgan.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar nutqining fonetik-fonematik tomonidagi kamchiliklarni bartaraf etish jarayoni doimiy va tizimli ketma-ketlikka asoslangan holda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Tovushlarni talaffuz qilish madaniyatini shakllantirishdagi uslub va metodlar fonematik idrok, boladagi nutq rivojlanish darajasiga qarab olib boriladi.

Olib boriladigan korreksion logopedik ishlar quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi:

1. Ikkilamchi kamchiliklarni oldini olish uchun nutq faoliyatiga erta ta'sir ko'rsatish.

2. Nutqni har taraflama rivojlantirish. (Fonetik–fonematik, leksik, grammatik)

Ushbu bosqichlar asosida olib borilgan ish faoliyati bolalarga mustaqil bog'langan, grammatik jihatdan to'g'ri nutqni egallashga, ona tilini savodli o'zlashtirishga yordam beradi.

Korreksion o'qitishni asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– nutqini fonetik-fonematik, leksik-grammatik tomonlarini egallash;

– tovushlar talaffuzini shakllantirish, so'zni bo'g'in strukturasini, fonematik eshitish, fonematik idrokni rivojlantirish;

– savodxonlikni oshirish uchun bog'langan nutqini shakllantirish.

Tovushlarni o'rganish jarayonida bola ularni ajratishga o'rganadi. Tovushlarni solishtirish boladagi fonematik idrokni rivojlantirishga turtki bo'ladi. Qo'yilgan tovushlar bo'g'inlarda, so'zlarda, gaplarda mustahkamlab boriladi. Eshitib xotirada saqlash qobiliyatini rivojlantirish uchun maxsus mashg'ulotlar olib boriladi.

Rasmlarni nomlash jarayonida talaffuz qilinayotgan so'z oxiridagi tovushni ajratish: piyola, non, kosa, gul, deraza, ko'za. Bolani nutqiga qo'yiladigan tovush cho'zib talaffuz qilinadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni nutqining fonetik-fonematik kamchiliklarni bartaraf etish jarayoni to'rt bosqichni o'z ichiga oladi va izchil ketma-ketlikda to'g'ri talaffuzni shakllantirish uchun olib boriladi.

1-bosqichda logoped artikulyatsiya organlarini tovush qo'yishga tayyorlashi lozimdir. Buning uchun artikulyatsiya apparati harakatchanligiga doir mashqlar olib boriladi.

2-bosqichda logoped bolalarga ma'lum bir tovushni artikulyatsiyasini ko'rsatadi (aniq va to'g'ri). Bola esa ushbu tovush artikulyatsiyasini logopedga takrorlab berishi lozim.

3-bosqichda qo'yilgan tovushga doir bo'g'inlar, so'ngra asta-sekin so'zlar va gap tuzilmalarini kiritish mumkin. (Logoped ushbu bosqichda nutq materiallarini shunday tanlab olishi kerakki, unda tovushlar artikulyatsiyasi murakkab bo'lmay, bolaga notanish bo'lgan so'zlardan foydalanmasligi zarur).

4-bosqichda bolaga talaffuz jihatdan o'xshash tovushlarni, so'zlarni ajratish o'rgatiladi.

Talaffuz kamchiliklarini to'g'rilash bo'yicha olib boriladigan mashg'ulotlar ma'lum izchillikda o'tkaziladi. Tovushlar talaffuzini to'g'rilash bo'yicha olib boriladigan logopedik ishlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Tovushning hosil qilinishi;

2. Tovushni bo'g'inlarda talaffuz qilish malakalarini mustahkamlash.

3. Tovushni talaffuz qilish malakalarini so'zlarda mustahkamlash;

4. Tovushni talaffuz qilish malakalarini jumladan mustahkamlash.

5. Artikulyatsion jihatdan o'xshash tovushlarni farqlash;

6. So'zlashuv nutqida tovushlarni to'g'ri talaffuziga erishish.

Tovushlar talaffuzi ustidagi ish, so'zning bo'g'in tuzilishi ustidagi ish bilan uzviy bog'langandir.

Fonematik idrokni rivojlantirish korreksion-logopedik ishning eng asosiy yo'nalishi ham hisoblanadi. Bu ishlar tovushlar tahlili ustidagi ish bilan o'zaro bog'lab olib boriladi. Ushbu jarayonda quyidagi ishlarni olib borish tavsiya etiladi:

– nutqdan tashqari, ya'ni nutqsiz tovushlarni bilish va ajratish;

– ma'lum tovushlarni bo'g'inlar ichidan ajratish;

– ma'lum tovushni so'zlar ichidan ajratish;

– ma'lum berilgan tovushlarga so'z o'ylab topish;

– bir tovush bilan farqlanadigan bo'g'inlar tizimini qaytarish (bir- biridan uzoq va bir-biriga yaqin tovushlar asosida);

– ma'lum tovushga rasm tanlash;

– jarangli va jarangsiz tovushlarni ajratish.

Xulosa qilib aytganda, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar nutqidagi tovush talaffuzidagi kamchiliklar ularning kundalik hayotida sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Biroq, to'g'ri qo'llab-quvvatlash va erta aralashuvlar bilan bu qiyinchiliklarni yengib, muloqot qobiliyatlarini yaxshilash mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayupova M.Y. "Logopediya". – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007-yil
2. Ayupova M.Y., L.R.Muminova "Logopediya". – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 1992-yil.
3. Блинова Л.Н. «Диагностика и коррекция в образовании детей с ЗПР» – Москва: «Издательство NS ENAS» 2005 год
4. Игнатова С.А., И.Б.Блинков. «Логопедическая реабилитация детей с отклонениями в развитии». «Владос» , – Москва, 2004.

**Muxabbat MAXMUDOVA,**  
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti  
assistent-o'qituvchisi  
**Mohinur JABBOROVA,**  
Qarshi tumani 60-sonli umumta'lim  
maktabi o'qituvchisi

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA MULTIMEDIALI VOSITALAR ORQALI DARS O'TISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK AFZALLIKLARI

**Annotatsiya:** mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun dars jarayonida multimedialli vositalardan foydalanishning pedagogik va psixologik afzalliklari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** *multimedialli vositalar, pedagogik afzalliklar, psixologik ta'sir, interaktiv ta'lim, vizual ta'lim texnologiyalari.*

**Аннотация:** в данной статье освещаются педагогические и психологические преимущества использования мультимедийных средств в учебном процессе для учащихся начальных классов.

**Ключевые слова:** *мультимедийные средства, педагогические преимущества психологическое воздействие, интерактивное обучение, визуальные образовательные технологии*

**Annotation:** this article highlights the pedagogical and psychological advantages of using multimedia tools in the educational process for primary school students.

**Key words:** *multimedia tools, pedagogical advantages, psychological impact, interactive learning, visual learning technologies.*

**Kirish.** Bugungi raqamli texnologiyalar asrida ta'lim sohasida zamonaviy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Judayam tez o'zgarib va rivojlanib borayotgan hozirgi davrimiz, jamiyatimizning har bir a'zosidan fan va ilmiy-texnika yutuqlariga asoslangan zamonaviy bilimlarni mukammal egallashni talab etmoqda [1]. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun darslarni mazmunan boyitish va samaradorligini oshirishda multimedialli vositalardan foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Bu vositalar nafaqat o'quv jarayonini jonlantiradi, balki bolalarda mustaqil fikrlash, qiziqish, eslab qolish va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Multimedia – bu matn, rasm, audio, video, animatsiya kabi bir nechta axborot ko'rinishlarini o'z ichiga olgan texnologiyalardir. Boshlang'ich sinflarda dars o'tishda quyidagi multimedia vositalari keng qo'llaniladi: Interaktiv doskalar, ta'limiy video va animatsiyalar, elektron darsliklar, multimedialli taqdimotlar, mobil ilovalar va platformalar. Interaktiv doskalar – bu sensorli ekranli elektron qurilma bo'lib, u kompyuter va proyektor bilan bog'lanadi. Bu doska

orqali yozish, chizish, slaydlar ko'rsatish, video va audio materiallarni namoyish qilish mumkin bo'lib, bu esa ta'lim jarayonini vizual va jonli tarzda olib borish, o'quvchilarni darsga faol jalb etish hamda ko'rgazmali vositalarni interaktiv shaklda taqdim etish imkonini beradi.

**Metodologiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirish maqsadida multimedialli vositalardan foydalanishning pedagogik va psixologik afzalliklari o'rganiladi. Asosiy metod sifatida tahliliy-deskriptiv yondashuv, mavjud ilmiy tadqiqotlar sharhi hamda amaliy misollar tahlil qilingan.

**Muhokama va natijalar.** Ta'lim jarayonida video va animatsiyalardan foydalanish samarali o'qitish usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu vositalar orqali o'quv materiallari vizual va eshitish orqali yetkaziladi, bu esa murakkab tushunchalarni yengilroq va tushunarliroq qilib tushuntirish imkonini beradi. Multimedialli vositalar darslarni jonlantiradi, o'quvchilarning diqqatini jalb qiladi, o'zlashtirish darajasini oshiradi. Video, animatsiya, slaydlar va

mobil ilovalar orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, yaratuvchanlik va texnologik savodxonlik rivojlanadi. O'quvchilar passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanadi, bu esa ularning motivatsiyasi va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini kuchaytiradi.

1. Multimedia vositalari turli o'rganish uslublariga moslashadi va har bir bolaning individual ehtiyojlarini qondira oladi.

2. Guruh va juftlikdagi interaktiv ishlanmalar o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga hissa qo'shadi.

3. Multimediali vositalardan foydalanish murakkab tushunchalarni vizualizatsiya qilish, kognitiv yukni kamaytirish va stressni pasaytirishda ham samarali ekani qayd etilgan.

Bugungi kunda ta'lim raqamli vositalar bilan uyg'unlashgan holda shakllanmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinfda bu texnologiyalar nafaqat yordamchi vosita, balki asosiy o'qitish mexanizmiga aylanishi lozim. Multimedialar orqali dars jarayoniga interaktivlik kiritilishi, o'quvchilarning bilimni o'zlashtirishga nisbatan shaxsiy mas'uliyatini oshiradi. Bu esa pedagogik yondashuvni o'zgartiradi: o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, muvofiqlashtiruvchiga aylanadi. Shuningdek, bolalar psixologiyasida tez charchash, diqqatning sustligi, o'zini ifoda etishdagi qiyinchiliklar kabi muammolar mavjud. Multimedia texnologiyalari aynan shu nuqtalarda yordamchi bo'lib xizmat qiladi — darslar vizual, eshitish va harakatli shaklda olib borilganda, bolalarning psixologik faolligi va o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi ortadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarda multimedialar yordamida o'tilgan darslardan so'ng:

o'quvchilarda kognitiv faoliyat oshadi,

o'z fikrini mustaqil ifoda qilish qobiliyati rivojlanadi, motivatsiya barqaror bo'ladi,

o'zlashtirish samaradorligi an'anaviy darslarga nisbatan yuqori bo'ladi.

Bunday yondashuv o'quvchilarning mavzuni tezroq va chuqurroq anglashiga yordam beradi. Bundan tashqari, vizual materiallar eslab qolish darajasini oshiradi hamda o'quv jarayonida vaqtni tejashga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'limda raqamli vositalarning roli tobora ortib bormoqda. Jumladan, elektron darsliklar va multimediali taqdimotlar mustaqil o'rganish jarayonini yanada qulay va samarali qiladi. Elektron

darsliklar bosma darsliklarning raqamli shakli bo'lib, ularni kompyuter, planshet yoki mobil qurilmalar orqali istalgan joyda va vaqtda o'qish mumkin. Bu esa o'quvchilarga kerakli materiallarni o'zlariga qulay vaqtda takrorlash imkonini beradi. Shuningdek, ko'plab o'quv resurslarini bitta qurilmada jamlash orqali o'quv yukini yengillashtiradi. Multimediali taqdimotlar esa matn, rasm, video va ovoz orqali ta'limiy axborotni tushunarli va qiziqarli tarzda yetkazishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'limda interaktivlik muhim o'rin tutadi. Testlar, o'yinlar va savol-javoblar orqali o'quvchilar bilimni mustahkamlash, o'zlashtirish darajasini oshirish va jarayonga faol jalb etish mumkin. Bunday usullar, ayniqsa, til o'rganish, fanlarni mustaqil o'zlashtirish, amaliy mashqlar bajarish hamda bilimni sinashda samarali qo'llaniladi. Shuningdek, ta'limiy platformalar orqali onlayn o'qitish jarayonini tizimli va nazorat ostida tashkil etish mumkin. *Google Classroom, Moodle, Zoom, Microsoft Teams* kabi platformalar masofaviy ta'lim uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ular yordamida uy vazifalarini topshirish va tekshirish, video darslar o'tkazish, testlar tuzish va baholash tizimini yuritish mumkin. Ushbu platformalar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali aloqani ta'minlab, zamonaviy ta'lim talablariga javob beradi. O'qituvchilarning faoliyati ko'p qirrali bo'lib, ular boshqaruvchi, muloqot qiluvchi, yo'naltiruvchi, tashkil etuvchi va baholovchi rollarini amalga oshirishlari kerak bo'ladi [2].

O'quv jarayonini raqamli vositalar orqali boshqarish va tahlil qilish zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Xususan, boshlang'ich sinflarda multimediali vositalardan foydalanish pedagogik nuqtayi nazardan bir qator afzalliklarga ega. Video va animatsiyalar, interaktiv doskalar, elektron darsliklar hamda mobil ilovalar orqali ta'lim jarayoni yanada qiziqarli, tushunarli va samarali bo'ladi. Ushbu raqamli texnologiyalar o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi, o'zlashtirish darajasini kuchaytiradi va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Demak, boshlang'ich sinflarda multimedialarni qo'llash ta'lim jarayonidagi passiv qabul qiluvchilikni kamaytirib, faollik va ishtirokchilikni rag'batlantirishi mumkin. Har bir boshlang'ich sinf o'quvchisi o'ziga xos o'rganish uslubiga ega — kimdir vizual uslubda o'rganadi, kimdir esa audio yoki kinestezik (harakat orqali) uslubga moyil bo'ladi. Multimedialar bu

turli uslublarni birlashtirish imkoniyatini yaratadi. Boshlang'ich sinf darslarida, ayniqsa, **abstrakt tushunchalar, hodisalar va jarayonlarni** o'quvchiga tushunarli shaklda yetkazish uchun multimedia vositalaridan foydalanish samarali natija beradi.

Tabiatshunoslik fani misolida bu vazifani quyidagi ko'rinishda bajaramiz.

Masalan, **"Suvning holatlari"** [3] mavzusini o'rganishda o'quvchilarga quyidagi topshiriqni berish mumkin:

**Topshiriq:** o'quvchilar uchta holatni — qattiq (muz), suyuq (suv) va gazsimon (bug') holatni ko'rsatuvchi animatsiyani tomosha qiladi. So'ngra ular kichik guruhlariga bo'linib, har bir holatning xususiyatlarini rasm yoki grafik yordamida ifodalaydi. Yakunida esa o'quvchilar tajriba tarzida suvni isitish orqali bug'lanish jarayonini kuzatadilar. Bunday topshiriq vizual, auditiv va kinestezik o'quvchilarni bir vaqtda faol jalb qiladi hamda o'quv materialining yaxshiroq o'zlashtirilishiga yordam beradi. Multimedialar yordamida boshlang'ich sinflardagi murakkab mavzular o'quvchilarga ko'proq tushunarli bo'lishi, tushunishdagi xatoliklar va chalkashliklar kamayishi mumkin. O'quvchilarning darsda "faqat tinglovchi" emas, balki "ishtirokchi" rolini egallashi samarali ta'limning muhim omilidir.

Multimedialarni qo'llash o'quvchilarga o'z fikrini ifoda etish, yaratuvchan bo'lish imkoniyatini ham beradi. Ular o'qituvchilarga darsni turli shaklda tashkil etish, taqdimotni vizual qilib berish, dars mavzusini har xil media elementlari bilan to'ldirish imkonini beradi. Masalan, video, audio, animatsiya, interaktiv testlar birlashtirilishi mumkin. Tadqiqotlarda bu qo'llanilish dars samaradorligini oshirishi bilan bog'langan. Natijada, dars o'tish jarayoni ancha xilmaxil va dinamik bo'ladi, bu esa boshlang'ich sinflarda muhim — chunki yosh bolalar tez charchaydilar yoki bir motivatsiyani uzoq ushlab turish qiyin bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda multimediali vositalarni qo'llash — pedagogik jihatdan juda muhim va foydali yo'ldir. Diqqatni jalb qilish, turli o'rganish

uslublariga moslashuv, tushunishni chuqurlashtirish, faollik, ijodiy rivojlanish, raqamli savodxonlik hamda o'qituvchilarning darslarini boyitish kabi ko'plab afzalliklarga ega. Tabiiyki, bu vositalarni samarali qo'llash uchun dars rejasi, media tanlash, yosh xususiyatlarini inobatga olish va texnik jihatlar ham muhim bo'ladi. Multimedia vositalari yosh o'quvchilarning diqqatini jalb qilishda an'anaviy dars metodlariga nisbatan samaraliroq bo'lib, guruh yoki juftlikda ishlash uchun, hamkorlikni rag'batlantiruvchi shaklda qo'llanadi. Masalan, raqamli taqdimotlar, animatsiyalar orqali muammo yechish vazifalarida bolalar jamoa a'zosi sifatida fikr almashadi, ko'rib chiqadi, tahlil qiladi. Boshlang'ich sinflarda multimedia vositalaridan foydalanish nafaqat ta'lim metodologik jihatdan samarali, balki psixologik jihatdan ham bir qator muhim foydalarni beradi. Xususan, e'tibor va motivatsiyani oshiradi, fikrlash va tushunishni qo'llabquvvatlaydi, ijtimoiyemotsional kompetensiyalarni rivojlantiradi, o'qituvchining dars jarayonidagi roli va o'quvchining hissiy jihatdan ishtirokini mustahkamlaydi, hamda stress va bezovtalikni kamaytirishga yordam beradi.

**Xulosa va takliflar.** Boshlang'ich sinflarda **multimediali vositalarni qo'llash** ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mazkur vositalar darsni **qiziqarli, tushunarli va jonli** tarzda tashkil etish imkonini yaratadi, shu bilan birga o'quvchilarning **faolligi, mustaqil o'rganish qobiliyati va yaratuvchanlik salohiyatini** rivojlantiradi.

Ta'lim jarayonida yuqoridagi ijobiy natijalarga erishish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Avvalo, o'qituvchilarni multimedia vositalaridan samarali foydalanish ko'nikmalariga ega qilish zarur. Shu maqsadda muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish o'qituvchilarning texnologik savodxonligini oshirib, ularni dars jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanishga tayyorlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov S.S. va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari. – T.: Sharq, 2000.
2. Ta'limda axborot texnologiyalari: O'quv qo'llanma / R.X. Ayupov. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti. –T.: TPDU, 2020. 580- bet.
3. Malikova Y.V. Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. 1-qism. –T., 2023. 52-bet.

**Mahliyo AXMEDOVA,**  
*Samarqand davlat universiteti Urgut filiali*  
*Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrası o'qituvchisi*

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BOLALAR ADIBLARINING AHAMIYATI VA VAZIFALARI

**Annotatsiya:** boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qish-savodxonlik darslari muhim pedagogik jarayon hisoblanadi. Bu darslar orqali bolalarda nafaqat o'qish, yozish, fikrlash ko'nikmalari shakllanadi, balki ularning intellektual, axloqiy va ma'naviy kamol topishlari ham rivojlanadi. Shu nuqtayi nazardan bolalar adabiyoti va bolalar adiblarning asarlari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun darslik sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar uchun yozilgan adabiy asarlar yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida, ona yurtga sadoqat, insonparvarlik va mehr-oqibat tuyg'usi bilan tarbiyalashga xizmat qiladi. Tarbiyaviy jarayonlarda eslatib o'tish joizki, bolalar adabiyoti, xususan bolalar adiblarning asarlari bolalarning yosh xususiyatlariga mos shakllanganligi bilan ajralib turadi. Adiblar tilining sodda va ravonligi, voqealarning bolalar uchun tushunarli, ma'naviy-estetik tomondan boy bo'lishi, bolalarning dunyoqarashini kengaytirishda, nutq tarbiyasini takomillashtirishda va tafakkurni o'stirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** *boshlang'ich sinf, o'qish savodxonligi, bolalar adiblari, adabiyot, tarbiya, ma'naviyat, badiiy asar, tafakkur, ona tili, o'quvchi.*

**Аннотация:** уроки чтения и грамотности для учащихся начальной школы – важный педагогический процесс. Благодаря им дети не только развивают навыки чтения, письма и мышления, но и развивают интеллектуальную, нравственную и духовную зрелость. С этой точки зрения, детская литература и произведения детских писателей имеют большое значение в качестве учебников для учащихся начальной школы. Произведения, написанные для детей, служат воспитанию подрастающего поколения в духе национальных ценностей, преданности Родине, гуманизма и доброты. В образовательном процессе следует отметить, что детская литература, в частности произведения детских писателей, отличается своей возрастной адаптацией. Простота и доступность языка писателей, доступность повествования для детей, богатство духовно-эстетических аспектов имеют непревзойденное значение для расширения кругозора детей, совершенствования речевого развития и развития мышления.

**Ключевые слова:** *начальная школа, читательская грамотность, детские писатели, литература, воспитание, духовность, художественное произведение, мышление, родной язык, ученик.*

**Annotation:** reading and literacy lessons for primary school students are an important pedagogical process. Through these lessons, children not only develop reading, writing, and thinking skills, but also develop their intellectual, moral, and spiritual maturity. From this point of view, children's literature and the works of children's writers are of great importance as textbooks for primary school students. Literary works written for children serve to educate the younger generation in the spirit of national values, loyalty to the motherland, humanity, and kindness. In educational processes, it is worth mentioning that children's literature, in particular the works of children's writers, are distinguished by their age-appropriateness. The simplicity and fluency of the writers' language, the fact that the stories are understandable to children, and the richness of spiritual and aesthetic aspects are of incomparable importance in expanding children's worldview, improving speech education, and cultivating thinking.

**Key words:** *primary school, reading literacy, children's writers, literature, education, spirituality, work of art, thinking, native language, student.*

**Kirish.** Boshlang'ich sinf darslarida bolalar adiblarning asarlariga murojaat etilishi, avvalo, yosh o'quvchilar hayotining hayotiy ehtiyojlariga mosligi, ularda ifodalangan tasvir va obrazlarning farzand qalbiga yaqinligi bilan o'z aksini topadi. O'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini qo'llab-quvvatlash, ularda o'rganishga, o'qish va yozma nutqni rivojlantirishga kuchli motivatsiya uyg'otishda bolalar uchun maxsus yaratilgan adabiyot eng samarali vosita sanaladi. Chunki har bir bolaning dunyoqarashi, intellektual darajasi, hayotga bo'lgan

qarashi darslik va badiiy asarlar orqali shakllanadi. Bolalar uchun yozilgan she'r, hikoya, ertak va boshqa janrda yaratilgan asarlar bolaning qalbida o'ziga bo'lgan ishonch, orzu-umid, ezgulik va vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otadi.

**Asosiy qism.** Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan adabiyotlarda bolalarning tabiiy bilimga chanqoqligi, ijtimoiy muhitga, jamiyat va tabiatga moslashuvchanligi, ular o'rtasida do'stlik, mehr-oqibat, xushmuomalalik, rostgo'ylik kabi ijobiy xislatlarning tarbiyalanishiga keng imkoniyat yaratiladi. O'qish-

savodxonlik darslarida bolalar adiblarining asarlari o'quvchilar fikrlashini chuqurlashtirish, obrazli tafakkurini rivojlantirish, ongini shakllantirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limda darslik va o'quv qo'llanmalarida bolalar uchun maxsus, yoshga mos tanlangan adabiy parchalar hamda turli ifodali materiallar aynan bolalar adiblarining ijodidan o'rin olganligi bejiz emas. Zero, bolalar uchun yozilgan adabiyot bolaning butun hayotida asosiy o'rinni egallaydi. O'qish-savodxonlik darslarida bolalar adabiyotini to'g'ri tanlash va uning imkoniyatlaridan unumli foydalanish, o'quvchilar ongidagi tasavvurlarni chuqurlashtirishga, ular ongiga aqliy va ma'naviy boyliklarni singdirishga xizmat qiladi. Bolalar uchun tuzilgan asarlar oson o'zlashtiriladigan, hayotiy tajriba va ehtiyojlarga asoslangan, o'quvchilarda ijtimoiy va axloqiy muammolar bo'yicha to'g'ri yo'l tanlashga yordam beradigan mavzular doirasida yaratiladi. Bunday asarlar orqali o'qituvchi har bir bolada mustaqil fikrlash, o'z qarashlarini bayon qila olish va hayotiy masalalarga to'g'ri yechim topishni o'rgatadi. Boshlang'ich sinfda o'qish-savodxonlik darslarida bolaning o'z hayotiga, maktabdoshlariga, atrof-muhitga boshqa nigoh bilan qarashni shakllantiradi [1].

Bolalar adabiyotining yana bir ahamiyati – u bolalarni tilning go'zalligi, boyligi hamda nutqdagi ifodalilik bilan tanishtiradi, ularni badiiy so'z hayotiga boshlab kiradi. Til vositasidagi obraz yaratish, badiiy tilda o'z ifodasini topgan hikoyalar, ertaklar, she'r va bolalar hayotiga xos tasvirlarni o'qish, tinglash hamda muhokama qilish natijasida o'quvchilar nutqi boyiydi, tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Shu bilan birga, bunday asarlar orqali bolalarga ona yurt, til, oila va milliy qadriyatlarga hurmat, tabiatga mehr-u e'tibor, bilim olishga intilish, mehnatsevarlik, halollik va insoniylik kabi fazilatlar singdiriladi. Natijada bola o'zbek tili va adabiyotining mazmun-mohiyatini o'rganib, undan o'z hayoti uchun kerakli xulosalarni chiqaradi. O'qish-savodxonlik darslarida bolalar adiblarining asarlarini o'qitish metodikasi ham o'ziga xos ustuvor ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi qisqa vaqt ichida bolalar asarining mazmunini ochib berish, har bir o'quvchi uchun tushunarli va ta'sirchan qilib yetkazib berishga intiladi. O'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ularda kitobga, adabiyotga, o'qishga qiziqish uyg'otish ham tarbiyaviy jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Bolalar asarlarini tahlil qilish, uning badiiy xususiyatlarini ochib berish, undagi qahramonlarning xatti-harakati, axloqiy fazilatlarini, ifodalilik va badiiylik darajasi bilan tanishtirish orqali bolalarni badiiy asarlar bilan muntazam ishlashga o'rgatiladi. Bundan tashqari, bolalar adabiyoti orqali darslarda yaqqol ajralib turuvchi tarbiyaviy elementlar – vatanga sadoqat, mehr-shafqat, o'zgalarga yordam berish, to'g'riso'zlik, do'stlik, sobitqadamlik,

adolatparvarlik, yangi bilimlarni o'zlashtirishga harakat qilish, irodalilik, jamoaning muhim a'zosi bo'lish kabi xislatlar yuksak darajada tarbiyalanadi. Bolalarga mo'ljallangan asarlar jozibali syujet va hayotiy tasvirlar orqali ularning dunyoqarashini kengaytirishga, axloqiy mezonlarni mustahkamlashga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tayyorlangan asarlar bolaning ruhiy olami, ichki hissiyotlari bilan o'zaro bog'liqligi, ulg'ayish, yangi hayotiy bosqichga kirishda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni oson o'zlashtirishga imkoniyat yaratadi [2].

Bolalar adabiyoti va shu jumladan bolalar adiblarining asarlari bolaning hayotida birinchi dargoh – maktabga kelgan kundan boshlab muhim o'rin egallaydi. Darsda o'qigan asari yuragida iliq tuyg'ular uyg'otsa, hayotga bo'lgan ishonchini mustahkamlasa, o'quvchi uchun bu asar o'zgacha ahamiyat kasb etadi. Farzandlarimiz bolalar asarlari orqali hayot mazmunini, olam mo'jizalarini, kichkina yurakda katta umid va ezgulikni his etadi. Boshlang'ich sinf ona tili va adabiyot darslarida bolalar adabiyotining keng qamrovi, undagi obrazlar hayotiyliigi va yaxlitligi o'quvchining rivojlanishiga yangi zamin yaratadi. Asarlarning takrorlanmasligi, har bir detal ma'nosining mukammalligi bola shaxsining har tomonlama barkamol, fidokor, bilimli, josur va vatanparvar inson bo'lib kamol topishini kafolatlaydi [3].

Bolalar adabiyoti inson qalbi va tafakkuri rivojidagi ilk zamin, hayotining quvonchli davrlaridan biri hisoblanadi. Dars jarayonida bolalar asarlarini tinglash, o'qish va suhbat tarzida o'rganish bolalarda tafakkur faolligini oshiradi, mustaqil va erkin fikr yuritish olish, o'z so'zini ishonch bilan ayta olish, nutqini boyitish uchun muhim ahamiyatga ega. Aynan shunday asarlar orqali bolada kitobxonlik ko'nikmasi rivojlanadi, asarlardagi so'z va iboralardan to'g'ri foydalanish, o'z fikrini erkin bayon etish va o'z ustida doimiy ishlash istagi shakllanib boradi. Qolaversa, bunday o'quv materiallari bolalarda ezgulik, adolat, mehnatsevarlik, sadoqat, do'stlik, fidoyilik kabi fazilatlarini yuksak pog'onalariga olib chiqadi. Shuningdek, bugungi axborot asrida bolalar uchun to'g'ri, samarali va sifatli o'qish darslarini tashkillashtirish, bolalarda kitobni sevishtirish, kitobxonlikka qiziqishni mustahkamlash, ular tafakkurini boyitish uchun aynan bolalar adiblarining asarlaridan keng foydalanish muhim sanaladi. Maktabda, maktabdan tashqari vaqtda, uy sharoitida ham bolalar asarlarini o'qish, ular mazmunini tahlil qilish va yoddan aytish, bolalarning badiiy didi, ma'naviyatini yuksaltirishda samarali natija beradi. Har bir bola bunday asarlarni o'qib, hayotdan hayotiy saboq oladi, o'ziga ishonch, ezgulik va vatanparvarlik tuyg'usi tarbiyalanadi. Shu sababli, boshlang'ich sinf o'qish-savodxonlik darslarida bolalar adabiyotiga, bolalar adiblarining ijodiga ustuvor ahamiyat berilishi, ular orqali o'quvchilarning badiiy tafakkurini, o'zini

anglashini va mustaqil yashash tajribasini boyitish uchun imkoniyatlar kengaytirilishi lozim. Bunday asarlar har bir o'quvchining yuragiga yetib borib, ularga hayotiy saboq, ezgu orzu va yaxshi fazilatlarni o'rgatadi [4].

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qish savodxonligi darslari dastlabki bilim va tarbiya manbai sanaladi. Ushbu bosqichda bolalarda kitob o'qishga, so'z boyligini boyitishga, mustaqil fikrlash va o'z fikrini ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda bolalar adiblarining asarlari beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bolalar adabiyoti o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida ma'naviy ko'priq bo'lib xizmat qiladi, yoshlarning qalbiga ezgulik, insonparvarlik, yurtsevarlik, do'stlik kabi tushunchalarni singdiradi va ularning shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Boshlang'ich sinfda o'qish savodxonligi darslarida bolalar adiblari yaratgan qiziqarli ertak, she'r, hikoya va hikmatli asarlar kattalar adabiyotidan farq qiladi. Bu asarlar o'ziga xos soddaligi, yurakga yaqinligi, zamonaviy hayot bilan bog'liqligi orqali o'quvchilarning fikrlash madaniyatiga, til qobiliyatiga va dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bolalar adiblarining asarlari orqali bolalar matnni tushunish, mazmunini ajratib olish, voqealarni tasavvur qilish, orzu va xayollarga berilish, yaxshilik va yomonlikni ajrata olish kabi muhim ko'nikmalarni o'zlashtiradi. Bunday asarlar natijasida bolalarda yurtga, vatanga sadoqat, mehr-shafqat, do'stlik, samimiyat tuyg'ulari tarkib topadi. Shuningdek, bolalar adiblari tomonidan yaratilgan asarlar o'qish savodxonligi darslarida bolalarning nutqini rivojlantirishda ham asosiy o'rin tutadi. Matnlarni o'qish, muhokama qilish, voqealarni tahlil qilish, savol-javoblarga javob topish orqali o'quvchilar so'z boyligini oshiradi, lug'at zahirasini kengaytiradi, to'g'ri talaffuz, so'z ohangini o'zlashtiradi. Eng muhimi, bolalar adabiyotida bevosita bolalar uchun yaratilgani bois, bu asarlarda ularning yoshidan

kelib chiqadigan orzu-umidlar, hayotiy masalalar, do'stlik va oilaviy munosabatlar aks ettiriladi. Natijada, har bir o'quvchi o'zini asardagi qahramon o'rnida tasavvur qilib ko'radi, voqealarga munosabat bildiradi, xulosa chiqarish, yaxshi va yomonni anglash, hayotga ijobiy yondashish ko'nikmalarini hosil qiladi [5].

Bolalar adiblarining vazifalaridan yana biri — bolalar ongini rivojlantirish, ularda ijodkorlik va mustaqillik, o'z fikrini ochiq so'zlash malakasini shakllantirishdan iborat. Agar o'quvchilarga tanlab olingan asarlar orqali tarbiyaviy savol va topshiriqlar berilsa, ular jonli muhokama va ijodiy ishlar vositasida o'z dunyoqarashini boyitadi, mantiqiy fikrlash, taqqoslash, o'z fikrini asoslashga harakat qiladi. Shu tariqa, boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida bolalar adiblarining asarlari alohida o'rin tutadi. Bu asarlar o'quvchilarning bilimini, tafakkurini, qalbini, ma'naviyatini rivojlantiradi. Natijada, har bir bola zamonaviy, yuksak axloqli, bilimga chanqoq inson sifatida shakllanadi, o'qishga va hayotga beixtiyor qiziqadi. Bularning barchasi o'qish savodxonligi darslarida bolalar adabiyotining eng asosiy ahamiyati va vazifalari hisoblanadi [6].

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qish-savodxonlik darslarida bolalar adabiyotining ahamiyati va vazifalari nihoyatda beqiyosdir. Bu asarlar orqali bolalarning dunyoqarashi kengayadi, ularning nutqi, tafakkuri, ma'naviy va axloqiy olami boyiydi. Bolalar adabiyoti farzandlarimizda insoniylik, vatanparvarlik, ezgulik, do'stlik, bag'rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirish uchun eng asosiy omil hisoblanadi. Shu bois boshlang'ich ta'limda bolalar adabiyotiga asosiy e'tibor qaratilishi, bolalar adiblarining asarlari o'qish-savodxonlik darslarining mazmunan boy, qiziqarli va samarali tashkil qilinishida muhim rol o'ynaydi. Bolalar uchun yaratilgan asarlarni chuqur o'rganish va ulardan to'g'ri foydalanish orqali biz har tomonlama ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalay olamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmadjonova M., Khudoyberganova Q. Boshlang'ich ta'limda o'zbek bolalar adabiyoti. – Qarshi: Nasaf, 2020.
2. Jamilova B. Bolalar adabiyotida zamonaviylik. – Buxoro: Bukhara hamd print nashriyoti, 2023.
3. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
4. Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
5. Masharipova Z. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent, 2008.
6. Ortiqova H. Bolalar adabiyoti va uni o'qitish masalalari. – Toshkent: O'zbekiston YOIL, 2012.
7. Shomurodov Q. Hozirgi o'zbek bolalar adabiyoti. – Toshkent: Fan, 2015.

Jang'il ESHPULATOVA,  
Termiz davlat pedagogika instituti  
"Boshlang'ich ta'lim" kafedrası o'qituvchisi

Dildora NOMOZOVA,  
Termiz davlat pedagogika instituti  
"Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 4-kurs talabasi

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA AXLOQIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

**Annotatsiya:** maqolada boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayoni o'quvchilarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning mazmuni, maqsadi va metodik asoslari tahlil qilingan. Axloqiy tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi, shuningdek, o'qituvchining pedagogik yondashuvlaridan foydalanishning samaradorligi yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** axloqiy tarbiya, qadriyat, tarbiyaviy ishlar, boshlang'ich ta'lim, ma'naviyat, pedagogik metodika.

**Аннотация:** в статье анализируются содержание, цели и методические основы формирования нравственных ценностей у учащихся начальных классов в процессе обучения. Освещается эффективность использования педагогических подходов учителя, а также гармоничное сочетание национальных и общечеловеческих ценностей в процессе нравственного воспитания.

**Ключевые слова:** нравственное воспитание, ценность, воспитательная работа, начальное образование, духовность, педагогическая методика.

**Annotation:** the article analyzes the content, objectives, and methodological foundations of fostering moral values among primary school pupils within the educational process. It highlights the effectiveness of the teacher's pedagogical approaches, as well as the harmonious integration of national and universal values in the moral education process.

**Key words:** moral education, values, educational activities, primary education, spirituality, pedagogical methodology.

**Kirish.** Ta'lim tizimida axloqiy tarbiya muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarda ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari, odob-axloq ko'nikmalari, insoniy fazilatlarining shakllanishi jarayoni jadal kechadi. "tarbiya — aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon"[1]. Shu bois tarbiyaviy ishlarni ilmiy-metodik asosda tashkil etish, o'quvchilarni milliy ma'naviy meros ruhida tarbiyalash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tarbiyaviy soatlar aslida qanday bo'lishi kerak? – ta'lim jarayoni alohida, mustaqil darslardan tashkil topgani kabi tarbiyaviy soatlar ham yaxlit tarbiyaviy usullar, ta'sirchan vositalar yordamida

amalga oshiriladi; – sinf rahbari ushbu tarbiyaviy soatni o'tkazishga doir aniq ish rejasiga ega bo'lishlari lozim; – yuqori tashkilotlardan tavsiya asosida berilgan tarbiyaviy soatlarll mavzularining namunaviy rejasini asos qilib olish;

Bugungi davr barchamizdan axloqiy va ma'naviy jihatdan tarbiyaviy ishlarni yanada kuchaytirish lozimligini talab etmoqda. Ma'naviyat yo'q ekan, inson ongli ijtimoiy shaxs bo'la olmaydi. Shuning uchun ham sinf rahbarlari va butun o'qituvchilar jamoasi oldida o'quvchilarga milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida hayot kechirishni o'rgatishdek muhim vazifa turadi. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida

to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 3-modda sakkizinchi xat boshi 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son[1]., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni [2].

Mamlakatimizda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etilishi umumta'lim maktab o'qituvchilari zimmasiga qator dolzarb vazifalarni qo'ymoqda. Shu bilan birga, 2017- 2018-o'quv yilidan maktablarda 11 yillik o'rta ta'limning joriy etilishi ham o'z navbatida boshlang'ich ta'lim matematika fanlarining o'qitish texnologiyalarini rivojlantirishga bo'lgan yangi ehtiyojlarni keltirib chiqardi. Inson shaxsining kamol topishi esa juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, internet, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyaviy soatlar o'quvchilarda shakllangan qobiliyatlarni amaliyotga tatbiq etish maydoni hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan tarbiyaviy soatlar o'quvchilarda fanlar orqali shakllangan tayanch kompetensiyalarni ijtimoiy hayotda tatbiq eta olishlari uchun imkoniyat yaratib beradi.

O'quvchilarda xulq-odob madaniyatiga rioya qilish, fikrini erkin ifodalash, axborotlardan to'g'ri va samarali foydalanish, shu bilan birga bu boradagi xalqaro hamda milliy qonunchilik qoidalariga rioya qilishni tarbiyalash tarbiyaviy soatlarning asosiy maqsadlaridan birdir. Shuningdek, tarbiyaviy soatlar orqali o'quvchilarda to'g'ri kasb tanlash, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, bo'sh vaqtini to'g'ri taqsimlash, o'z iqtidorini rivojlantirish uchun turli to'garaklarni to'g'ri tanlash, tayyor ish joylarida ishlash emas, balki o'zi ish joylarni yaratishi kabi qobiliyatlar shakllantiriladi. Tarbiyaviy soat dasturlari oddiydan murakkablikka tamoyili asosida shakllantirilgan bo'lib, quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Vatanparvarlik axloqiy, huquqiy, jismoniy, gigiyenik, ekologik

hamda estetik tarbiya shuningdek, o'quvchilarni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltiradi. Tarbiyaviy soatlarning mazkur yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularda yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

**Kommunikativ kompetensiya** — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi** — media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi** — doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayoti davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi** — jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya** — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda**

**foydalanish kompetensiyasi** — aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Shuningdek, mazkur kompetensiyalar har bir tarbiyaviy soatning mazmunidan kelib chiqqan holda shakllantiriladi.

**Tahlil va natija.** Boshlang'ich sinflarda axloqiy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda quyidagi metodikalar qo'llaniladi: **muloqot, namuna orqali o'rgatish, mashqlar, suhbatlar va hikoyalar, shuningdek, axloqiy vaziyatlarni tahlil qilish va o'yinlardan foydalanishdir.** Bu jarayonda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, guruhli va individual mashg'ulotlar orqali axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalari shakllantiriladi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikalari. Muloqot va namuna orqali o'rgatish — O'qituvchi o'quvchilar bilan axloqiy masalalar bo'yicha erkin muloqotni yo'lga qo'yadi. O'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatlari axloqiy namuna bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilarga shaxsiy va ijtimoiy hayotda to'g'ri xulq-atvor namunalari ko'rsatiladi.

Suhbat va hikoyalar — O'quvchilarning yoshiga mos axloqiy mavzudagi hikoyalar, dostonlar, matallardan foydalaniladi. Hikoyalar asosida o'quvchilar bilan qiziqarli suhbatlar tashkil etiladi, ularning fikr-mulohazalari tinglanadi. Axloqiy vaziyatlarni tahlil qilish — turli xil axloqiy vaziyatlar

namoyish qilinadi. O'quvchilar bu vaziyatlarning sabablarini va oqibatlarini tahlil qiladilar, o'zlarining xulosalarini chiqaradilar.

O'yinlardan foydalanish — rol o'yinlari. O'quvchilar turli rollarni ijro etib, axloqiy jihatdan to'g'ri qaror qabul qilishni o'rganadilar.

Axloqiy-ta'limiy o'yinlar: mavzuga oid o'yinlar orqali axloqiy tushunchalar mustahkamlanadi.

Axloqiy mashqlar — o'quvchilarga o'zlarining xulq-atvorlarini kuzatish va nazorat qilishga yordam beruvchi mashqlar beriladi.

O'quvchilarning yomon odatlardan qutulishga va ijobiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan mashqlar tashkil etiladi. Guruh ishlari — Guruhli mashg'ulotlarda o'quvchilar hamkorlikda ishlashni, bir-birining fikrini hurmat qilishni va jamoada faol bo'lishni o'rganadilar. Birgalikda loyihalarni amalga oshirish orqali axloqiy tajriba oqitiriladi.

**Xulosa.** Boshlang'ich sinflarda axloqiy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish o'quvchilarda mustahkam ma'naviy poydevor yaratadi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish tamoyillari barkamol insonni tarbiyalashda keng imkonga ega bo'lib, uni qay darajada olib borish tarbiyachining pedagogik mahoratiga bog'liqdir.

Tarbiyaviy ishlar samaradorligini ta'minlovchi muhim omil pedagogik mahoratdir. Bu metodika asosida shakllangan shaxs kelajakda ijtimoiy hayotda faol, mas'uliyatli va komil inson bo'lib yetishadi. Pedagog axloqiy tarbiyada innovatsion metodlar, milliy meros va zamonaviy yondashuvlarni uyg'unlashtirishi muhim sanalanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 3-modda sakkizinchi xat boshi 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni
3. Hasanboyeva O. va boshq. *Pedagogika nazariyasi va tarixi*. — Toshkent: Talqin, 2019.
4. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. — Toshkent: Fan, 2020.
5. Zunnunov A., Xodjayev Sh. *Boshlang'ich ta'lim metodikasi*. — Toshkent: O'zbekiston, 2016.
6. G'afforova T. *Tarbiyaviy ishlar metodikasi*. — Toshkent: O'qituvchi, 2015.

Nigoraxon YAQUBOVA,  
Texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti  
[nigoraxon94yaqubova@mail.ru](mailto:nigoraxon94yaqubova@mail.ru)

## OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI VA PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining nazariy asoslari, pedagogik shart-sharoitlari hamda amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida kommunikativ kompetensiya talabalarning kasbiy kompetentligining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, muloqot psixologiyasi va lingvodidaktik tamoyillarga asoslangan metodik tizim taklif etiladi. O'tkazilgan tahlillar talabalarda kommunikativ malakalarning rivojlanishi o'quv samaradorligini, kasbiy moslashuvchanlikni va ijtimoiy faollikni oshirishini ko'rsatdi.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ kompetensiya, oliy ta'lim, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, kasbiy kompetensiya, kommunikativ malaka.

**Аннотация:** в данной статье проведён системный анализ теоретико-методологических основ, педагогических условий и практических механизмов развития коммуникативной компетенции студентов в высших образовательных учреждениях. Коммуникативная компетенция рассматривается как значимый показатель профессиональной подготовки и личностного развития обучающихся в контексте компетентностной модели современного образования. В ходе исследования разработана методическая система, основанная на интеграции компетентностного подхода, интерактивных методов обучения, психологии коммуникации, лингводидактических принципов и инновационных педагогических технологий. Полученные результаты показывают, что предложенный методический подход способствует существенному повышению уровня сформированности коммуникативных умений и навыков студентов, а также улучшает эффективность их учебной деятельности, профессиональную адаптивность и социальную коммуникативную активность.

**Ключевые слова:** коммуникативная компетенция, коммуникативные навыки, высшее образование, компетентностный подход, педагогические технологии, интерактивные методы, лингводидактика.

**Annotation:** this article presents a systematic analysis of the theoretical and methodological foundations, pedagogical conditions, and practical mechanisms for developing students' communicative competence in higher education institutions. Communicative competence is viewed as a significant indicator of both professional preparedness and personal development within the framework of the contemporary competence-based educational model. The study proposes a methodological system grounded in the integration of the competence-based approach, interactive teaching methods, communication psychology, linguodidactic principles, and innovative pedagogical technologies. The findings demonstrate that the proposed methodological approach substantially enhances the formation of students' communicative skills, improves their academic performance, increases professional adaptability, and strengthens their social communicative engagement.

**Key words:** communicative competence, communicative skills, higher education, competence-based approach, pedagogical technologies, interactive methods, linguodidactics.

Oliy ta'lim tizimida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish XXI asr ta'limining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Zamonaviy ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohasi va ilmiy muhit kommunikativ jihatdan yetuk, o'z fikrini aniq, mantiqiy va asosli tarzda bayon qila oladigan mutaxassislarni talab qiladi. Shu bois kommunikativ kompetensiya shaxsning umumiy kompetentligi va kasbiy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

So'nggi yillarda respublikamizda oliy ta'limning modernizatsiya qilinishi, raqamli pedagogika vositalarining jadal kirib kelishi, ta'lim jarayonining kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqilishi talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning yangi usullarini joriy etishni taqozo etmoqda. Biroq mavjud ta'lim jarayonida kommunikativ kompetensiya rivojlanishining metodik mexanizmlari yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Tadqiqotning dolzarbligi — kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishni tizimli asosda tashkil etish, uni o'qitish jarayonining didaktik modeliga integratsiya qilish va yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash zaruriyati bilan belgilanadi.

Jahon pedagogik tadqiqotlarida (Hymes, Canale & Swain, Littlewood) kommunikativ kompetensiya nutqiy, sotsiologik, strategik va pragmatik komponentlar uyg'unligini anglatuvchi murakkab tizim sifatida talqin qilinadi. Mahalliy olimlar (Yo'ldoshev, G'afforova, Ismailov, Ergashev va boshqalar) esa kommunikativ kompetensiyani talabning ijtimoiy-madaniy va kasbiy faoliyatida faol qo'llay olishini ta'minlovchi integrativ sifat sifatida izohlaydi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, ko'plab manbalarda nazariy yondashuvlar yetarli darajada ochilgan bo'lsa-da, talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning metodik tizimi, baholash mezonlari va pedagogik shart-sharoitlari aniq aks ettirilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni **nazariy va amaliy jihatdan tizimli tahlil qilindi**. Tadqiqot metodologiyasi bir nechta bosqichdan iborat bo'lib, har bir bosqichda ilmiy va amaliy maqsadlar uyg'unlashgan.

## 1. Nazariy-tahliliy bosqich

Bu bosqichda: kommunikativ kompetensiya va uning tarkibiy komponentlari (til, nutq, strategik va sotsial-kommunikativ) tahlil qilindi; zamonaviy oliy ta'lim muassasalaridagi pedagogik amaliyotlar va interfaol metodologiyalar o'rganildi; xalqaro va mahalliy tadqiqotlar (Hymes, Canale & Swain, Littlewood, Savignon va boshqalar) tahlili asosida nazariy asos yaratildi.

## 2. Eksperimental-pedagogik bosqich

Bu bosqichda tajriba-sinov ishlari o'tkazildi: ishtirokchilar: 2 ta guruh (tajriba va nazorat) — jami 112 talaba; **Metodlar:** testlar, so'rovnomalar, kommunikativ malaka xaritalari, pedagogik kuzatuv; **Ma'lumot yig'ish vositalari:** yozma va og'zaki nutq amaliyotlari, rolli o'yinlar, debatlar, case-study mashqlari; **O'lchov mezonlari:** nutq madaniyati, muloqotga faollik, jamoada ishlash, strategik qaror qabul qilish, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish.

## 3. Diagnostik bosqich

- Talabalarning boshlang'ich va yakuniy kompetensiya darajasi **pre-test va post-test** usuli bilan o'lchandi;
- Diagnostik materiallar talabalarning nutqiy, lingvistik va ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarini baholashga qaratildi;
- Ma'lumotlar **kvantitativ va sifatli tahlil** usullari yordamida qayta ishlandi.

## 4. Metodik tizimni ishlab chiqish bosqichi

- Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning kommunikativ malakalarini rivojlantirish uchun **integrativ metodik tizim** ishlab chiqildi;
- Tizim uch bosqichni o'z ichiga oladi: motivatsion (muloqot zaruriyatini shakllantirish), o'quv-amaliy (interfaol mashqlar va rolli o'yinlar), refleksiv-baholovchi (o'z-o'zini baholash, pedagogik monitoring);
- Tizim innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalarni ham o'z ichiga oladi, masalan: virtual debat platformalari, onlayn kommunikatsiya mashqlari, interaktiv didaktik o'yinlar.

## 5. Analitik va statistik bosqich

- Olingan natijalar **statistik paketlar yordamida tahlil qilindi** (o'rtacha qiymat, dispersiya, foizli ko'rsatkichlar); Taqqoslash

natijalariga ko'ra, tajriba guruhi va nazorat guruhi o'rtasida sezilarli farqlar aniqlanib, metodik tizimning samaradorligi tasdiqlandi; Sifatli tahlil esa talabalarning muloqotdagi xatti-harakatlari, ijtimoiy faolligi va mustaqil fikrlashini baholash orqali qo'shimcha dalillar keltirildi.

**6. Innovatsion komponentlar:** tadqiqot jarayonida **innovatsion pedagogik yondashuvlar** (interfaol metodlar, raqamli vositalar, virtual o'quv muhiti) joriy qilindi; bu yondashuvlar talabalarning muloqot qobiliyatini **shaxsiy va kasbiy darajada rivojlantirishga** xizmat qiladi; shu orqali ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki **kompetensiya shakllantirishga** yo'naltiriladi.

Asosiy natijalar: Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy komponentlari aniqlashtirildi; til kompetensiyasi — leksik, grammatik va fonetik bilimlar; nutqiy kompetensiya — monolog, dialog, bahs-munozara olib borish qobiliyati; sotsial-kommunikativ kompetensiya — jamoada ishlash, vaziyatga mos muloqot qilish; strategik kompetensiya — kommunikativ vaziyatni boshqarish, muloqot to'siqlarini bartaraf etish.

**2. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari belgilandi:** interfaol metodlardan (debate,

case-study, role-play) tizimli foydalanish; o'quv jarayonda raqamli kommunikatsiya vositalarini joriy etish; talabalarda refleksiya va o'z-o'zini baholash mexanizmlarini shakllantirish; muloqotga yo'naltirilgan muhit yaratish.

### 3. Metodik tizim ishlab chiqildi

Metodik tizim quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oldi: motivatsion bosqich — muloqot zaruriyatini shakllantirish; o'quv-amaliy bosqich — mashqlar, rolli o'yinlar, keyslar asosida to'liq muloqot amaliyoti; refleksiv-baholovchi bosqich — kompetensiya darajasini monitoring qilish.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim jarayonining markaziy vazifalaridan biridir. Kommunikativ kompetensiya nafaqat kasbiy tayyorgarlikni, balki talabaning ijtimoiy faolligini, jamoada ishlash qobiliyatini va shaxsiy rivojlanish darajasini ham belgilaydi.

Taklif etilgan metodik tizim talabalarning muloqot ko'nikmalarini izchil shakllantirish, ularni real kommunikativ vaziyatlarga tayyorlash va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi. Kelgusida raqamli kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hymes, D. (1972). *On Communicative Competence*. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Canale, M., & Swain, M. (1980). *Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing*. Applied Linguistics, 1(1), 1–47.
3. Littlewood, W. (1981). *Communicative Language Teaching: An Introduction*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Savignon, S. (2002). *Communicative Language Teaching: Linguistic Theory and Classroom Practice*. Yale University Press.

Farizaxon TOHIROVA,  
Samarqand davlat universiteti  
tayanch doktoranti,  
[farizatohirova@gmail.com](mailto:farizatohirova@gmail.com)

## ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI XAMSANAVISLIKDAGI ISHQIY DOSTONLAR GULTOJI SIFATIDA

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Alisher Navoiy qalamiga mansub “Farhod va Shirin” dostoni xamsanavislikda salaflarning turkum ishqiy dostonlari bilan mushtarak va farqli jihatlar asnosida tahlil etilib, asarning o‘ziga xos, ohoriy jihatlari ko‘rib o‘tiladi. Dostonning boshqalaridan farqli tomonlari uning xamsachilikdagi maqomotiga qay darajada ta’sir ko‘rsatganiga e’tibor qaratiladi.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, “Farhod va Shirin”, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Xamsa, tasavvuf.

**Аннотация:** в данной статье поэма Алишера Навои «Фархад и Ширин» анализируется в сопоставлении с предшествующими любовными дастанами традиции хамсанавислик. Рассматриваются общие и отличительные черты произведения, его оригинальные художественные особенности, а также степень влияния этих отличительных сторон на место и значение поэмы в системе хамсанавислик.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, Фархад и Ширин, Низами, Дехлави, Хамса, суфизм.

**Annotation:** this article examines Alisher Navoi’s poem “Farhod and Shirin” in comparison with the earlier romantic epics of the khamsa-writing tradition. It analyzes the common and distinctive features of the work, explores its unique artistic qualities, and discusses how these characteristics influence the poem’s position and significance within the khamsa tradition.

**Key words:** Alisher Navai, Farhad and Shirin, Nizami, Dekhlavi, Khamsa, sufism.

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” hamda “Layli va Majnun” dostonlari adib xamsasining ishqiy dostonlarini tashkil etadi va ular yakka sujetli dostonlar sifatida alohida ahamiyatga egadir. Chunki bu dostonlarning ikkisida ham ISHQ tushunchasi markaziy o‘rin tutgani holda badiiy talqin etiladi. Aslan ushbu dostonlarning sujeti Nizomiydan boshlab barcha xamsanavislar ijodida deyarli bir xil, ammo har bir ijodkor ushbu sujetga o‘z so‘zi va dunyoqarashini singdira bilgani bilan bir-biridan farqlanadi. Alisher Navoiy esa Xusrav va Shirinning ishqiy mojarolariga ayrica yondashadi, uning bu boradagi qarashlari ideal bo‘lib sujetga ham ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. Nizomiyning “Xusrav va Shirin”idagi Xusrav—Xusrav Parvez binni Xurmuz sosoniylar sulolasiga mansub podshoh bo‘lib, tarixiy shaxs sanaladi. U Nizomiy va Xusrav Dehlaviy dostonlarida asosiy personaj sifatida talqin etiladi. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”ida esa bosh qahramon obrazini Farhod egallaydi. Nizomiy dostonida ham Farhod obrazi bor,

biroq u asarning ikkinchi yarmida (sut kanalini qazish voqealarida) maydonga chiqadi. Dehlaviy dostonida esa Farhod Chin xoqonining o‘g‘li sifatida qalamga olinadi, uning o‘tmishi haqida ham bir qator ma’lumotlar berib o‘tiladi. Bundan tashqari Ashraf Marog‘aviy “Xamsa”sida ham “Shirin va Xusrav” dostoni mavjud. Navoiy ushbu asarlardan ham ilhomlanib, ham ijodiy yangilik qilishga oshiqqanligini dostonida quyidagicha ifoda etadi:

Burun jam’ et nekim bo‘lg‘ay tavorix,  
Borida ista bu farxunda tarix.  
Topilg‘ay shoyad andog‘ bir necha so‘z,  
So‘z aytur elg‘a ul yon tushmagan ko‘z.  
Ani nazm etki tarhing toza bo‘lg‘ay,  
Ulusqa mayli beandoza bo‘lg‘ay.  
Yo‘q ersa nazm qilg‘onni xaloyiq,  
Mukarrar aylamak sendin ne loyiq. [2.44]

Navoiy ushbu dostonga “o‘zgacha tarh” berish niyati borligiga alohida to‘xtalib o‘tadi, doston mazmunida esa Xusrav Dehlaviyning “Shirin va Xusrav”idan ijodiy oziqlanganligi yaqqol seziladi:

Chu Xusrav surdi bu rangin fasona,  
 Dedi so'z avvalidan ham nishona.  
 Manga ham chun bu pok insho ko'rundi,  
 Bidoyatdin demak avlo ko'rundi.[2.49]

Garchi salaflar ijodidagi go'zalliklardan o'z o'rnida ilhomlangan bo'lsa-da, Navoiyning badiiy maqsadi o'zga edi. Uningcha, Xusravdek qalbida ishqdan ko'ra taxt vasvasasi kuchliroq bo'lgan hukmdor oshiq timsoliga emas, raqib timsoliga ko'proq mos tushardi. Qalbga ikki muhabbatni qanday singdirish mumkinki, agar ularning biri ilohiy ishqqa payvand bo'lsa. Navoiy tanlagan Farhod Chindek haqiqat mulkning shahzodasi, u ko'rgan oyna esa uni qalbiga tutilgan ko'zgu timsoli deyish to'g'riroq bo'ladi. Alisher Navoiy Farhod, Shirin va Xusrav obrazlari misolida ISHQ konsepsiyasini mukammal yoritishga harakat qiladi, ular bevosita oshiq, ilohiy mazhar, raqib va nafsga qarshi kurash timsolida beqiyos tasvir etiladi: "...Ishqi majoziy "mazhar"siz siz sodir bo'lmaydi. "Mazhar" — ilohiy jamol siymosida aks etgan kishi...Layli Majnun uchun, tarso qizi Shayx San'on uchun..." mazhar" edi. Farhodning majoziy ishq uchun "mazhar" Shirindir". [3.210]

Dostonning ilmiy tahlillari ushbu asarning tasavvufiy ishq bilan butkul sug'orilgani, undagi har bir voqea tasavvufdagi daraja va maqomatlarga oid ekanligini ko'rsatadi. Farhoddek komil inson tasviri mashaqqat bilan bosib o'tilgan bir qator mushkul

yo'llarni bosib o'tish orqali takomiliga yetadi: "Olimning (Najmiddin Komilov) tadqiqotlarida Farhodning oynada Shirinni ko'rgunga qadar bo'lgan sarguzashtlari aslida solikning tariqat bosqichlaridan o'tish jarayonining badiiy ifodasi sifatida talqin etiladi. Oynada Shirinni ko'rgandan keyingi sarguzashtlar esa Suqrot aytgan birinchi qadam "o'zlikni foni etmoq"ning badiiy ifodasidan iborat".[4.157]

Dostonda Farhod shohlik rutbasidan kechib, "o'zlikni topmoq uchun o'zni foni etmoq" yo'liga kiradi. Bu esa uning mehnat-u mashaqqatlarga to'la qissasini boshlab beradi, Bu yo'lda u boshidan kechirgan sinovlar — Ahriman dev ham, ajdarho-yu Temir paykar ham aslida uning nafsiga qarshi kurashi edi, o'z nafsoniy illatlarini yenga olish esa uni Sulaymon uzugi-yu Jamshid jomidek nodir xazinalar sohibiga aylantirdi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostoni bilan nafaqat salaflar an'anasini davom ettirdi, balki unga yangi ma'no, unikal tasavvufiy g'oya va go'zal insoniy fazilatlariga to'la mazmun ham bera oldi. Ishqning maqomini shohlikdan ustun qo'ydi hamda uning asl mohiyatini ochiqqladi. Bizga yana bir karra ezgulik ko'ngildan boshlanishini, qalb go'zalligi barcha yaxshiliklarning boshi ekanligini ko'rsatdi. Shuning uchun ham ushbu doston nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi rivojlanib borayotgan shiddatli zamonamiz uchun muhim va ahamiyatlidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Sirojiddinov Sh. va boshq. Navoiyshunoslik. —T.: Tamaddun, 2019.
- 2.Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. — Toshkent: G'G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2006.
- 3.Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. — T.: Yozuvchi, 1996.
- 4.Tohirov S. Xamsanavislik an'anasi va Alisher Navoiy "Xamsa"si. — SamDU nashri, Samarqand, 2020.
- 5.[www.ziyo.com](http://www.ziyo.com)

**Bahora RAHIMOVA,**  
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
1 – bosqich doktoranti

## O'ZBEK ROMANI BUGUN QANDAY KO'RINISHDA? ("TO'RTKO'CHA" ROMANI ASOSIDA)

**Annotatsiya:** ushbu maqolada hozirgi o'zbek adabiyoti romanlarining o'zgacha qiyofasi unda aks etayotgan mavzu va voqealar ko'lami inson ruhiyati tahliliga ko'proq e'tibor berilayotgani, Ulug'bek Hamdamning "To'rtko'cha" romani tahlili va undagi obraz va personajlarning jamiyat hayotiga befarq bo'lmaydigan uning rivojlanishiga xizmat qiladigan qarashlari o'z aksini topadi.

**Kalit so'zlar:** *roman, obraz, xarakter, shaxs, janr, poetika, subyektiv, material, obyekt, poliglot.*

**Аннотация:** в данной статье отражается своеобразный облик современных узбекских литературных романов, сфера отражаемых в них тем и событий, большее внимание уделяется анализу человеческой психики, анализу романа Улугбека Хамдама "четыре улицы" и взглядов на образы и персонажей, служащих его развитию, которые не безразличны к жизни общества.

**Ключевые слова:** *роман, образ, характер, личность, жанр, поэтика, субъектив, материал, объект, полиглот.*

**Annotation:** this article reflects the fact that the special image of the current Uzbek literature novels pays more attention to the analysis of the human psyche in the scope of themes and events reflected in it, the analysis of Ulugbek Hamdam's novel "fourfold" and the views on it that serve its development, which are not indifferent to the life of society.

**Key words :** *novel, image, character, shaxs, genre, poetics, subjective, material, object, polyglot.*

**Kirish.** Roman janri boshqa barcha adabiy janrlarga qaraganda katta imkoniyatlarga ega. Chunki unda tasvir obyekti bo'lgan voqelik, xarakter, obraz o'zining keng epikligi, chuqur izchilligi bilan boshqa janrlardan ustun turadi. U janr sifatida yosh bo'lib o'zgarishlarga moyil, plastik janr bo'lib, kundan kunga takomillashib, yangi yangi sifat xususiyatlarini keltirib chiqarmoqda. U hayotning o'zi kabi turfa va harakatchandir. Bu janrning o'zgaruvchanligi uning imkoniyatlarining beqiyosligini ko'rsatadi va hayotdagi yangiliklarga nisbatan sezgirligini ko'rsatadi. Roman inson ichki olami sehriga chuqurroq kirib boradi. Bu janrning mashhur tadqiqotchisi M. Baxtin aytganidek; "...roman har qancha o'zgaruvchan bo'lmasin, beqaror bo'lib tuyilmasin, janr sifatida o'tmishini unutmaydi, unda doimo arxaikaning unsurlari saqlanib qoladi."

Adabiyotning umumiy taraqqiyotiga muvofiq har bir janr o'zgarishlar girdobiga tushadi. Roman ham bundan mustasno emas. U o'zining chuqur tovlanishlariga ega bo'lishiga qaramay, o'zining barqaror xususiyatlarini xotirasida saqlab qoldi. Har holda ham roman epik tafakkur, borliqqa tahliliy va tanqidiy munosabatda bo'lishi, alohida shaxs taqdirini

turmush bilan ajralmas holda bog'liqda aks ettirishi hayotning har bir ikir-chikirlarini maydalashtirib tasvirlash, ifodaning keng miqyosdaligi uni boshqa janrlardan farqlab turuvchi asosiy prinsiplariga sodiq qoldi. "Muhit bilan aloqasi uzilgan shaxs taqdiri romanning asosiy materialidir." (A. Rahimov O'zbek romani poetikasi / syujet va konflikt / ) hayotiy materialini o'zlashtirish jarayonida roman boshqa san'at turlari va adabiy janrlar bilan birgalikda o'z tabiatiga mos keladigan nimaiki bo'lsa, barchasini o'zlashtiradi. "Roman – deb yozgan edi Baxtin, – avval boshdanoq boshqa janrlardan zuvalasi pishiqdigi, tabiati o'zgachaligi bilan ajralib turadi, u bilan birga va uning o'zida butun adabiyotning kelajagi ham dunyoga keladi."

Bugungi kun romanlari asosan insonni uning ichki kechinmalari o'y-hayollarini, ruhiyatini tasvirlaydi. "Roman shaxsni badiiy hamda sotsial tadqiq etishning yangi-yangi usul va vositalarni kashf etmoqda. Hozirgi vaqtda roman insonning hayoti va yaratuvchilik faoliyatini tasvirlashdan tashqari, uning fikr-o'ylari, atrof-muhitga reaksiyasi va undan olgan taassurotlarini ham tahlil etishga borgan sari ko'proq murojaat

qilmoqda. Xarakterlarni evolyutsiyasida ko'rsatish prinsipi endilikda shaxsning ichki dramatik kolliziyasi orqali amalga oshmoqda." (A.Rahimov O'zbek romani poetikasi / syujet va konflikt / ) Tadqiqotchilari L. Zelster hozirgi nasrda xronologik tartiblanishi va voqealarning makonda o'zgarishini izchil mantiqiy dalillash singari kuchli tashqi faktorlarning unchalik zarurati qolmaganligini qayd etadi. Hozirgi kun romanlarda inson ichki olamiga chuqurroq kirib boradi. Syujet tashqi olamdan inson ichki olamiga ko'chiriladi. Insonning ichki olamiga ko'chish XX asrda yaratilgan bo'lib, bu adabiyotda subyektiv omillarning kuchayishi bilan bog'liqdir. Voqealarni qahramonning ichki dunyosiga ko'chirilishi hodisasi hozirgi kunda yaratilayotgan romanlarning asosiy xususiyatlardan biri bo'lib qolmoqda.

Keying yillar romanlarida voqelik va hayotiy materiallarning ta'sirida janr imkoniyatlarini cheklab qo'yuvchi qotib qolgan aqidalardan xalos bo'lishga intilish kuchaymoqda. Bu esa o'z navbatida roman istiqbolining yorqin bo'lishiga xizmat qiladi. Ammo ayrim hollarda turg'un aqidalardan xalos bo'lishga intilish romanning shakl va mazmuniga ham salbiy ta'sir qilishi mumkin. Vaholanki, tayinli mazmunga ega bo'lmagan, muayyan g'oyaviy mazmun nuqtayi nazaridan shakllantirilmagan "tuguni ham, yechimi ham bo'lmagan asar mazmunsiz safsatadan boshqa narsa emas" deydi Belinskiy.

Inson – badiiy adabiyotning tasvir va ifoda obyekti ekan, uning ruhiyati tasvirisiz adabiyotni yaxlit, bir butun holatda to'liq tasavvur etib bo'lmaydi. Demak, har qanday badiiy asarda, u qachon va qaysi janr, qay yo'sinda yaratilgan bo'lmasin, unda inson ruhiyati, kechinmalari, albatta, aks etgan bo'ladi.

"Hozirgi adabiyotda voqelikni tasvirlashga qaraganda inson ruhiyatini tahlil qilishga ko'proq e'tibor berilmoqda. Bugungi adiblar uchun hayotiy reallik birlamchi ahamiyat kasb etmaydi. Bunga badiiy reallikni ta'minlash vositasi debgina qaraladi. Bugun badiiy asar qiziqarli voqealar tasviridan emas, balki inson ko'nglining mikrotahlilidan iboratdir. Har bir inson olam va odamiyatni o'zini anglar darajadagina anglay oladi." (Bo'rixon Luqmon. Jaziramadagi odamlar (roman). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi, 2012. -324 b). davrlar almashinuvi mobaynida adabiyotdagi mavzular ko'lamini rang-baranglik kasb etib borsa-da, uning asosiy obyekti bo'lgan inson obrazi hamma vaqt

ham mana shu mavzularning asosiy maqsadi bo'lib kelmoqda. Darhaqiqat, har qanday siyosiy tazyiq, ijtimoiy yangilanish bo'lmasin, har bir badiiy asarning markazida inson, uning taqdiri, kechinmalari, orzu-armonlar, u yoki bu tarzda tahlilga tortilib kelinmoqda.

O'zbek romanining tug'ilishida o'zbek folklori va o'zbek klassik adabiyoti muhim vazifani o'tagan, shuningdek G'arbiy Yevropa romanlarining ta'siri ham katta rol o'ynagan. So'nggi yillarda yaratilayotgan romanlarda insonning ichki dunyosi tadqiq etilgan asarlar salmog'i oshib, turmushni mafkura yo'rig'iga muvofiq talqin etish barham topmoqda. Alohida olingan odamni ulkan bir olam sifatida ko'rsatish adabiyotimizning yetakchi tamoyiliga aylandi. Endilikda nafaqat, an'anaviy yo'nalishda, balki shakl-shamoyili, ifoda tarzi, obrazlar dunyosi, mazmun mundariyasi mutlaqo yangicha bo'lgan asarlar yaratilmoqda. Aytish mumkinki, adabiyotimizning shakl mazmun, uslub ko'rinishlari, badiiy-falsafiy tadqiq, tamoyillari yangilandi. Tasvir quyuqlashib, inson ruhiyati qatlamlarini aks ettirish miqyoslari, ifoda tarzida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi.

**Asosiy qism.** Maqolamizning obyekti Ulug'bek Hamdamning "To'rtko'cha" romani hisoblanib, asar salkam 20 yil davomida yozilgan bo'lib, unda jamiyat hayoti asosan bir shaxs taqdirida aks etgan. Bilamizki, yozuvchining barcha asarlarida millatimizning buguni va ertasi uchun juda muhim bo'lgan dolzarb masalalar yuzaga ko'tariladi. Adibning ushbu asari boshqalaridan dardchilligi, siyosiyliigi, publitistik ruh yetakchiligi bilan ajralib turadi. Yozuvchi ushbu romanda "Muvozanat"da aytolmagan gaplarini aytish imkoni, bo'lgan ichki tuyg'u va dardlarini qalamga oladi. Roman mustaqillik davriga xolis baho bergan eng birinchi romanlardan hisoblanadi. Hammaning ham haqiqatni aytishga yuragi dov bermaydi. Lekin zamonasining Mansur Xalloyi bo'lmish Ulug'bek Hamdam o'zi yashagan davrga olim, siyosatchi, shoir, faylasuf nigohi bilan qaraydi. Romanning bosh qahramoni ham yozuvchining o'zi bo'lib, voqealar o'z boshidan kechirganliklari asosida yozilganligi va ko'z o'ngimizda bo'lgan voqealar ham tasvirlanganligi asar qiymatini yanada oshiradi. Ijodkor davrning urib turgan yuragi bo'lishi kerak degan qarash bor. Xalq dardini va jamiyat nuqsonlarini yozishdan hayiqmaydigan adibning ushbu asari ham kitobxonni qattiq mushohada etishga majbur qiladi. Haqiqiy asar voqeani quruq bayon etishdan iborat emas, u insonni

mushohadaga chorlashi, va mulohaza maydoniga olib kirish kerak degan qarashga tayanib ushbu roman o'zbek adabiyotining qimmatli va qiymatli asarlari sirasiga kirishi shubhasiz. Asarning hayotiylik darajasi yuqori. Chunki bosh qahramon O'lmas va uning atrofidagi odamlar bugunning muammolari bilan yashab yaxshi-yomon holatlarga uchrab kun kechirib, ro'zg'orini tebratayotgan kishilardir. Shu jihati bilan ham kitobxonga uni yaqinlashtiradi. Asarda ko'pgina o'ziga xos fikrlar aforizmday jaranglaydi. Misol uchun: "O'zbekning to'ygani chala boy bo'lgani", "O'qituvchining kosasi oqarmasa, xalqnikiyam oqarmaydi", "Bekorchiilik qashshoqlikka yetaklaydi".

Roman mustaqillikdan oldingi va to'kechagi kunimizgacha, qariyb 30-35 yillik katta bir davrning g'oyat ziddiyatli voqealarni qamrab oladi. Asarda to'rtko'cha boshida turgan O'lmas timsolida o'zbek jamiyatining yuziga ko'zgu tutiladi. Asarni o'qish jarayonida turli-tuman qahramonlar va ularning taqdiri bilan tanishar ekanmiz, ularning qayg'usiga ham quvonchiga ham sherik bo'lamiz. Asarda atrofida har bir hodisaga befarq bo'lmaydigan, chuqur o'ylab mushohada qiladigan personajlar ko'p. Bu esa har qanday vaziyatning mohiyatini ochishga yordam beradi. Sovet davrida katta kichik barcha qandaydir yumush bilan band bo'lgan, tirikchilikka yetsa, yetmas maoshi, ishxonasi bo'lgan. Tuzum o'zgargach, butunlay boshqa sharoitga tushib qolgan odamlar holati muallif tomonidan shunday tasvirlanadi: "endi qiladigan ish yo'q, deyarli hamma bekorchiga aylangan, bekorchiilik esa qashshoqlikni yetaklab keladi. Qashshoqlik esa o'z navbatida, tafakkurdagi qoloqlikni paydo qilgan. Qoloqlik bor joyda haqiqiy din qolib, nosog'lom din, sekta, mafiya urchaydi. Hukumatning so'zi bilan ishi ham boshqa-boshqa bo'lib qoladi. Ishonch yo'qoladi. O'z holiga qo'yilgan olomon yugurik suvdek eng qulay tomonga qarab oqa boshlaydi. Aftidan, bu o'rinda din ana shunday qulay chora bo'lib ko'ringan...kuzatishlar shuni ko'rsatar ediki, inson yaxshi bir muhitda tarbiya topib, hujayra-hujayrasigacha bunyodkor ruh bilan yo'g'rilmasa, har qanday mafkura aks ta'sir qilishi turgan gap." Yozuvchi dinga shunchaki ko'r-ko'rona mukkasidan ketib unga berilib ketishning ayanchli oqibatini "Muvozanat" romanida Yusufning akasi – Amir obrazi orqali yaqqol ochib berilgan. Din faqatgina toat ibodatgina emas, mehnat, o'qish o'rganish yangi ilmlarni olishni ham talab qiladi. Muallif tili bilan aytganda:

"musulmonlarning muqaddas kitobi – Qur'oni Karim "Iqro" ya'ni "O'qi" degan so'z bilan boshlangan edi. Buning ma'nosi – Qur'onni o'qi olamni o'qi, odamni o'qi, demakdir. Bas, islom dini mudom va bir umr o'qishga buyurar ekan, nega bu millat o'qishdan uzoq tushib, faqat va faqat diniy marosimlar-u uning zohiriy shakllari bilan andarmon bo'lib qoldi?". Aynan shu qismda yozuvchi turkiyalik Maorif vaziri bilan bog'liq juyda chiroyli voqeani keltirib o'tadi. Turkiya Maorif vazirining qabulidan chiqqan O'lmas namoz o'qish uchun masjidga kiradi. Namoz tugash mahali avval o'ng, keyin so'l yelkasiga o'girilib salom berish mahali ko'zi yonida o'tirgan vazirga tushadi. Hammadan keyin kelgani bois vazir o'tirgan o'rnida gilam yo'qligi bois mandil – ro'molcha yozib namozni o'qiyotganining guvohi bo'ladi. "O'lmasni hayratga solgan narsa – vazirning qo'li ish bilan, ko'ngli yor – Alloh bilan mashg'ul ekanligi bo'ldi. O'sha mashhur "Dil ba yoru dast ba kor" da aytilgandek bo'ldi". Din bilan dunyoviylikni bir yo'sinda olib borish jamiyatga foyda keltirsa keltiradiki, ziyon keltirmaydi hech. Zamonaviylik bilan din tuyg'usini o'zida aks ettirgan jamiyat ilg'or bo'lishi tabiiy.

Shuningdek, mukofatlar uchun birovlariga she'r yozib berish, buning evaziga mo'maygina daromad olish, davlatning mulki bo'lgan qadimiy qo'lyozmalarni chet elga sotayotgan kimsalar haqida ham alohida ta'kidlab o'tadi. Bu esa o'z-o'zimizni aldash, ko'zbo'yamachilik, vatan mulkini asrash o'rniga uning merosini sotish jinoyat ekanligi ma'lumdir. Mustaqillik yillarida ko'pgina asarlar buyurtma asosida yozilgan. Lekin ulardagi soxtaliklar, bo'rttirishlar yaqqol sezilib qolgan. Buyurtma asarlar evaziga ko'plab yozuvchilarning mukofot olishiyu, mansabi oshishi haqida asarning uchinchi bo'limida aytib o'tadi. "Ayni damda "Men boshdan oyoq hamdu sanolardan iborat roman yozishim kerak. Bu esa mavjud haqiqatgo'yu, iymonu e'tiqodimga zid ish. Yuragiga qarshi yozgan ijodkor qalban o'ladi", - deya o'yladi u yo'lakda birma bir bosib borarkan. O'lmas buyurtmaga berilgan asar yuzasidan do'sti Solijon Sokin bilan bo'lgan suhbatini diqqatimizni tortadi. "...sovet davrini yaxshi o'qiganman. Jadidlarni tanqid qilib, hukmron hukumat – sho'rolarni maqtaganlar o'z vaqtida tarallo qilib yashagan bo'lsayam mana, hozirga kelib hammasining misi chiqdi. Xuddi shunday, menam bugun Prezident haqida roman yozsam, bilamanki, borini, boricha yozishimga yo'l

qo'yishmaydi., yozsamam, chop etilmaydi, yo'lini qilib chop etsam, o'zim bu yerda yashay olmayman: yo chiqib ketishim kerak, yo qamoqda o'tirishim. Boshqa yo'l yo'q...ko'nglim chopmayapti roman yozishga. Axir qanchadan qancha gul qizlarimiz chet ellarda o'zgalarning tagini tozalab, tagligini yuvib, yoki tagiga tushib kun ko'ryapti, qanchadan qancha sor yigitlarimiz yot yurtlarda mardikorlik qilyapti. Siz esa rivojlanishning o'zbek modelini yaratdi, deysiz. Shumi "model"?

– Bu ham vaqtincha O'lmas, mana o'ziz Turkiyada tahsil olgansiz, aytib kelgandiz, eslasayiz agar, million-million turk Olmoniyada ishlaydi, ishlab bola-chaqasini boqadi, deb. Xuddi shunday gap buyam. "O'tish davr"ida bular – normal hol.

– Rusiyada "узбек на день" degan yozuvlarni ko'chalardagi reklama taxtalarigaytu simyog'ochlarga yopishtirib qo'yishibdi. Solijon bunga nima deysiz?.. "O'zbek" so'zini hatto katta harf bilan yozmagan. "Qul" degani bo'ladimi endi bu?"

Bundan ko'rishimiz mumkinki, mamlakatda haqiqatni aytgan kishi yo qamoqda bo'lgan yo chet elda yashashga majbur bo'lgan. Haqiqat emas, yolg'on maqtov, hushomadgo'ylik, faqat qog'ozda bo'lgan raqamlaru, amalga oshmagan shartnomalar, ko'r-ko'rona yondashishlar, shiorbozlik kabi illatlar avj olgan edi. O'lmasning poyezdda yoshlar bilan suhbatlari diqqatimizni tortadi. Yangisini qurmasdan eskisini buzma degan gap bor. Yoshlarning fikri esa eskilik sarqitlaridan voz kechib, tezroq o'sib, kattalar band qilgan ish joylarni egallashdir, vaholanki biz yoshlar kattalardan o'rganadigan ilmlaru, tajribalar juda ko'p. Chet tilini o'rganganini mag'rurlanib gapirayotgan yoshlarga O'lmas shunday javob beradi: "siz aytgan kattalar rus tilini yaxshi biladi. Bugun rus tili o'rniga ingliz tili keldi. Ertaga-chi? 2050-yilga borganda eng yoyg'in til xitoy tili bo'ladi degan, ilmiy taxminlar bor. Bunga nima deysizlar? O'sha paytning avlodlari sizlarning yoqalarizdan oladiku? "Xitoy tilini bilmayapsan nari tur? Deb, Unda nima bo'ladi?.. jadidlarni bilasizlarga ana o'shalarning rahnamalaridan biri Behbudiy bobo o'z davri taqozosidan kelib chiqib, to'rt tilni bilish kerak deydi. Bular: turkiy, forsiy, rusiy va arabiy. Bugun zamon o'zgardi. Bugun turkiy va rusiydan tashqari, avvalo ingliz va xitoy tillariniyam bilish zarur bo'lib qoldi. Lekin bu degani forsiy, arabiy, farangiy va shunga o'xshash boshqa tillarni o'rganish kerak degani emas, aslo. Bir jamiyat ilg'or jamiyat

bo'lishni istasa, o'z bag'ridan hamma tillarga joy beradi, berishi kerak, o'quv dargohlaridan barcha til mutaxassislarini yetishtirib chiqaradi, chiqarishi kerak. Zarur bo'lgan miqdorda albatta. Ha til bilish muhim, lekin undan ham muhim narsa borki, oti –aql, bilim, ma'rifat, dunyoqarash... deb ataladi. Bir tilni bir necha oy, nari borsa, bir necha yilda o'rganib, olish mumkin, to'g'rimi?.. Lekin sog'lom, ilg'or dunyoqarashga ega bo'lish uchun ba'zan bir umr mehnat qilish kerak bo'ladi. Qanchadan qancha poliglottlar dunyodan iz qoldirmay yashab o'tishgan... Qanchadan qancha boshqa ulug'lar ham yashab o'tganki, bilgani bitta ona tili bilan dunyoning ravishiga ta'sir qilganlar. Hatto til kerak bo'lmaydigan qanchadan qancha sohalar bor, deylilik sport, rassomchilik, haykaltaroshlik, arxitektura, matematika, fizika, ximiya, va h.k. Soqovlar-chi, soqovlar? Qanchadan qancha kar, soqov qo'lsiz, oyoqsiz, nogiron insonlar borki, to'rt muchasi sog'lardan ko'ra jamiyatga ko'proq foyda keltirishgan, keltirishyapti. Shu uchun ma'no, dunyoqarash, maqsad – birlamchi, uni ifoda qilish yo'llari – tillar undan keyin keladi. Sizlar "Inglizchani o'rganib oldim endi uni bilmaganlar menga yo'l bo'shatsin, ketsin" – deb o'ylasangizlar qattiq yanglishasizlar. Ana shu bilgan tillaring bilan, u inglizcha bo'ladimi, xitoycha yoki arabcha, farqi yo'q, nima ishni qoyillatib bazarasizlar., dunyoga nima berasizlar – mana bular yanada muhim..."

Shu bilan birga asarda o'tish davri qiyinchiliklariyu, adolatsizlarning barchasi shafqatsiz tarzda tasvirlanadi. "Alinazar uning ukalari chopon kiyib turishganini ko'rdi. "Nahotki, Alinazarning Erkin bilan tengdosh o'g'li Murodjon bo'lsa?. Nima bo'ldiyan?.." – odimini yanada tezlatdi o'lmas. Yetib kelib salom berarkan: "Tinchlikmi? – deya Alinazardan xavotirlanib so'radi. O'g'limizni berib qo'ydik, aka... o'pkasida ozroq muammo boridi. Yana tomog'i og'rirdi, yo'talib isitmalab turardi. Bir yilcha oldin do'xtir quyoshda ko'proq yursi, degandi. Lekin o'ladigan ekanini qaydan bilibmiz, aka qaydan bilibmiz... Bilsam, o'zimizning Surxonga olib ketmasmidim, quyoshning hammasi o'sha yerda bo'lsa, G'aflatda qoldik, aka, g'aflatda... Alinazar "shiq" etib burnini tirtidda, davom etdi. Ertalab kelib o'g'limning yotgan joyini ko'rib, "Hay attang, bolaga quyosh kerak degandimku. Sizlar bo'lsa, quyoshga olib borish o'rniga derazadan tushib turgan bir qatim nurni ham to'sib qo'yibsizlar"... – deydi. "Nima qipmiz?" desam: "Qarang derazangizni anavi matoh

yopib qo'yibdiku. Xonaga umuman nur tushmagan. Natijada, bolaning kasalligi rivojlanib ketgan", – deydi. Dod, devordim aka o'ziyam dod devordim... Biz kichkina odam bo'lsak, boshimizga kattalar yopgan matoni qanday ham olib tashlardik, aka, qanday olib tashlardik? Elga kelgan to'y bo'lsa axir... Oллоh sabr bersin, Alinazar do'stim... Bolajonning borar joylari jannatlardan bo'lsin... Bardam bo'ling... dedi O'lmas bunday damlarda aytilgan o'sha ming yillik tasalli so'zlarini tiliga chiqarib. Ammo uning xayolida banner va unda katta – katta harflar bilan yozib qo'yilgan shior jonlanardi. "Farzandlarimiz bizdan ko'ra dono, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari shart"

Ushbu misoldan shunday xulosaga kelish mumkinki, mamlakatda mustaqillik yillarida shiorbozlik avjiga chiqdi. Hattoki uchinchi hokimiyat bo'lmish haqiqatni so'zlashi kerak bo'lgan jurnalistlar intervyularini cho'ponlaridan qo'y sigirlari nechtaga ko'payganini, dehqonlarning nechi kilo meva, sabzavot olishini so'rashdan boshqasiga o'tolmadi. Soxta maqtoqlar, ko'zbo'yamachiliklar sabab mamlakatning ahvoli og'ir holatga tushib qolgani bilishmaydi. Nega bolaning o'limi orqali shiorga taqalmoqda. Chunki, bola xalqning yurtning kelajagi. Soxta va'zxonlik sabab bolalar o'lmoqda. Asl kelajak mana shunday shiorlar soyasida bo'g'ilmog'da.

Asarda "Пржевальский" obrazi ham o'ziga xos ma'noga ega. O'lmasning qo'shnisi bo'lgan Пржевальский ko'cha-ko'yda temir-tersak yig'ib garajini to'ldiradi, o'zi uchun keraksiz bo'lgan buyumlarni ham keltirib tashaveradi. Olamdan o'tgandan so'ng uning qizi otasi bir umr yig'gan buyumlarni chiqarib axlatga tashlagani kinoyali ohangda yoziladi. Bunda yozuvchi nima demoqchi, bu shaxs urush yillari ochlik azobini tortgan, shu sabab bir umr yerdan kerak-keraksiz narsalarni yig'ishni odat qilgan. Urush o'tsa ham uning jarohatlari hech bitmagan. Agar ana shu la'nati urush bo'lmaganda necha-necha jasur mard, yigitlarimiz xalok bo'lmas, Пржевальскийga o'xshagan kimsalar yerga qarab emas, osmonga qarab yulduzni ko'zlaydigan shaxs bo'lib ulg'ayardi. Bu misoldan yana bir xulosaga kelishimiz mumkin, shaxsning qanday inson bo'lib ulg'ayishiga 1-navbatda jamiyatning ta'siri juda yuqori sog'lom jamiyatda, sog'lom muhitda o'sgan farzandning ruhiyati ham sog'lom bo'ladi. " Insonning hayotida u tushib qolgan muhit juda katta rol o'ynaydi. Hatto hayot va mamot masalasini, baxtli va baxtsiz

bo'lishini belgilab beradi u. Shuning uchun ham maktab tanlanar ekan, zo'r maktabni ham emas, zo'r o'qituvchini ham emas, balki u yerdagi sog'lom muhitni tanla, degan gapning tagida katta ma'no bor. Do'stlaringning kimligini aytsang, sening kimligingni aytib beraman, degani ham shu ma'noga keladi. Agar sening to'rtta do'sting bo'lsayu, ularning barchasi milliarder bo'lsa beshinchisi, shubhasiz, sen bo'lasan, degani ham shuni bildiradi. Chunki, unday do'stlar davrasining o'sib-unishiga chorlaydigan muhiti bo'ladi-da".

Romanda Dukchi eshon qo'zg'aloni, unga bo'lgan nohaqliklar, haqida so'z yuritiladi. Tarixdan ma'lumki, uch xonlik davrida bid'at, fitnalar, johilliklar shu qadar kuchayib ketgandiki, har qanday yangilikka, jojhilik ko'zi bilan qarash chor hukumatga qaram bo'lishimizning eng asosiy sabablaridan biri edi. Chunki rivojlanishdan, ishlab chiqarishdan orqada qolganimizga ham aynan shu xurofot sabab edi. Bu esa dushmanlarning yurtimizni osonlik bilan qo'lga olishiga zamin yaratdi. Mana shunday bosqinchilarga qarshi Dukchi Eshondan jasur kishilar bosh ko'tarishi va bu qo'zg'aloning mohiyatida nimalar yotganiyu, 2005-yilda sodir bo'lgan Andijon voqealari bilan bir chiziqda parallel tarzda tasvirlaydi. Chunki ikkalasida jabrni oddiy xalq ko'radi. Bizga ma'lumki, avvallari Dukchi Eshon qahramon emas, balki xalqni noto'g'ri yo'lga boshlagan bir murtad deb aytilardi. Bir asr o'tib esa unga xolis baho berilib, darsliklarga kiritilishiga ham Ulug'bek Hamdamning xizmatlari benihoya kattadir. Ushbu qo'zg'alondan so'ng Mingtepaning nomi o'zgarishi, Ershi degan qadimiy nomi bo'lgan shaharning ruslar tomonidan "Marhamat" deb atalib va hozirga qadar shunday atalayotganini nadomat bilan keltirib o'tiladi. Andijon voqeasi nafaqat O'lmasning yuragini balki o'qirmanning ham yuragini larzaga soladi. Chunki unda begunoh Ochilning ko'krigidan o'q yeb, nima sababdan, qaysi gunohi uchun bunday holga tushayotgani bilmay, og'zidan qon kelib ayanchli tarzda xalok bo'lishi kitobxonni qattiq ta'sirlantiradi. Bu vaziyatda o'rmonga o't ketsa, xo'l-u quruq baravar yonadi degan gap naqadar to'g'ri aytilganiga ishonch hosil qildim. Romandagi bosh qahramon O'lmas va boshqa personajlar ko'pincha ehtirosli fikrlaydi. Yozuvchi ulardagi ruhiyat dunyosini ko'rsatishga ko'proq urinadi,. Chunki insonning qanday ekanligi aynan shu holatda namoyon bo'ladi. Asardagi qahramonlarning

ko'pchiligi atrofdagi bo'layotgan voqealarga befarq emas, jamiyatdagi kasalliklarni tuzatishga harakat qiladigan ularga iloj qidiradigan shaxslardir. "Nega aksar inson ulg'ayganda ham xuddi bolaligi kabi baxtli bo'lolmaydi? Nega uning suyagi qotib aqli to'lishgani sari baxtsizligi ortib boradi? nega, nega?.. yoki o'zga yurtlarda yashaydimi baxtli odamlar?.. Bormi dunyoda shunday o'lkalar? Bor bo'lsa, nega biz ulardek emasmiz? Nega biz tomonlarda tug'ilish – saodat emas, kulfat, yashash – ozod qushdek parvoz qilish emas, eshshakday yuk tashish. Nega?" Ushbu fikrlarda qahramonning hayotdagi o'rnini anglashga bo'lgan qarashlari aks etadi. Romandagi ko'plab fikrlar kitobxonni mushohada yuritishga undaydi. "Orzu-maqсадlarimiz maydalashdi. Shunga yarasha ideallar ham. Nazarimda zamondoshlarimizning ko'pchiligi tuzukroq orzu qilishni ham bilmaydi hozir. Ideallar haqida esa tasuvvurga ham ega emas. Biz bugun haqiqiy ma'nodagi orzu qilishdan uzoqlashib ketdik. Judayam uzoqlashdik. Istaklarimizni orzu deb atay boshladik. Ha biz orzuni istak darajasiga tushirib qo'ydik. Istak – badanning ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lsa, orzu chinakam orzu – ruhning, inson ma'naviy o'zagining ehtiyojlari bilan qoyimdir" degan fikrlar kitobxonning tafakkurini boyitishga xizmat qiladi. Asardagi Iskandar aka obrazi esa ma'naviyat ulashuvchi shaxs sifatida keltiriladi. U jamiyat a'zolari o'rtasida keng tarqalgan jaholatga o'zining uslubi orqali kurash olib boradi. Bu esa asarda shunday yoritiladi: "...u kunda Toshkent Markaziy do'koni ortidagi kitob bozoriga yo'l oladi...jangchi qurolini olib, yovga qarshi kurashishga otlangani kabi har tong kitob to'la xaltasini ortmoqlab bozorga yo'l oladi. Jangchi yovni o'ldirsa, kitobdor jaholatni." Yozuvchining asarda siyosat, iqtisodiyot va boshqa sohalarga doir qarashlari va fikrlari bilan tanishar ekanmiz, eng muhimi uning yurtga bo'lgan sevgisi, muhabbati naqadar kuchliligini anglaymiz, orzusi esa yurtning ravnaqi, go'zal kelajagini ko'rishdan iborat. Bugungi kun odamlarining maqsadi faqat

qorin to'ydirish, uy, mashina olish bo'lib qolishi achinarlidir. Chunki bu qoloqlik namunasidir. Chinakam rivojlangan, ilg'or mamlakatlar aholisining aksariyati qorin g'ami va keraksiz orzu – maqsadlar bilan yashamaydi. Adibning jamiyatdagi bu illatga qarshi kurashmas ekanmiz oqibati yomon bo'lishidan ogohlantirishi diqqatimni tortdi. "e voh, odamlarni kunu tun qorin g'amini chekishga mahkum qilmaslik kerak. Ular qorin tashvishidan sal uzilib, yashash baxti haqida ham hayol sura olsin. Agar shunday jamiyat yaratmas ekanmiz, kechagi kunni sog'inish, unga qaytishga urinish bo'laveradi... natijada tarix takrorlanishi, yurtning bo'yniga yana qullik bo'yinturug'l tushishi hech gap emas. Hatto odamlarning o'zi istab, o'sha la'nati bo'yinturuqqa boshini tiqib beradi. Mana shunisi – eng yomoni..."

**Xulosa.** Asar so'nggida O'lmas Temur bobo haykali oldida chuqur o'yga toladi va asar boshidagi kabi to'rt ko'cha bilan qarshilashadi. "Ilgari qanday ediya, ilgari bu maydonga tangadek oftob tushmasdi – to'rt tomoni bahaybat chinorlaru, basavlat qarag'aylar bilan o'ralgan bo'lib, ertaklarda tasvirlangan afsonaviy bog'larni yodga solardi. "Nima jin urdi hozirgi rahbarlarniki, tinmay daraxt kesishadi." Kesilgan daraxt deb yozuvchi kelajakka ishora qilmoqda. Asar oxirida O'lmas umidsizlikdan umid tomonga – yangi kelajakning go'zal istiqboliga ishora qiladi. "Bizga yana sendek yo'lboshchi kerak, Temur bobo, eshityapsanmi, judayam kerak deya pichirladi u. Yo'q, o'zga yurtlarni bosib olib tag'in bitta imperiya quradigan Amir Temur emas, balki o'z yurtini qoloqlik, xo'rlik va safolatdan xalos etib, qaddini tiklaydigan, uni yuksaltirib, dunyoning eng ilg'or mamlakatlari safiga qo'shadigan ulug' Temur kerak." Ushbu asar o'zbek adabiyotiga o'zgacha ruh asosida kirib keldi. Romanni o'zbek adabiyotida ulkan voqelik bo'lgan asar deyishimiz mumkin. O'zbek nasri yana bir gavhar bilan to'ldirildi. Nasib qilsa, ushbu roman bo'yicha ulkan tadqiqotlar olib boriladi. Bizning maqolamiz dengizdan bir tomchi xolos.

#### FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR

1. Ulug'bek Hamdam, "To'rtko'cha". "Yangi asr avlodi", 2024-yil
2. Yoqubov I. Badiiy estetik so'z. – Toshkent, 2021. 256-257-bet.
3. Qo'shjonov M. Hayot va mahorat. Toshkent, 1962- yil
4. Qo'shjanov M, Normatov U. Mahorat sirlari. Toshkent 1968-yil.

**Gulbahor NASRIDINOVA,**

Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti  
universiteti 1-kurs tayanch doktoranti  
[g0069489@gmail.com](mailto:g0069489@gmail.com)



## O'ZGARUVCHAN VA O'SUVCHAN ROMAN POETIKASI: OMON MUXTORNING BADIY MODELLARI

**Annotatsiya:** maqolada romanining o'zgaruvchan va o'suvchan tabiatiga nazariy yondashuv beriladi hamda Omon Muxtor romanlaridagi badiiy model, kompozitsion struktura va psixologik tasvirning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** *eksperiment, lingvopoetik, modernistik, intertekst, semiotik, surrealizm, absurdistik.*

**Аннотация:** в данной статье предлагается теоретический подход к изменчивой и развивающейся природе романа. Анализируются художественная модель, композиционная структура и особенности психологического изображения в романах Омона Мухтора с опорой на современные литературно-аналитические критерии. Особое внимание уделяется экспериментальному методу автора, динамике художественного мышления и функции интертекстуальных связей.

**Ключевые слова:** *эксперимент, лингвопоэтика, модернистский, интертекст, семиотика, сюрреализм, абсурдизм.*

**Annotation:** this article presents a theoretical approach to the changeable and developing nature of the novel. It analyzes the artistic model, compositional structure, and distinctive features of psychological depiction in the novels of Omon Muxtor based on contemporary literary-analytical criteria. Special attention is given to the author's experimental method, the dynamics of artistic thinking, and the function of intertextual connections.

**Key words:** *experiment, linguopoetic, modernistic, intertext, semiotic, surrealism, absurdist.*

**Kirish(Introduction).** Roman janri adabiy jarayonning eng sarmazmun, keng qamrovli va doimo yangilanishga intiluvchi shakli sifatida tan olingan. Janrning badiiy imkoniyatlari shunchalik kengki, u har bir davrning ijtimoiy, ma'naviy va estetik talablariga mos ravishda o'zgarib boradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili(Literature review).** Ushbu maqolani yozishda atoqli adib Omon Muxtorning "Ming bir qiyofa", "Tepalikdagi xaroba", hamda internet saytlardagi mavzuyimizga daxldor adabiyotlarga e'tibor qaratildi.

**Tadqiqot metodologiyasi(Research Methodology).** Roman janri adabiyotning eng dinamik va rivojlanishga moyil turlaridan biri bo'lib, u har bir tarixiy davrda yangi shakl, uslub va g'oyaviy-badiiy izlanishlar bilan boyib boradi. Rus adabiyotshunosi M.M.Baxtin ham romanni "shakllanayotgan, lekin to'laligicha

shakllanib ulgurmagan" janr, deb tilga oladi. [1]Shuning uchun ham roman "o'zgaruvchan", "o'suvchan" va "eksperimental" janr sifatida talqin qilinadi. Bu xususiyatlar uning mazmun doirasini kengaytiradi, kompozitsion qurilishini murakkablashtiradi va muallifga tajriba o'tkazish imkonini beradi. O'zgaruvchanligi — roman har bir davrning estetik, ijtimoiy va ma'naviy talablari asosida shaklan va mazmunan yangilanib borishini anglatadi. O'suvchanligi — janrning ichki imkoniyatlari kengligi, syujet qatlamlarining ko'pligi, xarakter yaratish imkoniyatlarining cheksizligi bilan bog'liq. Eksperimental tabiati — muallifning badiiy izlanishlar olib borishiga, kompozitsion tuzilmani buzish, vaqt-qatorni o'zgartirish, lingvopoetik yangiliklar kiritish kabi usullarni qo'llashiga sharoit yaratadi.

XVIII–XIX asrlarda dunyo adabiyotida roman yirik epik janr sifatida shakllandi. Uning

o'zgaruvchanligi avvalo syujet murakkabligi, xarakter yaratish chuqurligi va ijtimoiy muammolarni keng tasvirlash imkoniyatlarida namoyon bo'ldi. D. Defoning "Robinzon Kruzo" avtobiografik shaklning adabiyotga kirib kelishi. L. Tolstoyning "Urush va tinchlik" epik makonning kengayishi, tarixiy jarayonning roman kompozitsiyasiga kiritilishi. F. Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo" ruhiy tahlilning kuchayishi, ichki monologning badiiy metodga aylanishi. Bu bosqichda roman tipologik jihatdan shakl topdi, ammo aynan o'zgaruvchanligi bilan keyingi bosqichlarga yo'l ochdi. XX asr boshlarida adabiyotning modernistik tamoyillari paydo bo'lib, roman yangi badiiy izlanish maydoniga aylandi. Vaqtning izchilligi buzildi, syujet chizig'i parchalanib ketdi, ong oqimi texnikasi yetakchi o'ringa chiqdi. J. Joys — "Ulis sarguzashtlari" romani o'zining til, kompozitsiya, ong oqimi bilan keskin eksperimentlar mahsuli bo'ldi. F. Kafka — "Jarayon" absurd poetikasi orqali ijtimoiy-ruhiy haqiqatni aks ettirish natijasida XX asr modernizm prozasining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi, turli modernistik oqimlarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Bu davr romanining asosiy xususiyati — shakldagi jasorat, ruhiy chuqurlik va badiiy tajribalar edi. XX asr ikkinchi yarmidan boshlab roman janri yana yangi bosqichga ko'tarildi. Postmodernizm estetikasi roman shaklini yanada o'zgartirdi: syujet fragmentlarga bo'linadi, mualliflik ovozi bilan qahramon ovozi aralashadi, tarixiy dalillar ijodiy qayta talqin qilinadi. U. Ekoning "Atirgul nomi" romanida intertekst, ramz, semiotik o'yinlarning kuchayishi. G. Markesning "Yolg'izlikning yuz yili" asarida sehrli realizm metodining shakllanishi. M. Kunderaning "Hazil" roman esa ichida esse, falsafiy mulohazalar integratsiyasini ko'rish mumkin.[2] Bu jarayon roman janrining cheksiz o'suvchanligini tasdiqlaydi. XX asr boshlarida o'zbek romanchiligi shakllandi. Bu davr romanlari milliy uyg'onish g'oyalari va realizmning o'ziga xos uyg'unligi bilan ajraladi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida realistik tasvir, tarixiy voqelikning badiiy talqini, xarakter yaratishning chuqurligini ko'rsatadi. 1930–1980-yillar o'zbek romanchiligi tarixi idealizatsiya, epik tasvir, qahramonlik va sotsial

voqelikning keng miqyosda yoritilishi bilan xarakterlanadi. Masalan, Oybekning "Navoiy"si tarixiy-epik roman maktabining shakllanishi, Said Ahmad "Ufq" trilogiyasi insonning ruhiy yetilish masalalari, P. Qodirov "Yulduzli tunlar" asari tarix va badiiy to'qimaning uyg'unlashuvini ko'rsatadi.[3] Bu davrda va undan keyin davrlarda adabiy jarayon roman janri o'sdi, shakllandi, janr imkoniyatlari kengayganini bildiradi. Adabiyotshunos Q. Yo'ldoshev bu jarayonni quyidagicha baholaydi: "Alohida olingan odam, uning taqdiri, o'ylari, kechinmalari faqat romandagina chuqur va atroflicha tekshirila boshlandi. Uning shaxsiga, tuyg'ulariga e'tibor kuchaydi. Tafsilotlar, voqea-hodisalar inson ruhiyati natijalari tarzida qarala boshladi. Shu tariqa romanda odam sabab maqomiga ko'tarildi. Unda shaxsning murakkabdan-murakkab, chigaldan-chigal, betartibdan-betartib ruhiyati aks ettirila bordi".[4] Olim fikrlari haqiqatni o'zginasidir. Badiiy shakl yangilanishi 1980–2000-yillarda o'zbek romanchiligi modernizm tamoyillarini faol o'zlashtirdi. Bu davr romanlarida vaqtning parchalangan modeli, ong oqimi, ichki monolog, ramziy qatlamlar kuchaydi. Ruhiy portretlar, ichki drammatizm, ichki dialoglar ustuvorligi Sh. Xolmirzayevning "Olabo'ji", "Dinozavr", Omon Muxtorning "Ming bir qiyofa", "Tepalikdagi xaroba", O. Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar", Murod Muhammad Do'stning "Lolazor", Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanlarida namoyon bo'ladi. Bu romanlar o'zbek adabiyotida modernizmning va eksperimental izlanishlarning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. 2000-yillardan boshlab o'zbek romani erkin falsafiy mulohazalar, manbalar aralashuvi, vaqtning buzilishi, ichki kechinmalar ustuvor bo'lgan postmodern estetikaga yaqinlashdi. Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" romanida postmodern talqin, metaforik qatlam ustuvor. Xurshid Do'stmuhammadning "Yolg'iz" qissasida falsafiy mushohada va ichki monologlar o'rin egallaydi. Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romani bo'lsa hayot-falsafa sintezi, eksperimental kompozitsiya asosida qurilganini ko'ramiz.[5] Bu bosqich romanning o'zgaruvchan tabiatini yana bir bor tasdiqlaydi.

### Tahlil va natijalar(Analysis and result).

Roman janrining o'zgaruvchan va o'suvchan tabiati, avvalo, inson psixologiyasining murakkablashuvi, ijtimoiy voqelikning kengayishi, badiiy tafakkurning chuqurlashuvi bilan bog'liqdir. O'zbek adabiyotida Omon Muxtor romanlari ana shu jarayonning yuksak badiiy bosqichi bo'lib, ularda shakl, mazmun, kompozitsiya, tasvir tamoyillari bo'yicha yangi adabiy modellar shakllangan. Shuning uchun ham adib romanlari o'zbek adabiyotida badiiy eksperimentlarning yorqin namunasi sifatida qaratiladi. Omon Muxtor ijodining o'ziga xos jihatlaridan biri – roman shaklining doimiy izlanishlar maydoni sifatida talqin qilinishi, voqelikni oddiy epik rivoyat emas, balki badiiy-falsafiy konstruktsiya tarzida qayta yaratishdir. “Ming bir qiyofa” asaridagi Abdulla obrazi ayni shu izlanishlar markazida turadi. Abdulla – ko'p qatlamli qahramon, U romanning markaziy obrazlaridan biri bo'lib, ma'naviy izlanishlar ichida yashaydi, o'zini o'rganish, o'zini tushunish jarayonida ko'p qiyofalikka duch keladi, tashqi olam bilan emas, avvalo ichki olam bilan kurashadi, mavjudlik, o'lim va vaqt haqidagi savollarga javob izlaydi. Uning xarakteri an'anaviy realizmga sira to'g'ri kelmaydi: u bir vaqtning o'zida ham mavjud, ham mavhum, tiriklik va o'lim orasidagi noaniq chegarada tasvirlanadi. Abdulla bilan bog'liq epizodlarda vaqt chizig'i sinadi. O'tmish va hozirgi vaqt bir-biriga qo'shilib ketadi. Qahramon ruhiy kechinmalarida vaqt oqimi muzlaydi yoki tezlashadi. Ba'zan voqea sodir bo'lgach aytilgandek tuyuladi, ba'zan esa avvaldan ko'riladi. Bu holat roman poetikasida “vaqtning relativizatsiyasi” deb yuritiladi. Omon Muxtor vaqtning psixologik hodisa darajasiga olib chiqadi. Abdullaning ongi vaqt oqimini tartibga emas, bo'linishga olib keladi. Asarda Abdulla o'ziga savol beradi, o'zi bilan bahslashadi, o'zini inkor qiladi, keyin o'sha inkorni o'zi rad etadi. Bu holat Abdullaning Burhon Sharif o'rniga jazo olishidan va o'lgandan so'ng farishtalar bilan o'tkazgan suhbatidan so'ng yuz beradi. Bu jarayon psixoanalitik tahlilga yaqinlashadi. Qahramon va uning “ichki men”i o'rtasida dialogik kurash kechadi. Omon Muxtor bu yerda an'anaviy tasvirdan voz kechib, ichki monologni laboratoriya darajasida ko'rsatadi. Qahramonda

ikki emas, ba'zan uch-to'rt “menlik” paydo bo'ladi, bu esa “ming bir qiyofa” g'oyasining ruhiy asosini beradi. Abdulla o'lganidan so'ng uning murdasi gapirishi, ongining yana davom etayotgandek tasvirlanishi, o'limdan keyingi “suhbatlar” asarda fantastik-realist qatlamni yuzaga chiqaradi. Bu epizodlarda Omon Muxtor biologik o'limni emas, ruhiy o'lmaslik, inson xotirasining davomiyligi, ongning moddasiz mavjudligi g'oyalarini ilgari suradi. Romanda Abdullani olib ketayotgan mashina haydovchisiz bo'lishi real hayotga zid, absurdistik, ekzistensial ma'noga ega. Bu detaldan quyidagi mazmun chiqadi: hayot odam boshqaruvida emas, balki sirli kuchlar qo'lida; inson taqdirining boshqaruvchisiz harakati ramzlanadi; Abdulla o'z hayotining “haydovchisi” bo'la olmaganini bildiradi; bu epizod roman strukturasini surrealistikga yaqinlashganini ko'rsatadi. Romanda an'anaviy syujet izchilligini buzadi, qahramon ongining holatlari uzluksiz o'zgarib turadi. Omon Muxtor bu bilan badiiy tajribani yanada chuqurlashtiradi. Bu – roman poetikasida tajriba kuchli o'rin tutayotganini isbotlaydi. Shu jihatlar “Ming bir qiyofa”ni o'zgaruvchan, o'suvchan va eksperimental roman sifatida o'rganishga asos yaratadi.

Omon Muxtor “Tepalikdagi xaroba” asarlarida ham o'ziga xos badiiy tajribalarni davom ettiradi: birinchidan inson ruhiyatidagi ko'p qirrali parokandalik va “men”ning bo'linishi, ikkinchidan tarixiy qatlamlar bilan bugungi kunning tutashuviga asoslangan murakkab kompozitsiya orqali badiiy tajriba chuqurlashtiriladi. Asarda hozirgi zamon voqealari orqaga qaytishlar, eslashlar, tarixiy xotiralar bilan uzluksiz almashinib boradi. O'tmish va hozirning parallel berilishi asarni retrospektiv kompozitsiya asosiga qurilganini ifodalaydi. Yozuvchi asarlarini birlashtiruvchi jihat yozuvchining an'anaviy voqelik tasviridan chekinib, eksperimental badiiy model yaratishga intilishidir. Omon Muxtor ijodida insonning ichki olami, tarixiy xotira va ruhan sarsonlik asosiy mavzulardan biridir. “Tepalikdagi xaroba”da Mirza G'olibning hashardan uyga qaytish yo'lida boshdan kechirgan g'ayritabiiy, ramziy hodisalar aslida oddiy voqea emas — insonning o'z tarixiga, o'zligini izlashiga qaratilgan badiiy tajribadir. Yozuvchi asar boshida oddiy realizmni,

hayotning tabiiy oqimini beradi. Keyin birdan voqea syujeti fantastik, tasavvuriy qatlamga og'adi. Mirza G'olib yo'lda sirli tepalikka duch keladi. Tepalikdagi kulba, undagi g'alati manzaralar o'qirmanni chuqur mushohada qilishga chorlaydi. Bu yerda u Lutfiy, Bayron, Mashrabni murda holida ko'radi — bu real o'lim emas, balki adabiyot tarixining muzlab qolgan ruhlari, "o'tmishning jimjimalari"dir. Omon Muxtor shu orqali har bir tirik odam ichida butun xalq tarixi bilan birga yashaydi. Tarix o'lmaydi, u odam ongida davom etishini ko'rsatishni maqsad qilgan ko'rinadi. Mirza G'olibning bu murdalar bilan "uchrashuvi" uning o'zligini anglash yo'lida o'tkazadigan ichki suhbatidir. Asarda Mirza G'olibning ismi mashhur hind shoiri Mirzo G'olib bilan hamohang. Bu tasodif emas. Yana uning do'sti Lutfillo, kulbada ko'ringan shoir Lutfiy, bu o'xshashliklar ismdoshlik orqali ma'naviy meros davomiyligi ramzini beradi. Muallif bu bilan inson o'z nomida ham tarixni ko'tarib yuradi demoqchi bo'lgan. Mirza G'olib — bugungi oddiy odam, Lutfiy, Bayron, Mashrab — o'tmish ijodkorlari. Demak, o'tmish va bugunning qo'shilishi asar poetik eksperimentining asosiy maqsadidir. Mirza G'olib so'qmoqlarda adashib yurarkan, tarixda sarson bo'lgan xalqning yo'lini ko'radi. Bu tarixiy fojialar, ko'chishlar, urushlar, mustamlaka davrlarining metaforasidir. Mirza G'olib o'z yo'lini

topolmayotgani — xalqning ham tarix davomida yo'qotgan yo'llarining ramziy ifodasidir. Mirza G'olib ruhiy sarsonlikdan so'ng yo'lni topadi, uyga qaytadi Mirza G'olibning uyga qaytishi — uning o'zlikka qaytishidir. "Tepalikdagi xaroba" — oddiy syujet emas, balki insonning o'z tarixiga qaytishi, o'tmish va bugunning birlashtirilishi, o'zlikni anglash jarayoni, hayotning davomiyligiga ishonchni ko'rsatadigan badiiy eksperiment. Yozuvchining "Tepalikdagi xaroba" asari psixologik-falsafiy yo'nalishdagi modernistik roman turiga mansubdir.

**Xulosa(Conclusion).**Maqolada roman janrining o'zgaruvchan va o'suvchan tabiatiga e'tibor qaratildi hamda uning zamonaviy adabiyotdagi yangilanish jarayonlari o'zbek adabiyoti misolida tahlil etildi. Xususan, Omon Muxtor ijodidagi "Ming bir qiyofa" va "Tepalikdagi xaroba" asarlari orqali yozuvchining badiiy tajribasi, kompozitsion yangiliklari va ruhiy-psixologik tasvirdagi izlanishlari yoritildi. Ushbu tahlillar o'zbek roman poetikasida modernistik tamoyillar tobora faollashib, janrning mazmun va shakl jihatdan doimiy ravishda yangilanib borayotganini ko'rsatdi. Shunday qilib, Omon Muxtor romanlari milliy adabiyotimizda eksperimentallikning kuchayishiga, badiiy modellar xilma-xilligining shakllanishiga munosib hissa qo'shadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Бахтин, М. М. Эпос и роман (О методологии исследования романа)//Вопросы литературы и эстетики. —Москва: Художественная литература, 1975. 447—483-с.
2. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)
3. Қодирий, А. Ўткан кунлар: роман. — Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт, 1948. Айбек. Навоий. — Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1948. Саид Аҳмад. Уфқ (трилогия). — Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. Қодиров, П. Юлдузли тунлар. — Тошкент: Шарқ, 1994.
4. Ёлдошев, Қ. Ёқиқ сўз — Т.: «Yangi asr avlodi», 2006.
5. Холмирзаев, Ш. Олабо'жи: ҳикоялар. — Тошкент: Шарқ, 1992. Холмирзаев, Ш. Динозавр: ҳикоялар ва қиссалар. — Тошкент: Шарқ, 1998.
6. Муҳтор, О. Минг бир қиёфа: роман. — Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983. Муҳтор, О. Тепалиқдаги хароба: роман. — Тошкент: Шарқ, 1996. Ҳошимов, Ў. Тушда кечган умрлар: роман. — Тошкент: Шарқ, 1996. Мурод, М. Д. Лолазор: роман. — Тошкент: Шарқ, 1988.
- Тоғай Мурод. Отамдан қолган далалар: роман. — Тошкент: Шарқ, 1994. Султон, И. Боқий дарбадар: роман. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. Дўстмуҳаммад, Х. Ёлғиз: қисса. — Тошкент: Шарқ нашриёти, 2005. Ҳамдам, У. Мувозанат: роман. — Тошкент: Шарқ, 2009.

Kumush TURDIQULOVA,  
 GulDU, O'zbek tilshunosligi  
 kafedrasida tayanch doktoranti

## MUHAMMAD ISMOIL SHE'RIYATIDA QOFIYANING FONETIK STRUKTURASI

**Annotatsiya:** maqolada shoir Muhammad Ismoil she'riyatida qofiyaning fonetik strukturasi haqida fikr yuritiladi. She'riy asarlarda ayniqsa qofiyaning fonetik tuzilishi alohida ahamiyatga ega bo'lgan hodisa hisoblanadi. Maqolada Muhammad Ismoil she'rlaridagi qofiyalarning tuzilishi tahlil etiladi. Shoirning asarlaridagi qofiyalashgan misralar maqolaning illyustrativ materiali sifatida xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** *til, sh'er, misra, qofiya, qo'sh undosh, takror, poetik nutq va b.*

**Annotation:** the article discusses the phonetic structure of rhyme in the poetry of the poet Muhammad Ismoil. In poetic works, the phonetic construction of rhyme is considered a phenomenon of particular importance. This article analyzes the structure of rhymes in Muhammad Ismoil's poems. The rhymed lines in the poet's works serve as illustrative material for the article.

**Key words:** *language, poem, line, rhyme, double consonant, repetition, poetic speech, etc.*

**Аннотация:** в статье рассматривается фонетическая структура рифмы в поэзии Мухаммада Исмоила. В поэтических произведениях фонетическое построение рифмы является особенно значимым явлением. В данной статье анализируется структура рифм в стихотворениях Мухаммада Исмоила. Зарифмованные строки из произведений поэта служат иллюстративным материалом статьи.

**Ключевые слова:** *язык, стихотворение, строка, рифма, двойные согласные, повтор, поэтическая речь и др.*

Ma'lumki, badiiy (she'riy) matnning tuzilishidan tortib, ma'no qirralarigacha muayyan ohang, ritmik bo'laklar, bo'g'in, turoq va qofiyalar lingvopoetik jihatdan alohida o'rin egallaydi. Qofiya – she'riy asarlarni baholash, tekshirish, talqin qilishda muhim obyekt hisoblanadi. Ba'zi nazariy ma'lumotlarda qofiyaning o'ttizga yaqin ko'rinishi, turi mavjudligi qayd qilinadi. A.Fitrat, Oybek, G'.G'ulom, E.Vohidov, A.Oripov kabilar she'riy nutq yuzasidan bildirilgan nazariy qarashlari she'riy nutq tuzilishi, shakli va mazmuni tadqiqi barcha davr uchun dolzarbligini aks ettirgan. Professor T.Boboyev shunday yozadi: "Agar biz jahon poeziyasi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda rang-barang she'r tizimlari qo'llanilayotganini payqaymiz. Chunki she'r tizimlari milliy tillarning tabiati bilan bog'liqdir. Jahon xalqlari tillari esa tabiatan xilma-xil bo'lib, ular turli tuman oilalarga mansubdir. Turli oilalarga mansub bo'lgan milliy tillarda shu tillar tabiatiga mos she'riy nutq tizimi, she'r tuzilishi usullari qo'llanilishi tabiiydir. Har bir

she'r tizimida she'r yaratish, ya'ni vazn va ritmni, musiqiylikni vujudga keltirish usullari o'ziga xos bo'ladi. She'rshunoslarimizning uqtirishlaricha, she'r to'qimasida ham milliy, ham baynalmilal jihatlar mavjud. Chunonchi, qofiya milliy til bilan bog'liq milliy unsur sanalsa, band barcha tillar uchun mushtarak hodisa – baynalmilal unsur hisoblanadi" [1, 17]. Binobarin, olimning mulohazalari bugungi tilshunoslikdagi ba'zi masalalarga ham anqlik kiritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni qayd etish joizki, she'rning umumstrukturasi yuzaga keladigan har qanday muammo yoki munozaraning eng qadimgi antik yunon madaniyati, Arastu zamonidan buyon qat'iy, yakdil yechimiga kelgan emas. Chunki har bir shoir o'z davrining komil fuqarosi sifatida borliqni badiiy in'ikos qilar ekan, uni davrning ilmiy va nazariy tafakkuri miqyoslari fonida tadqiq qilish ishonchi oqlaydi.

Lingvopoetik tadqiqotlar bilan monografik yo'sinda shug'ullangan M.Yo'ldoshev, G.Jumanazarova, S.Umirovalar fonografik

vositalarni rus va xorijiy olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga tayangan holda o'rganganligi ma'lum. Ta'kidlash o'rinliki, qofiyaning fonetik strukturasi ham ma'no ko'chish, ham o'xshatish, ham jonlantirishni ta'minlashga qaratilishi mumkin. Muhammad Ismoilning quyidagi she'rga e'tibor beradigan bo'lsak, shoirning farzandi – qiziga nisbatan otalik mehri botiniy hislari va tilaklari aks etadi:

*Durim desam, zebodursan durdan a'lo,  
Nurim desam, ziyodursan nurdan a'lo,  
Xudoyimning kitobiga oshnodursan,  
Hurim desam, odobing bor, hurdan a'lo* [3, 10].

Ushbu she'r misralari boshidagi so'zlar ham hatto qofiyalanib kelayotganini kuzatamiz. Birinchi misra boshidagi *durim*, ikkinchi misra boshidagi *nurim* va to'rtinchi misra boshidagi *hurim* so'zlari o'zaro qofiyadoshlik hosil qilib, she'r tasirchanligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur parchada misralar orasidagi o'zaro qofiyadosh so'zlarda bitta tovush, belgi bilan ma'no ottenkalari o'zgargani, she'rga farzandning eng yaxshi xislatlari va shoir ruhiyatini yuzaga chiqaruvchi dur, nur, hur uzviyligi muqoyasa qilinadi. Ya'ni "*durdan a'lo – nurdan a'lo – hurdan a'lo*" qofiyadosh birliklarda t-n-h tovushlari bilan farqlanish xususiyati aks etgan. Ushbu nutq tarkibida *kitob* ham qofiya vazifasiga olib kirilgan, kitob ham, odob ham – axloq tushunchasini o'zida ifodalaydi, biroq insoniy fazilat bo'lgan axloq tushunchasining ta'sirchan ifodasi sifatidagi *kitob* so'zi uchun eng maqbul va munosib qofiyadosh sifatida *odob* so'zining tanlanishi shoir badiiy maqsadining eng samarali usuli deb bilamiz.

*Ey yoronlar, ikki yoshni duo qiling!  
Bir-biriga ko'zu qoshni duo qiling!  
Taqqir ekan uchrashibdi Oyu Quyosh,  
Qovushgan bu ikki boshni duo qiling* [3, 10].

Avvalgi misralarda sodda so'z birikmasi sifatidagi "*durdan a'lo – nurdan a'lo – hurdan a'lo*" birikmalar qofiyalanib kelgan bo'lsa, navbatdagi misralarda uch so'zdan tashkil topgan birikmalar qofiyalanishi kuzatiladi "*yoshni duo qiling – qoshni duo qiling – boshni duo qiling*" va ular she'r musiqiyiligini ta'minlab, ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Ya'ni "*yoshni duo qiling – qoshni*

*duo qiling – boshni duo qiling*" qofiyadosh birliklarida y-q-b tovushlari bitta tovush orqali farqlilikni ta'minlab kelgan. Bu shoir Muhammad Ismoilning o'ziga xos so'z qo'llash mahoratidan darak beradi.

*Ko'zlarimning gavharisan,  
Yuragimning javharisan,  
Avaylagan-asraganim,  
Umrinimning shoh baytlarisan,  
Ona qizim, ona qizim* [3, 10].

*Gavharisan – javharisan* qofiyadosh so'zlari orqali mutlaq ohangdoshlik ta'minlanishiga erishilgan. Ritmik intonatsiyaga amal qilingan mana shu o'zaro fonetik jihatdan qofiyalanish shoir ijodidagi so'zlarning tuyg'u va kechinmalarni ifodalash jarayonida shaklan, mazmunan mutanosiblikni ta'minlashdagi o'rni va vazifasiga ham e'tibor qaratilganligi kuzatiladi. She'riy misradagi qofiyadosh so'zlarning tartibligi – ohangni kuchaytirish bilan lirik qahramon farzandini jondan ortiq ko'rishini to'laqonli dalolatlaydi.

Shoir she'riy nutqdagi ohangdoshlikni oshirish maqsadida takrorlarga ham murojaat qiladi va ularning original shakllarini yarata oladi. Shu o'rinda, shoir takrorlardan ham unumli foydalanadi. She'r so'ngida takrorlarning fonetik vazifasi geminatsiya hodisasini ham muvofiqlashtiradi. "Poetik nutq sintaksisida keng qo'llaniladigan fonetik usullardan biri – geminatsiya sanaladi. Tilshunoslikka oid izohli lug'atlarda – qo'sh undoshlilik tarzida atalib, aynan bir xil undoshli holatning yuzaga kelishi sifatida izohlanadi" [6, 143]. Geminatsiya hodisasi aynan qofiyadosh so'zlarning takrorlarida ham, misralar o'rtasidagi so'zlarda ham uchraydi. Chunki fonetik unsurlar komponenti she'rda ba'zi o'rinlarda takrorlarning evaziga yorqin ranglarda jilvalanadi. Qo'sh undoshlar she'rdagi qofiya, ritm va pafosni kuchaytirishga xizmat qiladi:

*Mahallangdan nari o'tmasa she'ring,  
Tovuslarni so'yib yegan dajjolsan.  
Olamni oralab yurmasa erking,  
Qora qalb orqalab yurgan hammolsan* [3, 8].

Mazkur she'riy nutq tarkibida urg'uning *qora qalb* so'ziga tushishi fonetik jihatdan qofiyalar o'zaro ohangdoshlikni yuzaga chiqarishga qaratilgani bilan izohlash mumkin. Takrorlar

“dajjolsan” kabi birikmalarida “hammolsan” takrorlarda geminatsiya hodisasi yaqqol yuzaga chiqqanligini sezamiz.

*Geminatsiya* “O‘zbek tili morfem lug‘ati”da unli yoki undoshlar orasida kuzatiladigan bu kabi holat “fonetik boshqalik” deb e‘tirof etilib, ma‘lum bir uslubiy maqsad uchun xizmat qilishi nazarda tutiladi” [5, 367]. Binobarin, geminatsiya hodisasi Muhammad Ismoil she‘rlarida ko‘plab kuzatiladi. Tuyg‘u va kechinmani, lirik pafosni kuchaytirish maqsadida qo‘llangan takrorlarni so‘zlar, ikki undoshning bir joyda kelishi misolida ko‘p uchratamiz. Ayni shu holatlar she‘rning umumiy pafosini belgilab berishga xizmat qilgan.

Qofiya bilan bog‘liq fonetik struktura 2 xil xususiyatda namoyon bo‘ladi:

1) she‘riy misralarda qofiyaning undosh yoki unli, ba‘zan takror unlilar, takror undoshlar bilan tugashi bilan bog‘liqlik jihati;

2) she‘riy misralarda ohang bilan uyg‘unlik kasb etgan fonetik strukturaning namoyon bo‘lishi, ritm, musiqiylik va mazmuniy belgilarga oid jihatlarining aks etishi.

Muhammad Ismoil she‘riyatida qofiyaning lingvopoetik strukturasini asosan ohang bilan bog‘liqligini ko‘plab kuzatishimiz mumkin. Ayrim she‘rlarida qofiyalar to‘liq ritmik intonatsiyaga ega emasligi, lekin mazmunning shoir tasvirlayotgan kechinma bilan uyg‘unligi shular jumlasidandir:

*Har gal Xovosga borsam,  
 Uvishadi yuragim.  
 Meh ketdim-u, seni ham  
 Uzatishgan malagim.  
 Mast etardi tunu kun  
 Turfa gullar chamani.  
 Xovos edi biz uchun  
 Muhabbatning Vatani* [3, 98].

She‘riy parchadagi qofiyaning fonetik uyg‘unligi ohangdoshlik evaziga sodir bo‘lishi kuzatilmoqda. *Yuragim – malagim, chamani – Vatani* kabi so‘zlar ritmda ohangning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Chunonchi, she‘rning boshqa bandlarida ham xuddi shunday ohang evaziga poetik matritsa namoyishi kuzatiladi. Shoir misralardagi teng so‘zlar bo‘g‘iniga emas, ohang uyg‘unligiga asoslanganligi, muallif atayin pafosning kuchayishini xohlab shu yo‘sinda ish tutganligi namoyon bo‘ladi.

Hech bir ijodkorni o‘zining yashash maydoni (vatani)dan ayro tasavvur qilib, boshqa bir o‘zanlarga, oqimlarga, lingvopoetik metodlarga solib tahlil qilish ishonchni oqlamaydi, ko‘zlangan maqsad va vazifalarni ochib berishga yetaklamaydi. Muhammad Ismoil o‘ziga xos ijod yo‘liga ega shoir. U muhabbatning Vatani deganda o‘zi tug‘ilib o‘sgan tuproqni, ilk muhabbatini tushunadi va go‘zal Xovosni kuyga soladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
2. Мусо Тошмуҳаммад ўғли Ойбек. Ўзбек поэзиясида тил / Мукаммал асарлар тўплами. – 20 жилдлик. – 14-жилд. – Тошкент: Фан, 1979.
3. Муҳаммад Исмоил. Менга сўз беринг. – Тошкент: MASHHUR-PRESS, 2020. – 208 б.
4. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвopoetik таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2006.
5. Ғуломов А., Тихонов А., Қўнғуров Р. Ўзбек тили морфем луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977.
6. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002. – 168 б.

Nodir RAXMATULLAYEV,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,  
Turkshunoslik oliy maktabi tayanch doktoranti  
[raxmatullaevnodir@gmail.com](mailto:raxmatullaevnodir@gmail.com)

## TAZKIRANAVISLIK AN'ANASINIG MOHIYATI VA MALIHO ASARINING ILMIY AHAMIYATI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada O'rta Osiyo va Eron adabiyotidagi tazkira janrining ahamiyati "Muzakkiru-l-as'hob" tazkirasi ma'lumotlari asosida yoritiladi. "Muzakkiru-l-as'hob" tazkirasi Muhammadbadi Maliho Samarqandiy tomonidan yozilgan va XVII asrning adabiy muhitini aks ettiradi. Tazkiranavislik an'anasining mohiyati, uning adabiyotshunoslikdagi o'rni hamda tazkiraning XVII asr Buxoro va Samarqand adabiy jarayonini o'rganishdagi qadr-qiyamati va ishonchliligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, asarda keltirilgan 203 shoir va adiblar hayoti hamda ijodi haqidagi ma'lumotlarning tadqiqot ahamiyati ko'rsatib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** *adabiy muhit, tazkira, qo'lyozma, manbashunoslik, she'riyat, adabiyot tarixi.*

**Аннотация:** в данной статье освещается значение жанра тазкира в литературе Средней Азии и Ирана на основе сведений из «Музакиру-л-асхаб». Тазкира «Музакиру-л-асхаб» написан Мухаммадбadi Малихо Самарканди и отражает литературную среду XVII века. Научно обосновываются суть традиции составления тазкиры, ее место в литературоведении, а также ценность и достоверность тазкиры при изучении литературного процесса Бухары и Самарканда XVII века. Также показано исследовательское значение сведений о жизни и творчестве 203 поэтов и литераторов, приведенных в произведении.

**Ключевые слова:** *литературная среда, тазкира, рукопись, источниковедение, поэзия, история литературы.*

**Annotation:** this article highlights the significance of the tazkira genre in Central Asian and Iranian literature based on the information from "Muzakkiru-l-as'hob". The tazkira "Muzakkiru-l-as'hob" was written by Muhammadbadi Maliho Samarqandi and reflects the literary environment of the 17th century. The essence of the tradition of writing tazkira, its place in literary studies, as well as the value and reliability of tazkira in studying the literary processes of Bukhara and Samarkand in the 17th century, are scientifically substantiated. Additionally, the research importance of the information presented about the lives and works of 203 poets and writers mentioned in the work is discussed.

**Key words:** *literary environment, tazkira, manuscript, source studies, poetry, literary history.*

Ajdodlarimizdan bizga badiiy asarlar qatorida turli sohalarga bag'ishlangan yana yuzlab ilmiy va adabiy asarlar meros bo'lib qolgan. Bunday risolalar, qo'lyozmalar, tazkiralalar, ularning mazmuni va xilma-xilligining umumiy hisobi hali o'rganilmagan. Shuningdek, Eron va Markaziy Osiyo mualliflarining ilmiy-tadqiqot ishlarida tazkiralalar va ajdodlarimizning boshqa asarlari haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud.

"Tazkira" arabcha so'z bo'lib, ma'nosi "eslatma, eslash" demakdir. Tazkira shoirlarning tarjimai holi va manzum asarlaridan namunalar qisqacha keltirilgan to'plamdir. Ma'lumki, o'zbek xalqi madaniyati va adabiyoti tarixiga oid ishonchli manbashunoslik manbalaridan biri tazkiralardir. Tazkiralarda shoir va adiblar, diniy va davlat ulamolarining hayoti va ijodi haqida yetarli ma'lumotlar aks ettiriladi.

"Tazkira" adabiyotshunoslik fanida asarning alohida bir turi sifatida tan olingan. Adib va ulamolar tazkiraning boshqa asar turlaridan farqini shunday ta'riflashgan: "Agar kitob shoirlarning tarjimai holi bo'lmay, faqat ularning she'rlaridan namunalarni o'z ichiga olsa, uni bayoz, safina yoki muraqqa' (shoirlar she'rlari va tasvirlari parchalaridan iborat albomsimon kitob va hokazo) deyiladi". Ammo tazkirada ham shoirlarning tarjimai holi, kasbi, mashg'uloti, ajoyib voqealar, tug'ilgan va vafot etgan yili, yashash va dafn etilgan joyi, sevimli mashg'uloti, she'rlaridan parchalar, ijodi va karomatlari va boshqalar haqida ma'lumotlar beriladi.

Forsiy adabiyotda tazkirachilik uzoq va boy tarixga ega. Klassik fors-tojik adabiyoti tarixida tazkiraga o'xshash eng qadimgi asarlar quyidagilardir:

Muhammad Rovandiyning “Tazkirai musavvar” (Jamol Naqqoshi Isfahoniy qalamiga mansub shoirlar tasviri bilan, 1172-yili yozilgan), Kamoluddin Xotuniyning “Manoqib ush-shuaro” (XII asr), Nizomiy Aruziy Samarqandiyning “Chahor maqola” (1177-yili yozilgan), Dilovariyning “Kitob ush-she’r vash-shuaro” (XI asr oxiri – XII asr boshi).

“Tazkira” deb to’la ma’noda atash mumkin bo’lgan birinchi asar Muhammad Avfiy Buxoroyniing “Lubob ul-albob” asaridir. Keyingi asrlarda quyidagi tazkiralari yaratilgan: Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” asarining 7-ravzasi, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Sommirzo Safaviyning “Tuhfai Somiy”, Nisoriy Buxoroyniing “Muzakkir ul-ahbob”, Mutribiyniing “Tazkirat ush-shuaro”, Maliho Samarqandiyning “Muzakkiru-l-as’hob”, Vozehning “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat il-as’hob”, Sadri Ziyoning “Tazakur ul-ash’or” asarlari va boshqalar.

Bu o’rinda adabiyotshunoslarning tazkira kitoblari haqida bildirgan fikrlariga e’tibor qaratishimiz lozim: “Tazkira kitoblarining ahamiyati, avvalambor, shunda namoyon bo’ladiki, bu turdagi kitoblar fors-tojik tilining keng tarqalgan hududida adabiyot tarixini tuzish, forsiyzabon shoirlarni va ularning yashagan davri, hayot yo’lini tanish va tanishtirish, shoirlik darajasi va mahoratini aniqlash, ularning so’z uslubini belgilash uchun muhim va birmuncha ishonchli manbalardan hisoblanadi”<sup>1</sup>.

O’tmishdagi adiblarimizning forsiy she’riyat va adabiyotga ko’rsatgan eng katta xizmatlari – bu tazkiralari yozish bo’lgan, bularsiz adabiyot tarixini tadqiq qilishni tasavvur ham qilib bo’lmaydi. Movarounnahr forsiy adabiyoti tarixida qadim zamonlardan to bizning davrimizgacha ko’plab qimmatli va bebaho asarlar yaratilgan bo’lib, bu asarlar orasida tazkiralari alohida o’rin tutadi. O’tgan adiblarimiz o’nlab tazkiralari yozish bilan forsiy she’riyat va adabiyotning rivojlanishiga munosib xizmatlar ko’rsatishgan, bularsiz adabiyot tarixini keng va chuqur o’rganish imkonsizdir. Tazkiralarda shoirlarning hayoti va asarlari, adabiy muhitlarning ahvoli, so’z ustalarining yozish uslubi aks ettirilgan bo’lib, ilmiy manba sifatida katta tadqiqot ahamiyatiga ega. Forsiy tazkiralari tarixi tadqiqotchisi Ahmad Gulchini Maoniy adabiyotni tanish va adabiyotshunoslik masalalarini tadqiq etishda tazkiralarning nufuzi va mavqeyini shunday eslagan: “Dariy tili kesimidagi fors adabiyoti

1 Худой Шарифзода, Мисбохиддини Нарзикул. Таърихи адабиёти тоҷик (аз аҳди қадим то оғози асри XIII). - Душанбе: “ТоРус”, 2017. Саҳ. 14.

tarixini tuzish uchun... forsiyzabon shoirlarni va ularning asri, davri hamda har birining hayot yo’lini tanish va tanishtirish, darajasi va sifatini, yozish uslubini belgilashda tadqiqot ahlining birinchi manbayi tazkira kitoblari”<sup>2</sup>.

Shunday tazkiralari orasida «Muzakkiru-l-as’hob» asari Muhammadbadi’ Maliho Samarqandiy tomonidan yozilgan tazkira. U 1688-1692 yillar oraliqida yozilgan. «Muzakkiru-l-as’hob»ning ayrim nusxalari muqaddimasida muallif asarni 1700 yilgacha takomillashtirib, tuzatish va tahrir qilganini qayd etgan<sup>3</sup>. Ammo bu ish uchun puxta va uzoq tayyorgarlik ko’rgan edi. U ancha oldin o’z zamondosh shoirlarining tazkirasini yozish fikriga kelgan bo’lsa-da, bu ishni ba’zi sabablarga ko’ra kechiktirib kelgan.

«Muzakkiru-l-as’hob»da Xuroson, Movarounnahr va G’arbiy Eronning 203 nafar shoiri haqida ma’lumot berilgan. «Muzakkiru-l-as’hob»ning boshida asardan joy olgan shoirlarning ro’yxati keltirilgan. Tazkira ikki qismdan (asosiy va qo’shimcha) iborat. Asosiy qism 166 nafar shoirning tarjimaiyoli holi va she’rlaridan namunalarni, qo’shimcha qism esa 37 nafar shoirni o’z ichiga oladi. Malihoning tazkisasi ma’lumot berish uslubi jihatidan ko’plab tazkira va adabiy manbalardan farq qiladi. Maliho shoirlarning hayoti, tarjimaiyoli holi, kasbi, obro’si, o’zaro munosabatlari, devon sohibi bo’lgan yoki bo’lmagani va hokazolar haqida imkon qadar to’liq ma’lumot berib, she’rlaridan namunalar keltirgan. Malihoning o’zi ham hunarmandlar doirasidan bo’lgani uchun ko’proq shu doira adiblarining ijodiga e’tibor qaratgan. «Muzakkiru-l-as’hob»dagi ma’lumotlar boshqa tazkiralarga nisbatan ishonchliroqdir. Muallif asosan o’zi suhbatlashgan shoirlar haqida ma’lumot bergan. Shuningdek, hujjat va ma’lumotlar to’plash uchun Movarounnahr, Xuroson va G’arbiy Eronning bir nechta shaharlariga safar qilgan. Shu jihatdan, «Muzakkiru-l-as’hob» Movarounnahr, Xuroson va Safaviylar Eronidagi XVII asr adabiy jarayonini o’rganish uchun katta ahamiyatga ega. Tazkira bizning davrimizgacha qo’lyozma shaklida bir necha nusxada yetib kelgan.

Maliho tazkirasining eng katta ahamiyati shundaki, uning asosida XVII asr adabiy harakatining nisbatan keng manzarasini yoritish mumkin. Xususan, Maliho tazkirasining xususiyatlari haqida ustoz Sadri Sa’diev “XVII asrda tojik adabiyoti” kitobida shunday yozadi:

2. معانی، احمد گلچین. تاریخ تذکره های فارسی. - ج. 2. تهران: انتشارات کتابخانه سنای، 1363. - ص 3.

3. Малихо Самарқандий. Музакиру-л-асҳоб. Қ.№58/1, 2613/1, 4270. ЎФАШИ.

“... Maliho tazkirasining yana bir muhim xususiyati shundaki, XVII asrda tojik adabiyotining ravnaqi, uning rivojlanish yo‘li va qonuniyatlarini bu qimmatli manbasiz tasavvur qilish va aniqlash mumkin emas”<sup>4</sup>.

Maliho ushbu tazkisasi bilan o‘sha davr adabiyotida alohida o‘rin egallagan.

Maliho tazkisasi shuni ko‘rsatadiki, XVII asrdagi og‘ir siyosiy-ijtimoiy sharoit, iqtisodiy tanazzul va Movarounnahrning umumiy qoloqligi bu zaminda adabiy hayotni to‘xtatib qo‘ymagan edi. Mamlakatning og‘ir ahvoli adabiyotning rivojiga yordam bermagan va ashtarxoni hukmdor va amirlarning hech biri she‘riyat va adabiyot hamda ularning ahliga g‘amxo‘rlik ko‘rsatmagan bo‘lsa-da, madaniyatning bu shonli va nufuzli rishtasi so‘nmagan, aksincha, o‘zining avvalgi an‘analarini davom ettirgan. She‘riyat va adabiyot xonlar saroyi muhitida emas, balki undan tashqarida, shahar muhitida rivojlangan. Adabiyotning shahar muhitida rivojlanishi, birinchi navbatda, hunarmandchilikning taraqqiyotiga bog‘liq edi. Klassik adabiyotning taraqqiyot yo‘li, asosan, XV asrdan boshlangan bo‘lsa, XVI-XVII asrlarda ham davom etib, sezilarli natijalar berdi. Maliho tazkisasi XVII asr shahar muhitida forsiy adabiyot taraqqiyotining yorqin dalilidir.

Malihoning tazkisasi forsiy adabiyotning Buxoro va Samarqand kabi ikki asosiy markazidagi ravnaqini

aks ettirgan. Ushbu manbaning kamchiligi shundaki, Maliho ushbu shaharlarga safar qilib, u yerdagi shoirlarni ko‘rib, ularni o‘z tazkirasida zikr etish imkonini to‘liq topmagan. Lekin Balxning adabiy muhiti o‘sha davr adabiy hayotida asosiy o‘rin tutmagan va ko‘p shoirlarni qamrab olmagan. Maliho tazkirasining bu kamchiligi unchalik jiddiy hisoblanmaydi. Ushbu tazkira Balx shoirlarini chetda qoldirgan bo‘lsa-da, Buxoro va Samarqand kabi ikki asosiy adabiy markazning ko‘plab shoirlarini qamrab olgan holda mamlakat adabiy hayotining keng manzarasini aks ettirgan.

Malihoning tazkirasida Movarounnahrning 140 dan ortiq katta-kichik shoir va yozuvchilari zikr etilgan bo‘lib, ularning barchasi muallifning zamondoshlari bo‘lgan va asosan XVII asrning ikkinchi yarmida Buxoro va Samarqandda ijod qilganlar.

Xulosa qilib aytganda, tazkiranavislik an‘anasi bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Zamonaviy tazkiralarning eng yaxshi va eng oxirgi namunalardan biri Sadridin Ayniyning tazkisasi hisoblanadi. Umuman olganda, tazkiralalar bir tomondan adiblarning hayot yo‘li haqida qimmatli sharhi hol ma‘lumotnomasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, so‘z san‘atining go‘zalligi va nuqsonlari, ijodkorlarning mahorati va mavqeyi haqida bahslar keltiradi, bu esa tazkiralarning ilmiy-adabiy jihatlarga ega ekanligini tasdiqlaydi. Shu sababli tazkiralalar adabiyot tarixini o‘rganish uchun ham eng ishonchli va qimmatli manbalardan biridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Айнӣ, Садриддин. Намунаи адабиёти тоҷик. Аз хати форсӣ таҳя ва тасҳеҳи Мубашшири Акбарзод.-Душанбе:Адиб, 2010. 448 с.
2. Бекжонов И. Мутрибий тазкиралари муҳим адабий манбаъ (“Тазкират уш-шуаро”, “Нусхайи зебойи Жаҳонгир”. XVI аср иккинчи ярими-XVII аср биринчи чораги) – Тошкент: Мумтоз Сўз, 2009. 339 б.
3. Бекжонов И. Нисорийнинг “Музакири аҳбоб” тазкираси ва XVI аср ўзбек адабиёти. Филол. ф.номз...дис.– Тошкент: 1993.
4. Малиҳо Самарқандий. Музакир ул-асҳоб. Қ.№58/И, 2613/И, 4270. ЎРФАШИ.
5. Саъдиев С. «Адабиёти тоҷик дар асри XVII». Душанбе: “Дониш”, 1985. 268 с.
6. Худой Шарифзода, Мисбоҳиддини Нарзиқул. Таърихи адабиёти тоҷик (аз аҳди қадим то оғози асри XIII). - Душанбе: “То Рус”, 2017.
7. Ҳодизода Р., Каримов У., Саъдиев С. Адабиёти тоҷик (Асрҳои XVI - XIX ва ибтидои асри XX). – Душанбе: Маориф, 1988. 413 с.
8. معانی، احمد گلچین. تاریخ تذکره های فارسی. – ج.2. تهران: انتشارات کتابخانه سنای، 1363. – ص

## TILAK JO'RA IJODIDA ORNITONIMLAR BILAN BOG'LIQ O'ZLASHMA SO'ZLARNING QO'LLANILISHI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o'zbek tilidagi ornitonimlarning etimologik, semantik va lingvokulturologik xususiyatlari tahlil etiladi. Tilak Jo'ra she'riyatida uchraydigan qush nomlarining kelib chiqishi, ramziy ma'nolari va tilda shakllangan tarixiy qatlamlari yoritilgan. Tadqiqot o'zbek ornitonimik lug'atining turkiy, fors-tojik va boshqa manbalardan tarkib topganligini, uning xalq madaniyati va poetik tafakkurida muhim o'rin egallashini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** *ornitonim, ornitologiya, etimologiya, o'zlashma so'z, leksik qatlam.*

**Аннотация:** в статье анализируются этимологические, семантические и лингвокультурологические особенности орнитонимов узбекского языка. На материале поэзии Тилака Жура рассматриваются названия птиц раскрываются их происхождение и символическое значение. Исследование показывает, что узбекская орнитонимия сформировалась на основе тюркских, персo-таджикских и других языковых пластов и отражает важные элементы национальной культуры и поэтического мировосприятия.

**Ключевые слова:** *орнитоним, орнитология, этимология, слово собственное, лексический слой.*

**Annotation:** this article examines the etymological, semantic, and linguo-cultural features of Uzbek ornithonyms. Using examples from Tilak Jo'ra's poetry, the study explores their historical origins, symbolic meanings, and structural properties within the Uzbek language. The findings demonstrate that Uzbek ornithonymy is shaped by multiple linguistic layers—primarily Turkic and Persian–Tajik—and plays a significant role in reflecting national culture, folklore, and poetic imagery.

**Key words:** *ornithonym, ornithology, etymology, proper word, lexical layer.*

**Kirish.** Ornitologiya (yun. ornithos – qush va logiya) – umurtqalilar zoologiyasining qushlarni o'rganadigan bo'limi. "Ornitonim" terminini fanga XVI asr oxirida italyan naturalisti U. Aldrovandi kiritgan. Dunyo tilshunosligida V.Merey, G.K. kazakbalasi, V.S Moem, J.Oke, R.Makdonld, C.Atay, Bayat prof. Dr. Ah haydar, R.Bilgener va boshqa ko'plab tilshunos olimlarning asarlari turli tizimli tillardagi ornitonim komponentli lisoniy birliklarni qiyosiy o'rganishga bag'ishlangan. Til birligi va ornitonim sifatida so'zning leksik-semantik va tilda tizimli tuzilishini o'rganishda M.Myager, L.F.Moiseyeva, O.A.Rijkina, M.Isayev, Z.G.Murkelinskaya, E.A.Nagornina, Z.R.Sadikova kabi tadqiqotchilar o'z ilmiy izlanishlarini olib bordilar. Qush nomlarini ifodalovchi lingvistik birliklarni milliy-madaniy nuqtayi nazardan, shuningdek, ularni frazeologik birliklar komponentlari sifatida N.D.Pimenova, S.G.Gadjiyeva, G.M.Vishnevskaya, T.V.Fedorova kabi olimlar tadqiq etganlar.

Ornitonimlar – o'zbek tilshunosligida maxsus tadqiq etishni talab etadigan leksik qatlamlardan biri. Qush nomlarini lisoniy nuqtayi nazardan o'rganish bugungi kundagi dolzarb masalalaridan hisoblanadi. So'nggi yillarda T.Z.Zoxidova, D.X. Bazarova, N.Abduraxmonov, D.B.Yo'ldosheva, D.A.Tosheva kabi olimlar qush nomlarining semantik, sintaktik va struktur jihatdan tadqiq etdilar.

Tahlillar va natijalar. O'zbek tilida uchraydigan ornitonimlar turli lingvistik qatlamlarga mansub bo'lib, ularning tarkibida qadimgi turkiy, fors-tojik, arab va rus tillaridan kirib kelgan birliklar mavjud. Tilak Jo'ra ijodida ham ornitonimlar salmoqli o'rin egallaydi. Masalan:

*Oftob og'ushida kergancha quloch,  
Popishiq ovozin qumsaydi tutlar.<sup>1</sup>*

Popishiq leksemasi fors-tojikcha so'z bo'lib, "O'zbek tilining etimologik" lug'atida *popishak* bu ot asli "qush toji" ma'nosini anglatadigan po'pi otiga (TjRS, 316) -sh va -ak qo'shimchalarini (TjRC, 543) qo'shib hosil qilingan bo'lsa kerak; o'zbek tiliga o' tovushini o (â) tovushiga almashtirib olingan; "olachipor patli, yelpig'ichsimon tojli, qayirma tumshuqli hasharotxo'r qush" ma'nosini anglatadi. (O'TIL, I, 598). Bu qush sassiqpopushak deb ham ataladi.<sup>2</sup>

*Yuragingga sanchilsa agar  
Tolning bevaqt singan shoxlari,  
Quvontirsa, kuldirdsa seni  
Bir o'lkaning burgut, zog'lari...<sup>3</sup>*

Burgut – asl turkiy so'z bo'lib, "eng katta yirtqich

1 Tilak Jo'ra. Saylanma. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent – 2011, 78-b

2 Sh. Rahmatullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – T., "Universitet", 2000, 194-b

3 Tilak Jo'ra. Saylanma. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. –Toshkent, 2011, 121-b

ovchi qush". Bu ot qadimgi turkiy tildagi "qayir-", "burma hosil qil" ma'nosini anglatgan *bör-* fe'lining "*changali bilan ushla*" ma'nosidan kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi -*gö* qo'shimchasi bilan hosil qilingan shakliga -*t* qo'shimchasini qo'shib yasalgan. [ESTYA, II,300]; o'zbek tilida ö unlilarining yumshoqlik belgisi yo'qolgan: (*bör+gu=börgö-*)+*t=börgöt>burgut*.<sup>4</sup> "Burgut", "lochin" kabi qush nomlari ko'pincha jasorat, kuch-qudrat timsollari sifatida ishlatilgan. Ular turkiy xalqlarning urushchi, jangovar ruhini ifodalovchi ramziy obraz sifatida adabiyotda keng qo'llaniladi.

"Tarjumon" lug'atining "Qushlar va shunga o'xshash narsalar" haqida bo'limida kuchken – burgut yana qara qush – qora qush, turkmanchada tavshanjil ham deyilgan. Bu qush ko'proq quyon ovlab yegani uchun shunday atalgan.

Zog' fors-tojikcha so'z bo'lib, "qarg'a" deya izohlanadi.<sup>5</sup> Qarg'a, odatda, o'lim, urush, tabiiy ofat va turli falokatlardan iborat yomon xabarlarini yetkazuvchi darakchi qush sifatida qaraladi. U ko'proq xazinalar saqlanadigan joylarda yashab, uzoq umr ko'rishi, donoligi aytiladi. Lekin qarg'a qora rangli qush bo'lganligi uchun ko'pincha o'lim, yomonlik bilan bog'lab talqin qilinadi.

"Tarjumon" lug'atining "Qushlar va shunga o'xshash narsalar" haqida bo'limida *qarg'a* shaklida uchraydi.<sup>6</sup>

*Bedazorda "bedana"*  
*Bo'lib-bo'lib sayraydi,*  
*Ko'rni qo'zg'arkan ona,*  
*Tinglab uni yayraydi.*<sup>7</sup>

Bedana — fors-tojikcha kelib chiqishga ega bo'lgan leksik birlik bo'lib, u "qirg'ovulsimonlar oilasiga mansub kichik jussali, tez harakatlanuvchi, sayroqi yer qushi" ma'nosini bildiradi.<sup>8</sup> So'zning o'zagi tojik tilidagi badanak/badana shakllari bilan etimologik jihatdan bog'liq bo'lib, Markaziy Osiyodagi fors-tojik til qatlamining qadimiy zoosemiotik nomlar tizimidan o'rin olgan.

<sup>4</sup> O'sha asar, 69-b

<sup>5</sup> O'sha asar, 106-b.

<sup>6</sup> "Tarjumon" – XIV asr yozma obidasi. –T., 1980, 37b

<sup>7</sup> Tilak Jo'ra. Saylanma. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent – 2011, 27b

<sup>8</sup> Sh. Rahmatullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – T., "Universitet", 2000, 30-b

Turkiy til manbalarida bu qush ko'pincha buldyrchyn shaklida qayd etiladi. Xususan, "Tarjumon" lug'atining "Qushlar va ularga o'xshash mavjudotlar" bo'limida bedananing turkiycha nomi sifatida buldyrchyn keltiriladi.<sup>9</sup> Ushbu nom turkiy tillarning qadimiy qatlamiga mansub bo'lib, bugungi qardosh tillarda ham (qozoqcha büdyrshyn, qirg'izcha buldurçun, turkcha bildircin) izchil qo'llanadi.

Bedananing ornitologik tasnifda tutgan o'rni, shakliy-fiziologik xususiyatlari va qishloq xo'jaligi (parrandachilik)dagi ahamiyati tufayli bu so'z tilshunoslikda zoonimik leksika, ornitoleksema sifatida o'rganiladi. Shuningdek, uning ikki xil nomlanishi — fors-tojikcha bedana va turkiy buldurchin — o'zbek tilida ikki qatlamli nomlash tizimining mavjudligini ko'rsatib, til tarixidagi o'zlashma va mahalliy leksika o'rtasidagi uzviy aloqalarni yoritadi.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqotda o'zbek tilidagi ornitonimlarning etimologik manbalari, struktur xususiyatlari hamda lingvokulturologik mazmun qatlamlari ilmiy tahlil qilindi. Tilak Jo'ra ijodidan olingan popishiq, burgut, zog' va bedana kabi leksik birliklar misolida qush nomlarining poetik matndagi obraz yaratishdagi o'rni, ularning tarixiy ildizlari va semantik kengayish jarayonlari yoritildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek ornitologiyasi turli til qatlamlarining o'zaro ta'siri natijasida shakllangan bo'lib, qadimgi turkiy derivatsion modellarning ustuvorligi, fors-tojik o'zlashmalarining fonetik-morfologik moslashuvi, ornitonimlarning folklor, adabiyot va xalqona tasavvurlar sistemasida ramziy yuk tashishi kuzatiladi. "Tarjumon" kabi qadimiy lug'atlarda qayd etilgan qush nomlari esa ornitonimik qatlamning tarixiy shakllanishida muhim manba hisoblanadi.

O'rganilgan materiallar asosida o'zbek tili ornitonimlarining nafaqat zoologik nomlash tizimini, balki milliy-madaniy dunyoqarash, estetik qarashlar va qadriyatlar tizimini ham aks ettiruvchi murakkab lingvistik hodisa ekani aniqlandi. Tadqiqot mazkur sohada keyingi qiyosiy-etimologik va lingvokulturologik izlanishlar olib borish zarurligini ko'rsatadi.

<sup>9</sup> "Tarjumon" – XIV asr yozma obidasi. –T., 1980, 37-b

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Tarjumon" – XIV asr yozma obidasi. –T., 1980.
2. Tilak Jo'ra. Saylanma. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. –Toshkent, 2011-y
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2006.
4. Sh. Rahmatullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – T.: "Universitet", 2000.

To'lg'anoy QULJANOVA,  
Samdu 2-kurs tayanch doktoranti  
[tulganoyquljanova@gmail.com](mailto:tulganoyquljanova@gmail.com)

## HOZIRGI ZAMON SHE'RIYATIDA RUH VA VUJUD, QALB VA QIYOFA MUNOZARALARI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada hozirgi zamon she'riyatida "ruh va vujud", "qalb va qiyofa", "jism va jon" timsollarining ifodalanishi Asqar Mahkam va Abduvali Qutbiddin ijodi misolida tahlilga tortilgan. Bundan tashqari bu ikki ijodkorning o'ziga xos poetik mahorati ochib berilgan. She'riyatda "Ruh va vujud", "qalb va qiyofa", "jism va jon" motivlarining o'rni tasavvufiy-irfoniy jihatdan talqin qilingan.

**Kalit so'zlar:** *ruh va vujud, jism va jon, qalb va qiyofa, ramziylik, irfon va tasavvuf.*

**Annotation:** this article analyzes the expression of the motifs "spirit and body," "heart and appearance," and "flesh and soul" in modern poetry through the works of Asqar Mahkam and Abduvali Qutbiddin. In addition, the distinctive poetic mastery of these two creators is explored. The role of the motifs "spirit and body," "heart and appearance," and "flesh and soul" in poetry is interpreted from a Sufi-gnostic perspective.

**Key words:** *spirit and body, flesh and soul, heart and appearance, symbolism, gnosis and Sufism.*

**Аннотация:** в данной статье анализируется выражение мотивов «дух и тело», «сердце и облик», «плоть и душа» в современной поэзии на примере творчества Аскара Махкама и Абдували Кутбиддина. Помимо этого раскрывается своеобразное поэтическое мастерство этих двух авторов. Роль мотивов «дух и тело», «сердце и облик», «плоть и душа» в поэзии интерпретируется с суфийско-ирфанийской точки зрения.

**Ключевые слова:** *дух и тело, плоть и душа, сердце и облик, символизм, ирфан и суфизм.*

Hozirgi zamon she'riyati mazmun va shakl yangilanishlari bilan bir qatorda poetik tafakkurning yangi bosqichga ko'tarilish jarayonini ham boshdan kechirmoqda. Bu jarayonda shoirlarning badiiy poetik izlanishlari, ayniqsa insonning ruhiy-ma'naviy olamini tasvirlash mahorati alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. Insonning ichki olami ruh, qalb, tuyg'u, idrok; tashqi mavjudligi esa jism, qiyofa, vujud kabi timsollar orqali yoritilmoqda va bu poetik ifoda adabiyotda qadimdan yetakchi mavzulardan hisoblangan. Sharq mumtoz adabiyoti, xususan, irfoniy-tasavvufiy yo'nalishdagi ijod ahli ushbu timsollar orqali komil inson g'oyasini ilgari surganlar. Hozirgi zamon she'riyatida ham ushbu mavzular o'zining yangi poetik ifodasini topib bormoqda. Ayniqsa, Asqar Mahkam va Abduvali Qutbiddin ijodida "ruh va vujud", "qalb va qiyofa", "jism va jon" kabi motivlarning badiiy ifodasi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ushbu motivlar shoirlarning badiiy dunyoqarashi, estetik tafakkuri va falsafiy mushohadalari bilan uyg'unlashgan holda o'ziga xos poetik tizim yaratgan. Har ikki ijodkor she'riyatida bu timsollar tasavvufiy-ma'rifiy g'oyalar asosida tasvirlangan bo'lib, ramziy-majoziy tasvirlar va

ruhiyatning badiiy qiyofasi asosiy tamoyillardan biriga aylangan. "Ruh va vujud", "qalb va qiyofa", "jon va jism" munozaralari nafaqat shaxsning ichki va tashqi tabiati o'rtasidagi ziddiyatni, balki insonning o'zligini anglash, ma'naviy kamolotga erishish jarayonini ham ifodalaydi. Shuning uchun zamonaviy she'riyatda bu motivlarning talqini nafaqat badiiy-estetik hodisa sifatida, balki falsafiy-ma'naviy jarayonning ifodasi sifatida ham ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mazkur maqolada Asqar Mahkam va Abduvali Qutbiddinning poetik merosi ana shu nuqtayi nazardan ko'rib chiqiladi, har ikki ijodkor she'riyatida ruh va vujud, qalb va qiyofa, jism va jon o'rtasidagi munosabatlarning badiiy-falsafiy talqini tahlil qilinadi. Shuningdek, ijodkorlarning o'ziga xos poetik mahorati, she'rlaridagi ma'rifiy-tasavvufiy g'oyalar ham ilmiy nazariy asosda yoritiladi.

Sharq tasavvuf adabiyoti, eng avvalo, ruh va ruhoniyyat adabiyoti. Chunki ruh yaratilarning eng sofi va eng porlog'i. U faqat xayr, faqat go'zallik uchun harakat qiladi. Anglanishi qiyin, hatto imkonsiz ko'ringan narsalarni ham ruh anglashga qodir. G'ayb dunyosiga ruh yo'l ochadi, haqiqat ahlining kashfi ruh bilandir. [Jahon adabiyoti, oktabr

soni] Tasavvuf she'riyatida ko'pincha ruh va vujud o'rtasidagi qarama-qarshilik ramziy-majoziy shaklda tasvirlanib kelingan. Vujud timsoli moddiy olamga mansub bo'lgan o'tkinchi qobiq sifatida tasvirlanadi. U insonning nafsiy istaklarini ifodalaydi. She'riyatda ruh, jon, qalb motivlari bir ma'noda, vujud, jism, qiyofa motivlari bir ma'noda ishlatiladi. Inson shu ikki qutb o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ichida bo'lib, ruh insonni yuksalishga undasa, vujud tubanlikka, nafsiy istaklar tomon tortadi. Tasavvuf she'riyatida ruh qush, sham, may, yor, ko'ngil kabi timsollar orqali tasvirlanadi. Ruh motivi asosan, ma'rifat bilan bog'lanadi. Chunki inson ma'rifat yordamida o'z ruhini taniydi, vujud qafasidan ozod eta oladi. Vujud timsoli zindon, qafas, qobiq, parda, tuproq, kulba, uy kabi ramziy tasvirlar orqali ifodalanadi, uning xususiyati o'tkinchiligi va o'zgaruvchanligidir. Shuning uchun so'fiylar vujudni Haqqa yetish yo'lida to'siq sifatda talqin qilishgan. Lekin bu vujudni inkor qilish degani emas, balki uni poklash orqali ruh hukmiga bo'ysundirishni anglatadi. Bu ikki unsur o'rtasidagi ziddiyat she'riy matnlarning kulminatsion nuqtasini belgilab beradi. Shoir ma'rifati ularni o'zaro uyg'unlashtiradi va bu ishq vositasida namoyon bo'ladi. Asqar Mahkam va Abduvali Qutbiddin ijodida ruh va vujud qarama-qarshiligi nafaqat tasavvufiy- irfoniy ramz sifatida, balki zamonaviy insonning ongida yashayotgan iztiroblar, isyonlar, ruhiy bo'shliq va ma'naviy tashnalik, o'zlikni anglash haqidagi mushohadalar bilan uyg'unlikda tasvirlangan. Bundan tashqari bu timsollar zamonaviy tasvir vositalari, yangicha ohang va individual uslub orqali boyitilgan. Bu jihatlarni ikkala ijodkorning she'rlari tahlilida ko'rishimiz mumkin.

Asqar Mahkamning "Ruh va vujud" she'rida ruh va vujud tahlilini ma'rifiy-tasavvufiy jihatdan olib qarash mumkin bo'ladi.

Shoir vujudni "paxsa devor", "loy", "suv" kabi jismlar orqali tasvirlaydi va bu tananing dunyoviy, moddiy va zaif ekanligini anglatadi. U vaqtinchalik qobiq bo'lib, qobiq ichida ilohiy nur ya'ni ruh yashaydi. She'rda ruh va vujud qarama-qarshi qo'yilgan va inson o'z ruhiy olamini ma'naviy boyitishi, dunyoviy narsalardan chekinib, haqiqatga intilishi kerakligi targ'ib qilingan. Shoir o'ziga xos ramziy til va badiiy poetik yondashuv asosida voqelik sharpalarini tasvirlab beradi. Bunda o'xshatish, ritmik takrorlar, antiteza kabi vositalardan, tasavvufiy timsollardan keng foydalangan.

Umr - paxsa devor tirkishida nur...

...Garchi loydir vujud,  
 garchi suvdir jism... [3; 107]

She'rda vujud va ruhning ajralishi g'oyasi tasavvufiy jihatdan talqin qilingan bo'lib, bu ikki unsur orasidagi farqlar ham tasvirlanadi. Ya'ni vujud foni bo'lib, moddiy dunyoga xos, ruh esa asl haqiqat va u abadiy unsurdir. Shoir ruhni "Oliha Nur" deb nomlaydi va u ilohiy haqiqatga, Allohning nuriga ishora qiladi. Tasavvufiy talqinga ko'ra, Nur ya'ni yorug'lik Alloh ramzi hisoblanadi. Jismning foniyligini ramziy o'xshatish orqali ya'ni vujud devorlarining qulashini, yemirilishini tasvirlaydi. Shoir hayot va o'lim orasidagi ramziy bog'liqlikni ifodalash uchun o'lim sahnasiga murojaat qiladi. Haqiqiy hayotni ilohiy olam bilan bog'lab ko'rsatadi. Ruh vujud [to'rt unsur qorishmasi] ni kun kelib tark etadi va ilohiy haqiqat [Kibriyo, Azaliyat, Jabarut, Qadimiyat, Fardoniyat, Samadoniyat kabi ruhiy olamlar] sari parvoz etadi.

She'r so'nggida shoir diniy-tasavvufiy yondashuv asosida vujudning qiyomatgacha uxlashi va undan keyingi qayta uyg'unishiga ishora qiladi.

Vujud uxlar edi,  
 ruxsiz bu vujud  
 endi uxlayverar qiyomatgacha... [3; 107]

Shoirning "Ruhning qaytishi" deb nomlangan she'rida ham ruh va vujud mavzusi tasavvufiy-falsafiy g'oyalar orqali yoritilib, zamonaviy poetik ruh singdirilgan. Ruhni murg'- qushga qiyoslaydi, ruh tark etgan tana xuddi mo'miyolangan shoh o'ligi, chopilgan og'och, sohildagi tosh, cho'kkan qabrga o'xshab qoladi. Shoir yana bir jihatni tasvirlaydiki, inson ruhan uxlashi ham mumkin, ya'ni ruhni tananing istaklari yo'lida qurbon qilish, ma'rifatsizlik asl haqiqatdan uzoqlashtiradi. Quyidagi misralar orqali ruh va vujud o'rtasidagi qarama-qarshilik, ruhning ustunligi, vujudning qoralanishini ko'rishimiz mumkin:

Vujud yotar edi xurrak tovushi  
 Buzar edi tunning hazin sukutin  
 Olis-olislarda charx urarkan ruh  
 Boqdi Hasrat bilan vujudi tomon, [3; 109-b.]

Abduvali Qutbiddin she'riyati Asqar Mahkam poetikasiga nisbatan ramziy-majoziy timsollarning rang-barangligi va metaforik qatlamlarning murakkabligi bilan ajralib turadi. Shoir she'riyatida jon, ruh – nozik sezgir va sirli timsol; jism esa ko'p hollarda ruhga torlik qiluvchi qobiq, qafas sifatida talqin qilinadi. Shoirning "Xabar", "Sendan qafas

hidi ufurar nechun” kabi she’rlari ruhoniyyatning nozik tasvirlarini chizar ekan, vujudni ruhning yashash makoni sifatida enas, balki vaqtinchalik manzili deb hisoblaydi. Abduvali Qutbiddin ruhni cheksizlik, hurlik, nurni sog’inish, ilohiy makonga intilish timsoli sifatida tasvirlaydi.

Shoirning “Ezgu ruh xususida fikr” nomli she’rini tasavvufiy-ma’rifiy jihatdan tahlil qilish mumkin. She’rda inson ruhiy olamining ma’naviy o’lchovi, ruh va vujud o’rtasidagi doimiy ziddiyat badiiy jihatdan tasvirlangan. Unda “Ezgu ruh” ning jaholat, kibr, nafs, shafqatsizlik kabi illatlar ta’sirida iztirob chekayotgan holati tasvirlanadi. Shoirning fikricha, ruh azali nurdan bo’lib, vujud uni qorong’ulikka tortadi. Ruhning poklikka intilish iztiroblari, tariqatdagi sayohati she’rning markaziy g’oyasi hisoblanadi. She’rda Ajdarho (Haq yo’lidan adashtiruvchi nafs), Qulzumdayo (ruhning dunyodan Haqqa safari yo’lidagi o’tish chegarasi), uzun qizil til (gunoh, yolg’on), qabriston (ma’naviy o’liklar), billur tog’ (poklangan ruh), sakkiz azob (tasavvufdagi maqomatlar), ismaloq (turli illatlar) kabi ramziy obrazlar bo’lib, ular shoirning ruh va vujud haqidagi so’fiyona qarashlarini ifodalashga xizmat qilgan. Shoir xayolida ruh “ezgu fikr” bilan uyg’onadi va bu insonning o’z ko’ngliga nazar tashlashi, poklanish ehtiyojining paydo bo’lganini anglatadi. Lekin ruh shu payt o’zining jaholat va gunoh dunyosida qamalganini his qiladi. Bu holat ruhiy uyg’onishning dastlabki bosqichi bo’lib, inson birinchi marta o’zining ma’naviy tanazzulini sezadi. Keyingi misralarda ruh va tan o’rtasidagi ichki kurash boshlanadi. Buni quyidagi “Masrur, garchand harom aylangan...” misrasi bilan bog’lab tahlil qilish

mumkin. Insonning nafsiy istaklarga berilishi ruhning zararlanishiga ham olib kelishi mumkin. Misrada vujud nafsiy istaklarga berilgan, ruh esa poklik istaydi. Vujud uni tubanlik botqog’iga tobora tortarkan, ruh qo’rquv va umid orasida qoladi, nafs bilan kurasha boshlaydi. “Ruh daydiydi sakkiz azobda...” misrasida ruhning poklanish yo’lidagi sakkiz maqomatlardan o’tishi tasvirlanadi. “Ruh yolg’izdir sakkiz azobda...” misrasi orqali esa har bir azob bir illatdan qutilish sinovi bo’lib, ruh bu sinovlardan bir o’zi yolg’iz o’tishi kerakligiga ishora qiladi. shoir qabriston manzarasi orqali ruhning g’amgin manzarasini chizadi, ruhan o’liklik va ma’naviy tubanlikni ifodalaydi.

She’r so’nggida shoir qalbida bir umid uyg’onadi. Ya’ni bu ruhning so’nggi iltijosi bo’lib, shoir quyidagicha izohlaydi:

Yo odamlar uyg’onib qolar,

Solar o’zin tinsiz qiynoqqa. [1:88-b.]

Qutbiddin she’rlarida ruh asosiy obraz bo’lib, ko’pincha u sarson, bezovta, chorasiz va norozi kayfiyatda tasvirlanadi. Buni “Yerdan nari osmondan yiroq” jumlasini orqali anglash mumkin bo’ladi. Shoirning individual poetik lug’atiga xos “Qulzumdayo” obrazi ham ramziy bo’lib, ruhning undan o’tishi vujudan ajralib poklanishini anglatadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Asqar Mahkam ijodida tasavvufiy-ma’rifiy g’oyalar ramziylik an’anaviy va aniq obrazlar orqali berilsa, Abduvali Qutbiddin uslubida bu jarayon chuqur ramziylik, majoziylik va ichki monologlar orqali ifodalanadi. Shunday qilib, har ikki shoirning ijodi zamonaviy she’riyatda ruhiy metaforalarni boyitib, “ruh va vujud”, “qalb va qiyofa” timsollarini yangicha qiyofasini aks ettiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduvali Qutbiddin. Bor. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. 320-b.
2. Alisher Navoiy. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami. Yigirma tomlik. O’n to’rtinchi tom. – Toshkent: Fan, 1998.
3. Asqar Mahkam. Vahdat kuyi. – Toshkent: “Nurafshon business”, 2021, 366-b.
4. Бадийй адабиёт ва тасаввуф тимсоллари. – Тошкент, 2010, 198–6.
5. I.Haqqul. Ruhoniyyat va nafsoniyyat tazodi. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2015, oktabr.  
<https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf/ibrohimi-haqqul-ruhoniyyat-va-nafsoniyyat-tazodi.html>
6. Komilov Najmiddin. 2019. Tasavvuf. – Toshkent: “Movaraunnahr”, 445-b.

Gulchiroy TURDALIYEVA,  
ToshDO‘TAU doktoranti

## “O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA JAMIYAT MODELİ TALQINI XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya:** maqolada jamiyat modeli qay yo‘sinda shakllangani, romanda ijodkor mavjud tuzumni o‘zgartirish kerakligi haqidagi g‘oyalari aks etgan.

**Kalit so‘zlar:** *jamiyat, urf-odat, modernizm, ijtimoiy qatlam, uyg‘onish, ma‘rifat, siyosiy kuch.*

**Annotation:** the article discusses how the model of society was formed, and the novel reflects the author’s ideas about the need to change the existing system.

**Key words:** *society, tradition, modernism, social class, awakening, enlightenment, political power.*

**Аннотация:** в статье рассматривается формирование модели общества, а в романе отражены идеи автора о необходимости изменения существующей системы.

**Ключевые слова:** *общество, традиция, модернизм, социальный класс, пробуждение, просвещение, политическая власть.*

Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanida XIX asr Turkiston jamiyatidagi ijtimoiy, iqtisodiy va mafkuraviy tuzumning murakkab qatlamlarini badiiy-realistik asoslarda tasvirlaydi. Asar o‘zbek jamiyatining tarixiy rivojlanish bosqichida shakllangan ijtimoiy institutlar, patriarxal qadriyatlar, siyosiy kuchlar qarama-qarshiligi va ma‘rifiy uyg‘onish jarayonlarini o‘zida mujassam etadi. Qodiriy jamiyat modelini yaratishda bir vaqtning o‘zida tarixchi, sotsiolog, ma‘rifatparvar va adib sifatida faoliyat yuritadi. Romandagi jamiyat modeli tasviri ikki asosiy tamoyilga tayanadi: real voqelikni namoyon etish va uni islohga da‘vat etuvchi ma‘rifiy-ohangdor talqin. Qodiriy keltirgan jamiyat modeli, avvalo, keskin tabaqalanishga asoslangan ijtimoiy tuzumni ko‘rsatadi. Hokimlar, beklar, ruhoniylar, o‘rta sinf savdogarlar, hunarmandlar, xizmatkorlar va ayollar qatlamining ijtimoiy mavqeyi qat’iy chegaralangan. Roman syujeti davomida bu tabaqalar o‘zaro ierarxiya asosida harakat qiladi, bu esa jamiyatning qotib qolgan tuzilmasini yaqqol ko‘rsatadi. Otabek va Yusufbek hoji obrazlari orqali Qodiriy jamiyatda shakllangan yangi ma‘rifatparvarlik qatlamini ham namoyish etadi. Ular jamiyatning eskicha tartiblariga nisbatan tanqidiy qarashga, islohot g‘oyalarini ilgari surishga urinadi.[2.B56] Romanda hukmron bo‘lgan feodal-bekchilik tizimi jamiyatning umumiy inqirozi sifatida talqin qilinadi. Azizbekning zolimligi, amaldorlarning o‘zaro mansab

talashishi, qozilar va ruhoniylarning adolatsizlikni qo‘llab-quvvatlashi — bularning barchasi jamiyatning siyosiy modelini tanqidiy ko‘rsatadi. Qodiriy bu siyosiy tizimni jamiyat taraqqiyotining asosiy to‘sig‘i sifatida tasvirlaydi. Ayniqsa, Otabekning Shamayga borib kelganidan keyingi mulohazalari roman uchun markaziy ijtimoiy-siyosiy g‘oya bo‘lib xizmat qiladi. Otabekning rossiyaning boshqaruv tizimidan taassurot olishi va uni mahalliy tartib-qoidalardan yuqori deb bilishi, muallifning modernizatsiyaga bo‘lgan daxldorligini ko‘rsatadi. Jamiyat modelining eng ta’sirchan qatlamlaridan biri ayollar mavqeining badiiy talqinidir.[3.B64]

Kumush obrazi orqali muallif ayollarning jamiyatdagi huquqi, ularning oilaviy munosabatlarda passiv subyekt sifatidagi o‘rni, ularning taqdiri ko‘pincha erkaklar tanloviga bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Zaynab obrazi esa patriarxal tuzumning ayol ruhiyatini sindiruvchi salbiy mexanizmlarini namoyish etadi. Qodiriy ayollar masalasi orqali jamiyatning ma’naviy inqirozini ochib beradi. Ayollarning erkinlikka bo‘lgan ehtiyoji romantik emas, balki ijtimoiy zarurat sifatida tasvirlanadi.

Romandagi iqtisodiy model ham jamiyatning umumiy tanazzulini tushunishda muhim o‘rin tutadi. Savdo-sotiqning cheklanganligi, beklar tomonidan qo‘yilgan soliq tazyiqlari, erkin iqtisodiy fikrning yo‘qligi Qodiriy tomonidan aniq-realistik chizgilar bilan ko‘rsatiladi. Bu jihatlar

Otabekning savdogar sifatidagi faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi. U iqtisodiy erkinlikning jamiyat taraqqiyoti uchun asosiy shartlardan biri ekanini anglaydi.[6.B78]

Jamiyat modelining yana bir muhim elementi — qadriyatlar inqirozidir. Yolg'unchilik, hasad, mansabparastlik, ikkinchi xotinlik, majburiy nikoh kabi hodisalar jamiyatning ma'naviy tubanlashuvini ko'rsatadi. Qodiriy qadriyatlarning buzilishi shaxsiy fojialarni keltirib chiqarishini Kumush fojiasi orqali teran ifodalaydi. Shu nuqtalarda muallif jamiyat tuzilmasining mustahkam emasligini, uning ichki ziddiyatlar bilan to'la ekanini, bu esa inqirozga olib keladigan eng muhim omil ekanini isbotlaydi. Jamiyat modellari — siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, ijtimoiy qatlamlarning uyg'un ifodasi sifatida romanning asosiy g'oyaviy konstruksiyasini shakllantiradi. Qodiriyning ma'rifiy pozitsiyasi jamiyat modelining har bir qatlamida ko'zga tashlanadi. U nafaqat mavjud tuzumni tanqid qiladi, balki jamiyat qanday bo'lishi kerakligi haqida dastlabki konseptual qarashlarni ham ilgari suradi. Bu esa "O'tkan kunlar" romanini adabiy asardan ko'ra kengroq — tarixiy-sotsiologik manba sifatida o'rganish imkonini beradi. Qodiriy yaratgan jamiyat modeli zamonaviy sotsiologik yondashuvlar bilan uyg'un keladi. Masalan, funksionalizm nuqtayi nazaridan qaralganda, jamiyat ichidagi har bir tabaqa o'z funksiyasiga ega, biroq feodal tuzumda bu funksiyalar buzilgan — hokimlar jamiyatning umumiy manfaatiga emas, balki shaxsiy manfaatiga xizmat qilgan. Konflikt nazariyasiga ko'ra esa jamiyatdagi beklar va xalq o'rtasidagi keskin qarama-qarshilik muqarrar portlashlarga sabab bo'ladi. Qodiriy aynan shunday ziddiyatlarni ko'rsatadi.

Jamiyat modelining muhim tamoyillaridan yana biri — individual ongning uyg'unishi. Otabek obrazida modern shaxsning shakllanishi, uning o'z jamiyatiga tanqidiy nighoh bilan qarashi, qadriyatlar tizimini qayta baholashi — bularning barchasi jamiyat modelining ichki isloh jarayonlarini anglatadi. Shaxs va jamiyat o'rtasidaginisbat o'zgarishi — Qodiriy uchun markaziy masala. Roman voqealari davomida jamiyatning adolatsizlikka asoslangan mexanizmlari ko'rsatib beriladi: amaldorlarning poraxo'rliqi, sud tizimining buzilganligi, hokimlarning zo'ravonligi, erkaklarning ayollar ustidan cheksiz hukmronligi — bularning barchasi jamiyat modelining inqiroz holatini ifodalaydi. [5.B 37] Qodiriy tasvirlagan jamiyat modeli tarixiy davrga xos bo'lishiga qaramasdan, uning asosiy xulosalari zamonaviy jamiyatlar uchun ham dolzarbligicha qolmoqda. Asarda jamiyatning inqirozi iste'dodli shaxslarning fojiasi bilan yakunlanadi. Kumushning o'limi — oddiy oilaviy fojia emas, balki butun jamiyatning ma'naviy falokatini ifodalaydigan ramzdir.

Otabekning mag'lubiyati esa jamiyatda yangilanishning imkoniyati borligi, biroq shaxsiy kuchning yetarli emasligi haqidagi xulosani beradi. Jamiyatning o'zgarishi uchun tizimli islohotlar zarur — Qodiriy buni o'z estetik qarashlari orqali ko'rsatadi.

Shunday qilib, "O'tkan kunlar"dagi jamiyat modeli ko'p qatlamli, murakkab, tarixiy asoslangan va badiiy jihatdan mukammal yaratilgan konstruksiyadir. U orqali muallif nafaqat o'z davrining ijtimoiy hayotini aks ettiradi, balki o'zbek ma'rifatchiligi davrining konseptual g'oyalarini ham badiiy shaklda ilgari suradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodiriy A. O'tkan kunlar. — Toshkent: O'zFA nashriyoti.
2. Abdug'afurov A. O'zbek romanchiligi tarixi. — Toshkent, 2016
3. Karimov N. Jadid adabiyoti va jamiyat. — Toshkent, 218
4. Qosimov B. O'zbek adabiy tanqidi tarixidan. — Toshkent, 2010
5. Saidov S. Adabiyot va jamiyat munosabatlari. — Samarqand, 2017
6. Mirvaliyev M. Realizm poetikasi va tarixiy roman. — Toshkent, 2020

Nafisaxon SULAYMANOVA,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
1-bosqich tayanch doktoranti

## MUSTAQILLIK DAVRI HIKOYALARIDA PARADOKSAL HOLATLARNING AKS ETISHI

(N. Eshonqulning “Og’riq lazzati” hamda I. Sultonning “Todd” hikoyalari misolida)

**Annotatsiya:** ushbu maqolada adabiyotshunoslikdagi paradoksal hodisalar tushunchasi, uning nazariy asoslari hamda badiiy matnda namoyon bo'lish shakllari tahlil qilinadi. Paradoksning obrazlar tizimi, til-uslub xususiyatlari va kompozitsion struktura bilan bog'liq ko'rinishlari o'rganilib, mustaqillik davri hikoyalari, xususan “Og’riq lazzati” hamda “Todd” misolida paradoksal tafakkurning o'ri va estetik ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** *paradoks, kompozitsiya, badiiy tafakkur, mantiq, ziddiyat, oksimoron.*

**Annotation:** this article analyzes the concept of paradoxical phenomena in literary studies, its theoretical foundations, and the forms of its manifestation in literary texts. The manifestations of paradox related to the system of images, linguistic and stylistic features, and compositional structure are studied, and the role and aesthetic significance of paradoxical thinking are revealed in the stories of the independence period, in particular, in the examples of “The Taste of Pain” and “Todd”.

**Key words:** *paradox, composition, artistic thinking, logic, contradiction, an oxymoron.*

**Аннотация:** в статье анализируется понятие парадоксального явления в литературоведении, его теоретические основы и формы проявления в художественном тексте. Изучаются проявления парадокса, связанные с системой образов, лингвистическими и стилистическими особенностями, композиционной структурой, а также раскрываются роль и эстетическое значение парадоксального мышления в рассказах периода независимости, в частности, на примере «Вкуса боли» и «Тогда».

**Ключевые слова:** *парадокс, композиция, художественное мышление, логика, противоречие, оксюморон.*

Adabiyot inson tafakkurining murakkab va ko'p qatlamli mahsuli sifatida ko'plab qarama-qarshi tushunchalar, ziddiyatli holatlar va paradoksal mazmunlar uyg'unligidan iborat. Paradoks – bir qarashda zid, mantiqan to'g'ri kelmaydigan ko'ringan, ammo ichki mantiq orqali badiiy haqiqatni kuchaytiruvchi hodisadir. Adabiyotshunoslikda paradoksal holatlar nafaqat uslubiy vosita, balki syujetning dramatzimini kuchaytiruvchi, qahramon ruhiy kechinmalarini ochuvchi usul, ijtimoiy o'zgarishlarni aks ettiruvchi badiiy mexanizm, estetik dunyoqarashning muhim ko'rinishi sifatida ham tadqiq etiladi.

Paradoks atamasi qadimgi yunon falsafasidan boshlab ilmiy va badiiy tafakkurda turli ma'nolarda qo'llanib keladi. Aristotel paradoksni sof mantiqqa zid fikr sifatida talqin qilgan bo'lsa, XX asr strukturalistlari uni matnning ko'p ma'nolilikni yuzaga keltiruvchi lingvopoetik mexanizmi sifatida baholaydi. Adabiyotshunoslikda paradoks quyidagi asosiy ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

1. Badiiy obraz paradoksi – qahramon xarakteridagi ichki ziddiyatlar.

2. Til va uslub paradoksi – metafora, oksimoron, ironiyada mujassamlangan ziddiyatli obrazlar, muallifning badiiy maqsadi, asarda paradoksal holatlarni keltirish orqali qanday ijtimoiy fikrni yetkazmoqchi ekanligini tushuntirish.

3. Kompozitsion paradoks – voqelikning noaniq, chiziqsiz yoki ko'p qatlamli talqini, paradoksning qanday maqsadga xizmat qilishini belgilash.

4. G'oya paradoksi – bitta badiiy mazmunning bir nechta qarama-qarshi xulosalarga olib kelishi. Mustaqillik davri ruhini yoritish, qahramonning ichki kechinmalari, ijtimoiy o'zgarishlarga munosabatini tushuntirish. Paradoks mazmunidagi yashirin ma'nolarni ochish.

5. Badiiy-estetik tahlil. Paradoksning badiiy vazifasi va estetik qiymatini aniqlash. Muallifning badiiy maqsadi, obraz yaratish usullarini tahlil qilish. Paradoksning o'quvchi qalbida qanday estetik ta'sir uyg'otishini o'rganish.

Adabiy qahramon ko'pincha o'z ichida murakkab qarama-qarshiliklarni mujassam etadi. Bu holat real inson psixologiyasi va hayotiy vaziyatlarning ziddiyatli tabiatidan kelib chiqadi.

Adabiyotshunoslikda paradoksal obrazlar quyidagicha namoyon bo'ladi:

*Ichki ziddiyatda yashovchi qahramon* – burch va istak o'rtasida ikkilanadigan shaxs. “Og'riq lazzati” dagi mahkum va “Todd” dagi Mamasiddiq buva obrazlarida bu ziddiyat ko'zga tashlanadi.

*Donishmand tentak* – tashqi ko'rinishidan sodda, ammo chuqur falsafiy fikr va donishmandlikni o'zida jamlagan obraz. Isajon Sultonning “Todd” hikoyasidagi bosh qahramon Mamasiddiq buvaning hikoyachi tasavvuridagi indamas, tund, xasis, tinim bilmas qiyofasi uning vafotidan so'ng g'oyib bo'lib, o'rnida boshqa bir insonning – bor tuyg'ulari-yu hissiyotlarini hayot degan poygaga qurbon bergan bir odamning ozg'in, iyagida soqoli o'sgan, tirishli yuzi, javdiragan ko'zlari xayolida jonlanishi.

*Qahramon-antagonist* – ezigulik yo'lida bo'lsa-da, maqsadiga yetishish jarayonida yovuzlik unsurlarini keltirib chiqaradigan shaxs.

Bu turdagi obrazlar adabiyotshunoslikda paradoksal holatning psixologik va falsafiy mazmunini boyitish uchun xizmat qiladi.

Adabiyotshunoslikda eng ko'p uchraydigan paradokslar quyidagilardir:

1. *Oksimoronlar*. “Shirin azob”, “mangu o'tkinchilik”, “jim hayqiriq” kabi iboralarda ikki zid tushuncha birlashib, yangi badiiy mazmun yaratadi. Nazar Eshonqulning “Og'riq lazzati” hikoyasi ham shular jumlasidan. Hikoya nomining o'zi paradoks. Hikoyada tasvirlangan vahshiylik – o'zganing azobi evaziga rohatlanish – paradoks. Og'riqni lazzat deb qabul qilish – paradoks. Uch toifadagi obraz: tomoshabin, mahkum va nazoratchi mujassamlashib, bir-birini to'ldiradi. Yozuvchi hikoyalarida asardan asarga ko'chib yuradigan detallar mavjud. Masalan, ko'pgina hikoyalarida qayerda joylashgani mavhum bo'lgan “maydon” obrazini uchratamiz. “Og'riq lazzati” hikoyasida qahramon mahkumlar dahshatli tarzda qiynoqqa solinayotgan maydonga borib qolsa, “Qaytish” hikoyasida ham qahramon aynan shunday maydonga duch keladi. Yuqoridagi maydondan farqli jihati, “maydon chetidagi bayroq osilgan muhtasham binoda tenglik va insonparvarlik hamda fan taraqqiyoti to'g'risida qandaydir da'vatkor shiorlar osilgan”, maydondagi odamlarning kiyimi ham allanechuk g'alati ko'rinadi, “ko'pining egnida eskirib ketgan nimdosh mundir osilgan, ayollar esa bundan qirq-ellik yil burungi andozada odmigina kiyinishgan, lekin hammasining ko'zlarida sarosima, tahlika va gumon aralash bir qo'rquv qotib qolgan”. Ikki hikoyadagi “maydon” ham olomon tomonidan o'rab olingan. “Maydon” ikki xil ma'noda: hukm o'qilgan,

qilmish uchun hisob-kitob qilinadigan joy va olomon tomoshabiniga aylanadigan har qanday voqelikning ramzi sifatida qo'llangan deyish mumkin. Demak, asarda tasvirlangan mahkumlar – o'zining yarasiga o'zi tuz sepib, o'zini o'zi azob-uqubatlarga giriftor qilayotgan jamiyat; professor – bu kabi nayranglarda asosiy rol o'ynaydigan ziyolilar; tomoshabinlar – insoniyatni qovurib, bir-biriga gij-gijlab, o'z etini o'zi yeyishga majbur qilayotgan ayrim “yo'lboshchi”, Kamyu ta'biri bilan aytganda “dunyo hukmdorlari”dir. Asardagi to'rtinchi mahkum bolsheviklar kommunistik partiyasiga ishoradir, deydi Bayram Ali “Umumbashariy dard” nomli maqolasida.

2. Ironiya va kinoya. Aytilgan fikrning asl ma'nosi uning ziddi ekanligi paradoksal nutq effektini hosil qiladi. “...ular og'riq uchun tug'ilgan, og'riq va azobning oliy maqomiga erishgan edilarkim, ularni boshqa holatda tasavvur qilib bo'lmadi”. Frans Kafkaning “Ochlik ustasi” nomli hikoyasida kinoyaviy paradoks yaqqol ko'zga tashlanadi. Undagi hayvon qafasga tushganidan xursand, unga asli xos bo'lgan narsa – ozodlikni keragi yo'q.

3. Metaforaning paradoksal shakllari. Metafora yordamida murakkab psixologik holatlar bevosita emas, balki ramziy va zid ko'rinishda ifodalanadi. “Og'riq lazzati” hikoyasida muallif g'oyani bir metaforaga singdirib, butun hikoyani shu asosga quradi. Bu tipdagi hikoyalarni o'qish davomida tasavvur imkoniyatlari ma'lum darajada qisqaradi, xronotop, ya'ni adabiy makon va zamon mavhum tarzda ifodalanadi. Jismoniy azob unutilishi mumkin va u adib nazdida ruhiy og'riq oldida bir lazzatlanishdek ko'rinadi. Og'ir sharoit tufayli och-nahor, ust-boshi uvada, butun tanasini yara-chaqa va jarohatlar qoplagan mahbuslar qancha azobga giriftor qilinsa ham, ularning yuzida tabassum balqib turadi. Munaqqid X. Karimov bu holatni dunyoviy jihatdan jamiyatda ro'y berayotgan voqea-hodisalar mohiyatini teran idrok etishga qodir shaxslarning iztirobi, diniy jihatdan esa yorug' dunyo azoblariga bardosh berib, oxirat saodatiga erishmoqlik, deb talqin qiladi. Bunday lingvopoetik usullar adabiy matnning obrazlar tizimini chuqurlashtiradi, o'quvchini ko'p qatlamli ma'noni anglashga undaydi.

Paradoksal holatlar adabiyotda estetik haqiqatni yaratishning markaziy vositalaridan biridir. Hayotning murakkabligi, inson ruhiyatining ko'p tomonlamaligi, borliqning mantiqan tushuntirib bo'lmaydigan jihatlari paradoks orqali badiiy ifodasini topadi. Paradoks o'quvchini fikrlashga, savol berishga, matn mohiyatiga chuqur kirib borishga undaydi.

Modernizm va postmodernizm adabiyotida

paradoksal holatlar vaqtning uzilishi, epizodlarning mantiqiy ketma-ketlikda emas, balki ong oqimiga asoslanib joylashtirilishi, muallifning “yo‘qligi” – asarda muallif ovozining yashirinib, barcha ma’noni o‘quvchi talqiniga qoldirilishi (R. Bartning “muallif o‘limi” konsepsiyasi), ko‘p uchli yakunlar – bitta voqeaning bir nechta haqiqatda sodir bo‘lishi orqali yuzaga chiqadi. Bunday paradoksal g‘oyalar ko‘pincha hayotning murakkabligi, yaxshilik va yomonlikning aniq chegarasizligi, haqiqatning ko‘p qatlamlilik kabi falsafiy masalalarni yoritishda qo‘llanadi. Paradoksal holatlar o‘quvchining ongini uyg‘otadi, unda bahs-munozara tug‘diradi, muallifning badiiy niyatini noaniq, ammo chuqur talqin qilishga majbur etadi.

Mustaqillik davri hikoyalarida paradoksal holatlar, asosan, yangi hayotga eski tafakkur qarshiligi, erkinlik va ichki qo‘rquv to‘qnashuvi, imkoniyat va

moslasha olmaslik, ma’naviy bo‘shliq va moddiy yuksalish, jamiyatdagi tez o‘zgarishlarga nisbatan insonning ichki ziddiyatlari tarzida namoyon bo‘ladi. Adabiyotshunoslar tomonidan paradoksal holatlarning o‘rganilishi psixologik tahlil, struktural tahlil (syujet tuzilishi), komparativ tahlil (o‘xshash asarlar bilan solishtirish), ijtimoiy-adabiy yondashuv kabi metodlar orqali amalga oshirildi.

Xulosa sifatida aytganda, paradoksal holatlar adabiyotshunoslikning estetik, falsafiy va psixologik mohiyatini chuqurlashtiruvchi asosiy hodisalardan biridir. U obrazlar tizimi, til-uslub, kompozitsiya va g‘oya darajasida namoyon bo‘lib, badiiy matnning murakkab semantik tuzilishini yaratadi. Paradoksal hodisalar orqali muallif voqelikni noaniq, ko‘p qirrali va tafakkurni kengaytiruvchi tarzda tasvirlaydi. Shu bois paradoksal holatlar adabiyotshunoslikda eng dolzarb tadqiqot mavzularidan biri bo‘lib qolmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O. Sharafiddinov. Adabiy tanqid va badiiy tafakkur. –T: Fan, 1980.
2. A. Ulug‘ov. Adabiy tanqid: nazariya va tajriba. –T: “Akademnashr”, 2020.
3. Bayram Ali. Umumbashariy dard. 2021.
4. X. Abdurashid. O‘zbek adabiyotining kimyogari. Oyina.uz. 2022.
5. Sh. Turdiyev. Badiiy tafakkur va zamonaviy poetik jarayon. – T: Fan va texnologiya, 2018.
6. N. Eshonqul. Saylanma. I jild. – T: “Akademnashr”, 2022.

O'g'iloy AHMADOVA,  
SamDU tayanch doktoranti  
ahmadovaogiloy93@gmail.com

## “OYINA” JURNALINING ADABIY-ESTETIK ROLI VA JADID BADIY TAFAKKURINING SHAKLLANISHI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Mahmudxo'ja Behbudiy tahriri ostida 1913–1915-yillarda chop etilgan “Oyina” jurnalining o'zbek jadid adabiyoti tarixidagi o'rni, uning adabiy-estetik yo'nalishlari hamda badiiy tafakkurni yangilashdagi roli tahlil qilinadi. Jurnalning tili, uslubi, janr xususiyatlari va ramziy obrazlar tizimi orqali jadid davri adabiyotining yangi bosqichi — ma'rifiy realizm ilmiy asosda izohlanadi.

**Kalit so'zlar:** *Oyina, jadid adabiyoti, Behbudiy, estetik tafakkur, ma'rifat, publitsistik nasr, milliy uyg'onish.*

**Annotation:** this article analyzes the role of the magazine Oyina, edited by Mahmudkhoja Behbudi and published between 1913 and 1915, in the history of Uzbek Jadid literature. It examines the journal's literary and aesthetic orientation and its contribution to the renewal of artistic thought. Through the study of its language, style, genre features, and system of symbolic images, the article scientifically interprets a new stage in Jadid literature — the era of Enlightenment Realism.

**Key words:** *Oyina, Jadid literature, Behbudi, aesthetic thought, enlightenment, publicistic prose, national awakening.*

**Аннотация:** в данной статье анализируется роль журнала «Ойина», издававшегося под редакцией Махмудходжи Бехбуди в 1913–1915 годах, в истории узбекской джадидской литературы. Рассматриваются литературно-эстетические направления журнала и его вклад в обновление художественного мышления. Через анализ языка, стиля, жанровых особенностей и системы символических образов научно обосновывается новый этап джадидской литературы — эпоха просветительского реализма.

**Ключевые слова:** *Ойина, джадидская литература, Бехбуди, эстетическое мышление, просвещение, публицистическая проза, национальное возрождение.*

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy hayotida yuz bergan uyg'onish harakati jadidchilik nomi bilan tarixga kirdi. Bu harakatning eng muhim ko'rinishlaridan biri matbuot orqali milliy ongni shakllantirish jarayoni edi. Jadid matbuoti bir nechta gazetalar va jurnallardan iborat edi. Quyida eng muhimlari: “Taraqqiy”, “Sadoyi Turkiston”, “Najot”, “Kengash”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Oyina”. Shunday nashrlardan eng nufuzlisi Mahmudxo'ja Behbudiy asos solgan “Oyina” jurnali bo'lib, u nafaqat ma'rifatparvarlik manbasiga, balki adabiy-estetik yangilanish maktabiga aylangan. Jurnalning maqsadi va g'oyasi “Millatni uyg'otish, ilm, ma'rifat, islohot va zamonaviy tafakkurni yoyish” bo'lgan. “Oyina” so'zi ramziy ma'noda jamiyat oynasi deya e'tirof etgan Behbudiy xalq o'z hayoti, kamchiliklari va yutuqlarini shu oynadan ko'rishi kerak degan

fikrlarni bildirgan. Ma'rifatparvar jurnalning dastlabki sonida shunday yozgan edi: “Oyina — bu millatning ko'zgidir. Kim o'z yuzini ko'rmoq istasa, oynaga qaraydi; kim o'z millatining ahvolini bilmoq istasa, shu jurnalni o'qisin.” Ushbu jurnal o'z davrida Turkiston jadid matbuotining eng sarmahsul, ilmiy-ma'rifiy va adabiy nashrlaridan biri bo'lgan. U ma'rifiy, diniy, adabiy, axloqiy mavzularga bag'ishlangan maqolalarni o'z ichiga olgan. Yangi usuldagi maktablar, ayollar ta'limi, bolalar tarbiyasi, o'qituvchilik masalalari, dunyoviy fanlar haqida maqolalar jurnalning ma'rifiy mavzulari qatoriga kirgan bo'lsa, islomni to'g'ri talqin qilish, johillik va xurofotga qarshi chiqish, din va ilmning uyg'unligidan iborat edi. Ijtimoiy-siyosiy Turkiston musulmonlarining huquqlari, adolat, siyosiy erkinlik, mustaqillikka da'vat kabi mavzular ham yoritilgan edi. Shu bilan

bir qatorda, she'r, hikoya, tarjima, nasihatnoma, insonparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, vatanga sadoqat haqida maqolalar ham jurnal sahifalaridan joy olgan edi. Jurnal atrofida o'sha davrning eng ilg'or jadid ziyolilari to'plangan edi. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy – asoschi, muharrir, publitsist bo'lsa, Abdulla Avloniy – ta'lim va ma'naviyat masalalari bo'yicha maqolalar bilan jurnalda publitsistik ko'rinish berar edi. Munavvarqori Abdurashidxonov yangi maktablar haqida chiqishlar qilsa, Fitrat millat, til va madaniyat haqidagi maqolalar bilan jurnalni boyitib turar edi. Cho'lpon esa ilk adabiy asarlari bilan qatnashgan. Sadridin Ayni Buxorodan ma'rifatparvarlik ruhidagi maqolalar yuborib turar edi. Shuningdek, o'sha davrning boshqa jadid yozuvchilari ham jurnal bilan hamkorlik qilganlar. Behbudiy "Oyina"ni millat ko'zgusi sifatida ko'rgan va uni xalqni o'z holatini anglashga undovchi badiiy vosita deb bilgan. Jurnalning har bir soni o'zida ma'rifat, axloqni uyg'unlashtirgan maqolalar, she'rlar va tarjimalarni jamlagan. Behbudiy adabiyotni xalqni uyg'otish, jaholatni yo'qotish va millatni yangi tafakkur sari yetaklovchi qudrat deb bildi. Shuning uchun ham jurnal sahifalarida badiiy publitsistika uslubi yetakchilik qildi. U ilmiy dalil va lirizmni uyg'unlashtirib, o'quvchini fikr va tuyg'u birligida tarbiyaladi. Masalan, Behbudiyning "Millatning najoti ilmda" sarlavhali maqolasida badiiy ifoda vositalari orqali ijtimoiy g'oya adabiy shaklda beriladi: "Bizning millatimizning eng buyuk dardi — jaholatdir. O'qish, o'rganish va ishlash — bu dardning yagona davosidir". Bu jumlar o'z davri publitsistikasi uchun poetik kuchga ega bo'lib, adabiy nutqning yangi — ma'rifiy-estetik shaklini yaratgan. "Oyina" jurnalida birinchi bor o'zbek adabiyotida publitsistik nasr, didaktik she'r, dramatik shakl va tarjima janrlari keng qo'llanildi. Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Cho'lpon singari

adiblarning ilk ijodiy namunalari shu nashrda chop etilgan. Bu janrlarning barchasi badiiy shaklni ijtimoiy mazmun bilan uyg'unlashtirish tamoyiliga tayanadi. Masalan, she'rlar nafaqat estetik zavq uyg'otgan, balki milliy o'zlik va ma'rifat g'oyalarini targ'ib qilgan. Shuningdek, "Oyina"da e'lon qilingan sahna uchun yozilgan maqolalar Behbudiyning "Padarkush" dramasi uchun g'oyaviy zamin bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek, "Oyina" jurnali o'zbek adabiyotida tildagi yangilanishni boshlab berdi. Behbudiy va uning safdoshlari adabiy tilni xalq tili bilan yaqinlashtirishni maqsad qildilar. Matnlarda murakkab arabcha va forsa atamalar o'rniga sodda, xalqchil so'zlar ishlatildi. Bu esa estetik ta'sirchanlikni kuchaytirib, o'quvchini matnga hissiy jihatdan bog'lashga xizmat qiladi. "Oyina"da ishlatilgan ramziy obrazlar (oyina, nur, zulmat, bolalik, kelajak) ma'naviy uyg'unishning badiiy timsollariga aylandi. Masalan, "oyina" so'zi o'zini tanish, millatni anglash, ma'naviy ko'zgu ramzi sifatida ishlatilgan. Bu ramz jadid adabiyotida insonning o'z-o'zini anglash bosqichini ifodalaydi. Jurnal o'z davrida ma'rifiy realizm oqimining shakllanishiga asos solish bilan bir qatorda nafaqat ijod mahsuli, balki ma'naviy tarbiyachi sifatida qaralgan.

"Oyina" jurnali o'zbek jadid adabiyotining shakllanishida g'oyaviy-estetik jihatdan ulkan ahamiyat kasb etgan. U milliy matbuot tarixida birinchi bo'lib adabiy va estetik fikrni uyg'unlashtirgan nashr sifatida tanilgan. Behbudiy boshchiligidagi bu jurnal adabiyotning ijtimoiy va tarbiyaviy vazifasini belgiladi; publitsistik estetikani shakllantirdi; milliy o'zlikni badiiy ifoda orqali mustahkamladi. Natijada "Oyina" nafaqat o'z davrining madaniy hodisasi, balki o'zbek adabiyotining modern estetik yo'nalishlari uchun poydevor bo'lib xizmat qildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
2. Karimov N. Jadidchilik va matbuot tarixidan. – Toshkent: Fan, 2003.
3. Abdurahmonov A. XX asr boshidagi o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Universitet, 2012.
4. Qodirov B. Behbudiy merosi va milliy uyg'unish adabiyoti. – Samarqand, 2016.
5. To'xtasinov S. Jadid matbuoti va o'zbek adabiy tili rivoji. – Toshkent.

Intizor UMAROVA,  
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat  
universiteti tayanch doktoranti  
Gmail: intizorumarova@yandex.com

## TURKIY ADABIYOTDA INTERMATN AN'ANASI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada turkiy adabiyotda intermatnlik hodisasining o'ri va ahamiyati yoritilgan. Intermatnlik — bu adabiy matnlarning o'zaro bog'liqligi, bir matnning boshqasidan ilhom olishi yoki unga ishora qilishi jarayonidir. Maqolada dastlab “O'rxon–Enisey bitiklari”, “Qutadg'u bilig” va “Devonu lug'otit turk” kabi ilk yozma manbalarda intermatn unsurlari mavjudligi qayd etiladi. Asosiy e'tibor XV asr turkiy adabiyotining yirik namoyandasi Alisher Navoiy ijodiga qaratilgan bo'lib, unda u Abdurahmon Jomiy, Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy asarlaridan ilhomlanib, nazira va javob g'azallar yaratgani haqida so'z yuritiladi. Tadqiqot natijasida Navoiy ijodida intermatnlik usuli nafaqat badiiy an'ana davomiyligini, balki ijodiy muloqot va poetik tafakkurning yuksak darajasini ham namoyon etishi aniqlanadi.

**Kalit so'zlar:** *intermatnlik, nazira, Navoiy, Jomiy, Ganjaviy, Dehlaviy, turkiy adabiyot, ijodiy muloqot.*

**Аннотация:** в данной статье раскрываются место и значение феномена интертекстуальности в тюркской литературе. Интертекстуальность понимается как взаимосвязь литературных текстов, процесс вдохновения одного произведения другим или указание на него в художественной форме. В статье отмечается наличие элементов интертекста в ранних письменных памятниках, таких как «Орхон-Енисейские надписи», «Кутадгу билиг» и «Дивану лугат ат-турк». Основное внимание уделено творчеству выдающегося представителя тюркской литературы XV века Алишера Навои, который, вдохновляясь произведениями Абдуррахмана Джами, Низами Гянджеви и Хосрова Дехлеви, создавал назире и ответные газели. В результате исследования установлено, что интертекстуальный метод в поэзии Навои отражает не только преемственность художественной традиции, но и высокий уровень творческого диалога и поэтического мышления.

**Ключевые слова:** *интертекстуальность, назире, Навои, Джами, Гянджеви, Дехлеви, тюркская литература, творческий диалог.*

**Annotation:** this article explores the role and significance of intertextuality in Turkic literature. Intertextuality is understood as the interrelation of literary texts, a process in which one text is inspired by or refers to another. The study notes the presence of intertextual elements in early written monuments such as the Orkhon–Yenisei inscriptions, Kutadgu Bilig, and Divanu Lugat at-Turk. The main focus is on the creativity of the prominent 15th-century Turkic writer Alisher Navoi, who, being inspired by the works of Abdurrahman Jami, Nizami Ganjavi, and Khusrav Dehlavi, composed nazira and response ghazals. The research concludes that the intertextual method in Navoi's poetry reflects not only the continuity of artistic traditions but also a high level of creative dialogue and poetic thinking.

**Key words:** *intertextuality, nazira, Navoi, Jami, Ganjavi, Dehlavi, Turkic literature, creative dialogue.*

Dunyo yaralibdiki insoniyat tamaddunida yangilik, yaratuvchanlik ilg'or tendensiyalardan unumli foydalanish, innovatsiyalar orqasidan boorish kabi tuyg'ulardan xoli bo'lolmaydi. Bu jihat har jabhani qamrab olganidek adabiyot sohasini ham siylab o'tmasdan qolmaydi.

Yangiliklar hamda ilg'or tendensiyalar qalbida Vatan hissi yuksak bo'lgan har qanday ijod ahlini maftun etmay qolmaydi. Ijod ahli har doim

o'z ilhomini Vataniga Xalqiga el-u yurtiga go'yo tandirdan yangi uzilgan non yanglig' uzatgisi, ulardan mehnati haqiga qaynoq duolar olgisi keladi.

Shu jumladan turkiy adabiyot tarixiga nazar tashlagan shaxs borki bunday jarayonni guvohi bo'lmay qolmaydi.

Shunday ijodiy yondashuvlar ilmda yangilik bo'lgan innovatsion uslublardan biri intermatn

haqida siz bilan fikr almashuvni ko'nglimizga tuydik.

Intermatn o'zi nima? Unda kimlar ijod qilgan? Intermatn adabiy asarlarni yanada boyitadi, uning mazmunini chuqurlashtiradi va o'quvchiga yangi ma'no qatlamlarini ochib beradi. Intermatn yoki intertekstualitiy bu adabiy matnlar orasidagi o'zaro aloqadorlikni ifodalovchi tushuncha bo'lib, bir matnning boshqa bir matn bilan bog'lanishi, undan ilhom olishini yoki unga ishora qilishini anglatadi. Bu atama ilk bor 1960-yillarda fransuz adabiyotshunosi Juliya Kreteva tomonidan kiritilgan bo'lib, u Mixail Baxtinning dialogizm g'oyalariga asoslangan. Intermatn adabiyotshunoslikda matnlar orasidagi aloqalarni chuqurroq o'rganishga imkon yaratadi. Uning turlari haqida ham ko'p va xo'p gapirishimiz mumkin.

Biz quyidagi intermatn tushunchasiga murojaat qilib undan unumli foydalangan, XV asrda yashab ijod qilgan turkiyzabon bobokalonlarimiz ijodi misolida ko'rib chiqamiz. Turkiy adabiyotda intermatnning tarixiy ildizlari qadim zamonlarga borib taqalishini biz siz bilan o'rtoqlashamiz.

Dastlabki turkiy yozma asarlar, masalan, "O'rxon Enisiy" yozma obidalar va "Qutadug'u bilig" kabi asarlar, o'z davrining boshqa madaniyatlari bilan aloqalarini aks ettirgan. Bu aloqalar orqali turkiy adabiyotda intermatnning dastlabki shakllari shakllandi.

Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asari ham intermatnning turkiy adabiyotdagi rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. U bu asarida turkiy tilning boyligi va boshqa tillar bilan aloqalarini ko'rsatgan.

Intermatnning bir turi bo'lmish nazira-javob g'azal uslubidan Hazrat Navoiy juda unumli foydalangan. Mir Alisher Navoiy o'z g'azallarida ustozlari, zamondoshlari Abdurahmon Jomiyning, Dehlaviy, Lutfiy, Nizomiy Ganjaviy kabi adiblar ijodiga chuqur hurmat va havas hissi bilan o'z g'azallarida ularning g'azallaridan misralarini yoki butun matlani o'z g'azalida keltirgan.

Navoiy ustozlari va zamondoshi Abdurahmon Jomiyning ijodiga chuqur hurmat bilan yondoshgan va ba'zida Jomiy g'azallaridan misralarni yoki butun matlani o'z g'azaliga intermatn sifatida kiritgan. Masalan: Jomiy g'azali keltirilgan Navoiy g'azali:

Abdurahmon Jomiy g'azali

**Gar manzilim etar qadamim**

**boshig'a g'amim yo'q,**

**Tosh bo'lsa gar, ko'tar qadamim**

**boshig'a g'amim yo'q.**

Bu g'azal Jomiy tomonidan yozilgan va ilohiy-ishqiy mazmunga ega.

Alisher Navoiy shu matlaga nazira tarzida yozgan g'azali

**Gar xok bo'lsa tosh qadam ostida,**

**g'amim yo'q,**

**Jomiydek ermas qadamim boshida**

**g'amim yo'q.**

Bu yerda intermatnlikning eng aniq shakli – nazira (takroriy matn yaratish) mavjud.

Navoiy Jomiy matla'sini muqobil bayt shaklida takrorlaydi va badiiy bahs yoki ehtiromli muhokama uslubida fikrini davom ettiradi.

"Jomiydek ermas qadamim boshida" – deb yozish orqali Navoiy o'zining holatini Jomiyning holatiga qarama-qarshi qo'yadi, ammo bu tanqid emas, balki tavoze ifodasidir.

Alisher Navoiy o'z g'azallarida Nizomiy Ganjaviyga chuqur hurmat bilan yondashgan. Garchi Navoiy o'z g'azallarida Nizomiy g'azallarini to'g'ridan-to'g'ri keltirmagan bo'lsa-da, u Nizomiyning asarlaridan ilhomlanib, o'zining "Xamsa" asarini yaratgan. Bu orqali u Nizomiyga bo'lgan ehtiromini va uning ijodidan ilhom olganini namoyon etgan.

"Farhod va Shirin": Navoiy bu dostonni Nizomiy Ganjaviyning "Xusrav va Shirin" asariga javoban yozgan. U Nizomiyning syujetini o'ziga xos tarzda qayta ishlagan va yangi badiiy obrazlar yaratgan.

"Layli va Majnun": Navoiy bu dostonni Nizomiy Ganjaviyning shu nomli asariga nazira tarzida yozgan. U Nizomiy yaratgan obrazlar va syujetlarni o'ziga xos tarzda qayta ishlagan.

"Hayrat ul-abror": Bu asar Nizomiy Ganjaviyning "Maxzan ul-asror" asariga javoban yozilgan bo'lib, unda Navoiy Nizomiyga bo'lgan hurmatini ifoda etgan.

Bundan tashqari Alisher Navoiy o'z g'azallarida Amir Xusrav Dehlaviy ijodiga ham chuqur hurmat bilan yondashgan. Navoiy, ayniqsa, Dehlaviy

g'azallariga nazira yozish orqali ularning mavzu va uslubini o'ziga xos tarzda qayta ishlagan. Misol: Dehlaviy g'azaliga Navoiy nazirasidan namunalar keltirsak. Amir Xusrav Dehlaviy g'azali (matla):

***Man to shudam, to man shudi,  
man tan shudam, to jon shudi,  
Ta kas na goyad ba'd az in,  
man digaram, to digari.***

Bu baytda Dehlaviy ishqiy birlikni, ya'ni oshiq va ma'shuqaning bir-biriga singib ketishini ifodalaydi. Alisher Navoiy nazira g'azali (matla):

***Men to bo'ldum, to men bo'lding,  
men tan bo'ldum, to jon bo'lding,  
Kimsa demas bu so'z aro: men o'zg'a,  
sen o'zga.***

Bu baytda Navoiy Dehlaviy g'azaliga nazira yozib, ishqiy birlik g'oyasini o'zbek tilida ifodalaydi. U Dehlaviyning fikrini davom ettirib, oshiq va ma'shuqaning bir-biriga singib ketishini ta'kidlaydi.

Navoiy Dehlaviy g'azalining matla'sini o'z g'azaliga asos qilib olgan. Bu orqali u Dehlaviyga bo'lgan hurmatini ifoda etadi. Har ikkala g'azalda ham ishqiy birlik, ya'ni oshiq va ma'shuqaning bir-biriga singib ketishi tasvirlanadi. Navoiy Dehlaviy g'azalining mazmunini saqlagan holda, uni o'zbek tilida ifodalaydi va o'ziga xos badiiy uslubda qayta ishlaydi.

**Xulosa.** Turkiy adabiyotda intermatn hodisasi qadimdan mavjud bo'lib, u matnlararo ishoralar, nazira, taqlid va javob shaklidagi badiiy muloqotlar orqali namoyon bo'lgan. O'rxun–Enasoy bitiklari, Qutadg'u bilig va Devonu lug'otit turk kabi manbalarda ham avvalgi madaniy qatlamlarga murojaat, qadimgi mif va afsonalar bilan matn ichidagi uyg'unlik kuzatiladi. Bu esa intermatnlikning amaliy shakllari turkiy yozma adabiyotning ilk bosqichlaridayoq mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Biroq intermatnlik atamasi va uni ilmiy tushuncha sifatida tadqiq etish jarayoni faqat XX asrda, g'arb adabiyotshunosligida — xususan, Yuliya Kristeva, Mixail Baxtin, Roland Bart kabi olimlar tomonidan shakllantirildi. Shu bilan birga, bu nazariyaning amaliy namunalari Sharq adabiy merosida ancha oldin paydo bo'lgan edi.

Alisher Navoiy ijodi bu jarayonning eng yuksak bosqichini ifodalaydi: u Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy kabi ustozlarning matnlariga ijodiy javoblar berib, ularning mazmun, g'oya va uslublarini yangicha badiiy darajada qayta talqin qilgan. Shu orqali Navoiy intermatnlikni faqat badiiy an'ana emas, balki ijodiy tafakkur va poetik dialog vositasiga aylantirgan.

Demak, turkiy adabiyotda intermatnlik amaliy hodisa sifatida qadimdan mavjud bo'lgan bo'lsa-da, uning nazariy konsepsiyasi XX asrda shakllangan. Bu esa Sharq va G'arb adabiy tafakkuri o'rtasida o'zaro boyituvchi ilmiy aloqaning yorqin dalilidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kristeva, J. The Kristeva Reader. Edited by Toril Moi. New York: Columbia University Press. 1986.
2. Barthes, R. Image, Music, Text. London: Fontana Press. 1977.
3. Navoiy, A. Xazoyin ul-maoniy. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1991.
4. Nizomiy Ganjaviy. Xamsa. Moskva: Nauka. 1981.
5. Xusrav Dehlaviy. Matla' ul-anvor. Lahor: Punjab University Press. 1978.
6. Qosimjonov, S. Navoiy poetikasining badiiy asoslari. – Toshkent: Fan. 2008.
7. Ergashev, A. "Turkiy adabiyotda nazira an'anasi va intertekstual yondashuv". O'zbek tili va adabiyoti, 2015. №4, 45–52.
8. Karimov, U. Sharq mumtoz adabiyotida poetik muloqot va intermatnlik. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2019.

Dilafroʻz OTAXANOVA,

Toshkent Davlat Oʻzbek tili va adabiyoti universiteti

1-kurs doktoranti

## MAHMUD ZAMAXSHARIY ASARLARIDA FE'L SO'Z TURKUMINING YORITILISH PRINSIPLARI

**Annotatsiya:** ushbu maqola Mahmud Zamaxshariy asarlarida fe'l so'z turkumining yoritilish prinsiplariga bag'ishlanadi. Dastlab "Al-Mufasssal" asari hamda undagi "fe'l bob"ning tasnifi keltirib o'tiladi. Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddamatu-l-adab" asari ham tahlilga tortilib, asardagi arabiy fe'llar va ularning xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** "Ustodu-l-arab va-l-ajam", "Al-Mufasssal", "Muqaddamatu-l-adab", Sibavayhi, "Al-Kitob", fe'l.

**Annotation:** this article is devoted to the principles of elucidation of the verb word class in the works of Mahmud Zamakhshari. First, the work "Al-Mufasssal" and the classification of the "verb chapter" in it are cited. Mahmud Zamakhshari's work "Muqaddamatu-l-adab" is also analyzed, and the Arabic verbs in the work and their characteristics are discussed.

**Key words:** "Ustodu-l-arab wal-l-ajam", "Al-Mufasssal", Sibawayhi, Al-Kitab", "Muqaddamatu-l-adab", verb.

**Аннотация:** статья посвящена принципам освещения глагольных слов в трудах Махмуда Замахшари. В первую очередь, цитируется труд "Аль-Муфасссаль" и классификация глаголов в нём. Также анализируется труд Махмуда Замахшари "Мукаддамату-ль-адаб", рассматриваются арабские глаголы в этом труде и их особенности.

**Ключевые слова:** "Устоду-ль-араб валь-ль-аджам", "Аль-Муфасссаль", Сибавайхи, Аль-Китаб", "Мукаддамату-л-адаб", глагол.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yaratilgan shart-sharoitlar natijasida ko'plab o'rta osiyolik olimlarning asarlari o'rganilmoqda va ularning asarlari bo'yicha turli xil tadqiqotlar va izlanishlar olib borilmoqda. Yaqin sharqda "Ustodu-l-arab va-l-ajam" nomi bilan mashhur bo'lgan Abul Qosim Mahmud ibn Umar Zamaxshariy O'rta Osiyodagi eng mashhur olimlardan biri hisoblangan. U Xorazmda tug'ilib katta bo'lgan. Shu sababdan ham u "Faxru Xvarazm" (Xorazm faxri) nomi bilan ulug'langan.

Buyuk alloma avlodlar uchun ulkan boy ilmiy meros qoldirdi. U tilshunoslik, lug'atshunoslik, jug'rofiya, adabiyot, aruz, tafsir, hadis va fiqh ilmiga oid asarlar yaratdi. Arab tilshunosligi yo'nalishida ham bir qator asarlar yaratdi.

"Muqaddamatu-l-adab", "Al-Mufasssal", "Asos al-balog'a" kabi asarlari shular jumlasidandir.

Zamaxshariy arab tili nahvi olamida o'chmas va takrorlanmas iz qoldirgan. Bu uning nafaqat o'rta osiyolik arabshunoslar uchun, balki butun arab diyorini uchun haligacha dasturul-amal bo'lib kelayotgan, arab tili grammatikasi, morfologiyasi va sintaksisiga bag'ishlangan o'zining yirik asari "Al-Mufasssal fi-n-nahv" asarini yozishidir. "Al-Mufasssal" asari bir yarim yil ichida Makkada yozilgan. "Al-Mufasssal" asarining bir nechta qo'lyozmalari bizgacha yetib kelgan. Eng ko'p qo'lyozmasi saqlangan fond bu Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik qo'lyozmalar instituti hisoblanadi. Mamlakatimizda "Al-Mufasssal" asari qo'lyozmalarini olimlardan N. Sulaymonova tadqiq etgan va o'zining "Mahmud Zamaxshariyning Toshkent fondlarida saqlanayotgan asarlarning manbashunoslik tahlili"<sup>2</sup> nomli monografiyasida bu haqida qimmatli ma'lumotlar keltirgan.

<sup>1</sup> Bu asar borasida Toshkentdagi eng mashhur tadqiqot N. Sulaymonovanning "Mahmud Zamaxshariy "Asos-ul-balog'a asarining manbashunoslik tadqiqi" nomli dissertatsiyasidir.

<sup>2</sup> N. Sulaymonova "Mahmud Zamaxshariyning Toshkent fondlarida saqlanayotgan asarlarning manbashunoslik tahlili". Monografiya. – Toshkent: "Bayoz", 2020. 136-b.

Arab grammatikasiga oid asarlar ko'p va ular mazmun-mohiyatiga ko'ra mukammal va mashhur bo'lsa-da, Zamaxshariyning "المصّل" asari uning zamondoshlari fikricha, "arab tili grammatikasi bo'yicha yaratilgan eng yaxshi kitobdir". Yana bir olim uni "nozik terilgan durga" o'xshatadi.<sup>3</sup> Zamaxshariyning "Al-Mufasssal" asari bundan qariyb ming yil oldin yozilgan bo'lsa-da, haligacha arabshunos olimlarga dasturu-l-amal bo'lib kelmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri shuki, biror arabshunos olim Zamaxshariydan oldin arab tili grammatikasini bir tizimga solib chiqmagan. Arab tilidagi so'zlarni asosiy uchta katta so'z turkumiga ajratib, ularning har birini alohida bob qilib tasniflab, arab tili grammatikasini bir tizimga solgan olim ham Zamaxshariy hisoblanadi. Uning "Al-Mufasssal" asari esa ana shunday arab grammatikasining tizimlashtirilishini o'z ichiga olgan ilmiy manbadir.

Zamaxshariy o'ziga xos va takrorlanmas uslubi asarning har bir jabhasida sezilib turadi. Zamaxshariyning boshqa grammatik asar yozgan mualliflardan, xususan, Sibavayhning "Al-Kitob" asaridan asosiy ajralib turadigan jihati

shuki, muallif arab tilidagi shu paytgacha biror bir tizimga solinmagan, guruhlanmagan arab tili grammatikasini bir tizimga solib, arab tilidagi barcha so'zlarni grammatik jihatdan uchta katta guruhga ajratadi va ularning har birini alohida boblarga bo'ladi.

Asarning asosiy qismi to'rt bobdan tashkil topgan. Birinchi bob "ism" (اسم) so'z turkumiga, ikkinchi bob "fe'l" (فعل) so'z turkumiga, uchinchi bob "harf" so'z turkumiga (4 حرف) bag'ishlanadi. "Al-Mufasssal" asarining o'ziga xos va boshga arab grammatikasiga bag'ishlangan asarlardan asosiy farqlaridan biri<sup>5</sup> bu asarning to'rtinchi bobi sifatida fonetik qoidalarining keltirilishidir. "Al-Mufasssal" asarining yozilishiga qadar fonetika alohida o'rganilar va u grammatikaning bir qismi sifatida o'rganilmas edi.

Zamaxshariy "Al-Mufasssal" asarida so'z turkumlarini uchta katta guruhga ajratadi, bular : ism, fe'l, harf. Zamaxshariy ism so'z turkumini 12 faslga, fe'l so'z turkumini 10 faslga, harf so'z turkumini esa 23 faslga bo'lgan.

"Al-Mufasssal" asarida fe'llar quyidagicha tavsiflanadi:

3 Қосимова С. С. XI-XIII асрларда Мовароуннахр тилшуносларининг араб грамматик назарияси бўйича илмий тадқиқотлари. – Тошкент, 2019. 102-б.

4 "المفصل في علوم العربية" الزمخشري.  
5 "الكتاب" سيويه. 1-7. 1988. عام. 1550 ص

|                      |                                                 |
|----------------------|-------------------------------------------------|
| الماضي               | "O'tgan zamon fe'li"                            |
| المضارع              | "Hozirgi kelasi zamon fe'li"                    |
| الامر                | Buyruq mayli                                    |
| المتعدى وغير المتعدى | "O'timli va o'timsiz fe'llar"                   |
| المبني للمفعول       | "Majhul darajadagi fe'llar"                     |
| أفعال القلوب         | O'ylash, hisoblash ma'nosidagi fe'llar          |
| أفعال الناقصة        | "Yordamchi fe'llar"                             |
| أفعال المقاربة       | Ish-harakatning yaqinligini bildiruvchi fe'llar |
| أفعال المدح والذم    | "Olqish va qarg'ishni ifodalovchi ikki fe'l"    |
| أفعال التعجب         | Taajjubni ifodalovchi ikki fe'l                 |

Mahmud Zamaxshariy qalamiga mansub mashhur yana bir nodir asarlardan biri bu "Muqaddamatu-l-adab" asaridir. Bu asar ham "Al-Mufasssal" asaridan keyingi o'rinda turuvchi

ilmiy-grammatik, lug'atga oid asarlardan biri hisoblanadi.

Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddamatu-l-adab" asari murakkab tuzilishga ega bo'lib,

quyidagi qismlardan iborat: muqaddima, ismlar, fe'llar, harflar, ismlarning turlanishi, fe'llarning tuslanishi.

“Muqaddamatu-l-adab” lug'atshunoslik tarixida ham juda mashhur asar hisoblanadi, chunki asarning ismlar, fe'llar qismlari lug'at tarzida tuzilgan va qolgan qismlarga nisbatan hajman katta bo'lgan.

Sh.Mirziyotov o'zining “Muqaddamatu-l-adab” asarida tilshunoslik, lug'atshunoslik an'analari va arabiy-turkiy so'zlikning leksik-semantik talqini” nomli dissertatsiyasi avtoreferatida fe'llar bobi bo'yicha shunday fikr bildiradi: “Asarning fe'llarga bag'ishlangan qismida arabcha fe'llar Zamaxshariy asos solgan prinsip asosida joylashtirilgan. Fe'llar uch o'zakli, to'rt o'zakli va o'zgormaydigan turkumga bo'lingan. Unda fe'l turkumiga tegishli bo'lgan barcha ichki qoidalar batafsil yoritilgan. Qismga arab tilidagi 7500 dan ortiq fe'l so'zlari kiritilgan... Muallif asarni grammatik jihatdan mukammallik darajasiga yetkazish uchun تصريف الأسماء Tasrifu-l-asma- “ismlarning turlanishi va تصريف الأفعال tasrifu-l-af'al – fe'llarning tuslanishi” ga oid alohida qismlarni yaratgan va asar tarkibiga kiritgan”.

Bundan tashqari muallif “Muqaddamatu-l-adab” asarining tuzilishiga kapital grammatik asar “al-Mufasssal” asos bo'lganini ta'kidlaydi.

Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddamatu-l-adab” asarini ilk bor ilmiy tarafdin talqin etgan olim Islomov Zohidjondir. Uning “Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddamatu-l-adab” asarining qo'lyozma manbalari va arabcha-

turkiy fe'llar so'zligining yig'ma ilmiy-tanqidiy matni” nomli dissertatsiyasining I bobi 1.3 hamda 1.6 paragraflari arabiy fe'llarga bag'ishlangan. Mazkur asarda paragrafning har bir qismida ma'lum bir qolipdagi fellar keltirilgan va aynan shu qolipdagi fe'llarga oid to'g'ri fe'llar va noto'g'ri fe'llar keltirilgan. Masalan, fe'lga bag'ishlangan bobning avvalgi qismi quyidagicha keltiriladi:

I bobning 1.3 paragrafi قسم الأفعال qismu-l-af'al “fe'llar qismi” deb nomlangan. Bu bob فَعْلٌ يَفْعُلُ فِعْلًا – fa'ala, yaf'alu, fe'lan qolipidagi birinchi bob fe'llari kiritilgan. Bu bo'limga 464 to'g'ri fe'llar kiritilgan<sup>6</sup>.

Garchi Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddamatu-l-adab” asarida turkiy fe'llar ko'p keltirilgan bo'lsa-da, arabiy fe'llar haqida keltirilgan ma'lumotlar juda qimmatlidir. Sababi, bu asarda arabiy fe'llar nafaqat qoidalar bilan, balki bir qator misollar bilan go'zal ifodalangandir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Mahmud Zamaxshariyning grammatik asarlarida fe'llar va unga oid masalalar keng yoritilgan. “Al-Mufasssal” asarida fe'llar grammatik-ilmiy jihatdan talqin qilingan bo'lsa, “Muqaddamatu-l-adab” asarida esa fe'llarning asarda qanday tarzda keltirilganligi, fe'llarning qanday turlari qo'llanilganligi va ularning statistikasi keltiriladi va arabiy fe'llar turkiy fe'llar bilan qiyoslanib o'rganiladi. Shunday bo'lsa-da, “Al-Mufasssal” asariga qaraganda “Muqaddamatu-l-adab” asarida fe'llarga ko'proq misollar keltirilganini ko'rishimiz mumkin.

6 Z.Islomov “Muqaddamatu-l-adab” asarining qo'lyozma manbalari va arabcha-turkiy fe'llar so'zligining yig'ma ilmiy-tanqidiy matni” dissertatsiyasi 45-46 b.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. M. Nosirova “Unmuzaj fin-nahv” dissertatsiyasi. – Toshkent, 2004.
2. N.Sulaymonova “Mahmud Zamaxshariyning Toshkent fondlarida saqlanayotgan asarlarining manbashunoslik tahlili”. Monografiya. – Toshkent: “Bayoz”, 2020.
3. Z.Islomov “Muqaddamatu-l-adab” asarining qo'lyozma manbalari va arabcha-turkiy fe'llar so'zligining yig'ma ilmiy-tanqidiy matni” dissertatsiyasi. – Toshkent, 1996.
4. Қосимова С. С. XI-XIII асрларда Мовароуннахр тилшуносларининг араб грамматик назарияси бўйича илмий тадқиқотлари. – Тошкент, 2019.
5. “المفصل في علوم العربية” الزمخشري

**Lobarxon ERGASHEVA,**  
 Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti  
 universiteti 1-kurs doktoranti,  
 E-mail: lobarkhonn.@icloud.com

## XORJIY TIL O'QITISH VA O'RGANISHDA AUTENTIK MATNLAR ORQALI LUG'ATNI RIVOJLANTIRISH

**Annotatsiya:** ushbu tadqiqot xorjiy til o'rganuvchilarning lug'at boyligini oshirishda autentik matnlarning qo'llanishi ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Chunki lug'at tildagi asosiy tarkibiy qism bo'lib, o'quvchilar maqsad tilida samarali muloqot qila olishlari uchun o'z lug'at zaxiralarini boyitishlari zarur. Ammo o'quvchilar ko'pincha lug'at bilimlarining yetishmasligi sababli o'z fikrlarini aniq ifoda etishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bundan tashqari, o'qish xorjiy tilni o'rgatish va o'rganishda asosiy ko'nikmalardan biridir. Ko'plab tadqiqotchilar o'qish o'quvchilarning lug'atini rivojlantirishda yordam berishini ta'kidlaydi. Shu sababli, o'qituvchilar dars jarayonida autentik matnlardan foydalanishlari mumkin. Autentik matnlar — bu o'quvchilarni tildan tabiiy foydalanishga duch keltiradigan, ularga haqiqiy til bilan muloqot qilish imkonini beradigan matnlardir.

**Kalit so'zlar:** o'qish, matnni tushunish, autentik matnlar, lug'at turlari, tajriba

**Annotation:** this study focuses on examining the impact of using authentic texts on enhancing the vocabulary of second language learners. Vocabulary is a fundamental component of language, and learners need to expand their lexical knowledge to communicate effectively in the target language. However, learners often face difficulties in expressing their thoughts clearly due to a lack of vocabulary knowledge. Moreover, reading is one of the key skills in second language teaching and learning. Many researchers emphasize that reading helps students develop their vocabulary. Therefore, teachers can incorporate authentic texts into their lessons. Authentic texts expose learners to natural language use and provide opportunities for real communication.

**Key words:** reading, text comprehension, authentic texts, vocabulary development, experiment

**Аннотация:** данное исследование направлено на изучение влияния использования аутентичных текстов на расширение словарного запаса изучающих второй язык. Словарный запас является основным компонентом языка, и учащиеся должны обогащать свою лексику, чтобы эффективно общаться на изучаемом языке. Однако учащиеся часто сталкиваются с трудностями в точном выражении своих мыслей из-за нехватки лексических знаний. Кроме того, чтение является одним из основных навыков в обучении и изучении второго языка. Многие исследователи подчеркивают, что чтение способствует развитию словарного запаса у учащихся. Поэтому преподаватели могут использовать аутентичные тексты на занятиях. Аутентичные тексты позволяют учащимся сталкиваться с естественным использованием языка и дают возможность общаться на реальном языке.

**Ключевые слова:** чтение, понимание текста, аутентичные тексты, развитие словарного запаса, эксперимент.

**Kirish.** Til muloqot vositasidir va lug'at tilning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Demak, chet tilida samarali muloqot qilish uchun uning aniq lug'atini o'rganish lozim. Ammo til o'rganuvchilar hali ham o'z fikrlarini yozma yoki og'zaki tarzda aniq ifoda qilishda qiyinchilikka duch kelmoqda, chunki ular lug'at boyligidan yetarlicha foydalana olmaydilar. O'rganuvchilar o'z fikrlarini samarali yetkazishlari uchun maqsad tilidagi lug'at boyligini kengaytirishlari zarur. Autentik matnlarning qo'llanishi esa til o'rganishda, ayniqsa, foydali bo'lib, o'quvchilarning lug'atini kengaytirishga xizmat qiladi. Autentik matnlar ko'pincha dars uchun emas, balki tabiiy til holatida

yaratilgan bo'ladi. Ba'zi olimlar [Guariento & Morley, 2001] autentik matnlar faqat o'rta va yuqori darajadagi o'quvchilar uchun mos deb hisoblashadi. Boshqalar esa [Miller, 2005; McNeil, 1994] autentik matnlarni boshlang'ich bosqichdan qo'llash kerak, deb ta'kidlaydi, chunki bu kelajakda murakkab matnlarga tayyorlaydi. Ko'pchilik tilshunoslar esa har qaysi bosqichda autentik matnlardan foydalanish zarurligini ta'kidlashadi, faqat bu til darajasiga mos tanlangan lug'at ya'ni so'zlardan tashkil topgan bo'lishi kerakligi aytilgan. Darhaqiqat, agar so'zlar darajasiga mos tanlangan autentik matnlar o'rganuvchilarga berilsa, til o'qitish jarayoni yetarlicha samarali bo'ladi. Richards

[2002]: “So‘z boyligini egallash faqat ma‘noni bilish emas, balki uni turli kontekstlarda to‘g‘ri qo‘llashni ham anglatadi”.

**Asosiy qism.** Lug‘at til o‘rganish jarayonida asosiy o‘rin tutadi, chunki muloqot so‘zlar orqali amalga oshadi. Matnni tushunishda lug‘at boyligi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘quvchilarning boshqa ko‘nikmalari (o‘qish, yozish, tinglash, gapirish)ning muvaffaqiyati ko‘pincha ularning lug‘at boyligiga bog‘liq. Wilkins [1972] shunday degan: “Grammatikasiz odam juda oz narsani ifoda eta oladi, ammo lug‘atsiz umuman hech narsa ayta olmaydi.” Tilni samarali o‘rganish jarayonida lug‘at juda muhim o‘rin tutadi. Lug‘at — bu tildagi barcha so‘zlar, iboralar, so‘z birikmalari va ularning ma‘nolaridan iborat boylikdir. Grammatikani mukammal bilgan kishi ham yetarlicha so‘z boyligisiz o‘z fikrini erkin ifoda eta olmaydi. Shu sababli lug‘atni o‘rganish va o‘rgatish masalasi tilshunoslar va chet tili o‘qituvchilari uchun hamisha dolzarb bo‘lib kelgan. Nation [2001] o‘zining tilshunoslikka oid asarida : lug‘at deganda, so‘zning uchta jihati tushuniladi: shakli (form), ma‘nosi (meaning) va qo‘llanishi (use) dir. Bu jihatdan autentik matnlarda lug‘atning ma‘nolari asosiysi hisoblanib kelgan. Tilshunos Ur [1996]: lug‘at so‘z va iboralar majmuyi bo‘lib, ular ma‘lum bir ma‘no va grammatik xususiyatlarga ega degan fikrni ilgari suradi. Umumlashtirib aytganda, lug‘at — bu tilning asosiy boyligi, muloqot vositasi bo‘lib, unda so‘zlar va iboralar o‘z shakli, ma‘nosi hamda qo‘llanish doirasi bilan namoyon bo‘ladi. Biz esa autentik matnlarni qo‘llash jarayonida lug‘atning o‘rganilishi ya‘ni so‘zlarni qanday o‘zlashtirishga ahamiyat beramiz va bu o‘z-o‘zidan lug‘at turlariga murojaat qilishimiz so‘raladi. Lug‘atlar **faol** va **passiv** lug‘atga bo‘linadi.

- **Faol lug‘at** (Active Vocabulary): o‘quvchi gapirayotganda va yozayotganda faol qo‘llaydigan so‘zlardir.

- **Passiv lug‘at** (Passive Vocabulary): o‘quvchi tinglaganda yoki o‘qiganda tushunadigan, lekin o‘zi faol ishlatmaydigan so‘zlar.

Biz til o‘rgatishda qaysi lug‘atdan foydalanamiz degan javobga tilshunos va til o‘rgatuvchilar autentik tabiiy muhit tilini o‘rgatgani uchun unda ko‘proq faol lug‘atdan foydalaniladi, chunki faol so‘zlar til egalari tomonidan keng qo‘llangani uchun ham tilni tezroq va osonroq o‘zlashtirish uchun qo‘llaniladi. Bundan tashqari lug‘atlar: *qisqa muddatli* va *uzoq muddatli* bo‘ladi.

- **Qisqa muddatli lug‘at:** o‘quvchi vaqtincha yodlab, tezda unutadigan so‘zlar.

- **Uzoq muddatli lug‘at:** takror va faol foydalanish natijasida mustahkam yodda saqlanadigan so‘zlar.

Autentik matnlarda har ikki lug‘atlar ishlatilishi mumkin, — deydi tilshunos Nation [2022]. Autentik matnlarni o‘rganuvchilarga taqdim qilishda ko‘proq faol va uzoq muddatli lug‘atlardan foydalanishni taklif qiladi. Autentik matnlar bilan ishlashda lug‘atning o‘rni haqida quyidagi fikrlarni ham berib o‘tadi.

- **Lug‘at asosiy vosita sifatida**

Autentik matnlar ko‘pincha tabiiy tilda yoziladi, ularda kundalik so‘zlar, frazeologizmlar, jargon va madaniy unsurlar bo‘ladi. O‘quvchi bunday matnni tushunishi uchun yetarli lug‘at zaxirasiga ega bo‘lishi zarur. Lug‘at boyligi yetarli bo‘lmasa, matnni tushunishda qiyinchilik tug‘iladi.

- **Lug‘atni kengaytirish manbayi**

Autentik matnlar yangi so‘zlarni o‘rgatish uchun eng samarali vositalardan biridir. O‘quvchilar kontekst orqali yangi so‘zlarning ma‘nosini tushunishga harakat qiladilar. Shu jarayonda lug‘at boyligi asta-sekin kengayadi.

- **Lug‘atni faol qo‘llash imkoniyati**

Autentik matnlarda uchraydigan so‘zlar odatda real hayotiy vaziyatlarda ishlatiladigan so‘zlardir. O‘quvchilar yangi o‘rgangan lug‘atlarini o‘z nutqida ishlatishga harakat qiladilar, bu esa ularni faol lug‘atga aylantiradi.

- **Motivatsion ta’siri**

Autentik matnlar orqali o‘rganilgan so‘zlar ko‘proq qiziqarli va esda qolarli bo‘ladi. Masalan, gazeta maqolasidan, qo‘shiqdan yoki reklama matnidan o‘rganilgan so‘z o‘quvchiga “haqiqiy” bo‘lib tuyuladi. Bu esa lug‘atni o‘zlashtirishni osonlashtiradi.

- **Lug‘atni chuqur o‘rganish imkoniyati**

Autentik matnlar so‘zlarni faqat ma‘nosi bilan emas, balki kollokatsiya (qaysi so‘zlar bilan qo‘shilib keladi), uslubiy xususiyat (ramziy, og‘zaki, rasmiy), madaniy kontekst bilan ham o‘rgatadi. Lug‘at autentik matnlarni tushunish uchun kalit bo‘lib xizmat qiladi. Autentik matnlar esa lug‘atni kengaytirish va uni real hayotiy vaziyatlarda ishlatish imkonini beradi. Shuning uchun autentik matnlar bilan ishlash jarayonida lug‘at asosiy markaziy o‘rinda turadi. O‘qituvchi vositachi sifatida lug‘atni tushuntiradi, o‘quvchi esa uni faol o‘zlashtiradi.

Autentik matnlar bilan ishlashda lug‘at ikki tomonlama o‘ringa ega:

O‘qituvchi uchun bu — ta’lim metodlari va o‘quv jarayonini tashkil qilish vositasi.

O‘quvchi uchun esa bu — real hayotiy tilni tushunish va uni faol qo‘llash imkoniyati.

Quyidagi matn orqali o‘quvchilarga autentik matnda lug‘at bilan ishlash texnikalarini (mashqlar orqali) ko‘rib chiqib, tajriba sinovini o‘tkazamiz.

**Matn (autentik)**

“Kecha shaharda yangi jamoat kutubxonasi ochildi. Ko'plab o'quvchilar va oilalar kutubxonaga tashrif buyurdi. Shahar hokimi kitob o'qish yoshlarning kelajaklarini qurishda yordam berishini aytdi.”

**Yangi so'zlar:**

jamoat kutubxonasi – public library

hokim – mayor

tashrif buyurdi – visited

kelajakni qurmoq – build the future

Mashqlar (B1 daraja, o'zbek tilida).

**1→. Lug'atni moslashtiring**

Quyidagi so'zlarni ularning ma'nolari bilan bog'lang:

a) jamoat kutubxonasi

b) hokim

c) tashrif buyurdi

d) kelajakni qurmoq

odamlarning bepul foydalanishi uchun joy

shaharning rahbari

borib ko'rdi

kelajak hayotni shakllantirish

2→. To'ldiring (Quyidagi gaplarni to'ldiring)

Kecha shaharda yangi \_\_ ochildi.

Shahar \_\_ nutq so'zladi.

Ko'plab o'quvchilar va oilalar yangi kutubxonaga \_\_.

Kitob o'qish yoshlarning \_\_ yordam beradi.

**3→. Savol-javob**

Matnga asoslanib savollarga javob bering:

Kecha shaharda nima ochildi?

Kimlar kutubxonaga tashrif buyurdi?

Hokim kitob o'qish haqida nima dedi?

**4→. Sinonim-yaqin ma'no toping**

“hokim” so'zining sinonimi nima bo'lishi mumkin? (masalan, shahar rahbari)

“tashrif buyurdi” so'zining sinonimi nima? (masalan, bordi, ko'rdi)

**5→. Qisqa yozma topshiriq**

Savol: “Siz uchun kutubxona nima uchun muhim? Uchta sabab yozing.” Javoblaringizda yangi so'zlardan foydalaning.

Bu mashqlar B1 darajaga mos, o'quvchilarni lug'atni kontekstdan anglash, tarjima qilish, sinonim topish va mustaqil gap tuzishga o'rgatadi.

Bu mashqlar orqali tajriba sinovi o'tkazamiz.

**Tajriba mavzusi:** “Smartfonlar va uning uyquga ta'siri” (radio eshittirishdan olingan autentik matn)

**Ishtirokchilar:** 10 nafar o'quvchi (9-sinf o'quvchilaridan, 2 guruhga bo'linadi).

| Guruh          | Metod                                          | Sinov bosqichi                                                                                                  | Autentik matndan 10ta yangi lug'at berildi                                                  | Xulosa                                                                                                                      |
|----------------|------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| A<br>(5 nafar) | Pre-teaching<br>(so'zlarni oldindan o'rganish) | So'zlarni oldindan tarjima, talaffuz, misollar bilan o'rganadi.                                                 | 1 o'quvchi 10/9<br>2 o'quvchi 10/8<br>3 o'quvchi 10/7<br>4 o'quvchi 10/9<br>5 o'quvchi 10/6 | So'zlarni oldindan o'rganish (pre-teaching) qisqa muddatda samaraliroq lekin xotirada saqlash qisqaroq.                     |
| B<br>(5 nafar) | Kontekst orqali o'rganish                      | Hech qanday tayyorgarliksiz, to'g'ridan to'g'ri matn o'qiydi va so'zlarni kontekstdan aniqlashga harakat qiladi | 1 o'quvchi 10/5<br>2 o'quvchi 10/6<br>3 o'quvchi 10/7<br>4 o'quvchi 10/4<br>5 o'quvchi 10/7 | So'zlar uzoq muddatda xotirada saqlanadi va so'zlar tezroq faol lug'atga ko'chadi va matn ma'nosini tezroq osonroq anglaydi |

So'zlarni o'rganish strategiyasi o'zlashtirish sifatiga bevosita ta'sir qiladi.

**Tajriba natijasi:**

• Guruh A (pre-teaching): so'zlarni testdan oldin o'rganib, darholgi testda yuqori natija ko'rsatdi.

• Guruh B (kontekst orqali): darholgi testda pastroq natija, ammo kechiktirilgan testda yaxshi natija ko'rsatdi.

**Ilmiy asos:** bu natijalar Qabul qilish nazariyasi (Input Hypothesis – Krashen) va Noaniqlik nazariyasi (Depth of Processing Theory) bilan mos tushadi – ya'ni chuqurroq (semantik, kontekstual) qayta ishlangan

ma'lumot uzoqroq esda qoladi.

Autentik matnlar (real hayotga yaqin, kontekstli) orqali so'zlarni o'rganish o'quvchilarda:

• kontekstda fikrlash, ma'no chiqarish, taxmin qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi;

• so'zlarning real qo'llanishini tushunishga yordam beradi;

• passiv yodlashdan ko'ra faol fikrlashni talab qiladi.

Bu esa o'z navbatida kommunikativ yondashuv (CLT – Communicative Language Teaching) tamoyillarini qo'llashga asos bo'ladi.

• Agar maqsad tezda ko'p so'zlarni eslab qolish bo'lsa (masalan, testga tayyorgarlik) – pre-teaching metodikasi foydali.

• Agar maqsad so'zlarni barqaror va faol ishlata olish bo'lsa – kontekst asosida o'rganish foydaliroq.

Shuning uchun dars metodikasini tanlashda o'quvchilarning maqsadi, darajasi va individual farqlari hisobga olinishi lozim. Eng samarali yondashuv bu ikki metodni integratsiyalash: so'zlarni dars boshida qisqacha tanishtirish (pre-teaching) va so'ng autentik matnlar, suhbatlar, mashqlar orqali ularni kontekstda mustahkamlash (contextual learning).

Tilshunoslar autentik matn bilan ishlashda lug'atdan foydalanishni bir nechta yo'nalishda tavsiya etishadi:

• Kontekst orqali ma'no topish: o'quvchi har safar lug'atga murojaat qilmasdan, so'z ma'nosini matndan chiqarib olishga harakat qilishi kerak [Nation, 2001].

• Seleksiyalangan foydalanish: Faqat matn mazmunini tushunishga to'sqinlik qiladigan muhim so'zlarni lug'atdan izlash [Krashen, 1982].

• Faol yozib borish: yangi so'zlarni lug'atdan topib, daftar yoki "word journal"ga yozib borish, keyinchalik ulardan gap yoki inshoda foydalanish [Schmitt, 2000].

• Ikki tilli va bir tilli lug'atlarni uyg'un qo'llash: boshlang'ichda ikki tilli lug'atlar yordam beradi, yuqori bosqichda esa bir tilli (monolingual) lug'atlar foydaliroq [Carter & McCarthy, 1988].

• Elektron lug'atlar va korpuslar: zamonaviy tadqiqotchilar autentik matn bilan ishlashda tezkor elektron lug'at va til korpusidan foydalanishni samarali deb hisoblashadi [Laufer & Hill, 2000].

Tilshunoslarning olib borgan ishlari orqali ba'zi xulosalarni aytish mumkin.

Stephen Krashen [1982] – Input Hypothesis asarida "O'quvchilar autentik matnda har bir so'zning tarjimasini lug'atdan qidirishga majbur qilinmasligi kerak. Unga ko'ra, faqat asosiy so'zlarni lug'atdan qarash kifoya, qolganlarini kontekstdan anglash maqsadga muvofiq".

Paul Nation [2001] – Learning Vocabulary in Another Language: lug'at o'quvchiga "self-learning tool" sifatida xizmat qilishi kerak. O'quvchi autentik matnlarda uchraydigan yangi so'zlarni lug'atdan izlab, keyin ularni takrorlash orqali mustahkamlaydi.

Norbert Schmitt [2000] – Vocabulary in Language Teaching kitobida "U yangi so'zlarni lug'atdan topgach, ularni yozib qo'yish, kartochka qilish, sinonim va antonimlarini ham qo'shib yozishni tavsiya etadi. Bu so'zlarni passivdan faol lug'atga o'tkazadi.

Carter & McCarthy [1988]: Lug'atdan foydalanishda faqat so'zning tarjimasini emas, balki uning kollokatsiyasi va uslubiy xususiyatlari ham o'rganilishi lozimligini ta'kidlaydi.

Laufer & Hill [2000] – Computer-Assisted Vocabulary Learning: Elektron lug'atlar va "glossed texts" (izohli matnlar) lug'at o'rganishni tezlashtiradi. Autentik matnlarni elektron shaklda berib, muhim so'zlarga lug'aviy izoh qo'yish samarali usuldir.

**Xulosa.** Tilshunoslar fikriga ko'ra, autentik matnlar lug'atni o'rgatishda samaraliroq: o'quvchilar so'zlarni kontekstdan o'rganadilar va faol qo'llash imkoniga ega bo'ladilar. Autentik materiallar motivatsiyani oshiradi, chunki ular hayotiy vaziyatlarga yaqin. Ular so'zlarning kollokatsiya, uslubiy va madaniy jihatlarini ham ko'rsatadi, bu esa chuqur o'rganishga yordam beradi. Biroq o'qituvchi mos tanlash va o'quvchiga tushunarli topshiriqlar bilan qo'llab-quvvatlashi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Krashen S. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press.
2. Nation I. S. P. (2001). Learning Vocabulary in Another Language. – Cambridge: Cambridge University Press.
3. Schmitt N. (2000). Vocabulary in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press.
4. Carter R., & McCarthy, M. (1988). Vocabulary and Language Teaching. – London: Longman.
5. Guariento W., & Morley, J. (2001). Text and Task Authenticity in the EFL Classroom. *ELT Journal*, 55(4), 347–353.
6. Miller L. (2005). Using Authentic Materials in the Language Classroom. – Singapore: SEAMEO Regional Language Centre.
7. Breen M. (1985). Authenticity in the Language Classroom. *Applied Linguistics*, 6(1), 60–70.
8. Richards J. C., & Rodgers T. S. (2001). Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press.
9. McNeil A. (1994). What Makes Authentic Materials Different? *The Internet TESL Journal*.

**Charos JUMANIYOZOVA,**  
 Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
 o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti  
[ch.jumaniyozova@gmail.com](mailto:ch.jumaniyozova@gmail.com)



## O'ZBEK TILIDA BELGI-XUSUSIYAT IFODALANISHINING NAZARIY ASOSLARI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada narsa va hodisalarning mavjudligini ko'rsatuvchi belgi-xususiyatning mazmun-mohiyati, uning o'zbek tilida qaysi til birliklari orqali va qanday shaklda namoyon bo'lishi lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek belgi-xususiyatning ifodalanishiga doir nazariy asoslar, ularning leksik-semantik xususiyatlari yoritilib, mazkur hodisaning til tizimidagi o'rni ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** *belgi-xususiyat, sifat, belgi, ravish, leksema, frazema,*

**Annotation:** this article provides a linguistic analysis of the essence and content of qualitative features that indicate the existence of objects and phenomena, as well as the linguistic units and structural forms through which they are expressed in the Uzbek language. Furthermore, the theoretical foundations of expressing such qualitative features and their lexical-semantic characteristics are elucidated, and the position of this phenomenon within the language system is examined on a scientific basis.

**Key words:** *qualitative feature, adjective, attribute, adverb, lexeme, phraseme.*

**Аннотация:** в данной статье рассматриваются сущность и содержание признаков-свойств, указывающих на существование предметов и явлений, а также анализируются языковые единицы и структурные формы, посредством которых они выражаются в узбекском языке. Кроме того, раскрываются теоретические основы выражения таких признаков-свойств и их лексико-семантические особенности, а также научно обосновывается место данного явления в системе языка.

**Ключевые слова:** *признак-свойство, прилагательное, характеристика, наречие, лексема, фразема.*

Borliqdagi narsa va hodisalarni anglash, ularni bir-biridan farqlash, umumiy va farqli jihatlari asosida ma'lum guruhlarga birlashtirgan holda xotirada saqlash kabi jarayonlarda belgi-xususiyatning o'rni muhim. Belgi-xususiyat deganda asosan narsa va hodisaning mavjudligini ko'rsatuvchi, boshqa narsa va hodisalardan ajratib turuvchi yoki o'xshashligini ifodalovchi jihati tushuniladi. Biz biror narsa-hodisa haqida o'ylasak yoki gapirsak, eng avvalo, uning mavjudlik belgilari ko'z oldimizga keladi. Belgi-xususiyat – shaxs, narsa va hodisalarning rang, shakl, hajm, miqdor, sifat, ko'rinish va boshqa jihatlarida qanday ekanini ko'rsatuvchi semantik kategoriya hisoblanadi. "Belgi tushunchasi o'z ichiga rang-tus, hajm-shakl, xarakter, vazn, maza kabilarni qamrab oladi"[Sayfullayeva va boshq. 2009.237].

Belgi-xususiyat orqali inson narsa va hodisalarni farqlaydi, taqqoslaydi, baho beradi hamda olamni tasniflaydi va konseptuallashtiradi. Bu insonning idrok jarayoni bilan bog'liq. "Ma'lumki, yangi

bilim anglangan borliq hodisalari bilan yangidan anglayanotgan hodisalar orasidagi o'xshashliklarni topish asosida shakllantiriladi. Busiz yangi bilim hosil qilish mumkin emas" [Suyarova.2021.14]. Inson borliqni bevosita emas, balki belgi-xususiyatlar orqali his qiladi. Olamni anglash jarayoni mavjud narsa va hodisalarning belgi-xususiyatlarini sezish, idrok etish hamda ongda konseptual shaklda qayta ishlash orqali amalga oshadi. Masalan, olma mevasini rangi, shakli, ta'mi, hidi bilan yoki daraxtni ko'p yillik, baland, shox-shabbali, mevali yoki mevasiz deb tasvirlaymiz. Demak, har bir narsa yoki hodisa ongimizda belgilar majmuasi sifatida aks etadi. Bu belgi-xususiyatlar inson tajribasi, yashash tarzi, ehtiyoji, madaniy qadriyatlariga ko'ra konsept sifatida shakllanadi. Masalan, ranglar ham inson ongida semantik va madaniy konsept sifatida shakllanadi. Rang nomlari har bir tilda nafaqat fizik belgini, balki xalqning dunyoqarashi, estetik didi va madaniy qadriyatlarini ham o'zida aks ettiradi. O'zbek xalqi

tafakkurida ham ranglar ma'naviy, hissiy va ramziy mazmun kasb etadi. "...Turkiy xalqlar qadimdan oq, ko'k, qora ranglarni o'z ibtidoiy turmushlarining ma'lum qirralari bilan bog'lab tushunganlar. Masalan, ular dunyoning bir qismi bo'lmish o'liklar olamini oppoq – yo'qlik rangida idrok etishgan va uni ko'rib bo'lmaslik misolida buni tasdiqlashga urinishgan. Azada oq rangdagi kiyim o'liklar va tiriklar dunyosi o'rtasidagi aloqa timsolida kiyiladi. Qora rangdagi kiyim esa odam o'lgan – yomon kunda shu yomonlikning, og'ir musibatning ramzi sifatida kiyiladi. Chunki ajdodlarimiz yomonlik va o'limni qora rangda tasavvur qilishgan"[Urayeva.2004.78]. Shu tariqa belgi-xususiyatlar inson tafakkurida borliqning konseptual manzarasini shakllantiruvchi asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Olam konseptual manzarasining til orqali ifodalanishi natijasida olamning lisoniy manzarasi yuzaga keladi: *yoqimli havo, qizil gul, oppoq qor* kabi. Tilda belgi-xususiyatlar nafaqat narsa-hodisaning tasvirini beradi, balki unga shaxsiy baho, emotsional munosabatni ham qo'shadi. Demak, inson olamni belgi-xususiyatlar orqali idrok qiladi, chunki idrok jarayoni predmetning belgilarini ajratish va ulardan konsept yaratish asosiga qurilgan. Ushbu belgi-xususiyatlar til orqali ifodalanib olamning lisoniy manzarasini hosil qiladi. Tilda belgi-xususiyatlar faqat tasvirlash vositasi emas, balki baholash va anglashning ham vositasidir. "Lisonning borliq hodisalarini nomlash, ifodalash, ko'rsatish uchun xizmat qiluvchi birligi – leksema" [Sayfullayeva va boshq.2009.38]dir. Tilning eng asosiy nominativ birligi leksema (so'z) bo'lib, u borliqdagi narsa, hodisa, belgi, miqdor, harakat, holat va hokazolarni nomlaydi. Bular aniq, konkret yoki mavhum tushunchalar bo'lishi mumkin. Masalan, **qizil** deganda aniq, konkret tushuncha, **go'zal** deganda esa mavhum tushuncha ifodalanayotganini ko'rishimiz mumkin.

Tildagi nomlash imkoniyatiga ega so'zlar(leksemalar)ning barchasi ma'lum umumiyliklariga ko'ra so'z turkumlariga bo'lingan bo'lib, shaxs va narsa-hodisalarning belgi-xususiyatini bildiruvchi so'zlar asosan sifat turkumiga mansub. "Sifat kategoriyasidagi so'zlar biror predmet, voqea-hodisa va holatning belgi-xususiyatlarini (ya'ni rang-tusini, hajmini, shaklini, xarakter, xossa-xususiyatlarini, vaznini, mazasini) ifodalash uchun xizmat qiladi [Morfologiya. 1975.275]. "Boshqa so'z turkumlari ham belgi ifodalaydi. Ammo sifat barqaror va turg'un belgi ifodalashi jihatidan ulardan ajralib turadi. Masalan, *Gul – qizil* deganda turg'un(statik) belgi, *Gul qizardi* deganda esa o'zgaruvchi (dinamik)

belgi namoyon bo'lgan. Sifat anglatadigan belgi boshqa turkum anglatadigan belgidan xususiyati bilan farqlanadi" [Sayfullayeva.2009.237].

Sifat so'z turkumi borliqdagi narsa-hodisalarning tomonlari, xususiyatlari, ko'rinishlarini faol aks ettiradi. Masalan, *Anvar har kelganda, shunday jilmayib qarar, xuddi shunday **past, mehribon** ovozda undan hol so'rar edi* (O'.Hoshimov)

Substansiyaning xossalarini, ya'ni belgilarini birinchi navbatda sifat ifodalaydi, chunki u substansiyaning turg'un, o'zi bilan bog'liq atributlarini ro'yobga chiqaradi. Chunki belgi bir narsaning boshqa narsalarga o'xshashligi yoki farqli ekanligini aniqlab beruvchi predmetning ichki xossasidir [Shirinova.2010.81].

Sifat belgi bilan bog'liq juda ko'p tushunchalarni ifodalaydi: ranglarni (qizil, ko'k, yashil), shakliy belgilarni (dumaloq, tekis, qiya), hajmiy belgilarni (ulkan, keng, tor), vazniy belgilarni (yengil, zildek), ta'm-mazani (achchiq, chuchuk); predmetning moddiy holatini (quyuq, suyuq), odam va hayvonlarning jismoniy belgilarini (semiz, sog'lom) kabi.

Sifat bilan bir qatorda "belgilar" uzviga kiruvchi son va ravish ham turli belgilarni anglatadilar. Ammo bu belgilar, masalan, sonda sifat kabi bevosita predmetning xossasini ifodalamagani uchun, ravishda predmetning o'zini emas, uning harakatining belgisini ifodalagani sababli sifat kabi keng qamrovli emaslar [Morfologiya.1975.161].

So'zlovchi o'zi fikr bildirayotgan narsa yoki hodisaning qaysi tomoni shu vaziyat uchun muhim bo'lsa, shu belgidan foydalanadi. Agar so'zlovchi kimnidir go'zalligini ta'riflamochi bo'lsa, faqat go'zalligini ifodalovchi belgilarinigina namoyon etadi, yomon tomonini aytmoqchi bo'lsa, u holda salbiy belgilarini ifodalaydi. Masalan, *Qiz jilmayganda **uzun, qayrilma** kipriklari tutashib yana ham **chiroyli** bo'lib ketdi* (O'.Hoshimov).

Shuni ham aytib o'tish kerakki, sifatlar mustaqil ravishda qabul qilinadigan belgini bildirmaydi, balki borliqdagi u yoki bu predmet va hodisalarga tegishli bo'lgan belgini anglatadi. Chunki borliqda substansiyasiz aksidensiyalarning bo'lishi mumkin emas. Ya'ni "Ular (belgilar) miqdor va sifatga ega bo'luvchi substansiya muhtojdir" [Farobiy.1975.30].

Demak, borliqda substansiya(narsa-hodisa)siz aksidensiya(belgi-xususiyat), aksidensiya(belgi-xususiyat)siz substansiya(narsa-hodisa) mavjud emas ekan. Shuning uchun ham tilda sifat so'z turkumining o'rni va hajmi ancha salmoqlidir.

Ravish turkumi doirasiga kiruvchi leksemalar belgi anglatish xususiyatiga egaligiga ko'ra sifatga

yaqin turadi. Sifat predmet belgisini bildirsa, ravish ish-harakat va holat belgisini bildirishi bilan farqlanib turadi, ya'ni u ko'pincha fe'lga bog'lanib keladi. Ravish turkumiga oid so'zlar ish-harakatning belgisini, belgining(sifat yoki ravishning) belgisini va ba'zan predmet belgisini bildiradi [Morfologiya.1975.179]. Ravish ish-harakatning belgisini bildirganda ish-harakatning qay darajada bajarilganligini, bajarilish paytini, o'rmini ifodalab keladi.

Borliqda substansiyaning tashqi, bilvosita belgisi sifatida mavjud bo'lgan, olamning lisoniy manzarasida "belgilar" uzviga kiruvchi, tilda ish-harakatning, ya'ni belgining belgisini, ba'zan predmet belgisini bildiruvchi bu so'z turkumi tilshunoslikda juda ko'p bahs-munozaralarga sabab bo'lgan. Ravish va sifatning bir-biri bilan chatishib ketgan o'rinlari ko'p kuzatiladi. Buning bosh ( mantiqiy) sababi ravishning fe'l bilan sifat negizida shakllanganligidadir. Sifat va ravishning leksik-semantik xususiyati o'zaro bitta "belgi" termini bilan atalsa-da, biroq xarakter-e'tibori bilan ular bir-biridan farqlanadi. Sifat turg'un xarakterdagi belgini anglatrsa, ravish esa jarayon xarakteridagi belgidir. "Sifat anglatgan belgi – birlamchi, ravish anglatgan belgi esa – ikkilamchi, ya'ni belgining belgisidir [Asadov.2009.101].

Haqiqatan ham sifat va ravish so'z turkumlari orasida juda katta farq mavjud emasdek, ya'ni ular boshqa so'z turkumlari bir-biri bilan o'zaro farqlangandek darajada farqlanmaydi. Ikkalasi uchun ham asosiy turkumlik semasi belgidir. Faqat, aytib o'tilgandek sifat predmetning turg'un, ravish harakatning dinamik belgisini ifodalaydi. Masalan, **Jingalaksoch yigit negadir bepisand jilmaydi** (O'. Hoshimov).

"Jingalaksochlik" belgisi yigitga xos bo'lgan turg'un belgi, uning jilmayishiga xos bo'lgan "bepisandlik" belgisi esa faqatgina ushbu vaziyatdagi belgi bo'lib, u shu harakat bilan birga o'tib ketadi, ya'ni dinamik belgi.

Ko'rinib turganidek, "Ravish garchi adabiyotlarda "harakat-holat belgisini bildiradi deb ta'riflangan bo'lsa-da, uning aniq holat, payt, o'rin, sabab, maqsad, miqdor-daraja kabi turlari "belgi" termini semantikasiga kirmaydi. Shuningdek belgi bildiruvchi so'zlar semantikasiga ko'ra me'yordan ortiq yoki kamlik (darajalanish) xususiyatiga ega bo'lishi kerak. Bu jihatdan ham ravishda darajalanish xususiyati tizimli holda namoyon bo'lmaydi" [Qodirova.2009.12]. Bundan tadqiqotimiz mavzusida nazarda tutilgan belgi-xususiyat so'z turkumlari ichida faqat sifatga xosligini ko'rishimiz mumkin.

Tildagi ma'no ifodalovchi birliklar qatoriga leksema singari frazemani ham kirita olamiz. Chunki frazema

ham leksema singari semantik birlik hisoblanadi. "Umuman, frazemalar alohida shaklga ega bo'lgan, muayyan komponentlardan tashkil topgan, nutqda boshqa gap bo'laklari bilan munosabatga kirishadigan, grammatik ko'rsatkichga va grammatik shaklga ega bo'lgan til birligidir" [Almamatova.2008.20]. Leksema lug'aviy ma'no anglatrsa, frazema ko'chma, obrazli ma'no ifodalaydi. "Ibora yirik til birligi bo'lib, kamida ikkita mustaqil so'zdan(leksemadan) tarkib topadi" [Rahmatullayev.1978.4]. Lug'atlarda leksemalar ham, frazemalar ham alohida leksik birlik sifatida qayd etiladi. "Frazeeologizm, asosan, belgi va harakat ifodalaydi. Demak, ular grammatik jihatdan belgi yoki harakat bildiruvchi so'z turkumiga mansub" [Sayfullayeva va boshq.2009.130]. Ma'lum bo'ladiki, lug'aviy birlik sifatida frazemalar asosan fe'l, sifat va ravish turkumlariga xos va o'zbek tilida shaxs, narsa-hodisaning belgi-xususiyatini ifodalanishida sifat so'z turkumiga kiruvchi leksemalar qatori, sifat turkumiga kiruvchi frazemalar ham qo'llanadi. Shunday ekan, tilda belgi-xususiyat faqat so'z bilan emas, balki frazeologik birliklar orqali ham ifodalanadi. Ularning ma'nosi tarkibidagi so'zlarning lug'aviy ma'nosidan farq qiladi. Frazemalarda belgi-xususiyat leksema orqali ifodalangan belgi-xususiyatga qaraganda kuchliroq bo'ladi. Chunki ular oddiy sifat so'zlaridan farqli ravishda, belgi-xususiyatni majoziy usulda ifodalaydi. Frazeeologizm(frazema,ibora)lar xalqning milliy-madaniy tafakkur mahsuli bo'lib, ular orqali belgi-xususiyat bevosita emas, tasviriy, obrazli tarzda ifodalanadi. Ular milliy tafakkur, xalq dunyoqarashi, madaniyat va emotsional bahoni o'zida aks ettiradi. Frazeeologizmlar orqali belgi-xususiyat juda ta'sirchan va obrazli tarzda namoyon bo'ladi. Sh.Almamatovanning filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan "O'zbek tili frazemalarining komponent tahlili" nomli dissertatsiyasi o'zbek tilidagi frazemalarning komponent tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda frazemalar ot, fe'l va sifat komponentli frazemalarga ajratib o'rganilgan. Ushbu tadqiqotda "Sifat leksemalar frazemalar tarkibida ot va fe'l leksemalar bilan bog'lashuvga kirishadi. Ular ishtirok etgan frazemalar leksik-grammatik tabiatiga ko'ra sifat va fe'l frazemalardan iboratdir. Sifat leksemalar ishtirokida, asosan, kishilarning xarakteri va xususiyatini ifodalovchi frazemalar shakllanadi" [Almamatova.2008.68]. Ya'ni, sifat turkumiga mansub frazemalar, asosan, shaxsga xos belgi-xususiyatni ifodalashga xizmat qiladi. R.Sayfullayeva va boshqalar hammuallifligida yozilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv qo'llanmasida "Sifat turkumiga mansub frazeologizm: [ko'ngli bo'sh],

[*rangi sovuq*], [*yuragi toza*],[*avzoyi bejo*], [*dili siyoh*], [*kayfi buzuq*] ” kabi frazemalar berilgan. Ushbu frazeologizmlar ham haqiqatda shaxsga xos belgi-xususiyat ifodalayotganini ko'rishimiz mumkin. Quyida ushbu frazeologizmlardan ba'zilarining Sh. Rahmatullayevning “O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati”da berilgan ma'nolariga e'tibor qaratamiz:

Ko'ngli bo'sh – “ko'ngilchan, rahmdil”.

Yuragi toza (ko'ngli pok, ko'ngli toza, qalbi pok, qalbi toza,yuragi sof) – “yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko'rmaydigan” [Rahmatullayev.1978.167]. Ko'rinib turganidek, o'zbek tili frazeologizmlari tarkibida sifat turkumiga xos belgi-xususiyat ma'nosini beruvchi frazeologizmlar, asosan, sifat leksemalari ishtirokida tuzilgan va ular leksemalardan farqli ravishda ko'proq shaxsga xos belgi-xususiyatni ifodalalashga xizmat qiladi. Shaxsga xos belgi-xususiyat ifodalovchi frazemalar insonning tashqi ko'rinishi, fe'l-atvori, aqli, hissiyoti, axloqi va boshqa jihatlari bilan bog'liq belgi-xususiyatlarini ifodalaydi. Tildagi frazeologizmlar ichida, u qaysi turkumga xos bo'lmasin, eng ko'p uchraydiganlari ham aynan shu turdagi frazemalar deyish mumkin. Chunki tilning markazida inson shaxsi, uning ruhiy holati, fe'l-atvori va ijtimoiy munosabatlari turadi. Quyida berilgan *zuvalasi pishiq, ko'ngli pok,esi past,*

*tili uzun, qo'li uzun, qo'li qisqa, fe'li keng, ichi qora* kabi frazeologizmlarda insonlarga xos belgi-xususiyat ifodalangan. “Bu mazmuniy guruhga mansub frazemalarning aksariyati ikki komponentli bo'lib, semantik tayanch komponent vazifasini ko'p hollarda somatizmlar bajargan. Somatik leksemalar ishtirok etmagan belgi-xususiyat bildiruvchi frazemalarda ham “shaxs” semasi bilan bog'liq leksik birliklar mavjud” [O'razova.2022.89].

Demak, o'zbek tilida shaxs, narsa va hodisalarga xos belgi-xususiyat sifat turkumiga mansub leksemalar va frazeologik birliklar orqali ifodalanadi. Bunda sifat leksemalar shaxs, predmet va hodisalarning turli jihatlarini – tashqi ko'rinishi, shakli, hajmi, rang-tusi, holati bilan bog'liq xususiyatlarini ifodalovchi asosiy til birligi sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, o'zbek tilidagi frazeologik birliklar ham belgi-xususiyatni ifodalashda muhim stilistik vosita hisoblanadi. Ular milliy-madaniy qadriyatlar, xalq dunyoqarashi va tajribasini aks ettirgan holda belgi-xususiyatni obrazli, emotsional shaklda ifodalash imkonini beradi. Belgi-xususiyat semantikasi sifat leksemalari va frazeologik birliklar orqali real olamning konseptual manzarasini lisoniy tarzda aks ettiradi. Shu bois belgi-xususiyatni ifodalovchi birliklarni tahlil qilish o'zbek tilining semantik tizimini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алмаматова Ш. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили. Филол.фан.д-ри. дисс. –Тошкент, 2008.
2. Asadov T. So'z turkumlari tizimida ravish: fil.fan.nomz...diss. – Toshkent, 2009.
3. Farobiy. Risolalar. – Toshkent: Fan, 1975.
4. Qodirova B.R. Belgi bildiruvchi leksemalarning lingvokulturologik xususiyatlari. Filol.fan.d-ri(PhD)—Toshkent, 2009.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати.— Тошкент: Ўқитувчи,1978.
6. Sayfullayeva R.va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Fan va texnologiya nashriyoti. – Toshkent,2009.
7. Suyarova N. Belgi denotativ semali metaforalarning tasnifi, kognitiv strukturasi, va leksikografik talqini.Filol.fan.d-ri Avtoref.Qarshi. 2021.
8. Ураева Д. Ўзбек мотам маросими фолклори. – Тошкент: Фан, 2004.
9. O'zbek tili grammatikasi.Morfologiya. – Toshkent, Fan. 1975.
10. O'razova I. XIV asrning II yarmiga oid turkiy yozma manbalardagi frazemalar tadqiqi. Filol.fan.d-ri.diss. Toshkent. 2022.
11. Shirinova N. O'zbek tilida predmetlik va belgi-xususiyat nomlarini farqlash vositalari: fil.fan.nomz...diss. – Toshkent,2010.

Dilbar TO'LAKOVA,  
SamDChTI tayanch doktoranti  
e-mail manzil: Dilbar83tulakova@gmail.com

## TILSHUNOSLIKDA SINTAKTIK ALOQALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

**Annotatsiya:** mazkur maqolada tilshunoslikda sintaktik aloqalarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Sintaktik aloqa til birliklarini mantiqan va grammatik jihatdan bog'lovchi asosiy mexanizm sifatida izohlanadi. Tadqiqotda boshqaruv, moslashuv, bitishuv, teng va ergash bog'lanish kabi sintaktik aloqalar turlari ko'rib chiqiladi hamda ular asosida shakllanuvchi murakkab sintaktik hodisalar – ajratish, parsellyatsiya va ilova – alohida o'rganiladi. Maqolada ushbu hodisalar gapning strukturasi, semantik qatlamlari va kommunikativ tashkilotini aniqlashdagi roli yoritilgan. Xususan, ilova konstruksiyalarining grammatik mustaqilligi, semantik tobeligi va uslubiy funksiyasi tahlil qilinib, ularning nutqning aniqligi, izchilligi va ekspressivligini ta'minlovchi omil sifatidagi ahamiyati asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** *sintaktik aloqa, so'z birikmasi, gap, ajratish, parsellyatsiya, ilova, sintaksis, grammatik munosabat, semantik bog'lanish, kommunikativ vazifa.*

**Аннотация:** в данной статье анализируется роль и значение синтаксических связей в лингвистике. Синтаксическая связь объясняется как основной механизм, логически и грамматически связывающий языковые единицы. В исследовании рассматриваются такие виды синтаксических связей, как управление, согласование, примыкание, сочинительная и подчинительная связь, а также отдельно изучаются сложные синтаксические явления, формирующиеся на их основе - разделение, парцелляция и приложение. В статье освещается роль этих явлений в определении структуры, семантических пластов и коммуникативной организации предложения. В частности, анализируются грамматическая самостоятельность, семантическая зависимость и стилистическая функция присоединительных конструкций, обосновывается их значение как фактора, обеспечивающего точность, последовательность и выразительность речи.

**Ключевые слова:** *синтаксическая связь, словосочетание, предложение, выделение, парцелляция, приложение, синтаксис, грамматическое отношение, семантическая связь, коммуникативная функция.*

**Annotation:** in this article, the role and significance of syntactic connections in linguistics are analyzed. Syntactic connection is explained as the main mechanism that logically and grammatically connects language units. The study examines such types of syntactic connections as management, agreement, adjunction, coordinating and subordinating connection, and also separately studies complex syntactic phenomena formed on their basis - separation, parcellation, and apposition. The article highlights the role of these phenomena in determining the structure, semantic layers, and communicative organization of a sentence. In particular, the grammatical independence, semantic dependence, and stylistic function of adjunctive constructions are analyzed, and their significance as a factor ensuring the accuracy, consistency, and expressiveness of speech is substantiated.

**Key words:** *syntactic connection, word combination, sentence, allocation, parcellation, apposition, syntax, grammatical relation, semantics*

Til tizimi murakkab va ko'p qatlamli tuzilma bo'lib, undagi har bir birlik o'zaro ma'lum qonuniyatlar asosida bog'lanadi. Ushbu bog'lanishlarning eng muhim shakllaridan biri – sintaktik aloqalardir. Sintaktik aloqa – bu so'zlar, so'z birikmalari va gaplarning o'zaro grammatik hamda semantik munosabatini ta'minlovchi asosiy mexanizmdir. Aynan sintaktik aloqalar orqali til birliklari mantiqiy tizimga birlashadi, fikrning grammatik jihatdan to'g'ri va mazmunan izchil ifodalanishi ta'minlanadi.

Tilshunoslikda sintaktik aloqalar masalasi qadimdan olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Qadimgi yunon grammatiklari Aristotel [2] va Apolloniylardan [1] boshlab, keyingi davrda F. de Sossyur [6], O. Jespersen [4], L. Tesnière [7], V. V. Vinogradov [3], A. M. Peshkovskiy [5] kabi olimlar sintaktik munosabatlarning tabiati, ularning struktur va semantik turlari haqida qimmatli ilmiy

qarashlarni ilgari surganlar. Ushbu qarashlar asosida so'z birikmasi va gapning ichki tuzilishini, ularning komponentlari o'rtasidagi grammatik hamda mantiqiy munosabatlarni tahlil qilish imkoniyati shakllangan.

Mazkur nazariy asoslar keyinchalik sintaksis fanining shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratdi. Tilshunoslikda sintaksis – bu ma'lum bir tildagi gaplarning tuzilishini tartibga soluvchi, ularning tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlovchi va o'rganadigan qoidalar, nazariy tizimlar hamda til jarayonlari majmuasidir. Sintaksis til tizimining yuqori pog'onasini tashkil etib, unda so'zlar qanday qilib bir-biri bilan grammatik va semantik jihatdan bog'lanishi, so'z birikmalari va gaplar qanday shakllanishi kabi masalalar o'rganiladi.

Sintaksis boshqa grammatik bo'limlardan, xususan, morfologiyadan farqli o'laroq, til birliklarining o'zaro birikish

jarayonini, ularning mantiqiy va grammatik bog'lanishini tahlil qiladi. Agar morfologiya so'zning shakliy tuzilishini va grammatik kategoriyalarini o'rganadigan bo'lsa, sintaksis so'zlarning o'zaro munosabatini, ular orqali fikrning qanday shakllanishini o'rganadi. Shu sababli sintaksis tilning fikrni ifodalashdagi eng muhim struktur bosqichi sanaladi.

Sintaksisning asosiy tadqiqot obyekti – gapdir. Gap tilning mantiqiy va kommunikativ birligi bo'lib, u orqali fikr, his-tuyg'u, baho va munosabat ifodalanadi. Gap tarkibidagi birliklar – ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol kabi sintaktik bo'laklar – o'zaro muayyan grammatik aloqalar asosida birlashadi. Aynan shu aloqalar gapning tuzilishini tashkil etadi va uning ma'nosini belgilaydi.

Shuningdek, sintaksis so'z birikmalarini ham o'rganadi. So'z birikmasi – bu ikki yoki undan ortiq so'zning grammatik bog'lanishidan hosil bo'lgan, lekin mustaqil fikr ifodalash xususiyatiga ega bo'lmagan birlikdir. So'z birikmalari gap qurilishining tayanch materiali hisoblanadi, chunki ular orqali til birliklari mantiqan va grammatik jihatdan bog'lanadi.

Sintaksis nafaqat tildagi struktur birliklarni, balki ularning nutqdagi qo'llanishini ham o'rganadi. Shu jihatdan u tilning statik (tizimli) va dinamik (nutqiy) tomonlarini birlashtiradi. Gapning struktur modeli, uning komponentlari o'rtasidagi aloqa, so'z tartibi, intonatsiya, urg'u kabi omillar sintaktik tahlilning ajralmas qismini tashkil etadi.

Zamonaviy tilshunoslikda sintaksisning o'rganish doirasi yanada kengayib, u nafaqat grammatik strukturalarni, balki kommunikativ, pragmatik va semantik omillarni ham o'z ichiga olmoqda. Chunki gapning shakli bilan bir qatorda uning ma'nosi, maqsadi va kontekstdagi o'rni ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, hozirgi sintaksis nafaqat "gap qanday tuziladi?", balki "gap nima uchun va qanday maqsadda shunday tuzilgan?" degan savollarga ham javob izlaydi.

Sintaksisni o'rganish tilshunoslikning boshqa bo'limlari – morfologiya, semantika, stilistika va pragmatika bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki har bir sintaktik tuzilma mazmunni ifodalashda nafaqat grammatik, balki mantiqiy va uslubiy vazifani ham bajaradi. Shu ma'noda sintaksis til tizimining integrallashgan, fikr ifodasini tartibga soluvchi markaziy komponenti sifatida namoyon bo'ladi.

Sintaksis grammatikaning asosiy bo'limlaridan biri sifatida so'z birikmalari va gaplarning tuzilishini, ularning nutqdagi vazifasi va mazmuniy o'rnini tadqiq etadi. Gap esa sintaksisning markaziy birligi hisoblanadi. U mazmunan va intonatsion jihatdan yakunlangan bo'lib, biror narsa, hodisa yoki shaxs haqida fikr bildiradi. Gapning asosida har doim grammatik tayanch – ega va kesimning o'zaro munosabati yotadi. Aynan shu munosabat so'zlarning bir-biri bilan grammatik va semantik jihatdan bog'lanishini ta'minlaydi, natijada grammatik jihatdan to'liq va mantiqan izchil fikr ifodalangan gaplar hosil bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, sintaksisning o'rganish doirasi faqat grammatik shakllarni tahlil qilish bilan cheklanmaydi. Zamonaviy tilshunoslikda sintaksis nutqning kommunikativ, semantik va pragmatik xususiyatlarini ham qamrab oladi. Chunki so'zlar o'rtasidagi grammatik aloqa ularning tashqi shakliy bog'lanishinigina emas, balki fikr ifodasining mantiqiy va mazmuniy izchilligini ham belgilaydi. Shu bois sintaktik tuzilma tilning nafaqat grammatik, balki kommunikativ tizimini tashkil etuvchi muhim unsur sifatida qaraladi.

Sintaktik aloqalar turlari – boshqaruv, moslashuv, bitishuv, teng va ergash bog'lanish – tilning tuzilishida muhim o'rin egallaydi. Aynan shu turlar doirasida so'zlar orasidagi grammatik va semantik munosabatlar shakllanadi. Biroq so'zlarning bu an'anaviy aloqalari bilan bir qatorda, gap ichidagi komponentlarning alohida ajralishi yoki mantiqiy ta'kidlash orqali ifodalanishi ham mavjud bo'lib, bu holat ajratish, ilova va parsellyatsiya kabi sintaktik hodisalarni yuzaga keltiradi.

Mazkur hodisalar – ilova, ajratish va parsellyatsiya – zamonaviy sintaksisda gapning ichki strukturasi, intonatsion tashkiloti va mantiqiy markazini aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ilova konstruksiyalari o'zining grammatik tuzilishi, semantik bog'liqligi va kommunikativ vazifasi bilan ajralib turadi. Ular orqali so'zlovchi fikrini aniqlashtiradi, kengaytiradi yoki baholaydi, shuningdek, matnga uslubiy ta'sirchanlik bag'ishlaydi.

Bundan tashqari, ushbu sintaktik tuzilishlarning o'rganilishi nafaqat grammatik tizimni, balki nutqning mazmuniy, uslubiy va kommunikativ jihatlarini ham aniqlash imkonini beradi. Chunki bu hodisalar gapning tuzilishini murakkablashtiradi, lekin shu bilan birga, uning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ajratish hodisasi orqali so'z yoki so'z birikmalari ma'lum intonatsion mustaqillikka ega bo'ladi va gapning semantik strukturasi alohida urg'u bilan ajraladi. Parsellyatsiya esa gapni sintaktik jihatdan bo'lish orqali fikrning emotsional yoki uslubiy ta'sirchanligini oshiradi.

Shu jarayonlarda ilova konstruksiyalari ham muhim rol o'ynaydi. Ilova – bu grammatik jihatdan mustaqil, ammo semantik jihatdan asosiy ifodaga tobe birlik bo'lib, u fikrni aniqlashtirish, kengaytirish yoki baholash uchun xizmat qiladi. Ularning ishlatilishi gapning ifodaviy kuchini oshiradi, mantiqiy aniqlikni ta'minlaydi va matnning uslubiy boyligini kuchaytiradi. Shu bois, ilova hodisasini sintaksis doirasida o'rganish tilning tuzilma, mazmun va uslubiy qatlamlarini chuqurroq anglashda muhim ahamiyatga ega.

Ilova konstruksiyalarining bunday xususiyatlari ularni sintaktik aloqalarning umumiy tizimida alohida o'ringa ega bo'lgan birlik sifatida talqin etish imkonini beradi. Zero, tilshunoslikda sintaktik aloqalar nutqning grammatik tuzilishini tashkil etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Ular orqali so'z birikmalari va gaplar o'zaro grammatik, semantik hamda mantiqiy munosabatlarda

birlashadi va yaxlit kommunikativ birlik sifatida shakllanadi. Sintaktik aloqalarning chuqur o'rganilishi til tizimidagi murakkab konstruksiyalarni, jumladan, ajratish, parsellyatsiya va ilova hodisalarini tahlil qilish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi. Chunki aynan sintaktik bog'lanishlar gapning struktur tuzilishini, komponentlar o'rtasidagi iyerarxik munosabatni hamda fikrning mantiqiy oqimini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Tilshunoslarning kuzatishlariga ko'ra, ajratish va parsellyatsiya hodisalarini o'zaro yaqin sintaktik jarayonlar bo'lib, ular gapning grammatik tuzilishida mustaqil segmentlarni ajratib ko'rsatish orqali ma'no va urg'u markazini aniqlaydi. Biroq parsellyatsiyaning grammatik maqomi haqida yagona ilmiy qarash mavjud emas: ayrim tadqiqotchilar uni ajratishning maxsus ko'rinishi, boshqalar esa mustaqil sintaktik hodisa sifatida talqin qiladilar. Shu sababli parsellyatsiyaning til tizimidagi o'rnini aniqlash masalasi hozirgi sintaksisda eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Ilova konstruksiyalari esa ushbu jarayonlarda o'ziga xos o'rin egallaydi. Ular parsellyatsiyadan farqli ravishda asosiy gap tarkibiga "qaytmaydi", ya'ni asosiy fikrga grammatik jihatdan kirmaydi, biroq unga qo'shimcha ma'no, izoh yoki baho beruvchi semantik birlik sifatida ulanadi. Ilova o'zining struktur mustaqilligi va semantik tobeligi orqali ikki darajali munosabatni ifodalaydi: bir tomondan, u asosiy ifodaga grammatik jihatdan tayanadi, ikkinchi tomondan esa, mantiqan mustaqil fikrni o'z ichiga oladi. Shu bois, ilova hodisasi sodda gapni murakkablashtiruvchi, lekin o'zida grammatik mustaqillikni saqlovchi sintaktik birlik sifatida qoraladi.

Ajratish, parsellyatsiya va ilova hodisalarini o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularning umumiy xususiyati – gapning struktur murakkabligini oshirish, semantik qatlamni kengaytirish va fikrni aniqlashtirishdir. Ushbu hodisalar orqali so'zlovchi fikrning muhim jihatlariga e'tibor qaratadi, uning mantiqiy markazini belgilaydi hamda tinglovchida zarur emotsional yoki uslubiy ta'sir uyg'otadi. Bularning barchasi tilda ifoda vositalarining boyishini, fikrning mantiqiy aniqligi va uslubiy ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Ajratish hodisasi, odatda, ma'lum bir so'z yoki so'z birikmasini intonatsion va mantiqiy jihatdan ajratib

ko'rsatish orqali ularning semantik yukini oshiradi. Parsellyatsiya esa gapni maqsadli ravishda sintaktik qismlarga ajratish, shu yo'l bilan fikrning emotsional kuchini kuchaytirish yoki nutqda tabiiylik, og'zaki ohangni yaratish imkonini beradi. Ilova hodisasi esa bu jarayonlarda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, ilova hodisasi tilning sintaktik tizimida eng faol vositalardan biri bo'lib, u nafaqat grammatik, balki uslubiy va kommunikativ jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Ilova birliklari asosiy fikrni to'ldiruvchi, izohlovchi yoki aniqlashtiruvchi qo'shimcha komponent sifatida ishlaydi. Ular so'zlovchiga fikrni yanada aniqlik bilan ifodalash, shuningdek, nutqqa subyektiv baho, izoh yoki hissiy rang berish imkonini yaratadi.

Ilova konstruksiyalari o'zining ikki qirrali tabiati — grammatik mustaqillik va semantik tobeligi bilan ajralib turadi. Bu ularning bir tomondan sintaktik jihatdan asosiy gapdan ajralish, ikkinchi tomondan esa semantik jihatdan u bilan bog'lanish xususiyatini ko'rsatadi. Shu jihatdan, ilova tilda fikrni kengaytirish, izohlash va baholashning eng qulay usullaridan biri sanaladi. Natijada, bunday konstruksiyalar matnning ekspressivligi, mazmuniy to'yinganligi va uslubiy boyligini oshiradi, gapning kommunikativ potensialini kengaytiradi.

Ilova, ajratish va parsellyatsiya hodisalarini o'zaro uyg'unlikda ishlaganda, ular nutqning shakliy va mazmuniy qatlamlarini uyg'unlashtiradi, matnni yaxlit, mantiqan asosli va usluban boy holatga keltiradi. Shu bois, ularning o'zaro bog'liqligini tahlil qilish sintaksisdagi murakkab konstruksiyalarni chuqurroq anglash, tilning ifoda imkoniyatlarini kengroq ochib berish hamda kommunikativ jarayonlarning tabiati haqida to'liq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Demak, sintaktik aloqalar tilning asosiy konstruktiv mexanizmlaridan biri sifatida ajratish, parsellyatsiya va ilova hodisalarining mohiyatini ochib berishda tayanch vazifasini bajaradi. Bu hodisalarini o'zaro bog'liq holda tahlil qilish til tizimining shakliy, semantik va uslubiy qatlamlarini yaxlit ko'rinishda o'rganish imkonini beradi. Ayniqsa, ilova konstruksiyalarining faol o'rganilishi sintaktik birliklarning shakl va mazmun jihatdan boyishini hamda tilda ifodaning mantiqiy va emotsional imkoniyatlari kengayishini yaqqol ko'rsatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аполлоний Дискон. О синтаксисе. — Пер. с греч. и коммент. В. В. Иванова. — М.: Наука, 1982
2. Аристотель. Метафизика. — Москва: РИПОЛ классик, 2018. 384 с.
3. Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. — М., 1972.
4. Есперсен О. Философия грамматики: Пер. с англ./ О. Есперсен. — М.: Изд-во иностр. лит., 1958. — С.260-297.
5. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. — М., 1956.
6. Соссюр Ф. де. Труды по языкознанию. — М: «Прогресс», 1977. — 695 с.
7. Теньер Л. Основы структурного синтаксиса / Пер. с фр. И. Н. Богуславского и др. — М.: Прогресс, 1988. — С. 250–271.

Umida JUMAYEVA,  
SamDCHTI tayanch doktoranti  
[ujumayeva199297@gmail.com](mailto:ujumayeva199297@gmail.com)

## ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA METAFORA VA UNING KOGNITIV JIATLARINING O'RGANILISHI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada zamonaviy lingvistikada metaforaning kognitiv talqini, uning mazmuniy va konseptual asoslari tahlil qilinadi. Lakoff va Jonsonning konseptual metafora nazariyasi, Kovecheshning kognitiv yondashuvi hamda Fauconniarning mental makonlar modeli asosida metaforaning semantik va psixologik funksiyalari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** *kognitiv lingvistika, konseptual metafora, konseptual model, mental makon, konseptualizatsiya*

**Annotation:** this article examines the cognitive interpretation of metaphor in modern linguistics, its meaning, and conceptual foundations. The conceptual metaphor theory of Lakoff and Johnson, Kovecses's cognitive approach, and Fauconnier's mental spaces model are used to explain the semantic and psychological functions of metaphor.

**Keywords:** *cognitive linguistics, conceptual metaphor, conceptual model, mental space, conceptualization*

**Аннотация:** в данной статье рассматриваются когнитивная интерпретация метафоры в современной лингвистике, её значение и концептуальные основы. На основе теории концептуальной метафоры Лакоффа и Джонсона, когнитивного подхода Ковечеса и модели ментальных пространств Фоконье раскрываются семантические и психологические функции метафоры.

**Ключевые слова:** *когнитивная лингвистика, концептуальная метафора, концептуальная модель, ментальное пространство, концептуализация*

**Kirish.** XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikda yangi yo'nalish – kognitiv lingvistika shakllandi. Ushbu yo'nalish tilni faqat grammatik tizim emas, balki inson tafakkurining in'ikosi, ya'ni ongda kechadigan konseptual jarayonlarning aks-sadosi sifatida talqin qiladi. Kognitiv tilshunoslik atamasining mazmuni inglizcha "cognitive – bilishga oid" so'zi bilan bog'liq. Ma'lumki, dunyoni, voqelikni bilish, uni idrok etish oddiy hodisa emas [7,9]. Kognitiv yondashuvga ko'ra til birliklari insonning atrof-muhitni qanday idrok qilishi, tasniflashi va konseptualizatsiya qilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Kognitiv tilshunoslik doirasida metafora tushunchasi ham tubdan qayta talqin qilindi. Yangi qarashlarga ko'ra metaforalar tilimizda tasodifiy ifodalar emas, balki ongda shakllangan abstrakt konseptlarning idrokiy ramzlaridir. Shu asnodan metaforalarning kognitiv talqinini o'rganish nafaqat til hodisasini, balki inson tafakkuri va milliy mentalitetining ichki tuzilishini tadqiq qilishga xizmat qiladi. Mazkur

maqolada metaforaning kognitiv xususiyatlari, uning konseptual modellar asosida shakllanishi hamda o'zbek va ingliz tillaridagi ba'zi metaforalar qiyosiy tahlili amalga oshiriladi.

**Asosiy qism.** Metafora (yunoncha "metaphora – ko'chirish") – so'zning asl ma'nosidan boshqa ma'noda qo'llanishi asosida yuzaga keladigan badiiy vosita.[6,1163] Yunon olimi Aristotel (mil avv. 384-322) davridanoq metaforaning ikki tomonlama tabiati – til vositasi va she'riy san'at sifatida o'rgangan, faylasuf o'zining "Poetika" va "Ritorika" asarlarida metaforani estetik zavq uyg'otuvchi va nutqni bezovchi vosita sifatida ifodalab, unga "tilning eng kuchli vositasi" deya ta'rif bergan [1]. Keyinchalik klassik ritorika nazariyalarida ham metafora badiiy nutqning bezagi sifatida o'rganilgan. Kvintilian (mil. 35-100) esa o'zining "Ritorika san'ati" kitobida metaforani nutqni bezash vositasida qarab, unga mahoratli so'zlashuv san'ati sifatida keng o'rin ajratadi va metaforani tashbehning ixcham va

ta'sirchan shakli sifatida izohlaydi. Lotin tilidagi adabiyotlarda ham bu yondashuv davom etgan. XVIII – XIX asrlarda metafora tahlili o'zgarishga yuz tutdi va mantiqiy qarashlar asosida o'rganila boshlandi. G.V. Leybnits, I. Kant va V. Humboldt singari olimlar metaforaga mantiqiy va falsafiy jihatdan yondashib tahlil qilishgan [2]. Ayniqsa, Humboldt tilni inson tafakkurining faol ifodasi sifatida ko'rib, metaforani fikrlash shakli sifatida talqin qiladi. XIX asrda tilshunoslikda metafora nazariyasiga nutqdagi giperbolik, stilistik hodisa sifatida qaralsa-da, ayrim olimlar uni tilning asosiy tafakkur shakli deya baholashgan. Metaforani chuqur semantik va kognitiv talqin qilish faqatgina XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlandi. 1950-60- yillarda strukturalizm va generativ grammatika yondashuvlari hukmronlik qilgan bo'lsa-da, bu oqimlar metaforani chuqur tahlil qilmagan. Ular uchun metafora tilning periferik hodisasi, stilistik vosita bo'lib qolgan.

Metafora – nutqqa obrazlilik, ekspressiv bo'yoq berish uchun predmet yoki voqea - hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik asosida ma'no ko'chirilishi hisoblanadi. O'zbek tilida uning istiora (arabcha ko'chirish degan ma'noni anglatadi), tashbeh, majoz, ko'chim kabi sinonim shakllari ham keng qo'llanadi. Ushbu stilistik hodisa nafaqat badiiy adabiyotda, balki kundalik nutqda, ilmiy diskursda va hatto tibbiyot, texnologiya kabi sohalarda ham qo'llanilib, tilning boyishi, yangi tushunchalarni ifodalash va dunyoni idrok etish jarayonida muhim rol o'ynaydi. O'zbek tilida metaforalar xalq og'zaki ijodi, badiiy adabiyot va kundalik nutqda keng tarqalgan bo'lib, ularni o'zbek xalq maqollari, ertaklar, topishmoqlar va hikmatli so'zlarda, shuningdek klassik va zamonaviy adiblarimizning ham nazmiy, ham nasriy asarlarida ko'plab uchratishimiz mumkin. Ular tilda estetik va falsafiy ma'nolarni yetkazishda muhim omil sifatida shakllantirilgan.

Jahon tilshunosligida esa J. Lakoff, M. Jonson [5] va G. Fokonye [3] tadqiqotlari metafora fikrlash jarayonini tashkillashtirishi, mental modellashtirishda asosiy vosita ekani haqida ilmiy dalillarni taqdim etdi.

Hozirgi davrda lisoniy hodisalar tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlarning katta qismi kognitiv paradigma doirasida olib borilmoqda.

Kognitiv tilshunoslikning eng muhim tamoyili har qanday lisoniy shakl asosida inson tafakkur faoliyatining mahsuli bo'lgan mental tuzilma – konsept turishini e'tirof etishdan iborat. Metafora kognitiv yondashuv doirasida yuqori qiymatli hodisa sifatida baholanadi. Zotan, metafora inson tafakkuri faoliyatining ajralmas qismidir va u voqelik idroki jarayonida olamda kechayotgan voqea – hosillarni kenseptuallashtirish hamda kategoriallashtirishning muhim vositasidir. Shu vosita tatbiqida olamning lisoniy manzarasi metaforik ko'rinishda shakllanadi [8,26].

Konseptual metaforalar tushunchasi – bu bir tushunchani boshqasi orqali idrok qilish jarayonidir. Ya'ni bunda A tushunchani B tushuncha orqali tushunish mumkin bo'ladi. “tushunish” uchun esa bu ikki tushuncha (A v B) o'rtasidagi munosabatlarni tavsiflash muhimdir. B tushunchaning manba va maqsad domenlari o'rtasida bir qadar o'xshashlik yoki bog'liqlik mavjud bo'ladi. Uning tarkibiy elementlari ham Aning tarkibiy qismlariga mos keladi. Bu moslik “mapping” deb ataladi. Ya'ni metafora faqat til birliklarida emas, balki inson tafakkurida, dunyoni idrok etish va tashkil qilish jarayonida ham mavjuddir. Kognitiv lingvistika sohasida metaforaga inson tafakkurining asosiy mexanizmi sifatida qaraladi [5]. Ushbu yondashuvda metafora tafakkur mexanizmi sifatida mavhum tushunchalarni tanish va konkret sohalar orqali ularni idrok qilishni, so'z orqali tasvirlangan ongda konseptual xaritalar joylashuvini aks ettiradi. Shuningdek, madaniy va kontekstual jihatdan har bir metafora milliy mentalitet va madaniyat bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, “Metaphors we live by” asarida tahlil etilgan **Argument is war** (Bahs bu urush) metaforasini oladigan bo'lsak, *he attacked my point (mening fikrimga hujum qildi)* *she defended her opinion (o'z fikrini himoya qildi)* kabi metaforalarda bahs sohasiga urush sohasining elementlari ko'chirilganini ko'rishimiz mumkin. O'zbek tilida esa bu model *bahsda yutib chiqdi, bahsda mag'lub bo'ldi* kabi birikmalarda o'z aksini topganini ko'rish mumkin. Bundan ma'lum bo'ladiki, inson tafakkuridagi konseptual metaforalar madaniyatdan qat'i nazar ba'zida umumiy kognitiv mexanizmga ega bo'lishi mumkin.

Kovechesh metaforani faqat aqliy mexanizm emas, balki madaniy konsept sifatida talqin qiladi [4]. Unga ko'ra har bir xalq o'zining tarixiy, ijtimoiy va diniy qadriyatlari asosida metaforik modellar yaratadi. "Emotion is temperature" konsepti asosida yuzaga kelgan inglizcha *boil with anger, chilly look, burning with shame, cold – blooded* kabi metaforik birikmalarga o'xshash ma'no anglatuvchi metaforik birliklarni o'zbek tilida ham uchratishimiz mumkin: *G'azabdan yonmoq, sovuq nigoh, uyatdan yuzi qizarmoq, sovuqqon* kabi.

Gilles Fokonyening Mental makonlar nazariyasi esa metaforaning mohiyatini konstruktiv va dinamik jarayon sifatida talqin qildi [3]. Bu modelga ko'ra inson ongida bir vaqtning o'zida bir nechta mental makonlar mavjud bo'lib, metafora ular o'rtasidagi mos yozish (mapping) orqali yangi ma'no yaratadi va madaniy konseptlar mazkur jarayonning asosiy omili bo'lib xizmat qiladi. Mental makonlar nazariyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

A) Til birliklari real olamning to'liq aksini bermaydi, balki interpretatsion makon yaratadi

B) Metafora inson ongida mavjud asosiy manba (source) va maqsad (target) manbalar o'rtasidagi abstrakt bog'lanish natijasidir.

C) Uchinchi "aralash makon" (blended space) hosil bo'ladi va yangi ma'no aynan shu makonda tug'iladi

Metaforaning semantik jarayoni konseptual o'tkazish, xaritalash, integratsiya va yangi semantik birlikning tug'ilishi asosida ma'no

kengaytiruvchi va tafakkur shakllantiruvchi vosita sifatida talqin qiladi.

Psixologik jihatdan esa, metafora voqelikni tushunishning psixik mexanizmini yo'lga qo'yadi, shaxsning hissiy holatini boshqargan holda ijtimoiy ongini shakllantirishga, hayotiy tajribasini tartibga solishga xizmat qiladi. Masalan, O'zbek tilida *Vatan – sajdagoh kabi muqaddasdir* birikmasi orqali Vatanga bo'lgan hurmat, ehtirom va mehr konseptlari chuqurlashtiriladi. Xuddi shu asnoda ingliz tilidagi *Home is where the heart is* (Yurak qayerda bo'lsa, uy ham o'sha yerda) birikmasi orqali shaxsiy hislar va uy konseptini integratsiyalash orqali hissiy iliqlik yaratganini ko'rishimiz mumkin. Shu asnoda ikki tilda ma'lum o'xshashliklarni ham kuzatishimiz mumkin, bunga misol qilib, o'zbek tilidagi *Mehnatning tagi rohat* va ingliz tilidagi *Hard work pays off (qattiq mehnatning mevasi bo'ladi)* iboralarni keltira olamiz.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, metaforalar – bu inson tafakkurining ajralmas qismidir. Ular til orqali ifodalansa-da, ildizi inson ongida yotadi. Har bir madaniyatda metaforalar orqali dunyoni anglashning o'ziga xos usullari mavjud. Ingliz va o'zbek tillaridagi metaforalarning kognitiv xususiyatlarini qiyosiy o'rganish nafaqat til tafovutlarini, balki tafakkur, mentalitet va dunyoqarash farqlari va o'xshashliklarini ham yoritadi, kognitiv metafora nazariyasi zamonaviy tilshunoslikda muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, uni o'rganish, shunchaki nazariy bilimlar orqali emas, amaliy ko'nikmalar uchun ham birdek zarurdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Aristotle. Poetics. – New York, 1961
- 2.Cassirer E. The Philosophy of Symbolic Forms. – New Haven: Yale University Press, 1953.
- 3.Fauconnier G. Mental Spaces: Aspects of Meaning Construction in Natural Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994.
- 4.Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 2002.
- 5.Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
- 6.The Oxford Dictionary of English. – Oxford: Oxford University Press, 2001.
- 7.Safarov Sh. Kognitiv lingvistika. – Jizzax: Sangzor, 2006.
- 8.Ulug'ova Sh. Feministik badiiy matnda metafora faollashuvining kognitiv - stilistik jihatlarini ("Jeyn Eyrr" romani asosida). PhD dissertatsiyasi. – Samarqand, 2022

Mavjuda LAFASOVA,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
O'zbek tili va adabiyoti universiteti stajyor-doktoranti  
[mavjudalafasova352@gmail.com](mailto:mavjudalafasova352@gmail.com)

## O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O'XSHATISHLARNING O'RGANILISHI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida o'xshatishlarning shakllanishi, ularning turg'unlashuvi va til tizimidagi o'rni masalalari tahlil qilinadi. Muallif o'xshatishlarning komponentlari, ularning turlari hamda frazeologik birliklarga o'tish jarayonlarini tahliliy yondashuv asosida yoritadi. Shuningdek, o'xshatishlarning sifatlari, metafora va mubolag'a kabi tasviriy vositalar bilan o'zaro aloqadorligi, ularning xalq tilidagi va individual mualliflik qo'llanmalardagi farqlari ko'rsatiladi. Tadqiqotda M.Mukarramov, N.Mahmudov, M.Yoqubbekova va R.Qo'ng'urovlarning ilmiy qarashlari solishtirilib, o'xshatishlarning milliy madaniyatni ifodalovchi lingvopoetik xususiyatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'xshatish, turg'un ibora, komparativ birlik, metafora, lingvopoetika, milliy obrazlilik

**Аннотация:** в данной статье анализируются вопросы формирования сравнений в узбекском языке, их закрепления в системе языка и функционирования в различных речевых контекстах. Автор раскрывает компоненты сравнений, их разновидности, а также процессы перехода в разряд фразеологических единиц на основе аналитического подхода. Кроме того, рассматриваются взаимосвязи сравнений с такими выразительными средствами, как эпитет, метафора и гипербола, а также различия между народными и индивидуально-авторскими употреблениями. В исследовании сопоставляются научные взгляды М. Мукаррамова, Н. Махмудова, М. Якубековой и Р. Кунгурова, выявляются лингвопоэтические особенности сравнений, отражающие национальную культурную специфику.

**Ключевые слова:** сравнение, устойчивое выражение, компаративная единица, метафора, лингвопоэтика, национальная образность

**Annotation:** this article analyzes the formation of similes in the Uzbek language, their stabilization, and their role within the linguistic system. The author examines the components of similes, their types, and the processes by which they shift into the category of phraseological units, applying an analytical research approach. The study also explores the relationship between similes and other expressive devices such as epithets, metaphors, and hyperbole, highlighting differences between traditional folk usage and individual authorial applications. Scientific views of M. Mukarramov, N. Mahmudov, M. Yoqubbekova, and R. Qo'ng'urov are compared, and the lingvopoetic features of similes that reflect national cultural identity are revealed.

**Key words:** simile, fixed expression, comparative unit, metaphor, linguopoetics, national imagery

O'zbek tilshunosligida turg'un o'xshatishlar (Ogolsev ta'biri bilan aytganda, komparativ iboralar)ning o'ziga xosliklari, ularning frazeologik iboralarga, umuman olganda til va nutqqa munosabati aniq belgilangan emas. Hozirgi kungacha o'xshatishlar ham xuddi erkin (individual-muallif) o'xshatishlar kabi odatdagi sintaktik struktura sifatida tadqiq etilgan, ularning turg'unlashib, yaxlit ifoda maqomida til birligiga

aylanish jarayonlari tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgan<sup>1</sup>.

O'xshatishlarni hosil qiluvchi qo'shimchalar haqida dastlabki ma'lumotni "Devonu lug'atit turk" asarida uchratamiz<sup>2</sup>.

R.Qo'ng'urov "O'zbek tilining tasviriy vositalari" kitobida o'xshatish eng qadimgi tasviriy

<sup>1</sup> Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли лугати. – Тошкент: Маънавият, 2013.8-б..

<sup>2</sup> Қошғарий М. Девону лугатит турк. – Тошкент, 1967.488- 6.

vositalardan bo'lish bilan birga, eng sodda va eng ko'p ishlatiladigan, tez-tez qo'llaniladigan sintaktik hodisa ekanligini, ammo ayrim holatlarni hisobga olmaganda ular so'nggi yillargacha maxsus kuzatish obyekti bo'lmaganligini ta'kidlaydi<sup>3</sup>.

O'zbek tilshunosligida o'xshatishlar haqidagi qator tadqiqotlarda ularning mohiyati, ta'rifi, tasnifi, til birligi sifatidagi xususiyatlari bo'yicha fikrlar xilma-xilligiga duch kelamiz. Ilmiy adabiyotlarda o'xshatishning tuzilishi to'g'rida turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, "O'zbek tilida o'xshatish" kitobida M.Mukarramov o'xshatishlarning uch komponentdan: o'xshatiluvchi obyekt, o'xshovchi obraz va o'xshatma belgidan iborat bo'lishini ta'kidlaydi: bizningcha, o'xshatishda uch komponent asosga olinishi maqsadga muvofiqdir. Chunki o'xshatishda leksik birliklar bilan ifodalangan ikki narsa va hodisa o'zining biror muhim belgi-xususiyatlari bilan qiyoslanadi. Ya'ni o'xshatish uchta leksik birlikning o'zaro munosabatidan vujudga keladi. Bunda o'xshatish ifodalovchi element bo'lib qolgan -dek//day, -simon, -cha, kabi, singari, shaklida va boshqa grammatik vositalar o'xshovchi obrazni ifodalagan so'zlar tarkibida yoki o'zlari alohida so'z holida shakllansa-da, lekin leksik ma'no bildirmaydi. Shu sababli ham o'xshatishni uch komponentli deyish asoslidir<sup>4</sup>. M.Yoqubbekova esa o'xshatishning tarkibiy qismlarini o'xshatish asosi, o'xshatish timsoli, o'xshatish vositasi va o'xshatish belgisi deb nomlagan: o'xshatishlar struktural-kompozitsion jihatdan to'rt tarkibiy qismdan tashkil topgan. Bu qismlarni mualliflar har xil ataydilar. Biz ularning shartli atamalarini inkor qilmagan holda tarkibiy qism(komponent) larni asos, timsol, vosita va belgi deb nomladik<sup>5</sup>. N.Mahmudov bu fikrlarga qo'shilmagan holda o'xshatishning to'rt unsurdan tashkil topishini va bu unsurlar o'xshatish subyekti, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakliyi ko'rsatkichi ekanligini ta'kidlaydi<sup>6</sup>.

O'zbek tilshunosligida o'xshatishlar borasida qilingan tadqiqotlar orasida M.Mukarramovning

"O'zbek tilida o'xshatish" nomli risolasi alohida ahamiyatga molik. Risolada o'xshatishning lingvistik xususiyatlari, komponentlari, turlari, sifatlari, metaforaga munosabati, bir-biriga ko'chishi, farqi, mubolag'a va litota, xalq maqollari, aforizmlar va topishmoqlari o'xshatishli bo'lishligi, ularda qo'llangan o'xshatish ifodalovchi vositalar haqida atroflicha fikr yuritiladi. Muallif o'xshatishlarni komponentlariga ko'ra to'liq, to'liqsiz, vositasiz, sodda, murakkab, tarkibli, uzilgan, ketma-ket, nima orqali yuzaga kelishiga ko'ra konkret va abstrakt, qo'llanishiga qarab an'anaviy va individual, mazmuniga ko'ra inkor, kinoya, satirik va chog'ishtiruvli kabi turlarga bo'linishini qayd etadi<sup>7</sup>. Bundan tashqari, o'xshovchi obrazning o'xshatiluvchi obyektga munosabatiga ko'ra old o'rinli va so'ng o'rinli o'xshatishlar ham mavjudligini ta'kidlaydi<sup>8</sup>. Old o'rinli o'xshatishlarda o'xshovchi obraz o'xshatiluvchi obyektidan oldin kelishi, bunday o'xshatishlar morfologik xususiyatiga ko'ra ko'pincha -day//-dek affikslari bilan ifodalanishi ma'lum. Masalan: *Nizomjon nima deyishini bilmay, ko'zlari javdirab, malla g'ijim baxmaldek tovlanib yotgan qumlarga qaradi* (Said Ahmad). Bunda o'xshovchi obraz – *baxmaldek* so'zi *malla g'ijim* sifatlovchilarini olib, o'xshatma belgi – *tovlanib yotgan* va o'xshatiluvchi obyekt – *qumlar* dan oldin kelgan. Bunday o'xshatishlar uch komponentdan iborat bo'ladi va o'xshovchi obrazdan so'ng o'xshatma belgi keladi: *Nizomjon noilojtuxumdek oppoq o'rikni qo'liga olib, tomosha qildi* (Said Ahmad). Bu misolda ham dastlab *tuxumdek* – o'xshovchi obraz, keyin *oppoq* – o'xshatma belgi, keyin esa *o'rik* – o'xshatiluvchi obyekt ishlatilgan. Old o'rinli o'xshatishlar doimo uch komponentdan iborat bo'lishi shart, aks holda o'xshatish umuman ifodalanmaydi.

Old o'rinli o'xshatishlardan farqli o'laroq, so'ng o'rinli o'xshatishlarda o'xshovchi obraz o'xshatiluvchi obyektidan keyin keladi. O'xshatishning bu turida kishining diqqat-e'tibori avval obyektga qaratiladi, undan so'ng esa shu obyektning biror muhim belgi, xususiyatiga mos obraz beriladi. Bunday o'xshatishlarni kabi, singari, xotirlatmoq, eslatmoq, o'xshatmoq

3 Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977.41-6.

4 Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. 7-6.

5 Ёқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 2003.16- 6.

6 Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули//Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. –№ 3. – 20- 6.

7 Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976.25-31- 6.

8 Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. 8-10- 6.

elementlari, ba’zida esa -day//-dek affikslari yuzaga chiqaradi. Masalan: *Sora jondan aziz o’g’lining ovozi tanidi va kaltagini bir tomonga uloqtirib, jo’jasi tomon qanot yozib yugurgan tovuq singari ikki qo’lini yozib, quloq ochib yugurdi* (S.Ayniy). Bunda Soraning ikki qo’lini yozib, quloq ochib yugurishi, jo’jasi tomon qanot yozib yugurgan tovuqqa o’xshatilgan, ya’ni o’xshovchi obraz o’xshatiluvchi obyektidan keyin, o’xshatma belgidan oldin kelgan<sup>9</sup>.

Muallif o’xshatishlarning boshqa yondosh hodisalar bilan aloqadorligi masalasiga ham alohida to’xtalib o’tadi. Jumladan, o’zbek tilidagi tasviriy vositalar – metafora, sifatlash, mubolag’a, kichraytirish kabilarning ko’chma ma’noda qo’llanilishi, adabiy tilda ko’chma ma’noda ishlatilgan so’z yoki birikma nutqiy qo’llashga xos bo’lib, obrazlilik bo’lganligi sababli u ko’chim(trop) nomi bilan yuritilishi, ko’chimlar orasida esa o’xshatish munosabati yotishi ta’kidlanadi. Muallifning ta’kidlashicha, tasviriy vositalar – sifatlash, metafora, mubolag’a, kichraytirish ko’chimli qo’llanganda, ularda o’xshatish munosabati bo’ladi. O’xshatish tasviriy vositasi bilan ko’chimli tasviriy vositalar orasida o’zaro ichki aloqadorlik bor<sup>10</sup>.

Tilshunos N.Mahmudovning o’xshatishlar borasida olib borgan tadqiqotlari ham tahsinga loyiq. Uning “O’xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli”, “Termin, obrazli so’z va metafora”, “O’xshatishlar va milliy obraz” kabi maqolalarida o’xshatishlar va ularning mohiyati, o’xshatish

komponentlari, turlari, metafora va epitet kabi turli badiiy tasvir vositalaridan farqlanuvchi jihatlari haqida qimmatli fikr-mulohazalar bildiriladi. Ushbu maqolalarida tilshunos olim individual-muallif o’xshatishlarini umumxalq yoki turg’un o’xshatishlardan farqlab, quyidagicha fikr bildiradi: “Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan erkin o’xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida ahamiyatga ega. Yozuvchi o’zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original o’xshatishlar yaratadi, bu o’xshatishlar kutilmaganligi, ohoriyligi bilan o’quvchini o’ziga rom etadi, muaayyan ruhiy yoki jismoniy holat yoki xususiyat, predmetlarni o’quvchi ko’z o’ngida yaqqol aks ettiradi”<sup>11</sup>. Muallif, shuningdek, erkin o’xshatishlardan ko’ra ko’proq turg’un o’xshatishlarda xalqlarning milliy-etnik va antropologik o’ziga xosliklari aks etishini ta’kidlaydi hamda misollar asosida tushuntirib o’tadi.

Xulosa qilib aytganda, o’zbek tilshunosligida o’xshatishlar ko’p qirrali tasviriy vosita sifatida til tizimida muhim o’rin tutadi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, o’xshatishlarning tarkibi, turlari, ularning frazeologik birliklarga aylanish jarayoni va boshqa troplar bilan o’zaro aloqasi murakkab hamda o’ziga xosdir. M.Mukarramov, N.Mahmudov, M.Yoqubbekova va boshqa olimlar qarashlarining tahlili o’xshatishlarning milliy obrazlilikni ifodalashdagi lingvopoetik ahamiyatini yanada yorqinroq ochib beradi.

9 Mukarramov M. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. 7- 6.

10 Mukarramov M. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. 11- 6.

11 Махмудов Н. Ў

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mukarramov M. *O’zbek tilida o’xshatish*. – Toshkent: Fan, 1983.
2. Qo’ng’urov R. *O’zbek tilining tasviriy vositalari*. – Toshkent: O’qituvchi, 1974.
4. Mahmudov N. “O’xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli.” *Til va adabiyot ta’limi*, 2007, №2.
5. Yoqubbekova M. “O’xshatishning tarkibiy qismlari va ularning tahlili.” *Filologiya masalalari*, 2015, №3.
6. Lafasova M.T. “O’zbek tilshunosligida o’xshatishlarning o’rganilishi: nazariy va amaliy yondashuvlar.” *TDUTAA Ilmiy axboroti*, 2024, №1.

Sevara XOLMUXAMMEDOVA,  
Andijon davlat chet tillari instituti doktoranti

## NOVERBAL KOMPLIMENT IFODASINING SOTSIOSEMIOTIK TALQINI

**Annotatsiya:** maqola komplementning leksikadan tashqari kodlanishini paralingvistik va multimodal vositalar— nigoh, tana holati, ovoz tembri, punktuatsiya, emoji va GIF—orqali tahlil qiladi. Peirs semiotikasi va multimodal diskurs tahliliga tayangan holda besh turdagi resurs tipologiyasi (ikona, indeks, simvol, paralingvistik, multimodal) taklif etiladi. Indeks vositalari (@-belgilash, reaksiyalar, vaqt/joy ko'rsatkichlari) adresativlikni shaxsiylashtirib, ijtimoiy masofani sozlaydi; paralingvistik stilizatsiya (KATTA HARF, cho'zish, prosodiya taqlidi) samimiyat va kinoyani farqlaydi. Natijada o'zbek, ingliz va rus muhitlarida platformalararo noverbal komplementlarni xaritalash uchun amaliy sotsiosemiotik model taklif etiladi; samaradorlik hissiy intensivlik va madaniy kontekst uyg'unligiga bog'liq.

**Kalit so'zlar:** sotsiosemiotika, noverbal komplement, paralingvistika, multimodallik, indekslik, madaniyatlararo pragmatika.

**Annotation:** the article examines how compliments are encoded beyond lexis through paralinguistic and multimodal resources—gaze, posture, vocal timbre, punctuation, emoji, GIFs—across Uzbek, English, and Russian interaction online and face-to-face. Integrating Peircean semiotics with multimodal discourse analysis, it proposes a five-part resource typology (iconic, indexical, symbolic, paralinguistic, multimodal) and shows that indexical devices (@mentions, reaction widgets, time/place anchors) personalize addressivity and calibrate social distance, while paralinguistic stylization (capitalization, elongation, prosody imitation) modulates sincerity versus irony. The study argues that compliment effectiveness depends on the alignment of emotional intensity with cultural context and offers an operational sociosemiotic model for mapping nonverbal compliments across platforms, with implications for intercultural pragmatics and computer-mediated communication.

**Keywords:** sociosemiotics, nonverbal compliments, paralinguistics, multimodality, indexicality, intercultural pragmatics.

**Аннотация:** статья исследует, как комплименты кодируются вне лексики через паралингвистические и мультимодальные ресурсы — взгляд, позу, тембр голоса, пунктуацию, эмодзи и GIF — в узбекском, английском и русском взаимодействии как онлайн, так и офлайн. Интегрируя пирсовскую семиотику с мультимодальным дискурс-анализом, работа предлагает пятичленную типологию ресурсов (иконические, индексальные, символические, паралингвистические, мультимодальные) и показывает, что индексальные средства (@-упоминания, виджеты реакций, временные/пространственные якоря) персонализируют адресативность и калибруют социальную дистанцию, тогда как паралингвистическая стилизация (ПРОПИСНЫЕ, графическое растяжение, имитация просодии) модулирует баланс между искренностью и иронией. Обосновывается, что эффективность комплимента зависит от согласованности эмоциональной интенсивности с культурным контекстом. Предлагается операциональная социосемиотическая модель картирования невербальных комплиментов на разных платформах, релевантная для межкультурной прагматики и исследований компьютерно-опосредованной коммуникации.

**Ключевые слова:** социосемиотика, невербальные комплименты, паралингвистика, мультимодальность, индексальность, межкультурная прагматика.

**Sotsiosemiotika** — bu ijtimoiy belgilarning (ya'ni inson muloqotida ishlatiladigan lingvistik va noverbal vositalarning) qanday tarzda ma'no yaratishini o'rganuvchi fan sohasidir. U semiotika (belgilar nazariyasi) va sotsiologiyaning tutashgan nuqtasida joylashgan bo'lib, madaniyatlararo muloqotda soddalik, iltifot va samimiyat kabi nutqiy qadriyatlarining qanday ifodalanishini izohlaydi.

Sotsiosemiotika nuqtayi nazaridan, **noverbal komplement** — bu nutqiy aktning lingvistik qismiga qo'shimcha ravishda yuz ifodasi, tana harakati, ko'z qarashi, ovoz tembri kabi **paralingvistik belgilar** orqali ifodalanadigan ijobiy baho signali. U madaniy konnotatsiyani, ijtimoiy masofa darajasini va samimiyatni aniqlashda asosiy rol o'ynaydi. Zamonaviy muloqotda bu belgilar nafaqat yuzma-

yuz, balki **onlayn makon** (messenger, ijtimoiy tarmoqlar, videochatlar) orqali ham yetkaziladi.

David Crystalning ta'kidlashicha, "Noverbal vositalar nutqning semantik talqinida so'zlardan ko'ra kuchliroq bo'lishi mumkin, chunki ular hissiy reaksiyani

to'g'ridan to'g'ri faollashtiradi".

Theo van Leeuwen va Gunther Kress esa multimodal muloqotda vizual belgilar (jumladan, emoji va GIF)ning **kontekstual kuchaytiruvchi** sifatida rolini ta'kidlaydi.

| No | Semiotika            | Turi                                  | Misol                      | Manba                                     |
|----|----------------------|---------------------------------------|----------------------------|-------------------------------------------|
| 1. | Ikona                | Emoji, foto, video, GIF               | 😊, 📷, reaction GIF         | Peirce (1931), Kress & van Leeuwen (2006) |
| 2. | Indeks               | "Typing..." indikatori, online status | ... yozmoqda, yashil nuqta | Herring (2013)                            |
| 3. | Simvol               | So'z, hashtag, @mention               | #love, @username           | Crystal (2011)                            |
| 4. | Paralingvistik belgi | Katta harflar, ortiqcha belgilar      | OMG!!!, Noooo              | Dresner & Herring (2010)                  |
| 5. | Multimodal belgi     | Video + matn + musiqa                 | TikTok trend videosi       | Jewitt (2009)                             |

Noverbal komplimentlar – bu tanlangan imoishoralar, tana harakatlari, yuz ifodalari yoki ovoz tembr orqali bildiruvchi **maqtov yoki iliq munosabat**dir. Ular, sotsiosemiotik nuqtayi nazardan, nutqiy aktning nafaqat emotsional, balki **ijtimoiy-ierarxik va madaniy konnotatsiyalarini** ham ifodalaydi. Masalan, tabassum va tanani biroz egish orqali aytilgan "Juda yaxshi ishladingiz!" degan ibora so'z tarkibidagi maqtovdan tashqari, **madaniyatga xos hurmat, diqqat va samimiylilikni** ham yetkazadi.

Hozirgi raqamli zamonda suhbatlarning katta qismi online platforma va ijtimoiy tarmoqlar yordamida amalga oshirilyapti. Bu muloqotga ma'no kuchaytirish, mazmun qo'shish va mulozamatni ifodalash uchun semiotik belgilar xizmat qiladi. Semiotik belgilar o'z navbatida bir necha guruhlardan iborat. Quyida

**onlayn muloqotdagi semiotik belgilarning** ilmiy asoslangan klassifikatsiyasi keltirilgan:

Quyidagi jadval shuni ko'rsatadiki, shu kungacha raqamli tarmoqlarda semiotik belgilar 5 katta guruhga ajratilgan. Har bir guruh belgilari orqali muloqotning ta'sir doirasini kuchaytirish uchun kompliment ishlatiladi, ya'ni mulozamat yoki iltifot ma'nolarini adresatga yetkazib berardi. Bularning ichida eng keng tarqalganlari yozuv orasidagi rasmiy elementlar (emoji) va animatsiyalashgan foto, ya'ni GIFlar.

#### Emoji va GIF lar orqali kompliment

Zamonaviy kommunikatsiyada **emoji va GIF** lar paralingvistik belgilarni to'ldiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Emojilar **intonatsiya va tembr o'rnini** bosadi, ayniqsa matnli platformalarda:

| Ibora                   | Emoji orqali paralingvistik ifoda           |
|-------------------------|---------------------------------------------|
| "You did well."         | "You did well. 👍😊" — Samimiy                |
| «Nice idea...»          | "Nice idea..." — Shubha, kinoya             |
| "You're the best!"      | "You're the best! 🌟👑" — Quvonchli           |
| "Спасибо за помощь!"    | "Спасибо за помощь! 🙏" — Minnatdorchilik    |
| "Chiroyli nutq bo'ldi." | "Chiroyli nutq bo'ldi. 🙌👏" — Maqtov, hurmat |

Noverbal online komplimentlar ham matn bilan birgalikda hamda yolg'iz semiotik birliklar bilan ifodalanadi.

### Ingliz tilidagi 5 zamonaviy misol (emoji yoki GIF bilan)

👏 “You did an amazing job!”  
— Tabassum va koʻz bilan aloqa samimiyatni oshiradi. Zoom uchrashuvlarida ham keng qoʻllaniladi.

😊 “Your new haircut looks great!”  
— Iliq tembr, yuzda quvonch ifodasi bilan — ochiq yaqinlik belgisi.

👁️ “Interesting tie...”  
— Past intonatsiya, ironik yuz ifodasi — kinoya sifatida qabul qilinishi mumkin.

😐 “That presentation was... unique.”  
— Pauza va neytral tembr — ehtimoliy kinoya yoki noaniq baho.

👜 “You always know how to dress well!”  
— Muloyim ohangda aytilganda — samimiy ijobiy baho.

### Oʻzbek tilidagi 5 zamonaviy misol (badiiy va real hayotdan)

🌸 “Siz bugun juda chiroyli koʻrinyapsiz.”  
— Yumshoq tembr, pasayuvchi ohang — muloyim va samimiy.

📄 “Gaplaringiz juda oʻrinli edi.”  
— Past pitch, rasmiy uslub — hurmat belgisi.

👏 “Yaxshi ishlabsizlar...”  
— Pauza bilan, sust ohangda — kinoya boʻlishi mumkin.

🌸 “Mana, hozirgi yoshlarga havas qilsa boʻladi.”  
— Koʻz bilan aloqa va bosh iringʻash — samimiy iliqlik ifodasi.

👏 “Suhbatingizdan zavq oldim.”  
— Past balandlik va iliq tembr — yaqinlik belgisi.

**Rus tilidagi 5 zamonaviy misol**  
🌸 “Ты сегодня просто великолепна!”  
— Yuqori pitch va ekspressiv yuz ifodasi — ochiq ijobiy kompliment.

😊 “Ну ты молодец...”  
— Past pitch, ironik ohang — kinoya.

🤔 “Очень интересно сказано.”  
— Neytral tembr va pauza — ehtiyotkorlik yoki noaniqlik.

👉 “Ты был лучшим на этой встрече.”  
— Tabassum bilan — samimiy tan oluv.

👦 “Какой умный мальчик!”  
— Ohang va yuz ifodasiga qarab — haqiqiy yoki kinoya sifatida talqin qilinadi.

Paralingvistik belgilar — bu **komplimentning pragmatik interpretatsiyasini shakllantiruvchi asosiy omildir**. Ular kontekst, madaniyat va sotsiopragmatik holatlarga qarab turlicha maʼno kasb etadi. Shuning uchun, lingvistik struktura bilan birga **mimika, intonatsiya, tembr, emoji, tana harakati** kabi belgilarni tahlil qilish zarurdir. Ular yordamida chinakam iltifot bilan kinoya, samimiy eʼtirof bilan rasmiy muomala oʻrtasidagi farqni ajratish mumkin.

### Sotsiosimvolikadagi indekslar orqali komplimentlarning ifodalanishi

Semiotika nuqtayi nazaridan, **indeks** — bu fizik yoki mantiqiy sabab–natija munosabati orqali maʼno ifodalovchi belgi. C.S. Peirce taʼrificha, indeks belgining manbasi va obyekti oʻrtasida **bevosita aloqa** mavjud boʻladi — masalan, tutun yongʻin belgisi boʻlsa, koʻz qarashi eʼtibor yoki hissiyot belgisi boʻlishi mumkin.

**Sotsiosimvolika** esa ijtimoiy belgilar tizimini va ularning madaniy kodlar orqali ishlashini oʻrganadi. Bu yondashuvda indeks belgilar insonlar oʻrtasidagi **ijtimoiy identifikatsiya va munosabatni kontekstual belgilash** vositasi sifatida koʻriladi.

*Indeks belgilar orqali komplimentning ifodalanish mexanizmi*

Komplimentlarda indeks belgilar **adresatni aniqlashtirish, samimiyligni oshirish va ijtimoiy vaziyatga moslashtirish** uchun ishlatiladi. Ular quyidagi asosiy toifalarga boʻlinadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Crystal, David. *Internet Linguistics: A Student Guide*. Routledge, 2011.
2. Dresner, Eli, and Susan C. Herring. “Functions of Emoticons in Computer-Mediated Communication.” *Communication Theory*, vol. 21, no. 3, 2010, pp. 249–268.
3. Jewitt, Carey, editor. *The Routledge Handbook of Multimodal Analysis*. Routledge, 2009.
4. Kress, Gunther, and Theo van Leeuwen. *Reading Images: The Grammar of Visual Design*. 2nd ed., Routledge, 2006.
5. Peirce, Charles S. *Collected Papers of Charles Sanders Peirce*. Edited by Charles Hartshorne and Paul Weiss, and Arthur W. Burks, Harvard University Press, 1931–1958.

Sarvinov ASHURBAEVA,

Qo'qon davlat universiteti tayanch doktoranti

Ilmiy maslahatchi: Nargiza UMAROVA, filologiya fanlar doktori, FarDU professori.

## METAFORA DUNYONI KONSEPTUAL ASOSDA ANGLASH VA TIZIMLASHTIRISHNING VOSITASI SIFATIDA

**Annotatsiya:** maqolada metaforaning inson tafakkurida dunyoni konseptual asosda anglash, tasniflash va tizimlashtirishdagi roli tahlil etilgan. Muallif metaforani oddiy badiiy ifoda vositasi sifatida emas, balki kognitiv jarayonlarni tashkil etuvchi konseptual mexanizm sifatida ko'radi. Tadqiqotda J. Lakoff va M. Jonsonning konseptual metafora nazariyasi hamda lingvokulturologik yondashuvlar asosida metaforaning til tizimidagi semantik va madaniy vazifalari yoritiladi. Metafora inson tafakkurining universal modeli bo'lib, u orqali inson abstrakt tushunchalarni konkret tajribalar orqali idrok etadi, natijada til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik namoyon bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** *metafora, konseptual tafakkur, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, semantika.*

**Annotation:** the article analyzes the role of metaphor in understanding, classifying, and structuring the world on a conceptual basis within human cognition. The author argues that metaphor is not merely a stylistic device but a conceptual mechanism that shapes cognitive processes. Based on the conceptual metaphor theory proposed by G. Lakoff and M. Johnson and supported by linguocultural approaches, the study examines the semantic and cultural functions of metaphor in language. Metaphor is viewed as a universal model of human cognition that allows individuals to perceive abstract notions through concrete experiences, revealing the integral connection between language, thought, and culture.

**Key words:** *metaphor, conceptual thinking, cognitive linguistics, linguoculturology, semantics.*

**Аннотация:** в статье анализируется роль метафоры в концептуальном осмыслении, классификации и систематизации мира в человеческом сознании. Автор рассматривает метафору не только как художественное средство, но и как концептуальный механизм, формирующий когнитивные процессы. На основе теории концептуальной метафоры Дж. Лакоффа и М. Джонсона, а также лингвокультурологических подходов исследуются семантические и культурные функции метафоры в языке. Метафора трактуется как универсальная модель человеческого мышления, позволяющая осмысливать абстрактные понятия через конкретный опыт, что раскрывает взаимосвязь между языком, мышлением и культурой.

**Ключевые слова:** *метафора, концептуальное мышление, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, семантика.*

KIRISH. Jahon tilshunosligida olamning lisoniy manzarasini yaratishda til unsurlarining o'rni va ularning ifoda imkoniyatlari masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan falsafa, adabiyot, mantiq, ritorika kabi bir qator fanlar obyekti bo'lgan tushuncha va kategoriyalar, xususan, "metafora" kategoriyasining lingvistik tadqiqi ham tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri sifatida qaralmoqda. Filologiya ilmidagi avvallari oddiy bir stilistik vosita sifatida o'rganilgan metafora bugungi kunda inson tafakkurining konseptual modeli va muayyan davr madaniyatining atributi darajasiga ko'tarilgan muhim kategoriyalardan biri sifatida tadqiq etilmoqda.

MATERIALLAR VA METODLAR. Rim faylasufi va davlat arbobi Sitseron (miloddan avvalgi 106–43-yillar) o'zining mashhur "Notiq" asarida allegoriya tushunchasiga quyidagicha izoh beradi: "metaforaning ko'p marotaba qo'llanishi yunonlar tomonidan

*allegoriya deb ataladi.*" Muallif allegoriyani ko'plab metaforalardan tashkil topgan ritorik vosita sifatida sharhlar ekan, u metafora bilan allegoriya o'rtasidagi semantik va funksional yaqinlikni ko'rsatadi. Natijada, har ikki ifoda shaklining o'zaro uzviy bog'liqligi hamda badiiy nutqdagi umumiy estetik mohiyati yaqqol namoyon bo'ladi. [7.1] Metafora (yunoncha "ko'chirish" degan ma'noni bildiradi) — o'xshashlik asosida bir narsa yoki hodisaning nomini boshqasiga ko'chirish orqali yangi ma'no hosil qiluvchi badiiy ifoda vositasidir. Masalan, inson tanasining ayrim qismlari yoki belgilari ko'pincha jonlantirish, o'xshatish yo'li bilan tabiat hodisalari, narsalar yoki boshqa tushunchalarga nisbatan qo'llanadi: *oltin kuz, temir irodali odam, quvonchdan yongan ko'zlar, dengizning quchog'i* kabi iboralar bunga misol bo'la oladi. Bunda bir predmet yoki hodisaning belgilari boshqasiga o'tkazilib, obrazlilik va ifodaviylik kuchaytiriladi.

Metafora ko'proq inson tana a'zolari (bosh, ko'z, yurak, qo'l, til va boshqalar) orqali ifoda topadi. Shuningdek, u jamiyat hayoti, tabiat hodisalari, hissiy kechinmalarni ifodalashda keng qo'llaniladi. Masalan, *osmon kulib turardi, tog'lar uxladi, shamol qo'shiq aytardi* kabi misollar badiiy nutqda metaforik ifoda vositasining tabiiy ko'rinishlaridir. Misol uchun *"Ko'k yuzida qush izlari qorayib borar, go'yo bulutlar to'p-to'p qilib yurardi. Yozning issig'ida ham rahm-shafqat qilmaydigan quyosh so'nmas olovday charaqlardi. Quyoshning nuri ostida har bir daraxt soyasini qisqartirib, odamlarni issiqqa toblardi"*. [6.65]

Bu misolda "qush izlari", "quyosh so'nmas olovday", "daraxt soyasi qisqaradi" kabi ifodalar orqali jonli tasvir yaratilgan bo'lib, metaforaning badiiy-estetik imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi. Metaforaning qo'shimcha misollari ham badiiy adabiyotda keng uchraydi. Quyidagi parchalar shunday badiiy ko'chirishning yorqin namunasi:

*Manfaatni boshda, rostini aytsam,  
 Jahon bobokalonining yuzimiz, yuzin.*

(G'ofur G'ulom)

*Bo'ykaro irimshumoldan ishtak otilsa,  
 Jahonga boqanda misol bo'la sher.*

*Xirot aravzosasi bir qanotida*

*She'riyat asparining tizgini Adibber.* (A. Oripov) kabi qator misollarda metaforik ifodalar orqali inson hissiyotlari, tabiat manzaralari hamda ijtimoiy hodisalarning obrazli talqini berilgan. Masalan, "tong qushisa kuyicha sayrardi" birikmasida tongning jonlantirilgan holatda tasviri insoniy kechinmalar bilan uyg'unlashadi; "nuragan tosh, ko'z tahlidan" iborasida esa ruhiy og'riq va iltirob ramziy shaklda ifodalanadi. Badiiy nutqda, xususan she'riyatda, metafora estetik vosita sifatida nafaqat tasviriylikni, balki muallif dunyoqarashi va kechinmasining badiiy ifodasini ham kuchaytiradi. Shu jihatdan metafora san'atning asosiy semantik mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

**IZLANISH VA MUHOKAMALAR.** Metafora inson tafakkurining eng qadimiy va samarali kognitiv mexanizmlaridan biri sifatida dunyoni konseptual asosda anglash va tizimlashtirishda muhim o'rin egallaydi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab metaforani nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki fikrlash va bilish jarayonining konseptual modeli sifatida o'rganish tendensiyasi kuchaydi. Ayniqsa, J. Lakoff va M. Jonsonning "Metaphors We Live By" (1980) asari metafora tahlilini semantik darajadan kognitiv darajaga ko'tardi. Ularning fikricha, metafora inson tajribasini tartibga soluvchi, real borliqni konseptual kategoriyalar orqali tushunishga yordam beruvchi asosiy mental mexanizmdir.

Tilshunoslikda olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, metafora inson tafakkurida dunyo modelini yaratish va uni tildagi ifodalar orqali mustahkamlashga xizmat qiladi. Metaforik konseptlar turli madaniy kodlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular milliy tafakkurdagi qadriyatlar tizimini, dunyoqarashni va hissiy tajribani ifodalaydi. Shu boisdan ham metafora lingvokulturologik tadqiqotlarda "madaniy konseptualizatsiya vositasi" sifatida alohida o'rganiladi. Masalan, "hayot — yo'l", "vaqt — boylik", "ilm — nur" kabi metaforalar inson ongida dunyoni ma'lum bir model asosida tartibga soladi. Metaforaning tizimlashtiruvchi xususiyati ham e'tirof etiladi. U faqat alohida so'z yoki ifoda emas, balki konseptual tarmoqlarni hosil qiluvchi kognitiv struktura sifatida namoyon bo'ladi. Metafora yordamida inson abstrakt tushunchalarni konkret hodisalar bilan bog'laydi, natijada tushuncha doirasi kengayadi va bilimlar ierarxiyasi shakllanadi. Bu holat G. Lakoff tomonidan "konseptual metafora nazariyasi"da asoslab berilgan bo'lib, u metaforani tafakkurning "mexanizmi" deb ataydi. Adabiyotshunoslikda ham metafora dunyoni idrok etishning badiiy shakli sifatida talqin etiladi. Yozuvchi yoki shoir uchun metafora — bu tasviriy vosita emas, balki estetik konseptualizatsiya vositasi, ya'ni muallifning dunyoqarashini, ruhiy holatini, ijtimoiy pozitsiyasini va madaniy tajribasini tildagi obrazlar orqali ifoda etishning shaklidir. Demak, metafora nafaqat til birliklarini bezatuvchi estetik unsurlar majmui, balki inson tafakkurida dunyo manzarasini yaratish, uni mantiqan tizimlashtirish va madaniy idrokni shakllantirishga xizmat qiluvchi konseptual mexanizmdir. Shu sababli zamonaviy tilshunoslik, adabiyotshunoslik va kognitiv fanlarda metafora konseptual tahlilning markaziy obyektlaridan biri sifatida o'rganilishi davom etmoqda.

**XULOSA.** Metafora inson tafakkuri va til tizimining ajralmas qismi sifatida dunyoni konseptual asosda anglash, tasniflash va ifodalashning universal vositasidir. U faqat badiiy nutqda obraz yaratish uchun emas, balki inson ongida voqelikni tushunish, tajribani umumlashtirish hamda bilimni tartibga solish jarayonida faol ishlaydigan kognitiv mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. U orqali inson murakkab abstrakt tushunchalarni sezilarli, idrok etiladigan shaklda ifoda etadi. Shu yo'l bilan u konseptual tafakkurning strukturasi va dinamikasini belgilaydi. Turli madaniyatlarda shakllangan metaforik modellar milliy tafakkur, qadriyatlar va dunyoqarashni yoritadi; shu sababli metafora lingvokulturologik tahlilning markaziy obyekti sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan esa, metafora — yozuvchi yoki shoirning badiiy tafakkurini, estetik dunyoqarashini va shaxsiy kechinmalarini konseptual shaklda ifodalash vositasi hisoblanadi. Demak, metafora til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beruvchi, inson va dunyo o'rtasidagi muloqotning konseptual ko'prigi sifatida talqin etilishi lozim.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, metafora tildagi estetik vosita emas, balki fikrlash jarayonining asosiy kognitiv modeli sifatida e'tirof etiladi. U inson tafakkuridagi abstrakt tushunchalarni konkret tajriba asosida tushuntirishga xizmat qiladi va shu orqali tildagi ma'nolar tizimini shakllantiradi. Metafora tildagi semantik aloqalarni faollashtiradi,

yangi ma'no hosil bo'lishining mexanizmini yaratadi hamda konseptual maydonlar o'rtasida mantiqiy bog'lanish o'rnatadi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslikda metafora til va tafakkur o'rtasidagi integrativ mexanizm sifatida izohlanadi. Chunki metafora tilda mavjud so'z va birikmalar orqali inson ongidagi bilimlarni qayta tuzadi, yangi konseptual modellar yaratadi. Shunday qilib, tilshunoslikda metafora semantik kengayish, ma'no ko'chishi va konseptual modellashtirishning markaziy mexanizmi hisoblanadi. U nafaqat so'zlarning obrazli qo'llanilishini, balki inson tafakkurining qanday ishlashini ham yoritadi. Shu jihatdan metafora tilshunoslikda ma'no hosil qilish, bilish va muloqot jarayonlarining kognitiv asosi sifatida alohida ilmiy ahamiyatga ega.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rajapova, M. A. (2025). Badiiy matnda qo'llanuvchi allegorik vositalarning lingvokulturologik xususiyatlari [Doktorlik dissertatsiyasi, Qo'qon davlat universiteti]. Qo'qon davlat universiteti.
2. Parmonov, A. A. (2024). Badiiy diskursda kinoya va uning lingvokulturologik tahlili [PhD dissertatsiyasi, Qo'qon davlat pedagogika instituti]. Qo'qon davlat pedagogika instituti.
3. Mahmudov Nizomiddin. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. № 5, 3–16- bet.
4. Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2001.
5. Yuldasheva, D. A. (2017). Innovative methods of teaching English to young children. Molodoy uchenyy, (4.2), 138-2..
6. Shodmon, S., & Qahramon, T. (2009). Adabiyotshunoslik atamalarining qisqacha izohli lug'ati (o'rta maktab va akademik litsey o'quvchilari, oliy o'quv yurtlari talabalari, abituriyentlar hamda adabiyot muallimlari uchun qo'llanma). – Buxoro: Buxoro nashriyoti.
7. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/adabiyot/notiqlik-san-ati-tarixidan-1>
8. Aliyevna, Y. D. (2023). THE ISSUE OF THE SUBJECT AND ITS RELATION TO SYNTACTICS AND SEMANTICS. Gospodarka i Innowacje, 36, 214-217.
9. Aliyevna, Y. D. (2023). CATEGORIZATION OF LANGUAGE UNITS. Gospodarka i Innowacje, 36, 343-345.
10. Aliyevna, Y. D., & Omarovna, S. G. (2023). LEXICAL CONVERSION AND ITS REALIZATION. Gospodarka i Innowacje, 36, 346-350.
11. RAJAPOVA, M. (2023). Allegorik vositalarning lingvokognitiv va lingvopragmatik xususiyatlari. Я ПРЕПОДАВАНИЕ, 197.
12. Rajapova, M. A. (2021). The usage of cognitive metaphor and allegory in discourse. Экономика и социум, (1-1 (80)), 232-233.
13. Haydarova, G. (2024). ALISHER NAVOIY AN'ANALARI VA XX ASR O'ZBEK G'AZALIYOTI. Alisher Navoi and 21 st century, 1(1).
14. Хайдарова, Г. (2021). СОБИР АБДУЛЛА, ЧАРХИЙ ВА ҲАБИБИЙ ҲАЗАЛЛАРИДА ТАСВИР ВА ТАЛҚИН МАСАЛАЛАРИ. Журнал Горизонты Филологии, 6(6).

O'g'iloy ISROILOVA,  
Qarshi davlat universiteti doktoranti  
e-mail: [farhodovafarangiz@gmail.com](mailto:farhodovafarangiz@gmail.com)

## BARDOSHLIK KONSEPTINING EKSPLITIV VA BADIY DISKURSIV SHAKLLARI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada bardoshlik konseptining eksplitiv hamda badiiy diskursiv shakllari tahlil qilindi. Eksplitiv diskurs ilmiy va aniq ta'riflarni, badiiy diskurs esa insoniy his-tuyg'ular orqali tushunchani yoritadi. Ikkala shakl jamiyat va madaniyatda bardoshlik tushunchasining o'zaro to'ldiruvchi qirralarini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** *bardoshlik, konsept, eksplitiv diskurs, badiiy diskurs, ijtimoiy psixologiya, adabiyot, stressga chidamlilik, ruhiyat, madaniyat, fazilat*

**Annotation:** this article analyzes the explicit and artistic discursive forms of the resilience concept. The explicit discourse provides scientific and clear definitions, while the artistic discourse reveals the concept through human emotions. Both forms complement each other in society and culture.

**Key words:** *resilience, concept, explicit discourse, artistic discourse, social psychology, literature, stress resistance, psyche, culture, virtue*

**Аннотация:** в статье рассматриваются эксплитивные и художественные дискурсивные формы концепта устойчивости. Эксплитивный дискурс представляет собой научные и четкие определения, а художественный — раскрывает понятие через человеческие эмоции. Обе формы взаимодополняют друг друга в обществе и культуре.

**Ключевые слова:** *устойчивость, концепт, эксплитивный дискурс, художественный дискурс, социальная психология, литература, стрессоустойчивость, психика, культура, добродетель*

**Kirish.** Bardoshlik inson hayotida muhim madaniy va psixologik tushuncha hisoblanadi. U nafaqat shaxsning ruhiy holatini ifoda etuvchi sifatida, balki jamiyatning umumiy ijtimoiy strukturasi va madaniy qadriyatlari orqali shakllanadigan murakkab fenomen sifatida ham qaraladi. Bardoshlik tushunchasi har xil jamiyatlarda ijtimoiy xulq-atvorning asosi sifatida ko'riladi hamda individual va jamoa o'rtasidagi munosabatlarni boshqarishda markaziy rol o'ynaydi. Bu tushuncha shaxsning qiyinchiliklar, stresslar va bosimlarga qanday munosabatda bo'lishini, ularni yengish uchun qanday strategiyalar qo'llashini aniqlaydi, shuningdek, ijtimoiy muvozanat va barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega [1:23].

Bardoshlik konseptining eksplitiv va badiiy diskursiv shakllari esa bu tushunchani turli ko'rinishlarda va turli maqsadlarda yoritishga xizmat qiladi. Eksplitiv diskurs aniq, ilmiy va rasmiy matnlar orqali bardoshlikni tizimlashtirilgan, metodologik jihatdan asoslangan tarzda taqdim etsa, badiiy diskurs esa bu tushunchani inson hayotining ichki kechinmalari, ruhiy tajribalar va madaniy kodlar kontekstida, so'z san'ati namunalari va badiiy asarlar orqali boy va chuqur ifodalaydi. Shu tariqa, eksplitiv va badiiy diskurslar bir-birini to'ldirgan holda, bardoshlik konseptiyasining nafaqat bilim beruvchi, balki hissiyotlardagi qiyinchiliklarni ham aks ettiruvchi kompleks tizim ekanligini ochib beradi [1:23].

Ushbu ikki shakl orqali bardoshlikning ijtimoiy va individual o'lchamlari, shuningdek, madaniy kontekstdagi o'zgaruvchanligi va o'ziga xos xususiyatlari yanada aniqroq tushuniladi hamda qadrlanadi. Natijada,

bardoshlik konsepti nafaqat psixologik nazariya va ilmiy tadqiqotlarda, balki madaniyatshunoslik, adabiyotshunoslik va boshqa ijtimoiy fanlarda ham muhim o'rin egallaydi [1:24]

### Bardoshlik tushunchasi va uning ijtimoiy ahamiyati

Bardoshlik — shaxsning turli tashqi va ichki qiyinchiliklarga, stresslarga chidamlilik ko'rsatkichi sifatida ta'riflanadi. Bu konsept ijtimoiy psixologiya, adabiyot, etika va falsafa sohalarida turlicha ko'rinishlarda ifodalanadi [1:45]. Ijtimoiy normalar va qadriyatlar doirasida bardoshlik odil va barqaror jamiyatni yaratishda muhim omildir. Shu bilan birga, bardoshlik shaxsning ongli ravishda o'zini boshqarish, muammolarni konstruktiv tarzda hal qilish hamda boshqalar bilan samarali munosabatlar o'rnatish qobiliyatini ifodalaydi. Bu xususiyat jamiyatdagi innovatsiyalarni qabul qilish, o'zgarishlarga moslashish va murakkab vaziyatlarda barqarorlikni saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, shaxs hamda jamoaning rivojlanishiga xizmat qiladi.

### Eksplitiv diskursiv shakllar

Eksplitiv diskurs — ilmiy, rasmiy, ta'limiy va huquqiy kontekstda bardoshlikni aniq va ravshan ifoda etuvchi matnlarni o'z ichiga oladi. Bunday shakllarda bardoshlik ko'pincha psixologik tushuncha sifatida taqdim etilib, uning tashkiliy, siyosiy va psixologik omillari tahlil qilinadi. Masalan, "bardoshlik — insonning stress va qiyinchiliklarga nisbatan reaksiyasi" deb aniq ta'rif berilishi [2:13] mumkin.

Eksplitiv diskursda ma'lumotlar statistik, kognitiv va ilmiy dalillar bilan asoslanadi. Shu bois, bu shakl psixologik tadqiqotlar, ijtimoiy so'rovlar, ekspert fikrlari orqali bardoshlik konseptining ilmiy asosini yaratadi.

#### **Badiiy diskursiv shakllar**

Badiiy diskurs bardoshlikni insoniy tajriba va his-tuyg'ular orqali ifodalaydi. Adabiyot, teatr, kino va san'atda bardoshlik mavzusi insonning ruhiy kurashi, umid va umidsizlik, imanlar va ma'siyatlar orqali tasvirlanadi. Misol uchun, o'zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy, Hikmat Bobojon kabi yozuvchilarning asarlarida bardoshlik insoniy fazilat sifatida keng yoritiladi[3:54]. Badiiy diskursda simvolik, metafora, epitaf kabi adabiy vositalar qo'llanib, bardoshlik konsepsiyasi unga ruhiy-axloqiy ma'no bag'ishlaydi. Bu shaklda konseptning psixologik va estetik qirralari ochib beriladi. Shu bilan birga, badiiy diskurs bardoshlikni shaxsning ichki dunyosidagi murakkab kechinmalar orqali qiyinchiliklarga qanday bardosh berishini, inson ruhining zaifliklari va kuch-quvvatlari o'rtasidagi ziddiyatni yoritishda muhim vosita hisoblanadi. Badiiy asarlar orqali o'quvchi yoki tomoshabin bardoshlikning nafaqat tashqi ko'rinishini, balki uning chuqur ma'naviy va ichki qatlamlarini ham anglab yetadi.

#### **Bardoshlik konseptining o'zbek adabiyotidagi ifodasi**

O'zbek badiiy madaniyatida bardoshlik mavzusi ko'plab she'riy va nasriy asarlarda o'z aksini topgan. Hikmat Bobojon ijodida bardoshlik, qahramonlik tushunchalari o'zaro chambarchas bog'liqdir, chunki insonning bardoshligi uning irodasining va ruhiyatining ko'rsatkichidir[4:67]. Masalan, Bobojon she'rlarida "Qiyinchiliklardan so'ng yorug'lik kelar" degan g'oya bardoshlik bilan bog'liq asosiy motiv sifatida ishlatiladi.

Bundan tashqari, o'zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy, Cho'lpon va boshqa yozuvchilarning asarlarida ham bardoshlik insonning og'ir sinovlarga qarshi kurashish qobiliyati, milliy ruh va umid ramzi sifatida keng yoritilgan. Ushbu asarlar orqali bardoshlik nafaqat individual qahramonlik, balki butun xalqning tarixiy va madaniy tajribasining muhim elementi sifatida namoyon bo'ladi.

#### **Eksplitiv va badiiy diskurslarni solishtirish**

Eksplitiv diskurs ilmiy va aniq bo'lishi bilan farq qilsa, badiiy diskurs chuqur hissiyot va estetik did bilan bog'liqdir. Eksplitiv diskursdagi bardoshlik tushunchasi ko'proq umumlashtirilgan va faktlarga asoslangan bo'lsa,

badiiy diskurs tabiatan individual va subyektiv. Biroq, ikkalasi o'rtasida o'zaro bog'lovchi ko'priklar mavjud bo'lib, badiiy asarlardagi obrazlar ilmiy tushunchalarni yanada boyitadi va keng auditoriyaga tushunarli qiladi[5:90].

Shuningdek, eksplitiv va badiiy diskurslar o'zaro integratsiya qilish orqali nafaqat bardoshlik konsepsiyasining ilmiy asoslarini mustahkamlaydi, balki uning insoniy va madaniy qirralarini teranroq yoritib, konseptning jamiyatda yanada kengroq va samimiyoq qabul qilinishini ta'minlaydi.

#### **Bardoshlik konseptining kundalik hayotdagi ahamiyati**

Bardoshlik insonning o'zini boshqarish qobiliyatini oshirib, stressli vaziyatlardan chiqish yo'llarini izlashga yordam beradi. Shu sababli ishchi muhiti, ta'lim dasturlari va sog'liqni saqlash strategiyalarida bardoshlik rivojlantirish konsepti joriy qilinmoqda[6:112]. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatda tezkor o'zgarishlar va murakkab talablar ostida shaxslarning ruhiy holatini barqaror tutish, ish samaradorligini oshirish va salomatlikni saqlash maqsadida bardoshlikning me'yoriy va amaliy jihatlari keng tadqiq qilinmoqda. Bu jarayonda psixologik treninglar, stress bilan kurashish texnikalari va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari muhim vosita sifatida ishlatiladi, buning natijasida shaxslar yanada mustahkam, ijodkor va moslashuvchan bo'lib yetishadi.

**Xulosa.** Bardoshlik konseptining eksplitiv va badiiy diskursiv shakllari insoniyatning ruhiy va ijtimoiy hayotidagi qiyinchiliklarni yengish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Eksplitiv shakllar ilmiy asoslar yaratadi, badiiy shakllar esa ushbu tushunchani insoniy, hissiy qirrada boyitadi. Ikkalasi ham jamiyat va shaxs taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ushbu ikki shakl o'zaro uzviy bog'lanib, murakkab zamonaviy muammolarni hal qilishda ko'p qirrali yondashuvlarni taqdim etadi.

Eksplitiv diskurs orqali olinadigan bilimlar amaliy sohada qo'llanilib, psixologik maslahatlar, ta'lim dasturlari va ijtimoiy siyosat shakllantiriladi, badiiy diskurs esa ushbu nazariy bilimlarni kengroq auditoriyaga yetkazish va individual tajribani chuqurlashtirish imkonini beradi. Natijada, bardoshlik konsepti nafaqat nazariy jihatdan rivojlanadi, balki hayotiy qiyinchiliklarga bardosh berish va ularni yengish uchun amaliy vosita sifatida ham shakllanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov Sh. Bardoshlik va uning ijtimoiy o'lchamlari. Ijtimoiy fanlar jurnali. 2020. 12(3), 40-50.
2. Tursunov O. Stress va bardoshlik: psixologik yondashuv. Psixologiya va pedagogika. 2019. 5(2), 10-20.
3. Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: O'zbekiston, 1935.
4. Bobojon, H. Bardoshlik va inson ruhiyati. Adabiyot va san'at, 1978.9(1), 60-70.
5. Islomov D. Eksplitiv va badiiy diskurs: solishtirma tahlil. Madaniyatshunoslik jurnali. 2021.8(4), 85-95.
6. Rasulov, M. Bardoshlikni rivojlantirish strategiyalari. Psixologik tadqiqotlar. 2022.14(6), 110-120.

Malika BERDIYEVA,  
ToshDO'TAU 2-bosqich tayanch doktoranti

## KO'RSATISH OLMOSHLARINING VAZIFAVIY USLUBLARDA QO'LLANILISHI

**Annotatsiya:** mazkur maqolada ko'rsatish olmoshlarining vazifaviy uslublari: so'zlashuv, badiiy, ilmiy, rasmiy uslublarda qo'llanilishi o'rganilgan. Ayrim ko'rsatish olmoshlari va ularning sinonimlari, variantlarining ma'lum uslubga xoslanib, emotsional-ekspressivlik ottenkalarini hosil qilishi misollar bilan tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** *ko'rsatish olmoshlari, vazifaviy uslublari, sinonimiya, variantlilik, stilistik farqlar, ifodaviylik.*

**Annotation:** this article examines the usage of demonstrative pronouns across functional styles: colloquial, literary, scientific, and formal. The analysis, supported by examples, explores how certain demonstrative pronouns and their synonyms or variants become characteristic of particular styles and convey emotional-expressive nuances.

**Key words:** *demonstrative pronouns, functional styles, synonymy, variation, stylistic differences, expressiveness.*

**Аннотация:** в данной статье исследуется употребление указательных местоимений в функциональных стилях: разговорном, художественном, научном и официальном. На примерах анализируются некоторые указательные местоимения, их синонимы и варианты, характерные для определенного стиля, а также их роль в создании эмоционально-экспрессивных оттенков.

**Ключевые слова:** *указательные местоимения, функциональные стили, синонимия, вариативность, стилистические различия, выразительность.*

O'zbek tilida olmoshlar, xususan, ko'rsatish olmoshlari (variantlari bilan) funksional uslublarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi va ularning qo'llanilishida ayrim stilistik farqlar ko'zga tashlanadi. Masalan, unday, bunday, shunday kabi ko'rsatish olmoshlarning undoq, unaqa, bundoq, bunaqa; shundoq, shunaqa, shundaqangi, shunaqangi, anavinaqa, manavinaqa tarzida qo'llanilishi so'zlashuv nutqiga xos bo'lsa, u, bu, shu, o'sha olmoshlarining ul, bul, shul, o'shal kabi tarixiy shakllari badiiy matnlarda qo'llanilishi bilan ajralib turadi: Bundoq ochilibroq o'tirsang-chi, oshna. Bunaqa gaplaringni qo'ygin. Shundoq ham bankrot bo'lay deb turibman-u. Shundaqangi gaplarni gapiradiki, attorning qutisida yo'q (So'zlashuv). So'zlashuv nutqida ana u, mana u, mana bu birikmalarining anu, anov, anuv, manov, manovi kabi fonetik jihatdan o'zgargan shakllari uchrab turadi. Shu holatda ular xalq og'zaki ijodiga ko'chadi: Durustroq biroving borib anov tentakning boshini olib, tag'i uchovining boshini kesib keling ("Yakka Ahmad"). Bu holatni ba'zan badiiy matnlarda ham uchratish mumkin: Anov chamanlarda gul terardilar, / Anov tosh ustida o'ltirardilar (E.Vohidov) kabi. So'zlashuv nutqida ko'rsatish olmoshlari juft holda qo'llanilib, noaniqlik, mavhumlik ottenkalarini keltirib chiqaradi: U-bu deb boshini aylantirdi. U-buni bahona qilib, olgan qarzini bermay ketdi. Badiiy matnlarga shu ma'nolari bilan ko'chadi: – Ertaga bozor-ku, olib chiqadigan ul-bullarimni ko'rib o'tiruvdim (X.Sultonov). Ba'zan juft holda qo'llanilib, zo'r, rosa kabi so'zlarga yaqin ma'nolarni ifodalaydi: – O'xshatibdi! O'xshatsa-da, ulay-bulay o'xshatmabdi! – dedi (T.Murod). So'zlashuv uslubida o'sha, shu ko'rsatish olmoshlari takrorlanib, ta'kid, kuchaytirish ma'nolarini ifodalaydi. Masalan, o'sha

olmoshi takrorlanib, "o'zgarmagan", "oldingiday" degan so'zlarga yaqin ma'nolarni ifodalaydi: Haliyam ozib-netib ketganim yo'q, vaznim o'sha-o'sha (M.Do'st). O'zbek tili funksional uslublarning biri sifatida qaraladigan rasmiy uslub davlat-ma'muriy, huquqiy muassasalarida, rasmiy diplomatik munosabatlarda qo'llaniladi va unda adabiy til me'yorlariga to'liq amal qilinadi [Karimov S., Mamatov X., Bo'riyev I., 2004]. Rasmiy uslubga xos bo'lgan aniqlik, tushunarlilik, fikrlarning bir qolipda bayon etilishi kabi xususiyatlar unda til materialidan foydalanishga, jumladan, ko'rsatish olmoshlarini qo'llashga ham muayyan talablar qo'yadi. Masalan, bundoq, bunaqa, shundoq, shunaqa, shundaqangi, shunaqangi, u-bu kabi ma'lum darajada ekspressivlik ottenkasi bo'lgan olmoshlar rasmiy uslub tabiatiga mos kelmaydi, shuning uchun rasmiy-ish hujjatlarida bunday ko'rsatish olmoshlari ishlatilmaydi. Ko'rsatish olmoshlar orasida ushbu olmoshining rasmiylik ottenkasi kuchlidir. Shu sababli u rasmiy uslubda faol qo'llaniladi: Ushbu Protokolda nazarda tutilayotgan xabarlarni ko'rib chiqayotganda Komitet majlisi yopiq bo'ladi. (Fakultativ protokol). Mazkur olmoshini rasmiy uslubga xoslangan deb ayta olamiz: Mazkur Paketda ishtirok etuvchi davlatlar ushbu Paketning shu qismiga muvofiq mazkur Paketda tan olingan huquqlarga rioya etishga erishish borasida ko'rilayotgan tadbirlar hamda siljishlar haqida ma'ruzalar taqdim etish majburiyatini oladi (Xalqaro Pakt). Kichik bir matnning o'zida ko'rsatish olmoshlarni qo'llashga bo'lgan ehtiyoj ularning sinonimik variantlariga murojaat qilishni taqozo etadi. Turli matnlarda o'ziga xos tarzda ishtirok etadigan olmoshlarning ilmiy uslubda qo'llanilishi shu uslub xususiyatlaridan kelib chiqadi. "Ilmiy stilda fikr ifodalash usuli ham boshqachadir. Uni badiiy

yoki so'zlashuv nutqlariga qiyoslasak, o'rtadagi farq yanada konkretlashadi. Ilmiy asar obyektiv haqiqatni logik tafakkur, mantiqiylik orqali aks ettiradi. Shuning uchun ilmiy adabiyot boshidan oxirigacha asosan muhokama yuritish va isbotlashdan iborat bo'ladi" [Mukarramov M., 1984: 17]. Shuningdek, ilmiy bayonda uning muallifi birinchi o'rinda turmasligi, fikrning umumga qaratilganligi, ko'pincha majhul nisbatda ifodalanishi, unda faqat monologik nutq shaklidan foydalanilishi matn tarkibida olmoshlarning ham o'ziga xos o'rnini belgilab beradi. Ko'rsatish olmoshlarining ilmiy uslubda qo'llanilishida ham ma'lum chegaralanganlik seziladi. Boshqa uslublarga tegishli bo'lgan bundoq, bunaqa, buncha, shundoq, shunaqa, shundaqangi, shunaqangi kabi birliklar ilmiy matnlarga xos emas. U, ular, bu, shu, o'sha birliklari esa ilmiy uslubda qo'llaniladi: Albatta, bu ikkala model faqat nazariydir, amaliyotda ular sof ko'rinishda mavjud emas, inson ziddiyatli mavjudot, u o'zida ham birinchi, ham ikkinchi modellar sifatini birlashtiradi ("Menejment asoslari"). Vosheriya, kaulerpa va zamburug'larning ayrim turlari shu guruh uchun xarakterli hisoblanadi ("Botanika"). O'sha davrlarda... nutq madaniyati sohasining tekshirish obyektini, tadqiq ko'lami va chegarasini, maqsad va vazifalarini belgilab olish lozim edi ("Til ta'limi va me'yor") kabi. Ayrim matnlarda bular olmoshining qo'llanishi ham kuzatiladi: Bular o'rni bilan badiiy stilga qiyoslanib, ilmiy stilning o'ziga xos morfologik belgilarini aniqlashga harakat qilindi (M.Mukarramov). Ammo o'sha, bular kabi qo'llanishlar ilmiy matnlarda mahsuldor sanalmaydi. Qaratqich kelishigi shaklidagi ko'rsatish olmoshlar natijasida, orqasida kabi so'zlar bilan; jo'nalish kelishigi shaklidagi olmosh ko'ra, qarab (qaraganda) so'zlari bilan; chiqish kelishigi shaklidagi olmosh tashqari, buyon so'zlari bilan birga kelib yordamchi so'z vazifasida ishlatiladi: shuning (buning, uning) uchun, shuning natijasida, shunga ko'ra, bundan tashqari kabi [Ўзбек тили грамматикаси, 1975: 342]. Mana shu holatlarda ilmiy uslubga xoslanish yuz beradi: Shu tufayli, shu sababli, shuning oqibatida, shu qadar kabi. Shu sababli, yadro va sitoplazma o'rtasida almashinuv jarayoni ancha

yengil o'tadi ("Botanika"). M.Mukarramov ko'rsatish olmoshlarni ilmiy matnning, xususan abzaslarning bog'lanishiga xizmat qiluvchi vosita, deb baholaganligidan kelib chiqib [Mukarramov M., 1984: 149], ularni ilmiy nutqning shakllanishidagi muhim unsurlardan biri sifatida qarash to'g'ri bo'ladi. Biz bunga olmoshlarning ilmiy matnlarda xulosalarni berishda, yakuniy fikrlarni bayon etishda ham ahamiyati borligini qo'shimcha qilishimiz mumkin. Badiiy va publitsistik janrlarda yozilgan asarlar aniq bir muallifga tegishliligi va ijod mahsuli ekanligi bilan xarakterlanadi. Zero, bu uslublarda shakllanadigan matnlar asar muallifidan janr talabidan kelib chiqib, maxsus tayyorgarlik ko'rishni, har bir voqea-hodisani, tasvir obyektini badiiy-estetik tafakkur prizmasidan o'tkazishni, binobarin, ushbu maqsadga xizmat qiladigan har bir til elementini tanlab ishlatishni, ularga muayyan ta'sir ko'rsatish vazifasini yuklashni talab etadi. Til birliklaridan shu tarzda foydalanish bevosita olmoshlarga bo'lgan munosabatda ham anglashilib turadi. Masalan, u, bu, shu, o'sha olmoshlarining tilimiz tarixida qo'llanilgan ul, bul, shul, o'shal, ushul, ushmundoq kabi ko'rinishlari bugungi adabiy tilimiz talablari nuqtayi nazaridan me'yoriy sanalmaydi. Ularning tarixan qo'llanishida esa stilistik ottenkalar namoyon bo'lmagan. Ammo ushbu shakllarning hozirgi o'zbek tilidagi funksional stillardan badiiy stilda yashab kelayotganligi davrlar o'tishi bilan ularda shu uslub doirasida ekspressiv ottenkalarining yuzaga kelganligi bilan izohlanadi. Bu olmoshlarning tarixiy mavzudagi asarlarda qo'llanilishi personaj nutqi tabiiyligi va davr tilini yaratish uchun muhim sanalsa, hozirgi o'zbek she'riyatida ularning qo'llanishi ifodaga ko'tarinki ruh bag'ishlaydi, uning yuqori uslubda va darajada berilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi: Tig'iz bo'lsa hamki fursati g'oyat / Jahongir bul yurtga to'xtabdi biroz. Sening qadamingga o'qirman afsun / Va qilurman o'shal yerni ziyorat (M.Ali). Tahlillardan anglashiladiki, ko'rsatish olmoshlari sinonimlari, variantlari bilan vazifaviy uslublarda qo'llanish faolligi, nafaolligi hamda ayrim hollarda ma'lum uslubga xoslanib, o'ziga xos vazifa bajarishi bilan ajralib turadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов С. Олмошларнинг функционал-стилистик чегараланиши // Ўзбек тилининг грамматик қурилиши ва стилистикаси / Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 1992. –Б.80-85.
2. Каримов С., Маматов Х., Бўриев И. Юристинг нутқ маданияти. – Тошкент: Зарқалам, 2004.
3. Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. – Тошкент: Фан, 1984. 160-б.
4. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. – Тошкент: Фан, 1975. 612-б.

#### Elektron matnlar

1. Валижонов Р., Қобулов О., Эргашев А. Менежмент асослари. Касб- ҳунар коллежлари учун дарслик. – Тошкент: Шарқ, 2002. 208-б.
2. Мустафаев С.М. Ботаника (анатомия, морфология, систематика). Дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 472 б.
3. Мухаммад Али. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1997. 448-б.

Dilnoza MAMIROVA,  
Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti  
[mamirova.d@bk.ru](mailto:mamirova.d@bk.ru)

## REKLAMA MATNLARIDA DEYKTIK IBORALAR

**Annotatsiya:** ushbu maqolada adresant-adresat munosabati va ularning munosabatida deysisning o'рни haqida ayrim mulohazalar keltirilgan. Bu mulohazalar reklama matnlari doirasida yoritishga harakat qilindi (manba O'zbekiston telekanallaridagi reklamalar).

**Kalit so'zlar:** *adresant, adresat, deysis, deyktik iboralar, segment qurilma.*

**Аннотация:** в данной статье представлены некоторые соображения об отношениях “адресат-адресант” и роли дейксиса в этих отношениях. Предпринята попытка рассмотреть эти соображения на примере рекламных текстов (источник: реклама на узбекских телеканалах).

**Ключевые слова:** *адресант, дейксис, дейктические выражения, сегментная структура.*

**Annotation:** this article presents some considerations about the addressee-addressee relationship and the role of deixis in their relationship. An attempt was made to highlight these considerations within the framework of advertising texts (source: advertisements on Uzbek television channels).

**Keywords:** *addressee, deixis, deictic expressions, segmental structure.*

Ma'lumki, har qanday muloqotda so'zlovchi va tinglovchi zaruriy uzv, ya'ni tarkibiy qismlar sifatida, albatta, ishtirok etadi. Bunda so'zlovchi – adresant-kommunikator deb, adresantning nutqi qaratilgan shaxs – tinglovchi adresat-kommunikant deb yuritiladi va bular muloqotda bevosita ishtirok etuvchilardir [1;41-42]. Shu ma'noda aytishimiz mumkinki, reklamada adresat – reklama matni bilan tanishuvchi shaxs, o'quvchi. Retsipient termini ham aynan shu ma'noda qo'llaniladi. Adresant – reklama matnini tayyorlovchi va tarqatuvchi subyekt.

Mashhur reklamachi D. Ogilvi adresantlarga murojaat qilib, shunday degan edi: **“Agar siz odamlarni biror narsaga ishontirish yoki xarid qilishga ko'ndirmoqchi bo'lsangiz, ularning tilida gapirishingiz kerak bo'ladi”** [2;28].

Haqiqatan ham, reklamada sotishning uddasidan chiqish uchun adresant ma'lum stilistik eshitish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bilamizki, yozuvchi o'ziga xos yagona va betakror uslubiga ega bo'lish huquqiga ega. Adresant esa bunday huquqqa ega emas. U faqat qaysi kasb to'g'ri kelsa, tadbirkorlikmi, dehqonmi, shifokormi, uy bekasimi va shunga o'xshash shaxslar tilini bilishi shart. Bu haqda mashhur, dunyo tanigan shaxslardan biri Rezerford shunday degan edi:

“Agar siz farroshingizga nima bilan shug'ullanayotganingizni tushuntira olmasangiz – siz hech narsaga arzimaydigan mutaxassissiz”. Demak, siz qilayotgan ishni hamma tushunishi uchun o'rtamiyonalashtiring, soxtalikdan qoching [3; 47].

Reklama tarixi shuni ko'rsatadiki, yaxshi sotuvchilardan yaxshi kopirayterlar chiqadi. Hammasi juda oddiy – yaxshi sotuvchi o'qishda ham, praktikada, ya'ni amaliyotda ham mijoz fikrini o'qiy oladi, unga nima kerakligini o'rganadi, xaridor tilida gapirishni biladi. Bu borada adresantga notiqlik san'ati yordam beradi. U xaridorga mahsulot haqidagi tushunchalarga ishora qiluvchi birliklardan unumli

foydalanadi. Bu birliklardan biri tilshunoslikda “deyktik iboralar” deb ataladi.

“Deyksis” so'zining asl yunoncha, ma'nosi “ko'rsatish”, “ishora” bo'lib, ilmiy qo'llanishda lison vositasida “voqelikka ishora, ko'rsatish” mazmunini olgan. Ko'rsatish, ishora vazifasini ado etuvchi birliklarni *deyktik ibora* deb atashadi [4;154]. “Deyktik iboralar kommunikativ hodisa – uzatilayotgan axborotning ma'lum qismlarini alohida ta'kidlash, aniqlashtirish uchun xizmat qiladi” [4;154].

Til tizimi markazida deysis voqelikni ekstralingvistik (pragmatik aspektida) va lingvistik (ifodaning aniq lisoniy vositasi) omillar asosida ko'rsatuvchi hodisa sifatida turadi [5;8]. Shunga ko'ra deysisni yuzaga chiqaruvchi vositalarni ikki turga bo'lish mumkin: lingvistik va ekstralingvistik vositalar. Buni misollar orqali ko'rib chiqamiz: *Ko'pchilikka deraza harid qilishda hech qanday maslahat va tavsiya berilmaydi, ularga faqat hammasi yaxshi bo'lishini aytishadi xolos. Eh imzo bilan hammasi boshqacha! O'rnatishdan oldin maslahat, professional o'lchov va montaj, shuningdek, sifat kafolati. Imzo – oqilona tanlov.*

*Ooo yo'q, shamollash. Homilador yoki yosh bolalar uchun qanday davolanishni tanlash kerak? Nazaferon – yaqinlaringizni himoya qiling.*

Ushbu misoldagi reklama matni lingvistik jihatdan kerakli so'zlar tanlanib, to'g'ri tuzilgan bo'lsa-da, gapda ekstralingvistik vosita sifatida *eh* his-hayajon undovi ishlatilyapti. Bu esa ushbu mahsulotni xarid qilmagan xaridorga ham afsus va imzoni olganda hammasi yaxshi bo'lishi mumkinligini bildirib turibdi.

Ikkinchi misoldagi o undovi norozilik kayfiyatini ko'rsatish uchun kiritilgan bo'lib, bu jarayonni to'g'rilash uchun *Nazaferon* – unga havola tarzida deyktik birlik sifati *yaqinlaringizni himoya qiling* jumlasini kiritilgan.

Deyksis haqida monografik tadqiqot olib borgan N.A.Srebryanskaya, deysis ishora qilar ekan, haqli ravishda nimaga ishora qiladi, degan savol tug'iladi deydi hamda

ushbu savolga javob tariqasida Ch.Filmorning “deyxis – bu so'zlovchi shaxsi va adresatga, fikr aytilayotgan makon va zamonga ishora” degan fikrini keltiradi” [5;8].

Masalan, biror marta foydalanib ko'rmagan mahsulotga nisbatan “Bu nima?” savoli bilan adresantga murojaat qilinganda, deytik ibora (“bu”) vositasida shu muhitda mavjud bo'lgan narsa- predmetga ishoradir.

Segment qurilmali gaplarda deyxis har doim tinglovchiga – adresatga yoki so'zlovchi nazarda tutgan predmet, voqelikka ishora qiladi.

Segment qurilmalarga xos bo'lgan asosiy xususiyat u bilan aloqalangan gap tarkibida kishilik hamda ko'rsatish olmoshlarining kelishi bo'lib, asosiy gap tarkibidagi deyxis turli predmet, shaxs, hodisalarga ishora qilishi mumkin:

*Qarang anavilar fantaga c vitaminini qo'shishibdi, Gapirganning hojati yo'q, natijasini ko'ring. Ta'miga gap yo'q, tinch o'tirgan yo'q, kun bo'yi g'ayrat qaynoq, xush kayfiyat ta'mi bu, quvonch va zavq ta'mi bu, olamga sho'ng'i, ilhomni zabt et, c vitaminli yangi fanta. Do'stlar biz c vitamini bilan butun kuch-g'ayratga to'ldik, lazzati zo'r, birga shodonlashaylik. Keling fanta ochaylik.*

Bu reklama misolida *Qarang anavilar fantaga c vitaminini qo'shishibdi* jumlasini aytilgandan keyin, adresantda anavilar kimlar?, fanta ichimligiga qo'shilsa nima bo'libdi? kabi savollar tug'ilishi tabiiy. Shuning uchun adresat bu mahsulotga c vitamini qo'shilganda nima bo'lish holatini she'riy tarzda tinglovchiga yetkazib beradi. Maqsad esa tinglovchini xaridorga aylantirish.

*Professor Sh.Safarov “Pragmalingvistika” kitobining VII-bobini “Deyxis va nutqiy muloqot matni yoxud matnda mazmunning ifoda topishi” deb nomlagan bo'lib, unda quyidagilarni keltiradi:*

“Muloqot faoliyati uchun makon va zamon hodisalarining muhimligini unutmaslik kerak. Har bir voqea ma'lum makon va zamonda kechadi hamda u yoki bu hodisa haqidagi axborotni qabul qilayotgan tinglovchi uning qachon, qayerda sodir bo'lganligini bilishga intiladi. Bundan tashqari, axborotning to'liq idroki uchun, har qanday faoliyat ma'lum shaxs (shaxslar) tomonidan bajarilishi sababli, ushbu faoliyat amalining subyekti haqidagi ma'lumot ham talab qilinadi. Demak, “qachon” va “qayerda” savollari “kim” savolining hamrohligida nutqiy tuzilma mundarijasini belgilaydi. Ideal lisoniy faoliyat nutqiy tuzilmalar tarkibida aynan shu savollarga javob beruvchi birliklarning to'liq tartibda mavjud bo'lishini taqozo etadi” [4;164].

*Uy manzilingizni yoki ish joyingizni so'rashganida, masalan, shaxsiy ofisingizni, shaxsiy klinikangizning*

*yoki do'koningiz qayerdaligini so'rashganida siz endi o'z manzilingizni aytishingiz shart emas. Endi manzilingizni so'raganlarga beradigan javobingiz aniq deyiladi va ko'rsatkich barmoq bilan eng baland bino ko'rsatiladi. Buni bilish uchun tinglovchi binoning qanday qurilganligini va qayerlardan ham ko'rish mumkinligini bilishi kerak bo'ladi. Albatta, bu reklamani biz ma'lum ijtimoiy qatlamga mos deyishimiz mumkin. Chunki iqtisodchi adresant - tinglovchilarga tezkor ta'sir o'tkazish uchun, muloqot strategiyasini saqlagan holda, uning ijrosini ta'minlovchi turli vositalardan foydalanishga harakat qiladi, lisoniy faoliyat amallari shakllarini o'zgartirib turadi. Xohlasa imo-ishoralar bilan yoki so'zlar bilan ifodalashi mumkin, ammo reklama matni butun ommaga qaratilar ekan, u aniq, o'ziga jalb qiladigan va tushunarli matnlardan iborat bo'lishi lozim. Lekin keyingi vaqtlarda ataylab odamlarni o'ylashga majbur qiladigan va shu bilan mahsulotning nomini tinglovchining tilida ancha vaqt saqlab turishga qaratilgan reklamalar ham borligini bilamiz. Chunki insonlarning ko'pchiligi tushunmagan narsasini bilishga qiziqadi. Deyktik iboralar ana shu tushunilmagan jihatlarni ochishga yordam beradi.*

Deyxis tilda o'ziga xos semantik maydon hosil qilib, uning markazida nutq ijodkori, ya'ni so'zlovchining o'zi turadi. “Deyxis so'zlovchining nutq faoliyati jarayonida ma'lum makonda joylashganligini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan gapirganda, deyxis diskurs darajasida o'rganilishi kerak hamda “havolaning maxsus holati” sifatida e'tirof etilishi mumkin” [6;17]. Tadqiqotchining bu fikrlarining isboti sifatida biz quyidagi reklama matnini keltirishimiz mumkin:

*Ovqatlanish paytidagi quvonch hissi undan keyingi og'irlik, noqulaylik, qorinning dam bo'lishi sababli yo'qoladi. Bundan qanday xolos bo'lish mumkin. Kreonni qo'llab ko'ring kreon yuzlab fermentli minimikrosferalardan iborat bo'lib, ular atigi 15 daqiqada ta'sir ko'rsata boshlaydi va hazm qilishni yaxshilaydi. Kreon hazm qilish muammolarining tezkor davosi.*

Bu reklamada *Ovqatlanish paytidagi quvonch hissi undan keyingi og'irlik, noqulaylik, qorinning dam bo'lishi sababli yo'qoladi. Bundan qanday xalos bo'lish mumkin – segment bo'lak*, havola, ya'ni deytik birlik sifatida *Kreonni qo'llab ko'ring kreon yuzlab fermentli minimikrosferalardan iborat bo'lib, ular atigi 15 daqiqada ta'sir ko'rsata boshlaydi va hazm qilishni yaxshilaydi. Kreon hazm qilish muammolarining tezkor davosi* kabilarni olish mumkin. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, deyxislar fikrni oydinlashtirish va amalga oshirish jarayonida faol munosabatlarda bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aliqulov Z., Boymirzayeva S. Sotsiolingvistika. – Samarqand: SamDU, 2010. 41-42-b.
2. Огилви Д. Тайны рекламного двора. 2009. -145 с. www.koob.ru.
3. Розенталь Д.Э., Кохтев Н.Н. Язык рекламных текстов. – Москва, 1981. 104 с.
4. Сафаров. Ш. Прагмalingvistika. – Тошкент, 2008. 154- б.
5. Сребрянская Н.А. Дейксис и его проекции в художественном тексте. – Воронеж, 2005. С. 8
6. Шерматов А.А. Инглиз илмий – техник матнида дейксиснинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 2008. 155-б.

Nigora SARIMSOQOVA,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent  
davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,  
1-bosqich doktoranti

## TALABALARDA ILMIY-OMMABOP MATN YARATISH KO'NIKMASINI BOSQICHMA-BOSQICH RIVOJLANTIRISH METODIKASI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada talabalarning ilmiy-ommabop matn yozish ko'nikmasini rivojlantirish masalasi o'rganiladi. Muallif xorijiy tajribalarni, xususan, Deng Lishuang (Xitoy), Hasanuddin (Indoneziya) va Wortman-Wunder (AQSh) tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy yozuv metodikalarini tahlil qilib, O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga mos yangi metodik yondashuvni taklif etadi. Maqolada ilmiy savodxonlikni oshirish, yozma fikrlashni rivojlantirish va ilmiy-ommabop matn yaratish ko'nikmasini bosqichma-bosqich rivojlantirishning samarali yo'llari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** *ilmiy yozuv, ilmiy-ommabop matn, metodika, xorijiy tajriba, oliy ta'lim, savodxonlik.*

**Аннотация:** в данной статье рассматривается проблема развития у студентов навыков написания научно-популярных текстов. Автор анализирует зарубежный опыт, в частности методики научного письма, разработанные Дэн Лишуан (Китай), Хасануддином (Индонезия) и Вортман-Вундер (США), и предлагает новую методическую модель, адаптированную к системе высшего образования Узбекистана. В статье раскрываются эффективные способы повышения научной грамотности, развития письменного мышления и поэтапного формирования навыков создания научно-популярного текста.

**Ключевые слова:** *научное письмо, научно-популярный текст, методика, зарубежный опыт, высшее образование, грамотность.*

**Annotation:** this article explores the issue of developing students' skills in writing scientific-popular texts. The author analyzes foreign experiences, particularly the methodological approaches proposed by Deng Lishuang (China), Hasanuddin (Indonesia), and Wortman-Wunder (USA), and offers a new methodological model adapted to the higher education system of Uzbekistan. The article highlights effective ways to enhance scientific literacy, develop written thinking, and gradually improve students' ability to create scientific-popular texts.

**Key words:** *scientific writing, popular science text, methodology, foreign experience, higher education, literacy.*

Hozirgi axborot asrida ilmiy-ommabop matnlar yozish ko'nikmasi nafaqat tadqiqotchilar, balki talabalarning ham muhim kompetensiyalaridan biri hisoblanadi. Ilmiy g'oyalarni keng jamoatchilikka tushunarli tarzda yetkazish, ilmiy tafakkurni rivojlantirish va o'z fikrini ilmga asoslangan tarzda bayon etish ko'nikmasi bugungi kunda ta'lim tizimida ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ilmiy va ilmiy-ommabop matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirish masalasiga oid ilmiy izlanishlar nisbatan yangi bo'lsa, xorijiy tajribalar mazkur yo'nalishda samarali metodik yondashuvlarni taklif qilmoqda.

Pekin universitetining Kimyo fakultetida faoliyat yurituvchi Deng Lishuang ilmiy matn yarata olish kompetensiyasini shakllantirish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotida talabalarning ilmiy matn yarata olish ko'nikmalari ularning fanlararo fikrlash salohiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Dengning fikricha, ilmiy yozuvni organik kimyo fanidagi

amaliy mashg'ulotlar bilan integratsiya qilish o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi va talabalarda mustaqil tahliliy fikrlashni rivojlantiradi.

Mazkur yondashuvni ilmiy-ommabop matn yaratish jarayoniga tatbiq etish mumkin. Chunki ilmiy-ommabop matn har qanday holatda ham ilmiy asosga tayanadi, ilmiy ma'lumotlarni soddalashtirgan, lekin ularning mazmunini saqlagan holda o'quvchiga yetkazishni maqsad qiladi. Bunday matnlarda ilmiy dalillar, statistik ma'lumotlar yoki nazariy qarashlar ommaga tushunarli shaklda talqin etiladi hamda bu jarayon ilmiy aniqlik va mantiqiy izchillik tamoyillariga asoslanadi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida filologiya yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun ilmiy-ommabop matn yaratish ko'nikmasini amaliy topshiriqlar shaklida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bunda talabalar "ilmiy axborotni tahlil qilish – qayta ifodalash – soddalashtirish" kabi bosqichlarda ishlashni o'rganadilar. Xususan,

talabalar “ommalashtirilgan ilmiy maqola”, “ta’limiy blog matni” yoki “ilmiy-ommabop suhbat” kabi matnlar orqali murakkab ilmiy mazmunni sodda, ammo ishonchli shaklda ifodalashni o’zlashtiradilar. Bu esa ularda nafaqat yozma savodxonlik, balki ilmiy mazmunni keng auditoriyaga yetkazish madaniyatini ham shakllantiradi.

Jakartadagi Indoneziya davlat universitetida faoliyat yurituvchi Hasanuddin, Emzir va Akhadih tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ilmiy yozuvni rivojlantirishda “blended learning” (aralash o’qitish) va hamkorlikka asoslangan ta’lim yondashuvlari samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, mazkur integrativ model talabalarda mustaqil fikrlashni kuchaytiradi, ilmiy matn yaratishda kreativ yondashuvni rag’batlantiradi hamda o’quv jarayonining interfaol xarakterini ta’minlaydi.

Bu metodik yondashuv filologiya yo’nalishdagi talabalar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u ilmiy-ommabop matn tuzish, dalillarni tahlil qilish hamda fikrni mantiqiy asoslagan holda hamma uchun tushunarli shaklga keltirish ko’nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi. Shu jihatdan, yuqorida nomlari keltirilgan tadqiqotchilarning nazariy qarashlaridan O’zbekiston oliy ta’lim tizimida ilmiy-ommabop matn yaratish metodikasini takomillashtirishda foydalanish mumkin. Bunda filologiya yo’nalishida ta’lim olayotgan talabalarining yozma nutq faoliyati va ilmiy tafakkurini rivojlantirishda integrativ usuldan foydalanish mumkin. Bunda:

Blended learning (aralash o’qitish) – an’anaviy dars jarayonini raqamli platformalar (Google Classroom, Perplexity.ai, ChatGPT kabi sun’iy intellekt vositalari) orqali qo’llab-quvvatlash, bu orqali talabalarda mustaqil fikrlash va tahliliy yozuv kompetensiyalarini kuchaytirish;

Hamkorlikda o’qitish (collaborative learning) – kichik guruhlarda maqola tuzish, ilmiy matnlarni tahlil

qilish, hamkasb fikrini baholash orqali tahliliy fikrlashni faollashtirish;

Tahliliy yozuv topshiriqlari — talabani har bir bosqichdan so’ng o’z matnini tahlil qilish, undagi kuchli va zaif jihatlarini aniqlash hamda keyingi bosqichlarida ularni takomillashtirishga yo’naltiruvchi yozma amaliyotini joriy etish talab etiladi.

AQSh olimlari E.Vortman-Vunder va I.Vefes Kolorado universitetining biotibbiyot fanlari yo’nalishida ilmiy matn bo’yicha trening dasturlarini ishlab chiqqan. Ularning tadqiqotiga ko’ra, qisqa muddatli seminar va amaliy yozuv kurslari ishtirokchilarning tanqidiy yozishdagi ishonchini sezilarli darajada oshiradi<sup>3</sup>. Shu jihatdan, Vortman-Vunder va Vefes tomonidan ishlab chiqilgan trening modelini ilmiy-ommabop matn yaratish ko’nikmasini rivojlantirish, hamda talabalarni mustaqil tarzda ilmiy-analitik fikrlashga tayyorlash jarayonida qo’llash maqsadga muvofiq.

Mazkur tajribani O’zbekiston oliy ta’lim tizimida samarali qo’llash uchun o’quv jarayoniga mutaxassislik fan sillabusida “Ilmiy-ommabop matn yaratish” modulini kiritish va mashg’ulotlarda talabalarni amaliy yozish jarayonida tahlil, muhokama va fikr almashish faoliyatiga jalb etish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Bu jarayon:

- ✓ talabalarni ilmiy-ommabop matn yaratish jarayoniga bosqichma-bosqich jalb etadi;
- ✓ matn yaratish jarayonini faqat individual faoliyat emas, balki hamkorlikka asoslangan ijodiy jarayon sifatida ham qarashga yordam beradi;
- ✓ talabalarda o’z fikrini tahlil qilish, xatolardan xulosa chiqarish ko’nikmalarini rivojlantiradi;
- ✓ o’qituvchiga talabalarining yozma kompetensiyasini real jarayonda kuzatish imkonini beradi.

Yuqori keltirilgan ko’rsatmalarga tayanib “Sun’iy intellekt va zamonaviy ta’lim integratsiyasi” mavzusida ilmiy-ommabop matn yaratish jarayonini bosqichma-bosqich ko’rib chiqamiz:

| Bosqich                    | Faoliyat mazmuni                                                                                                                                                        | Kutilayotgan natija                                                                                                                                                                                                                                               |
|----------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1-bosqich: Tahliliy kirish | Talabalar sun’iy intellekt va zamonaviy ta’lim integratsiyasiga oid ilmiy manbalarni o’rganadi, asosiy tushunchalarni tahlil qiladi va ularning dolzarbligini baholaydi | Talaba mavzuning ilmiy asosini anglaydi                                                                                                                                                                                                                           |
| 2-bosqich: Amaliy tahlil   | Talabalar ChatGPT, Perplexity, Gemini kabi sun’iy intellekt vositalaridan foydalanib, ularning imkoniyat doirasini o’rganib chiqadi                                     | Talabalar sun’iy intellekt vositalaridan foydalanib, ularning imkoniyatlarini o’rganadi, ilmiy-ommabop matn yaratishdagi rolini tahlil qiladi, mustaqil matn yaratish va tahrir qilish ko’nikmasini shakllantiradi hamda AI natijalarini tanqidiy baholay oladi.. |

|                               |                                                                                                                                     |                                                                                                                                                                                     |
|-------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 3-bosqich: Tahlil qilish      | Talabalar o'z tajribasiga tayangan holda ilmiy dalillarni soddalashtiradi, ulardan foydalangan holda ommaga tushunarli matn yozadi. | Talabalar murakkab ilmiy ma'lumotlarni ommaga tushunarli shaklda ifodalash, ilmiy dalillarni soddalashtirish va ularni mantiqan izchil tarzda bayon etish ko'nikmasiga ega bo'ladi. |
| 4-bosqich: Hamkorlikda tahrir | Talabalar kichik guruhlarda bir-birining matnini o'qib, tahlil qiladi va takliflar beradi.                                          | Talabalar tahliliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi, hamkorlikda ishlashni o'rganadi hamda matnni tahrir qilish va baholash malakasiga ega bo'ladi.                 |
| 5-bosqich: Yakuniy natija     | Talabalar yakuniy ilmiy-ommabop matnni taqdim etadi, natijalarni muhokama qiladi va o'z faoliyatini baholaydi.                      | Talabalar ilmiy-ommabop matn yaratish, uni tahlil qilish va o'z faoliyatini baholash ko'nikmalarini egallaydilar                                                                    |

Yuqorida keltirilgan bosqichlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ilmiy-ommabop matn yaratish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish ta'lim jarayonida yuqori samaradorlik beradi. Har bir bosqich talabani muayyan yozma kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan: 1-bosqichda talaba sun'iy intellektning ta'limdagi o'rnini ilmiy manbalar asosida tahlil qilib, mavzuning ilmiy negizini anglaydi; 2-bosqichda esa o'quvchi sun'iy intellekt vositalarini (ChatGPT, Perplexity, Gemini va boshqalar) amaliy tahlil qilish orqali ularning afzallik va kamchiliklarini aniqlash orqali sun'iy intellekt natijalarini tanqidiy baholay oladi. 3-bosqich talabani tanqidiy fikrlash va reflektiv yozuv ko'nikmasini rivojlantiradi, chunki u o'z fikrini ilmiy dalillar bilan mustahkamlab, uni ommabop tilda ifodalashni o'rganadi. 4-bosqichda talabalar o'zaro bahs, tahlil va tahrir jarayonlari orqali hamkorlik madaniyatini shakllantiradilar. Nihoyat, yakuniy bosqichda ular yaratgan matnni tahlil qilib, mustaqil ravishda xulosa chiqarish, tahrir qilish va taqdim etish malakasini mustahkamlaydilar. Mazkur bosqichlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, har

biri talabalarda ilmiy tafakkur, yozma madaniyat va ijodiy ifoda ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon sun'iy intellekt vositalaridan mas'uliyatli foydalanish madaniyatini shakllantirish, ilmiy mazmunni ommaga tushunarli tilda yetkazish va zamonaviy raqamli ta'lim muhitida samarali muloqotga kirishish imkonini beradi. Shu jihatdan, mazkur metodik yondashuv O'zbekiston oliy ta'lim tizimida, xususan, filologiya yo'nalishlarida ilmiy-ommabop matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, ilmiy-ommabop matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish — zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u talabalarda ilmiy tafakkur, tanqidiy fikrlash va ijodiy yozuv madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bosqichma-bosqich tashkil etilgan o'quv faoliyati talabalarning mustaqil fikrlash, hamkorlikda ishlash, matnni tahrir qilish va taqdim etish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularning yozma nutq madaniyatini, ilmiy savodxonligini va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Deng, Y., Kelly, G. J., & Xiao, L. S. (2019). The development of Chinese undergraduate students' competence of scientific writing in the context of an advanced organic chemistry experiment course.
2. Hasanuddin, D., Emzir, & Akhadijah, S. (2019). Improving students' scientific writing ability through blended learning-based collaborative learning. *International Journal of Emerging Technologies in Learning*, 14(20), 34–43.
3. Wortman-Wunder, E., & Wefes, I. (2020). Scientific writing workshop improves confidence in critical writing skills among trainees in the biomedical sciences. *Journal of Microbiology & Biology Education*, 21(1).

Zebo ALIYEVA,  
SamDChTI tayanch doktranti



## SUBYEKTIVLIK VA MIRATIVLIK HODISALARI TAVSIFI

**Annotatsiya:** mazkur maqolada subyektivlik va mirativlik hodisalarining tilshunoslikdagi mohiyati, ularning o'xshashlik va farqli jihatlari tavsifi berib o'tilgan. Shuningdek maqolada subyektivlik hamda mirativlik tushunchalarining so'zlovchining baholash munosabati va ma'lumotni qabul qiluvchilar doirasiga bog'liqligi kabi jihatlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** *subyektivlik, mirativlik, kutilmaganlik, hayratlanarli, hissiy bo'yoqdorlik.*

**Annotation:** this study explores the linguistic characteristics of subjectivity and mirativity, emphasizing their conceptual parallels and unique functional attributes. It underscores the pragmatic significance of speaker and listener viewpoints in defining these categories and examines the grammatical and stylistic devices employed to convey mirativity in both Uzbek and English.

**Key words:** *subjectivity, mirativity, unexpectedness, surprise, emotional expressiveness.*

**Аннотация:** в данной статье рассматривается лингвистическое содержание категорий субъективности и миративности, а также их сходные и отличительные черты на основе научно-лингвистического анализа. В рамках исследования раскрывается прагматическая роль позиций говорящего и слушающего в формировании данных категорий, а также описываются грамматические и стилистические средства выражения миративности в узбекском и английском языках.

**Ключевые слова:** *субъективность, миративность, неожиданность, удивительность, эмоциональная окрашенность.*

Tilshunoslikda subyektivlik va mirativlik kategoriyalari o'rtasidagi o'xshashlik va farqli jihatlar ko'plab mulohazalarga sabab bo'lgan. Mirativlik va intersubyektivlik aynan bir xil hodisalar emas. Intersubyektivlik yoki subyektivlik kategoriyasida so'zlovchi yoki tinglovchi matn mazmuniga nisbatan o'z shaxsiy fikr va munosabatini bildiradi. Subyektivlik to'g'ridan to'g'ri ma'noda so'zlovchi uchun "yangi va hayratlanarli" bo'lgan ma'lumotlarga urg'u bermaydi aksincha, so'zlovchi so'zlayotgan ma'lumot tinglovchi uchun shunchaki "yangilik" ekanligini anglatishi mumkin. Misol uchun, "o'rtoq Baqoyev o'ylab turib so'radi: – Nafis adabiyot darsini sizlarga kim beradi? Hakimov? Ahmoq odam! O'z ustida ishlamaydi. Savol alomati hammavaqt "mi" dan keyin qo'yiladi desam, kuladi. Gap bunda ham emas..." Keltirilgan namunada so'zlovchi Hakimov ismli o'qituvchi haqida o'zining shaxsiy fikrini bildiriyabdi. Gap undov gap hisoblanishiga qaramasdan so'zlovchining fikri uning shaxsiy ma'lumotga nisbatan o'zining shaxsiy munosabati sifatida qaraladi. Shunday qilib, mantiqan qaraladigan bo'lsa, intersubyektivlik kategoriyasida ma'lumotni qabul qiladigan kishilar guruhi katta yoki kichikligi, ma'lumotni qabul qilishda shu kishilar guruhining turli xil qarashlari farq qilsa,

mirativlik kategoriyasida esa kishilarning taqdim etilayotgan ma'lumotga qanchalik darajada reaksiya bildirilayotganligiga e'tibor qaratiladi. Misol uchun:

–"Da'vogarning iltimosi shunday. Rayon sudi xolis bo'lmasligi mumkin.

–"Da'vogar!" Demak, men "aybdor" deb atalar ekanman–ku! Marhuma xotinim bilan biz insonga xos oliyjanoblik qildik deb o'ylardik."

(Asqad Muxtor, "Chinor" romani, 112 bet.)

Ushbu ikki kishi o'rtasidagi dialogda ham intersubyektivlik, ham mirativlik kategoriyalariga namuna bo'ladigan holatlarni kuzatishimiz mumkin. Bunda so'zlovchining taqdim etayotgan ma'lumotiga tinglovchining salbiy munosabat bildirishi, ya'ni o'zining "aybdor" deb atalishi tinglovchi uchun salbiy ma'noda kutilmagan holatdir va bu grammatikada intersubyektivlikka misol bo'ladi. Xuddi shu gapda, tinglovchi o'zini "aybdor" deb atalishi u uchun kutilmagan hayratlanarli ekanligi "–ku" yuklamasi yordamida ifodalangan va bu mirativlik kategoriyasi uchun misol bo'la oladi. Ko'plab tillarda mirativlik kategoriyasini ifodalashda so'zlovchi yoki tinglovchining hayratlanish darajasini ko'rsatib berish imkoniyati mavjud emas. Ya'ni ba'zi tillarda kirish so'zlar, modal so'zlar, qo'shimchalar, yuklamalar,

undov belgisi taqdim etilayotgan ma'lumotni hayratlantira olish darajasini ko'rsatib beradi, lekin bu holat barcha tillarga xos xususiyat emas. Biroq ingliz va o'zbek tillarida bu yuqoridagi holat kuzatiladi.

Misol uchun:

Iago:— Awake! What, ho, Brabantio! Thieves! Thieves! Thieves! Look to your house, your daughter and your bags! Thieves! Thieves!

(William Shakespeare, "Othello", 9–bet.)

Keltirilgan misolda, so'zlovchi o'zi yetkazayotgan ma'lumotni undov so'zi "ho" hamda anafora (gapda bo'yoqdorlikni oshirish uchun bir xil so'zning takror ishlatilishi) yordamida, ya'ni Thieves! Thieves! Thieves! so'zi takror–takror qo'llanilib, ma'lumotning yetkazib berish darajasini oshiryabdi.

Kommunikativ vaziyatlarda, so'zlovchining nuqtayi nazari ham mirativlikda, ham intersubektivlikda alohida o'rin tutadi. Ular bu jihatdan mish–mishlardan farq qiladi va so'zlovchi ikki kategoriyada ham muhim rol o'ynaydi. Ammo so'zlovchining roli munosabat kategoriyalarida xususan, inferensial, epistemik va deontik modallik toifalarida qanday ishlatilishiga qarab farq qiladi. Biror bir kishi aytayotgan ma'lumot qanchalik shaxsiy yoki shunchaki boshqa bir shaxs haqidagi bilim, ko'pchilik kishilarning qarashlari va fikrlari nuqtayi nazaridan ham baholanadi. Ko'rinadiki, mirativlikda biror bir ma'lumot hayratlanarli bo'lishi uchun ma'lumot odatiy bo'lgan hodisa emas, aksincha kutilmagan yangilik bo'lishi kerak.

Odatda, subyektivlik va mirativlik umuman olganda vaziyatning qay holatda ekanligini aks ettirmaydi. Intersubektivlikda vaziyatning ishonchligi, aniqligi va maqbulligi baholanadi va muhokama qilinadigan vaziyat, borasida so'zlovchining shaxsiy fikri asosiy planda bo'ladi. Mazkur vaziyat va holat natijalari so'zlovchining shaxsiy munosabatini aks ettirishda asosiy vazifani bajaradi. Ko'rinadiki, intersubektivlikda vaziyat va holatdan ko'ra ko'proq so'zlovchining shaxsiy fikriga urg'u beriladi. Mirativlik kategoriyasida ham shunga o'xshash holat kuzatiladi. Ammo berilgan holat yoki vaziyat so'zlovchi uchun kontekstdan kutilmagan, hayratlanarli ekanligiga urg'u beriladi.

Misol uchun:

—Dadam emas mening o'zim agronomman.

—Nima?! Mushtumdek bola–ya! —shunday deb otaxon menga boshdan oyoq razm solib chiqdi." (Xudoyberdi To'xtaboyev, "Sehri qalpoqcha", 30–bet)

Mazkur lavhada, ikki kishi o'rtasidagi muloqotda, tinglovchi uchun berilgan ma'lumot kutilmagan va hayratlanarli. Ajablanish va hayrat ifodasi nima?! So'roq shaklidagi undov gap hamda "–ya!" yuklamasi yordamida ifodalangan.

O'zbek tilida mirativlik ifodasi ko'pchilik hollarda –a, –ya kabi yuklamalar yordamida amalga oshiriladi. Ammo, ingliz tilida bu kabi ko'rsatkichlar yo'qligi bois, mirativ ma'no undov gaplarda tashqari kontekstdan anglashiladi.

—Ah! Sir, a hive! A hive!

—A hive! I replied, with a gesture of incredulity.

—“Yes, a hive”, repeated the Canadian, “and bees humming round it.”

(Jules Verne, "Twenty thousand leagues under the sea", 359–bet)

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bu jihatdan mirativlik va intersubektivlik iyerarxik jihatdan munosabat kategoriyalariga yaqin hisoblanadi. Bu kategoriyalar munosabat kategoriyasining aynan bir qismi hisoblanmasa ham, semantik jihatdan mazkur kategoriyaga yaqin turadi.

Misol uchun: 1)'In 16th century, in the Bretkūnas's birthplace area, Prussians and Lithuanians are known to have lived there.'

2)'Hens are already loitering in the yard. Oh, goodness, how (I) happened to fall asleep!'

Yuqorida keltirilgan ikkala namunada inferensial evidensiallik ma'nosi ifodalangan bo'lishiga qaramasdan, (1) reportativlik va (2) mirativlik ma'nolarini ham istisno qilmayabdi.

Xulosa qilib aytganda, subyektivlik va mirativlik hodisalari so'zlovchi nuqtayi nazarining ifodalanishi bilan bog'liq bo'lsa-da, ular tilda turli xil semantik va pragmatik vazifalarni bajaradi. Subyektivlikda so'zlovchi o'zining shaxsiy qarashlari, baholari va munosabatini bildiradi bunda ma'lumotning ishonchligi, uning rost yoki yolg'onligiga e'tibor qaratiladi. Mirativlikda esa taqdim qilingan ma'lumotning kutilmaganligi, hayratomuzligi yoki g'ayrioddiy holat sifatida qabul qilinishiga e'tibor qaratiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- DeLancey, S. (2001). The mirative and evidentiality. *Journal of Pragmatics*, 33(3), 369–382.  
 Lazard, G. (2001). On the grammaticalization of evidentials. *Journal of Pragmatics*, 33(3), 359–367.  
 Nuyts, J. (2001). Epistemic modality, language, and conceptualization. Amsterdam: John Benjamins.

Sevarakhon KURBANOVA,  
 Andijan State Institute of Foreign Languages  
 PhD Student

## TURLI TIZIMLI TILLARDA RAQAMGA ASOSLANGAN NEVERBAL BELGILAR: KOGNITIV, SEMIOTIK VA PRAGMATIK MEXANIZMLAR

**Annotatsiya:** mazkur maqolada o'zbek, ingliz, rus va turk tillarida uchraydigan raqamga asoslangan neverbal belgilar kognitiv, madaniy va raqamli muloqot doirasida tahlil qilinadi. Tadqiqot raqamlarning faqat hisoblash vositasi emas, balki ma'no yuklovchi, emotsional holatni bildiruvchi, baholovchi, tartibga soluvchi va madaniy kodlarni aks ettiruvchi semiotik birlik sifatidagi ko'p qatlamli funksiyalarini ochib beradi. Raqamli ishoralarning bolaning kognitiv rivojlanishidagi o'rni, kattalar muloqotidagi pragmatik kuchi [6], an'anaviy marosimlardagi ramziy maqomi [12] hamda raqamli kommunikatsiyada global kod sifatida shakllanishi, dissertatsiya materiallari va real nutqiy ma'lumotlar asosida ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** raqamli ishora, neverbal kommunikatsiya, lingvopragmatika, multimodal semiotika, raqamli kod, madaniy ramz, kognitiv rivojlanish, o'zbek tili, ingliz tili, turk tili, rus tili...

**Аннотация:** в данной статье анализируются невербальные знаки, основанные на числах, в узбекском, английском, русском и турецком языках в рамках когнитивной, культурной и цифровой коммуникации. Исследование раскрывает многослойные функции чисел как не только средства счёта, но и как семиотической единицы, несущей смысл, выражающей эмоциональное состояние, оценивающей, регулирующей и отражающей культурные коды. На основе материалов диссертации и данных реальной речи показаны роль цифровых знаков в когнитивном развитии ребёнка, их прагматическая сила в коммуникации взрослых [6], их символический статус в традиционных ритуалах [12] и их становление как глобального кода в цифровой коммуникации.

**Ключевые слова:** цифровой знак, невербальная коммуникация, лингвопрагматика, мультимодальная семиотика, цифровой код, культурный символ, когнитивное развитие, узбекский язык, английский язык, турецкий язык, русский язык...

**Annotation:** this article analyzes nonverbal signs based on numbers in Uzbek, English, Russian and Turkish within the framework of cognitive, cultural and digital communication. The study reveals the multi-layered functions of numbers as not only a means of calculation, but also as a semiotic unit that carries meaning, expresses emotional state, evaluates, regulates and reflects cultural codes. The role of digital signs in the cognitive development of a child, their pragmatic power in adult communication [6], their symbolic status in traditional rituals [12] and their formation as a global code in digital communication are shown based on dissertation materials and real speech data.

**Keywords:** digital sign, nonverbal communication, linguovopragmatics, multimodal semiotics, digital code, cultural symbol, cognitive development, Uzbek language, English language, Turkish language, Russian language...

**1. KIRISH.** Raqamlar inson ongining eng qadimiy semantik kategoriyalaridan biri bo'lib, ularning qo'llanilishi hisoblash tizimi bilan cheklanmaydi. Zamonaviy muloqotda raqamlar multimodal semiotik resursga aylanib, nutq, imo-ishora, madaniy xotira, emotsiya va raqamli kodlar bilan uyg'un tarzda ishlaydi. Nonverbal kommunikatsiya bo'yicha mavjud tadqiqotlar, jumladan, gesture va proxemika bo'yicha

olib borilgan ishlar [1], [2] ko'p bo'lsa-da, raqam asosidagi neverbal belgilar alohida tizim sifatida yetarlicha yoritilmagan.

Kendon, McNeill va Goldin-Meadow kabi olimlarning multimodal nazariyalari [1] raqamli ishoralarning kognitiv jarayonlarda erta yoshdan boshlab muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Kattalar muloqotida esa raqamlar madaniy kod, emotsional signal, baholash

belgisi va raqamli qisqartma sifatida namoyon bo'ladi [3], [4]. Shu bois raqamlarning neverbal tizim sifatidagi funksiyasini o'rganish lingvopragmatika [6], semiotika [5] va raqamli madaniyat [3] kesishmasida alohida ilmiy ahamiyatga ega.

## 2. METODOLOGIYA.

2.1. Semiotik xaritalash. Peirce tomonidan ishlab chiqilgan uchlik semiotik tasnif asosida [5] raqamli belgilar ikonik, indeksal va ramziy guruhlariga ajratildi. Ikonik belgilarda qo'l barmoqlari bilan miqdor ko'rsatish, indeksal belgilarda bir barmoq bilan navbat so'rash yoki "nol" ishorasi orqali inkor bildirish, ramziy qatlamda esa "yetti avlod", "qirq kun", "13 – tabu" kabi tarixiy-ma'naviy mazmunlar aniqlandi [12].

2.2. Tillararo qiyosiy tahlil. O'zbek, turk, ingliz va rus tillaridagi raqamli ishora tizimlari, marosimiy mazmunlar va zamonaviy raqamli kodlar qiyoslandi. Natijada turk va o'zbek tillarida raqamlarning mifologik asoslari kuchli ekani, ingliz tilida esa texnologik-metaforik raqamlar ustuvorligi, rus tilida esa tarixiy-sotsial raqamlar xarakterli ekani aniqlandi [9], [12].

2.3. Pragmatik tahlil. Austin va Searle tomonidan taklif etilgan nutq aktlari nazariyasiga tayangan holda [7] raqamli belgilar illokutsion kuchi, nutqiy maqsadi va kontekstual vazifasiga ko'ra tahlil qilindi. "Besh!" kabi baholovchi belgining rag'bat, "bir" ishorasining navbat, "nol" ishorasining rad etish ma'nosi pragmatik mexanizmlarni yoritdi.

2.4. Multimodal diskurs tahlili. Raqamli ishoralarning nutq, intonatsiya, ko'z qarashi va tana holati bilan sinxronligi McNeillning multimodal modeliga tayangan holda tahlil qilindi [1]. Leksiyalar va suhbatlardan olingan videoyozuvlar asosida raqamning interaktiv boshqaruvdagi roli aniqlangan.

2.5. Raqamli semiotika kuzatuv. Internet memlari, emoji–raqam kombinatsiyalari, qisqa raqamli kodlar ("100", "404", "143", "520") Danesi va Crystal tomonidan yoritilgan raqamli diskurs nazariyasi asosida [3], [4] tekshirildi. Raqamli semiotikaning global standartga qarab unifikatsiyalashuvi qayd etildi.

## 3. NATIJALAR .

3.1. Raqamli ishoralarning kognitiv roli. Psixologik tadqiqotlar raqamli ishoralar bolaning miqdor tushunchasini shakllantirishda tayanch vosita ekanini ko'rsatadi [1]. Bolalar ikoniklik (miqdorni bevosita ko'rsatish) va ramziy tushunish o'rtasida bosqichma-bosqich farqlashga o'tadi, bu esa kognitiv rivojlanishning asosiy elementi hisoblanadi.

3.2. Pragmatik funksiyalar. Raqamli ishoralar nutqda quyidagi vazifalarni bajaradi:

Tartibga soluvchi: bitta barmoq bilan navbat so'rash.

Strukturaviy: "birinchidan–ikkinchidan" ketma-ketligini qo'l harakati bilan mustahkamlash.

Baholovchi: "Besh!" — yuqori baho; "nol" — rad etish.

Diqqatni jamlovchi: ko'rsatkich barmog'i orqali muhim jihatga urg'u berish. Bu funksiyalar raqamning o'ziga xos illokutsion yukini ko'rsatadi [7].

3.3. Madaniy-semiotik farqlar. Turk va o'zbek kontekstida 7, 12, 40 raqamlari chuqur mifologik qatlamga ega bo'lib, "qirq kun", "qirq chiqarmoq", "yetti avlod" kabi birliklar bu qatlamni namoyon qiladi [12].

Ingliz tilida "24/7", "101", "404" kabi texnik-metaforik raqamlar keng qo'llanadi [4]. Rus tilida "troika", "perviy sort" kabi tarixiy-sotsial raqamlar semantik iz sifatida yashab keladi [9].

3.4. Raqamli kodlarning shakllanishi. "100" (tasdiq), "911" (xavf), "143" (sevgi), "520" (xitoycha fonosemantik "men seni sevaman") kabi kodlar global yoshlar diskursida mustahkamlangan raqamli semiotik birlikka aylangan [3], [4].

## 4. MUHOKAMA.

4.1. Multimodal uyg'unlik. Kendon va McNeill tomonidan ishlab chiqilgan multimodal nazariyalar raqamli ishoralarning nutq jarayonida mustaqil emas, balki boshqa semiotik kanallar bilan uyg'unlashgan holda ishlashini ko'rsatadi. Raqam ifodalovchi qo'l harakati intonatsiya, ritm, pauza, ko'z ning yo'nalishi va tana holati bilan birgalikda yagona pragmatik birlik sifatida shakllanadi. Masalan, ma'ruzachi "birinchi jihat" deya qo'lini yuqoriga ko'targanida, intonatsiyaning ko'tarilishi va nigohning auditoriyaga qadalishi mazkur ishoraning ta'sirchanligini oshiradi. Bu holat raqamli ishoraning nafaqat vizual, balki prosodik va kinestetik qatlamlar bilan birgalikda ishlaganida muloqot samaradorligini kuchaytirishini ko'rsatadi. Demak, raqamli ishoralar multimodal tizimning markaziy komponenti bo'lib, muloqotdagi mazmunni aniqlash, tartibga solish va e'tibor markazini belgilashda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

4.2. Raqam – madaniy xotira belgisi. O'zbek va turk jamiyatlarida raqamlarning semantik yukida marosimiy, mifologik va tarixiy qatlamlar mustahkam o'rin tutadi. "Yetti", "o'n ikki", "qirq" kabi raqamlar Lotman semiosferasida madaniy xotiraning barqaror

omillari sifatida talqin qilinadi. Raqamlarning ana shunday barqarorligi ularning avloddan avlodga o'tuvchi ma'nosi bilan bog'liq bo'lib, jamiyatning dunyoqarashi, qadriyat tizimi va vaqt haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi. Masalan, "qirq kun" marosimi o'zbek jamiyatida ruhiy tozalanish, tiriklik va o'tish holatini bildirsa, turk jamiyatidagi "kırkı çıkmak" ham xuddi shu mazmunga ega bo'lgan ramziy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Bu raqamlar jamiyatning ommaviy tafakkurida chuqur ildiz otgan bo'lib, muloqotda ularning ishlatilishi madaniy identifikatsiya vositasi sifatida ahamiyat kasb etadi.

4.3. Digitalizatsiya jarayoni. Zamonaviy raqamli kommunikatsiya rivoji raqamli ishoralarning semantik tabiatini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Ilgari faqat jismoniy ishora sifatida qo'llangan raqamlar endilikda internet protokollari, ijtimoiy tarmoqlardagi qisqa xabarlar, hashtaglar yoki emoji kombinatsiyalari orqali yangi neverbal shaklda namoyon bo'lmoqda. Masalan, "404" chalkashlik yoki mavjud bo'lmagan ma'lumot ma'nosini bildirsa, "100" tasdiq va ma'qullashni anglatadi, "99+" ortiqcha yuklama holatini ifodalab, raqamga asoslangan yangi emotsional va konnotativ qatlamlar yaratadi. Bu jarayon raqamlarning semantik maydonini kengaytiribgina qolmay, ularni global muloqotda tezkor, ixcham va chegarasiz semiotik birlik sifatida shakllantirmoqda. Natijada raqamlar internet avlodi nutqida yangi kodlash tizimining markaziy elementiga aylanmoqda.

**5. XULOSA.** Tadqiqot natijalari raqamga asoslangan neverbal belgilar til, madaniyat, kognitsiya va raqamli kommunikatsiya kesishmasida joylashgan ko'p qatlamli va murakkab semiotik tizim ekanini ko'rsatdi. Raqamlar inson tafakkurida dastlab miqdor ifodalovchi birlik sifatida shakllangan bo'lsa-da, zamonaviy muloqot sharoitida ularning funksional diapazoni sezilarli darajada kengaydi. Ular hissiy munosabatni ifodalash, baholash, nazorat qilish, diqqatni jamlash, ritual jarayonlarni belgilash, madaniy identitetni mustahkamlash hamda raqamli platformalarda ixcham va global kod sifatida ishlash kabi vazifalarni bajaruvchi samarali kommunikativ vositaga aylandi. Raqamlarning bu qadar ko'p funksiyali bo'lishi ularni universal semiotik belgi sifatida qabul qilish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot raqamli ishoralarning madaniy kontekstdan tashqari raqamli makonda ham yangi ma'no qatlamlarini shakllantirayotganini aniqladi. Internet orqali tarqaladigan "100", "404", "520", "99+" kabi qisqa raqamli kodlar global kommunikatsiyada emotsional, baholovchi yoki informativ ma'no uzatadigan tezkor semiotik birlik sifatida mustahkam o'rnashib bormoqda. Bu esa raqamlarning nafaqat an'anaviy, balki raqamli madaniyatdagi o'rnini ham keng qamrovda o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Birdwhistell R. Kinesics and Context. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1970.
2. Hall E. The Hidden Dimension. – New York: Anchor Books, 1966.
3. Danesi M. The Semiotics of Emoji. – London–New York: Bloomsbury, 2017.
4. Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011.
5. Peirce C. S. Philosophical Writings of Peirce. – New York: Dover Publications, 1955.
6. Morris C. Signs, Language and Behavior. – New York: Prentice Hall, 1946.
7. Austin J. L. How to Do Things with Words. – Oxford: Oxford University Press, 1962.
8. Карасик В. И. Язык социального взаимодействия. – Москва: ИТДГК «Гнозис», 2004.
9. Wierzbicka A. Semantics: Primes and Universals. – Oxford: Oxford University Press, 1996.
10. Стернин И. А. Прагматика общения. – Воронеж: Воронежский государственный университет, 2012.
11. Kurbanova S. R. Number-Based Nonverbal Signs in Multisystem Languages. PhD Dissertation. Andijan State Institute of Foreign Languages, 2025.
12. Лотман Ю. М. Вселенная разума. Семиотическая теория культуры. – Блумингтон: Indiana University Press, 1990.

Feruza XIDOYATOVA,

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
Oliy ta'limni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar markazi doktoranti

## MOBIL ILOVALAR ORQALI KO'ZI OJIZ TALABALARGA INGLIZ TILIDA IJODIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH

**Annotatsiya:** ushbu maqolada mobil ilovalar yordamida ko'zi ojiz o'quvchilarda ingliz tilida ijodiy fikrlashni shakllantirishning samarali usullari tahlil etiladi. Tadqiqotda mobil ilovalarning didaktik vazifalari, multisensorli o'qitish tamoyillari va ijodiy vazifalarni tuzish metodlari ilmiy asosda o'rganilib, ko'rish imkoniyati cheklangan o'quvchilarning talablariga moslashtirilgan pedagogik maslahatlar taqdim etiladi.

**Kalit so'zlar:** mobil ilovalar, ijodiy fikrlash, dasturlar, raqamli texnologiyalar, didaktik vazifalar, multisensorli o'qitish, metodlar, mobil texnologiya.

**Аннотация:** в статье анализируются эффективные методы развития творческого мышления на английском языке у учащихся с нарушением зрения с помощью мобильных приложений. В исследовании с научной точки зрения изучаются дидактические задачи мобильных приложений, принципы мультисенсорного обучения и методы создания творческих заданий, а также даются педагогические рекомендации, адаптированные к потребностям учащихся с нарушением зрения.

**Ключевые слова:** мобильные приложения, творческое мышление, программы, цифровые технологии, дидактические задачи, мультисенсорное обучение, методы, мобильные технологии.

**Annotation:** this article analyzes effective methods for developing creative thinking in English among visually impaired students using mobile applications. The study scientifically studies the didactic tasks of mobile applications, the principles of multisensory teaching, and the methods of creating creative tasks, and provides pedagogical advice tailored to the needs of visually impaired students.

**Key words:** mobile applications, creative thinking, programs, digital technologies, didactic tasks, multisensory teaching, methods, mobile technology.

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, talabalar uchun bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va o'quv motivatsiyasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ko'zi ojiz talabalar uchun ishlab chiqilgan yoki ularga moslashtirilgan mobil ilovalar ekran o'qiydigan texnologiyalar, audio materiallar, ovoz orqali boshqariladigan o'quv dasturlari, brauzer plaginlari va turli lingvistik platformalar ingliz tilini o'rganishda yangi pedagogik imkoniyatlarni yaratmoqda. Ayniqsa, audio-dialoglar, kreativ vazifalar, muammoli topshiriqlar va ovozli brainstorming kabi jarayonlarni mobil qurilmalar orqali tashkil etish ijodiy fikrlashni rag'batlantiruvchi samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ko'rish imkoniyati cheklangan talabalarning ta'lim jarayonini yaxshilash, xususan, chet tilini o'qitish va kreativ fikrlashni rivojlantirish masalalari bo'yicha jahon ilmiy hamjamiyatida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan. O'zbekistonlik olimlar M. Mahkamova,[5:152] va G. Sodiqova[8:37] esa ko'rish imkoniyati cheklangan bolalarning psixologik-pedagogik rivojlanishi va o'quv jarayonining o'ziga xos jihatlari bo'yicha tadqiqotlar olib borib, korreksion-ta'limiy metodlarning milliy tajribasini shakllantirishga hissa qo'shganlar.

Mobil texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud. Xalqaro

miqyosda M. Alley, [1:97] S.Mangold, [6:71] J. Sile va kabi olimlar mobil ta'limning nazariy asoslarini ishlab chiqib, til o'rganishda mobil ilovalarning ahamiyatini chuqur o'rganishgan. O'zbekistonda bu soha bo'yicha A. Jo'rayev, [4:83] D. Qambarova [7:25] larning tadqiqotlari raqamli ta'lim va mobil pedagogika uchun metodik asoslarni yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Chet tili o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlar, jumladan J. Harmer [3:122], va D. Braun [2:112] tomonidan amalga oshirilgan ishlar, kommunikativ yondashuv, topshiriqqa asoslangan o'qitish va kreativ vazifalarni ta'lim jarayonida qo'llashning samaradorligini ko'rsatadi. Ularning fikrlari ingliz tilini o'rganishda kreativlikni rag'batlantiruvchi topshiriqlarni ishlab chiqishda muhim metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

**Asosiy qism.** Mobil ilovalar yordamida ingliz tilini o'qitish jarayonida ko'zi ojiz o'quvchilar uchun yaratilgan pedagogik imkoniyatlar ularning o'quv faoliyatini qulay, mustaqil va interaktiv tarzda tashkil etishga yordam beradi. Mobil texnologiyalar, masalan, screen reader, audio-feedback va voice-based learning kabi funksiyalar vizual cheklovlarni yengib o'tishga yordam berib, o'quvchini til o'rganish jarayoniga to'liq jalb etadi. Bu texnologiyalar o'quvchilarga yangi lug'at birliklarini, grammatik tuzilmalarni, turli matn va dialoglarni audio shaklda eshitib o'rganish imkonini beradi, shu bilan birga ularning eshitish orqali idrok etish qobiliyatini

faollashtiradi. Mobil ilovalar ingliz tili ta'limida bir nechta didaktik vazifalarni bajaradi.

Birinchidan, ular informativ vazifani bajarib, turli matn va dialoglarni ekran o'qish texnologiyalari orqali eshitish imkonini beradi.

Ikkinchidan, trening vazifasi orqali o'quvchilar nutqiy ko'nikmalarini mustahkamlashlari va ovozni tanish imkoniyatiga ega dasturlar yordamida talaffuzlarini to'g'rilashlari mumkin.

Uchinchidan, audio-feedback orqali baholash jarayoni vizual axborotni to'liq qoplaydi va o'quvchining xatolarini darhol ko'rsatib, ularni tuzatishga yo'naltiradi.

Ko'zi ojiz o'quvchilar bilan ishlashda multisensorli o'qitish tamoyillarining qo'llanilishi juda muhimdir. Mobil vositalardan foydalanishda audial ta'lim tamoyili asosiy o'rinni egallaydi, chunki barcha ma'lumotlar audio shaklida taqdim etiladi. Verbal faollik tamoyili ham ahamiyatga ega, chunki o'quvchilar topshiriqlarni ovoz orqali bajaradi, gap tuzadi va fikrlarini ifodalaydi. Ba'zi ilovalar braille-display bilan integratsiyalashganligi sababli taktil tamoyil ham qo'llaniladi. Bu multimodal yondashuv o'quvchilarning eshitish, nutq va tasavvur tizimlarini birgalikda faollashtirib, kreativ fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Mobil texnologiyalar asosidagi ta'lim jarayonida ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlar muhim ahamiyatga ega. Masalan, o'quvchilar ovoz yozish ilovalari orqali berilgan mavzu bo'yicha mustaqil audio-hikoyalar yaratishi yoki turli vaziyatlarga mos dialoglarni ovoz orqali modellashirishi mumkin. Muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar o'quvchilarni noodatiy yechimlar topishga undaydi. Audio-brainstorming orqali esa o'quvchilar bir mavzu bo'yicha turli fikrlarni audio shaklda almashadilar, bu esa ularning assotsiativ, divergent va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Voice-based quizlar esa topshiriqlarni tez fikrlash asosida bajarishga imkon beradi.

Ko'zi ojiz o'quvchilarda ingliz tilida ijodiy fikrlashni rivojlantirish jarayonini takomillashtirish uchun avvalo mobil texnologiyalarni ularning ehtiyojlariga moslashtirish zarur. Buning uchun ekran o'qish texnologiyasi bilan to'liq mos keladigan, ovozli boshqaruv, audio-yo'riqnoma va taktil integratsiya imkoniyatlariga ega o'quv ilovalarini

yaratish yoki mavjud dasturlarni yangilash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan audio-hikoya yaratish, dialog modellashirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va brainstorming kabi topshiriqlarni o'z ichiga olgan maxsus topshiriqlar bankini tuzish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

O'qituvchilar uchun mobil texnologiyalar bilan ishlash bo'yicha metodik qo'llanmalar ishlab chiqish ham muhimdir. Bunday qo'llanmalarda mobil ilovalar asosida ijodiy topshiriqlar tuzish, ularni bosqichma-bosqich o'quv jarayoniga tatbiq etish va audio-multisensor yondashuvni qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar berilishi lozim. Baholash jarayonida audio-feedback tizimidan keng foydalanish o'quvchilarga vizual ma'lumotlarga bog'lanmasdan, o'z xatolarini tezda anglash va tuzatishga yordam beradi.

Darslarni multisensorli ta'lim tamoyillari asosida tashkil etish eshitish, taktil idrok va verbal faollikni uyg'unlashtirish ijodiy tafakkurni yanada rivojlantiradi. Shu bilan birga, o'quvchilarni mustaqil o'rganishga yo'naltiruvchi audio-kitoblar, podkastlar, dialog generatorlari va ijodiy ovozli topshiriqlarni yozib olish imkoniyatiga ega platformalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mobil ilovalarda gamifikatsiya elementlarini qo'llash ballar tizimi, ovozli rag'batlantirish va bosqichma-bosqich vazifalar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirib, ularni o'quv jarayoniga faol jalb etadi. Ota-onalar va pedagoglar uchun mobil ilovalar bilan ishlash, audio materiallar yaratish va kreativ yondashuv metodlarini o'rgatuvchi treninglar va seminarlar tashkil etilishi bu jarayonni yanada samarali qiladi.

**Xulosa.** Ko'rish imkoniyati cheklangan o'quvchilarda ingliz tilida ijodiy fikrlashni rivojlantirishda mobil texnologiyalar muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekran o'qish, audio-feedback, ovozga asoslangan o'rganish va braille-display bilan birlashtirilgan mobil ilovalar o'quvchilarning mustaqil o'rganish, vaziyatlarni hal qilish va ijodiy yondashuvlarini samarali ravishda rivojlantirishga yordam beradi. Multisensorli ta'lim tamoyillari asosida tashkil etilgan darslar esa o'quvchilarning eshitish, taktil va verbal idrok faoliyatlarini birlashtirib, divergent fikrlashni shakllantiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alley, M. Mobile learning in higher education: Theoretical perspectives and applications. Routledge. 2019. P. 97
2. Braun, D. Task-based language teaching in practice. Cambridge University Press. 2017. P. 112
3. Harmer, J. The practice of English language teaching (5th ed.). Pearson Education. 2015. P. 122
4. Jo'raev, A. Raqamli ta'lim va mobil pedagogika: O'zbekiston tajribasi. – Tashkent: Fan, 2021. 83-bet.
5. Mahkamova, M. Ko'rish imkoniyati cheklangan bolalarning psixologik-pedagogik rivojlanishi. – Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi nashriyoti, 2020. 152-bet.
6. Mangold, S. Teaching visually impaired learners: Compensatory strategies and assistive technology. New York: Routledge. 2016. P. 71
7. Qambarova, D. Mobil ta'lim va innovatsion pedagogika metodlari. – Tashkent: Oliy va o'rta maxsus ta'lim nashriyoti, 2021. 25-bet.
8. Sodiqova, G. Korreksion-ta'limiy metodlar va milliy tajriba. – Tashkent: Pedagogika nashriyoti, 2020. 37-bet.

Feruz G'AYBULLOYEVA,  
ToshDO'TAU 1-bosqich tayanch doktoranti

## O'QUVCHILARNING OG'ZAKI NUTQINI FORMATIV BAHOLASH STRATEGIYALARIGA BAG'ISHLANGAN SO'ROVNOMA TAHLILI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ona tili darslarida o'quvchilar og'zaki nutqini baholashning mavjud holatini aniqlash, muammolarni tahlil qilish hamda sinflar kesimida ilmiy asoslangan baholash mezonlarini ishlab chiqish zarurligini asoslash maqsadida maktab o'qituvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalarini yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ona tili ta'limi, og'zaki nutq, baholash mezonlari, nutq ravonligi, nutq to'g'riligi, sinf kesimida baholash

**Annotation:** the article presents the results of a survey conducted among school teachers aimed at identifying the current state of assessing students' oral speech in mother tongue lessons, analyzing existing problems, and substantiating the need to develop scientifically grounded assessment criteria differentiated by grade levels.

**Keywords:** mother tongue education, oral speech, assessment criteria, speech fluency, speech accuracy, grade-specific assessment.

**Аннотация:** в статье освещены результаты анкетирования, проведенного среди школьных учителей, с целью выявления современного состояния оценки устной речи учащихся на уроках родного языка, анализа проблем и обоснования необходимости разработки научно обоснованных критериев оценки устной речи, дифференцированных по классам.

**Ключевые слова:** обучение родному языку, устная речь, критерии оценки, беглость речи,

Ma'lumki, pedagogik-metodik tadqiqotlarda tajriba-sinov quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tayyorlov bosqichi.
2. Shakllantiruvchi bosqich.
3. Yakuniy (ta'kidlovchi) bosqich.

Biz ham ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki nutqini formativ baholash metodikasini takomillashtirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarini mavjud tartiblar asosida amalga oshirdik.

1. *Tayyorlov bosqichi.* Bu bosqichda ona tili ta'limida o'quvchilarning og'zaki nutqini baholashning mavjud holatini, formativ baholash jarayonida og'zaki nutqni baholash zaruratini aniqlash, tajriba-sinov boshi ishlarini tashkil etish ishlari amalga oshirildi.

Bunda, avvalo, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari ishtirokida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomadani o'quvchilarning og'zaki nutqini baholash zaruratini aniqlash, mavjud holat haqida ma'lumotlar to'plash maqsad qilindi. Bunda quyidagi savollardan foydalanildi:

1. Ona tili ta'limida dars jarayonida o'quvchilaringizning og'zaki nutqini baholab borasizmi?
2. O'quvchilaringizning og'zaki nutqini rivojlantirish uchun uyga vazifalar berasizmi?
3. Ona tili ta'limida o'quvchilarning og'zaki

nutqini baholaganingizda nutqning asosan qaysi jihatlariga e'tibor qilasiz?

4. Ona tili darslarida har bir o'quvchini qay darajada baholab borasiz?

5. Ona tili ta'limida 7-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini baholashda to'sqinlik qiluvchi omillarni yozing.

6. Ona tili darsliklari va metodik qo'llanmalarida o'quvchilarning og'zaki nutqini baholash mezonlari berilganmi?

7. Tajriba-sinov sifatida tashkil etilgan formativ va summativ baholash tizimida ona tili fanidan 7-sinf o'quvchilarning og'zaki nutqi ham baholanmoqdam?

8. Ona tili darslarida o'quvchilaringiz fikrini og'zaki bayon qilishda qiynaladimi?


9. O'quvchilaringizning o'rtacha necha foizi o'z fikrini og'zaki tarzda erkin ifodalay oladi?

10. Ona tili darslarida har bir sinf uchun o'quvchilarning og'zaki nutqini baholash mezonlariga ehtiyoj bormi?

So'rovnoma natijalarini tahlil qilib ko'rdik. Ushbu so'rovnoma respublikaning turli hududlaridan bo'lgan ona tili va adabiyoti fanidan dars beruvchi 88 nafar o'qituvchi ishtirokida <https://docs.google.com/> platformasida o'tkazildi.

Avvalo, o'qituvchilardan qaysi hududda faoliyat yuritishi so'raldi, natijalari 1-diagrammada aks etgan.

Hududingiz:  
88 ответов



**3.1-diagramma. O'qituvchilarning faoliyat yuritadigan hududlari**

Shundan so'ng dars jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutqini baholab borishi so'raldi. (2-diagrammaga qarang.)


[H] Ona tili ta'limida dars jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutqini baholab borasizmi?  
88 ответов



**3.2-diagramma. O'qituvchilarning dars jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutqini baholab borishi**

Ko'rinadiki, ona tili fanidan dars beruvchi o'qituvchilar 51,1%i o'quvchilarning og'zaki nutqini doim baholab borishini ta'kidlashgan bo'lsa, 45,5 %i esa tez-tez baholab borishini qayd etishgan. Qolgan o'qituvchilar o'quvchilarning og'zaki nutqini deyarli baholamasligini bildirishgan. Ushbu so'rovnoma berilgan savolga javoblarning ishonchligini aniqlash maqsadida dars jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutqini qay darajada baholab borishi so'raldi. (3-diagrammaga qarang.)

[H] Ona tili darslarida o'quvchilarning har bir o'quvchini qay darajada baholab borasiz?  
88 ответов




**3.3-diagramma. O'qituvchilarning dars jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutqini qay darajada baholab borishi**

Ma'lum bo'ldiki, ona tili fanidan dars beruvchi o'qituvchilar 29,5%i o'quvchilarning barchasining og'zaki nutqini baholab borishini ta'kidlashgan bo'lsa, 48,9 %i esa har uch darsda bir bor, 11,4 %i har 4 darsda, qariyb 5 %i har besh darsda bir marta baholab borishini aytib o'tishgan. Qolgan o'qituvchilar o'quvchilarning og'zaki nutqini deyarli baholamasligini qayd etishgan.

Bu ikki so'rovnoma javoblaridan ma'lum bo'ladiki, aksariyat maktablarda o'rtacha hisobda har to'rt darsda bir bor o'quvchilarning og'zaki nutqi baholanmoqda. Shu bilan birga ayrim maktablarda, o'quvchilarning og'zaki nutqi deyarli baholanmayapti.

Shuningdek, o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish maqsadida uyga vazifalar berish holatini aniqlash maqsadida navbatdagi so'rovni taqdim etdi. (4-diagrammaga qarang.)

[H] O'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish uchun uyga vazifalar berasizmi?  
88 ответов




**3.4-diagramma. O'qituvchilar tomonidan o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish maqsadida uyga vazifalar berish holati**

Ko'rinib turibdiki, o'qituvchilarning 53,4 %i doimiy ravishda uyga vazifa berib borishar ekan, 40,9 % respondentlar esa, ba'zan uyga vazifa berishlarini ta'kidlashgan. Boshqa respondentlar o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish maqsadida uyga vazifalar berishmasliklarini bildirgan. Bu shuni ko'rsatadiki,

aksariyat maktablarda uyga vazifa sifatida og'zaki nutqni rivojlantiruvchi va baholovchi topshiriqlar muntazam berilmaydi.

Shundan so'ng o'qituvchilardan ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki nutqini baholaganlarida nutqning asosan qaysi jihatlariga e'tibor qaratishi so'raldi. (5-diagrammaga qarang).

[H] Ona tili ta'limida o'quvchilarning og'zaki nutqini baholaganingizda nutqning asosan qaysi jihatlariga e'tibor qilasiz?  
88 o'tabetos



### 3.5-diagramma ona tili ta'limida o'quvchilarning og'zaki nutqini baholashda og'zaki nutqning asosan qaysi jihatlariga e'tibor berish holati

Natijalar shuni ko'rsatdiki, ishtirokchilarning 50% dan ortig'i nutqning ravonligi va to'g'riligini tashkil qilmoqda. Bundan ko'rinadiki, ko'pchilik o'qituvchilar uchun og'zaki nutqi ravon va to'g'ri bo'lgan o'quvchining nutqi talabga javob beradi. 30%dan 40% gacha bo'lgan ko'rsatkich, nutqning mantiqiyliigi, boyligi hamda ifodaliligi to'g'ri kelyapti. Eng kam ko'rsatkich, ya'ni 25%dan 30% gacha bo'lgan ko'rsatkichlar nutqning jo'yalligi, asosligi hamda tugalligini ko'rsatdi. Demak, ko'pchilik o'qituvchilar uchun asosli va tugal nutq so'zlash baholash jarayonida unchalik muhim emas.

umumlashmalarining shakllanmaganligi, nutqiy eshitish, nutqiy-harakat va ko'ruv analizatorlarining rivojlanmaganligida aniqlangan.

Shu bilan birga, intellektual rivojlanishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarida yozma nutq nuqsonlari barqarorligi bilan tavsiflanadi, bu kognitiv faoliyatning rivojlanmaganligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, unda barcha aqliy jarayonlar: idrok, diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur rivojlanmaganligi kuzatiladi.

Ushbu toifadagi maktab o'quvchilarida disgrafiyaning simptomatikasi yozuvdagi ko'p sonli va xilma-xil xatolar va ularning mexanizmlarining murakkabligi (V.V.Voronkova, E.M.Gopichenko, E.F.Sobotovich) bilan tavsiflanadi, ko'pincha murakkab shaklda kompleks, turli shakllar (akustik va artikulyatsion-akustik va boshqalar) kombinatsiyasida namoyon bo'ladi [8].

Eshitish diqqati va xotirasi shakllanmagan, intellektual rivojlanishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar bir faoliyat turidan ikkinchisiga o'tishda qiynaladilar, ular 4-5 so'zdan iborat jumlani xotirada saqlaydilar va uni takrorlashda qiynaladilar. Ular uchun eshitish idrokiga asoslangan xotiradan yozish juda qiyin topshiriqlardan biri hisoblanadi. O'qituvchining sinfga

qaratilgan nutqini qabul qilishda qiyinchiliklar mavjud. Ular murakkab ko'rsatmalarni tushunishmaydi.

Vizual diqqat, idrok va xotiraning shakllanmaganligi to'g'ri, ongli o'qishga to'sqinlik qiladi. Bolalar nusxa ko'chirishda ko'p xatolarga yo'l qo'yishadi, o'zlarining yozma ishlarini tekshirishda xatolarni topa olmaydilar, darslik yoki doskada berilgan jadvallar, plakatlar, namunalardan foydalanishni bilmaydilar.

Fonematik idrokning rivojlanmaganligini hisobga olgan holda, intellektual rivojlanishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar juda sekinlik bilan bo'g'in va tovush-harf tahlilini o'zlashtiradilar. Bunday o'quvchilarning ishlarida juda ko'p turli xil xatolar mavjud: harfni tushirib qoldirish, so'zlarni oxirigacha yozmaslik, qo'shimcha harflar va bo'g'inlar bilan so'zlarni yozish, so'z ichidagi harflarni, bo'g'inlarni o'zgartirish, so'zlarni qo'pol buzish. So'zlarning uzluksiz yozilishi, so'zlarning ixtiyoriy bo'linishi.

Intellektual rivojlanishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda ushbu nutq nuqsonlarini bartaraf etish bo'yicha ishlar barcha o'quv fanlarida amalga oshirilishi kerak, ammo yozma nutq kamchiliklarini to'liq bartaraf etishda logopedik mashg'ulotlar muhim ahamiyatga ega. An'anaviy o'qitish usullari va zamonaviy axborot texnologiyalar kombinatsiyasidan foydalanish logopedga ushbu muammoni hal qilishda yordam beradi. Yangi axborot texnologiyalari og'zaki va yozma nutqda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion va rivojlantiruvchi ishlarning istiqbolli vositasiga aylandi. Keng tarqalgan kompyuterlashtirish yangi, hali o'rganilmagan o'rganish imkoniyatlarini ochadi. Ular zamonaviy elektronika va telekommunikatsiyalarning noyob imkoniyatlari bilan bog'liq.

Yozma nutqdagi nuqsonlarni multimedia texnologiyalari yordamida tuzatish bo'yicha mashg'ulotlar ham dolzarb, ham zamonaviydir, ular bolalar uchun qiziqarli, o'z-o'zini rivojlantirish uchun qo'shimcha rag'bat bo'lib xizmat qiladi, nutq nuqsonini bartaraf etishga yordam beradi, aqli zaif bolaning kommunikativ xususiyatlarini faol shakllantiradi va korreksion ta'sirning kuchli va samarali vositasi hisoblanadi.

Maxsus adabiyotlarda rivojlanishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar bilan korreksiya ishlarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga oid tadqiqot masalalari bilan E.P.Sineva, O.I.Kukushkina, A.Y.Isakov, L.R.Muminova, M.Y.Ayupova va boshqalar shug'ullanadi.

Hozirgi vaqtda bolalar uchun umumiy rivojlantiruvchi interfaol o'yinlari va kompyuter dasturlarining juda katta zaxirasi mavjud. Biz korreksion jarayonda quyidagi o'quv dasturlarini

o'rganib chiqdik va sinovdan o'tkazdik: "Delpha – 141" logopedik simulyatori, "Jumla", "Alifbe", "Logopedik mashqlar", "Yo'lbarslar uchun o'yinlar" va boshqalar. Qiziqarli hikoyalar bolalar uchun juda muhim bo'lgan o'yin shukuhini yaratadi, chunki kompyuter dasturlari bilan o'qishning asosiy maqsadi nafaqat yangi bilimlarni o'zlashtirish va ilgari olingan bilimlarni mustahkamlash, balki bolalarni hissiy jihatdan ozod qilish, ularni faollashtirish va samarali ishlashga undashdir [7].

Yozma nutqdagi nuqsonlarni bartaraf etish uchun samarali kompyuter dasturlaridan biri bu "Alifbe" ixtisoslashtirilgan kompyuter dasturidir. Ushbu dastur bolalar bilan individual va kichik guruhlardagi ishlarni samarali tashkil etish imkonini beradi. Dastur alohida yordamga muhtoj bolalarni o'qitish usullariga asoslangan (L.N.Efimenkova, G.A.Kashe, R.E.Levina, R. I. Lalayeva va boshqalar). "Alifbe" kompyuter dasturi bolalarning bosma matnni o'zlashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq hisobga oladi, bolalar ijodiyotining yangi ekspressiv vositalarini izlash, ideografik yozuvdan fonemik yozishga o'tish uchun sharoit yaratadi. Kompyuter dasturidan foydalangan holda ishlash foydalanuvchi faoliyatining natijalarini vizual idrok etish va nazorat qilish asosida amalga oshiriladi. Qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan ba'zi mashqlarda eshitish qobiliyatiga qo'shimcha tayanish imkoniyati ta'minlanadi. Shunday qilib, markaziy asab tizimining barqaror vizual-kinestetik shartli refleksli aloqalarini shakllantirishga imkon beruvchi kompensatsion mexanizmlar faollashadi. Logopedik ish jarayonida ular asosida to'g'ri nutq ko'nikmalari, kelajakda esa o'z nutqini o'z-o'zini nazorat qilish shakllanadi. Bu yozma nutq buzilishlarini samarali va qisqa vaqt ichida tuzatishga imkon beradi. Ushbu dastur harfning ko'rinishini aniqlash, abstrakt chizma orasidagi harfga rang berish, topishmoq javobini yozish, berilgan so'z, iborani harflardan yig'ish, so'zda yetishmayotgan harfni aniqlash kabi topshiriqlardan iborat.

"Jumla" trenajyor dasturi ham yozma nutqdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun mo'ljallangan. Ma'lumki, intellektual rivojlanishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning yozma nutqi ko'plab imlo xatolari bilan birga keladi. Ushbu dastur to'g'ri yozish ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi.

Yozma nutqdagi kamchiliklarni bartaraf etishda logopedik mashg'ulotlar Word, matn muharriri yordamida o'tkazilishi mumkin. Alohida yordamga muhtoj bolalarda ko'pincha keskinlik, yozish qo'rquvi va bu ko'nikmalarni yaxshilashni istamaslik paydo bo'lganligi sababli, kompyuter mashg'ulotlarni davomiy

yozish va qayta yozish jarayoniga aylantirmasdan, bu muammolarni qisman yengillashtiradi. Matn muharririda ishlash savodxonlik darsini eslatadi – kerakli tugmachani izlash jarayoni davomiy bo'lgani sababli baland ovozda gapirish, har bir tovushni artikulyatsiya qilishga to'g'ri keladi. Shunday qilib, matn redaktorida ishlash jarayonida nutqiy-eshitish, nutq-motor, vizual analizatorlar faollashadi. Harakat analizatori tugmachalar bo'ylab barmoqlar harakati darajasida ishlay boshlaydi, bu esa bolaning mayda qo'l motorikasi ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Harflar, bo'g'inlar, so'zlar, iboralar yozilsa, bola chapdan o'ngga qatorni kuzatish imkoniyatiga ega, bu esa yozishda nuqsonlari bo'lgan o'quvchilar uchun muhimdir. Word dasturi logopedga tashxis qo'yishda yordam beradi, chunki u natijalarni vizual taqqoslash uchun yil boshida korreksion jarayondan oldin va keyin bolaning bajargan topshiriqlarini kompyuter xotirasida saqlashga imkon beradi [7].

Kompyuter bolalarning intellektual va ijodiy rivojlanishi uchun kuchli yangi vosita ekanligini e'tirof etgan holda, u faqat o'qituvchini to'ldirishi va uning o'rnini bosmasligi kerakligini unutmaslik kerak. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish jarayonida shuni unutmasligimiz kerakki, ta'limdan tashqari bolaning sog'ligini saqlashimiz juda muhim. Shuning uchun kompyuter bilan ishlash logopedik mashg'ulotning bosqichi sifatida rejalashtirilishi, uning tuzilishiga mantiqiy mos kelishi, mavzuga mos bo'lishi kerak. Bir darsda kompyuterda ikki yoki uchtdan

ko'p bo'lmagan mashqlarni kiritish tavsiya etiladi, chunki ishdagi haddan tashqari xilma-xillik hissiy qo'zg'alishning noadekvatligiga olib keladi.

Logopedik mashg'ulotlarni kompyuter texnologiyalari yordamida rejalashtirishda quyidagi sxemadan foydalanish mumkin: darsning asosiy maqsadlariga javob beradigan bitta asosiy mashq va yordamchi vazifalarni hal qiladigan 1-2 mashq. Logopedik mashg'ulotda kompyuter texnologiyalari bilan ishlash bosqichining davomiyligi 5-10 minutdan oshmasligi maqsadga muvofiq.

Ta'lim jarayonida interfaol o'yinlar va kompyuter dasturlaridan foydalanish til va nutq vositalarini, muloqot qobiliyatlarini, yuqori aqliy funksiyalarni shakllantirish va rivojlantirish vaqtini sezilarli darajada qisqartirishi mumkin. Bundan tashqari, ularning logopedik mashg'ulotlarga kiritilishi korreksion jarayonini individuallashtirishga, har bir bolaning ta'lim ehtiyojlarini hisobga olishga imkon beradi, bu oxir-oqibatda korreksion-rivojlantiruvchi jarayonning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, kompyuter texnologiyalari samarali texnik vosita bo'lib, uning yordamida korreksion va rivojlantiruvchi jarayonni sezilarli darajada boyitish, individual faoliyatni va bolalarning kognitiv jarayonlarini rivojlantirishni rag'batlantirish, bolaning yozma nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish, zamonaviy hayotga moslashgan ijodiy shaxsni tarbiyalash mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аюпова М.Ю. “Логопедия” –Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти. 2019 йил
2. Ayupova, Mukarram, and Aziza Jumabayeva. “Pedagogical and psychological characteristics of speechimpaired children in preschool education.” Science and Education 2.5 (2021): 544-549.
3. Mamatkulova, L. T. (2022). Using computer technology in overcoming the written speech defects in children with mental retardation. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(8), 1-4.
4. Mamatkulova L.T. (2022).”Defects in the written speech of elementary school students with intellectual disabilities and their elimination” Confrnceea, 6 (6), 16-17
5. Mamatkulova L. T. “Effective development of the speech of mentalli retarded students on the basis of innovative technologies”. Journal of Pedagogical Inventions and Practices 27 (ISSN NO: 2770-2367), 23-24
6. Ефименкова, Л.Н. Коррекция ошибок, обусловленных несформированностью фонематического восприятия.: методическое пособие по коррекции письменной речи [Текст] / Л. Н. Ефименкова – М.: Книголюб, 2006. – 144с.
7. Кукушкина О.И. Использование информационных технологий в различных областях специального образования: Дис...д-ра пед.наук: 13.00.03 — Москва, 2005.
8. Сиротюк, М.В.Смешанная дисграфия – миф или реальность//Дефектология №2. 2006г – 26-30с.

Manzura MIRZAYEVA,  
Andijon davlat texnika instituti dotsenti  
Mushtariy SHERBOEVA,  
Turon universiteti magistranti

## MATEMATIK MUTAXASSISLAR UCHUN INGLIZ TILINI O'QITISHDA SOHAGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada yoshi katta matematika fani o'qituvchilariga ingliz tilini dastlabki darslarda o'rgatish uchun ko'rsatmalar ishlab chiqilgan. Matematikaning fundamental tushunchalarini ingliz tilida aytilishini o'rgatish tartibi belgilanib, shu tartib bo'yicha ularni misollar orqali o'rgatish uchun materiallar taqdim etilgan. Bunda matematik tushunchalarni o'rgatish davomida ingliz tili grammatikasini ham o'rgatib borish nazarda tutiladi. Maqoladan til o'rgatuvchi o'qituvchilar foydalanishlari mumkin

**Kalit so'zlar:** *karra jadvali, oddiy kasr, o'nli kasr, surat va maxraj, butun qism, takrorlanadigan raqam, arifmetik operatsiyalar, kvadrat ildiz, kub ildiz.*

**Аннотация:** в данной статье разрабатываются методические рекомендации по преподаванию английского языка учителям математики старшего возраста на начальных уроках. Определена методика преподавания фундаментальных математических понятий на английском языке, а также представлены материалы для их наглядного преподавания в рамках данной методики. Это предполагает одновременное обучение грамматике английского языка и математическим понятиям. Статья может быть использована преподавателями иностранных языков.

**Ключевые слова:** *таблица умножения, обыкновенная дробь, десятичная дробь, числитель и знаменатель, целая часть, повторяющееся число, арифметические действия, квадратный корень, кубический корень.*

**Annotation:** this article develops methodological recommendations for teaching English to senior mathematics teachers in elementary lessons. A methodology for teaching fundamental mathematical concepts in English has been defined, and materials for their visual teaching within the framework of this methodology have been presented. This involves simultaneously teaching English grammar and mathematical concepts. This article can be used by foreign language teachers.

**Key words:** *multiplication table, a simple fraction, a decimal fraction, numerator and denominator, integer part, repeating number, arithmetic operations, square root, cube root.*

**Kirish.** Yurtimizda ingliz tilini o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Ayniqsa barcha o'qituvchilarga til o'rganish zarur deb qaralmoqda, negaki hozirgi internet texnologiyalari o'qituvchilarni o'z ustida ishlashga va o'z ijodini taqdim qilishga katta imkoniyatlar yaratgan. O'qituvchi zamon bilan hamnafas bo'lsagina o'z bilimini o'quvchilarga qiziqarli tarzda yetkaza oladi. Kundan kunga internet tarmoqlarida butun dunyo bo'yicha yangi axborotlar taqdim qilinmoqda. Ular bilan birinchilar qatorida tanishish uchun ingliz tilini bilish zarurdir, chunki dunyo xalqlari internetda asosan ingliz tilida muloqat qiladi, ijodiy natijalarini ingliz tilida namoyish qiladi.

Hozirgi kunda davlatimiz siyosati tufayli yoshlar orasida ingliz tilini biladiganlar soni sezilarli ortgan. Lekin yoshi katta ustozlar orasida til biluvchilar soni hamon yetarli darajada emas. Buning sabablari ko'p va turli-tuman, shu sabablar orasida ularga til o'rgatish uchun qo'llanilayotgan usullar ham bor.

Ingliz tilini o'rgatish uchun qo'llanilayotgan eng taniqli adabiyotlar asosan, til o'rgatish bo'yicha mutaxassis tayyorlashda foydalaniladi. Bularning hammasi tor darajadagi muloqotlardan boshlab sekin-asta keng darajaga o'tishga yo'naltirilgan. Agar xalqimiz orasida ingliz tilida muloqot qiladigan qatlam bo'lganda edi, yuqorida

keltirilgan adabiyotlar bo'yicha yoshi 40-45 yoshdan katta bo'lgan o'qituvchilar ham tezda ingliz tilini o'rganib olgan bo'lar edilar. Afsuski, ular auditoriyada o'tirgandagina so'roq-savollar bo'yicha muloqotda bo'ladilar.

Yana bir masala, barcha yo'nalish bo'yicha o'qituvchilarni ingliz tilini o'rganishidan asosiy maqsad nima? Chet elga chiqib bemaol ko'chada yurish, do'konlardan xarid qilish, oshxonda kerakli ovqatni tanlab yeyish kabilarni o'rgatishmi? Yo'q, bu kabi muloqotlar uchun bitta tarjimon bilan yurish yetarli. Axir ingliz tilini o'rgatishda sodda muloqotlar shularku, ularni o'rganishga ham ancha vaqt va kuch sarflanadi. O'qituvchi ularni o'rganib oldi ham deydik, ma'lum vaqt o'tgandan so'ng undan foydalanmasa, ayniqsa yoshi katta insonda olgan bilimi turadimi? Yo'q, albatta insonga unutilish xislati berilgan. Olgan bilimlarni unutilmaslik uchun undan doimiy ravishda foydalanib turish kerak. O'qituvchilar uchun doimiy foydalaniladigan so'zlar o'z fanining o'ziga xos tushunchalaridir.

Yoshi katta o'qituvchilarga til o'rgatishni aynan faniga taalluqli iboralarni o'rgatishdan boshlash kerak. O'qituvchi fani bilan bog'liq ravishda til o'rganadigan bo'lsa, zarurat yuzasidan doimiy ravishda o'z bilimini oshirish maqsadida ingliz tilidagi kitoblar, risolalar, maqolalar, videodarslarni ko'rib turadi. Shu bilan chet tilidan olgan bilimi unutilmaydi, yanada mustahkamlanadi. Natijada o'zining ijodiy mahsulotlarini ingliz tilida taqdim qilish imkoniyatiga erishadi.

Matematiklarga dastlab quyidagi tartibda ingliz tilini o'rgatishni boshlash maqsadga muvofiq:

- amalda foydalaniladigan sonlarni ingliz tilida o'rgatish;
  - qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish, darajaga ko'tarish, ildiz chiqarish amallari hamda arifmetik operatsiyalar bajarish jarayonini ingliz tilida aytilishini o'rgatish;
  - karra jadvalini ingliz tilida aytilishi;
- Quyida ushbu tartib bo'yicha ingliz tilini misol va masalalar orqali o'rgatish ko'rsatilgan. Ularning ingliz tilidagi tarjimasini yod olishni talab qilgan maqsadga muvofiqdir.

Amalda ko'p foydalaniladigan sonlarni ingliz tilida aytilishiga misollar:

0-zero, 1-one, 2-two, 3- three, 4-four, 5-five,

6-six, 7-seven, 8-eight, 9- nine, 10-ten, 11- eleven, 12- twelve, 13- thirteen, . . . , 20- twenty, 21- twenty-one, . . . , 30- thirty, 31- thirty-one, . . . , 40- forty, 50- fifty, 60- sixty, 70- seventy, 80- eighty, 90- ninety, 100- one hundred, 1000 - one thousand, 1100 - one thousand and one hundred, 2 000 - two thousand, 10000 - ten thousand, 100000 - one hundred thousand, 1 000000-mil-lion, миллиард, триллион, квадрильон - billion, trillion, quadrillion

**Kasr sonlar.** Oddiy kasrlar surati oddiy o'qiladi, maxraji tartib soni kabi o'qiladi. Oddiy kasr - a simple fraction, surat va maxraj - numerator and denominator

Agar surat bir bo'lsa maxraj birlikda aytiladi: 2- second, 3-third, 4-fourth, 5-fifth, 6-sixth, 7-seventh, 8-eighth, 9-ninth, 10-tenth.

Birdan katta bo'lsa maxraj ko'plikda o'qiladi: 2- seconds, 3-thirds, 4-fourths, 5-fifths, 6-sixths, 7-sevenths, 8-eighths, 9-ninths, 10-tenths.

Maxraji 2 bo'lgan maxsus hol:  $\frac{1}{2}$  - one half,  $\frac{2}{2}$ -two halves,  $\frac{5}{2}$  - five halves

Oddiy kasrlarni aytilishiga misollar:  $\frac{8}{5}$  - eight fifths,  $\frac{1}{10}$  - one tenth,  $\frac{2}{3}$  - two thirds,  $\frac{34}{127}$  - thirty-four one hundred twenty-sevenths

**O'nli kasrlar.** O'nli kasr - a decimal fraction, butun qism- a integer part, kasr qism- a fractional part.

O'nli kasrlarning aytilishi: butun qism son ko'rinishida aytilib nuqta deyiladi va kasr qismi raqamlar ketma-ketligida aytiladi. Masalan 38,547 - o'ttiz sakkiz nuqta besh to'rt yetti deb ingliz tilida thirty-eight point five four seven ko'rinishda aytiladi.

O'nli kasrlarning aytilishiga misollar: 0.1- zero point one, 1.2 - one point two

0.01- zero point zero one, 5.12 -five point one two, 0.001 - zero point zero zero one, 54.028 - fifty-four point zero two eight

Kasr qismidagi takrorlanadigan raqamni aytilishda takrorlanish sonini aytib o'qiladi, masalan 0,0001- zero point zero zero zero one o'rniga, nol nuqta 3ta nol keyin bir deb, inglizcha: zero point zero repeated three times, then one deb o'qiladi. 23.2222777 - twenty-three point two repeated four times, then seven repeated three times.

Qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish, darajaga ko'tarish, ildiz chiqarish amallari ingliz tilida:

|                      |                               |              |
|----------------------|-------------------------------|--------------|
| qo'shish - Addition  | ko'paytirish – multiplication | Square root, |
| ayrish - Subtraction | daraja – exponent (power)     | Cube root,   |
| bo'lish - Division   | ildiz – root                  | nth root     |

Arifmetik operatsiyalar bajarish jarayonini ingliz tilida aytilishini o'rgatishga misollar: berilgan ifodani turlicha aytilishini ko'ramiz

$20+7=27$  - "yigirma plyus 7 teng (barobar) yigirma yetti", "yigirmaga yettini qo'shsak yigirma yetti bo'ladi" - «twenty plus 7 equals (equals) twenty-seven», «adding seven to twenty makes twenty-seven»

$15-3=12$  - "o'n besh minus uch teng (barobar) o'n ikki", "o'n beshdan uchni ayirsak o'n ikki bo'ladi" - «fifteen minus three equals (equals) twelve», «if we subtract three from fifteen, we get twelve»;

$3 \cdot 12 = 36$  - "uch ko'paytirilgan o'n ikki teng o'ttiz olti", "uchni o'n ikkiga ko'paytirsak o'ttiz olti", - "three multiplied by twelve equals thirty-six", "three multiplied by twelve equals thirty-six",

$28:4 = 7$  "yigirma sakkiz bo'lingan to'rt teng yetti", "yigirma sakkizni to'rtga bo'lsak yetti bo'ladi", - "twenty-eight divided by four equals seven", "twenty-eight divided by four equals seven",

$6^2=36$  - "oltining kvadrati o'ttiz olti"- "six squared is thirty-six"

$2^3$  -Ikkinchi darajasi – two to the power of three

$5^3=125$ - "beshning kubi bir yuz yigirma besh" –"the cube of five is one hundred and twenty-five"

$2^5=32$  - "ikkining beshinchi darajasi o'ttiz ikki" – "thirty-two to the fifth power of two"

- "o'n oltining kvadrat ildizi to'rtga teng", "kvadrat ildiz ostida o'n olti barobar to'rt" –"the square root of sixteen is equal to four", "sixteen under the square root is four"

- "yigirma yettining kub ildizi uchga teng", "kub ildiz ostida yigirma yetti barobar uch" - "the cube root of twenty-seven is three", "twenty-seven under the cube root is three"

- "olti yuz yigirma beshning to'rtinchi darajali ildizi beshga teng", "to'rtinchi darajali ildiz ostida olti yuz yigirma besh barobar besh"- "the fourth root of six hundred and twenty-five is equal to five", "six hundred and twenty-five times five under the fourth root"

- "bir yuz yigirma sakkizning yettinchi darajali ildizi ikkiga teng", "yettinchi darajali ildiz ostida bir yuz yigirma sakkiz teng ikki"- "the seventh root of one hundred and twenty-eight is equal to two", "one hundred and twenty-eight under the seventh root is two"

Karra jadvalining ingliz tilida aytilishiga misollar:

– "two times one two", – "two times two four"

– "five times three eleven five", – "eight times seven fifty six"

**Xulosa.**Yuqorida matematiklarga ingliz tilini o'rgatishni boshlashda foydalaniladigan matematikaning asosiy tushunchalari misollar orqali ko'rsatildi. Ular orqali ingliz tili grammatikasi elementlaridan artikllar, birlikdagi va ko'plikdagi otlar, tartib sonlar ham o'rgatib borish nazarda tutilgan.

Amalda ko'p foydalaniladigan so'zlarni ingliz tilida o'rganish: sonlar qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish, darajaga ko'tarish, ildiz chiqarish amallari hamda arifmetik operatsiyalar bajarish jarayonini ingliz tilida aytilishini o'rganish, karra jadvalini ingliz tilida aytilishini o'rganish bilan matematiklarning til o'rganish samarasi yuqori bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1) Xurramov Sh.R. Oliy matematika. – T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2018.492-b.

2) Elementary mathematic. <https://www.williamchen-mathematics.info/lnemfolder/lnem.html>

**Ma'rifatxon ABDULLAYEVA,**  
 Qo'qon davlat universiteti  
 Aniq fanlar va muhandislik fakulteti  
 o'qituvchisi (PhD)  
[abdullayevamarifatxon5@gmail.com](mailto:abdullayevamarifatxon5@gmail.com)

## MATEMATIKADA DIFFERENSIALLASHTIRILGAN BAHOLASH TIZIMI

**Annotatsiya:** ushbu maqola oliy ta'lim muassasalarida matematikadan xalqaro baholash tizimlari fanini chuqur o'rganish va amaliy ahamiyatini keng miqyosda joriy etish maqsadida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** xalqaro baholash, PIZA, SAT, differensiallashtirilgan baholash, matematikada baholash tizimlari.

**Аннотация:** целью данной статьи является углубленное изучение научных аспектов международных систем оценки знаний по математике в высших учебных заведениях и широкое представление их практического значения.

**Ключевые слова:** международная оценка, PIZA, SAT, системы оценки знаний по математике.

**Annotation:** this article is designed to provide an in-depth study of the science of international assessment systems in mathematics in higher education institutions and to introduce their practical significance on a large scale.

**Keywords:** international assessment, PIZA, SAT, assessment systems in mathematics.

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarni bir xil baholash uslubi o'z samaradorligini yo'qotmoqda. Chunki har bir o'quvchining qobiliyati, tayyorgarligi, o'rganish tezligi va kognitiv imkoniyatlari bir biridan farq qiladi. Ayniqsa matematika fani murakkab mantiqiy masalalar, yuqori darajadagi tafakkurni talab qilganligi sababli, baholashning differensial yondashuvlarga asoslangan tizimiga ehtiyoj ortmoqda. Differensiallashtirilgan baholash – o'quvchilarning individual xususiyatlari, tayyorgarlik darajasi va o'qish sur'atidan kelib chiqib, baholashning turli shakllarini qo'llash jarayonidir. Mazkur maqolada matematika fanida differensiallashtirilgan baholash tizimining mohiyati, ilmiy asoslari, jahon va mahalliy tadqiqotlari, afzalliklari, amaliy misollar va xulosalar bayon etiladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi baholash tizimini yangilashni talab qilmoqda.

**Mavzuning dolzarbligi.** Matematika fanida sinfdagi o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi keskin farqlanadi, bu esa an'anaviy baholashning samaradorligini pasaytiradi. Xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS) o'quvchilarning differensial yondashuv asosidagi fikrlashini o'lchaydi. Raqamli ta'lim platformalarida individual

baholash algoritmlari keng joriy qilinmoqda. Differensiallashtirilgan baholash o'quvchilar motivatsiyasini oshiradi, stressni kamaytiradi va o'quv jarayonining sifatini yaxshilaydi. Shu sababli matematika fanida differensiallashtirilgan baholash texnologiyalarini ishlab chiqish bugungi ta'lim tizimi uchun dolzarb yo'nalish hisoblanadi. Differensiallashtirilgan baholash bo'yicha jahon va mahalliy tadqiqotchilar quyidagilar:

Jahon tadqiqotlari:

**Benjamin Bloom** – Mastery learning va individual yondashuv nazariyasini yaratgan. Benjamin Bloomning fikricha: o'quvchilar bir xil tezlikda emas, lekin to'g'ri shart-sharoitda hamma mavzuni o'zlashtira oladi. Shu sababli baholash o'quvchining qayerda qiyinchilikka duch kelganini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.[2]

Differensiallashtirish — aynan shu ehtiyojga javob beruvchi mexanizm.

**Carol Ann Tomlinson** – ta'limda differensiallashtirilgan yondashuvning asosiy metodik tizimini ishlab chiqqan.[1]

**Lev Vygotskiy** – Yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi differensiallashtirishning ilmiy asosidir. Vygotskiy ta'limning samaradorligi o'quvchi bir oz qiyin, lekin yordam bilan bajara oladigan vazifalar orqali oshishini ta'kidlaydi.

*Black va Wiliam* – formativ baholashning roli va farqlangan yondashuv asoslari.

Tadqiqotchilar differensiallashtirilgan baholashni formativ baholashning tarkibiy qismi sifatida ko'radilar: baholash jarayoni o'quvchiga o'z xatosini anglash va tuzatish imkonini berishi kerak. Har bir o'quvchi o'z darajasiga mos maqsadlar bilan ishlaganda o'quv natijalari sezilarli oshadi.[3]

O'zbekistonlik metodist olimlarning ishlarida (X. Toshpulatov, M. Nishonova, T. Tursunov va boshqalar): ta'limda differensial yondashuv o'quvchi individual qobiliyatini rivojlantirishning eng samarali metodlaridan biri ekani ta'kidlanadi.

Matematikada baholash tizimi o'quvchilarning fikrlash darajasi, tahlil qilish ko'nikmasi va mustaqil ishlash salohiyatini aniqlashga xizmat qilishi kerakligi qayd etiladi. Shu bilan bir qatorda O'zbekistonning ko'plab oliy ta'lim muassasalari: O'zMU, TDPU va TATU olimlari tomonidan matematika ta'limida differensial yondashuv bo'yicha ilmiy maqolalar chop etilgan. O'quv jarayonida kuchli, o'rta va sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun bosqichli topshiriqlar bo'yicha

amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Milliy o'quv dasturlarida differensial baholash bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

### Asosiy qism

1. Differensiallashtirilgan baholash tushunchasi yondashuvga ko'ra:

- bir xil baholash o'rniga turli murakkablikdagi topshiriqlar beriladi;
- o'quvchi individual sur'atda ishlaydi;
- baholashda jarayon (progress) asosiy o'rinda bo'ladi;
- natija emas, rivojlanish dinamikasi ham inobatga olinadi.

2. Matematikada qo'llanishi. Matematika fani bosqichma–bosqich fikrlashga asoslangan bo'lgani uchun differensial topshiriqlar samarali natija beradi:

- hisoblash darajasidagi oson topshiriqlar;
- mantiqiy bog'lanishli o'rta murakkablikdagi savollar;
- isbotlash, tahlil qilishni talab qiladigan yuqori darajadagi masalalar.

3. Differensiallashtirilgan topshiriqlarga misollar:

### Algebra bo'yicha: 1-jadval

| 1-daraja (oson):                                                | 2-daraja (o'rta):                                                                    | 3-daraja (murakkab):                                                       |
|-----------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------|
| ( $3x - 5 = 10$ ) tenglamani yeching.<br><br>Javob: ( $x = 5$ ) | ( $x^2 - 7x + 10 = 0$ ) kvadrat tenglamani yeching.<br><br>Javob: ( $x = 2; x = 5$ ) | Agar ( $f(x) = x^3 - 3x + 1$ ). Funksiyaning lokal ekstremumlarini toping. |

### Geometriya bo'yicha 2-jadval

| 1-daraja:                                                                              | 2-daraja                                                                              | 3-daraja:                                                                                       |
|----------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------|
| To'g'ri burchakli uchburchak gipotenuzasini toping (katetlar 6 va 8).<br><br>Javob: 10 | Yuzasi 24 bo'lgan to'g'ri to'rt-burchakning tomonlari nisbati 3:2. Tomonlarni toping. | Doiraning ichiga chizilgan muntazam oltiburchakning perimetri radiusga bog'liqligini isbotlang. |

### Analiz bo'yicha 3-jadval

| 1-daraja:                          | 2-daraja:                       | 3-daraja:                                    |
|------------------------------------|---------------------------------|----------------------------------------------|
| ( )funksiyaning hosilasini toping. | ( $-5x$ ) integralni hisoblang. | ( ). Funksiyaning maksimum nuqtasini toping. |

Differensiallashtirilgan baholashning afzalliklari:

- O'quvchilar qobiliyatiga mos baholash imkonini beradi.
- Kuchli o'quvchilarni qo'shimcha murakkab vazifalar orqali rivojlantiradi.

- Ortiqcha qiynalishning oldini oladi.
- O'quvchilar motivatsiyasini oshiradi.
- Baholash jarayonini adolatli qiladi.
- O'qituvchiga o'quvchi imkoniyatlarini aniqlashni ko'rsatadi.

Differensiallashtirilgan baholash tizimi nafaqat

o'quvchilar bilimini aniqlash, balki ularning tafakkur darajasi, o'rganish tezligi va individual ehtiyojlarini aniqlashga xizmat qiluvchi pedagogik diagnostika vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. An'anaviy baholash ko'pincha barcha o'quvchilardan bir xil yondashuvni talab qilsa, differensiallashtirilgan baholashda har bir o'quvchi imkoniyati, tayyorgarlik bosqichi va kognitiv uslubiga mos topshiriqlar tanlanadi.

Bu esa matematika fanida o'quvchilarning real qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga sharoit yaratadi.

Matematika fanida differensiallashtirilgan baholashning amaliy samarasini oshirish uchun o'quv jarayoniga adaptiv testlar, reyting tizimiga asoslangan baholash, kompetensiyaga yo'naltirilgan topshiriqlar va portfolio baholashini integratsiya qilish muhim hisoblanadi. Adaptiv

testlar o'quvchining javobiga qarab savollar murakkabligini avtomatik ravishda o'zgartiradi.

**Xulosa.** Matematika fanida differensiallashtirilgan baholash tizimi o'quvchilar bilimini chuqur tahlil qilish, rivojlantirish, individual imkoniyatlarini aniqlash va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu tizim:

- o'quvchini qo'llab-quvvatlaydi,
- turli bilim darajasiga mos baholashni ta'minlaydi,
- ta'lim sifatini oshiradi,
- jahon standartlariga mos metodik yondashuv hisoblanadi.

Shu sababli matematika fanini o'qitishda differensiallashtirilgan baholashni joriy etish nafaqat samarali, balki zaruriy metodlardan biridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tomlinson C.A. "The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners." ASCD, 2017.
2. Bloom B. Mastery Learning Theory. Chicago University Press, 1968.
3. Black P., Wiliam D. \Inside the Black Box: Raising Standards Through Classroom Assessment.\ 1998.
4. Vygotsky L. \Mind in Society.\ Harvard University Press.
5. M.S.Abdullayeva "Bo'lajak o'qituvchilarning o'zini-o'zi kasbiy rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish usul va vositalari. "Qo'qon DPI Ilmiy xabarlari" 3(7) 2022, 216– bet.
6. O'zbekiston Respublikasi XTV metodik qo'llanmalari, 2020–2024.
7. TDPU, O'zMU matematika ta'limi metodikasi bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami.



**Насиба НИЯЗОВА,**  
и. о. профессора кафедры Узбекского языка и литературы  
Ташкентского государственного юридического университета,  
кандидат педагогических наук,

## ОБУЧЕНИЕ ДИАЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ-ЮРИСТОВ

**Аннотация:** в статье представлены типы и формы диалога, которые в юридической практике могут протекать в виде беседы по правовому воспитанию, учебного занятия по правоведению, юридической консультации. Целью диалога является передача или обмен необходимой правовой информацией, когда собеседник готов получить информацию или передать её. Также говорится о готовности и способности вести диалог, слушать и слышать, выступать публично, обсуждать различные профессиональные и социальные проблемы, вести споры – это все ключевые компетенции, наиболее сложной из которых является способность грамотного разрешения разногласий, связанных с проведением дискуссий, полемики и дебатов.

**Annotation:** the article presents the types and forms of dialogue that in legal practice can take the form of a conversation on legal education, a training session on jurisprudence, and a legal consultation. The purpose of a dialogue is to transmit or exchange necessary legal information when the interlocutor is ready to receive or transmit it. It also mentions readiness and ability to conduct dialogue, listen and hear, speak publicly, discuss various professional and social issues, conduct disputes - these are all key competencies, the most complex of which is the ability to competently resolve disagreements related to conducting discussions, debates, and discussions.

**Annotatsiya:** maqolada yuridik amaliyotda huquqiy tarbiya bo'yicha suhbat, huquqshunoslik bo'yicha o'quv mashg'uloti, yuridik maslahat shaklida o'tkazilishi mumkin bo'lgan muloqot turlari va shakllari keltirilgan. Suhbatdosh ma'lumot olishga yoki uni uzatishga tayyor bo'lganda, zarur huquqiy axborotni uzatish yoki almashish muloqotning maqsadi hisoblanadi. Shuningdek, dialog olib borishga tayyorlik va qobiliyat, tinglash va eshitish, omma oldida nutq so'zlash, turli kasbiy va ijtimoiy muammolarni muhokama qilish, bahs-munozaralarni olib borish - bularning barchasi asosiy kompetensiyalar bo'lib, ulardan eng murakkabi munozaralar, bahs-munozaralar va debatlarini o'tkazish bilan bog'liq kelishmovchiliklarni malakali hal qilish qobiliyatidir.

На сегодняшний день устная диалогическая речь в ее различных проявлениях может реализоваться в разнообразных ситуациях и сферах юридической деятельности. В тех или иных сферах юридической практики обсуждение проблемы обычно носит конфликтный характер, сталкивающий мнение сторон и провоцирующий их на использование некорректных с точки зрения этики приемов и способов аргументации. Различный уровень и степень конфликта и конфронтации в диалоге порождает различия в сферах его применения в юридической практике [1].

Стратегия диалога определяется основной целью, которая преследуется участниками обсуждения в процессе ведения беседы или спора. В зависимости от степени конфликтности диалога можно выделить следующие типы его стратегических целей:

Бесконфликтный диалог в юридической практике может протекать в виде беседы по правовому воспитанию, учебного занятия по правоведению, юридической консультации, допроса эксперта, потерпевшего, лояльного свидетеля и т.д. Целью такого диалога является передача или обмен необходимой правовой информацией, когда собеседник готов получить такую информацию или передать ее. Условия, в которых протекает такой диалог, а также требования к его проведению достаточно ясны и понятны. Это – контроль за предметностью и значимостью разговора, компетентностью и логической культурой общения собеседников, ясность, лаконичность, точность собственных формулировок, суждений и вопросов, логическая корректность используемой терминологии. В такой беседе очень важно внимательно выслушать собеседника, понять и по возможности

принять его доводы, способ аргументации, суть излагаемой информации. В такой ситуации следует неизменно уклоняться от ведения беспредметного спора на отвлеченные темы, не связанные с обсуждаемым вопросом. Нет также необходимости обмениваться информацией с некомпетентным и незаинтересованным лицом, преследующим в беседе не всегда лояльные, корректные цели.

Вторая форма юридического диалога – спор в режиме слабого конфликта, который характеризуется обязательным наличием противоположных позиций, мнений относительно обсуждаемой проблемы, однако, с другой стороны, желанием найти общее решение, удовлетворяющее обе стороны. Такой конфликтный диалог, спор, в котором ведется поиск компромисса, разрешения конфликтной ситуации именуется дискуссией. К юридическому диалогу в режиме слабой конфликтности можно отнести, к примеру, парламентские прения, допрос свидетеля в процессе следственного дознания или судебного разбирательства. Условия и обязательства корректной логики спора со слабым конфликтом требуют доказательной аргументации собственной версии и конструктивной логической критики мнения оппонента, неукоснительного соблюдения логических требований, предъявляемых к юридическому доказыванию и опровержению: к тезису и антитезису, к введенным в обсуждение юридическим доказательствам и контрдоказательствам, формам демонстрации и критики. Следует помнить, что именно в споре со слабым конфликтом, в конструктивной юридической дискуссии проявляется связь между логикой и культурой обсуждения. Так, использование нелояльных по отношению к собеседнику, неэтичных средств ведения обсуждения в конструктивном юридическом диалоге разрушает его логику и приводит к бесплодности его результатов.

Юридический спор в режиме слабого конфликта безусловно имеет состязательную форму. Но это больше борьба за установление истины по рассматриваемому делу, а не утверждение позиции, мнения или авторитета лица. В таком споре приемлемо лишь то, что разумно, логично, доказательно. Поэтому логическая культура мышления, культура речи, общения в конструктивной юридической дискуссии является приоритетной в определении условий и требований, предъявляемых к принципам проблематичного диалога.

Наиболее ценными здесь становится умение логически мыслить, ясно и лаконично выражать свое мнение, точно формулировать мысли,

владеть терминологией и, наконец, уважительно и с должным вниманием относиться к логической критике, проводимой противной стороной. При этом следует соблюдать и более частные логико-этические обязательства и требования; не доказывать то, что очевидно и не доказывать то, что сомнительно.

Третья форма юридического спора – диалог в режиме острого конфликта, определяющий наличие противоречивых и взаимоисключающих друг друга мнений относительно обсуждаемого юридического вопроса. Цель такого спора – поиск победы. Примерами диалога с острым конфликтом могут служить допрос подозреваемого, обвиняемого, направленный на изобличение или признание, а также прения сторон обвинения и защиты в судебном споре. Так как спор в режиме острого конфликта противоположен по своей природе, он предполагает более широкую трактовку условий и обязательств его проведения. Те приемы и средства ведения проблематического диалога в процессе юридической беседы или конструктивной дискуссии, которые в них признавались некорректными и даже просто безнравственными, в условиях антагонистического спора до победы могут рассматриваться как морально обоснованные. Так, в условиях судебного спора сторона, поддерживающая защиту обвиняемого, не обязана и, более того, не имеет права на предоставление суду информации, противоречащей интересам подзащитного. Ясно, что во многих других случаях такая избирательность в подаче информации могла бы быть объявлена противоречащей принятым условиям и обстоятельствам юридического диалога, однако в такой форме юридического диалога происходит смещение критериев условий и обязательств из логической сферы аргументации в сферу тактики и стратегии, т.е. прагматики.

В классической форме диалоговая модель проблематического спора предполагает следующего участника [2]. Пропонент и оппонент – непосредственные участники спора. Их функции определяются формулировкой собственных позиций, гипотез относительно спорной проблемы, аргументированным обоснованием выдвигаемых положений, доказательной критикой мнений, точек зрения, доводов оппонировавшей стороны. Арбитр – организатор спора. В его функции входят организационные мероприятия по установлению регламента, т.е. процессуальных норм протекания обсуждения: уточнение формулировки спорной проблемы, цели и конкретных задач проблематического исследования, контроль за соблюдением регламентационных принципов, подведение итогов.

Функции аудитории неоднозначны. Чаще всего именно аудитория обладает оценочными функциями спора, например, если решение в процессе обсуждения принимается голосованием или принятие решения происходит коллективным мнением. В юридической же практике судебных прений аудитория выполняет функцию судебного наблюдателя, в чем реализуется подотчетность общественному мнению.

Тактика диалога определяется системой оперативных методов, приемов и средств, используемых в процессе обсуждения проблемы и направленных на эффективную реализацию поставленных стратегических целей каждым из участников беседы или спора. Тактика обсуждения формируется в зависимости от выбранной стратегии. Нарушение соответствия тактических средств диалога его стратегическим целям влечет изменение общения и приводит к некорректности, а порой и к провалу спора. Особенно это касается бесконфликтных диалогов и споров в режиме слабого конфликта. К примеру, к юрисконсульту, позволившему себе разговаривать с клиентом на повышенных тонах в конфликтной манере, а не в форме информативной беседы, этот клиент больше не обратится и отсоветует другим. Следовательно, проводящий дознание, опрашивая свидетелей, потерпевших, должен тактически вести диалог таким образом, чтобы получить как можно больше интересующей информации, а не запугать своего оппонента и не заставить его замолчать.

Манера ведения юридического диалога – определенная прагматическая или тактическая форма, в которой участники диалога проводят свою логическую аргументацию и контраргументацию. И здесь выбор тактико-стратегических средств должен зависеть от возникшей юридической ситуации. Так, например, допрос подозреваемого на признание должен отличаться и по тактико-оперативной манере, и по своим нравственным основаниям от допроса свидетеля на припоминание обстоятельств исследуемого дела. Судебный спор, направленный на отыскание истины, редко сходится по нормам этики с эмоциональными политическими дискуссиями или с парламентскими прениями. Поэтому для участников каждого вида юридической ситуации существует определенная этика речевого поведения или профессиональный речевой этикет.

Готовность и способность вести диалог, слушать и слышать, выступать публично, обсуждать различные профессиональные и социальные проблемы, вести споры – это все ключевые компетенции, наиболее сложной из которых является способность грамотного разрешения

разногласий, связанных с проведением дискуссий, полемики и дебатов. Что же делает дискуссии и дебаты эффективным средством совершенствования культуры речи? Эти речевые жанры оказывают неоценимую помощь, главным образом, в развитии крайне важного с точки зрения культуры речи умения формулировать свою позицию и не только доказывать ее, но и убеждать в своей правоте, строить выверенные логически аргументированные тексты, подбирать и формулировать убедительные аргументы, выстраивать их в наиболее выигрышном для говорящего порядке, учитывать их силу относительно данной аудитории (адресата), иллюстрировать эти аргументы примерами, использовать различные средства демонстрации, придающими еще большую убедительность всему тексту и т.д.[3]

В ходе подготовки к дискуссии или дебатам, в ходе их проведения и анализа результатов студенты-юристы отрабатывают все основные действия и операции, характерные для грамотной речевой деятельности, для реализации всех норм общения и литературного языка. На разных этапах речевой деятельности участникам спора необходимо использовать как письменные виды речевой деятельности (при подготовке своих высказываний, при подборе материала и т.д.), так и устные – на самих дискуссиях или дебатах. При этом обязательность немедленного реагирования на выступления других участников спора или обсуждения обуславливает отработку умений активно создавать импровизационные высказывания во внутренней и внешней речи, определяет усиление степени ее устности, в том числе и в использовании невербальных компонентов. Немаловажно и то, что публичный характер высказываний и свойственная подобным ситуациям повышенная речевая ответственность развивает также максимально высокий контроль всех компонентов речи. Очевидно, что все перечисленные умения крайне необходимы каждому выпускнику юридического вуза, и что включение дискуссий и дебатов в перечень основных общекультурных компетенций только подчеркивает их значимость. Не случайно дискуссия во многих европейских системах образования признается также и одним из ведущих методов обучения. Что необходимо иметь в виду преподавателю, использующему в обучении различные виды спора и обсуждения?

Дискуссия представляет собой такой жанр публичного спора, который, по сравнению с полемикой, для образовательных целей обладает целым рядом преимуществ. Поскольку в дискуссии оппоненты спорят ради достижения истины, это

существенно развивает ее коммуникативную направленность и внимание к другим участникам общения – к оппонентам и зрителям. Существенным преимуществом дискуссии относительно других речевых жанров, требующих создания аргументированного текста, безусловно, относится и стремление всех участников к максимальной убедительности, для чего в наибольшей степени ими используются различные варианты способов и видов доказательства.

Однако, как в процессе, так и в результате дискуссии неизменно происходит, и наибольшая поляризация позиций участников, которая обусловлена тем, что, стремясь убедить других в своей правоте, риторы в первую очередь еще больше убеждают в ней себя и своих оппонентов. Необходимость противостоять оппонентам также добавляет желания отстоять свою точку зрения, ни в чем не согласиться с ними. Все это в совокупности, как правило, приводит к тому, что участники дискуссии становятся еще более непримиримыми.

Дебаты, в свою очередь, обладают рядом своих особенностей и преимуществ в совершенствовании культуры речи. Оговорим, что среди множества разновидностей жанра в плане совершенствования культуры речи наиболее эффективны те, цель которых – как можно более глубоко и всесторонне обсудить выдвинутую проблему. Цель «обсудить» определяет и характер взаимодействия, и результат дебатов. Разногласия в дебатах – это не прямо противоположные позиции по обсуждаемому вопросу, а такие, при которых различия проявляются либо не по всем пунктам, либо только в некоторых аспектах.

В результате оппоненты сосредотачиваются не на противоречиях, а на дополнении или корректировке представлений о том или

ином аспекте проблемы, а в конечном счете – на поисках оптимального пути решения поставленной проблемы. В ходе дебатов, участники которых, как правило, воспринимают друг друга как партнеров, происходит сближение изначально противоположных позиций, смягчение категоричности утверждений [4].

Различия между дебатами и дискуссией ставят перед преподавателем проблему выбора наиболее целесообразного жанра в качестве активной инновационной формы проведения занятий. Для этого важно оценить, какова должна быть глубина рассмотрения выбранной студентами-юристами темы (дебаты позволяют рассмотреть вопросы с нескольких сторон), каково реальное соотношение приверженцев обеих точек зрения (если они примерно равны, полноценная дискуссия возможна, если нет – лучше предпочесть дебаты). Кроме того, необходимо учитывать и численность студентов в группе.

В дискуссии часто происходит ситуация, когда основные аргументы ЗА и ПРОТИВ высказываются в первые минуты. И тогда остальные студенты начинают либо повторять сказанное, либо отказываются от выступления на основании того, что не знают, что еще можно сказать по теме дискуссии. В дебатах этого не происходит, поскольку обсуждение делится на несколько этапов – подвопросов.

Таким образом, каждый из рассмотренных нами жанров – спора, обсуждения, учебных дебатов и дискуссий имеет огромный потенциал в развитии монологической и диалогической речи и совершенствовании культуры речи студентов юридических вузов, однако эффективность их использования во многом будет определяться выбором дискуссии или дебатов на основании понимания их особенностей и возможностей.

#### ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. О.А. Солодухин, А.О. Солодухина. Юридический диалог. – М.: Юрист, 2001. с. 88.
2. Е.Н. Зарецкая. Риторика: теория и практика речевой коммуникации. – М.: Дело, 1998. с. 245.
3. Ниязова Н. Ж. Роль учебных дебатов в развитии монологической речи студентов-юристов // *Xorijiy tillarni o'qitishning dolzarb masalalari: muammolar va yechimlar*. – с. 123.
4. Ниязова Н. Ж. Роль учебных дискуссий в совершенствовании монологической и диалогической речи студентов-юристов // *Экономика и социум*. 2023. – №. 12 (115)-2. – С. 923-927.

Zarifa QILICHOVA,  
PhD student  
SamSIFL

## THE ROLE OF TEACHERS IN THE BLENDED LEARNING ENVIRONMENT

**Annotation:** blended learning integrates face-to-face instruction with online learning tools, reshaping the teacher's role in modern education. In these environments, teachers function as learning facilitators, instructional designers, technological guides and community builders. Their responsibilities extend beyond direct content delivery to include designing curriculum pathways, managing digital platforms, monitoring student progress using data analytics and providing individualized guidance.

**Key words:** *blended learning, teacher role, learning facilitator, instructional designer, curriculum development, hybrid education*

**Аннотация:** смешанное обучение объединяет очное обучение с инструментами онлайн-обучения, преобразуя роль учителя в современном образовании. В этих средах учителя выполняют функции координаторов обучения, разработчиков учебных программ, технологических гидов и создателей сообществ. Их обязанности выходят за рамки прямой поставки контента и включают в себя разработку учебных программ, управление цифровыми платформами, мониторинг прогресса учащихся с помощью аналитики данных и предоставление индивидуальных рекомендаций.

**Ключевые слова:** *смешанное обучение, роль учителя, координатор обучения, разработчик учебных программ, разработка учебных программ, гибридное образование*

**Annotatsiya:** aralash ta'lim yuzma-yuz o'qitishni onlayn o'qitish vositalari bilan birlashtiradi, zamonaviy ta'limda o'qituvchining rolini qayta shakllantiradi. Bunday muhitda o'qituvchilar o'rganishga yordam beruvchilar, o'quv dizaynerlari, texnologik qo'llanmalar va jamoat quruvchilari vazifasida ishlaydi. Ularning mas'uliyati o'quv yo'llarini loyihalash, raqamli platformalarni boshqarish, ma'lumotlar tahlilidan foydalangan holda talabalar taraqqiyotini kuzatish va individual yo'l-yo'riqlarni taqdim etish, to'g'ridan to'g'ri kontentni yetkazib berishni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** *aralash ta'lim, o'qituvchining roli, o'quv jarayonini yo'naltiruvchi, ta'lim dizayneri o'quv dastur, gibrid ta'lim.*

### INTRODUCTION AND LITERATURE REVIEW

Blended learning, which integrates face-to-face instruction with digital learning modalities, has transformed traditional educational structures. While some initially assumed that technology would diminish the role of educators, experience has demonstrated the opposite: teachers become even more central. Their responsibilities expand beyond traditional lecturing to encompass pedagogical design, facilitation, mentorship, data-driven decision-making and community building. As the classroom evolves into a hybrid learning ecosystem, the teacher emerges as the architect of learning experiences, the navigator of digital resources, and the emotional and intellectual anchor of the learning community.

In conventional classrooms, the teacher is the main source of knowledge. In blended environments, however, content is distributed through digital platforms, videos, online readings and collaborative tools. This shift enables teachers to adopt the role of facilitators rather than sole lecturers. Instead of spending most classroom time transmitting information, teachers guide students through inquiry-based tasks, problem-solving activities and interactive discussions that deepen understanding. In this model, the teacher's role involves coaching

students toward self-directed learning and encouraging them to utilize digital platforms to construct meaning independently.

Blended learning places new demands on planning and instructional design. Teachers must carefully curate or create digital materials, ensuring alignment with curricular outcomes and student needs. They are responsible for sequencing online and in-class components so that they complement one another rather than functioning as separate learning strands. This requires decisions about:

- which content is best delivered online,
- which learning activities require face-to-face interaction,
- how asynchronous tasks support synchronous discussion,
- how digital assessments feed into offline reflection.

### METHODS AND METHODOLOGY

This article employs a qualitative literature review methodology to analyze and synthesize existing scholarship on blended learning and teacher roles. Academic sources, including peer-reviewed journals, books and theoretical frameworks, were examined to identify recurring themes in teacher responsibilities

within blended environments. Key researchers such as Graham (2013), Garrison and Vaughan (2008), and Horn and Staker (2015) were used to ground the analysis in established theory. Rather than collecting primary data, this study integrates conceptual insights from multiple authoritative sources to construct a comprehensive understanding of teacher functions in blended learning. The methodology supports a theoretical interpretation rather than empirical measurement.

The study is based on secondary data analysis of published literature, using thematic content review to identify conceptual patterns and categories related to teacher roles in blended learning. Sources were selected based on relevance, citation frequency and academic credibility.

The teacher therefore becomes a curriculum designer who strategically orchestrates all learning elements, ensuring coherence and relevance.

An essential role of teachers in blended environments is helping students navigate digital technologies. Unlike passive technology use in entertainment, educational technology requires structured engagement with tools such as Google Classroom, Moodle, Kahoot or learning analytics dashboards. Teachers model appropriate digital behaviors, teach strategies for online research, and develop students' information literacy, critical evaluation of sources, and digital citizenship. They help students use technology effectively—not as distraction, but as a powerful tool for learning.

Digital learning platforms generate an abundance of instructional data: log-in records, time spent on tasks, quiz results, error patterns and engagement analytics. Teachers interpret these metrics to identify learning gaps and differentiate instruction. Rather than evaluating solely through final grades or classroom observation, teachers analyze performance trends in real time and intervene early. This enables more personalized, targeted support and helps teachers adjust pacing, modify instructional strategies, or provide supplemental resources.

Blended learning supports individualized instruction on a scale rarely possible in traditional classrooms. Teachers engage with students one-on-one to diagnose misunderstanding, guide independent study and nurture academic confidence. This role includes:

- offering personalized feedback,
- conducting short conferences with students,
- providing guidance through private digital forums,
- recommending individualized learning paths or resources.

Students receive the reassurance that learning is a collaborative human process, not just an automated digital experience.

The emotional dimension of learning becomes even more critical in blended environments. When part of learning occurs in isolated digital spaces, teachers must ensure that students still feel connected to a learning community. Teachers cultivate collaboration, respect and interaction through:

- structured group activities,
- monitored online discussions,
- cooperative learning tasks,
- peer review and reflection.

They also maintain classroom norms that extend into digital spaces, ensuring ethical behavior and preventing cyberbullying or disengagement.

Assessment in blended learning must capture not only content mastery but also skills such as collaboration, communication, creativity and independent learning. Teachers balance formal tests with:

- digital quizzes and polling tools,
- portfolio-based assessment,
- project-based assignments,
- reflection journals,
- peer assessments.


### CONCLUSION

The blended learning environment fundamentally redefines the role of teachers—not by reducing their importance, but by expanding their influence. Teachers are no longer mere transmitters of knowledge; they are facilitators of discovery, designers of meaningful learning experiences, interpreters of data and leaders of collaborative learning communities. Technology supports the educational mission, but teachers drive it forward.



Ultimately, blended learning works not because computers deliver content efficiently, but because teachers humanize the learning experience. Their expertise, empathy, creativity and adaptive leadership are the keys to successful blended education.

### References

1. Graham, C. R. (2013). Emerging practice and research in blended learning. In M. G. Moore (Ed.), *Handbook of distance education* (pp. 333–350). Routledge.
2. Horn, M. B., Staker, H. (2015). *Blended: Using disruptive innovation to improve schools*. Jossey-Bass.
3. Garrison, D. R., Vaughan, N. D. (2008). *Blended learning in higher education: Framework, principles, and guidelines*. Jossey-Bass.
4. Means, B., Toyama, Y., Murphy, R., Baki, M. (2013). The effectiveness of online and blended learning: A meta-analysis of empirical research. *Teachers College Record*, 115(3), 1–47.
5. Bonk, C. J., Graham, C. R. (Eds.). (2006). *The handbook of blended learning: Global perspectives, local designs*. Pfeiffer Publishing.



# KICHIK TADQIQOT



**Nilufar BEKTURDIYEVA,**  
*Urganch davlat universiteti adabiyotshunoslik:*  
*o'zbek adabiyoti mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*  
**nilufarnilifar@gmail.com**



## O'TKIR HOSHIMOV BADIY-PUBLITSISTIKASIDA FAKT VA HUJJATLILIK

**Annotatsiya:** O'tkir Hoshimovning "Non – imon", "Qalbning oppoq daftari", "Muqaddas qasamni buzganlar", "Tovus go'shtini yeb bo'ladimi?", "Menga nima?", "Oyog'ing yerdan uzilmasin" maqolalarida davr muammolarining yoritilishi hamda adibning badiiy publitsistikadagi mahorati haqida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** *badiiy publitsistika, yozuvchi-publitsist, pafos, shaxsiyat, davr muammosi.*

**Аннотация:** в статьях Откира Хошимова «Хлеб — это вера», «Белая тетрадь сердца», «Те, кто нарушил святую клятву», «Можно ли есть мясо павлина?», «Что со мной не так?» и «Не позволяй ногам оторваться от земли» обсуждается освещение современных проблем и мастерство писателя в художественной публицистике.

**Ключевые слова:** *литературная публицистика, писатель-публицист, пафос, личность, проблема эпохи.*

**Annotation:** Otkir Hoshimov's articles "Bread is Faith", "The White Notebook of the Heart", "Those Who Broke the Holy Oath", "Can Peacock Meat Be Eaten?", "What's Wrong with Me?", and "Don't Let Your Feet Be Lifted from the Ground" discuss the coverage of contemporary issues and the writer's skill in artistic journalism.

**Key words:** *literary journalism, writer-publicist, pathos, personality, problem of the era.*

Badiiy publitsistikaning muhim jihatlardan biri uning fakt va hujjatlilikka asoslanishidir. "Publitsistik ijod deganda, odatda, voqelikni hujjatlar asosida qayta tiklash anglashiladi. Publitsistikaning har qanday ko'rinishida, publitsistik organizmning har bir hujayrasida ana shu omilning ta'siri sezilib turadi"<sup>1</sup>.

"Publitsistikada hujjatlilik aniq hayotiy voqelik, vaziyatlar yoki shaxslar to'g'risidagi muallif mulohazalari va xulosalari evaziga muntazam to'ldirib boriladi"<sup>2</sup>. Ko'rinadiki, badiiy-publitsistik asarlarga hujjat va faktlar hayotda qanday bo'lsa, aynan shundayligicha olib kirilmaydi, u har doim muallif tomonidan u yoki bu tarzda talqin qilingan holda beriladi. Ya'ni qayta ishlangan fakt obrazli ma'no kasb etadi va uning evrilishlari badiiy-publitsistik fikrning rivojlanishiga xizmat qiladi.

1 Стюфляева М.И. Поэтика публицистики. – Воронеж: Изд-во Воронеж. ун-та., 1975. 6-7– С.

2 Бекасов Д.Г. Корреспонденция, статья – жанры публицистики. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1972. 15- С.

Har qanday publitsistik asar singari badiiy-publitsistik asarning ham muhim mazmuniy asosi fakt va hujjatlar hisoblanadi. Fakt deb, birinchidan, voqelikning yuzaga chiqqan biror lahzasiga aytilsa, ikkinchidan, publitsistikada muallif mulohazasi, fikrlariga ham fakt sifatida qaralishi mumkin.

Publitsist voqealarni obyektiv yoritish maqsadida faktlarga murojaat qiladi. Ya'ni turli hodisalar, voqealar, jarayonlarni badiiy-publitsistik materiallarda to'liq va haqqoniy tasvirlash uchun hayotiy, ilmiy, tarixiy, adabiy, yuridik va h.k. faktlardan foydalanadi. Badiiy-publitsistik asarlarning aksariyatida hujjatli faktlar ishlatilsa-da, muallif fikri, xulosalari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Demak, badiiy-publitsistik asarlarda faktlar faqat tahlil uchun birlamchi material sifatida emas, balki muammoning mohiyatini namoyish qilish vositasi sifatida qo'llaniladi.

Shu nuqtayi nazardan badiiy publitsistikada faktning quyidagi shakllaridan foydalaniladi: a)

hayotiy faktlar; b) ilmiy faktlar; v) tarixiy faktlar; g) adabiy faktlar; d) yuridik faktlar va h.k.

O'tkir Hoshimov badiiy publitsistikasiga nazar tashlasak, unda davrning dolzarb muammolari qalamga olinar ekan, asosan, hayotiy faktlardan unumli foydalaniladi ("Non – imon", "Qalbning oppoq daftari", "Muqaddas qasamni buzganlar", "Tovus go'shtini yeb bo'ladimi?", "Menga nima?", "Oyog'ing yerdan uzilmasin" maqolalari).

Yozuvchi-publitsist bu faktlarga kishilarning bevosita tajribasini, ularning u yoki bu voqealarga hissiy munosabatini bayon qilish maqsadida murojaat etadi. Hayotiy faktlarning eng asosiy xususiyati ularning hayotga o'xshashligidir. Hayotiy faktlar yordamida, birinchidan, voqelik hodisalarining o'quvchi uchun odatiy va tanish bo'lgan tasviri qayta yaratiladi; ikkinchidan, odamlarning xulq-atvor, xususiyatlari aniqlanadi; uchinchidan, voqeaning u yoki bu tomonlari ta'kidlab ko'rsatiladi. Lekin ilmiy faktlardan farqli o'laroq hayotiy faktlar qorishiq (sinkretik) tabiatga ega bo'lgani uchun voqea-hodisalarning mohiyatini aniq ochib berishga qodir emas. Biz O'tkir Hoshimov badiiy publitsistik asarlaridagi hayotiy faktlarni shartli ravishda quyidagicha tasnifladik: 1) yozuvchi-publitsistning bevosita o'zi guvoh bo'lgan hayotiy faktlar ("Non-imon", "Menga nima?", "Oyog'ing yerdan uzilmasin" maqolalari); 2) voqelikni har tomonlama muhokama qilish va qiyosiy baholash asosida vujudga kelgan hayotiy faktlar ("Globallashuv va milliy qadriyatlar", "Bolada nima gunoh?" maqolalari).

O'tkir Hoshimovning "Non-imon", "Menga nima?", "Oyog'ing yerdan uzilmasin" kabi badiiy-publitsistik maqolalari yozuvchining bevosita o'zi guvoh bo'lgan hayotiy faktlar asosida maydonga kelgan. Yozuvchining "Menga nima?" maqolasida o'zbekning, uning zahmatli mehnatining qadrsizlanish sababi bir-biriga qarama-qarshi ikkita hayotiy fakt misolida ko'rsatib beriladi. Adib hayotiy faktlar zidligi asosida kontrast (qarama-qarshi) manzara yaratadi va bu manzara badiiy-publitsistik muhokamaga dalil bo'lib xizmat qiladi.

Xususan, yozuvchi-publitsistning hikoya qilishicha, u Sochiga dam olishga borganida, meva-cheva xarid qilish uchun bozorga kiradi: "... Bundan bir necha yil ilgari Sochiga dam olishga bordim. Meva-cheva xarid qilish niyatida bozorga kirdim.

Shlyapa kiygan, bo'yinbog' taqqan ziyolinamo xaridor savatga solib qo'yilgan zarg'aldoq shaftolini barmog'i bilan shoshmay ezg'iladi.

– Qanchadan sotyapsan? – dedi bepisandlik bilan.

Sotuvchi ozarmi, armanimi, gurjimi (har qalay, kavkazlik) xaridorning qo'liga tushirib qoldi.

– Tort qo'lingni! – dedi g'azab bilan.

– Birinchidan, men sening ukang emasman, sansirama! Ikkinchidan, shaftolini mehnat bilan yetishtirganman. Duch kelgan isloqi ezg'ilashiga yo'l qo'ymayman!

Ajab, xaridor darhol hushyor tortdi. Uzoq so'radi..."<sup>3</sup>.

Bu hayotiy voqeada xaridor va sotuvchining o'zaro munosabatidan dehqonning o'ziga va mehnatiga hurmat talab etishi ko'rinib turibdi.

Maqoladagi ikkinchi hayotiy voqea esa o'zbekning turmushidan olingan bo'lib, qulupnay pishig'i paytida adib yo'l bo'yidagi qulupnay paykalidan yangi uzilgan mevani sotib olmoq istagida borib, noxush bir voqeaga guvoh bo'ladi:

"Shu yil ayni qulupnay pishig'ida Toshkent halqa yo'lidan borayotib, qatorlashib to'xtab turgan mashinalarga ko'zim tushdi. Qarasam, katta yo'lning o'ng tomoni – qulupnay paykallari. Dehqonlar shundoq paykaldan qulupnay terib chiqib, sotyapti. Havasim keldi. Yaqin bordim... Lab-lunjini bo'yagan, yuziga bearmon "shpaklyovka" surkagan, chapancha aytganda, "qulog'idagi sirg'asi kallasidan o'n hissa qimmat xonimcha" yoshi taxminan men tenggi dehqon bilan savdolashyapti:

– Ey, babay! Qulupnaying necha so'm?

– Oling, sestra, oling, yigirma so'm! – dedi "bobo" iljayib.

– Yigirma beshdan olaman. Bir soatdan keyin samalyotga chiqishim kerak. Ammo tanlab olaman.

– Pajalista! Sizdek chiroyli barishnya olaman deydi-yu, men yo'q deymanmi? – Qulupnaychi kapgircha bilan taroziga endi qulupnay solayotgan edi, "barishnya"ning ipdek qoshi tahdidli chimirildi.

– Qo'lingni tort! – dedi jerkib. – O'zim tanlayman. – Shunday deb eng sara qulupnaylarni bitta-bitta taroziga qo'ya boshladi"<sup>4</sup>.

3 Хошимов Ў. Менга нима?! / Талганган асарлар. 2 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Шарк, 2009. 435-436– Б.

4 Хошимов Ў. Менга нима?! / Талганган асарлар. 2 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Шарк, 2009. 436– Б.

Yuqoridagi parchalardan anglashiladiki, aslida yozuvchi guvoh bo'lgan hayotiy vaziyatlar deyarli o'xshash, biroq makon boshqa – biri Sochida, ikkinchisi o'zbek diyorida yuz bergan. Hududiy jihatdan turli diyorlarda sodir bo'lgan bu jarayonda sotuvchi-dehqon bilan xaridorning o'zaro munosabati esa har xil. Sochidagi sotuvchi-dehqon o'z mehnatining qadr-qimmatini juda yaxshi biladi. O'zbek diyorida sodir bo'lgan voqeada go'yoki sotuvchi bilan xaridorning o'rni almashinib qolgandek. O'zbek dehqoni o'z haq-huquqini bilmaydi, hatto qizi tenggi bir ayol uni sensirasa ham pinagini buzmaydi. Shubhasiz, yozuvchi hayotda shaxsan o'zi guvoh bo'lgan bu vaziyatdan, xususan, dehqonning beqadrligidan, pul deb o'zini yerga urishidan qattiq mutaassir bo'ladi.

O'tkir Hoshimov maqolada voqealar jarayonidagi o'zining ruhiy holatini ham tasvirlaydi: “Qonim qaynab ketdi.

– Hoy, inson! Qizingiz tenggi xonim sizni nega “sen” deydi-yu, siz nega uni “siz”laysiz? Oriyat degan narsa bormi o'zi?

“Boboy” kipriklarini piriptatdi.

– Taka bo'lsin, sut bersin, domla! Yigirma beshdan olyapti-ku!

... Yig'lagim keldi... Nima desam bo'ladi bu odamga? Hoy, baraka topkur! Chayqovchi bo'lsang-ku, aytardim: ha, endi chayqovchi besh so'm uchun imonini sotmasa, chayqovchiligi qayoqda qoldi, derdim. Sen dehqonsan-ku, inson! Xudo bergan aql-idrok degan ne'matni ishlatsang-chi! Uch chaqirim narida shaharda yashaydigan singlingning bolalari, akangning farzandlari qulupnayga og'zi tegdimi? Yo'-o'-o'q! Senga baribir! Besh so'm ortiqroq haq berganning tovonini yalaysan! Taka bo'lsin, sut bersin!...”<sup>5</sup>

Maqoladan keltirilgan yuqoridagi parchada adib o'zining dilida kechgan kechinmalarini, voqeaga subyektiv munosabatini ochiq-oydin namoyon etadi. Ha, publitsist-yozuvchi bitta hayotiy fakt misolida o'zbek dehqonining arzimagan pul deb oriyatidan, sha'nidan ayrilganidan qattiq aziyat chekadi. Shu bois o'z xalqini g'aflat uyqusidan uyg'otmoq maqsadida dolzarb mavzudagi ijtimoiy-publitsistik, tahliliy maqola bitadi. Milliy g'urur,

insoniylik, qadr-qimmat, ma'rifatlilik singari dolzarb publitsistik konsepsiyani ilgari suradi.

O'tkir Hoshimovning “Bolada nima gunoh?” maqolasida bugungi kunda oila degan muqaddas dargohni buzishga jur'at etayotgan millionlab er-xotinlar va o'rtada ko'ngli o'ksik bo'lib qolayotgan bolalar taqdiri haqidagi mulohazalari voqelikni har tomonlama muhokama qilish va qiyosiy baholash asosida vujudga kelgan hayotiy faktlar asosida bayon etiladi. Maqola o'n uch yashar tirik yetim bola Baxtiyorning maktubi bilan boshlanadi. Shubhasiz, publitsistning bu maqolani hayotda ko'p jabr-u sitamlar ko'rgan bola tilidan boshlashida o'ziga xos badiiy-publitsistik niyati bor, ya'ni adib bunday uslub orqali kitobxonga maqolaning ta'sir kuchini yanada jonli yetkazadi. Bu dardli maktub bugungi kun kishisini, aniqrog'i, turli sabablar tufayli ajrashib ketayotgan er-xotinlarni maqolada qo'yilgan muammo ustida chuqurroq o'ylab ko'rishga chaqiradi.

Bola qachonki, o'z ota-onasi bag'rida o'ssagina u barkamol, ko'ngli to'q bo'lib voyaga yetadi. Ammo aksi bo'lsa, bola har qanday dabdaba-yu hashamlar, moddiy jihatdan to'kislik ichida yashamasin, u o'zini kamsitilgan, xo'rlangan his etib, ko'ngli yarim bo'lib o'sadi.

Jamiyatimizda har jihatdan sog'lom va barkamol avlod yetishishi uchun oilalar, oiladagi ota-ona va farzandlar baxtli, bahamjihat yashamog'i shart. Publitsist-ijodkor jamiyatning bir bo'lagi bo'lgan oilalardagi ajralish sabablarini axtaradi. Kelin-kuyov o'rtasiga sovuqchilik tushishida to'y marosimlariga ortiqcha darajada pul, mol-dunyo sarflab chiqimdor bo'lib qolayotgan qudalarni birinchi sabab sifatida ko'rsatadi. Ikkinchi sabab ayol bilan erkakning huquq talashishi, uchinchisi bema'ni rashk deb izohlaydi adib.

Albatta, bu chigal muammoni yechish juda mushkul. Ammo shunga qaramasdan, adib maqolada muammoning sabablarini jiddiy o'rganadi, eng asosiysi, ota-onalarni o'rtadagi farzand haqqi ogohlantiradi: “Ehtimol, oilangizda sevgi tuyg'usi siyqalangandir. Ehtimol, biringiz eringizni, biringiz xotiningizni nikoh kechasidagi kabi ehtiros bilan sevmassiz. Lekin orangizda bola bor, farzand bor. Endi oilada sevgidan ko'ra kengroq tushuncha – muhabbat hukmron bo'lsin, mehr hukmron bo'lsin, shafqat hukmron bo'lsin! O'g'ilchangiz, qizchangiz

<sup>5</sup> Хошимов Ў. Менга нима?! / Талланган асарлар. 2 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Шарк, 2009. 437– Б.

ko'zingizga termilib turibdi. Uning beg'ubor ko'ziga tikilib qarang, ancha narsani uqib olasiz"<sup>6</sup>.

Ko'rinadiki, publitsist-adib barkamol avlod kelajagi uchun qayg'uradi, shaxsning kelajagi oiladagi muhitga, tarbiyachi hisoblanmish ota-onaning o'z burch, vazifalariga qanday munosabatda bo'lishiga chambarchas bog'liq deya xulosa chiqaradi va oila kelajak avlodning komil inson bo'lib yetishishiga ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanligini uqtirib o'tadi.

Badiiy-publitsistik asarlarning aksariyatida ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy muammolar mohiyati hayotiy va tarixiy faktlar muqoyasasi asosida ochib beriladi. Publitsistik asarlarda og'zaki va yozma tarixiy ma'lumotlar, kitob, matbuot sahifalaridagi dalillar, arxiv hujjatlari tarixiy fakt sifatida keltirilishi mumkin. O'tkir Hoshimov "Menga nima?!", "Ayol", "Odamkushlik tuzumi" nomli maqolalarida ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan tarixiy faktlarni tanlar ekan, u orqali bugungi kun muammolariga e'tibor qaratadi.

Yozuvchi publitsistikasida qo'llanadigan adabiy faktlar publitsistning obrazli, falsafiy qarashlarini to'laqonli aks ettirishga xizmat qiladi. Adabiy faktlarga mif, afsona, latifa, rivoyatlar va hokazo adabiy materiallar kiradi. E'tibor berilsa, O'.Hoshimovning deyarli barcha maqolalari kompozitsiyasida xalq og'zaki ijodi namunalari, adabiy materiallar uchraydi. Xalq og'zaki ijodi, badiiy asarlardan olingan adabiy faktlar o'zida badiiylilik xususiyatini namoyon etadi va maqolada jo'shqin lirizmning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Xususan, adibning "Menga nima?!" maqolasida beparvolik, loqaydlik, erinchoqlik, beqadrlik illatlari tanqid etilib, ularning ulkan fojiaiy oqibatlari aniq tarixiy va hayotiy faktlar misolida tahlil qilinar ekan, maqola ekspozitsiyasi adabiy fakt – latifa bilan boshlanadi:

"Bir kuni Afandi ko'cha eshigi tagiga chiqib, nos cheke-e-eb o'tirsa, bir odam hovliqib kelib qolibdi.

– Mulla Nasriddin! – debdi. – Ko'cha boshida bir arava kelyapti. Ichi to'la noz-ne'matlar!

– Menga nima? – debdi Afandi pinagini buzmay.

– Qiziqmisiz? – debdi boyagi odam. – O'sha noz-ne'matlarni hokim to'ra sizga yuboribdi!

– Unda senga nima?! – debdi Afandi..."<sup>7</sup>

Maqola boshlanmasida ilova qilingan ushbu adabiy fakt asosiy fikrning pafosini oshirib, ijtimoiy-publitsistik konsepsiyani aniq ochib berishga xizmat qilgan. Yozuvchi adabiy faktning isboti sifatida real tarixiy faktlarga murojaat qiladi. Ya'ni Spitamen, Muqanna qo'zg'oloni, mo'g'ullar va Rossiya bosqini, qisqasi, O'rta Osiyo tarixi kechmishlarini eslar ekan, bu kechmishning fojiaiy yakunida ajdodlarimizning qon-qoniga singib ketgan "Menga nima?", "Senga nima?" degan falsafaning tarixini va bugunini tafakkur chig'irig'idan o'tkazib, tahlil etadi.

O'tkir Hoshimov o'z maqolalarida hayotiy, tarixiy voqealarni quruq hikoya qilib berish bilan chegaralanmaydi, bir qancha faktlarni keltiradi, ularni bir-biriga muqoyasa qiladi, badiiy imkoniyatlardan foydalangan holda davrning ma'naviy, ijtimoiy, maishiy muammolarini ijtimoiy-publitsistik yo'sinda, erkin tarzda tahlil etadi.

O'.Hoshimov badiiy publitsistikada o'z ijtimoiy konsepsiyasini chinakam pafos darajasiga ko'tara olgan yozuvchidir. Uning maqolalarida publitsist shaxsiyatini ijtimoiy shaxs sifatida anglab, shu bilan birga jonli tirik inson sifatida his etamiz. Chunki publitsist "Menga nima?!", "Inson xotirasi", "Bolada nima gunoh?" va shu kabi boshqa badiiy-publitsistik maqolalarida o'zi talqin etayotgan jamiyatdagi turfa ijtimoiy, ma'naviy, maishiy muammolarga subyektiv munosabatini ochiq oshkor etadi. Bu subyektiv munosabat yozuvchining quvonchi, nafrati, tarafkashligi, betarafligi, xullas, uning tuyg'ulari, ichki kechinmalari orqali yuzaga chiqadi.

<sup>6</sup> Ҳошимов Ў. Болада нима гуноҳ? / Оқ камалак. – Тошкент: Фафур  
 Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984.133 – Б.

<sup>7</sup> Ҳошимов Ў. Менга нима?! / Талланган асарлар. 2 жилдлик. 2-жилд. –  
 Тошкент: Шарқ, 2009. 437 – Б.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'. Hoshimov. "Menga nima". – Toshkent, 2009.
2. O'. Hoshimov. Bolada nima gunoh. – Toshkent, 1984.
3. Стюфляева М.И. Поэтика публицистики. – Воронеж: Изд-во Воронеж. ун-та., 1975.
4. Бекасов Д.Г. Корреспонденция, статья – жанры публицистики. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1972.

**Nurchehraxon ALISHEROVA,**  
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat*  
*o'zbek tili va adabiyoti universiteti*  
*Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishi*  
*1-kurs magistr talabasi*

## SUYIMA G'ANIYEVANING MATNSHUNOSLIK RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o'zbek matnshunosligi va navoiyshunosligi tarixida alohida o'rin tutgan atoqli olim Suyima G'aniyevaning ilmiy faoliyati, xususan, Alisher Navoiy merosini ilmiy-tanqidiy matn sifatida nashrga tayyorlash jarayonidagi xizmatlari yoritilgan. Maqolada olimaning qo'lyozmalarni filologik, matnshunoslik va paleografik metodlar asosida tadqiq qilgan ishlari, "Majolis un-nafois"ning ilmiy-tanqidiy matnini yaratishdagi ulushi, Navoiy asarlarining 20 jildlik nashriga qo'shgan hissasi tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** *Suyima G'aniyeva, "Majolis un-nafois", navoiyshunoslik, matnshunoslik, qo'lyozmalar, ilmiy-tanqidiy matn.*

**Аннотация:** в данной статье освещается научная деятельность выдающейся учёной Суиймой Ганиевой, занимающей особое место в истории узбекского текстологии и навоистики, в частности её вклад в подготовку к изданию научно-критического текста наследия Алишера Навои. В статье анализируются исследования учёной, выполненные на основе филологических, текстологических и палеографических методов, её роль в создании научно-критического текста «Мажолис ун-нафоис», а также вклад в подготовку 20-томного издания произведений Навои.

**Ключевые слова:** *Суийма Ганиева, «Мажолис ун-нафоис», навоистика, текстология, рукописи, научно-критический текст.*

**Annotation:** this article examines the scientific legacy of Suyima G'aniyeva, a distinguished Uzbek literary scholar and textual critic, who made invaluable contributions to the study and publication of Alisher Navoiy's works. Particular attention is given to her preparation of the critical edition of "Majolis un-nafois", her methodology in analyzing multiple manuscript copies, and her role in compiling several volumes of the 20-volume collection of Navoiy's works.

**Key words:** *Suyima G'aniyeva, "Majolis un-nafois", Navoiy studies, textual criticism, manuscript studies.*

O'zbek matnshunosligi va navoiyshunosligi tarixida professor Suyima G'aniyevaning o'rni beqiyosdir. U nafaqat Alisher Navoiy asarlarini chuqur tadqiq qilgan olim, balki ularni ilmiy-tanqidiy matn sifatida nashrga tayyorlagan tajribali matnshunos hamdir. Suyima G'aniyevaning ilmiy merosi, xususan, "Majolis un-nafois"ning ilmiy-tanqidiy matnini yaratish jarayonidagi izlanishlari o'zbek filologiyasi rivojiga katta hissa qo'shgan. Ushbu maqolada olimaning ilmiy faoliyati, nashrga tayyorlangan asarlar, matnshunoslikdagi yondashuvlari hamda manbashunoslik prinsiplari yoritiladi.

Suyima G'aniyeva Alisher Navoiyning yirik adabiy merosini o'rganishda muntazam ilmiy maktab yaratgan olimlardan biridir. U Navoiy asarlarini nashrga tayyorlash jarayonida manbashunoslik, matnshunoslik, paleografiya va tarixiy-lisoniy tahlil usullaridan foydalanib, to'liq ilmiy asoslangan matnlar yaratgan. G'aniyeva tomonidan tayyorlangan eng muhim nashrlar qatoriga "Majolis un-nafois"ning ilmiy-tanqidiy matni, "Navoiy dastxati", shuningdek, Navoiy asarlarining 20 jildlik mukammal to'plamidagi bir qancha muhim matnlar kiradi.

U 20 jildlik nashrda "Majolis un-nafois", "Mahbub ul-qulub", "Munshaot", "Vaqqiya", "Hamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Nazm ul-javohir" kabi asarlarni izoh va tarjimalar bilan o'quvchilar hukmiga havola etgan. Bu

jarayon Navoiy merosini xalqaro ilmiy miqyosda tanitishda katta rol o'ynadi.

Suyima G'aniyevaning ilmiy faoliyatidagi eng yirik kashfiyotlardan biri — Navoiyga mansub dastxat qo'lyozmasining topilishi va uning ilmiy jihatdan ochib berilishidir. Bu voqea navoiyshunoslik tarixida tub burilish yasagan bo'lib, olim o'zining shaxsiy mehnati, matnshunoslikdagi yuksak tajribasi va ilmiy ehtirosi bilan bu noyob manbani ilm-fanga tadbiq etdi.

1991-yilda, Firdavsiyning "Shohnoma"sining 1000 yillik tantanalari munosabati bilan Tehronda o'tkazilgan xalqaro kongressda ishtirok etgan olim, Eron hukumati ruxsati bilan "Koxi Guliston" muzeyida saqlanayotgan qadimiy qo'lyozmalarni ko'zdan kechirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ana shu jarayonda G'aniyeva Hazrat Alisher Navoiyga oid muhr bilan tasdiqlangan, "dastxat" — ya'ni muallif qo'li bilan yozilgan qo'lyozma bilan to'qnashadi. Bu qo'lyozma ilgari ilmiy muomalaga kirmagan bo'lib, mavjud kataloglarda ham batafsil qayd etilmagan edi.

Qo'lyozma muhrlar va muqovalardagi izohlarga ko'ra Suyima G'aniyeva quyidagilarni qayd etadi. Nusxa hijriy 1233-yilda (milodiy 1817) Fahriddavla Qo'jar tomonidan Qajar saroyiga tuhfa qilingan. Undagi yozuvlarda "Hazrat Navoiyning sharif muhridir" degan qayd mavjud. Qo'lyozma 1282-1865-66 yillarda Nasriddin Shoh Qajar kutubxonasida saqlanganligi tasdiqlanadi. Orqa sahifalarda saroy xattotlari

tomonidan tushirilgan eslatmalar bor. Bularning barchasi qo'lyozmaning naqadar qadimiy va ilmiy ahamiyatga ega ekanini bildiradi.

Qo'lyozmaning jildi — charmlar bilan qoplangan, markazida va to'rt burchaklarida oltin suvi bilan bosilgan naqshlar mavjud. Ichki sahifalar: lolaqizg'aldoq rangli jadval chizilgan, hoshiyalarda matndan tushib qolgan yoki variant bo'lgan she'rlar qo'shimcha tarzda bitilgan, 274 sahifa, har sahifa 15 satrdan iborat. Bu bezaklar asarning saroy amaldorlari qo'lida bo'lganidan dalolat beradi. Qo'lyozmada keltirilgan g'azallar keyinchalik "Xazoyin ul-maoniy" tarkibiga kiritilgan aniqqlangan. Masalan:

1. Birinchi g'azal — birinchi devon "G'aroib us-sig'ar"ga,
2. Ikkinchi g'azal — "Badoe' ul-vasat"ga,
3. Uchinchi g'azal — "Favoyid ul-kibar"ga kiradi.

Bu uchta g'azalning devon tarkibiga 320–325-satrlar oralig'ida joylashgani qo'lyozmaning Navoiy ijodiy kompozitsiyasi bilan bevosita bog'liqligini isbotlaydi. Bu fakt olimaning matnshunoslikdagi yirik ilmiy kuzatuvlaridan biridir.

Qo'lyozma nasta'liq yozuvida, uning "xafi" — mayda va juda nozik variantida bitilgan. G'aniyevaning tadqiqiga ko'ra: "Alif", "kof", "lom" harflari o'ziga xos og'ish bilan yozilgan, ko'p joylarda professional kotib qo'lidan chiqqanida aniqlik sezilmaydi, lekin harflarning badiiy-proporsional uyg'unligi xattotning yuqori savodli bo'lganini ko'rsatadi. Bu esa qo'lyozma kotib tomonidan emas, balki ma'lum savodli, ilmiy shaxs — ehtimol Navoiyga yaqindan aloqador kishi tomonidan yozilgan bo'lishi mumkin degan taxminni kuchaytiradi.

1976-yilda Eronning mashhur "Fahrist-i devonho-yi hatti" nomli katalogida qo'lyozmaning tavsifi berilgan bo'lsa-da, Suyima G'aniyevaning tekshiruv shuni ko'rsatadiki, katalogdagi ma'lumotlar to'liq emas. Ko'rsatilgan ba'zi ma'lumotlar qo'lyozmaning haqiqiy satrlari bilan mos kelmaydi. Navoiy nomi bilan bog'liq ayrim qo'shimchalar noto'g'ri talqin qilingan.

Yuqoridagi nazariyalarga asoslanib Suyima G'aniyeva mazkur qo'lyozmani birinchi bo'lib to'liq ilmiy asosda tadqiq etgan olim sifatida tan olingan.

Ko'rilgan qo'lyozma Navoiy merosining matnshunoslik asoslarini tiklash, devonlarning dastlabki tuzilishini aniqlash, g'azallarning ilk variantlarini o'rganish, xattotlik san'ati tarixi uchun nihoyatda muhim manbadir.

Suyima G'aniyeva bu qo'lyozmani butun navoiyshunoslik uchun ochib bergan birinchi olim bo'lib, uning ilmiy xulosalari hozirgi tadqiqotlarda ham asosiy manba sifatida qo'llaniladi.

Olima keyingi izlanishlarida Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarining ilmiy-tanqidiy matnini nashrga tayyorlar ekan quyidagi xulosalarga keladi. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" asarini 1491-yildan tartib bera boshlagan bo'lib,

1498-yilda qayta tahrir qilgan. Asar ikki tahrir asosida bizgacha yetib kelgani bois qo'lyozmalar orasida farqlar mavjud.

1917 yilgi toshbosma nashda umumiy 338 shoir.

Bu nashr birinchi tahrir asosida tayyorlangan bo'lib, majlislar oxiridagi xotimalar berilmagan. 1902–1903 va 1917–1918 yillardagi nashrlari ham birinchi tahrir asosida tayyorlanganligi manbalarda qayd etiladi.

1948 yilgi kirill alifbosidagi nashr:

Bu nashr "Matjolis un-nafois" va "Muhokamat ul-lug'atayn"ni birgalikda chop etib, o'quvchilar uchun izohlar, atamalar sharhi hamda ko'rsatgichlar berilgan. Unda umumiy ijodkorlar soni – 355. Bu nashr ham birinchi tahrirga asoslangan bo'lib, ikkinchi tahrir matni bilan farqlari mavjud.

Natijada 1961-yilda Suyima G'aniyeva tomonidan yuqoridagi kamchiliklar to'ldirilgan holda "Majolis un-nafois"ning ilmiy-tanqidiy matni tayyorlandi. Bu nashr navoiyshunoslikdagi eng yirik tadqiqotlardan biri bo'lib, olim asarning matnini yaratishda quyidagi qo'lyozma nusxalarini asos qilgan:

1. Vena qo'lyozmasi (W)
2. Parij nusxasi (P)
3. Leningrad nusxasi (L)
4. Boku nusxasi (B)
5. Toshkent nusxasi (T1)

Olima bu qo'lyozmalarni o'zaro solishtirib, matnning qatlamlarini aniqladi, tarixiy-lisoniy, poetik va matnshunoslik jihatlaridan tahlil qildi. Shuningdek, matnning hatto har bir ibora va istilohini tekshirishda ham ehtiyotkorlik bilan yondashdi. Natijada, "Majolis un-nafois"ning eng mukammal ilmiy-tanqidiy matni yaratildi. Suyima G'aniyeva yuqoridagi ilmiy izlanishlari davomida quyidagi metodlardan foydalanganligining guvohi bo'lamiz:

- qo'lyozmalarni filologik va paleografik tahlil qilish;
- matn variantlarini solishtirish;
- tarixiy, ijtimoiy va adabiy kontekstga tayanish;
- izohli ilmiy matn yaratish;
- muallif uslubini tiklash kabi tamoyillarni qo'llagan.

Bu tamoyillar keyinchalik o'zbek matnshunoslik maktabining asosiga aylandi va bugungi kunda ham dolzarb metodlar sifatida ilmiy muomaladan o'rin egallab kelmoqda.

Xulosa qilib aytsak, Suyima G'aniyevaning Alisher Navoiy merosiga oid matnshunoslik faoliyati o'zbek filologiyasi tarixida ulkan bosqich bo'lib qoladi. Uning tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matnlari, jumladan, "Majolis un-nafois", o'zbek adabiy merosi tadqiqotida eng asosiy manbalardan biri hisoblanadi. G'aniyeva tomonidan qo'llangan metodlar bugungi ilmiy tadqiqotlarda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Olima yaratgan navoiyshunoslik maktabi hozirgi kunda ko'plab izlanishlar uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sohiba Umarova. Suyima G'aniyeva ilmiy-adabiy merosi: tadqiqot usullari va mezonlari. – Toshkent, 2021.
2. Suyima G'aniyeva. Majolis un-nafois (ilmiy-tanqidiy matn). – Toshkent, 1961.
3. Navoiy dastxati (Navodir un-nihoya). "Fan" nashriyoti, 1991.
4. Navoiy asarlarining 20 jildlik to'plami. – Toshkent.

**Shaxnoza BAXRIDINOVA,**  
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili  
 va adabiyoti universiteti 1-bosqich magistranti*

## XO'JANDIYNING "LATOFATNOMA" ASARI NOMA JANRINING NAMUNASI SIFATIDA

**Annotatsiya:** ushbu maqolada XIV asr oxiri, XV asr boshlarida yashab ijod qilgan Xo'jandiy va uning "Latofatnoma" dostoni ilmiy va badiiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarning yaratilish sabablari, qo'lyozma manbalari, janriy xususiyatlari, badiiy yetukligi yoritilgan. "Latofatnoma" turkiy yozma adabiyotda nomanavislik janrining muhim namunasi sifatida baholanadi.

**Kalit so'zlar:** *Xo'jandiy, Latofatnoma, nazira, nomanavislik, Xorazmiy, Muhabbatnoma, qo'lyozmalar, ishq, badiiyat.*

**Annotation:** this article provides a scientific and literary analysis of Khojandiy, who lived and created in the late 14th and early 15th centuries, and his poem Latofatnoma. It highlights the reasons for the work's creation, its manuscript sources, genre characteristics, and artistic maturity. Latofatnoma is regarded as an important example of the "nomanavislik" genre in Turkic written literature.

**Key words:** *Khojandiy, Latofatnoma, nazira, nomanavislik, Khwarazmi, Muhabbatnoma, manuscripts, love, artistry.*

**Аннотация:** в данной статье научно и художественно анализируются творчество Ходжандий, живший в конце XIV – начале XV века, и его поэма «Латофатнома». Освещаются причины создания произведения, его рукописные источники, жанровые особенности и художественная зрелость. «Латофатнома» оценивается как важный образец жанра номенавислик в тюркской письменной литературе.

**Ключевые слова:** *Ходжандий, «Латофатнома», назира, номенавислик, Хоразмий, «Мухаббатнома», рукописи, любовь, художественность.*

Xo'jandiy haqidagi ma'lumotlar bizga to'liq yetib kelmagan. Bu haqida ijodkorning o'z asarida – "Latofatnoma"dagina ayrim ma'lumotlar mavjud, xolos. Taxallusiga qarab, uni Xo'jand shahrida dunyoga kelgan deb aytish mumkin. U Xorazmiyning "Muhabbatnoma"sidan ilhomlanib, unga javob tariqasida "Latofatnoma"ni yozgan. Asar o'sha davrdagi hukmron – Mahmudxon sultonga bag'ishlangan. Mahmudxon kichik Muhammadning o'g'li bo'lib, u Tog'ay Temurning avlodlaridan bo'lgan. Tog'ay Temur Xorazm xoni Jo'jining o'n uchinchi o'g'li edi. Mahmudxonning ikki marta taxt tepasiga kelgani ma'lum. U birinchi marta 1411- yilda, keyin esa 1422-1424- yillarda Xorazm taxtiga o'tirgan. Demak, Xo'jandiy ham mana shu yillarda Xorazmda yashab ijod etgan. Ushbu ma'lumotlarga tayanib, adibning XIV asr so'nggi, XV asrning birinchi yarmida yashab ijod etganini aytish mumkin.

Asar "Muhabbatnoma"ga javob – nazira tarzida yozilgan bo'lsa-da, undan ancha farq qiladi. Xo'jandiyning asari boshdan oxirgacha masnaviy shaklida yozilgan. Unda g'azal, qit'a, fard va boshqa janr namunalari uchramasligi ko'zga tashlanadi.

Xo'jandiy juda shirali ijod qilgan. Undagi so'z o'yinlari, ayniqsa, tajnislarning ko'p qo'llanishi, arabcha va forscha so'zlar, ko'proq o'zbekcha imkoniyatlarni

izlagani asarning ta'sirchanligini juda oshirgan. Dunyo qo'lyozma fondlarida ushbu dostonning 5 ta qo'lyozma nusxasi aniqlangan:

1. Qobul nusxasi. 893/1488-yilda uyg'ur yozuvida ko'chirilgan. Qobul muzeyining kutubxonasida saqlangan. NATO qo'shinlari Qobulni bombardimon qilgan vaqtda Qobul Milliy muzeyidagi boshqa qo'lyozmalar bilan birga yonib ketgan. 313 baytdan iborat.

2. Istanbul Millat kutubxonasida "Latofatnoma"ning ikkita qo'lyozmasi mavjud. Ikkalasi ham arab yozuvida, nasta'liq xatida yozilgan. Birinchi qo'lyozmada doston matni Qur'onga yozilgan sharhning hoshiyasiga yozilgan. Doston matni 91-98a varaqlarda joylashgan. Bu qo'lyozmada doston matni 296 baytdan iborat. Ko'chirilgan yili ko'rsatilmagan.

3. Istanbul Millat kutubxonasidagi ikkinchi qo'lyozma ham birinchi qo'lyozmadan ko'chirilgan.

4. London nusxasi. Bu qo'lyozmada "Latofatnoma" dostoni o'zbek adabiyotining boshqa namunalari – "Muhabbatnoma", "Gul va Navro'z", "Dahnoma", Lutfiy "Devon", "Maxzanul-asror", Yaqiniy "Munozara"si kabi asarlar bilan bir muqovada jamlangan. "Latofatnoma" qo'lyozmaning 142b-157b-varaqlarida joylashgan. Qo'lyozma 914/1509-yilda ko'chirilgan. Doston matni qo'lyozmada 323 baytdan iborat. Arab yozuvida, nasta'liq xatida yozilgan.

5. Kanada nusxasi. Bu qo'lyozma Kanada muzeyining professor Elizar Birnbaum kolleksiyasida saqlanadi. "Latofatnoma" qo'lyozmaning 14a-24b-betlarida joylashgan. Arab yozuvida, nasta'liq xatida yozilgan. Qo'lyozmada doston matni 313 baytni tashkil qilgan.<sup>1</sup>

Doston o'nta noma (maktub)dan tashkil topgan. Muallif buni quyidagicha izohlaydi:

*Tilimda so'z alimda xoma bo'ldi,  
 "Latofatnoma" ham o'n noma bo'ldi.*

Asar Yaratganga hamd bilan boshlanadi. Yaratganning cheksiz qudrati, hamma narsani – inson-u jonzotlarni, to'qqiz qavat falakni, yetti qavat yerni, osmondagi qushlarni, yer yuzidagi boyliklarni va jamiki narsalarni U bu olamga keltirgan. Yoqubni ham Yusufning firoqiga duchor qilgan, Yusufning dardida Yoqubning ko'zlarini ojiz qilgan, Sulaymonga shamolni itoat ettirgan, Dovudga sovut yasash iqtidorini ato qilgan ham Yaratganning o'zidir. Xo'jandiy asarining hamd qismida o'z maslagi va e'tiqodini bayon qiladi. Ilohiy ishq - Xo'jandiyning a'mol-u e'tiqodi, uning butun vujudi ishq o'tiga itoat ettirilgan. Yaratgan oshiq'larga jafo beradi, bu jafokashlarning sarvari Muhammad Mustafodir. Xo'jandiy Yaratganga iltijo qilib, bu ishqdan ayirmasligini so'raydi:

*Xudoyo, ko'nglum ichra ishq o'ting yoq,  
 Xo'jandiy xastaga lutfung bila boq  
 Muhabbat jomidin sahbo ichrigil,  
 Xato ishlar telim qildim, kechurgil.*

Xo'jandiy Yaratganga madhdan so'ng, payg'ambarga na't (maqto'v) keltiradi. Muhammad Mustafoni, so'qir ko'ngillarning tabibi, shariat bog'ining bulbuli, deb ta'riflaydi. Shuningdek, Muhammad Mustafo payg'ambarlarning sarvari, avliyolarning rahnamosi ekanini, Xudoning hukmi bilan mo'jizalar ko'rsatganini va boshqa ko'p sifatlarini, fazilatlarini bayon qiladi.

Asarda muhabbat kuylanib, visol ishtiyoqi va hijron iztiroblari tasvirlangan. Shuningdek, quyidagi misralar kabi insonparvarlik g'oyalari ilgari surilgan:

*Tilar bo'lsang jahon ichra amorat,  
 Faqirlar ko'nglini qilgin imorat.*

"Latofatnoma" XV asr boshlarida o'zbek she'riyatiga xos detallar va badiiy an'analar (ayniqsa, tajnis)ga boy, tili ommabop. Forscha, arabcha so'zlar kam uchraydi. Unda fikriy aniqlik va hissiy jo'shqinlik

mujassam. Asar Oltin O'rda xonligida bitilgan turkiy tildagi nodir adabiy manba bo'lib, o'zbek adabiyotida nomanavislik janriga muhim hissa bo'lib qo'shilgan.

"Latofatnoma" ishsiz ko'ngillarga oshiqlik dardini soladigan asardir. "Kimning ishq bo'lmasa, uning biron maqsadi bo'larmidi, bir jononni sevmasa, undan nima murod bo'lardi", – deydi shoir Xo'jandiy. U bu fikrini davom qilib: "Kimki biron jononni sevmasa, bilingki, uning tanasida jon yo'qdir", deb xulosa beradi. Ana shundan keyin Xo'jandiy asosiy maqsadga ko'chadi:

*Ne bilsun tekma nodon ishqbozi,  
 Haqiqat bo'lmasa bori majozi.*

Har qanday nodon oshiqlikni qaydan bilsin, agarda unda haqiqiy ishq bo'lmasa-yu, majoziy ishq bo'lsa, – deya oshiqlik va ishqning chinakam qiyofasini chizib beradi.

Asarda Xo'jandiy taxallusi olti o'rinda uchraydi. Asarning bosh mavzusi - hayot go'zalligini, insonga bo'lgan samimiy sevgini kuylash, uni targ'ib qilishdan iboratdir. Bu mavzu yorning jafokashligi-yu oshiqning dardi yordamida ko'rsatiladi. Yorning jamolini ko'rgan gul uyalganidan g'unchaga aylanadi, qish faslida yor kulganda, yoz bo'ladi, uning karashmasi jon-u dilni g'orat qiladi, ko'zlari yag'moyu chigilni talon-taroj qiladi. Yorning an'anaviy ta'rif-tavsifi bilan birga, Xo'jandiyga xos tasvir uchraydiki, bu baytlar "Latofatnoma"ning boshqa nomalar bilan bellasha oladigan asar ekanini ta'minlagan. Shoirning:

*Xo'jandiy so'zlarin Xorazmiy miskin,*

*Eshitsa yo'lli deb qilg'aydi tahsin,* – deb aytgan so'zlari haqiqatdir. Zotan, Xo'jandiy Xorazmiyning tahsiniga loyiq noma janrida asar yaratdi. "Latofatnoma"da har bir nomaning oxiridagi bir bayt soqiyga murojaatdir:

*Kel, ey soqiy, bu kun majlis quroli,  
 Jamoni aysh etib, xush o'tturoli.*

**Xulosa** qilib aytganda, Xo'jandiyning "Latofatnoma" dostoni o'z davrining adabiy-estetik qarashlarini mujassam etgan, turkiy yozma adabiyot taraqqiyotida muhim o'rin tutgan asarlardan biridir. Shoir haqida tarixiy ma'lumotlarning ozligi uning ijodiy merosini yanada qimmatli qiladi. Umuman olganda, "Latofatnoma" – XV asr boshlaridagi turkiy she'riyatning badiiy imkoniyatlari, ma'naviy olami va estetik qarashlarini yorituvchi nodir adabiy yodgorlikdir. Xo'jandiy dostonida inson qalbi, ishq va hayot go'zalligini kuylagan, uni yuksak badiiyat bilan ifodalagan ijodkor sifatida o'zbek adabiyoti tarixida munosib o'rin egallaydi.

<sup>1</sup> Dehqonov A. Xo'jandiy "Latofatnoma" – Toshkent: O'zbekiston: til va madaniyat, 2024. – 21-b.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dehqonov A. Xo'jandiy "Latofatnoma" – Toshkent: O'zbekiston: til va madaniyat, 2024.
2. Xorazmiy. Muhabbatnoma. – Toshkent: Fan, 1983.
3. Madraximov, E. Nomanavislik an'analari va ularning taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 2001.
4. Bartold, V.V. Turkiston xalqlari tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
5. Ziyoz

Ferangiz AHMADOVA,  
BuxDPI I bosqich magistranti



## O'ZBEK DRAMATURGIYASINING XALQ KULGISIGA OID JANRLAR BILAN MUNOSABATI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o'zbek dramaturgiyasining xalq kulgisiga oid janrlar bilan munosabati ilmiy – nazariy tahlil qilingan. Aristotelning dramaturgiya haqidagi nazariy qarashlari, shuningdek, o'zbek adabiyotshunosligidagi drama tushunchasi bilan xalq kulgi san'ati o'rtasidagi mushtarakliklar qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada zamonaviy o'zbek dramaturgiyasi, xususan, Erkin A'zam kabi yozuvchilar ijodida kinoya, parodiya, mubolag'a, so'z o'yinlari va komik obraz yaratish usullarining qo'llanishi misolida xalq kulgisining dramatik kompozitsiyaga singishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot o'zbek dramasi poetikasida komizm va fojiiyaviylik sintezi, xalqona badiiy tafakkurning sahnaviy ifodasi kabi jarayonlarning izchil evolyutsiyasini yoritishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Aristotel, o'zbek, adabiyot, drama, teatr, kompozitsiya, adabiy asarlar, prolog, epizodiy, eksod, Izzat Sulton, Mitra, Anaxita, "To'maris", "Shiroq", "Zariadr va Odatida", "Siyovush", "Afrosiyob", "Rustam" va hokazo.

**Аннотация:** в статье представлен научно-теоретический анализ взаимосвязи узбекской драматургии с жанрами, связанными с народным смехом. Проводится сопоставительный анализ теоретических воззрений Аристотеля на драматургию, а также общих черт между концепцией драмы в узбекском литературоведении и народным смеховым искусством. В статье научно-теоретически обосновывается интеграция народного смеха в драматургическую композицию на примере современной узбекской драматургии, в частности, использования приёмов иронии, пародии, преувеличения, игры слов и создания комических образов в творчестве таких писателей, как Эркин Аъзам. Цель исследования – продемонстрировать последовательную эволюцию таких процессов, как синтез комического и трагического в поэтике узбекской драмы, а также сценическое воплощение народной художественной мысли.

**Ключевые слова:** Аристотель, Узбек, литература, драма, театр, композиция, литературные произведения, пролог, эпизод, исход, Иzzат Султан, Митра, Анахита, "Томарис", "Широк", "Зариадра и Одатиды", "Сиёвуш", "Афросиаб", "Рустам" и др.

**Annotation:** this article provides a scientific and theoretical analysis of the relationship between Uzbek dramaturgy and genres related to folk laughter. Aristotle's theoretical views on dramaturgy, as well as the commonalities between the concept of drama in Uzbek literary studies and the art of folk laughter are analyzed comparatively. The article scientifically and theoretically substantiates the integration of folk laughter into dramatic composition using the example of modern Uzbek dramaturgy, in particular, the use of irony, parody, exaggeration, wordplay and comic image creation methods in the work of writers such as Erkin A'zam. The research is aimed at highlighting the consistent evolution of processes such as the synthesis of comic and tragic in the poetics of Uzbek drama, and the stage expression of folk artistic thought.

**Key words:** Aristotle, Uzbek, literature, drama, theater, composition, literary works, prologue, episodic, exodus, Izzat Sulton, Mithra, Anahita, "Tomaris", "Shirok", "Zariadr and Odatida", "Siyovush", "Afrosiyob", "Rustam", etc.

Buyuk yunon mutafakkiri Aristotel dunyo adabiyotshunosligining ibtidosi bo'lgan "Poetika" asarida "dramaning o'zi harakat, chunki u harakat qiluvchi shaxslarni aks ettiradi",<sup>1</sup>– degan mashhur bir tushuncha bilan dramaning teatr san'atiga qanchalik mushtarak hodisa ekanini ta'kidlagan edi. Shundan keyingi G'arbda yaratilgan deyarli barcha "adabiyotshunoslik nazariya"larida badiiy adabiyotning drama turi haqida so'z yuritilar ekan, qonuniy holda teatr bilan bog'lab ta'rif

beriladi. Zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligi ilmining e'tiborli olimi, professor Izzat Sultonning darsligida ham drama shunday ta'riflangan: "Teatr sahnasida qo'yish uchun yozilgan adabiy asarlarning jami adabiyotning uch asosiy turi (jinsi)dan biri bo'lgan dramatik turni yoki, qisqa qilib aytganda, dramani tashkil qiladi"<sup>2</sup>.

Dramatik asarlarning tashqi kompozitsiyasiga xos jihatlardan biri ularning parda va ko'rinishlarga bo'linishidir. Umuman, asarni bu tarzda bo'laklarga

<sup>1</sup> Aristotel. Poetika. – Toshkent: Fan. 1980.10-b.

<sup>2</sup> Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Fan, 1980.257-b.

ajratish an'anasi antik davrlardan keladi. Jumladan, Aristotel "Poetika"da tragediyaning, bir tomondan, prolog, epizodiy, va eksod, ikkinchi tomondan, xor qismi (u ham ikki turli: parod va stasim) dan tarkib topishini aytadi. Faylasufning uqtirishicha, prolog – xor paydo bo'lguniga qadar bo'lgan qism; epizodiy – yaxlit xor qo'shiqlari orasidagi qism(lar); eksod – yakuniy qism, undan keyin xor qo'shig'i bo'lmaydi<sup>3</sup>. Demak, har qanday drama yoki dramaturgiya haqida so'zlash bevosita teatr haqida so'zlashni taqozo etadi. Shu bois o'zbek dramaturgiyasi tarixining yangi sifat bosqichi haqida so'z yuritilgan ekan, bungacha mavjud bo'lgan shunday hodisalarning ko'rinishlari haqida so'z yuritish maqsadga muvofiqdir. Manbalarning ma'lumot berishicha, miloddan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida Surxondaryo, Samarqand, Farg'ona viloyatlaridagi qadimiy shaharlar xarobalarida hayvonlar niqobini kiyib, turli harakatlar qilayotgan odamlarning tasvirlari saqlanib qolgan<sup>4</sup>. Ana shu taqlidiy harakatlar ibtidoiy teatr shakllarini anglatib, Markaziy Osiyoda dramaning g'oyat qadimiy ildizlari borligidan dalolatdir. Marosim folklori namunalaridagi totem tushunchalar bilan bog'liq juda ko'p qiliqlar, kuylar, qo'shiqlar o'sha ibtidoiy dramaning ba'zi ko'rinishlaridir. Zardushtiylarning muqaddas kitobi bo'lgan "Avesto"da Mitra, Anaxita kabi mifologik obrazlarga sig'inib, taqlid qilishlar, Axriman va Axuramazda kabi yovuzlik va ezgulik xudolarining murosasiz kurashlarining badiiy ifodasi, kitobdagi "got"lar va "yasht"lar ham ya'ni madhiya qo'shiqlar ham qadimiy dramalar haqidagi tasavvurni uyg'otadi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit-turk" asaridagi fasllar munosarasi (Qish va yoz) bilan bog'liq parchalar drama janri mohiyatini belgilovchi konflikt elementlari bilan teatrni yodga soladi. Asardagi turli marosim-bayramlardagi ashulalar, o'yinlar, qadim "To'maris", "Shiroq", "Zariadr va Odatida", "Siyovush", "Afrosiyob", "Rustam" nomlari bilan bog'liq epos va afsonalarning kuylanib, turli harakatlar bilan ijro qilinishi ham tomosha san'ati va dramaturgiyaga aloqador jihatlarining mavjudligidan iborat. O'ttiz yil davomida yozilgan, to'rt yuz yillik tarixni o'z ichiga olib, ellikta podsholik sulolasi haqida ma'lumot bergan Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asarida ham dramaga xos elementlar juda ko'p o'rinlarda uchraydi.

Markaziy Osiyoda qadimdan og'zaki drama mavjud bo'lganiga juda ko'p asoslar beradigan dalillardan biri va eng ishonchli, hanuzgacha mohiyatini yo'qotmagan Navro'z bayramidir. Tabiatning uyg'onishini ajdodlarimiz bir ne'mat, g'oyib kuchlarning in'omi deb tushunishgan. Xalq sayllar uyushtirib, qo'shiqlar kuylashgan. Bu bayramlarda kayfiyatni ko'taruvchi tomoshalar uyushtirilib, masxaraboz va muqallidlar, qo'g'irchoqboz-u ot o'yinlar marosimning tarkibiy qismiga aylangan. Qadim zamonlarda muayyan mehnat jarayonlari, marosimlar bilan bog'liq holda yuzaga kelib, so'ngra

mustaqil tomoshaga aylangan bunday pantomima va o'yinlarning ko'pchiligini ayni vaqtda teatr asari – spektakl desa bo'ladi. Shu o'rinda kulgili o'yinlar haqida to'xtalib shuni aytish kerakki, u qiziqchilik, askiya, latifago'ylik kabi xalq ommasining quvnoq optimistik ruhini ifodalaydi. Ularda teatr elementlari ko'p uchraydi. Xususan, xotin-qizlar erkak kishining harakatlariga taqlid qilib, er-yigitlar ayollarning yurish-turishi va qiliqlariga taqlid qilib o'ynovchi hamda kishilarning ayrim jismoniy kamchiliklarini bo'rttirib ko'rsatuvchi kulgili o'yinlar bu jihatdan karakterlidir. Shu tariqa yumoristik o'yinlarda raqs harakatlari kulgili sahna obrazi, komik xarakter yaratishga xizmat qiladi va dramatik asarlarning paydo bo'lishida muhim omil sifatida ahamiyat kasb etadi. Aristotel tragediya "tugallangan, muayyan hajmga ega butun" voqeaga taqlid qilishini uqtirib, butun deganda "boshlanishi, o'rtasi va oxiri bor" narsa tushunilishini aytadi<sup>5</sup>. Zamonaviy o'zbek dramalari xalq kulgi san'atining ta'siri asosida yanada takomillashdi. Fikrimizni zamonaviy o'zbek dramaturgiyasining bir nechta nodir namunalari misolida asoslaymiz:

Xalil Sulton: – Odil darvesh? Bunda seni kim qo'ydi? Nega kelding?

Odil Darvesh: –Non tilab keldim!

Shodi Mulk: – Nega endi kelib-kelib podshodin non so'rashing kerak, boylardin, savdogarlardin ermas?

Odil Darvesh: – Savdogarning moli kasod, Och qolg'onlar qilurlar dod. "Ahvolimiz yomon", – deydi, "Bo'lur oxir zamon", – deydi.

Xazinalar bo'm-bo'sh emish,

Sob bo'libdi yurtida yemish.

Darveshlar ham bo'ldi tamom, Hech kim bermas bir burda non. Bunda keldim noilojdan,

Oh, qorin och, chiqay der jon!..

Shodi Mulk: – Ko'zdin yo'qoting bul tentakni!<sup>6</sup>

Dramatik asar yozuvchining g'oyasini yaqqol va yorqin aks ettirish bilan birga rejissiyorni, rassomni, operatorni, kompozitorni, va qolaversa, aktyorni bir maqsadni ko'zlagan holda, jonli fikr qilishga ilhomlantirmog'i kerak. Nutqiy muloqotning samarali amalga oshirishini ta'minlovchi vositalar va omillar turli-tumandir. Kinoya turli mazmundagi nutqiy harakatlarni muloqot matnida faollashtiruvchi uslubiy vositalardan biridir. Kinoyali nutqiy harakatlar bajarilishidan ko'zlanadigan asosiy maqsad-tinglovchiga ta'sir o'tkazish va uni ushbu ta'sir doirasida hosil bo'ladigan faoliyatga undashdir. Bu undov esa bilvosita kechadi, ya'ni so'zlovchi tinglovchiga o'z ta'sirini tagma'noli muloqot vositasida o'tkazish yo'lini tanlaydi.

Xazinalar bo'm-bo'sh emish,

Sob bo'libdi yurtida yemish.

Odil darveshning nutqidan hukmdorga qarata aytilgan ushbu fikr, "seni hukmronliging davrida xalq ochlik azobini tortyapti",–degan kinoya mujassam.

5 Aristotel. Ritorika. Poetika.–M.: Labirint, 2000. 156-b.

6 Hayitmat Rasul "Mohituron". 10 ko'rinishli tarixiy drama. –Toshkent: Adabiyot, 2020. 15-b.

3 Aristotel. Ritorika. Poetika. –M.: Labirint, 2000. 160-b.

4 Rizayev Sh. Jadid dramasi. –Toshkent: Sharq, 1997. 10-b.

Ijodkorni ma'lum bir ijtimoiy muhit voyaga yetkazadi. Uning tafakkuri, qobiliyati atrof-muhit ta'sirida shakllanadi va bu xususiyatlar bevosita asar qahramonlari xarakteri hamda hayotiga singdiriladi. Tarixdan ma'lumki, mamlakat taxtiga ziyoli hukmdor kelishi bilan o'z atrofiga ilm ahlini to'playdi. Natijada saroy adabiy muhiti shakllanib, yangi badiiy asarlar yaratilishi bilan poetik tafakkur olamida yangilanish jarayoni yuzaga keladi. Muloqot matnida kinoya mazmunining hosil bo'lishi lisoniy asimmetriya hodisasining namunasidir. Zero, shaklan ifodalangan va nutqiy harakat maqsadi bilan bog'liq bo'lgan botiniy ma'nolar qarama-qarshiligisiz kinoya mazmunidagi matn yaratilmaydi. Eng asosiysi, yaratilgan mazmun tinglovchi tomonidan qabul qilinishi va idrok etilishi lozim. Mazmundagi qarama-qarshilikni sezish va tagma'noni tushunish tinglovchidan yetarli lisoniy qobiliyatga ega bo'lishni talab qiladi. O'z emosional holati, hissiyatini tinglovchiga yetkazishga urinayotgan so'zlovchi kinoyali muloqot muhitida hurmat tamoyiliga rioya etishga harakat qilib, nutqiy faoliyatning muloyim ko'rinishidagi amallariga murojaat qiladi." Bo'lmasa, nima qilib turibsiz bu yerda? Jo'nang o'shal tirik Pirmuhammad Jahongirning oldiga", – aynan mana shu ifoda "sen ham o'l", – degan kinoyaning paydo bo'lishiga asos bo'lgan.

Qalimb yet: (jiddiy tortib). Ishlarim yomonmas, ota. Yomonmas-u, shu keyingi vaqtda unchalik yaxshiyam emas. Orqaga ketgandayroq. Bir xizrsifat odam maslahat berib qoldi deng. Borib otangizning ko'nglini obdon ovlab, duosini olib kelsangiz, bari yurishib ketadi, deydi...

O r o l b o b o: Shunday dedimi o'sha xizrsifating? Bo'пти, mana, duosi bizdan: iloyim, ishlaring birdan yurishib ketsin! (U yuziga fotiha tortib qo'yadi.) Shunga keldim de?

Q a l i m b y e t: (norozilanib). Bunaqa duo emas-da, ota!

O r o l b o b o: –Qanaqasidan bo'lsin, ayt?.. Qulog'ingga quyib olgin, bola: chinakam g'ayrat bilan, toza ko'ngil bilan qilingan ish hech qachon orqaga ketmaydi – duosi o'zi bilan bo'ladi uning!<sup>7</sup>

<sup>7</sup> Erkin A'zam. Tanho qayiq yoxud devonaning orzusi, drama. –Toshkent: Adabiyot, 2020. 52-b.

Erkin A'zam kinoyaviy asar qurilmasida mubolag'adorlik (grotesk, giberbola), paradoks, parodiya, hozirjavoblik, serfahmlilik, kulgi, so'z o'yinlari, qahramon ismlariga ramziy-ironik ma'no yuklash yoki parodiya qahramon yaratish, laqab qo'yish, sir saqlash kabi badiiy shartlilik vositalarini mahorat bilan qo'llaydi. Badiiy asar qahramoni konkret muhitga harakat qiladi va bu personajlar nutqida, xarakterida namoyon bo'ladi. Muallif yashagan zamon ijtimoiy muhit tasvirida ham, davr koloriti berishda ham, badiiy obrazning konkretlilik xususiyatga ega bo'lishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy antropologik psixologiyada inson tafakkurining ko'p o'lchovlilik, ikki tomonlama konstruktivlik, proektivlik, metaforalik kabi jihatlari ochib berish, natijasida kinoya kulgisi paydo bo'lgan.

Garchi dramada nasrga xos teranlik, ifodaviy bo'yoqlar kuchli bo'lsa-da, voqealar bayoni g'oyat izchil, tarang, personajlar nutqi, bahs-u munozarasi o'z-o'zidan dramatismni keltirib chiqaraveradi. Shu o'rinda Erkin A'zam dramalarining umumiy bir holatini qayd etmoq o'rinni: bu pyesalarda ochiq-oshkora, ehtiros-u ziddiyatga boy shekspirona konfliktlar uchramaydi, voqelik sirtidan qaraganda, birmuncha sokin kechadi. Lekin asosiy kurash qahramonlar ruhiyati, botinida yuz beradi. Kundalik suhbat asnosidagi dialoglar yig'ilib, pirovardida, kutilmagan "portlash"ga aylanadi, obrazlar xarakteri, maqsad- muddaosi bor murakkabligi ila ochib tashlanadi<sup>8</sup>. "Tanho qayiq yoxud devonaning xayoli" dramasi ayni shu jihat yorqinroq ko'rinadi desak, xato bo'lmas. Mana shu o'rinda biz konkret vaziyatda inson xulq-atvorining takrorlanmas xususiyatlar va xarakterga ega ekanligiga duch kelamiz. Bu takrorlanmaslik dastlab allaqanday tasodifiy ko'rinsa ham, tipiklik tushunchasining asl mohiyatini tashkil etadi. Har qanday obraz o'z tarixiy o'rni va mantiqiy rivojlanish yo'liga ega bo'lgandagina o'quvchini ishontirishi mumkin. Yuzaki qaralsa, drama komizm asosiga qurilgandek tuyiladi. Ammo, mazkur komizm og'ir va fojiali voqealar yotadi. Shu sabab dramalarda komizm va fojiiyaviylik uyg'unlashadi.

<sup>8</sup> Abdurasulov Sh. Erkin A'zam dramalarida shaxs va jamiyat talqini. Sharq yulduzi jurnali. 2023. №5.157-b.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aristotel. Poetika. –Toshkent: Fan, 1980.10-bet.
2. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent: Fan, 1980.257-bet.
3. Aristotel. Ritorika. Poetika. –M.: Labirint, 2000.160-bet.
4. Rizayev Sh. Jadid dramasi. –Toshkent: Sharq, 1997.10-bet.
5. Aristotel. Ritorika. Poetika. –M.: Labirint, 2000.156-bet.
6. Hayitmat Rasul "Mohituron". 10 ko'rinishli tarixiy drama. –Toshkent: Adabiyot, 2020. 15-bet.
7. Erkin A'zam. Tanho qayiq yoxud devonaning orzusi, drama. –Toshkent: Adabiyot, 2020. 52-bet.
8. Abdurasulov Sh. Erkin A'zam dramalarida shaxs va jamiyat talqini. Sharq yulduzi jurnali. 2023. №5.157-bet.

Go'zal SEILXANOVA,

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti  
qozoq tili va adabiyoti 2-kurs magistranti  
Ilmiy rahbar: PhD, dotsent N.Abdusalitov

## QALBGA MUHURLANGAN BORLIQ: QOZOQ SHE'RIYATIDA VATAN OBRAZINING BADIY RANGLARI

**Annotasiya:** ushbu maqolada Toshkent atrofi qozoq shoirlarining ijodida Vatan mavzusining talqini keng yoritiladi. Turap Aydarov, Boran Qidirov va Mekembay Omarov kabi ijodkorlarning she'rlari misolida Vatan, mustaqillik, milliy birlik va vatanparvarlik g'oyalari qanday badiiy vositalar bilan ifodalangani tahlil qilinadi. Shoirlarning asarlarida o'zbek va qozoq xalqlarining tarixiy yaqinligi, ildizlar mushtarakligi, ezgu orzu-intilishlari hamda fuqarolik mas'uliyati yuksak poetik ruhda aks ettirilgani ko'rsatib beriladi. Maqolada shoirlar ijodining zamonaviy she'riyatga qo'shgan hissasi, ularning badiiy uslubi va Vatan timsolini talqin etishdagi o'ziga xosliklari ham yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** *adabiyot, vatan, madh, ijod, ijodkorlik, vatanparvarlik, do'stlik, birdamlik.*

**Аннотация:** в данной статье подробно рассматривается трактовка темы Родины в творчестве казахских поэтов, живущих в окрестностях Ташкента. На примере стихотворений таких авторов, как Турап Айдаров, Боран Кадыров и Мекембай Омаров, анализируется, какими художественными средствами выражаются идеи Родины, независимости, национального единства и патриотизма. Показано, что в произведениях поэтов высоко поэтизировано отражено историческое близкое соседство узбекского и казахского народов, общность корней, благородные стремления и гражданская ответственность. В статье также освещается вклад творчества поэтов в современную поэзию, их художественный стиль и особенности трактовки образа Родины.

**Ключевые слова:** *литература, родина, восхваление, творчество, творческая деятельность, патриотизм, дружба, единство.*

**Annotation:** this article explores the portrayal of the theme of the Homeland in the works of Kazakh poets living in the Tashkent region. Through the poetry of Turap Aydarov, Boran Qidirov, and Mekembay Omarov, the study analyzes how ideas of homeland, independence, national unity, and patriotism are expressed using various artistic devices. The article highlights the poets' depiction of the historical closeness, shared roots, and common aspirations of the Uzbek and Kazakh peoples, as well as the strong civic spirit reflected in their verses. It also examines the contribution of these poets to contemporary poetry, their unique artistic styles, and their distinctive interpretation of the image of the Homeland.

**Key words:** *literature, homeland, praise, creativity, creativity, patriotism, friendship, vitality.*

**Kirish.** Toshkent atrofida istiqomat qiluvchi qozoq ziyolilari orasida xalq san'ati va adabiyotining durdona namunalarining yaratilishiga ulkan hissa qo'shgan ko'plab iste'dod egalari bor. Ba'zi ardoqli ismlar bugun ham el yodida jaranglab turar, ayrimlari esa vaqt o'tishida biroz unutilgandek tuyuladi. Ammo ularning har biri shu muqaddas tuproqning ruhi, xalqning dardi va quvonchini o'z satrlariga singdirgan ijod sohiblaridir. Qutbay Durbaev, Turap Aydarov, Kulnazar Ibraim, Saparbek Imanbekov, Boran Qidirov, Mekembay Omarov, Usen Umirzakov, Qoshqarbay Bayjigitov va boshqa ko'plab shoirlar – bu zaminning ko'ngil chirog'ini yoqqan, so'z sehrini avlodlarga meros qoldirgan bebaho ijodkorlardir.

Ular har birining she'riyatida o'ziga xos badiiy rang, o'ziga xos ovoz bor. Biroq ularni birlashtirib turuvchi ulkan qudrat – bu xalqona samimiyat,

Vatanga muhabbat, insoniy mehr, milliy ruh va ma'naviy poklikdir. Shoirlarning satrlari gohida ko'ngilning mayin torlarini chertadi, gohida qalbga kuch bag'ishlaydi, gohida esa bolalikdan tanish dalalar hidini, yurt osmonining cheksiz ko'kligini esga soladi. Yillar davomida Toshkent va Olma-ota nashriyotlarida chop etilib kelayotgan ularning she'riy to'plamlari – bu adabiyotning zarhal sahifalari, xalq qalbining badiiy yodnomasi, ikki qardosh xalq o'rtasidagi do'stlik va birodarlikning tirik timsolidir. Bu ijodkorlar qoldirgan so'z xazinasi bugun ham qalblarni iliqlik bilan chulg'aydi, yosh avlodni ezgulikka, ma'rifatga, milliy o'zlikni e'zozlashga undaydi. Ularning she'rlari – yuraklarga yoqimli, ruhga orom beruvchi, vaqt bilan sinovdan o'tgan bebaho merosdir.

Turap Aydarov – Toshkent atrofida yashab ijod qilgan qozoq shoirlari orasida o'ziga xos badiiy olami,

so'zga bo'lgan nozik munosabati va teran vatanparvar ruhiyati bilan alohida ajralib turadigan ijodkor. Uning Vatan mavzusiga bag'ishlangan she'rlari asrlar davomida bepoyon dashtlarda avlodlarini tarbiyalagan, og'ir damlarda o'z farzandlarini himoya qilgan, tinchlik davrida esa qardosh xalqlar bilan yelkama-yelka yashab kelgan qozoq xalqining umuminsoniy qiyofasini yorqin ifodalaydi.

Shoirning misralarida xalqimizning qat'iyati, jasorati va vatanparvarligi, ma'naviy barkamollik va axloqiy fazilatlarining uyg'unligi badiiy mahorat bilan ko'rinish topadi. Aydarov ijodi uchun Vatan – bu faqat tuproq yoki makon emas, balki inson qalbida ildiz otgan muqaddas tuyg'u, tarixiy xotira va ma'naviy mas'uliyat timsolidir. Shoirning Vatan haqidagi eng ta'sirli she'rlaridan biri – "O'zbek eli – o'zagi bir o'z elim" she'ridir. Unda shoir o'z yurtiga bo'lgan muhabbatini, shuningdek, o'zbek va qozoq xalqlarining ildizlari mushtarak, qadriyatlarini uyg'un, ruhiyati esa bir-biriga yaqin ekanini iftixor bilan kuylaydi. She'rda vatan – qalbni uyg'otuvchi qudrat, insonning o'zligini belgilovchi ma'naviy makon sifatida gavdalanadi. Shoirning har bir obrazida, har bir misrasida xalqning qudrati, mehr-muhabbati va birodarlik tuyg'ulari badiiy jilolanadi. Turap Aydarov ana shunday tuyg'ularni nozik poetik nafas bilan ifodalagan vatanparvar shoir sifatida o'ziga xos o'rin egallaydi.

Olib tashlab qorong'ulik tuynugin

O'zbekimga nurin sochdi bugun kun.

Ozodlikning soyasida yarqirab,

Tanib-bildi o'z elining o'zligin.

Shoir she'rning dastlabki misrasidanoq O'zbekistonning mustaqillikka erishganini samimiy quvonch bilan e'zozlaydi. Mustaqillik uning tasvirida go'yo yurt uzra nurini sohib chiqqan quyoshli tongday porlaydi. Shoir ta'kidlaganidek, aynan shu buyuk tarixiy voqeadan so'ng mamlakat o'z o'tmishini yanada chuqurroq anglash, o'z ildizlariga yangi nigoh bilan boqish imkoniga ega bo'ldi.

Bugun mana ortda qoldi qora kun,

Mustaqillik ko'kka yoydi qanotin.

Shu payt – xalqim endi porlaysan,

Shu payt – endi izlaganing toparsan.

Shoir o'zbek va qozoq xalqlari o'rtasidagi azaliy do'stlik, birdamlik va tinchlikni tarixi bir, ildizi bir bo'lgan qardosh xalqlar qiyofasida tasvirlaydi. "Birga yurib, birga olg'a intildik" degan satrlar esa ikki xalqning taqdiri, turmushi, orzu-intilishlari bir-biriga uyg'un, birday ekanligini yanada ravshan namoyon etadi.

O'zbek, qozoq- tomiri bir xalqmiz,

Birga yonib, birga so'nibmiz.

Ozodlikning bayrog'in ushlab yuqori,

O'ng va chapni birgalikda tanibmiz.

Shoir ushbu mavzuni yoritarkan, ayniqsa, mustaqillik g'oyasini o'zgacha ehtirom va ulug'vorlik bilan kuylaydi. Uning she'rlarida xalqimizning qahramonligi, vatanparvarlik tuyg'usi va umuminsoniy axloqiy fazilatlar o'zaro uyg'unlashib, nafis she'riy ifodalarda mujassam bo'ladi.

O'z ijodida Vatan mavzusini madh etmagan shoirlar kamdan-kam. Ana shunday ijodkorlardan biri – Boran Qidirov. Shoir she'riyatida Vatan mavzusi yetakchi yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Qidirovning misralarida vatanparvarlik tuyg'usi o'ziga xos badiiy ranglarda, teran his-tuyg'ular bilan yoritiladi.

Vatan – mening o'z uyim, beshigim

Vatan bilan egiz hamdir eshigim.

Vatan bilan o't kabi yonaman, maqtanaman,

Vatan meni erkalatgan, asragan – deb, shoir o'z Vatani haqida chuqur mushohada yuritadi. Shoirning bunday teran qarashlari tinglovchini Vatan uchun har qanday sinov va olovdan o'tishga tayyor bo'lgan chinakam vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi.

Vatan madhi o't bo'lib yonsa yoningda,

Qizuv bo'lar qoningda.

Vatanim deb ura agar yuraging,

Shundagina qabul bo'lar tilaging.

Vatanni sevish – inson qalbida eng avval uyg'onadigan va hech qachon so'nmaydigan muqaddas tuyg'udir. Shoir nazarida ona yurtga mehr qo'yish – barcha hislarning eng ulug'i, eng yuksagi bo'lmog'i zarur. Chunki insonning har bir yutug'i, har bir muvaffaqiyati, hatto uning hayotdagi borligi ham ona Vatanning bag'riga, uning mehriga bog'liq. Shu bois shoir yurtga bo'lgan muhabbatni nafaqat tuyg'u, balki burch, mas'uliyat va e'tiqod darajasida ulug'laydi. Vatan taqdiri uchun qayg'urish, uning buguni va ertangi kunini ko'z qorachig'idek asrash – har bir fuqaroning sharafligi, buzilmas va qadri baland burchidir. Yurtparvarlik insonni ulug'laydi, uning ruhini butun qiladi, hayotiga mazmun bag'ishlaydi.

Taqdir seni ayirsa ham boringdan

Lek hech ayirmasin Vatandan

Vatan uchun o'zin o'tga otgan bor,

Vatanini sotqinlarcha sotgan bor.

Shoir o'z she'rda vatanini haqiqiy mardlarcha sevadigan oshiqlar ham, shuningdek, vatanini sotqinlarcha sotadigan nonko'rlar ham bor ekanligini badiiy so'z bilan go'zal ko'rinishda ta'riflaydi.

Sotqinlardek yursang o'zga yurtda

Vatanninga yotsan endi ko'rinma,

Bo'lmasa vatanga bo'lgan sevging, ishonching,

Shuku sening o'lgan kuning, o'liming.

Mekembay Omarov – haqiqiy vatanparvar shoir. U o'z she'rlari orqali insonlarni ona yurtini sevrishga, uni har qanday yovdan himoya qilishga chorlaydi. M. Omarovning "Vatan" mavzusidagi asarlari kuchli g'oyaviy energiya, ichki sirlilik va yuksak vatanparvarlik tuyg'usi bilan sug'orilgan. Mekembay Omarov – O'zbekistondagi qozoq adabiyotining rivojiga beqiyos hissa qo'shgan ijodkorlardan biridir. Ayniqsa, 2017 yilda Olma-ota shahrida nashr etilgan "Oy ostidagi bolalar" nomli to'plami bolalar adabiyotiga bag'ishlangan yirik asar sifatida alohida ahamiyatga ega. Shoirning ushbu kitobiga turli mavzulardagi she'rlar, masallar, dostonlar, afsona va ertaklar, shuningdek, topishmoq hamda tez aytishlar jamlangan. To'plam bog'cha va maktab yoshidagi bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning tasavvurini kengaytirish, ma'naviy dunyosini boyitish va badiiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shoirning "Vatan" nomli she'rida yurtga bo'lgan muhabbat ulug'vor bir tuyg'u sifatida tasvirlanadi. Unda Vatan osmonidek keng, tuprog'idek muqaddas, ona bag'ridek mehribon maskan sifatida gavdalanadi. Shoirning bu she'ri o'quvchini yurt sha'nini himoya qilishga, uni jonidan aziz bilishga da'vat etuvchi kuchli ruhiy qudratga ega. Shoir asarlarida kuchli g'oyaviy quvvat, chuqur hissiyot va yuksak vatanparvarlik ruhi mujassam. Uning "Vatan" nomli she'rida:

Vatan degan – hilpiragan bayrog'ing,  
 Belni mahkam bog'lagin.  
 Zirhdek birga birlashib,

Bobolar yo'lin quvganim, – deydi. Darhaqiqat, bu satrlarda Vatanga bo'lgan faxr, muhabbat va g'urur nafasini his etish mumkin. Unda kelajakning jasur farzandi sifatida o'z elining birligi va mardligidan faxrlanadigan vatanparvar insonning ruhi seziladi. Shoir yosh avlodni ezgu fikrlarga chorlab, ulardan katta umid qiladi. Shoir bolalarni faqat vatanparvarlik ruhida tarbiyalabgina qolmay, balki yurti asrab-avaylashga, uning qadriga yetishga chorlaydi. Uning tug'ilib o'sgan zaminiga bag'ishlab yozgan "Qiltanoq", "Mening Vatanim", "Ozodlik", "Bizning mamlakatimiz"

kabi she'rlari ham Vatan mavzusiga bo'lgan cheksiz muhabbat va sadoqatning badiiy ifodasi sifatida alohida ahamiyatga ega.

Aytgandek bir shukurchilik,  
 Bugun rossa avj oldi.  
 Piyoz archsam, suti chiqib  
 Ko'zlarimnan yosh tomdi.  
 So'zimni kim rostlar ekan?  
 Toshkent degan – qut-barakam  
 Bizning yurtida sigiri tugul  
 Piyozida ham sut bor ekan.

Shoirning Vatan haqidagi yana bir ta'sirli asari – "Turkiston" she'ridir. Unda ham yurtning qadri, tarixiy buyukligi va unga bo'lgan sadoqat yuksak badiiy ruhda kuylanadi.

Tilak bilan yurakdagi orzusan,  
 Shundanmi sen qadri sanalgansan  
 Bishkeksan, Buxorosan, Samarqandsan  
 O'g'il-qizingni ulug' armon chorlagan,  
 Qazig'urt, Qorasmon, Sarioqamsan.

Tarix va jamiyat oldidagi buyuk javobgarlikni chuqur his eta oladigan, ko'ngli nozik, qalbi sezgir shoirgina bunday go'zal so'zlar bilan xulosa chiqarishi mumkin. Umuman olganda, ona Vatanni madh etmagan shoirning o'zi bo'lmasa kerak, chunki Vatan tuyg'usi har bir ijodkorning ilhom manbayi, ruhiy tayanchi, ijodiy qudratidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Toshkent atrofi qozoq shoirlarining ijodida Vatan mavzusi o'ziga xos badiiy ruh va teran ma'naviy mazmun bilan boyitilganining guvohi bo'lamiz. Turap Aydarov, Boran Qidirov va Mekembay Omarov kabi ijodkorlarning she'rlari orqali yurtga muhabbat, mustaqillikning qadr-qimmatini, milliy birlik va fuqarolik mas'uliyati yuksak poetik ohangda ifodalanadi. Ularning asarlarida o'zbek va qozoq xalqlarining mushtarak ildizlari, tarixiy yaqinligi va ruhiy uyg'unligi yorqin tasvir topadi. Umuman olganda, ushbu shoirlarning she'riy merosi nafaqat vatanparvarlik g'oyasini targ'ib etadi, balki zamonaviy she'riyatga yangi nafas, yangi ohang va mustahkam badiiy an'ana olib kiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қыдыров Б. Қос тағандар. Ташкент: «Zar Qalam», 2007. 94-б.
2. Омаров М. Күн күлкисі. Ташкент: «Istiqloq», 2013. 72-б.
3. Омаров М. Шұғылалы елдің шабыты. Жинақ. Ташкент: «Adib», 2014. 208-б.
4. Омаров М. Өзбестандық қазақ ақындары жырларының анталогиясы. Ташкент, «Атажұрт», 2017. 502-б.
5. Өзбекстандағы қазақ ақындарының өлеңдер жинағы. Алматы, «Атажұрт», 2014.

Muxlisa ASHIRMATOVA,  
Qarshi davlat universiteti  
Yangi o'zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi  
kafedrası magistranti

## SHOIM BO'TAYEV HIKOYALARIDA FOJIA MOTIVI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Shoim Bo'tayev hayot yo'li, uning ijodi va asosan hikoyalari, ulardagi hozirgi kunda ham muhim sanalayotgan ijtimoiy mavzular, ikkiyuzlamachilik, yo'lg'on, riyo, shuhratparastlik kabi mavzular fojia motivi orqali yoritilib berilgan.

**Kalit so'zlar:** *novator, fojia, riyo, shuhratparastlik, vafo, sadoqat, qarz.*

**Annotation:** this story explores Shoim Butaev's life path, his work and mainly his stories, and the social themes that are still important today, such as hypocrisy, deceit, hypocrisy, and ambition, through the motif of tragedy.

**Key words:** *innovator, tragedy, hypocrisy, ambition, loyalty, devotion, debt.*

**Аннотация:** в данной работе рассматриваются жизненный путь Шоима Ботаева, его творчество и, главным образом, его рассказы, в которых через мотив трагедии раскрываются и по сей день актуальные социальные темы, такие как двуличие, ложь, лицемерие, стремление к славе.

**Ключевые слова:** *новатор, трагедия, лицемерие, стремление к славе, верность, преданность, долг.*

**Kirish.** XX asr boshlaridagi adabiyot o'zining "Novator" adiblar yetishtirib berganligi bilan alohida ahamiyatga molik. "Novator" so'zi yangilik yaratuvchi degan ma'noni bildirib, bu asrda yozilgan asarlarda qandaydir qahramonlik ko'rsatgan, yoki jamiyatda alohida ahamiyat kasb etgan qahramonlar yetakchilik qilmaydi. Asar bosh qahramonlari shunchaki oddiy insonlar hisoblanib, asar mohiyatining tub zamirida insoniylik bosh mavzu hisoblanadi. o'zbek adabiyotida shunday adiblar borki, ular o'zining ijodi bilan adabiyotshunoslik olamida yetarlicha o'rin egallaganlar. Tog'ay Murod, Shoim Bo'tayev, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov kabi adabiyot vakillari mana shunday "Novator" ijodkorlar hisoblanadi.

Shulardan o'zbek adabiyotining mashhur vakillaridan biri Shoim Bo'tayev haqida gaplashsak. U yozuvchi, jurnalist, ssenaristdir. Adib 1959-yil 20-iyunda Tojikiston Respublikasining o'ratepa tumanida, Maydoncha qishlog'ida tug'ilgan. Ijodkorning adabiy faoliyati 1984-yilda "Sharq yulduzi" jurnalida chop etilgan "Sirli yulduzlar" nomli ilk qissasidan boshlangan. Shundan so'ng uning "Dunyoning sarhisobi bor", "Endi bari boshqacha", "Shamol o'yini", "Qo'rg'onlangan oy", "Shox", "Sho'rodan qolgan odamlar" kabi qissa va roman hikoyalari chop etilgan. Yozuvchining asarlari bir qator tillarga, jumladan, nemis, rus, ingliz, tojik tillariga tarjima qilingan. [1]

Umuman, adib ijodi o'zining milliyliigi, falsafiy mushohadalarga boyligi, insoniy qadriyatlarga e'tibori, xalqchilligi bilan ajralib turadi. Asarlaridagi asosiy mavzular: milliy qadriyatlar va ur-odatlar; insoniylik

va ruhiy iztiroblar; zamonaviy jamiyat muommalari; inson ichki ruhiyatida fojia tasviri hisoblanadi. Shoim Bo'tayev uslubi esa oddiy xalqona tilda yozilishi, syujetlari hayotga yaqinligi, qahramonlari oddiy insonlar, lekin murakkab ichki dunyoga ega ekanligi, muammoli voqealar orqali falsafiy fikrlar berishi bilan ahamiyatlidir. Yozuvchi ijodini o'rganar ekanmiz, asarlarda fojia tasviri katta o'rin egallashining guvohi bo'lamiz.

Bo'tayev fojiani insonning ichki kechinmalari orqali ochib beradi. Uning qahramonlari ko'pincha ijtimoiy muhit bilan moslasha olmaydi. o'z e'tiqodi vijdoni hayotga qarashi sababli azob chekadi. Bu iztirob ichki konflikt asarning asosiy dramatik kuchi bo'lib xizmat qiladi. Hikoyalarda ko'pincha fojia oddiy insonlar (dehqon, muallim, ishchi) hayotiy adolatsizlik sevgi fojiasi yoki oila muammolari sababli ruhiy tushkunlikka tushadi. Bu fojia ko'pincha jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar, qadriyatlar, yemirilishlar bilan bog'liq bo'ladi.

Adibning "Qarz" hikoyasiga e'tibor qaratsak, hikoya o'zbek adabiyotidagi insoniy munosabatlarning murakkabligini jamiyatlarda stereotiplarni va ijtimoiy ta'sirlarni chuqur tahlil qiluvchi asar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu hikoya orqali yozuvchi inson qalbidagi olamni, uning ichki kechinmalarini va jamiyat bilan bo'lgan munosabatlarni o'quvchiga yetkazadi. Hikoya talaba bo'lgan yigitning ta'tilni o'z qishlog'ida o'tkazishga qaror qilishi bilan boshlanadi. Voqealar rivojida Tolik ismli qishloq yigiti undan ming so'm qarz so'raydi. Talaba yigit darhol unga ming so'mni beradi, chunki insonlarga og'ir paytda yordam qo'lini

cho'zish eng muhim insoniy sifatlardan biri deb o'ylaydi. U qishloqdagi oddiy odamlar bilan muloqatda bo'lish orqali u o'zining sahar va qishloq orasidagi tafovutlarni insonlarning turli ijtimoiy qatlamlarga bo'lgan munosabatlarini sezadi. Aynan sotuvchining Tolikka bo'lgan munosabati buning yorqin dalilidir. Hikoya yakunida esa yozuvchi asosiy maqsadini yoritadi. Talaba yigitdan qarz olgan Tolik yigitni oylab qidiradi, ammo topolmay xunob bo'lib yuradi. Bir kuni uni ko'chada uchratib qolib, olgan ming so'm qarzini beradi. Uning qarzidan qutulgan paytdagi holatini yozuvchi quyidagicha tasvirlaydi: "Tolik jilmaydi. Uning jilmayishida o'zini ketma-ket kunlar, haftalar, oylar mobaynida qiynab kelgan mushkulotlardan forig' bo'lganining quvonchi mujassam edi. Talaba boshqa tomonga yuz burdi, uning ko'zlari jiqqa yosh edi".[2] Asarning asosiy mazmuni talaba, Tolik, sotuvchi obrazlari orqali yoritilgan. Tolik obrazi orqali yozuvchi mas'uliyat, burch va sadoqat kabi tuyg'ular ochib berilgan bo'lsa, talaba obrazida ishonch va mehr tuyg'ulari yashirin. Sotuvchi obraziga kelsak, bu obrazda soxtalik, laganbardorlik, ikkiyuzlamachilik kabi illatlar fosh bo'ladi. Shoim Bo'tayevning "Qarz" hikoyasi inson qalbidagi olamni, uning ichki kechinmalarini va jamiyat bilan bog'liq munosabatlarini chuqur tahlil qiluvchi asar sifatida o'zbek adabiyotida muhim o'rin tutadi. Yozuvchi bu asar orqali o'quvchiga insoniyatning murakkabligini, uning ruhiy holatini va jamiyatdagi o'zni haqida chuqur fikr yuritishga undaydi. Tolikdagi insoniy xislatlar O'lmas Umarbekovning "Qiyomat qarz" hikoyasidagi Sarsonboy otadagi xususiyatlarni eslatadi.[3] Har ikkala obrazda ham bironing haqqiga sodiqlik, mas'uliyat sifatlari mujassam.

Shoim Bo'tayevning keyingi "Otamga nima bo'ldi" hikoyasi o'zbek adabiyotida ijtimoiy, tanqidiy va psixologik jihatdan chuqur asar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu hikoya orqali yozuvchi jamiyatdagi ikkiyuzlamachilik, o'z manfaatlarini ustun qo'yish va insoniy qadriyatlarning yemirilishini o'quvchiga taqdim etadi. Hikoyada ota va bola o'rtasidagi murakkab munosabatlar, oilaviy muammolar, insonning ichki

iztiroblari va ularning tashqi qiyofasi yoritilgan. Otaning jimligi bolaning savollariga sabab bo'ladi va bu orqali ichki muloqotsizlik paydo bo'ladi, jimlik ota uchun qattiq dard, bola uchun esa tushunarsiz holat. Shu sababli ham ota va bola o'rtasida muloqatsizlik paydo bo'ladi. Asar mazmuni asosan Xidir buva va ota suhbatidan iborat bo'lib, Xidir buva obrazi orqali yozuvchi jamiyatdagi ikkiyuzlamachi, o'zini urushda qatnashganman deb mashina va boshqa katta yutuqlar olgan soxta shaxslar qiyofasi ochib berilgan. U jamiyatdagi adolatsizliklarga, yolg'onlarga jim qarab turolmagan, insoniy qadriyatlarni ifoda etuvchi shaxs sifatida gavdalanadi. Lekin urushning asl qiyinchiliklarini, mashaqqatlarini urushda qatnashgan insonlar biladi. Mana nega ota bunchalar jim, mana nega ota bunchalar xayolchan? Chunki urush xotiralari otani jim qolishga undaydi. Asar yakunida otasining ham mehnatlari hukumat tomonidan e'tirof etilganligi qayd etiladi: "Otamning nomiga kelgan telegramma: "Hurmatli quroldosh do'stimiz Iso Odilovich! sizni 19-tepalikni egallashda aktiv qatnashganligingiz uchun taqadirlash ba'zi sabablarga ko'ra topshirilmay qolganligi uchun topshirilmay qolgan "Qizil Yulduz" medalingizni olish tantanasiga taklif etamiz". Harflar orasidan nimadurlar chiqib ko'zlarimga qadaladi....."[4]

**Xulosa** o'rnida shuni aytish kerakki, Shoim Bo'tayev hikoyalarida fojia motivi oddiy sodda voqealar motivida yoritiladi. Hikoyalarda jasorat, muhabbat va sadoqat kabi yuksak tuyg'ularning jamiyatdagi qoloqlik, loqaydlik va adolatsizlik bilan to'qnashuvi natijasida yuzaga kelgan fojiaiy holatlar o'quvchini chuqur o'ylantiradi. Maqolamizni Shoim Bo'tayevning o'z asarlari haqida, umuman, adabiyot haqidagi fikrlari bilan yakunlasak: "Fikrlarimni bugungi zamonaviy adabiyot haqida emas yozayotgan yangi asarlarim band etgani uchun bu haqida hech narsa deya olmayman. Yosh kitobxonlarga esa shunday deb qolaman, Insonning qalbida koinot qadar cheksiz olam bor. Bu olam santimetrma santimetr zabt etiladi. Bu olamni har birimiz qo'riqligicha qoldirmasligimiz kerak deb o'ylayman".[5]

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S.Mirvaliyev, R. Shokirova "o'zbek adiblar" - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2016.
2. <https://kh-davron.uz/kutubxonasi/>.
3. Adabiyot darsligi, 6-sinf I qism, 2015.
4. [www.ziyo.com.kutubxonasi](http://www.ziyo.com.kutubxonasi).
5. Bekajon gazetasi. "Inson qalbidagi olam" jurnalist Umid Ali bilan suhbatidan, 2007. 57-son.

Mubinaxon NORMURODOVA,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

## “BADOYI UL-BIDOYA” DEVONIDA HAMD VA NA'T G'AZALLAR

**Annotatsiya:** o'zbek adabiyotshunosligi Navoiy g'azalyotini tadqiq etish bo'yicha muayyan yutuqlarga erishgan. Biroq, bizningcha, Alisher Navoiy g'azallaridagi timsollarni arabcha kalima va ifodalarning ma'nolarini chuqurroq anglab yetgan holda o'rganish va tahlil etish lozim. Zero, Navoiy ijodini ayniqsa, hamd va na't g'azallarini yetarlicha to'g'ri tahlil qilishda arabcha so'zlarni anglash muhim ahamiyatga ega. Hamd va na't g'azallariga xos bo'lgan timsol va tushunchalar, aniqrog'i, tasavvufiy timsollarni arabcha kalimalar va ular orqali hosil qilingan badiiy san'atlar ila o'rganish, ularning ma'no olamini ochish ushbu maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

**Kalit so'zlar:** *hamd g'azallar, na't g'azallar, badiiy san'atlar, adabiy tur, janr, devon.*

**Annotation:** uzbek literary studies have achieved notable results in researching Navoi's ghazal heritage. However, in our view, the analysis of the imagery in Alisher Navoi's ghazals should be approached with a deeper understanding of the meanings of Arabic words and expressions. Indeed, comprehension of Arabic vocabulary plays an important role, especially when correctly interpreting Navoi's works such as his hamd and na't ghazals. The symbols and concepts characteristic of hamd and na't ghazals—more precisely, the Sufi imagery—need to be studied through Arabic lexical units and the poetic devices formed by them. Revealing their semantic layers determines the relevance of this article.

**Key words:** *hamd ghazals, na't ghazals, poetic devices, literary type, genre, divan.*

**Аннотация:** узбекское литературоведение достигло определённых успехов в изучении газелей Навои. Однако, на наш взгляд, анализ образов в газелях Алишера Навои требует более глубокого понимания значений арабских слов и выражений. Ведь правильное толкование творчества Навои, особенно его хамд- и на'т-газелей, во многом зависит от знания арабской лексики. Образы и понятия, характерные для хамд- и на'т-газелей, точнее говоря, суфийская образность, должны изучаться через арабские слова и художественные приёмы, созданные на их основе. Раскрытие их смыслового мира определяет актуальность данной статьи.

**Ключевые слова:** *хамд-газели, на'т-газели, художественные приёмы, литературный род, жанр, диван.*

Hamd-islomiy, shar'iy tushuncha bo'lib, Allohga madh, maqtov degan ma'nolarni anglatadi. Hamd so'zining lug'aviy ma'nosi haqida “g'iyosul-lig'ot” da shunday fikr mavjud: “Hamd-sutudan va sitoyish va ba istilohi vos bayon kibriyo va salol va azamati Haq subhonahu taoloro go'yand; va ba'ze az muhaqqiqin chunin navishtaand, ki hamd dar lug'at sano kardan ast ba zamon bar xubii ixtiyorii kase baroi ta'zimi vay, chunonchi go'y”.

[Mazmuni: Hamd-xoslar istilohida Haq subhonahu taoloning buyukligi, azimu azamatligini ulug'lash, maqtashga aytadilar. Ba'zi tadqiqodchilar hamdga quyidagicha talqin berganlar: Hamd lug'atda, ixtiyoriy ravishda birovning yaxshiligini maqtashdir. Yoxud uni ulug'lash, unga ta'zim bajo keltirish ham deyish mumkin.]

Har bir asarni xoh u ilmiy risola bo'lsin, xoh doston, Alloh taolo hamdi bilan boshlash musulmon sharqining azaliy an'anasi hisoblangan. Mumtoz adabiyotimiz namoyondalari ham ana shu udumga izchil amal qilib

kelganlar. Bu an'ananing ya'ni, islomiy hamdlarning ildizi esa islomiy aqidalarning barqarorlashish davriga borib taqaladi. Alisher Navoiy o'zining barcha asarlari singari “Badoye' ul-bidoya” devonini ham Sharqda mavjud an'anaga muvofiq hamd, munajat g'azallar bilan boshlaydi va hamda na't va me'roj mavzusidagi g'azallar bilan davom ettiradi. Navoiygacha devon yaratgan shoirlar ijodida ham, albatta, aynan shu mavzuda, e'tiborlisi, shoir qo'llayotgan timsollar vositasida bitilgan hamd va na't g'azallarini uchratish mumkin.

Hamd, munajat yo'lida bitilgan g'azallarda shoir Allohni madh etadi, ulug'laydi, undan najot so'raydi, o'zining zaifligi, ojiz-u notavonligini izhor qiladi. Alloh, olam va odam, ular o'rtasidagi munosabatlar va uyg'unlik haqidagi diniy-so'fiyona bilimlar, qarashlar va tasavvurlarning mag'zi aynan shu g'azallarga singdirilgan, zero Navoiy o'zining hamd va na't g'azallarida islom va tasavvufga uyg'un falsafiy qarashlarini umumlashtiradi.

Ilohiy muhabbat bilan yo'g'rilgan hamd, munojot g'azallarni tasavvuf falsafasiga bog'lab o'rganish ularning mohiyatini teranroq anglashga, g'azallarni to'g'ri tushunishga imkon yaratadi. Ushbu turkum g'azallarda so'fiyona qarashlarning badiiy ifodasi haqida ilm ahli tomonidan ham ba'zi mulohazalar bildirilgan. Jumladan, navoiyshunos S.G'aniyeva va H.Ne'matov "Badoye' ul-bidoya" devonidagi 2-g'azalning ("Zihi husnuing zuhuridin tushib har kimga bir savdo..." deb boshlanuvchi) baytlarini tasavvufning yetti maqomi (talab, ishq, ma'rifat, istig'no, tavhid, hayrat, faqr-u fano) bilan uyg'unlashtirib tushuntiradilar. Boshqa bir o'rinda ushbu g'azal "Lison ut-tayr"dagi yetti vodiy bilan bog'liq epik tasvirlarning eng kichraygan, siqiq, falsafiy ramziy tarhidek", deb baholangan.

Devondagi g'azallarning muayyan qismini na't g'azallar tashkil etadi (6-, 7-, 8-, 53-, 90-, 101-, 272-, 329-, 344-, 621-g'azallar). Olamning yaratilishidan maqsad – odam, odamning yaratilishidan maqsad esa payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom ekanligini Navoiy bir g'azalida shunday e'tirof etadi:

*Olam-u odam fidong o'lsunki borsen, ey habib,  
Sen g'araz insondin, ar olamdin insondur g'araz.*  
(303-g'azal)

Na't g'azallarning muayyan qismi me'roj voqeasini ta'rif-tavsif etadi. Me'roj mavzusidagi g'azallar mazmunini Me'roj kechasi hodisalari va shoirning u bilan bog'liq tasavvur-kechinmalari tashkil etadi. Ularda, ayniqsa, koinot, tungi samo tasviri muhim o'rin tutadi, zero me'roj mo'jizalari tun bilan, koinot va uning jismlari bilan chambarchas bog'liq.

*Anjum ichra orazing me'roj shomi o'ylakim,  
Tushsa durri shabcharog'e har taraf shabnam aro.*  
(6-g'azal)

Navoiy Rasulullohning Me'roj kechasidagi holatini samoviy jismlar bilan uyg'unlashtiradi: ul zot va yon atrofidagi yulduzlarni kechasi shudringzor ustidagi chiroq yorug'idan akslanib, yaltirab ko'rinayotgan shu'lalarga qiyoslaydi (oraz —tunchiroqqa, yulduzlar esa undan shu'lalanayotgan shudring tomchilariga o'xshatiladi).

Na't g'azallarning mazmuni shoirning Alloh, olam va odam haqidagi, koinotning sarvari Rasululloh haqidagi diniy-so'fiyona bilimlari, qarashlari va tasavvurlari bilan uyg'unlashib ketgan. Biroq she'r badiiy tafakkur mahsuli. U inson ruhiyatining eng yuksak intilishlarini anglab yetish istagida dunyoga keladi. Shunday ekan, shoirning na't g'azallarida, bir tomondan, payg'ambarimizning hayoti, uning payg'ambarlik faoliyati bilan bog'liq voqea-hodisalardan xabar topsak, ikkinchi tomondan, asosan, u zotga bo'lgan

munosabat – adoqsiz mehr-muhabbat, uning shafolatiga muyassar bo'lish istagida yongan yurak evrilishlarining badiiy ifodasiga duch kelamiz. Bu turkum g'azallarni yaratish shoirga nechog'li ichki xotirjamlik, ruhiy quvvat baxsh etganligini bir g'azalda o'zi shunday ifodalaydi:

*Navoiy, nabi na'tidin jam qilg'il  
Parishon esa xotiri xarzagarding (344).*

Avvalgi turkum, ya'ni vasf na't g'azallarda ul zotning husni, ibratga loyiq xulqi, fazilatlar, hadislari hamda boshqa sifatleri tavsif etiladi. Ikkinchi turkum – me'roj mavzusidagi g'azallarda esa Muhammad (s.a.v.)ga yuborilgan mo'jizalardan biri – Me'roj voqeasining vasfi keladi, u badiiy talqin qilinadi. Ba'zan, mana shu ikki xil mazmunning bir g'azalda ifoda topganini ham kuzatish mumkin. Shuningdek, shoirning oshiqona g'azallari tarkibida Rasululloh yor timsolida vasf etilgan g'azallar ham mavjud bo'lib, ularni o'rganish alohida tadqiqotlarni talab etadi.

Na't va me'roj mavzusidagi g'azallar mavzu yo'nalishiga muvofiq o'zining timsol va ramzlari, badiiy-tasvir vositalari, aniqrog'i, o'ziga xos uslubi-badiiy xususiyatlariga ega va shunga ko'ra ularni har qanday devon tarkibidan oson ajratib olish mumkin. Rasulullohga muhabbat va bu muhabbatning otashi, shiddati ushbu turkum g'azallar yaralishiga bosh sababdir. Bu ishqning sir-sabablari esa Qur'on oyatlari, hadis va albatta, shoirning g'azallarida ham inkishof etilgan. Shoir bu ishq olovi haqida shunday deydi:

*O't ichra tushsa bo'lur nisbati samandardek,  
Kishiki, ishqing o'tig'a o'zin qilib mansub (53).*

Bu ishqning mazmun-mohiyati baytdagi samandar timsoli orqali ochiladi. Samandar timsoli haqida hamd g'azallarda ham to'xtab o'tgan edik. O'tdan yaralib, shu o't ichida yashaydi, deb tasavvur etiladigan bu jonivor klassik matnlarda ramziy ma'noda ishq o'tida yonib yashaydigan oshiq timsolini anglatadi. Baytda samandar timsol-tashbehini qo'llagan shoir Rasulullohga muhabbat mo'min uchun tiriklikning ma'no-mazmuniekanligigaishoraqiladi. "Payg'ambarni sevish tahsinga loyiq, – deb yozgan edi Abu Hamid G'azzoliy, chunki u Parvardigorning sevgan kishisi, Parvardigor habibi! Ya'ni sevganimizning sevgani ham sevimlidir"<sup>1</sup>. Zohir-u botinda komillik ramziga aylangan Rasulullohga muhabbat Allohga muhabbat bilan tutashib ketadi. Badiiy asarda, xususan, Navoiy g'azallarida esa u zotning siymosi husn-u malohatda beqiyos, xulq-u atvorda ibrat sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham shoir na't g'azallarda u zotni ta'rif-tavsif qilar ekan, qiyosini oydan, quyoshdan izlaydi, uning oshiqlarini, shu jumladan, o'zini

vafodor it, xor-u xas, zarra, g'ubor kabilar bilan teng ko'radi. Bularning barchasi, bir tomondan, shoirning ruhiy-ma'naviy olamini, ikkinchi tomondan, badiiy mahoratini o'rganishga imkon beradi. Navoiyning payg'ambarimizni ulug'lab, madh etib bitgan na't g'azallarida tabiat, uning ashyolari, hodisalariga hamohang timsol-u tashbehlar ko'p uchraydi. Buni ijodkorning olam, tabiat bilan uyg'unlikda yashashga bo'lgan ehtiyoji bilan bog'lash kerak bo'ladi.

*Zihi hiloling o'lub oy boshig'a tiyg'i balo,  
Bir olmasiz ikki yorg'on sen-u quyosh masalo (8).*

Baytning, dastlabki, misrasida shoir Rasulullohning qoshlarini istiora san'ati vositasida hilol, ya'ni yangi chiqqan oyga o'xshatar ekan, *oy boshig'a* ifodasi yordamida so'z o'yinidan foydalanib, ikki xil ma'noni berishga, baytning jozibador bo'lishiga erishadi. Qoshlar hilolga qiyoslanadi, yuz quyoshga tenglashtiriladi – quyosh va ul zotning yuzlari bir olmaning ikki yuziga o'xshab ketishi ta'kidlanadi.

Na't g'azallarda Rasuli akramning tashqi go'zalliklarini ifodalashga ham jiddiy e'tibor berilganini kuzatish mumkin. Biroq bu shunchaki ta'rif-tavsif emas, balki u zotning komil xulqlari bilan uyg'unlashib ketganini, misralar aql nuri bilan yoritilganligini his etish mumkin, jumladan:

*Yuz-u ko'zungda muayyan kamoli sun'i iloh,  
Ne yuzdurur bu, ne ko'z loiloha illalloh (621).*

Shoir Rasulullohning yuz-u ko'zini Alloh qudrati kamolotining namoyishi sifatida e'tirof etib, hayratga tushadi. So'fiyona she'riyatda istiloh darajasiga ko'tarilgan bu timsollarning ma'no-mazmunini izohlashda mana shu misralar ham qo'l kelishi mumkin.

“Yuz deb, nur va suratlar ma'nosi yuzasidan zavq bilan oxiriga yetuvchi tajalliyni, shuningdek, iymon nurlari va irfon eshiklarining ochilishi hamda haqiqiy jamol pardalarining ko'tarilishiga aytadilar”. Ko'z esa – ilohiy olamning ayonlashuvi, komil insonning o'zi. Chunki ko'z o'zidan boshqa hamma narsani ko'radi-yu, o'zini ko'rmaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy o'zining *Badoyi' ul-bidoya* devonida hamd va na't g'azallari orqali nafaqat ilohiy muhabbat va payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga bo'lgan cheksiz ehtiromini yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etadi, balki turkiy adabiyotning mavqeyini ham yangi bosqichga ko'taradi. Hamd g'azallarida U Zotning yaratgan olami, insonning ruhiy komil bo'lish yo'li, ilohiy qudratning cheksizligi chuqur falsafiy ohangda tasvirlangan. Na'tlarda esa Payg'ambar (s.a.v.)ning buyuk fazilatlarini, ummatga rahmat bo'lib kelgan mo'jizaviy siymosi, insoniyat uchun namunaligi nihoyatda samimiy, go'zal tashbeh va istioralar yordamida madh etiladi. Devondagi ushbu g'azallar Navoiy ijodining ma'naviy ildizlarini ko'rsatib, shoirning tasavvufiy qarashlari, dunyo va inson haqidagi mushohadalarini yanada ravshanlashtiradi. Hamd va na'tlar orqali u o'z davri adabiy an'analari davom ettirgan holda, turkiy tilda bitilgan diniy-ma'rifiy she'riyatning eng yetuk namunasi yaratishga erishadi. Shuning uchun ham *Badoyi' ul-bidoya*dagi bu g'azallar bugungi kunda ham o'zining badiiy, falsafiy va ruhiy qiymatini yo'qotmay, o'quvchini yuksak axloq, poklik va ma'naviy komillikka chorlab turadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Имомназаров М. Олти девон муқоясаси (Техрон нусхаси асосида). – Техрон: Golden Scripts, 2021.768-б.
2. Алихон Тўра Соғуний. Тарихи Муҳаммадий. Биринчи боб. – Тошкент, 1991.689-б.
3. Муллахўжаева К. Алишер Навоий ғазалётида тасаввуфий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги. – Тошкент, 2021.96-б.
4. Муллахўжаева К. Қомусий луғат. – Тошкент.: Шарқ, 2016.432-б.
5. Шарипова Н.Алишер Навоийнинг “Ҳамд” ғазалларининг адабий-тарихий контексти. – Тошкент: Фан, 2018.76-б.
6. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
7. [www.genhisphilol.ru](http://www.genhisphilol.ru)
8. [www.library.ziyonet.uz](http://www.library.ziyonet.uz)
9. [www.lingvo-online.ru](http://www.lingvo-online.ru)
10. [www.tilde.com](http://www.tilde.com)

**Maftuna OMONBOYEVA,**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
 Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti 2-bosqich talabasi*

## **AZIM SUYUNNING “QAYIRMA”LARI POETIKASI XUSUSIDA**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada shoir Azim Suyun adabiyotimizga olib kirgan qayirma she'riy ifoda vositasi va uning janriy xususiyatlari o'rganilgan. Shuningdek, bir nechta she'riy va nasriy qayirmalarining poetik xususiyatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** *qayirma, to'rtlik, janr, didaktik ruh, shakl qisqarishi.*

**Annotation:** in this article the poet Azim Suyun brought to our literature the means of poetic expression and prose rhymes are analyzed.

**Key words:** *chanting, fourness, didactic spirit, reduction of form.*

**Аннотация:** в данной статье поэт Азим Суюн привнес в нашу литературу средства поэтической выразительности и её жанровые особенности некоторых стихотворных и прозаических рифм.

**Ключевые слова:** *хор, квадрат, жанр, дидактических дух, редукция формы.*

**Kirish.** Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, ko'pgina sohalarida rivojlanish, yangilanishlar bo'lgani kabi adabiyotimizda ham bir qancha yangi janrlar yaratila boshlandi. Bu uslubiy-shakliy izlanishlar natijasida butunjahon she'riyatida bo'layotgan hajmning kichrayish jarayoniga hissa qo'shilmoqda. Shunday uslubiy-shakliy izlanishlar natijasi sifatida taniqli shoir Azim Suyun ijodida paydo bo'lgan “qayirma” she'riy ifoda vositasini keltirishimiz mumkin. “Qayirma”ni o'zbek adabiyotida Abdulla Oripov yuksak baholadi va janr sifatida e'tirof etish lozim ekanligini aytdi.<sup>1</sup> Undan tashqari IIV Buxoro akademik litseyi o'qituvchisi Tosheva D o'zining “Azim Suyun “qayirma”larining janriy xususiyatlari” nomli maqolasida o'rgangan. Quvonch Qurvonboy o'g'li Mamiraliyev esa “O'zbek she'riyatida shakliy izlanishlar va individuallik” nomli maqolasida o'zbek she'riyatiga yangi kirib kelayotgan janrlar qatoriga “qayirma”ni ham kiritgan. Taniqli adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshev “qayirma” so'zining o'zini izohlaydi. Shuningdek, bu she'riy ifoda vositasiga Dilmurod Qur'onov “Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari” darsligida Q.Yo'ldoshevning fikri asosida to'xtalib o'tgan.

**Asosiy qism.** “Qayirma” so'zi “O'zbek tilining izohli lug'ati”da “qayiriladigan, bukiladigan, buklama”<sup>2</sup> kabi ma'nolarda kelgan. Adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshev bu so'zga nisbatan: “Qayirma”so'zi tilimizda obdan yetilgan, tobiga kelgan narsa, ish, harakat, amal ma'nolarini anglatadi. Jumladan, qayirma patirni o'zbek qishloqlarida tajribali kayvonilargina yopa oladi.

Bu barchaning ham qo'lidan kelavermaydi,” – degan fikrlarni bildirgan. Abdulla Oripov qayirmaning alohida janr sifatida adabiyotga kirib kelishi, bu janrni davom ettiruvchilar ham chiqishiga shubha qilmasligini aytib o'tgan.

Shoir Azim Suyun o'zining 2018-yilda “Akademnashr” tomonidan nashrdan chiqqan “Ey, do'st yoxud Azimnoma” kitobini qayirma janrida yozdi. Kitob “She'riy qayirmalar” va “Nasriy qayirmalar” qismlaridan iborat. She'riy qayirmalar 4 misradan iborat bo'lib, har bir to'rtlik “Ey, do'st” undalmasi bilan boshlanadi. Aynan shu jihati o'zbek adabiyotidagi ruboiy, qit'a, tuyuq kabi janrlardan o'ziga xos xususiyati sifatida ko'rinadi.

*Ey, do'st!*

*“Otam qarib qoldi, tan-joni malol...” –*

*Bir farzand qoshimda turibdi behol.*

*Men dedim : “Tez borgil, tan qarisa-da,*

*Aqli qarimaydi, suhbatini ol!” [3:46]*

Shakl jihatidan ixcham bo'lgan bunday qayirmalar, mazmun jihatidan didaktik ruhda yozilgan. Ushbu misralar orqali shoir, avvalo, yoshi ulug' insonlarning hurmatini joyiga qo'yish, hayotlik chog'larida ularning hayot tajribalaridan bahramand bo'lib qolish kerakligini uqtiradi.

“Ey, do'st!” undalmasi ham har qaysi qayirmada o'zgacha mazmunni ifodalagan. Shu sababli u faqat do'stga emas, she'r mazmuniga qarab o'zgarib boraveradi. Yuqoridagi qayirmada ota o'z farzandiga nisbatan nasihat qilgan bo'lsa, quyidagisida umumlashma tarzida hammaga qaratilgan.

*Ey, do'st!*

*Bir to'g'ri o'q bo'lsang, yoyda erursan,*

*Munosib kuy bo'lsang nayda erursan.*

<sup>1</sup> Суюн А. Эй дўст ёхуд Азимнома.— Тошкент:Академнашр, 2018, 4-б.

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008, 212-б.

*Qoya qatorida sen ham bir qoya,  
Mayda tosh ichida mayda erursan. [3:46]*

Bu qayirmada hayotda qanday yashash kerakligi aytilgan. Insonning qadr-qimmatini, uning ichki sifatlariga bog'liqligi ramziy obrazlar orqali ifodalanadi. To'g'ri o'q yoyda qadrlangani kabi halol va to'g'ri inson ham el orasida obro' topadi. Shu bilan birga insonga atrofida qadrlangan ham katta ta'sir ko'rsatadi. Qanchalik yetuk muhitda tarbiya topsa, yuksaklikka erishishi ham oson bo'ladi. "U qayirmalarning torgina maydonida erkin harakat qilib, sezimlarning rang-barang holatini jilolantira biladi,"<sup>3</sup>—degan edi professor Qozoqboy Yo'ldoshev. Darhaqiqat, Azim Suyun qayirmalarida faqatgina didaktik mavzu emas ishq-muhabbat mavzusi ham jilolanadi:

*Ey, do'st!  
Tabib ko'p erur, dorilar bisyor  
Men ishqdan bemorman, malham na darkor?  
Yolg'on kulib, yolg'on yig'lab netaman?  
Kifoya yonimga kirib kelsa yor. [3:3]*

Ushbu qayirmada inson qalbini iztirobga soluvchi ishqiy dard va uning davosi haqida so'z borgan. Shoir nazdida, shoirlar ham, tabiblar ham ishq dardiga malham topa olmaydi. Bu dardning yagona davosi — yorning jamoli.

Shoirning she'riy qayirmalari to'rtlik shaklida yozilgan bo'lib, 1077 tani tashkil etadi. Nasriy qayirmalari ham xalqona ruhda, xalq og'zaki ijodiga yaqin tarzda yozilganligi bilan diqqatga sazovordir. Bunda birinchi va ikkinchi derazalar didaktik ruhda, hikmat mazmunida yozilgan bo'lsa, uchinchi derazadan boshlab shoir har xil mavzularga nisbatan o'z hayotiy tajribalariga asoslanib fikr bildirgan. Nasriy qayirmalarga 7 ta deraza nomi berilgan bo'lib, ular pog'onama pog'ona hajman kengayib boradi.

*Zamin abadiy emas, zaminmonand makonlar  
abadiy, inson abadiy emas, insoniyat abadiy. [3:280]*

O'qiganda butun hayot ko'z o'ngimizga keladigan ushbu satrlarda hech qachon inkor etib bo'lmaydigan insonning dunyoga kelishi va undan ketishi

3 Суюн А.Эй дўст ёҳуд Азимнома.— Тошкент: Академнашр, 2018 — 438-б.

tasvirlangan. Vaqt o'tgani sayin faqatgina insonlar kelib-ketaveradi, ammo ular yashagan makonlar va insoniyat abadiy qolishi aytilgan. Insonlar yoshi ulg'aygan sari hayot tajribalari oshib boraveradi. Shoir va yozuvchilar esa o'sha hayot tajribalarini iloji boricha kelasi avlodga qoldirishga harakat qilishadi.

*Insonning umri o'tgan sayin o'tmishi totli, aziz tuyulaveradi, chunki unda go'zal bolaligi, kuch-quvvatga to'lgan yoshligi qolgan. [3:296]*

Darhaqiqat, har birimiz uchun o'tmish hayotimiz go'zaldek tuyuladi, ayniqsa, bolaligimiz. Yosh ulg'aygan sari muammolar kattalashib, bolalikni sog'inish tuyg'usi kuchayib boradi.

Xalq dardini o'zining dardi deb bilmaydigan, ularning xoh ijtimoiy xoh siyosiy hayotini qalamga olmagan shoir yoki yozuvchi bo'lmasa kerak. Azim Suyun ham qayirmalarning mazmun ko'lamiga siyosiy mavzuni qo'shgan.

*Daholar — har bir zamonning, xalqning valine'mat zotlari, ammo o'sha davr hokimiyati uchun yoqimsiz hatto ortiqcha kishilar bo'lishi mumkin. [3:282]*

Bilamizki, har bir zamonda xalq manfaati uchun kurashgan hatto jon bergan zotlar bo'lgan. Ular bu yo'lda ko'pincha hukumatga qarshi chiqishgani sababli hukumat vakillari uchun "isyonkor" insonlar bo'lishgan. Zero, boshqa bir qayirmada aytilgandek, hukumatning omi—mute bo'lgani yaxshi. Qashqir uchun ham osongina tutqich beradigan qo'ylar kerak<sup>4</sup>.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, qayirma janrini faqatgina bir ijodkor asarlariga asoslanib, mustaqil janr sifatida e'tirof eta olmaymiz. Ammo kelgusida bu janrni rivojlantirib, davom ettirishga bel bog'laydiganlar chiqsa, uni o'zbek adabiyotida yangi janr sifatida e'tirof etsak bo'ladi. Zero, Dilmurod Qur'onov aytganidek: "Janrning qayd etilishiga befarq qaramaslik lozim, chunki har bir konkret holatda u ham muayyan badiiy-estetik yoki badiiy-kommunikativ funktsiya bajaradi."<sup>5</sup>

4 Суюн А.Эй дўст ёҳуд Азимнома.— Тошкент: Академнашр, 2018 — 282-б.

5 Qur'onov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari.—Toshkent. Noshir,2019—B147.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamiraliyev — Q.O'zbek adabiyotida shakliy izlanishlar va individuallik. International scientific methodological journal Foreign Languages in Uzbekistan. 2022, 5-son.
2. Qur'onov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. — Toshkent: Noshir, 2019. 147-b.
3. Суюн А. Эй дўст ёҳуд Азимнома. — Тошкент: Академнашр, 2018. 438-б
4. Тошева Д. Азим Суюн "Қайирма"ларининг жанрий хусусиятлари. Экономика и социум. N7(110),2023
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. 212-б

Iroda XOLMURODOVA,  
O'zbekiston Milliy universiteti  
Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi  
2-kurs magistranti

## RUTEZ MODEL ASOSIDA O'ZBEK TILIDAGI SHAXS OTLARI VA TEZAVURUSINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada tezaurus lug'ati bo'yicha amalga oshirilgan izlanishlar tahlilga tortilib, RuTez tezaurusi misolida leksikografik masalalar nazariy jihatdan o'rganilgan. RuTez modeli asosida o'zbek tilidagi shaxs otlari tezaurusining struktur qurilishi va uning lingvistik tavsifi, shaxs otlari birliklarining tezauruslarda qanday ifodalanishi misollar orqali ochib berilgan. Tezaurusning tilshunoslikdagi ahamiyati va amaliy qo'llanishi haqida to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari tezauruslarning giponim, giperonim, qism-bo'lak, asimmetrik va nosimmetrik assotsiatsiya munosabatlari namunalar orqali ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** *tezaurus, giponim, giperonim, RuTez, WordNet tezaurusi, qism-bo'lak, asimmetrik, nosimmetrik assotsiatsiya, shaxs oti, kasb oti.*

**Annotation:** this article analyzes research conducted on the thesaurus dictionary, and lexicographic issues are theoretically examined using the RuTez thesaurus as an example. Based on the RuTez model, the structural organization of the thesaurus of personal names in the Uzbek language and its linguistic description are presented, and examples show how units of personal names are represented in thesauri. The significance of the thesaurus in linguistics and its practical application are also discussed. In addition, examples illustrate hyponym, hyperonym, part-whole, asymmetric and non-symmetric associative relations in thesauri.

**Key words:** *thesaurus, hyponym, hyperonym, RuTez, WordNet thesaurus, part-whole, asymmetric, non-symmetric association, personal noun, occupational noun,*

**Аннотация:** в данной статье анализируются исследования, проведенные по тезаурусному словарю, и на примере тезауруса RuTez теоретически изучены лексикографические задачи. На основе модели RuTez раскрыта структурная организация тезауруса личных имён в узбекском языке и его лингвистическая характеристика, а также посредством примеров показано, как единицы личных имён представлены в тезаурусах. Отмечено значение тезауруса в лингвистике и его практическое применение. Кроме того, посредством примеров раскрыты отношения гипонимии, гиперонимии, часть-целое, асимметричные и несимметричные ассоциативные связи в тезаурусах.

**Ключевые слова:** *тезаурус, гипоним, гипероним, RuTez, тезаурус WordNet, часть-целое, асимметричный, несимметричный ассоциативный, имя существительное (личное имя), имя существительное (профессия)*

**Kirish.** Zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti natijasida tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing — NLP) yo'nalishi sun'iy intellektning eng muhim va faol rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Kompyuter tizimlarining inson tilini tushunishi, tahlil qilishi va mazmunli javob qaytarishi uchun til birliklari o'rtasidagi semantik aloqalarni aniq belgilab beruvchi kuchli leksik resurslarga ehtiyoj ortib bormoqda. Bunday resurslardan biri — tezaurus bo'lib, u so'zlar o'rtasidagi sinonimiya, antonimiya, giperonimiya kabi semantik bog'lanishlarni tizimli tarzda ifodalaydi. Rus tilida ishlab chiqilgan RuTez modeli ushbu ehtiyojni qondirishda muvaffaqiyatli yechimlardan biri sifatida e'tirof etilgan. Model asosida yaratilgan semantik tarmoq tilshunoslik, tarjima tizimlari, matnlarni klasterlash, avtomatik izohlash va boshqa NLP vazifalarida samarali qo'llanilmoqda. Ammo o'zbek tilida shunday zamonaviy semantik resurslarning yetarli emasligi tilni chuqur tahlil qiluvchi sun'iy intellekt tizimlarining ishlab chiqilishini cheklab qo'ymoqda. Aynan shu sababli, RuTez modelini

o'zbek tiliga moslashtirish va uning asosida o'zbekcha tezaurus tuzish dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Tezauruslar so'zlar o'rtasidagi semantik munosabatlarni tizimlashtirgan holda, sun'iy intellekt tizimlariga til birliklarini chuqur tushunish imkonini yaratadi. Jumladan, shaxs otlari — tilning muhim leksik-sintaktik qatlamlaridan biri sifatida, semantik tahlil, avtomatik tarjima, matnni indeksatsiya qilish, ma'lumotlarni ekstraktsiya qilish kabi ko'plab vazifalarda alohida ahamiyatga ega. O'zbek tilida hozirgi kungacha shaxs otlariga yo'naltirilgan, semantik jihatdan chuqur strukturaga ega bo'lgan maxsus tezaurus mavjud emas bu esa o'zbek tilida ishlab chiqilayotgan NLP tizimlarining semantik darajadagi aniqligi va ishonchlilikini pasaytiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mavjud semantik modellarni o'zbek tiliga moslashtirish orqali shaxs otlariga oid tezaurus tuzish dolzarb va istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida XX asr oxiri va XXI asrning boshlarida kompyuter lingvistikasi, matnlarni kompyuter leksikografiyasi bilan bog'liq holda tahlil etish

borasida A.Po'latov, S.Muhammedov, N.Ayimbetov, S.Muhammedova, S.Karimov, G.Jumanazarova, A.Babanarov, D.O'rinboyeva, A.Norov va boshqalar tomonidan turli tadqiqotlar amalga oshirilgan.

So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida ham kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi hamda kompyuter leksikografiyasiga oid ishlar amalga oshirildi, xususan, N.Abduraxmonova, Sh.Xamroyeva, Sh.Gulyamova, A.Eshmo'minov, M.Abjalova, G.Toirova va boshqalarning tadqiqotlarida o'zbek tilida yangi avlod lug'atlarini yaratishning lingvistik xususiyatlari monografik ko'lamda o'rganilgan. Olima N.Abdurahmonova boshchiligidagi ilmiy maktab o'zbek tilining kompyuter lingvistikasi sohasida shakllangan yetakchi ilmiy markazdir. Maktabning asosiy yo'nalishi tabiiy tilni qayta ishlash, O'zbek tilidagi elektron korpuslar va morfo-sintaktik analizatorlarni yaratishdir. Ularning tadqiqotlari tilshunoslik nazariyasi va zamonaviy dasturiy ta'minotni uyg'unlashtirishga qaratilgan. Shu maktab doirasida bir nechta darsliklar, ilmiy maqolalar va loyihalar ishlab chiqilgan. Talabalar va izdoshlari orqali maktab o'zbek tilini raqamli muhitga moslashtirishga hissa qo'shmoqda. Bu ilmiy maktab mamlakatda kompyuter lingvistikasi sohasida yetakchi markaz sifatida e'tirof etiladi. Kompyuter lingvistikasi yo'nalishida tezaurus lug'atlar nafaqat filologlar, balki axborot texnologiyalari sohasi xodimlari uchun ham zarur manba hisoblanadi.

Kompyuter leksikografiyasi va elektron leksikografiyaga oid tadqiqotlar so'nggi o'n yilliklarda katta rivojlanish yo'lidan o'tdi. A.Rubleva (2008) asarida axborot modellari va ularning kompyuter leksikografiyasidagi o'zni batafsil yoritilgan bo'lib, u sohada nazariy va amaliy jihatlarni muvofiqlashtirishga asos bo'ladi. Zamonaviy kompyuter leksikografiyasining asosiy yondashuvlari, jumladan, leksikografik ma'lumotlarning bazasi va ularni qayta ishlash usullari haqida M.Alexeeva (2009) va A.Lebedev (2013) asarlarida batafsil ma'lumot berilgan. V.Dubichinskiy (2007) esa elektron lug'atlar va leksikal ma'lumotlar bazalarini yaratish jarayonidagi muammolar va ularning yechimlariga to'xtaladi. Rus tili leksikografiyasi sohasida O.Yefremova (2000) va S.Ojegov hamda N.Shvedova (1990) tomonidan yaratilgan lug'atlar an'anaviy lug'at tuzish amaliyotining yuqori darajasini ifodalaydi va so'z ma'nolarining chuqur tahliliga asoslangan. Shuningdek, I.Dobrov va N.Lukashevich (2002, 2010, 2011) tomonidan ishlab chiqilgan RuTez tezaurus va lingvistik ontologiya modellari axborot qidirishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Xalqaro tajribada esa, N.Abdurahmonova (2021) S.Matlatipov va M.Aripov, (2018) kabi olimlar turli tillar uchun leksikografik va semantik resurslarni yaratish yo'llarini o'rganib, sohani global darajada rivojlantirishga hissa qo'shmoqda. N.Abdurahmonova va G.Abduvahobov (2021) o'quv lug'atlarini tuzishning nazariy-metodologik asoslari, so'z tanlash mezonlari va didaktik yondashuvlar yoritilgan. N.Abdurahmonova va

E.Adali, N.Shamieva (2025) ingliz-o'zbek ikki tilli tezaurus uchun sifat sinsetlari orasidagi semantik munosabatlar (sinonimiya, antonimiya va boshqalar) tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda o'zbek tilidagi shaxs otlarini sun'iy intellekt asosidagi RuTez modeli doirasida semantik tarmoqqa joylashtirish va ularning tezaurusini shakllantirish asosiy maqsad qilib olingan. Shu boisdan, tadqiqotda tahlil va sintetik ilmiy metodlar kompleks ravishda qo'llanildi, tadqiqotda nazariy va amaliy jihatlarni uyg'unlashtiruvchi metodlar tanlandi. Har bir metod tezaurus tarkibini to'g'ri shakllantirish, uning tizimli va semantik asoslangan bo'lishini ta'minlashga xizmat qildi. Ushbu metodologik yondashuv orqali RuTez modelida o'zbek tiliga mos, sun'iy intellektga integratsiyalash mumkin bo'lgan shaxs otlari tezaurusi yaratildi.

Tahlil va natijalar. Rus tilshunosligida tezauruslarning paydo bo'lishi XX asrning ikkinchi yarmida rivojlanishni boshlagan edi. G'oyaviy asos sifatida G'arbdagi konseptual yondashuvlar, xususan, Roget tezaurusi (1852) va keyinchalik WordNet modeli (1980-yillar) xizmat qilgan. Ilk tezauruslar Sovet davrida yaratilgan va ushbu tezauruslar ko'proq kutubxona ishida qo'llaniladigan axborot-izlash tezauruslari (Тезаурысы по информатике (Moskva, 1970-yillar), kutubxona va informatsion tizimlar uchun tezauruslar) edi. Ular inson tomonidan matnni belgilashda qo'llanilgan va quyidagi xususiyatlarga ega edi:

- deskriptorlarning nazorati;
- sinonimlar va qisman antonimlar ro'yxati;
- mavzulararo bog'liqliklar (yuqori/ pastki darajadagi tushunchalar) [2].

RuNet rivojlanishi bilan bog'liq zamonaviy bosqich 1990-yillarning oxiri va 2000-yillar boshlarida boshlandi, rus tilida avtomatlashtirilgan til texnologiyalarining rivoji bilan bog'liq yangi turdagi tezauruslar paydo bo'ldi. Bular:

- semantik tarmoqlar (WordNet rus variantlari);
- ontologik modellar (konseptual bog'liqliklar bilan);
- matnni avtomatik qayta ishlashga mo'ljallangan tezauruslar

Rus tilshunosligida kompyuter leksikografiyasi va elektron lug'atchilikka doir izlanishlar O.Rubleva [2], I.Shaker [3], N.Alekseyeva [4], S.Lebedev [5], V.Dubichinskiy [6], M.Tulnova [7] va boshqa bir qator olimlar ishlarida o'z ifodasini topgan. Rus tilshunosligida T.Yefremov [8] tomonidan rus tilidagi yangi so'zlarning tezaurusi yaratilgan bo'lib, u yangi paydo bo'lgan leksik birliklarning semantik tasnifi va ularning lug'aviy tizimga integratsiyasiga e'tibor qaratgan. Shuningdek, S.Ojegov va N.Shevedova [9] tomonidan yaratilgan izohli lug'at-tezaurus rus tilining sinonimik va giperonimik munosabatlariga asoslangan holda strukturaviy jihatdan boyitilgan. 2000- yilning boshida esa RuTez tezaurusi E.Lukashevich, B.Dobrov boshchilik qilgan tadqiqot guruhi tomonidan yaratildi. Bu tezaurusning asosiy

xususiyati avtomatik matn indeksatsiyasi, so'rovlarni semantik kengaytirish, tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy va taksonomik aloqalarni o'rnatish bo'lgan. Uning tarkibida 50 mingdan ortiq tushuncha, 100 mingga yaqin so'z va birikmalardan tarkib topgan, ijtimoiy-siyosiy va umumiy leksikadan iborat bo'lgan. RuTez tezaurusini matnlarni avtomatik qayta ishlash resursi sifatida ishlab chiqishda turli an'analar va metodologiyalardan foydalanilgan [10]:

- An'anaviy axborot-izlash tezauruslarini yaratish metodologiyasi;
- WordNet tipidagi lingvistik resurslarni yaratish metodologiyasi;
- Formal ontologiyalarni yaratish metodologiyasi asos qilib olindi.

RuTez tezaurusining o'ziga xosligi shundaki, u ikki tarkibiy qismga ajratilgan:

Umumiy leksikon va ijtimoiy-siyosiy tezaurus, u tematik leksika va jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan terminologiyani o'z ichiga oladi. Odatda alohida-alohida ko'riladigan til birliklarini bitta resursda birlashtirish leksika va terminologiya o'rtasidagi chegaraning keng oraliq zona shaklida bo'lishi bilan bog'liq. Bu zona o'z ichiga ma'lum bir predmet sohasi tushunchalariga mos keladigan leksik birliklarni hamda til egalariga tushunarli bo'lgan terminlarni oladi. Bu zona jamiyat uchun umumiy ahamiyatga ega bo'lgan tushunchalarni o'z ichiga oladi, shuning uchun biz uni ijtimoiy-siyosiy soha deb ataymiz. Ijtimoiy-siyosiy soha uchun ishlab chiqilgan leksik-terminologik resurslar turli xil matn turlarini avtomatik qayta ishlash ilovalari uchun foydalidir. Ijtimoiy-siyosiy sohaga oid bilimlar aniq predmet sohaslarida lingvistik resurslar yaratishda ham, tilning mavhum leksikasini tasvirlash asosida ham juda muhimdir.

Ijtimoiy-siyosiy tezaurus keng predmet sohasi doirasidagi axborot-izlash tezaurusi misoli sifatida qaralishi mumkin bo'lib, u aynan axborot-izlash ilovalarida matnlarni avtomatik qayta ishlash resursi sifatida yaratilgan va shu bois bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega [11]. Tezauruslar endi faqat sinonimlar emas, balki tushunchalar o'rtasidagi ontologik munosabatlarni ham aks ettiradi (masalan, sabablilik, natija, vosita, sabab-natija).

RuTez tezaurusi bu tushunchalarning ierarxik tarmog'idir hamda har bir tushuncha o'z nomiga ega bo'ladi. Matn bilan moslashtirish uchun har bir tushuncha tegishli bo'lgan bir qator matndagi ifodalar bilan (ya'ni "matnli kirishlar", "terminlar" bilan) ta'minlanadi, ularning ma'nosi mazkur tushunchaga mos keladi. Bunday matnli kirishlar sifatida bir so'zli otlar, sifatlar, fe'llar, otli va fe'lli so'z birikmalari bo'lish mumkin. Tushunchalarning bunday matnli kirishlari soni juda ko'p bo'ladi, masalan, 20 dan ortiq birlikni tashkil qilishi mumkin. Yangi tushuncha kiritilganda, unga tegishli bo'lishi mumkin bo'lgan barcha matnli kirishlarni imkon qadar batafsil ro'yxatga olishga alohida e'tibor qaratiladi. Har bir

tushuncha RuTez tezaurusining boshqa tushunchalari bilan aloqador bo'lgan munosabatlar orqali bog'lanadi. Tezaurusdagi munosabatlar to'plami aynan axborotni qidirish ilovalarida samarali ishlash uchun maxsus tanlangan. RuTez tezaurusining (boshqa tezauruslarda ham bo'lgani kabi) o'ziga xos xususiyati shundaki, tushunchalar ichki atributiv tuzilmasiga ya'ni freym elementlariga ega emas tushunchalarning xususiyatlari faqat boshqa tushunchalar bilan o'zaro munosabatlar orqali tavsiflanadi. Avval ta'kidlanganidek, RuTez tezaurusidagi tushunchalarning mutlaq ko'pchiligi mavjud til birliklarining ma'nolariga asoslanadi. WordNet tipidagi resurslardan farqli ravishda, bunday til birliklari faqat umumiy ishlatiladigan leksika va leksikallashgan ifodalar bilan cheklanmaydi, balki jamiyatning zamonaviy hayotida keng qo'llaniladigan sohalaridagi atamalarni ya'ni biz ijtimoiy-siyosiy soha deb ataydigan keng mavzuli terminologiyani ham o'z ichiga oladi [12]. RuTez tezaurusida ko'p mavzuli so'zlarning ma'nolarini tushunchalar to'plami sifatida tasvirlashda quyidagi prinsiplardan foydalaniladi:

➤ Ma'no farqlanishi: Agar ma'no boshqa ma'nolardan kontekstga bog'liq bo'lmagan holda farq qilsa, u alohida tushuncha sifatida aks ettirilishi kerak.

➤ Farqlarni ifodalash: Bu farqlar, avvalo, maxsus sinonimlar yoki tezaurusdagi boshqa tushunchalar bilan munosabatlar orqali ifodalanadi.

➤ Ko'p ma'noli sinonimlar: Ko'pincha, ko'p so'zli sinonimlar alohida ma'noni yaxshi ifodalaydi. Turli sinonimlarning mavjudligi, ma'nolarni ajratish zarurligini ko'rsatadi, bu esa an'anaviy izohli lug'atlarni tuzishda muhim omil hisoblanadi.

➤ Ma'nolarni ajratish: Agar ma'no uchun uni ajratib turuvchi sinonimlar va munosabatlar topilsa, biz bunday ma'noni alohida tushuncha sifatida ajratishni afzal ko'ramiz, hatto agar shu so'zning nisbatan yaqin ma'nosi bo'lsa ham. Farqli sinonimlar va munosabatlarni bitta tushunchada birlashtirish ko'p mavzuli so'zlarni ajratish maqsadida amalga oshirilsa, matnni keyingi ishlov berish bosqichlarida muammolarga olib kelishi mumkin.

➤ Ontologik munosabatlar: Ma'nolar o'rtasida yaqinlik bo'lsa, ularni bog'laydigan ontologik munosabatlar o'rnatilishi kerak, bu esa murakkab holatlarda ma'no tanlashni yengillashtiradi.

RuTez tezaurusida ma'nolarni ajratish prinsiplari, so'zlarning ko'p mavzuli ma'nolarini aniq va mantiqiy tarzda tasvirlashga yordam beradi, bu esa tabiiy tilni qayta ishlash va axborot qidirish tizimlarida samarali ishlashni ta'minlaydi [12].

2016-yilda RuTez tezaurusining yangi versiyasi tuzildi va uning hozirgi hajmi 158 000 ta so'z va iboradan iborat bo'lib, ular 55 000 ta tushunchalar tarmog'ida tashkil etilgan va ular o'rtasida 210 000 dan ortiq qo'lda aniqlangan munosabatlar mavjud. Tezaurusning o'ziga xos xususiyati shundaki, u ko'p yillar davomida

real loyihalarda sinovdan o'tgan. RuTez asosida nashr etilgan RuTez-lite tezaurusida esa 115 000 ta so'z va iboralar mavjud. RuTez-lite Dmitriy Zimin Dynasty fondi va Yandex asoschilarining moliyaviy ko'magida nashr etilgan. RuTez tezaurusida to'rtta asosiy aloqa turi mavjud[13]:

1. Munosabatlarning birinchi turi, giponim va giperonim (yuqori-quyi) jinsga xos munosabat bo'lib, o'tish va merosxo'rlik xususiyatlariga ega.

2. Munosabatlarning ikkinchi turi qism-butun munosabatdir. U nafaqat jismoniy qismlarni, balki kontseptsianing boshqa ichki ob'ektlarini, masalan, vaziyatlardagi xususiyatlar yoki rollarni tasvirlash uchun ishlatiladi. Bu munosabatlarni o'rnatishning muhim sharti shundaki, qism tushunchalari ularning butunligi bilan qattiq bog'langan bo'lishi kerak ya'ni qism tushunchasining har bir misoli butun borlig'i davomida butun tushunchaning bir qismi bo'lishi va boshqa hech narsa bilan bog'liq bo'lmasligi kerak. Bunday sharoitda, shu tarzda kiritilgan qism-butun munosabatlarning tranzitivligiga erishiladi, bu matnni qayta ishlashda avtomatik xulosa chiqarish uchun juda muhimdir.

3. Asimmetrik assotsiatsiya (asc1) deb ataladigan boshqa turdagi munosabatlar yuqorida ko'rib chiqilgan munosabatlar bilan bog'lanishi mumkin bo'lmagan, ammo birisiz ikkinchisi mavjud bo'lmagan ikkita tushunchani bog'laydi. Masalan, Farmasevt tushunchasi dori tushunchasining mavjudligini talab qiladi. Ontologik tadqiqotlarda bunday munosabat ontologik qaramlik munosabati deb ataladi.

4. O'zaro munosabatlarning oxirgi turi (asc2) nosimmetrik assotsiatsiyasi, masalan, ma'no jihatidan juda yaqin bo'lgan, ammo ishlab chiquvchilar yagona tushunchaga (presinonimiya) birlashtirishga jur'at eta olmagan tushunchalarni bog'laydi.

Quyida yuqoridagi munosabatlarga asoslanib tuzilgan o'zbek tilidagi shaxs otlarining tezaurusiga misollarni ko'rishimiz mumkin.

Shifokor soʻzida giperonim: Tibbiyot xodimi (shifokor) tibbiyot xodimi atamasi tibbiyot sohasidagi har-xil yoʻnalishda ishlaydigan xodimlarni oʻz ichiga oladi.

Giponim

Akusher - doya

Anatomiya mutaxassisi - anatomiya mutaxassisi

Anesteziolog - og'riqsizlantirish shifokori

Gastroenterolog - oshqozon-ichak kasalliklari shifokori

Ginekolog - ayollar kasalliklari shifokori

Vrach - Bosh shifokor

Xirurg - Jarroh

Dermatolog - teri kasalliklari shifokori

Diagnost - kasalliklarni aniglovchi shifokor

Dietolog - ovqatlanish mutaxassisi

Immunolog - immunitet shifokori

Kardiolog - yurak kasalliklari shifokori

Kosmetolog - kosmetologiya mutaxassisi

Narkolog – narkologiya mutaxassisi

Nevrolog - asab kasalliklari shifokori

Pediatr - bolalar shifokori

## Psixiatriya shifokori - ruhiy kasalliklar shifokori

Psixolog – ruhshunos ushbu tibbiy ixtisosliklar shifokor terminining sohalari ya'ni qiponimlari sanaladi.

Qism-butun(butun)

Davolash ushbu soʻz davolashga dahldor boʻlgan barcha atamalarni oʻz ichiga oladi (shifokor, hamshira, shifoxona...) shuning uchun ham bu atama shifokor soʻzining negizi hisoblanadi.


ASC2

Konsilium (Shifokorlar yig'ilishi)

Tibbiy komissiya

### Shifokor retsepti

Evtanaziya - hayotni sun'iy tarzda to'xtatish. Ushbu munosabat ko'zlangan soha yoki kasbga doir bo'lgan juda yag'in terminlarni qamrab oladi.



Yuqorida o'zbek tili uchun yaratilgan Paratranslatordagi tezaurusimizda esa shifokor va unga semantik yaqin bo'lgan so'zlar o'rtasidagi yaqinlik masofasi o'lchandi.

**Xulosa.** Ushbu maqolada RuTez modeli asosida o'zbek tilidagi shaxs otlarining tezaurusini yaratish masalasi ko'rib chiqildi. Avvalo, shaxs otlari va ularning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinib, ularni tizimli tarzda tasniflashning zarurati asoslab berildi. RuTez modeli ya'ni rus tilidagi tezaurus yaratish tajribasiga asoslangan yondashuv o'zbek tiliga moslashtirildi hamda milliy tilimizdagi shaxs otlarini semantik maydonlar asosida guruhlash imkoniyatlari namoyon qilindi. Tadqiqot davomida shaxs otlari qism-butun, giponimik va boshqa

semantik munosabatlar asosida tartiblandi, ularning orasidagi ichki leksik bog'liqliklar aniqlandi. Model asosida yaratilgan tezaurus namunalari, o'zbek tilidagi shaxs otlarini tahliliy va tizimli o'rganish, shuningdek, kompyuter lingvistikasi, avtomatik tarjima, matnni tahlil qilish kabi yo'nalishlarda ham amaliy ahamiyatga ega ekanligi isbotlandi. Xulosa qilib aytganda, RuTez modeli asosida tuzilgan ushbu tezaurus o'zbek tilining leksik-semantik boyligini chuqurroq ochib berishga, shaxs otlarining o'zaro munosabatlarini tizimli yoritishga va ularni raqamli platformalarda qo'llashga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yondashuv asosida boshqa soha leksikalari uchun ham tezauruslar yaratish imkoniyatlari mavjud.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://www.uza.uz>
2. Рублева О.В. Информационные модели и компьютерная лексикография.- Москва: Наука, 2008. - 210 с.
3. Шакер И.В. Электронная лексикография: теория и практика. Санкт-Петербург: Изд-во СПбГУ, 2011.-276 с
4. Алексеева Н.Д. Современные подходы компьютерной лексикографии. Новосибирск. Сибирское университетское изд-во, 2009. -198 с.
5. Лебедев С.Ю. Лексикография и компьютерные технологии: Введение в специальность. Москва: Логос, 2013.-240 с.
6. Дубичинский В.В. Электронные словари и базы лексических данных. Воронеж: ВГУ, 2007. - 185 с.
7. Ульнова М.А. Компьютерная лексикография: основы теории и методологии. Казань: Казанский федеральный университет, 2015.- 228 с.
8. Ефремова Т.Ф. Новый словарь русского языка: Толково-словообразовательный. Москва: Русский язык, 2000-1376
9. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. 4-е изд., исп. Москва: Аз, 1990, -944.
10. Dobrov V.V., Лукашевич Н.В. РуТез: тезаурус русского языка для информационного поиска. – М., 2002.- С
11. Лукашевич Н.В. Лингвистическая онтология и тезаурусная модель представления знаний. – М., 2010.- С 31-32
12. Лукашевич Н. Тезаурусы в задачах информационного поиска. 2011. С.20-50.
13. <http://labinform.ru/pub/ruthes/te/19/001/index.htm>
14. Abdurakhmonova N. Kompyuter lingvistikasi darslik -Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 171-bet.
15. Щерба Л. Опыт теории общей лексикографии . 1940. <https://www.ruthenia.ru/apr/textes/sherba/sherba9.htm>
16. San'atbek M., Mirsaid A., & Nilufar A. (2018). Modeling WordNet type thesaurus for Uzbek language semantic dictionary. International Journal of Systems Engineering, 2(1), 26.
17. Agostini, A., Usmanov, T., Khamdamov, U., Abdurakhmonova, N., & Mamasaidov, M. (2021, January). Uzwordnet: A lexical-semantic database for the uzbek language. In Proceedings of the 11th Global Wordnet conference (pp. 8-19).
18. Abdurakhmonova, N. (2019). Dependency parsing based on Uzbek Corpus. In Proceedings of the International Conference on Language Technologies for All (LT4All).
19. Абдурахмонова, Н., & Абдувахобов, Г. (2021). O'QUV LUG'ATINI TUZISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(6).
20. Abdurakhmonova, N., Adali, E., & Shamieva, N. (2025, September). Semantic Relationships Between Synset Adjectives for English-Uzbek Bilingual Thesaurus. In 2025 10th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK) (pp. 305-310). IEEE.

Dilafro'z ABDUQAHHOROVA,  
Namangan davlat pedagogika instituti  
2-kurs magistranti

## STRUKTUR TILSHUNOSLIKDA FONOLOGIK TUSHUNCHALAR

**Annotatsiya:** ushbu maqolada struktur tilshunoslik nuqtayi nazaridan fonologik tushunchalar tahlil qilinadi. Fonema, fonologik oppozitsiya, fonemalar tizimi va fonotaktik qonuniyatlar o'zbek tilshunoslari fikriga tayangan holda yoritilgan. Maqolada fonemalarning paradigmatic va sintagmatik munosabatlari, allofonlar, distinktiv belgilar va tovush birikish qoidalari batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, o'zbek tilidagi fonologik tizimning struktur integratsiyasi va fonotaktik xususiyatlarning tizimli ahamiyati ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** *fonema, fonologik oppozitsiya, fonemalar tizimi, fonotaktika, struktural yondashuv.*

**Аннотация:** в статье анализируются фонологические понятия с точки зрения структурной лингвистики. Рассматриваются фонема, фонологическая оппозиция, система фонем и фонетико-фонологические законы на основе исследований узбекских лингвистов. Особое внимание уделяется парадигматическим и синтагматическим отношениям фонем, аллофонам, дистинктивным признакам и правилам сочетания звуков. Также показана системная интеграция фонологической системы узбекского языка и значимость фонетико-фонологических закономерностей.

**Ключевые слова:** *фонема, фонологическая оппозиция, система фонем, фонотактика, структурный подход.*

**Annotation:** this article examines phonological concepts from the perspective of structural linguistics. It analyzes phonemes, phonological oppositions, the phoneme system, and phonotactic rules based on the works of Uzbek linguists. The study emphasizes paradigmatic and syntagmatic relations of phonemes, allophones, distinctive features, and sound combination rules. Additionally, it highlights the systemic integration of the Uzbek phonological system and the functional significance of phonotactic patterns.

**Key words:** *phoneme, phonological opposition, phoneme system, phonotactics, structural approach.*

Struktur tilshunoslik tilni o'zaro bog'langan birliklar tizimi sifatida talqin qiladi va fonologiya bu tizimning eng muhim qatlami hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida ham fonologik qarashlar aynan struktural yondashuvdan boshlab shakllangan bo'lib, fonemalar tizimi, ular orasidagi oppozitsiyalar, fonotaktik qonuniyatlar masalalari X. Doniyorov, S. Olimov, M. Asqarova, B. Mengliyev kabi olimlar tomonidan keng yoritilgan. Ushbu maqolada fonema, fonologik oppozitsiya va fonemalar tizimi struktur nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Fonema tilshunoslikda eng kichik ma'noni farqlovchi birlik sifatida qaraladi. U nutq tovushlaridan farqli ravishda, faqat til tizimi ichida ma'no farqlash funksiyasiga ega bo'ladi. O'zbek tilshunoslari ta'kidlaganidek, fonema alohida emas, balki til tizimining elementlaridan biri bo'lib, uning qiymati boshqa fonemalar bilan bo'lgan paradigmatic va sintagmatik munosabatlariga bog'liq [1:23].

Fonema tushunchasini tushunish uchun quyidagi jihatlarni e'tiborga olish muhim:

**1.Ma'noni farqlovchi xususiyat.** Fonema faqat boshqa fonemalar bilan qarama-qarshi qo'yilganda ma'noni farqlaydi. Masalan, o'zbek tilida *p* va *b*

tovushlari fonemik oppozitsiya hosil qiladi: *pat* — *bat* so'zlari bir tovush o'zgarishi tufayli ma'no jihatdan farq qiladi [2:186].

**2.Allofonlar.** Fonemaning nutqda namoyon bo'ladigan variantlari allofonlar deb ataladi. Allofonlar talaffuz sharoitiga qarab farqlanadi, lekin ma'no farqlamaydi. Masalan, o'zbek tilida *k* tovushi orqa qator unli oldidan biroz og'irroq, old qator unli oldidan esa yengilroq talaffuz qilinishi mumkin. Shu bilan birga, *g* va *k* fonemalari paradigmatic oppozitsiya orqali ajraladi [1:24].

**3.Pozitsion xususiyatlar.** Fonemalar nutqda turli pozitsiyalarda turlicha talaffuz qilinishi mumkin, bu ularning fonotaktik xususiyatini tashkil qiladi. Masalan, so'z boshida, o'rtasida yoki oxirida bir fonemaning allofonlari farq qilishi mumkin, lekin ular ma'noni o'zgartirmaydi [3:311].

**4. Fonemaning tizimiy roli.** O'zbek tilshunoslarining fikricha, fonema tizim ichida funksional birlik hisoblanadi. U boshqa fonemalar bilan munosabat orqali ma'no yaratadi va fonologik qoidalarni aniqlashda asos bo'ladi. Shu jihat bilan fonema tilning struktur integratsiyasida markaziy elementdir [4:285].

**5. Fonema va morfema chegarasi.** Fonema morfemadan farqli ravishda faqat tovush birligi sifatida qaraladi, ya'ni ma'no tashuvchi emas, balki ma'noni farqlovchi vosita. Shu sababli, morfema fonemalarning kombinatsiyasi orqali yuzaga keladi va fonema o'z-o'zidan leksik ma'no keltirmaydi [1:25].

**6. O'zbek tilidagi fonemalar tizimi.** O'zbek tilshunoslari [2:188] o'zbek tilida unli va undosh fonemalarni, ularning fonotaktik joylashishini, oppozitsiyalarini va allofonik variantlarini batafsil tahlil qilganlar. Masalan, unli tovushlar tizimi 7 asosiy fonemaga ega bo'lib, ularning kombinatsiyalari so'zning talaffuzi va ma'nosini belgilaydi. Undosh fonemalar esa kuchli-kuchsiz, markaziy-nomarkaziy oppozitsiyalarga bo'linadi. Shu jihatlar fonemani tilning asosiy qurilish bloklaridan biri sifatida ko'rsatadi va fonologik tahlilning markaziy tushunchasi ekanligini tasdiqlaydi.

Fonologik oppozitsiya — bu til tovushlarini bir-biridan ma'noni farqlash orqali ajratuvchi vosita sifatida qarash tushunchasi. O'zbek tilshunoslari ta'kidlaganidek, oppozitsiyalar til tizimining asosiy struktura elementlaridan biri bo'lib, fonemalarning paradigmatic va sintagmatik munosabatlarini aniqlashda muhimdir [3:312].

**Paradigmatik oppozitsiya** — fonemalarning tizim ichida bir-biriga qarama-qarshi turishi. Masalan, o'zbek tilida undoshlar *p* va *b*, *t* va *d* paradigmatic oppozitsiya hosil qiladi, chunki bu tovushlar o'zgarganda so'z ma'nosi ham o'zgaradi:

*pot* — *bot*

*tor* — *dor*

Bu holat fonemalarning tizim ichidagi funksional qiymatini ko'rsatadi [1:25]

**Sintagmatik oppozitsiya** — fonemalar ketma-ketlikdagi joylashuvi bilan bog'liq. Misol uchun, o'zbek tilida undosh *k* ning talaffuzi so'z boshida va so'z oxirida farqlanishi mumkin, ammo allofonlar ma'no farqlash vazifasini bajarmaydi [2:189]

O'zbek tilshunoslari bir nechta asosiy fonologik oppozitsiyalarni ajratadilar:

Kuchsiz-kuchli undoshlar oppozitsiyasi — masalan, *q* va *g* fonemalari. So'zdagi joylashuviga qarab ular kuchli yoki kuchsiz talaffuz qilinadi. Markaziy-nomarkaziy undoshlar oppozitsiyasi — tilning o'ziga xos tovush tizimida markaziy tovushlar va ular bilan bog'liq nomarkaziy tovushlar farqlanadi. Unli fonemalar oppozitsiyasi — o'zbek tilida uzun va qisqa unli tovushlar, ochiq va yopiq unli tovushlar paradigmatic oppozitsiya orqali bir-biridan ajraladi [3:313]. Fonologik oppozitsiyalar har doim ham qat'iy ishlamaydi. Ba'zi pozitsiyalarda, masalan, so'z oxirida

yoki talaffuz sharoitiga qarab, farqlovchi qiymat neytralizatsiyaga uchrashi mumkin. Shu holatda fonemalar ma'noni farqlash vazifasini yo'qotadi [4:287].

Misol: *kitob* so'zida oxirgi *b* tovushi so'zning talaffuzida ozgina yumshashadi, lekin ma'no farqi yuzaga kelmaydi.

O'zbek tilshunoslari ta'kidlaganidek, oppozitsiyalar til tizimini struktur jihatdan mustahkamlaydi va fonemalarning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Fonologik tahlil orqali tilning ichki qonuniyatlari, tovush birikish qoidalari va so'z shakllanishi yanada aniqroq tushuniladi [1:289, 2:188].

Shu jihatlar fonologik oppozitsiyani fonema tizimining asosiy vositasi sifatida ko'rsatadi va tilshunoslikda markaziy mavzu bo'lib xizmat qiladi.

Fonologik struktura tilning fonemalar tizimi va ularning o'zaro munosabatlari orqali shakllanadi. O'zbek tilshunoslari fikricha, fonemalar faqat alohida tovushlar emas, balki til tizimidagi funksional birliklar sifatida qaraladi [1:27]. Shu nuqtayi nazardan, fonologik tahlil fonemalarning paradigmatic va sintagmatik munosabatlarini o'rganadi.

Fonemalararo munosabatlarni tahlil qilish fonotaktik qoidalarni aniqlashga imkon beradi. Fonotaktika — bu qaysi fonemalar birikishi mumkinligi va ularning tartib qoidalarini belgilaydi. O'zbek tilida:

- Undosh + unli kombinatsiyalar odatda so'z boshida: *ka* — *ko*

- Ikki undosh birikishi so'z ichida cheklangan: *st* yoki *tr* kabi kombinatsiyalar faqat maxsus so'zlarda uchraydi

- So'z oxirida yumshoq undoshlar ko'proq uchraydi: *kitob*, *daraxt*

Fonotaktik qoidalar fonemalarning o'zaro bog'liqligini va so'z shakllanishidagi rolini ko'rsatadi, bu esa fonologik tizimni yaxlit va tizimli qiladi [4:288].

O'zbek tilshunoslari ta'kidlaganidek, har bir fonemaning tizimdagi roli distinktiv belgi orqali aniqlanadi. Distinktiv belgi — fonemani boshqa fonemalardan ajratuvchi xususiyat:

Masalan, *k* va *q* tovushlari og'iz pozitsiyasi va talaffuz kuchiga qarab farqlanadi, *i* va *e* unli tovushlari esa ochiqlik jihatidan farqlanadi.

Distinktiv belgi tizimi fonemalarning o'zaro funksional bog'liqligini ko'rsatadi va fonologik tahlilning asosiy vositasi hisoblanadi [1:28].

Fonologik struktura va fonemalararo munosabatlar — tilning ichki tartibi va qonuniyatlarini aniqlashda markaziy tushunchadir. Paradigmatik va sintagmatik munosabatlar, fonotaktik qoidalar va distinktiv belgi tizimi fonemalarning o'zaro bog'liqligini va til

tizimidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Shu jihatlar orqali o'zbek tilshunoslari tilning fonologik tizimini chuqur tahlil qiladilar va tilni o'rganishda aniq ilmiy metodni qo'llash imkonini beradi [1:28, 4:287].

Fonotaktika — bu tilning fonemalari qanday tartibda va qanday birikmalarda paydo bo'lishi mumkinligini belgilovchi qoidalar tizimi hisoblanadi. O'zbek tilshunoslari fonotaktik qoidalarni o'rganish orqali fonemalararo munosabatlar, so'z shakllanishi va talaffuz qonuniyatlarini tahlil qilish mumkinligini ta'kidlaydilar [2:189].

O'zbek tilshunoslari fonotaktik qoidalarni bir nechta asosiy turga ajratadilar. Ularni so'z boshidagi, so'z ichidagi, so'z oxiridagi qoidalar kabi turlarga bo'ladilar.

O'zbek tilida fonemalar faqat alohida fonemalar sifatida emas, balki birikma ichida o'zaro ta'sir qilib talaffuz qilinadi. Shu sababli tovush birikish qonuniyatlari tilning fonotaktik tizimini tashkil etadi:

**Assimilyatsiya.** Bir tovush ikkinchining ta'sirida talaffuzda o'zgaradi. Masalan, *kitobdagi* "d" tovushi "g" ga yaqinlashadi: *kitobga* → [kitobga].

**Metateza.** Tovushlarning ketma-ketlikdagi o'zni o'zgarishi: *o'rgat* → *o'trag*.

**Neutralizatsiya.** Ba'zi pozitsiyalarda fonemalar o'z farqlovchi qiymatini yo'qotadi. Masalan, so'z oxiridagi *d* va *t* tovushlari talaffuzda osonlashtirish uchun yumshashadi yoki qisqaradi.

O'zbek tilshunoslarining fikriga ko'ra, fonotaktik qoidalar:

- So'z shakllanishini tartibga soladi
- Talaffuzni silliq va tushunarli qiladi
- Fonemalararo munosabatlarni mustahkamlaydi

Masalan, *struktura* so'zidagi undosh birikmasi

so'z boshida uchray olmaydi, chunki o'zbek tilining fonotaktik qoidalariga zid bo'ladi [2:189]. Shu tarzda fonotaktika fonologik tizimning ichki integratsiyasini ta'minlaydi.

Fonotaktik qoidalar fonemalarning tizim ichidagi pozitsion va paradigmatic qiymatini belgilaydi. O'zbek tilshunoslari fikricha, fonotaktik tahlil:

- fonemalarning kombinatsiyalari va oppozitsiyalarini aniqlashga,
- so'zlar va morfemalarning talaffuz qoidalarini o'rganishga,
- nutqdagi allofonlarning paydo bo'lish mexanizmini tushunishga yordam beradi [3:313]

Shu jihatlar fonotaktikani fonologik tizimning ajralmas qismi sifatida ko'rsatadi.

O'zbek fonologiyasi tarixan struktural modelga asoslangan bo'lsa-da, keyinchalik generativ va kognitiv yondashuvlar ta'siri ham ko'zga tashlanadi. Biroq asosiy nazariy baza — X. Doniyorov, S. Olimov, M. Asqarova, M. Xadjiev, B. Mengliyev kabi olimlar shakllantirgan klassik struktur talqindir. Ular fonemalar tizimi, oppozitsiyalar, distinktiv belgi, fonotaktik cheklovlar kabi masalalarni tilning ichki tizimi asosida tahlil qilganlar.

O'zbek tilshunosligidagi fonologik qarashlar struktur tilshunoslik ta'sirida shakllangan bo'lib, fonema, fonologik oppozitsiya, fonotaktika kabi tushunchalar aynan struktur modelga asoslanadi. O'zbek olimlari fonemani tizimli birlik, oppozitsiyani farqlovchi belgilarning markazlashgan shakli, fonologik tizimni esa bog'langan elementlar majmuyi sifatida izohlaydilar. Shuning uchun struktur fonologiya o'zbek fonologiyasining asosiy nazariy poydevori bo'lib qolmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.Mengliyev. (2025). *O'zbek tilining fonematik-fonemik sistemasi xaritasini yaratishning nazariy asoslari*. "KOMPYUTER LINGVISTIKASI: MUAMMOLAR, YECHIM, ISTIQBOLLAR". V Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 25(1), 23-29.
2. M.Xadjiev. (2025). O'zbek tilidagi unli fonemalar tizimi va ularning fonologik oppozitsiyasi. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 4(10), 186–190.
3. M.Hamdullayeva, E.Kurbanov. (2023). *O'zbek tilshunosligida fonologik qarashlar*. TADQIQOTLAR, [S. I.], v. 58, n. 2, p. 311–314, 2025.
4. M.Ergasheva, M.Abduljalilova, F.Usmonov. (2021). *Fonologik oppozitsiyalar*. Toshkent: Ilmiy Jurnal, 24(3), 285–289.

**Charos UMAROVA,**  
 Qarshi shahridagi Turon  
 universiteti, 2-kurs magistranti

## EPONIMLARNING AMALIY QO'LLANILISHI VA TARJIMASI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida qo'llaniladigan eponimlarning lingvokognitiv xususiyatlari, ularning amaliy qo'llanilishi hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik, madaniy va konseptual muammolar tahlil qilinadi. Eponimlar nafaqat leksik birlik, balki madaniy kodni tashuvchi kognitiv birlik sifatida faol ishlatilishi misollar asosida ochib berildi. Shuningdek, tarjimada ekvivalent tanlash, konseptual yukni saqlash, milliy-madaniy mazmunni to'g'ri yetkazish masalalari yoritildi.

**Kalit so'zlar:** *eponim, lingvokognitiv tahlil, tarjima, konseptual freym, ingliz tili, o'zbek tili, leksik birlik.*

**Annotation:** the article analyzes the linguocognitive features of eponyms, their practical usage, and the semantic, cultural, and conceptual challenges that arise during the translation process. The study is based on lexico-cognitive, comparative, and translation studies methods. The results showed that eponyms function not only as lexical units but also as cognitive units carrying cultural codes. Furthermore, the study addresses issues related to choosing equivalents in translation, preserving conceptual load, and accurately conveying national and cultural meanings.

**Key words:** *eponym, linguocognitive analysis, translation, conceptual frame, english language, uzbek language, lexical unit.*

**Аннотация:** в статье анализируются лингвокогнитивные особенности эпонимов, их практическое использование, а также семантические, культурные и концептуальные проблемы, возникающие в процессе перевода. Исследование основано на методах лексико-когнитивного, сравнительного анализа и переводоведения. Результаты показали, что эпонимы функционируют не только как лексические единицы, но и как когнитивные единицы, несущие культурный код. Кроме того, рассматриваются вопросы выбора эквивалентов при переводе, сохранения концептуальной нагрузки и точной передачи национально-культурного содержания.

**Ключевые слова:** *эпоним, лингвокогнитивный анализ, перевод, концептуальная рамка, английский язык, узбекский язык, лексическая единица.*

**Kirish.** Yangi O'zbekistonda kuchli ma'naviyatga erishish uchun "O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart" ligi'ni ko'rsatadi. Shu sababli tilshunoslik ilmi sohasida ham nazariy tadqiqotlarni jahon andozalari darajasida yuksaltirishdek ustuvor vazifalarni hal qilishga to'g'ri keladi. Madaniyat tarixi, inson psixologiyasining o'ziga xos xususiyatlari, urf-odatlar va boshqa omillarni hisobga olgan holda, otlar keng kategoriyali tarmoqqa ega. Bizningcha, aynan ism haqidagi ma'lumotlar undan olingan eponim ma'nosini tarixiy-madaniy boy mazmun bilan boyitadi.

Eponimlar — tilning tarixiy, madaniy va intellektual qatlamini aks ettiruvchi maxsus leksik birliklar bo'lib, ular shaxslar, kashfiyotlar, adabiy obrazlar yoki geografik nomlar asosida shakllanadi. D.Crystalning "Eponimlar til taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi, chunki ular jamiyatdagi ilmiy, texnik, madaniy o'zgarishlarni aks ettiradi"<sup>2</sup>, — deb ta'kidlagan fikriga qo'shilish mumkin. Chunki ular axborotni avloddan-avlodga uzatuvchi noyob informatsion lingvistik birliklardir.

Ingliz tilida eponimlarning qo'llanilishi juda keng. Masalan,

*Darwinism, Fahrenheit scale, Boycott, Sandwich, Diesel engine* kabi birliklar nafaqat nom, balki konseptual mazmun tashiydi. O'zbek tilida ham *Temuriylar qomusi, Beruniyona tafakkur, Navoiyona muhabbat, Xorazmiy algoritmi, Ulug'bek jadvallari* kabi eponimlar fanga, adabiyotga va tarixga oid konseptlarni aks ettiradi.

Ma'lumki, har qanday tilning eng faol qismi uning leksik sathi hisoblanib, doimiy ravishda yangi so'z va atamalar bilan boyib boradi. Bu jarayonda inson aralashuvining roli beqiyos. Tilshunoslik evolyutsiyasida til hamisha asosiy rakurs hisoblangan. Tilshunoslikning bugungi taraqqiyot bosqichida til tizimi va inson lisoniy faoliyati mexanizmini til egasi bo'lgan shaxs, uning lisoniy ongi va tafakkuri, ruhiyati; nutqiy vaziyat, ijtimoiy muhit, xalq madaniyati kabi omillar bilan bog'liqlikda o'rganishga e'tibor kuchaymoqda.

Eponimlarning lug'aviy ma'nosi, semantik kengayishi, tarixiy kelib chiqishi, madaniy kod, kognitiv modellarga mosligi, ingliz va o'zbek eponimlarining tuzilishi, qo'llanish doirasi, semantik yuk, madaniy xususiyatlar asosida solishtirib, uning amaliy ahamiyatini yoritish ijtimoiy jihatdan hayotiyilgini ifodalaydi.

Ingliz tilidagi eponimlar amaliy qo'llanilishi jihatidan uch yirik guruhda namoyon bo'lishi o'rganilgan:

**1. Ilmiy-texnik eponimlar.** Bu eponimlar ilm-fan terminologiyasining asosiy qismidir. Masalan:

— *Newtonian mechanics* — Nyuton qonunlariga asoslangan fizika;

1 Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрдаги Олий мажлисга мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабрь. — № 258 (6952).

2 Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press. 25 avg. 2003 г. — Сtp. 506.

- *Fahrenheit* — harorat shkalasi;  
 – *Pasteurization* — Lui Paster texnologiyasi;  
 – *Fibonacci numbers* — matematik qator.

**2. Adabiy-obrazli eponimlar.** Bu eponimlar adabiy-badiiy obrazlarning ijtimoiylashuvi bilan bog'liq jarayonda paydo bo'lgan deyish mumkin. Jamiyat-xalq munosabatlarini tahlil qilishda taqqoslash natijasida mazkur eponimlar qo'llanilgan.

**3. Ijtimoiy-madaniy eponimlar.**

- *Sandwich, boycott, mentor, lynch law, silhouette*

Bu birliklar tilning so'z yasash imkoniyatining kuchligini ko'rsatadi.

*Sandwich* – sendvich (non o'rtasida turli mahsulotlar bilan tayyorlanadigan yengil ovqat);

*Boycott*– boykot (ijtimoiy norozilik sifatida mahsulot yoki xizmatdan voz kechish);

*Mentor* – murabbiy, ustoz, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi shaxs;

*Lynch law* – lynch qonuni (ruxsatsiz jazolash, odatda jamoa tomonidan amalga oshiriladigan qattiq jazo);

*Silhouette* – siluet (shakl yoki kontur orqali ko'rinadigan tasvir).

Keltirilgan misollar mazmunidan ko'rinadiki, eponimlar ismlar ishtirokida shakllangan atamalar bo'lib, antropotsentrik tabiatiga ko'ra, bilish jarayonlarini o'rganish nuqtayi nazaridan katta qiziqish uyg'otadigan, boy semantik qatlamga ega so'zlardir. Atamashunos N.V.Podolskaya fikriga ko'ra, eponim qandaydir vosita bilan tanilgan shaxs nomi bo'lib, u boshqa har qanday onimni yuzaga keltiruvchi

omil hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, eponim ijtimoiy hayotning ko'pgina jabhalarida, jumladan, tibbiyot, texnika, iqtisod, siyosiy sohalarida mavjud va yashab kelmoqda.

O'zbek tilidagi eponimlarning amaliy qo'llanilishi ham keng ko'lamdorlikka ega.

Tarixiy shaxs eponimlari – Temuriylar davri, Boburiylar davri, Feruz davri;

Adabiy eponimlar – Navoiyona muhabbat, Fuzuliyona iztirob, Alpomishona jasorati;

Ilmiy eponimlar – Xorazmiy algoritmi, Ulug'bek jadvali, Ibn Sino tabobati kabilar.

O'zbek tilida eponimlarning milliy-madaniy mazmuni kuchli, ular ko'proq tarixiy-adabiy konseptlar bilan bog'liq.

A.A. Beleskiy atoqli nomlarga funksional yondashishga amal qilgan holda, gnoseologik jihatdan onomastik identifikatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini qayd etadi: "Atoqli nomlarning vazifasi diskret obyektlarni (tarkibiy qismlarni) aniqlash, umumiy nomlarning vazifasi esa identifikatsiya qilish (tushunchalar), voqelikning lingvistik kvantlari"dir<sup>3</sup>.

Atoqli otning nomdosh birlikda ishlashini tahlil qilishdan kelib chiqqan holda, shuni hisobga olish muhim ko'rinadiki, umumiy va atoqli nomlarni solishtirganda ma'no muammosi eng muhimi hisoblanadi, chunki tildagi tegishli nomlarning malakasi uning yechimiga bog'liq.

Aytish mumkinki, eponimlar inson ongida tayyor konseptual model yaratadi. Masalan:

3 Белецкий А. О. О языке и языкознании. Киев: Артэк, 1997. – С 74.

| Eponim                    | Konsept           | Lingvokognitiv yuk            |
|---------------------------|-------------------|-------------------------------|
| <i>Darwinism</i>          | evolyutsiya       | tabiiy saralanish modeli      |
